

TAFAKKUR ZIYOSI

*Tafakkur ziyosi 4/2022
ilmiy uslubiy jurnal*



“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot - bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasidagi nutqidan

BOSH MUHARRIR

Shavkat Safarovich Sharipov –
pedagogika f. d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI

Usmonjon Qosimov – fil. f. d.
G'ayrat O'roqboyevich Qodirov –
biologiya f. n., dotsent

MAS'UL KOTIB

Farrux Aqchayev – tarix f. b. f. d., dotsent

TARJIMONLAR:

Zubayda Jumayeva – filologiya f. b. f. d.
(rus tili bo'yicha)

Eldar Hasanov – Rus tili va adabiyoti
fakulteti dekani
(rus tili bo'yicha)

Anora Jabborova – filologiya f. b. f. d.
(ingliz tili bo'yicha)

Dildora Baxriddinova – katta o'qituvchi
(ingliz tili bo'yicha)

TEXNIK MUHARRIR:

Murodulla Jo'rayev – filologiya
f. b. f. d., (PhD)

NAVBATCHI MUHARRIR:

Elmira Hazratqulova – filologiya f. b. f. d.,
(PhD)

SAHIFALOVCHI

Zuxra Salkinova

**Jurnal andozasi Raqamli ta'lim
texnologiyalari markazida**

Zarina Abdusattorova
tomonidan tayyorlandi

Muassis - Jizzax davlat

pedagogika universiteti

Jurnal yilda 4 marta

(har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan ko'chirma
va ma'lumotlar aniqligi uchun
mualliflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda,
manba qayd etilishi shart.

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Anatoliy Sagdullayev – tarix f. d., akademik

Komiljon Tojiboyev, biologiya f. d., akademik

Jak Miklovik – INSHEA universiteti professori (Fransiya)

Vasiliy Kochurko – Baranovich DU professori, texnika f. d.
(Belorussiya)

Gulsem Lekerova – psixologiya f. d., professor (Janub. Qozog'iston)

Furqat Jo'raqulov – siyosiy f. d., dotsent

Botir To'xtamishov – texnika f. n., dotsent

Sarvar Nazarqosimov – sotsiologiya f. b. f. d. dotsent

Baxtiyor To'rayev – falsafa f. d., professor

Qozoqboy Yo'ldoshev – pedagogika f. d., professor

Xolbo'ta Turaqulov-texnika f. d., professor

Umrzoq Jumanazarov – filologiya f. d., professor

Abdug'afur Mamatov - filologiya f. d., professor

Rahmatulla Bekmirzayev – fizika-matematika f. d., professor

Oybek Axmedov – filologiya f. d., professor O'zDJTU

Faniya Axmedshina – tarix f. d., professor

Baxti Ochilova - falsafa f. d., professor

Hamid Meliev – pedagogika f. n., professor

Xudoybergan Mavlonov – biologiya f. d., dotsent

Qo'chqor Hakimov – geografiya f. n., professor v. b.

Mo'min Hoshimxonov-falsafa, filologiya, f. d. doktori

Furqat Axmedov - pedagogika f. n., professor

Akbar Saitqosimov – falsafa f. d., professor

Zuhra Yaxshiyeva, kimyo f. d., professor

Abdunazar Nurmonov, pedagogika f. d., professor

Rustam Abdurasulov – psixologiya f. d., dotsent

Marat Sultonov-kimyo f. d., dotsent

Ilyos Islamov, tarix f. d., dotsent

Omon Isarov, filologiya f. d., dotsent

Muxtorqul Paradaev - tarix f. n., dotsent

Rabbim Yusupov – texnika f. n., dotsent

Oleg Kim – filologiya f. n., dotsent

Abduvali Shamshiyev – iqtisod f. n., dotsent

Sunnatullo Soipov – filologiya f. n.

Yulduz Karimova – filologiya f. n., dotsent.

Kamoliddin Zoyirov, pedagogika f. n., dotsent

Sherali Abduraimov – pedagogika f. b. f. d., dotsent

To'ychi Axmedov – tarix f. b. f. d., dotsent

Feruza Jumayeva, filologiya f. f. d., dotsent

Bobomurot Toshboyev, falsafa f. f. d., dotsent

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa va pedagogika fanlari bo'yicha ekspert kengashi (2018-yil 29-dekabrda 260/6-son bayonnomasi) tavsiyasi bilan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181- 6131

MANZIL: 130100, Jizzax shahri,
Sh. Rashidov ko'chasi, 4-uy, bosh bino
TELEFON: (99872) 226 02 93,
(99897) 644 84 44
FAKS: (99872) 226 46 56

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
MATBAA BO'LIMI

Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy
2022-yil 25-dekabr kuni bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi A4 Buyurtma: _____

Nashr adadi: 100

MUNDARIJA

TAQVIM:

O'qituvchi va murabbiylar kuni Abdulla Qahhor. XAT.....	3
U.Qosimov, S.Soyipov Adabiyotimizning tong yulduzi Cho'pon tavalludining 125 yilligiga.....	4

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

D.O.Himmataliev, M.A.Fayzullaeva Issues of organizing and developing the educational process based on digital technologies in the conditions of educational cluster.....	8
O.S.Abdullaeva, G.A.Xusayinova Развитие информационно – управленческих компетенций будущих специалистов в процессе имитации концептуальной модели.....	11
L.M.Turikova Uzlaksiz ta'lim tizimida inson resurslarini boshqarish.....	14
E.M.Tajiboyev Ilg'or pedagogik texnologiyalar vositasida ta'lim samaradorligini ta'minlash yuzasidan amaliy tajribalar mohiyati.....	18
A.E.Begbo'tayev, G.O.Davronova Ommaviy ochiq onlayn kurslar ta'lim sifatini oshirish vositasi.....	23
D.R.Yunosov, X.H.Xamzayev Talabalarda pedagogik hurfiylilikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari.....	27
M.R.Isaqlulov Innovatsion yondashuv asosida yuqori sinf o'quvchilarini jaholatga qarshi ma'rifat ruhida tarbiyalashning shakli va vositalari.....	30
B.S.Mavlyanov Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlari orqali talabalar sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....	35
J.B.Orishev Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda loyihalash texnologiyasidan foydalanish.....	37
T.B.Nazarov Tanqidiy-tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar tadqiqi.....	42

AMALIY FANLAR

F.Q.Axmedov, N.S.Kulboyev Oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy madaniyatini rivojlantirish masalalari.....	45
A.N.Kalliyev Vokal ijrochiligi va texnikasini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	49
N.O.Berduliyev Arxitektura yo'nalishi talabalarining badiiy-grafik tayyorgarligini rivojlantirish muammolari.....	54
I.Qudratov, E.I.Abdulkarimova Bastakorlik ijodining maktab ta'lim tizimida o'rganish usullari.....	59
U.L.Kuchkarov Ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini tashkil etishda sport mutaxassislarining o'rni.....	63
M.M.Yusupov Texnologiya fanida o'qituvchilarning ta'lim natijalarini baholash va tashxislash faoliyatiga tayyorlashda bilimlar uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash.....	66
M.A.Amanbayev, G.Y.Smaylova Badiiy bezash ishlarida amaliy san'atning tutgan o'rni.....	70
R.T.Umarov O'quvchilarda mehmon kutish odobi bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.....	72
S.Sh.Urinova Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi va kreativligini oshirishda musiqiy-nazariy fanlar o'rni va ahamiyati.....	76
N.H.Nasriddinova The development of theater art in uzbekistan during the years of independence (in the case of the mannon uighur musical-drama theater of surkhandarya region).....	81

IJTIMOY FANLAR

A.Saitkasimov Ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyati.....	84
B.M.Ochilova O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xotin-qizlarga nisbatan davlat siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.....	88
D.A.Abdurahimova, T.M.Burxonov Ma'naviy-axloqiy fazilatlar komillik timsoli sifatida.....	93
A.X.Amonlayev Islom ilohiyoti va ma'rifatida shaxs ma'naviy qiyofasi talqini.....	96
R.K.Kurbaniyazova Shaxs mentaliteti shakllanishining asosiy omillari.....	98
J.A.Suvankulov Mahallalarda tabiiy ekologik muhitga ega bo'lish huquqining konstitutsiyaviy asoslari.....	102
A.E.Shaymanova Jamiyatda mulkdorlar qatlamining rivojlanishi genezisi va transformatsiyasi.....	104
R.I.Ablyakimova Xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi o'rni.....	108
O.Shukurov Globalashuv davrida yoshlar ijtimoiy faolligini yuksaltirishning innovatsion omillari.....	110
X.R.Abdullayeva Ilmiy bilish imkoniyatlari masalalariga doir mulohazalar.....	112

FILOLOGIYA FANLARI

M.M.Pirnazarova Alisher Navoiy merosining Omon Matjon poetik mahoratidagi zuhuri.....	116
M.Jo'rayev Abdulla Qahhor ijodida komik xarakter va badiiy talqin.....	119
N.A.Kadirova Local folk tales as an effective tool for memorizing vocabulary.....	122
K.D.Khaydarova O'zbek, rus va ingliz tillarida anor so'zining lingvokulturologik tahlili.....	125
L.A.Masharipova Connection between language and society.....	127
M.Sh.Mardiyeva The role of learning language in teaching.....	129
I.Q.Bo'ronov Alisher Navoiy ijodida aks etgan boshqaruv masalasiga oid ba'zi mulohazalar.....	132
D.G'.Ochilov Frazeologik sinonimlarning leksik formal tarkibi tadqiqi.....	136
N.A.Bo'tayeva Komil Xorazmiy g'azallarida obrazlar poetikasi.....	139
M.T.Norbaboyeva Yetimlik mavzusining milliy istiqlol konsepsiyasi asosidagi poetik ifodalanishi.....	142
I.R.Kazakov Lakunalarda milliy-madaniyatning ifodalanishi.....	146

TABIY VA ANIQ FANLAR

K.M.Xakimov Tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishda geografik nomlarning o'rni va ahamiyati.....	149
R.M.Yusupov, B.B.Abdug'aniyev Maktab o'quvchilarida loyihalash madaniyati mazmuni.....	152
A.Shamshiyev, Sh.Xasanova, S.Asrayev Umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....	157
K.X.Rashidova, O.J.Akbarova G.Sh.Qayumova "Aminlar va aromatik aminlar" mavzusini interfaol usullarda o'qitish metodikasi.....	161
D.Muradova, M.Kamolova Kataliz mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o'qitish.....	165
Э.Б.Каршиев Структурообразование в суспензиях глини.....	168
S.S.Aliqulov Kredit – modul tizimida talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish.....	171
X.N.Karimo Oliy ta'limda virtual laboratoriya ishlari talabalarining mustaqil ishi shakli sifatida.....	176
Sh.R.Bobobekov Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda blokcheyn texnologiyasidan foydalanish.....	180
N.I.Muminova, M.S.Inatova, M.G'.Usmanova Eritma konsentratlari mavzusini o'qitishning pedagogik asoslari.....	184

YOSH TADQIQOTCHILAR

S.Q.Eshboyeva Ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirish (1-4-sinf misolida).....	187
N.A.Khanturayev Sports oriented games freestyle wrestlers must perform to enhance their general physical preparation.....	191
Z.Usmonov O'quvchilarda huquqiy dunyoqarashni rivojlantirishda pedagogik praktsiologiya.....	195
M.Y.Boysariyev Ozarbayjon diasporasi vakillarining O'zbekiston madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.....	197
G.M.Abdullayev O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida ona obrazi orqali xalq og'zaki ijodining ko'rinishi.....	202
O'.H.Mavlonova Kinoya xususiyatlari va muallif modalligining tarkibiy qismi sifatida ifodalanishi.....	204
V.Shamshiyeva Jamiyatda inson qadri va ijtimoiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish barqaror taraqqiyot kafolati.....	207
E.K.Moydinova Bo'lajak maktabgacha ta'lim ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tuzilmasi.....	209
M.Q.Toshpo'latova Ingliz tilini o'qitishda korpusga asoslangan resurslarning tasnifi.....	212
M.M.Xamrakulova Emotsional-ekspressiv frazeologizmlarning lingvistik asoslari.....	215

TAQVIM:

O'qituvchi va murabbiylar kuni

Abdulla Qahhor XAT

Texnikumning tayyorlov bo'limiga kirgunimcha, har xil maktab va o'qituvchida o'qib, xatim juda xunuk bo'lgan ekan, buni shu yerda, birinchi darsda payqadim. Birinchi darsga Muhammadjon Xoliqiy degan novcha bir o'qituvchi kirdi, biz bilan salomlashdi-yu, indamay borib, taxtaga ikki qator she'r yozdi. O'qituvchining xati shunday chiroyli ediki, butun sinf baravariga «U-uv!» deb yubordi, o'qituvchi bizga yuzlandi.

– Nima gap?

– Xatingiz judayam chiroyli ekan!

– Bundan chiqdiki, sizlarning xatlaring xunuk ekan-da! Xatlaring xunuk ekanini bilsalaring, demak, menday chiroyli yozadigan bo'lasizlar.

Odatda yangi o'qituvchidan bola begonasiraydi, uning fe'l-atvorini bilib olgunicha tortinadi, hatto qo'rqadi. Biz bu o'qituvchiga darrov lol bo'lib qoldik: shunday chiroyli yozadigan o'qituvchi nazarimda faqat xush-fe'l, faqat mehribon bo'lishi kerak edi.

Bu o'qituvchiga mehrimiz tushdi. Uning oq oralagan cho'qqi soqoli, kulganida ko'zlari atrofida paydo bo'ladigan mayda ajinlari, hatto burnining o'ng tomonidagi bir-ikkita cho'tiri ham o'ziga juda yarashar edi.

Boyagi ikki satrni o'qituvchidagi chiroyli yozishga urinib biron yuz marta ko'chirgandirman!

Ona tiliga doir hamma yozuvlarni chiroyli yozadigan, bu darsdan hamisha a'lo baho oladigan bo'ldim. Keyinchalik shuni payqadim: qaysi darsni chiroyli yozmasam, o'sha darsdan pastroq baho olar ekanman. Men avvallari, «Bu darsni xushlamaganim uchun chiroyli yozishga hafsala qilmasam kerak», deb o'ylagan edim,

yo'q, chiroyli yozishga urinib qayta-qayta ko'chirish darsni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam berar ekan.

Shundan keyin boshqa darslarni ham chiroyli yozishga, darsda shoshib yozgan yozuvlarimni chiroyli qilib ko'chirishga harakat qiladigan bo'ldim, bora-bora shunga odatlanib qoldim: hamma darsdan a'lochi bo'ldim.

Bir yilga qolmay xatim xiyla chiroyli bo'lib qoldi. Ikkinchi o'qish yilining boshida meni devoriy gazetaga «mudir va muharrir» qilib saylashdi. Bizning sinfdagina emas, butun maktabda xunuk yozish ayb bo'lib qoldi. Kimdir xunuk xatga «Chuvolchang» deb ot qo'yipti. Xunuk xatni ko'rsak, «Bir chuvolchang», «Bir daftar chuvolchang» deb kular edik. Bu gapni eshitib o'qituvchimiz xup kuldilar, ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Hali-hali qo'limga qalam olsam, tepamda Muhammadjon domla «chuvolchang» deb turganga o'xshaydilar.

1965-yil

60 ga kirib bildim: umrim bekorga o'tmapti, odamlarga kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman.

Ko'pgina hunarmandlar qariganda suygan hunaridan mamnun bo'ladi: uloqchi ot chopolmaydi, surnaychi yaxshi pufololmaydi, rinchi oyog'ini ko'tarolmay qoladi. Yozuvchi dutor yoki vinoga o'xshaydi – eskirgan sayin ochiladi, quvvati oshadi.

Eson-omon oltmishga kirganimga xursandman. Bu to'g'rida birdan-bir xursand bo'ladigan joyim bor: yozuvchilikda qirq yillik tajriba orttirdim. Bu tajriba umrimning qolgan qismini samarali o'tkazishimda menga juda qo'l keladi.

1967-yil

ADABIYOTIMIZNING TONG YULDUZI CHO'L PON TAVALLUDINING 125 YILLIGIGA

Usmonjon Qosimov – f.f.d., Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sunatulla Soyipov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyoti zabardast vakili Cho'lpon hayoti va ijodining muhim qirralari yoritiladi, adibning so'z san'atkorligi va badiiy mahorati uning o'ziga xos she'riy va nasriy asarlari misolida ko'rsatiladi. Shu bilan birga Cho'lponlar yashab ijod qilgan mash'um sovet siyosati va mafkurasini adabiyotimizga qanchalar zarar yetkazgani ham bayon qilingan.

Аннотация: В данной статье освещаются важные стороны жизни и творчества Чолпона, ведущего представителя узбекской литературы XX века, а также показывается писательское слово и художественное мастерство на примере его уникальных поэтических и прозаических произведений. В то же время объяснялось и то, какой вред нанесла нашей литературе гнусная советская политика и идеология, созданная Чолпонами.

Abstract: This article highlights important aspects of the life and work of Cholpon, a leading representative of Uzbek literature of the 20th century, and shows the writer's word and artistic skills on the example of his unique poetic and prose works. At the same time, it was also explained how much damage the infamous Soviet policy and ideology created by the Cholpons did to our literature.

Kalit so'zlar: adabiy muhit, jadid adabiyoti, sotsialistik mafkura, milliy uyg'onish, poetik mahorat, so'z san'atkorligi, til boyligi, tarjimachilik maktabi, teatr va dramaturgiya.

Ключевые слова: литературная среда, современная литература, социалистическая идеология, национальное возрождение, поэтическое мастерство, искусство слова, языковое богатство, переводческая школа, театр и драматургия.

Keywords: literary environment, modern literature, socialist ideology, national revival, poetic skill, word art, language richness, school of translation, theater and dramaturgy.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ko'p qirrali iste'dod sohibidir. U, eng avvalo, hassos shoir sifatida tanilgan va o'zbek she'riyatida tom ma'nodayangi ufoqlar ochgan. Ayni chog'da, uning yangi o'zbek nasri va dramaturgiyasi, badiiy tarjima, publitsistika, tanqid va adabiyotshunoslik sohalaridagi xizmatlari ham beqiyosdir. Cho'lpon ehtirosli, yoniq asarlari bilan o'zbek xalqining milliy ongini uyg'otishda, uning yangicha ma'naviyatini shakllantirishda katta xizmat qildi va chin ma'noda umumxalq shoiri, milliy san'atkor darajasiga ko'tarildi.

Afsuski, Cho'lpon ham xalqimizning boshqa asl farzandlari kabi Stalin qatag'onining qurboni bo'ldi – 1938-yili "xalq dushmani" sifatida otib tashlandi, asarlarini nashr etish, nashr etilganlarini o'qish va umuman, Cho'lpon nomini tilga olish qat'iy taqiqlandi. Faqat 1956-yili Stalin shaxsiga sig'inish oshkora qoralangandan keyingina Cho'lpon ham oqlandi. Ammo shundan keyin yana 30 yillar mobaynida ulkan adibning asarlari nashr qilinmadi, ijodi o'rganilmadi,

adabiyotdagi o'z o'rniga qaytarish ishi paysalga solib kelindi. XX asr 80-yillari o'rtalarida sobiq mamlakatda qayta qurish va oshkoralik jarayoni boshlangach, ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, Cho'lponga nisbatan yo'l qo'yilgan adolatsizlik barham topa boshladi. Qisqa muddatda uning "Bahorni sog'indim", "Yana oldim sozimni" va "Adabiyot nadur?" nomli kitoblari, uch jildlik saylanma asarlari bosildi. Teatr sahnalarida dramalari qo'yila boshlandi. "Kecha va kunduz" romani asosida videofilm yaratildi, shoir to'g'risida ko'plab maqolalar va risolalar e'lon qilindi, uning hayoti va ijodini yorituvchi hujjatli film dunyoga keldi, muntazam bo'lmasa ham, Cho'lpon kunlari o'tkazila boshlandi, Cho'lpon ijodi haqida dissertatsiyalar yoqlandi. Abdulla Qodiriy va Fitrat bilan birga Cho'lpon ham Alisher Navoiy nomidagi Respublika davlat mukofoti bilan taqdirlandiki, bu ham xalqimizning buyuk san'atkor ijodi va xotirasiga yuksak ehtiromidan nishonadir. Cho'lponning ijodkorlar safiga qaytishi adabiyotimiz

tarixidagi kemtiklikni to'ldiradi, uning asarlari esa adabiyot bosib o'tgan murakkab yo'llari haqidagi tasavvurimizni boyitibgina qolmay, bugun ham bizga katta zavq bag'ishlaydi. Ular insoniy mazmunining teranligi, g'oyalarning baland pardalarda kuylangani bilan birga, chinakam san'at namunalari sifatida biz uchun g'oyat ardoqlidir. XX asr boshlarida adabiyot olamiga kirib kelgan bir guruh yozuvchilar orasida Cho'lpon alohida o'rin tutadi. U dastlab vaqtli matbuotga kichik-kichik xabarlar bilan ko'rina boshladi. Tez orada davrning dolzarb mavzulariga bag'ishlab yozilgan she'r va hikoyalari bois Cho'lpon el og'ziga tushdi. Uning 1914-yilda "Sadoi Turkiston" gazetasida e'lon qilingan "Qurboni jaholat" va "Duxtur Muhammadiyor" sarlavhali hikoyalari Cho'lponning adabiyotga ilk qadamlaridanoq mustamlaka sharoitida g'aflat og'ushida qolgan xalqni uyg'otish, uning qalbiga ma'rifat, milliy taraqqiyot va Istiqlol kabi ezgu g'oyalarni singdirishga kirishganidan shahodat berar edi. Jadid adabiyotining bu g'oyalari Cho'lpon ijodining asosini tashkil etadi. Jadid adabiyoti nomoyandalari hayoti va ijodini chuqur o'rgangan atoqli olim, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov va bu mavzuda yirik tadqiqotlar yaratgan adabiyotshunoslarimiz ta'kidlaganidek, buyuk ziyoli-adiblarimizning eng muqaddas orzu-armoni davlat to'ntarishi va yoki qonli to'qnashuvlar bilan amalga oshiriladigan inqilob emas, balki Istiqlol edi. Ularning betakror iste'dodi, navqiron yigitlik umrlari ana shu orzu-tilak yo'lida baxshida bo'ldi, aziz boshlari, shirin jonlari ham shu yo'lda ajal domiga tortildi¹

XIX asr so'ngi va XX asr boshlarida tarixiy zaruriyat tufayli vujudga kelgan jadidchilik xalqni milliy o'zligini anglashga va mustaqillikka da'vat etishi, millat dardlariga darmon bo'lishi davr talabi edi. Afsuski, eng faol, millatparvar kuch sifatida maydonga kelgan jadidchilik harakati, adabiyotining asl maqsadi va ulkan ijtimoiy-siyosiy ahamiyati ko'plab tarixiy-adabiy manbalarda butunlay biryoqlama talqin etildi. Behbudiy va Qodiriy, Fitrat va Cho'lponlar asos solgan jadid adabiyoti tarixiy haqiqatni favqulodda katta jasorat va mahorat bilan xalq, millat manfaatlarini nuqtayi nazaridan haqqoniy aks ettirgan. Ammo adabiy-estetik tafakkurimizning yuksak bir bosqichi bo'lgan

jadid adabiyotining bu kabi yorqin qirralari xolis baholanmasdan, aksincha, keskin qoralangan.

Mazlum xalq boshidan kechirgan erksizlik va xunrezliklar shu davrda yaratilgan ko'plab realistik asarlarda, xususan, Cho'lpon she'riyatida haqqoniy aks ettirilgani Mustaqillikdan so'nggina keng jamoatchilikka ayon bo'lmoqda. Binobarin, Cho'lponning

*"Qip-qizil qon bo'lib kunlar botadir,
Yomon hidga to'lib tonglar otadir".*

satrlari zamirida erk-huquqsiz xalqning unsiz iztirob-nolalari ham ifodalangan edi. Chorizm zulmi ostida ro'y bergan bunday xunrezliklar millionlab hamyurtlarimizning yostig'ini quritib qolmasdan, balki jannat misol butun o'lkamizni vayron qilgan, obod shahar va qishloqlarimizni ham xarobaga aylantirgan. Cho'lponning 1921-yili yozilgan "Yong'in" nomli she'rida aks ettirilgan davr fojialari unga epigraf qilib olingan quyidagi xabar orqali ham aks etgan:

*"Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q,
Go'daklar nayza boshida"(Xabar).*

She'rdagi har bir misra bu og'ir fojiani ta'kidlash bilan birga mudroq uyqudagi xalqni erk-ozodlik uchun kurashga da'vat etadi. Binobarin, shoir qalbidan bamisoli qon kabi sizib chiqqan satrlar nafaqat og'riqli savollar, balki ular o'sha yillar xalqimiz boshidan kechirgan fojialarning haqqoniy manzaralari hamdir.

*Shunday katta bir o'lkada yonmagan,
Yiqilmagan, talanmagan uy yo'qmi?
Bir ko'z yo'qmi qonli yoshi tommagan,
Butun ko'ngli umidsizmi, siniqmi?..*

Bunday she'rlar o'shayillari hukmron sinfiy mafkura tomonidan millatchilik ruhida yozilgan va sotsialistik hayotni buzib tasvirlovchi g'oyaviy zararli asarlar sifatida keskin qoralangan bo'lsa-da, aslida, ular chinakam millatparvar shoir Cho'lponning shafqatsiz realizmidan, Qodiriydek haqqo'yligidan dalolat edi. Cho'lpon she'riyatining ana shunday chuqur hayotiyli va haqqoniyli ta'kidlagan atoqli allomamiz, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov shoir she'riyatini "Zamonning nufuzli badiiy hujjati" deya ta'riflaganda to'la haq edi². Chinakam millatparvar shoirimiz Cho'lpon o'zining 1919-yili yozgan "O'zbekim" nomli she'rida ham faxr va armon bilan ulkan tarixiy haqiqatni ifodalovchi shunday satrlarni

¹ Ozod Sharafiddinov. Ch'lon. T.:1991.38-6.

² Ch'lon. Yana oldim sozimni. T.: 1991.418-6. Кейинги шеърин мисоллар ҳам шу манбадан олинади.

bitgan edi:

*Dunyoda hamma xalq qiziqqan gavhardek
bebaho ot edi,
Hurriyat bo'lganda sen kelding minayin
semirgan otga deb.
Og'zingga mallalar bir tepdi ma'rifat xaromdir
sartga deb...*

Bu satrlarda tarixiy o'tmishimiz va xalqimiz, millatimizning buyuk daholari bo'lgan Beruniy, Farg'oni, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Navoiy va Bobur kabi ulug' ajdodlarimizdan qolgan bebaho ilmiy-adabiy merosimiz va uning mustamlaka davrida qadrlanmasdan, aksincha, inkor etilgani chuqur aks etib turadi. Cho'lpon haqida so'z borganda, birinchi navbatda, "Vijdon erki", "Ko'ngil", "Kishan" singari ruhning, qalbning hur bo'lishligi to'g'risidagi she'rlari yodga keladi. Ana shu tuyg'u shoirning "Yong'in", "Buzilgan o'lkaga" singari Sho'ro hokimiyatining kirdikorlarini, milliy siyosatining reaksiya mohiyatini fosh etuvchi she'rlarida kuchli aks-sado berib, Istiqlol uchun kurash g'oyasi bilan tutashib ketgan. Shu kabi she'rlar o'z davrida xalqning peshqadam vakillarida milliy mustaqillik va ijtimoiy taraqqiyot uchun kurash g'oyasini uyg'ota olganligi ayni haqiqatdir. Cho'lpon iste'dodi g'oyatda serqirradir. U shoir va nosir, dramaturg va tarjimon, adabiyot va san'at bilimdoni edi. Cho'lpon adabiy ijod bilan shug'ullana boshlagan yillarda o'zbek madaniy hayotiga teatr san'ati kirib keldi. Shoir yangi tashkil topgan teatr truppalari qatnashib, kichik sahna asarlari yozadi. Uning qalamiga mansub "Boy", "Xalil farang", "Cho'ring isyoni", "Yorqinoy" dramalari ana shu hamkorlik mahsulidir. 1924-yili Moskvadagi "Buxoro maorif uyi"da o'zbek drama studiyasi tashkil etilgandi, Cho'lpon adabiyotchi va tarjimon sifatida o'zbek professional teatr jamoasining paydo bo'lishiga ulkan hissa qo'shgan. O'zbek teatr san'atining beshigi — hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatrining asoschilaridan biri bo'lgan Cho'lpon sahna san'atini yaxshi bilgan. Moskvadagi badiiy teatrning, shuningdek, Vaxtangov va Meyerhold teatrlarining badiiy tajribalari va an'alarini puxta o'zlashtirgan san'atkor sifatida o'zbek drama artistlari avlodining shakllanishiga ham ko'maklashgani manbalardan yaxshi ma'lum. U dastlab bu teatr uchun jahon mumtoz adabiyoti namunalarini tarjima qilib berdi. Keyinchalik o'zbek tilining

nozik va nafis jilolarini teran his etgan shoir Shekspir, K.Goldoni, K.Gotsi, A.Pushkin, Krilov, M.Gorkiy kabi buyuk adiblar asarlarini o'zbek kitobxonlari mulkiga aylantirdi. Bu bilan milliy adabiyotimizning jahon mumtoz va zamonaviy adabiyoti tajribalari bilan boyishiga bebaho hissa qo'shadi. Binobarin, o'zbek zamonaviy tarjima maktabining shakllanib, kamol topishida ham Cho'lponning xizmatlari katta bo'lgan. Cho'lponning zamondoshlari uni avvalo benazir shoir sifatida e'zozlashgan. Xorijiy mamlakatlarda, chunonchi, Turkiyada mashhur bo'lishi ham, asosan, she'riyati tufaylidir. Cho'lpon she'rlaridagi samimiyat, tuyg'u va kechinmalarning bokiraligi, so'zining kamalak jilolari yanglig' tovlanishi kitobxonlarni bugun ham hayratga soladi. Cho'lpon kabi shoirlar milliy adabiyotning avvalgi shavkatini tiklashga jahd etishgan yangi zamonning qaldirg'och vakillari edilar. Turkiston xalqlarining sevimli shoiri va adibi, ozodlik va Istiqlol kuychisi Cho'lpon Sharq va sharqliklar taqdirida o'zini va o'zligini ko'radi. Uningcha, bir zamonlar yer yuzida madaniyat va ma'naviyatni yaratgan u go'zal Sharq ("Dunyoda hamma xalq qiziqqan gavhardek bebaho ot") rus bosqinchilari iskanjasiga tushib qolgan edi. Biroq shoir faxr-iftixor bilan "Kun ham Sharqdan, Oy ham Sharqdan chiqadur" deb Sharqning ozod bo'lishiga ishonadi. Adabiyotshunos olim Botirxon Akram Cho'lponning "Xalq" she'ri haqida fikr yuritib, milliy uyg'onish ilk Istiqloliyat davrining keng miqyosidagi dunyoviy va ilohiy ma'rifatidan bahramand, chin ma'noda Orif Cho'lpon xalq mavzusini bekorga qalamga olmagan, deb hisoblaydi. "Xalq" she'ri 1921-yilda yozilgan bo'lib, ikki qismdan iborat. Shoir she'ring birinchi qismida u xalqning tengsiz kuch-quadratini ulug'laydi:

*Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir³.*

Xalqning ijtimoiy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni, mavqeini, xalq irodasining mislsiz ruhiy-ma'naviy kuchini faqat dengiz bilan, dengiz to'lqinlari bilan tenglashtirish mumkin. Turkistonda sodir etilgan haqsizlik, xunrezliklarning dahshatli manzarasi sitamdiyda xalqning g'azabi, isyonkorlik ruhi, olovdek yonishi, o'ch olishga shaylik bu shunday kuchki, uni to'xtatish mumkin emas:

Xalq qo'zg'alsa, kuch yo'qdirki, to'xtatsun,

3 Abdulhamid Cho'lpon. Go'zal Turkiston. Toshkent "Ma'naviyat", 1997. 5-b.

Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsun.
Xalq qancha jabru sitam ko'rmasin,
falak gardishi aylanib, axir bir kun qasos soati
keladi, xalqning haqligi, xalq istagi o'lmasligini
tarix kech bo'lsa-da, Istiqlolga erishganligimiz
isbotlab berdi:

*Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi,
Xalq istadi: toj-u taxtlar yiqildi.*

Rossiyada zulm saltanatini qulatgan aslida mohiyatan Fevral inqilobi, qo'zg'olon ko'targan harbiy qismlar va boshqa guruhlariga mansub kuchlar emas, balki xalqdir. Asr boshida imperiyaga qaram bo'lib qolgan ikki xonlik toj-taxtini yiqitgan ham aslida xalq, uning irodasi, qahr-u g'azabidir. Ammo xalq ham o'zining imkoniyatlarini bilishi, mutelik, qullik ruhiyatidan qutilishi, kurashish, yaratish tuyg'usi bilan yashashi zarur. Zero, "Bu tunda yorug' sham yonmas, Chaqmasa gugurti asl o'g'illar". Ana shundagina uning faoliyatidan biror salmoqli natija ko'rish mumkin. Cho'lponning "Ko'ngil" she'ri "Xalq" she'ridan bir yil keyin, 1922-yilda yaratilgan. Ammo unda ham "Xalq" she'ridagi ma'naviy yo'nalish boshqa jihatdan davom ettiriladi. Shoir ko'ngliga murojaat qilish orqali xalqni o'zining tabiatiga zid holda, "Kishanlar birla do'stlashish"ning yomon oqibatlarini ko'rsatib berdi. Shu ma'noda — "Ko'ngil", "Xalq" she'rlarini to'ldiradi:

*Ko'ngil, sen munchalar nega Kishanlar birla
do'stlashding?*

*Na faryoding, na doding bor Nechun sen
muncha sustlashding?*

Bu o'rinda ham kishan, ya'ni erksizlik inson qadrini yerga uradigan, uni tahqirlyadigan omil

sifatida ko'rinadi. "Kishan kiyma" bilan "odam bo'lmoq" bir-biri bilan sira chiqishmaydigan, bir-birini rad etadigan tushunchalardir. Hurlik insoniylikning birinchi belgisi, birlamchi sharti. Hur inson o'zining insoniy g'ururiga ega bo'lmog'i kerak va bu insoniy g'urur boshqalar tomonidan hamisha ardoqlanishi shart. "Ko'ngil" she'rida milliy uyg'onishga da'vat, erk, hurriyatga chaqiriq, xalqni ruhan ozodlikka undovchi ohanglar barq urib turadi, she'r benihoya soddaligi bilan qalblarga yaqindir:

*Tiriksan, o'lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan.
Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki, sen ham hur tug'ilg'onsan!*

She'ring mazmuniga mos ravishda boshdan-oyoq murojaat, xitob va so'rovlar asosiga qurilishi unga alohida harorat, joziba bag'ishlagan. "Do'stlashding", "Sustlashding", "Og'ritmas", "Ketmasmi", "Sinmasmi" kabi jarangdor qofiyalar, "munchalar", "nega", "ne", "nechun", "muncha" kabi ta'kid so'zlar she'ring ta'sirchanligini oshiradi.⁴ Cho'lpon mislsiz she'riy kashfiyotlardan tashqari "Kecha va kunduz" deb ataluvchi birinchi o'zbek roman-dilogiyasining muallifidir. Afsuski, romanning ikkinchi kitobi Cho'lpon qamalagan paytda yo'q qilingan va hozirgacha topilgan emas. Birinchi kitobi "Kecha" qaytadan nashr qilindi va ko'pchilik o'quvchilar tomonidan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"i darajasidagi asar sifatida baho oldi. Cho'lponning 1921-yillarda yaratgan "Yorqinoy" dramasi badiiy jozibasi jihatidan ham, mavzu nuqtayi nazaridan ham hozirgacha o'z ta'sir kuchini yo'qotmay kelmoqda.

4 XX asr uzbek adabiyoti tarixi. T. U'qituvchi. 1999. 152-6.

ISSUES OF ORGANIZING AND DEVELOPING THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE CONDITIONS OF EDUCATIONAL CLUSTER

Dustnazar Omonovich Himmataliev – professor, Chirchik state pedagogical university
Madina Abdumumin kizi Fayzullaeva – master, Chirchik state pedagogical university

Abstract: In this article, the issues of organizing and developing the educational process based on digital technologies in the conditions of the educational cluster are explained. You can also familiarize yourself with the results of the research conducted on the organization and development of the educational process based on digital technologies, as an example of an English language lesson in educational centers.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish masalalari mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ta'lim markazlarida ingliz tili darsi misolida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi bilan ham tanishib chiqishingiz mumkin.

Аннотация: В данной статье раскрываются вопросы организации и развития образовательного процесса на основе цифровых технологий в условиях образовательного кластера. Вы также можете ознакомиться с результатами проведенного исследования по организации и развитию образовательного процесса на основе цифровых технологий, на примере урока английского языка в образовательных центрах.

Keywords: educational cluster, digital technologies, experience, Baamboozle, Educandy, Kahoot, Memrise, Hallo, Elsa.

Kalit so'zlar: ta'lim klasteri, raqamli texnologiyalar, tajriba, Baamboozle, Educandy, Kahoot, Memrise, Hallo, Elsa.

Ключевые слова: образовательный кластер, цифровые технологии, опыт, Baamboozle, Educandy, Kahoot, Memrise, Hallo, Elsa.

Introduction. One of the innovative approaches to the development of the educational process, which allows effective use of the resources available in the educational system, successful resistance to external and internal factors, is the cluster approach. The purpose of the formation of the cluster process is to standardize the institutions of the same field located within the city, district and region and the educational centers interacting with them, and to harmonize other services - to direct the training of personnel on the basis of the organization of innovative production.¹

Relevance of the topic. Today, digital technologies are actively used in all spheres

of life. The economy, banking, service sector, as well as the educational process, serve to develop rapidly. All citizens living in the country, including young children and pensioners, are forming the idea that all problems in society can be solved through digital technologies. It is not surprising that the educational system today is absorbed by digital technologies, because it serves as a basis for serious analysis and pedagogical justification of many things that are offered in the information space today.²

In this regard, as the President of our country, Shavkat Mirziyoyev, said, "To achieve development, it is important and necessary to acquire digital knowledge

¹ Do'stnazar, H., & Abrorxujayevna, V. S. (2022). Ta'lim jarayonida klaster metodidan foydalanishning o'ziga xos ahamiyati. *World scientific research journal*, 9(1), 179-184.

² Majidova, I. (2022). Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 477-481

and modern information technologies. This gives us the opportunity to take the shortest path to ascension. After all, information technologies are deeply penetrating all areas of the world today. Of course, we know very well that the formation of the digital economy requires the necessary infrastructure, a lot of money and labor resources. However, no matter how difficult it is, if we don't start today, when will we?! Tomorrow will be too late"³.

Social progress cannot be achieved without developing the intellectual abilities of the mature generation, without educating them spiritually and morally, and without fully realizing the new aspects of their potential. Various games, mobile devices and computer software developments are aimed at forming new knowledge skills in the minds of the mature generation. It is known that acquiring knowledge that is new to them through such digital technologies will certainly have a positive effect on them⁴.

Result and analysis. We will introduce you to the analysis of the results of our research on the organization and development of the educational process based on digital technologies on the example of educational centers. We are in close contact with the parents of students and young students, and we have specialists who teach in higher education institutions, such as "Afina", "Step ahead", for example, English language lessons we conducted several experiments on organizing and developing the educational process based on digital technologies.

The reason why we chose the English language course is that we cannot imagine our life today without foreign languages. As the process of globalization accelerates, learning a foreign language is becoming the need of the hour. Today, in order to become a good specialist in any field, knowing a language has become a simple requirement. That's why everyone is busy learning a language in modern life⁵

We all know that learning a foreign language effectively requires daily practice. We have compiled a lesson schedule of a number of useful offline and online resources for language learners to strengthen their knowledge. In order to further improve the language learning process, we have organized a certain term lesson process based on this lesson schedule for English language teachers who want to conduct their lessons with various technologies and online quizzes and English language learners who are tired of the books everyone uses. In this lesson plan, the parents of young people, teachers in the educational center and even the independent education of the student are inextricably linked.

Nowadays, the role of digital technologies in independent language learning is very important. Through them, a person's enthusiasm for learning a language does not fade, and various intellectual games, chosen correctly for the topic, help to increase interest even more. The chosen game is appropriate not only for the topic, but also for the age of the language learner. Intellectual games for language learning have been studied a lot to date, as well as new games, websites, various types of technology that facilitate language learning, in general, innovative digital technologies are being developed and improved⁶.

Baamboozle, Educandy, Kahoot, Memrise, Hallo, Elsa.... The list of special websites like these could go on and on. Sites like these have a positive effect on a person's understanding of the topic, repeating the topics covered, and strengthening their knowledge, along with increasing the speed of thinking. This will undoubtedly make the lesson process and language learning more interesting.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. <https://uz.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-2>

⁴ Baxrombekovna, d. R. N. (2022). Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(5), 23-26.


⁵ Fayzullaeva, M., & Kholbutaeva, M. (2022). Use of international experience in increasing the efficiency of education quality. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 2(10), 63-68.

⁶ Yarashov, M. (2021). Talim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni. *Ilmiy nashrlar markazi (buxdu.uz)*, 5 (5).



learners through the Telegram social network. So what was it like? We were able to implement this process through @iknow.bot on the Telegram social network. The reason we chose Telegram is that this android apk can run on any device with lower internet speed than other networks.

Cases of interest of older children in organizing the educational process based on digital technologies



- The interest of upper class children to learn in the situation where the educational process is organized on the basis of digital technologies
- The interest of upper class children in the case where the educational process is organized in a traditional way
- Cases of children losing interest due to technical conditions

Cases of interest of young children in the organization of the educational process based on digital technologies



- Young children's interest in learning in a situation where the educational process is organized on the basis of digital technologies
- The interest of young children in organizing the educational process based on the traditional method
- Cases of young children losing interest due to technical conditions

Conclusion. In conclusion, language learning in educational centers through games organized on the basis of digital technologies is effective and interesting, which can be used by children of any age. The results of the study show that games organized on the basis of digital technologies are not only for entertainment, but most importantly, they are also useful activities. It is also used to repeat the topics of the language learning process, and at the same time, the goal of improving the students' communicative competence is achieved.

In educational centers, we have tried to apply a number of such digital technologies in the example of language teaching. The reason why we chose educational centers is that, compared to secondary schools, you won't have much difficulty in using any technology, such as a telephone, in educational centers. We have researched a lesson plan consisting of a number of intellectual games designed for young language learners, as well as for older students, for a certain period of time on language learners of different ages. In general, we did not face any great difficulty in choosing intellectual games suitable for the age of the student for the traditional teaching process. However, we encountered some difficulties in teaching intellectual games to our children through digital technologies. In this case, it was a little difficult to teach the younger students, but the older children found the process more fun. This is explained by the fact that young children do not have enough information about devices such as computers, phones, and electronic boards yet. For this reason, it is appropriate to conduct intellectual games in an offline form in a traditional way for young children. But for high school students and older language learners, playing both online and offline games shows a good result.

It would not be wrong to say that the Internet speed is not at the same level in all parts of our country, and it is one of the urgent problems of our work. For this reason, we organized a game-like competition together with language

РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННО – УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В ПРОЦЕССЕ ИМИТАЦИИ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МОДЕЛИ

*Озода Сафибуллаевна Абдуллаева - д.ф.(PhD) по п.н, профессор, Наманганский инженерно-строительный институт.
Гузл Абдурасуловна Хусайинова - докторант, Наманганский государственный университет.*

Аннотация: В статье рассматривается моделирование процесса подготовки будущих специалистов к информационно-управленческой деятельности как процессуальная система, составными частями которой являются: цель и стратегии моделирования, закономерности и принципы моделирования, объект моделирования, модель, технология применений модельных представлений в педагогической деятельности, результативность использования модели в педагогической деятельности.

Аннотация: Maqolada bo'lajak mutaxassislarni axborot va boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayonini protsessual tizim sifatida modellashtirish muhokama qilinadi, uning tarkibiy qismlari: modellashtirishning maqsadi va strategiyasi, modellashtirishning qonuniyatlari va tamoyillari, modellashtirish obyekti, model, pedagogik faoliyatda namunaviy tasavvurlarni qo'llash texnologiyasi, pedagogik faoliyatda modeldan foydalanish samaradorligi muhokama qilingan.

Abstract: The article discusses the modeling of the process of preparing future specialists for information and management activities as a procedural system, its components: the purpose and strategy of modeling, the laws and principles of modeling, the object of modeling, the model, the technology of using model imaginations in pedagogical activities, in pedagogical activities efficiency of using the model.

Ключевые слова: информационно-управленческие компетенции, моделирование, мотивационные процессы, концептуальная модель.

Kalit so'zlar: axborotni boshqarish kompensatsiyasi, modellashtirish, motivatsion jarayonlar, kontseptual model.

Keywords: information management compensation, modeling, motivational processes, conceptual model.

В процессе социально – экономического развития на сегодняшний день, возникают современные требования, которые требуют применения современных подходов к подготовке будущих специалистов к профессиональной деятельности. И это в свою очередь возлагает все новые и новые задачи по внедрению новшеств и международных достижений образования, предмета, техники и технологии в практику, организации и проектирования педагогических процессов на научной основе, вооружения будущих специалистов необходимыми знаниями, умениями и навыками. Одной из основных задач, решаемых высшим образовательным учреждением, является создание целостной системы подготовки специалистов, обеспечивающей их качественную подготовку к будущей профессиональной деятельности. Мотивационные процессы, происходящие в сложных педагогических системах, в данном случае подготовка к педагогической деятельности студентов по направлению профессиональное образование, связаны с огромным множеством состояний этих систем, обусловленных разнообразием взаимовоздействующих компонентов и

взаимосвязями между ними.

Исходя из особенностей системы, необходимо создать полнофункциональную сложную педагогическую систему с ее многообразием структурных компонентов, связей, взаимосвязей и взаимообусловленностей в четырех подсистемах (аудиторная, внеаудиторная, дополнительная и самостоятельное образование), с прямыми и обратными информационными потоками, внутриличностными изменениями на различных этапах системы подготовки кадров. Процесс проектирования такой системы представляется в виде трудоёмкой деятельности, включающей в себя все критерии. Поэтому систему последовательности и непрерывности подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности следует представить в целом: в аудиторных и внеаудиторных занятиях, отчетливо представляя в дополнительных курсах и предвидя в самообразованиях. Исходя из вышеперечисленного, мы можем создать необходимую систему с помощью метода моделирования, разработав подходящую и многофункциональную модель.

В разработке подходящей и многофункциональной модели требуются изучение особенностей основных категорий – “модель” и “моделирование”. Под моделью понимается “некоторая реально существующая или мысленно представляемая система, которая, замещая в познавательных процессах другую систему – оригинал, находится с ней в отношении сходства, благодаря чему изучение модели позволяет получить информацию об оригинале”¹.

Некоторые исследователи выделяют критерии научности модели. К ним относят: связанность или целостность идеализированной модели; константность, стабильность модели; наблюдаемость свойств объекта с характеристиками модели; минимальность, обозримость ее параметров².

В современной педагогической

науке модель широко используется с целью познания и преобразования педагогических систем, педагогической действительности (В.Н.Бурков, Н.Г.Журбин, Ю.О.Овакимян, Фишман Л.И., Б.К.Тулбасова, В.Г.Рындак, В.В.Краевский, У.И.Инояттов, С.Т.Тургунов, Х.Ф.Рашидов, Б.Р.Джураева и др.).

Анализ источников показывает, что авторы приведенных моделей лишь фрагментарно описали подходы к разработке вышеперечисленных моделей. В данных исследованиях не рассмотрены научные подходы к процессу моделирования, не раскрыта сущность самого процесса.

По нашему мнению, концептуальная модель процесса подготовки к информационно-управленческой деятельности будущих специалистов представляет собой систему, которая отображает во взаимосвязи и взаимодействии компонентов по структуре, содержанию, форме, этапам ее функционированию и развитию.

Системный подход в создании концептуальной модели организации и управления процесса подготовки позволяет моделировать отдельные процессы подготовки как подсистемы макросистемы.

В нашем исследовании целый процесс подготовки будущих специалистов является макросистемой, вместе с тем, процессы аудиторных занятий, внеаудиторных занятий, дополнительные курсы и самостоятельные работы существуют как подсистемы, а также они считаются компонентами макросистемы. Исходя из этого можно сделать вывод, что модель организации и управления процесса подготовки студентов к профессиональной деятельности как идеальное отражение важнейших компонентов, реальных процессов аудиторных занятий, внеаудиторных занятий, дополнительного курса и самостоятельной работы, раскрывают в общем виде организационную структуру и

¹ Abdullayeva O.S. Ilmiy axborotnoma informatika 2016-yil, 3-son UDK: 004.94:622.794. Axborot texnologiyalarini o'rgatishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida // ilmiy axborotnoma. – c. 67.

² Abdullaeva O.S. The course of study—Pedagogical Competence of the Engineer—Teacher // Monograph. Publisher: LAP Lambert Academic publishing Co. KG, Saarbrücken, Germany. 2018. – c. 189.

содержание, существенные взаимосвязи и взаимообусловленности, прогнозируют ее развитие.

Моделирование процесса подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности мы рассматриваем как процессуальную систему, составными частями которой являются: цель и стратегии моделирования, закономерности и принципы моделирования, объект моделирования, модель, технология применений модельных представлений в педагогической деятельности, результативность использования модели в педагогической деятельности.

Моделирование концептуальной модели непрерывного педагогического образования осуществляется в несколько этапов: “по началу строится макет концептуальной модели и рассматриваются ее возможные варианты. Затем устанавливается единица измерения воспроизводства педагогических кадров, раскрывается ее значение и роль. Далее определяется ведущее звено и вспомогательные элементы системы. И, наконец, осуществляется проверка адекватности концептуальной модели системы педагогического образования социальным-экономическим условиям общества”³.

Вышеперечисленное показывает, что моделирование часто применяется при исследовании процесса подготовки педагогических кадров. Однако до настоящего времени не существует достаточно обоснованной модели организации и управления процесса подготовки студентов магистратуры к будущей информационно-управленческой деятельности.

По нашему мнению, моделирование является одним из методов преобразования, как педагогических систем и управления ими. С помощью моделирования можно прогнозировать варианты будущего развития процесса подготовки, соединив с настоящим и прошлым, определит потенциальные

последствия альтернативных педагогических решений.

В педагогических исследованиях аргументировано целесообразность выделения пяти основных этапов моделирования. К ним относятся:

- определение объекта исследования;
- активизация накопленных знаний об оригиналах;
- обоснование необходимости применения метода моделирования;
- выбор существенных переменных и постулатов;
- отбор из числа объектов тех, которые наиболее легко поддаются изучению.

Н.В. Кузмина рассматривает моделирование образовательного процесса как предписание того, каким он должен быть, какие функции и в какой последовательности должен выполнять каждый из его участников, что бы результат был положительным⁴.

Мы поддерживая идею Кузмина отмечаем, что эффективность процесса подготовки будущих специалистов необходимо рассматривать в вертикальной и горизонтальной плоскостях.

По вертикали – это взаимосвязь между целями, задачами, функциями, методами организации и управления педагогических процессов. По горизонтали – это интеграция технологии организации и управлений этим процессом. Если технология организации процессов основана на системный подход, то технология управления в своей основе имеет этот же подход.

Опираясь на вышеперечисленное, создание модели позволило нам более глубоко проникнуть в сущность изучаемого явления, вскрыты присущие ему связи и закономерности.

Закономерность представляет собой существенные, устойчивые, повторяющиеся связи и отношения, которые в своей совокупности детерминируют системный характер содержания на всех процессах,

³ Abdullayeva O.S. Pedagogical competence of a professional teacher (on the example of 5330200—Informatics and information technology) // Study guide. Publisher: LAP Lambert Academic publishing Co. KG, Saarbrücken, Germany. 2018. – c. 105.

⁴ Abdullayeva O.S. Technology enhance the educational process of professional colleges and academic lyceums (for example, studying the course of informatics and information technology) // Monograph. Publisher: Navruz. – Tashkent. 2016. – c. 189.

реализация которых позволяет добиваться поставленной цели.

Основной закономерностью изучаемых проблем выступает последовательность, непрерывность и систематичность организации и управления процесса подготовки студентов к педагогической деятельности. Она рассматривается как систематичность, в которой организация и управление каждым новым процессом подготовки кадров осуществляется в диалектической связи с предыдущим и в соответствии с прогнозируемыми условиями и задачами.

Также, мы предлагаем выделить другую закономерность:

– последовательность находится во взаимосвязи с взаимообусловленностью содержания подготовки на разных

педагогических процессах;

– систематичность обеспечивает единство педагогических процессов в единой образовательной среде;

– непрерывность зависит от тенденций обновления современного педагогического образования;

– содержание объективности подготовки находится в объективной прямой зависимости от гуманистической парадигмы педагогического образования;

– обеспечение личностно-ориентированной организации и управления процесса подготовки зависит от единства педагогических действий всех участников данного процесса, т.е. формирование субъекта – субъектного отношения.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISH

Lazokat Mashrabovna Turikova - i.f.n, v.b. dotsent, Milliy tadqiqot instituti

Annotatsiya: Mazkur maqola uzluksiz ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari bo'lgan inson resurslarini samarali boshqarish usullaridan foydalanish va buni ta'lim jarayonidagi ahamiyatini nazarda tutadi.

Аннотация: В этой статье подразумевается использование эффективных методов управления человеческими ресурсами, которые играют ключевую роль в процессе непрерывного образования и их важность в процессе обучения.

Abstract: This article implies the use of effective human resource management techniques that play a key role in the process of continuing education and their importance in the learning process.

Kalit so'zlar: inson resurslari, inson kapitali, uzluksiz ta'lim, intellektual salohiyat, motivatsiya, nomoddiy rag'batlantirish, kreativ yondashuv.

Ключевые слова: человеческие ресурсы, человеческий капитал, непрерывное обучение, интеллектуальный потенциал, мотивация, нематериальные стимулы, творческий подход.

Keywords: human resources, human capital, lifelong learning, intellectual potential, motivation, intangible incentives, creativity.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan oq, milliy ta'lim tizimining huquqiy asoslari shakllantirildi va uning yagona, uzluksiz modeli yaratildi.

2020-yilda esa O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri e'lon qilindi¹. Mazkur qonun bilan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar belgilangan bo'lib, ta'limning uzluksizligi va izchilligi, o'n bir yillik ta'limning hamda

olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi; davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi; insonning butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olishi haqidagi me'yorlar o'z aksini topgan².

Shuningdek, qonunda ta'limning

maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish va maktabdan tashqari ta'lim kabi turlari bayon etilgan.

Yuqorida qayd qilingan ta'lim turlaridan biri kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishdir. Mazkur qonun bilan kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tartibga soluvchi bir qator qoidalar belgilangan. Jumladan, kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Mazkur qonun ta'lim sohasini zamonaviy va moslashuvchan tashkil qilishdagi o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan 1997-yil 29-avgust kuni qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonundan tubdan farq qiladi.

Misol uchun masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejaları va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Albatta, masofaviy ta'lim nafaqat o'quvchi - yoshlar balki katta yoshdagilar uchun ham o'quv mashg'ulotlardan tashqari paytda o'z - o'zini o'qitish, o'z ustida ishlash tizimiga katta yordam beradi. Chunki bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablari, professional ta'lim, oliy ta'lim va malaka oshirish tizimlarida elektron raqamli kontentlar yaratilmoqda. Ilgari qo'shimcha bilim olish uchun kutubxonalarga borib, uzoq vaqt ma'lumotlar olishga to'g'ri kelar edi. Ushbu raqamli kontentlar esa qo'shimcha ta'lim olish istagida bo'lgan har bir shaxs uchun katta instrument hisoblanadi. Bugungi o'quvchi-yoshlar oliy ta'limdagi kontentlar, ishlayotgan xodimlar esa malaka oshirish tizimida yaratilgan kontentlar bilan tanishish va keyingi bosqichda qanday ta'lim jarayoni bilan to'qnashishlarini oldindan bilish imkoniyati yaratilgan. Bu ham ta'limning uzviyligini ta'minlashga qaratilgan omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Uzviylik nafaqat ta'lim turlari bo'yicha, balki bir ta'lim turi, masalan, umumiy o'rta ta'lim sinflari bo'yicha ham jiddiy o'rganilishi va muayyan tuzatishlar amalga oshirilishi dolzarb bo'lib turibdi³.

Uzviylik - ta'lim-tarbiya jarayonini

muayyan ketma - ketlik asosida tashkil etilishini ifodalovchi muhim sifat bo'lib, ma'lum bosqichda avvalgi bosqich o'quv faoliyatining mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamlanishi, kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ta'minlaydi⁴.

Ta'lim tizimining uzviyligini ta'minlashda inson omili har qanday sharoitda ham kattta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki yuqorida ta'kidlangan raqamli kontentlar, interaktiv dasturlar va barcha o'quv materiallari inson resurslari, ya'ni mutaxassislar tomonidan tayyorlanadi. Shuning uchun ham inson kapitalini rivojlantirish orqali mehnat bozoridagi raqobatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Farzandlarimizning jahon andozalariga mos ravishda zamonaviy bilimlarni egallashlari, barkamol va yetuk insonlar bo'lishga yo'naltirilishlari, ularning intellektual salohiyatlarini yanada kuchaytirilishi kelajakda malakali mutaxassis va munosib inson resurslari bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi. Ta'lim har bir shaxsning fuqarolik pozitsiyasini rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, davlatlarning iqtisodiy darajasi ham ta'limning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki inson resurslari iqtisodiy resurslarning alohida turini anglatadi⁵.

Bundan ko'rinib turibdiki, inson resurslarini yanada rivojlantirishda ta'lim jarayonini yangi bosqichga ko'tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari bo'lgan pedagog xodimlar, trenerlarning sifatini oshirish, pedagogik mahoratni oshirish va inson resurslarini samarali boshqarish mexanizmlarini yanada kuchaytirish lozim.

Inson resurslarini rivojlantirish evolyutsiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, XX asrning 40-yillarigacha bu jarayon "mehnat resurslaridan foydalanish" deb nomlangan va "tirik mashina" funksiyasini bajargan. 70-yillarga kelib "personalni boshqarish" deyilgan va "ishchi mehnat munosabatlarini subyekti" hisoblangan. 90-yillarga kelib "inson resurslarini boshqarish" deyilib, ishchiga tashkilotning asosiy resursi sifatida qaralgan. XXI asrda bu jarayon mutloq boshqacha turib olgan. Ya'ni insonlar tashkilot uchun emas balki, tashkilot inson uchun ishlaydigan davr bo'lmoqda⁶. Ishchi kuchining va axborot texnologiyalarning o'ta rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, inson huquqlarining ta'minlanishiga qaratilayotgan e'tibor hamda ta'lim jarayonidagi keskin o'zgarishlar mehnat bozoridagi talab va taklifga katta ta'sir o'tkazmoqda. Shunday qilib, bugungi kunda xodimlar bilan ishlash jarayoni "HR menejment" yoki "Inson kapitalini boshqarish" deb ham yuritilishini kuzatishimiz mumkin.

Samarali inson resurslarining asosiy manbasi - bu bilim va intellektual salohiyatdir.

3 Ashirboyev S. "Ta'limning uzviyligi va uni takomillashtirishning ayrim masalalari". Scientific bulletin of Namangan state university: 2020.vol. 2 : iss. 3 , article 98. available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss3/98>

4 Hasanboyev J., To'raqulov X. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T.: «Fan va texnologiya», 2009.

5 Gorbunova O.N., Gegamyan M.A. Upravlenie chelovecheskimi resursami na sovremennom predpriyatii// Sotsialno-ekonomicheskie yavleniya i protsessi. 2013. №6. 52 s.

6 <https://www.zagorskaya.info/conceptions-hr>

Endilikda intellektual energiya va shaxsning ijodiy qobiliyatlari professional xodimning eng muhim "mahsuloti"ga aylanmoqda. Har bir shaxsda yangi bilimlarni o'zlashtirish orqali o'z-o'zini rivojlantirish xususiyati mavjud.

Shundan kelib chiqib, rahbarlar tashkilotdagi xodimlarning ana shunday xususiyatlarini ko'ra olish, noyob iqtidor egalarini aniqlash va ularning ijodiy qobiliyatlari, bilim va malakalaridan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Chunki malakali mutaxassis – bu mehnat samaradorligining eng asosiy omili hisoblanib rahbarga va tashkilotga muvaffaqiyat olib keladi.

Xalq ta'limi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarida pedagog xodimlar bilan ishlash, muvaffaqiyatli jamoa tuzish, mehnat jamoasidagi ijtimoiy ma'naviy muhitni yaxshilash hamda har bir xodimga kerak bo'lsa individual yondoshish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo hali xodimlarni zamonaviy boshqarish bo'yicha rahbarlarimizga ko'plab yondoshuv va uslubiyotlar kerak.

Maktablarda faoliyat yuritayotgan har bir xodim, pedagog yoki rahbarlardan yuqori darajadagi ma'naviyat, bilim va salohiyat talab qilinadi. Pedagog xodimlarga qo'yiladigan talablar ta'lim tizimiga oid qonun hujjatlarida, malaka talablarida va boshqa lokal hujjatlarda belgilanadi.

«O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da xalq ta'limi tizimining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Mazkur yo'nalishlardan biri uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish hisoblanadi⁷

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi davrning kadrlar siyosati xodimlarning jismoniy holati bilan emas, balki intellektual qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim muassasalarida xodimlarning ko'rsatgan natijalariga qarab ish haqlari, ustamalar berish va turli shakllarda rag'batlantirishlar joriy qilingan. Jumladan, malaka toifasiga qarab o'qituvchilarga ish haqlari belgilanadi. Xalqaro olimpiadalarda o'quvchilari yuqori o'rinlarni olgan o'qituvchilarga alohida to'lovlar joriy qilingan. Shuningdek, o'qituvchilar uchun ko'plab ko'rik-tanlovlar, konkurslar, ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil qilinmoqda. Shuningdek, o'qituvchilar xalqaro loyihalarda ham faol ishtirok etib, turli ko'rinishdagi grantlarni yutib olayotganliklarini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu, albatta, xodimlarni boshqarish tizimi natijalari desak, mubolag'a bo'lmaydi. E'tibor berishimiz

kerakki, bu tadbirlar pedagog xodimlarni o'zini ustida ishlashga majbur qilmoqda, natijada bilim va tajribalarini yanada takomillashtirmoqdalar hamda ular uchun katta motivatsiya bo'lmoqda.

Har bir rahbarning o'z jamoasi bilan ishlash ssenariysi bo'lishi va kadrlar siyosati kartasi bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunday jamoaviy va o'qituvchilarni salohiyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar maktablarda ham ish beruvchilarning tashabbuslari bilan tashkil qilinishi yanada samaraliroq bo'lar edi. Jamoaviy tadbirlar jamoadagi munosabatlarni mustahkamlashga va birdamlik yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Undan tashqari, o'qituvchilar taqdirlash va rag'batlantirishni chetdan emas, balki o'zi ishlayotgan tashkilotdan ko'proq olishlari kerak. Rag'batlantirish deganda afsuski ko'plab pedagoglarimiz faqat moddiy rag'batlantirishni tushunadilar. Ammo rag'batlantirish jarayonini katta qismi ma'naviy rag'batlantirishdan iborat. Maktablarda ish beruvchi tomonidan pedagoglarni ma'naviy rag'batlantirishga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin.

1. Pedagoglarning oilasiga e'tibor qaratishda har bir rahbar-xodimlarning ijtimoiy ahvoli bilan tanish bo'lishi va hol-ahvol so'rab turishi lozim. Chunki oilaviy muammosi bor bo'lgan xodimning kayfiyati ish jarayoniga sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Bunday xodimga yordam bermasdan turib natija kutish noto'g'ri bo'ladi.

2. Pedagoglarning dars o'tish jarayonida yangiliklar kuzatilmasa uni malaka oshirishga yo'naltirish lozim. Bu orqali o'zini ustida yanada ishlashga va uni jamiyatda munosib, malakali shaxs bo'lishiga imkon yaratiladi. O'qituvchilar bu natijadan va rahbardan judayam mamnun bo'ladi.

3. Korporativ tadbirlarni tashkil qilish xodimlar uchun juda qiziqarli jarayon hisoblanib, jamoani birlashtirishga qaratiladi. Bunda faqat tushlik yoki kechki ovqatni tushunish kerakmas. Balki, turli xil jamoaviy interaktiv o'yinlar, ish vaqtidagi jismoniy mashqlar, sayohatlarni misol qilishimiz mumkin. Shuningdek, maktabda bo'ladigan tadbirlarga barcha xodimlar baravar jalb qilinishi ham yaxshi samara beradi.

4. Pedagog xodimlarga davlatimiz tomonidan berilayotgan ijtimoiy imtiyozlar haqida ko'proq ma'lumot berishimiz kerak. Misol uchun xodimlar har yili tashkilot hisobidan sug'urta qilinishi, eng yaxshi natija ko'rsatgan pedagoglar ish beruvchining tavsiyasi bilan sanatoriyalarda bepul sog'lomlashtirilishi, ish haqining oshirilishi va pedagogik faoliyatni olib borishlari uchun munosib sharoitlar yaratilayotganligi va hokazo.

5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 16 - moddasiga muvofiq, har bir xodim dam olish huquqiga ega. Ish vaqtida tanaffuslar, dam olish vaqtlari belgilanishi va har yillik haq to'lanadigan mehnat ta'tillari ularga berilishi lozim⁸.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni

⁸ O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 16-moddasi.

6. Maktabda o'tkaziladigan yig'ilishlarda ish beruvchilar pedagoglarni fikrini, albatta, eshitishga harakat qilishlari zarur. Balki, shu fikr maktabni boshqarishda juda muhim bo'lishi mumkin. Shuningdek, yig'ilishlardagi bahs-munozalar maktab muammolarini jamoaviy yechimini topishga va shaffoflikka xizmat qiladi.

7. Rahbarlar bilan qayta aloqa bo'yicha ham ayrim muammolar mavjud. Ayniqsa, nizo yuzaga kelganda rahbar-xodimlarni qabul qilmaslik, muammoni yechishga harakat qilmaslik holatlari kuzatiladi. Har qanday holatda ham rahbar pedagog-xodimlar uchun ochiq bo'lishi lozim. Chunki mehnat munosabatlarida ko'p masalalar ichki tartibda kelishishga havola qilingan.

8. Rahbarlar-xodimlarning ko'rsatayotgan natijalarini ko'pchilikning ichida e'tirof etishi, ijtimoiy tarmoqlar, kanallar orqali e'lon qilishi yoki maktabni ko'rinadigan joyga rasmini va natijalarini osib qo'yish ham xodim uchun katta ma'naviy rag'bat hisoblanadi.

Milliy tariximizga qarasak, jasur, mard, dono insonlarga yuksak baho berilganini ko'ramiz. "Sohibqiron", "jahongir", "bahodir", "olampanoh" kabi ta'riflar e'tirof, e'zoz, lutf ma'nosini anglatgan. Masalan, Sohobqiron Amir Temurning otasi Amir Tarag'ayning "bahodir" degan unvoni bo'lgan va u qo'l ostida xizmat qiluvchilar uchun nomoddiy rag'batlantirishni qo'llagan.

Sohobqiron lashkaridagi ko'p jangchilarning ismiga ham ana shu unvon qo'shib aytilgan. Taomilga ko'ra, saltanat uchun hal qiluvchi lahzalarda lashkar ichidan otilib chiqib, birinchi bo'lib yovga tashlangan askarga "bahodir" unvoni berilgan. Bu unvon o'sha davrda faqat kuch, jasorat uchun berilmagan. Bahodir bo'lish uchun qilichbozlikni puxta egallash, otni boshqarish, o'zini himoya qilish, zarba nuqtasini to'g'ri topish, o'z kuch-g'ayratini to'g'ri taqsimlash, dushman pistirmalarini oldindan bilib ish tutish kabi xislatlar egallanishi

kerak edi. Aks holda kuchli, jasur yigitlar bekorga qurbon bo'lishardi yoki ularning shiddatidan foyda kam bo'lardi. Bahodirlik uchun faqat dovyuraklik, shamshir o'ynatish yetarli bo'lmagan. Bunda bilim, yana bilim, mahorat kerak bo'lgan. Sohobqiron Amir Temur "Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yengadi" degan hikmatni aytganida, balki shularni nazarda tutgandir⁹.

Bunday sifatlarni o'zlashtirish uchun xodimlar juda ko'p mehnat qilishgan va Sohobqiron ishonchiga erishgan. Bunday natijalarga ega bo'lgan xodimlar, albatta, professional xodimlarga aylanadilar va har qanday rag'batlantirishga loyiqdir. Rahbar-kadrlar esa bu kabi samarali ishlayotgan xodimlarni kashf etishlari, ko'ra olishlari lozim.

Rahbarlarning xodimlar bilan doimiy muloqotda bo'lishlari ham ayrim tashkilotlarda muammoga aylanib qolmoqda. Buning sabablari turlicha bo'lishi, masalan:

rahbar o'ta band, xodimni qabul qilishdan zarurroq ishlari ko'p;
rahbar shu xodimni unchalik hushlamaydi;
rahbar-xodimlar uchun ochiq emas;
muammolarni eshitishni xohlamaydi, chunki uni hal qilish imkoni yo'q.

Rahbarlar bunday holatlarga, albatta yo'l qo'ymasliklari kerak. Aksincha, ko'plab mehnat nizolari yuzaga kelishi mumkin. Samarali kommunikatsiya - samarali menejmentning asosiy instrumentidir.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Chunki inson resurslari boshqaruvi tobora innovatsion boshqaruv bilan kesishmoqda. Innovatsion imkoniyatlarning kuchli raqobati esa inson resurslarining sifati va malakasini o'sish dinamikasini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, ta'lim tizimida keskin rivojlanish bo'layotgan bir davrda pedagoglarni zamonaviy usullar bilan boshqarish ta'limni rivojlantirishda juda muhim hisoblanadi.

⁹ <http://marifat.uz/marifataruknlar/rasmiy/1486.htm>

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLASH YUZASIDAN AMALIY TAJRIBALAR MOHIYATI

Elmurod Maxmudjonovich Tajiboyev - doktorant, Namangan davlat universiteti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilg'or pedagogik texnologiyalar vositasida ta'lim samaradorligini ta'minlash yuzasidan Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlarining umumiy o'rta ta'lim maktablardagi amaliy tajribalar va ularning natijalari haqida to'liq ma'lumot berilgan.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о практическом опыте и его результатах в общеобразовательных школах Ферганской, Андижанской, Наманганской областей с целью обеспечения эффективности образования с помощью передовых педагогических технологий.

Abstract: This article provides detailed information about practical experiences and their results in general secondary education schools in Fergana, Andijan, Namangan regions in order to ensure the effectiveness of education with the help of advanced pedagogical technologies.

Kalit so'zlar: maktab, o'qituvchi, ta'lim, malaka, tajriba, amaliyot, tahlil, pedagogik texnologiya, musiqa, madaniyat, an'ana, qo'shiq, innovatsiya.

Ключевые слова: школа, учитель, образование, квалификация, опыт, практика, анализ, педагогическая технология, музыка, культура, традиция, песня, новаторство.

Keywords: school, teacher, education, qualification, experience, practice, analysis, pedagogical technology, music, culture, tradition, song, innovation.

Respublikamizda bugungi kunda barcha fan va ta'lim sohalari qatori musiqa ta'limida ham zamonning ilg'or pedagogik yutuqlarni, innovatsion texnologiyalarini fanga olib kirish, ta'lim sifat samaradorligini yuqori cho'qqilarga ko'tarish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodlarni komil inson etib tarbiyalashda o'quvchi yoshlarlarning milliy va mumtoz musiqa tinglash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda.

Shuningdek, yoshlarda milliy musiqaga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarini milliy musiqa cholg'u asboblari bilan bosqichma-bosqich ta'minlash hamda umumta'lim maktablarining bitiruvchilarini milliy musiqa cholg'ularidan bittasida kuy ijro etish ko'nikmalarini shakllantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirish rejalashtirilgan¹.

Tadqiqiy izlanish natijalarini aniqlash maqsadida tashkil etiladigan tajriba-sinov

ishlari ma'lum va aniq maqsadga yo'naltirilgan reja va dasturga asoslanishi ishlarni tizimli va aniq bo'lishini ta'minlaydi². Shunga ko'ra biz ham umumta'lim maktablari o'quvchilarida milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasini tadbiiq etishning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishini isbotlash bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib borishda o'z dasturimizni ishlab chiqdik. Unda musiqa darslarini olib borish jarayonida ta'lim texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarni musiqiy-nazariy savodi, qiziqish qobiliyatlarini, milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi bosqichlari, ularni o'ziga xos xususiyatlari (har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar), shuningdek, ularning obyektiv shart-sharoitlari, statistik tahlilning o'tkazilishi shartlari, baholash mezonlari kabilar e'tiborda tutildi. Tanlab olingan tajriba sinfi va nazorat sinflari o'quvchilari kirish va chiqish so'rovnomalari olindi. Olingan dastlabki

¹ "Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ПҚ-112. 2022.

² Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари: монография. – Т.: "Фан", 2007. –6. 14.

so'rovnoma quyidagi savollardan tarkib topdi:

- musiqani idrok etish (janr, lad, o'lchov, xarakter);
- musiqaga tavsif bera olish (ijro uslubi, g'oyaviy-badiiy mazmuni);
- o'rganilgan asarni mustaqil ijro etib berish;
- notani varaqdan o'qish malakasi;
- cholg'u sozlari haqida bilishi;
- xalq va zamonaviy musiqaning o'ziga xos xususiyatlari uslublari haqida bilishi;
- musiqa terminlarini izohlay olishi³.

Yuqorida berilgan savollarga Farg'ona viloyati Toshloq tumani Hamrak 5-umumta'lim maktabi, Jorqishloq 14-umumta'lim maktabi, Marg'ilon shahar 2-ixtisoslashgan ta'lim muassasasi, Namangan viloyati Norin tumani 39-sonli maktabida, Chust tumani 25-umumta'lim maktabi, Andijon viloyati Andijon shahar 30-sonli maktabi, Asaka shahar 5 umumta'lim maktabi, 15-umumta'lim maktabi 5.6.7-sinflardan jami 703 nafar o'quvchilarning munosabatlari tahlil etilib quyidagicha natijaga kelindi:

- tajriba va nazorat guruhlarida natijalarni hisoblashda qulay bo'lishi uchun 100 ballik reyting tizimidan 5 ballik reyting baholashni ma'qul deb topdik;

- tajriba-sinov ishlari jarayonida 703 nafar o'quvchilardan olingan so'rovnoma, test, amaliy bilim, ko'nikma va malakalar natijalari tahlil etilib, matematik - statistika metodi orqali "juda yaxshi", "yaxshi", "o'rtacha", "past" darajalariga ajratildi;

- tajriba-sinov ishlari, yuqorida ta'kidlanganidek, Namangan viloyati Farg'ona viloyati, Andijon viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borildi. Jumladan, Namangan viloyatidan 242 nafar, Farg'ona viloyatidan 228 nafar, Andijon viloyatidan 233 nafar, jami 703 nafar o'quvchi respondent sifatida qatnashdi. Tadqiqotning samaradorligini obyektiv baholash maqsadida nazorat sinfi uchun ham respondentlar tasodifiy tanlash yo'li bilan jalb etildi.

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan o'quvchilar soni (Viloyatlar kesimida)

№	Tajriba sinov obyektlari	Umumiy o'quvchilar soni	Umumiy o'rta ta'lim maktabi	
			Tajriba sinfi	Nazorat sinfi
1	Namangan	242	123	119
2	Farg'ona	228	115	113
3	Andijon	233	117	116
	Jami	703	355	348

Umumta'lim maktablari o'quvchilarida milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi bo'yicha tajriba boshidagi natijalar

№	Cavolalar	Tajriba sinfi				Nazorat sinfi			
		Jami o'quvchilar soni - 355 nafar				Jami o'quvchilar soni - 348 nafar			
		Juda yaxshi	Yaxshi	O'rtacha	Past	Juda yaxshi	Yaxshi	O'rtacha	Past
1	Musiqani idrok etish (janr, lad, o'lchov, xarakter)	36	137	127	55	35	131	114	68
2	Musiqaga tavsif bera olish (ijro uslubi, g'oyaviy - badiiy mazmuni)	42	131	128	54	37	133	112	66
3	O'rganilgan asarni mustaqil ijro etib bera olish	41	135	129	50	33	131	114	70
4	Notani varaqdan o'qish malakasi	37	136	131	51	34	134	113	67
5	Cholg'u sozlari haqida bilishi	33	133	128	56	36	130	115	69
6	Xalq va zamonaviy musiqaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash haqida bilishi	40	132	129	54	38	132	112	66
7	Musiq terminlarini izohlashda harbi dasturiy ta'minotlar foydalanish olishi (AKTdan foydalanish)	39	134	130	52	32	133	111	70
	O'rtacha	39	134	129	53	35	132	113	68

Tajriba sinov ishlar tahlili

Shundan so'ng tajriba - sinov ishlarimizni olib borish uchun tanlangan tajriba guruhlarida (sinflarda) tajriba sinov ishlari uchun maqbul deb topilgan texnologiyalar asosida musiqa mashg'ulotlarini olib borishga kirishdik. Eng avvalo, pedagogik texnologiyalar mohiyati, uning ta'lim jarayoniga kirib kelishi, qo'llanilishi haqida turkum suhbatlar o'tkazdik. Shundan so'ng musiqa tinglash, musiqaga xos harakatlar bajarish, musiqa savodi, qo'shiq kuylash faoliyatlari uchun maxsus tanlangan texnologiyalarning qisqa variantlarini qo'llagan holda o'quvchilarning darsga faolligini, o'zini

³ Тайлаков Н.И. Электрон дарслик яратишга куйилдиган талаблар // "Халк таълими" журнали, 2005, 2-сон. – с. 17-20.

erkin tutish, muloqotga kirishishlarining faol ishtirokchisiga (vazifa, topshiriqlarni bajarish) aylantirishga harakat qildik. O'quvchilarga dars mavzulari bo'yicha qo'shimcha manbaalarni o'qish, o'z ustida ishlash, sinfdan tashqari mashg'ulotlarga faol qatnashish tavsiya qilindi. O'tilgan darslar ishlanmalari avvalgi bobda keltirildi.

Bu o'rinda musiqani diqqat bilan tinglash, turli savollarga javob berish, ijro etib ko'rsatish, tahlil qilish kabi uslublardan o'rinni foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqishini kuchaytirish, darslarda faol ishtirokini ta'minlash va o'z ustida ishlashlariga alohida ahamiyat berildi:

- qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarni qiziqarli, ixcham, bolalarni yosh va individual xususiyatlariga mosligiga e'tibor berildi;

- darslarda o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, musobaqa tarzida tashkil etishga intildik;

- ko'proq "o'yin" shaklidagi texnologiyalarga o'rinni berildi;

- kuy va qo'shiq namunalarini tinglash, kuylashda uning milliy ijrochilik uslublariga amal qilish, qaysi mahalliy ijrochilik uslubiga tegishliligi, mualliflari, mohir ijrochilari haqida bilimlar nazarda tutildi;

- repertuarining rang – barangligi, nazariy ma'lumotlarni, amaliy vazifalarni bajarish bilan bog'liq holda tushuntirish, ko'rsatib berish kabilar diqqat markazimizda bo'ldi;

- o'quvchilarni maktabda o'tadigan turli madaniy ommaviy tadbirlarga konsertlarga jalb qilishga harakat qilindi;

- ijro ustida ishlash. Milliy cholg'u asboblarini ijro etishga qiziqtirish. Milliy musiqa tinglash va kuylashga o'rgatildi;

- tadqiqot doirasida olib borilgan izlanishlar va amaliy tajribalar pedagogik texnologiyalar vositasida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar ancha faol izlanuvchan va intiluvchan bo'lib qolishlarini ko'rsatdi. Chunki doimiy ravishdagi savol-javob, munozara, so'rov, tahlillar, o'qituvchi-o'quvchining erkin muloqoti va birgalikda ishlashi o'z samarasini berishi tabiiy edi.

Tabiiyki, o'quvchilar mazkur faoliyatning dastlabki davrida o'z tushunchalarini ifoda etish, munosabat bildirish, o'z qarashlarini himoya qilishga biroz qiynaldilar. Bu kamchiliklar hali mustaqil fikrlash tajribasining kamligi, nazariy bilimlarni amaliy jarayonda qo'llay olmasligi, o'z

munosabatlarini to'laqonli aytib olmasliklarining oqibatidir deyish mumkin.

Shunga qaramay olingan so'rovnoma natijalarida qisman bo'lsa-daijibiy natijalarni qayd etolganligimizdan xursand bo'ldik. Musiqani idrok etish (janr, lad, o'lchov, xarakter) ning kirish savolnomasida ishtirok etgan o'quvchilardan salbiy munosabat bildirganlarning 18 nafar ijobiy javob variantini tanlagan bo'lsa, dastlabki so'rovnomadan 9 nafar salbiy munosabatdan ijobiy munosabatga o'tishgan. Shunda kirish so'rovida jami 189 nafaridan ishtirok etgan o'quvchilar chiqish so'rovida 207 nafarga 0 farq bilan natijaga erishildi.

O'rganilgan asarni mustaqil ijro etib bera olasizmi? 207 nafar respondentdan umumiy farq bilan 18 nafar ijobiy munosabatga, 9 nafardan 9 nafarga salbiy munosabatdan ijobiyga o'zgartirdi.

Notani varaqdan o'qish malakasi: 9 nafardan 185 nafar ijobiy munosabatga, 55 nafar salbiy munosabatdan ijobiyga o'zgartirdi.

Cholg'u so'zlari haqida bilishi: 189 dan 198 nafar ijobiy munosabatga, 9 nafar salbiy munosabatdan ijobiyga o'zgartirdi.

Xalq va zamonaviy musiqaning o'ziga xos xususiyatlari uslublari haqida bilishi: Yuqoridagi kabi 189 dan 198 nafar ijobiy munosabatga, 9 nafar salbiy munosabatdan ijobiyga o'zgartirdi.

Musiqaning terminlarini izohlay olishi: 162 nafardan 180 nafarga 18 nafar ijobiy munosabatni, 9 nafar salbiy munosabatdan ijobiyga o'zgartirdi.

Tajriba boshidagi va oxiridagi natijalar, ijobiy va salbiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zgarishlar umumlashtirilib tahlil qilindi va tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarning musiqiy – nazariy, amaliy ijrochilik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalaridagi o'sish darajalari aniqlandi. Ushbu yakuniy darajalar shartli ravishda 4 guruhga ajratildi. Tajriba va nazorat guruhlarida natijalarni hisoblashda qulay bo'lishi uchun 100 ballik reyting tizimidan 5 ballik reyting baholashni ma'qul deb topdik.

Bundan tashqari, biz ijobiy natija kuzatilgan holatda o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni kognitiv⁴ (kognitiv–motivatsion), faoliyatli, refleksiv–baholovchi va xulq–atvoriga doir komponentlarning o'zaro aloqadorlik darajasini tahlil etish orqali dalilning matematik nuqtai nazardan tasdiqlanishi yoki inkor etilishini aniqlashni ko'zda tutdik.

Tajriba va nazorat sinflari ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot an'anaviy tarzda amalga oshirildi. Shuning uchun tadqiqotning diagnostik va yakuniy bosqichlarida o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarning shakllanganligini baholash uchun diagnostik vositalaridan foydalanish to'liq bir–biriga mos keladi.

Tajriba–sinov ishlarini o'tkazishning shakllantiruvchi bosqichida pedagoglar biz tomonimizdan ishlab chiqilgan trening mashg'ulotlari dasturidan foydalanishdi. Nazorat sinflarida o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish vazifasi an'anaviy tarzda yo'lga qo'yilgan o'quv–tarbiya mazmuni, faoliyatni tashkil etish shakli va metodlari orqali amalga oshirildi.

2021-2022 o'quv yilida tajriba–sinov ishlarini o'tkazish orqali tadqiqot boshlandi. U muammoni aniqlash va tadqiqotning ishchi farazini shakllantirish imkonini berdi. Sayyor tajriba–sinov ishlari davomida o'quvchilarda milliy musiqani idrok etish ko'nikmalar komponentlarining tarkib topganlik darajasini aniqlash uchun zaruriy va yetarlicha baholovchi materiallarni shakllantirishga imkon beruvchi diagnostik metodikalar sinovdan o'tkazildi. Shuningdek, "musiqaning madaniyati" fanini o'qitish orqali o'quvchilarda milliy musiqani shakllantirish mazmuni, texnologiyasi, mexanizmi va tizimini ishlab chiqishga doir yondashuvlar sinovdan o'tkazildi.

Ushbu ko'rsatkichlar bajarilgan ilmiy – tadqiqot ishlarining yuqori samaradorlik kasb etganligini ko'rsatadi. Olib borilgan kuzatishlar va o'tkazilgan sinov natijalari o'quvchilarda milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tajriba jarayonida yig'ilgan materiallari tahlil qilindi, umumlashtirildi, eksperiment natijalarini matematik va statistik metodlar yordamida qayta ishlandi, ijobiy natijalar o'quv–tarbiyaviy jarayonlarga kiritildi.

Sinov–tajriba ishlari nihoyasida ham tajriba ishlari olib borilgan sinf o'quvchilarga, ham nazorat sinfiga anketa savollari bilan murojaat qilindi va o'tgan dars davomida bu ikki xil turdagi sinf o'quvchilarining idrokidagi bo'lgan o'zgarishlarni aniqlab oldik.

Tajriba–sinov ishlarining yakuniy bosqichi 2022-yil 12-yanvardan 2022-yil 20-maygacha bo'lgan oralikda tashkil etildi.

Tajriba–sinov ishlarining ushbu bosqichida maqsad tanlab olingan mezonlar bo'yicha nazorat va tajriba sinflarining natijalari qiyosiy tahlilini amalga oshirishdan iborat etib belgilandi. Ushbu maqsadga muvofiq biz quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- olingan natijalarga matematik va statistik ishlov berish;

- tajriba – sinov ishlari davomida olingan ushbu natijalarning qiyosiy diagnostikasini berish;

- olingan natijalarni grafik ko'rinishida taqdim etish.

Shunga ko'ra kuzatish ishlari Farg'ona, Namangan va Andijon shahridagi umumta'lim maktablarida 2021–2022 o'quv yilining III–choragida o'tkazildi. Avvalambor, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi musiqa ta'limining pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, o'qituvchining pedagogik texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tajribasi, bu faoliyatga munosabatini aniqlashga to'g'ri keldi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, aksariyat musiqa o'qituvchilarining musiqa o'qitish metodikasi bo'yicha, muvofiq tarzda pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bilim, malakaviy tayyorgarlik darajalari ancha past.

Bu ko'rsatkichlarni o'quvchilarning pedagogik texnologiyalar, musiqali o'yinlar, ritmik–raqs harakatlarini darsda qo'llashga munosabatlari bilimi haqidagi so'rovlarimiz natijalari bilan taqqoslaganimizda bu holatda vaziyat biz kutganchalik emasligi ma'lum bo'ldi. Olingan natijalar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, musiqa o'qituvchilarini birinchi galda pedagogik faoliyatga texnologik tayyorlash zarur yoki ularni ushbu yo'nalishda malaka oshirishlarini ta'minlash, qisqa kurslarda o'qishlariga imkon yaratish lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi orqali ta'lim tizimining mazmuni, hozirgi darajasi ta'lim texnologiyalaridan talab darajasida foydalanish, ya'ni ta'lim – tarbiya jarayonini texnologik asosda tashkil etishga tayyorlashda yetarli imkoniyatlarga ega emas. Umumta'lim maktablaridagi ta'lim – tarbiya jarayonini texnologik asosda tashkillashtirishda oliy o'quv yurtlari bilan mustahkam va izchil aloqani yo'lga qo'yish zarur.

Shundan so'ng umumta'lim maktablari o'quvchilarida milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasida

4 Gulb'oev T. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish. – Navoiy, 2001. – b. 15.

texnologiyalashtirilgan ta'limni an'anaviy uslubdagi mashg'ulotlarga nisbatan afzallik jihatlarini aniqlash bo'yicha o'zimiz ishlab chiqqan dastur asosida tajriba-sinov ishlarini shakllantiruvchi bosqichdagi vazifalarni amalga oshirishga kirishdik. Bunda Farg'ona, Namangan va Andijon shahridagi umumta'lim maktabining bir xil (7 – sinflar) sinflaridan ikkitadan (biri tajriba sinfi, biri nazorat sinfi) jami 2 ta sinf tanlab olindi.

Tadqiqot muammosi doirasida tashkil etilgan amaliy tajriba-sinov ishlari jarayonida umumta'lim maktablari o'quvchilarida milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi orqali o'quv mashg'ulotlarini ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish (tajriba sinflarida), qo'llanilayotgan texnologiyalarni o'quv mashg'ulotlari, mavzulari, mashg'ulot vaqti, sinf o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatlarini, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda tashkil etish asosiy e'tiborni qaratdik.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarida milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi o'quv mashg'ulotlarining mazmuni, mohiyati va musiqiy faoliyatlarining o'ziga xoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularga mos texnologiya va pedagogik metodlardan o'z o'rnida foydalanildi. Interfaol metodlardan "Aqliy hujum", "Klaster" (tarmoqlash), "Blits so'rov", "Piramida", "Bumerang", "Skarabey", "Bahsmunozara"⁵, "Doira stol atrofida", "O'yla, izla, top", "Kuyni top", "Men dirijyor", "Quvnoqlar va zukkolar", "Konsert dars", "Viktorina darslari", amaliy metodlardan "Savol-javob", "suhbat", "hikoya", "tushuntirish", "uqtirish" va ko'rgazmali, texnik⁶vositalar yordamida namoyish qilish, ko'rsatish kabi uslublarga keng o'rin berildi.

Bahs – munozara, savol – javob, erkin muloqotga asoslangan, o'quvchilarni darsda faol ishtirok etishga, erkin fikrlashga, turli xil harakatlarni bajarishga, o'z munosabatini bildirishi, bahslashishga undovchi tadbirlar samarali va qiziqarli kechishi kuzatildi.

Tajriba – sinov ishlari jarayonida darslarni interfaol va o'z o'rnida amaliy (an'anaviy) metodlardan foydalanish darslarni samarali kechishiga olib kelishida obyektiv va subyektiv omillarni e'tiborga olinishi bu boradagi izlanishlarimizning eng muhim jihatlaridan ekanligi ma'lum bo'ldi.

Tajriba – sinov davrida o'quvchilarni darslarga munosabati, mavzularni o'zlashtirishga intilishlari, o'qituvchiga berayotgan savollari, o'z ustida ishlashlari, berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishlari har bir sinfda bir xil bo'lmasa-da ma'lum darajada yaqin ko'rinishga olib keldi. Shu o'rinda bir sinfdagi sifat o'zgarishlari ayrim muddatda tez rivojlansa, ayrim muddatda sekinroq kechishi ham kuzatildi.

Bunda o'quvchilarni mavzu bo'yicha bilim, tushunchalarni, asarlarni tinglash, tahlil qilish, o'rganish, kuylash, o'z tushuncha va amaliy ijrolarini namoyon eta olishlariga e'tiborni kuchaytirish zarur. Bu ayniqsa, o'quvchilarni maqsadni anglashga, shu maqsadni ta'lim jarayonida nechog'li amalga oshganligini, ya'ni: mavzu doirasidagi bilimlarni nechog'li o'zlashtirilganligini anglash, o'zi va o'zgarlar faoliyatiga baho bera olishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot muammosi doirasidagi tajriba-sinov ishlarimiz uch bosqichda amalga oshirildi:

- tayyorgarlik (tashkiliy) bosqich;
- ishlab chiqilgan metodikani amalga oshirish (amaliy) bosqichi;
- natijalarni umumlashtirish va tahlil qilish (yakunlovchi) bosqich⁷.

Ishlab chiqilgan dastur asosida musiqa darslarini o'quvchilarida milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi orqali tashkil etish va o'quvchilarning musiqiy – nazariy bilimlarini, musiqiy madaniyatini shakllanganlik darajasidagi o'zgarishlarni aniqlashga kirishdik. Buning uchun tajriba boshida o'quvchilarni musiqiy – nazariy bilimlari, musiqani idrok etish unga tavsif berish, baholash, tahlil qilish, ijro etish ko'nikma va malakalarini aniqlab olish lozim topildi. Mazkur ko'nikma malaka va amaliy ijrochilik bo'yicha o'quvchilarning musiqiy madaniyatini belgilovchi mezonlar ishlab chiqildi va dastlab, tanlab olingan tajriba va sinov guruhlarida (sinflarda) test sinovlari, amaliy so'rov va o'quvchilarni ijrochilik (kuylash) malakalarini aniqlovchi o'ziga xos ijodiy–amaliy "sinov" lar o'tkazildi.

Tajribaning yakuniy qismida statistik ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish davomida oldindan belgilangan mezonlar bo'yicha adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyasidan foydalanishning ilmiy–metodik asoslari bo'yicha

⁵ Саидрахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. – Т.: "Молия", 2003. – б. 25.

⁶ Абдуллаева Ш.А. Педагогика. – Т.: "Фан ва технологиялар", 2013. – б. 67.

⁷ Ишмухамедов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. – Т.: "Нихол", 2013. – б. 42.

o'qitish samaradorligi darajasini aniqlashga qaratilgan savolnoma natijalari hisobga olindi.

OMMAVIY OCHIQ ONLAYN KURSLAR TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VOSITASI

Azzam Eshpo'latovich Begbo'tayev - PhD, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Gulnigor Oybekovna Davronova - magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotasiya: Maqolada oliy ta'lim sifatini uzluksiz ta'minlashda zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalari negizida yaratilgan ommaviy ochiq onlayn kurslardan foydalanish haqida fikr yuritilgan. Bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar o'rganilib, xorijdagi mavjud onlayn kurslarning faoliyatlarini tahlil qilingan hamda muammo va kamchiliklar aniqlangan. Tadqiqotlar asosida ommaviy ochiq onlayn kurslardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Аннотация: В статье рассматривается использование массовые открытые онлайн-курсы, созданных на основе современных информационно-коммуникационных технологий, для непрерывного обеспечения качества высшего образования. Были изучены научные исследования в этой области, проанализирована деятельность существующих онлайн-курсов за рубежом, выявлены проблемы и недостатки. На основе исследования были даны рекомендации по развитию механизмов использования массовых открытых онлайн-курсов.

Abstract: The article discusses the use of Massive Open Online Courses created on the basis of modern information and communication technologies to continuously ensure the quality of higher education. Scientific research in this field was studied, activities of existing online courses abroad were analyzed, and problems and shortcomings were identified. Based on the research, recommendations were made for the development of mechanisms for the use of Massive Open Online Courses.

Kalit so'zlar: ommaviy ochiq onlayn kurs, onlayn ta'lim, m-learning, mobil texnologiyalar, mobil aralash ta'lim.

Ключевые слова: массовые открытые онлайн-курсы, онлайн-обучение, мобильное обучение, мобильные технологии, мобильное смешанное обучение.

Keywords: massive Open Online Courses, online education, m-learning, mobile technologies, mobile blended learning.

Jahonda xalqaro tashkilotlar isloh qilish va takomillashtirish bo'yicha (YUNESKO, YUNISEF, BMT) va rivojlangan qator amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, davlatlar (Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rossiya va boshqalar) tomonidan qabul 2022-yil 28-yanvardagi PF60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning tarami va taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni va qilingan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro tarami va taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi tarami va taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim omil ekanligi ta'kidlanib, sifatli ta'lim berish uchun virtual ta'lim texnologiyalari, ommaviy ochiq onlayn kurslar, mobil ta'lim texnologiyalari, ta'limni boshqarish tizimlari hamda elektron ta'lim modellaridan samarali foydalanish tavsiya etilgan.

Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda ham keyingi yillarda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish va takomillashtirish bo'yicha yo'nalishlaridan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan o'quv jarayonini tizimli

¹ Incheon Deklaratsiyasi / Ta'lim-2030. (Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. –p.6-7) <http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>

integratsiyalash hisoblanadi. Bunda o'quv jarayonini tashkil etish va uning mazmunini tubdan yangilash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida o'qituvchining pedagogik faoliyati va talabning ta'lim olish jarayonini tashkil etish strategik masala sifatida namoyon bo'ladi.

Jahonda bugungi kunda keng qo'llanilayotgan ta'lim texnologiyalaridan biri – bu ommaviy ochiq onlayn kurslar bo'lib, uni mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini uzluksiz ta'minlash masalasining yechimi sifatida oliy ta'limga joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Ommaviy ochiq onlayn kurslar butun dunyo bo'ylab talabalar uchun qulay va arzon masofaviy ta'lim imkoniyatlarini taqdim etadi. Garvard universiteti va Massachusetts texnologiya instituti kabi xorijiy oliy ta'lim muassasalari turli mavzularda va turli ta'lim darajalardagi onlayn kurslarni taklif qilib, bunda muayyan mavzuni chuqurroq o'rganish uchun bitta kurs yoki ta'lim sohasi bo'yicha bilim olish uchun bir qator kurslarni o'rganish mumkin bo'ladi.

Hozirda o'z faoliyatini yo'lga qo'yg'an bunday ommaviy ochiq onlayn kurslarga Canvas Network, Cognitive Class, Coursera, edX, FutureLearn, Kadenze, Khan Academy, Udacity, Udemu va boshqa platformalarni misol keltirish mumkin. O'z navbatida bu loyiha iqtisodiy jihatdan arzon va samarali vosita ekanligi o'z tasdig'ini topmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, xorijda oliy ta'lim muassasalari rahbariyatlari kelajakdagi byudjet manfaati uchun onlayn kurslar yaratish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqishga katta mablag'lar sarflashmoqda.

Bu borada mamlakatimizda UNESCOning O'zbekistondagi vakolatxonasi Birlashgan Qirolligining O'zbekiston elchixonasi hamkorligidagi Media va axborot savodxonligi loyihasi doirasida Respublika bo'ylab O'MKHT tizimi o'qituvchilarining mavzu doirasida bilimlarini oshirish maqsadida 2017-yilda seminar-treninglar olib borildi. Buning natijasida 350 dan ortiq o'qituvchilar Media va axborot savodxonligi bo'yicha o'z bilimlarini mustahkamlashdilar. Loyiha davomi sifatida Media va axborot savodxonligi bo'yicha ushbu mooc.edu.uz. - Ommaviy Onlayn Ochiq Kurslar Oliy va O'rta Maksimal Ta'lim Vazirligi qoshidagi Elektron

Ta'lim Markazi hamkorligida tashkil etildi².

Xorij va respublikamizdagi ilmiy tadqiqotlarning manbalarida bayon etilgan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ommaviy ochiq onlayn kurslar ta'limdagi nisbatan yangi yo'nalish hisoblanib, uslubiyatchi olimlar tomonidan tadqiq etishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan va kam o'rganilgan. Sohaga oid muammolarning ayrim nazariy hamda tadbqiqiy jihatlarini xorijda J.Rodriguez, E.Pierson, F.Jara, O.I.Handarini, S.S.Wulandari, A.S.Syarifudin, K.W.Chan, M.H.Cheng, A.D.Miller, E.M.Ramirez, D.F.Donnely; vatanimizda esa V.S.Xamidov, T.E.Delov, Sh.Sh.Farxodov, N.I.Sagidullayev, A.Z.Karimov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Ommaviy ochiq onlayn kurslar internetdan – ochiq foydalana olishda tinglovchilarning yirik masshtabli interaxborot-kommunikatsiyatexnologiyalari ishtirokiga tuzilgan kurslardan iborat. «Ommaviy ochiq kurs» atamasi fanga ilmiy tadqiqotchilar Brayn Aleksandr va Deyv Kormening «Connectivism & Connective knowledge» kursi ustida olib borilgan ishlari natijasida kiritilgan.

Mamlakatimiz ilmiy tadqiqotchilari T.E.Delov va Sh.Sh.Farxodovlar OOOK tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: Ommaviy ochiq onlayn kurslar (inglizchada MOOK) atamasi to'rtta tushunchalardan iborat³

- Massive (ommaviy) – kursda dunyo bo'yicha ishtirokchilarning katta miqdori o'qilishini bildiradi;

- Open (ochiq) – har bir kurs bepul hisoblanib insonlar istalgan vaqtda kursga ulanishi mumkin;

- Onlain (onlayn) – barcha kurslardan Internet tarmog'ida ochiq foydalana oladi. Kursda ta'limning asinxron metodidan foydalanish mumkin, bunda o'qish uchun barcha mas'uliyat tinglovchilar zimmasida bo'ladi va ta'limning sinxron metodida o'qish jarayoni o'qituvchi bilan real vaqt rejimida amalga oshiriladi;

- Course (kurs) – har bir kurs har bir ishtirokchiga moslashtirilgan holda o'z qoidalariga, tuzilmasiga va maqsadiga ega bo'ladi.

Tadqiqotimiz davomida “onlayn ta'lim” tushunchasiga aniqlik kiritish maqsadida bir qator manbalar o'rganildi. Jumladan,

2 N.I.Sagidullayev. PHP dasturlash tilini o'qitishda ommaviy ochiq onlayn kurslar tahlili. Iqtisodiyotning tarmoqlarini innovatsion rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati. Respublika ilmiy-texnik anjumanining ma'ruzalar to'plami. Toshkent. 2019-yil. 388 –b.

3 T.E.Delov, Sh.Sh.Farxodov. «O'quv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 2019-yil 17-18 may. Gulliston – 2019

O.I.Handarini va S.S.Wulandari tashkil etildi⁴. ta'kidlashicha: onlayn ta'lim - bu talabalarga bilim berish Internetdan uzatish vositasi sifatida foydalangan holda amalga oshiriladigan ta'limdir⁴.

A.S.Syarifudinning ta'rifiga ko'ra “onlayn ta'lim – bu yuzma-yuz amalga oshirilmaydigan o'quv jarayoni bo'lib, unda elektron ommaviy axborot vositalari sifatida Internet tarmog'ida virtual texnologiyadan foydalaniladi”⁵ uchun Covid-19 pandemiyasida talabalarga material yetkazib berish uchun asosiy yechim bo'la oldi.

Onlayn ta'limda o'qitish va o'rganish tushunchalarini miqdoriy va sifat toifalariga ajratamiz. Miqdoriy konsepsiya o'zlashtirilgan va qayta ishlab chiqarilgan bilimlar hajmini bildiradi, shuningdek, ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan o'qitish deb ham ataladi. Bunday yondashuv o'qituvchining fikriga va ta'lim oluvchilar o'qitilayotgan materialni qanchalik yaxshi o'zlashtirganini baholashga qaratilgan. Kurs tavsiflari asosan ma'ruzalarda o'tiladigan kurs mazmuniga taalluqlidir. O'qituvchi bilim uzatuvchi, ta'lim oluvchi esa bilim oluvchi sifatida qabul qilinadi. Bundan farqli o'laroq, sifat tushunchasi o'rganishga konstruktiv muloqot va ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan o'qitish bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni chuqur tushunishni anglatadi. Konstruktiv muloqotda ta'lim ishtirokchilarining izlanish, hamkorlik va tanqidiy fikrlash bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan o'quv kontekstini yaratish orqali o'rganishni ehtiyojlariga ko'proq moslashtiradi⁶.

A.D.Miller va boshqalarning ta'kidlashicha: kuchli ta'sir tuyg'usiga ega bo'lgan o'qituvchilar yangi g'oyalarga ko'proq moyil va o'z talabalarining ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun yangi usullar bilan amaliy tajriba o'tkazishga tayyor hisoblanadi. O'qituvchilar faoliyatining yuqori samaradorligi ta'lim oluvchilarga ko'proq ijodiy yondashuvi va faol bo'lishga undaydi hamda ijobiy auditoriya muhitini shakllantirishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida bu o'qituvchi taqdim etadigan

o'quv muhiti turiga ham ta'sir qiladi⁷.

R.Vanderlinde va Van Braak ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etganlar. Ular o'z tadqiqotida ta'lim maqsadlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalashning murakkab jarayonini o'rganish uchun konseptual asosni taqdim etganlar va o'qituvchilarning ulardan samarali foydalanishining muhim sharti sifatida boshqa o'zgaruvchilar qatorida o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyasini ham ko'rsatganlar. Ta'kidlash kerakki, aniqlangan faoliyat konstruktiv ta'lim kontekstida belgilanmagan va ular fanni o'qitish bilan bog'liq emas⁸.

Zamonaviy ta'limning eng katta imkoniyatlaridan biri bu ularni o'rganish va baholash jarayonlarida mobil qurilmalardan foydalanishdir. Mobil texnologiyalar keng rivojlanib, ko'pchilik insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanganligi sababli, uzluksiz ta'lim tizimida integrativ yondashuv asosida chuqurlashtirilgan onlayn ta'limni mobilli o'qitish yordamida tashkil etish yanada yuksak samaralar berishi mumkin. Texnologiya bizga kerakli vaqtda sifatli ma'lumotlarga kirish imkoniyatini beradi, bu vaziyatda o'qituvchilar Ochiq ta'lim resurslari va mobil qurilmalardan o'qitish va baholash jarayonida foydalanishni birlashtiradigan aralash ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishlari kerak.

So'nggi paytlarda texnologiyadan o'qitish vositasi sifatida foydalanishni taklif etadigan ko'pgina tadqiqotlar mavjud. J.Rodriguez va E.Pierson kabi mualliflar Chili maktablari sinflarida o'quvchilarning matematikaga ishtirokini kuchaytirish uchun bugungi kunda ta'limda innovatsiya sifatida qaralayotgan ommaviy ochiq onlayn kurslardan biri - Xon Akademiyasidan ochiq ta'lim resursi sifatida foydalanishni taqdim etadilar⁹.

Respublikamiz tadqiqotchilaridan N.I. Sagidullayev o'z maqolasida jahonda mavjud

4 Handarini, O. I., & Wulandari, S. S. (2020). Pembelajaran Daring Sebagai Upaya Study From Home (SFH) Selama Pandemi Covid 19 [Online Learning as a Study From Home Effort]. Jurnal Pendidikan Administrasi Perkantoran (JPAP), 8(3), 496–503.

5 Syarifudin, A. S. (2020). Impelemenasi Pembelajaran Daring untuk Meningkatkan Mutu Pendidikan Sebagai Dampak Diterapkannya Social Distancing [Implementation Online Learning to Improve the Quality of Education As a Result of the Implementation of Social Distancing]. Jurnal Pendidikan Bahasa Dan Sastra Indonesia Metalingua, 5(1), 31–34.

6 Cheng, M. H., Chan, K. W., Tang, S. Y. F., & Cheng, A. Y. N. (2009). Pre-service teacher education students' epistemological beliefs and their conceptions of teaching. Teaching and Teacher Education, 25, 319e327

7 Miller, A. D., Ramirez, E. M., & Murdock, T. B. (2017). The influence of teachers' self-efficacy on perceptions: Perceived teacher competence and respect and student effort and achievement. Teaching and Teacher Education, 64, 260e269.

8 Vanderlinde, R., & van Braak, J. (2010). The e-capacity of primary schools: Development of a conceptual model and scale construction from a school improvement perspective. Computers & Education, 55, 541e553.

9 Rodriguez J., Light D. and Pierson E. (2014). "Khan Academy en Aulas Chilenas: Innovar en la enseñanza e incrementar la participación de los estudiantes en matemática", Recuperado.

ommaviy ochiq onlayn kurslarni tahlil qilar ekan: "Ba'zi platformalarda o'z mazmuni yo'q (ta'lim materiallari), lekin ularni dunyodagi yetakchi universitetlardan qabul qilishadi. Olingan o'quv materiallari o'quvchilar uchun o'z platformalarida qulay, tizimli tarzda joylashtiriladi" deb fikr bildirib o'tadi¹⁰.

Tadqiqotchi olim F.Jara o'rta axborot-kommunikatsiya texnologiyalari talab darajasida matematikani o'rganish uchun o'qitish strategiyasi sifatida mobil qurilmalar integratsiyasini taklif qiladi. Texnologik yutuqlar subyektning o'z muhitining moddiyligi bilan o'zaro ta'sir qilish tajribasini o'zgartiradi, gnoseologik bilimlarni rivojlantirishda yangi paradigmalarni yaratishni rag'batlantiradi. Ijtimoiy o'zaro ta'sirning dinamikasi va tuzilmalarida chuqur o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, ularning kognitiv rivojlanish jarayonlariga ijobiy ta'sir qiladi hamda shaxslarni shakllantiradi¹¹.

Tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini umumlashtirgan holda mushohada yuritib, mavjud onlayn kurslarning faoliyatini tahlil qilar ekanmiz quyidagicha muammo va kamchiliklar mavjudligini aniqladik:

ommaviy ochiq onlayn kurslar taqdim etayotgan imkoniyatlar haqida kam sonli talabalar xabardor;

resurslarning yetarli darajada ta'minlanmaganligi, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlarning potensial tinglovchilari uchun kompyuter va doimiy ishonchli Internet aloqasi kabi onlayn o'zaro ta'sir uchun elementar bo'lgan texnik resurslarga muhtoj;

onlayn ta'lim platformalarining tobora kuchayib borayotgan siyosati sharoitida talabalar sertifikat olishda (Coursera, edX platformalarida), butun kursga yoki alohida elementlarga kirishda o'zlarining shaxsini tekshirish uchun moliyaviy resurslarga muhtoj (Coursera, FutureLearn);

ommaviy ochiq onlayn kurslarda o'qitish bo'yicha kompyuter savodxonligi, xalqaro aloqa tillarini, asosan ingliz tilini bilishiga oid bilim va ko'nikmalari darajasining pastligi;

aralash tuzilmaga ega bo'lgan kurslarni tashkil qilish va sifatini baholash uchun yagona standart loyihaning mavjud emasligi;

ochiq kurslarni o'quv jarayoniga integratsiya qilinishining iqtisodiy va ta'limiy ta'sirining noaniqligi;

onlayn kurslarni ayrim pedagog

o'qituvchilarning o'quv dasturi sifatida ishlatishga qiziqishlari mavjud emasligi;

ochiq kurslarni tanlash, qulay muddatli o'quv dasturini shakllantirish, shuningdek, o'zlashtirish natijalarini aniq qayta hisoblash mezonlarining ishlab chiqilmaganligi.

Bu kamchiliklar esa oliy ta'lim sifatini ta'minlash maqsadida tashkil etiladigan akademik jarayonlarda ommaviy ochiq onlayn kurslardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish masalasida quyidagilarni bajarish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi:

ommaviy ochiq onlayn kurslardan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalar tahlili asosida iqtisodiy samaradorlikka erishish usullarini aniqlash;

ta'lim muassasasi ehtiyojlari va muammolari auditini o'tkazish, ularni ommaviy ochiq onlayn kurslarni yaratish va foydalanish loyihasi yordamida hal qilish imkoniyatlarini baholash;

ishga tushirilgan loyihaning baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini aniqlash;

fanlar kesimida talabalar mustaqil ta'limini tashkillashtirish jarayonlarini umumiy tahlil qilish;

talabalarning mavjud materiallarga bo'lgan ehtiyojlarini baholash;

me'yoriy-huquqiy va qonunchilik hujjatlari asosida mualliflik huquqlarining ta'minlanishiga erishish;

materiallarni ishlab chiqish va yangilashda universal (yoki inklyuziv) pedagogik loyihalash tamoyillariga rioya qilish;

aholining keng toifalarini onlayn ta'lim olish imkoniyatlari to'g'risida xabardor qilish;

onlayn ta'limni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ommaviy ochiq onlayn kurslarni yaratish bosqichlariga mos komponentlar 1-rasmda keltirilgan.



10 N.I. Sagidullaev. PHP dasturlash tilini o'qitishda ommaviy ochiq onlayn kurslar tahlili. Iqtisodiyotning tarmoqlarini innovatsion rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati. Respublika ilmiy-texnik anjumanining ma'ruzalar to'plami. Toshkent. 2019-yil. 389-9.

11 Jara F. (2016). "La Integración de los dispositivos móviles. Una estrategia didáctica para el estudio de las matemáticas en el nivel medio superior: Avances en Matemática Educativa", Tecnología y matemáticas, Vol. 1, No. 1, pp. 3-7.

1-rasm. Ommaviy ochiq onlayn kurslarni yaratish bosqichlariga mos komponentlar

Xulosa qilib aytganda, fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan taraqqiyotini, raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy hayotga ta'sirini e'tiborga olgan holda, oliy ta'lim muassasalarda ommaviy ochiq onlayn kurslarni o'quv jarayonlariga tadbiiq etilishi ta'lim tizimida ijobiy o'zgarishlar hamda

iqtisodiy samaradorlikka erishishiga olib keladi. O'z navbatida, bu ta'limning uzluksizligi va amaliy yo'nalganligi, ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini negizidayaratilgan zamonaviy elektron o'qitish vositalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

TALABALARDA PEDAGOGIK HURFIKRLILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK JIHATLARI

Dilshod Raxmatovich Yunusov - katta o'qituvchi, PhD. Jizzax davlat pedagogika universiteti
Xagnazar Hushmirzayevich Xamzayev - katta o'qituvchi, PhD. Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik hurfirlilikka oid bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va bu sohadagi kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье разъясняется, что выявление знаний, умений и навыков будущих учителей в отношении педагогического бихевиоризма и формирование и развитие их компетенций в этой области является одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня.

Abstract: This article clarifies that the identification of knowledge, skills and abilities of future teachers regarding pedagogical behaviorism and the formation and development of their competencies in this area is one of the urgent issues of today.

Kalit so'zlar: hurfirlilik, bilim, ko'nikma, malaka, o'quv dasturlari, o'quv rejaları, buyuk siymolar, qadamjolar, ijtimoiy faollik, turizm, ekskursavodlik, Vatanga sadoqatlilik.

Ключевые слова: предубеждение, знания, навыки, квалификация, учебные программы, учебные планы, великие фигуры, ступени, социальная активность, туризм, экскурсоводство, преданность Родине.

Keywords: sufficiency, knowledge, skills, qualifications, training programs, training plans, great figures, pheasants, social activity, tourism, excursion, loyalty to the motherland.

Bugungi kunda globallashtirish jarayoni talabalariga mos ijtimoiy-siyosiy faol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Ushbu vazifalar O'zbekiston Respublikasining me'yoriy hujjatlarida – «jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish» sifatida belgilab qo'yilgan¹. Shu ma'noda bo'lajak

o'qituvchilarning pedagogik hurfirlilikka oid bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va bu sohadagi kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimidagi uning ahamiyati quyidagilarda o'z aksini topadi:

- o'quv dasturlarini, o'quv rejalarini yangilash;
- ta'lim jarayonini AKT lar bilan boyitish;
- o'qituvchi obro'sini yanada oshirish;
- ta'lim muassasalarining yangi imidjini yaratish;
- ta'lim muassasalariga mustaqillik berish;

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil 7-fevral, 6-son, 70-modda.

- ilm-fanni rivojlantirish;
- maktabni ta'limning keyingi bosqichlari bilan bog'lash;

Bugungi kunda globallashuv, integratsiya jarayonida barcha sohalarida shiddat bilan kechayotgan taraqqiyot insoniyatning ijtimoiy faolligini taqozo etadi. Bu o'rinda talabalar o'rtasida hurfikrlilikni tarbiyalashga alohida e'tibor berish davr talabidir. Bu borada talabalarning iqtidori, iste'dodi, qobiliyati, intellektual salohiyati, kreativ va sog'lom tafakkurini jamiyat talablariga mos rivojlantirishda ota-bobolar tomonidan shakllantirilgan milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanish ijobiy samara beradi². Chunki, juda qadimdan ota-bobolarimiz yoshlar tarbiyasiga jiddiy yondashib, ularni barkamol shaxs sifatida rivojlantirishga bor kuchini safarbar qilishgan.

Insoniyat o'z ongini boshqara oladigan kundan boshlab jamiyatda va tabiatda bo'layotgan voqea va hodisalar nima sababdan sodir bo'layapti degan savol ularda paydo bo'lganligi ilk hurfikrlilikdan dalolat beradi. Savolga javob izlashdan asnosida o'zlarining ehtiyojlarini qaysidir ma'noda qondirishga harakat qilishgan. Bunga olovning kashf qilinishi, oziq-ovqatlarni pishirib yeyishining tarixini, issiqdan va sovuqdan saqlanish vositalarining kashf qilinishi hamda mehnat quollarining yaratilishini misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin³.

Agarda insoniyat tarixining ilk bosqichlarida hurfikrlilik bo'lmaganda odamlar shaxs sifatida shakllanmasdan biologik mavjudot sifatida yashab qolgan bo'lar edi. Demak, bugungi kunda ham odamlar ijtimoiy muhitda shakllanib barkamol shaxs sifatida mustaqil fikrga ega bo'lishga intilishlari o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik hurfikrlilikni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri, shubhasiz, bu ijtimoiy asoslarga tayanishdir. Bu qanaqa asos, uning mazmun-mohiyati nima bilan bog'liqligini anglashimiz uchun biz bir necha lug'atlarga murojaat qildik. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ijtimoiy so'zining ma'nosi quyidagicha berilgan. Ijtimoiy - jamoa, jamiyatga oid. 1. Inson va jamiyat hayotiga oid⁴.

Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqadigan bo'lsak, jamoa, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar orqali biz yoshlarni hurfikrlilikka yo'naltirish ishlarini olib borishimiz maqsadga muvofiqdir. Demak, biz jamoaning o'ziga to'xtab o'tish orqali yoshlar o'rtasida hurfikrlilikni shakllantirishda jamoaning o'ziga xos funksiyalariga to'xtalamiz. Bular: moslashuvchanlik, maqsadlilik, kengashlilik, barqarorlik, ijtimoiylik, integrativlik, tarbiyalovchilik kabilar.

Demak, talabalarda pedagogik hurfikrlilikni rivojlantirishda pedagogik jamoaning o'zni haqida ma'lumotlar berilishi va manbalar bilan

qurollantirilishi shart ekan. Chunki pedagogik hurfikrlilikni rivojlantirishda pedagogik jamoaning o'ziga xos ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari mavjud. Bular:

- Talabalarni ta'limga moslashtirish,
- Ta'lim-tarbiyaga oid manbalar Nishonova 3.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. - T.: Fan, 2003 bilan qurollantirish,
- Pedagogik-psixologik yordam berish,
- Pedagogik-psixologik ta'sir etish.

Manbalardan bizga ma'lumki, insoniyatning rivojlanish tarixida ma'naviy yuksalishning ham o'zni kattadir. Albatta, buning asosida ham insonlarning hurfikrlashlari yotadi. Insoniyat tarixida ilk hurfikrlilik ijobiy natijalarni bergan. Shu sababdan ham bunga asos bo'luvchi manbada afsonalar, xalq og'zaki ijodi (folklor) janri orqali ko'tarilgan fikrlar diqqatga sazovordir. U xayolot, uydirma va to'qimadan iborat bo'lsa-da, so'zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hatto bo'lib o'tgan davri, makoni ham ko'rsatiladi. Afsonalar og'zadan og'izga, eldan-elga o'tib kelgan ifoda usulida bayon etilgan. Afsonalar og'zaki hikoyat bo'lib, u xayoliy obraz yoki tasavvur asosiga quriladi, hikoya qiluvchilar va tinglovchilar tomonidan qachonlardir shunday bo'lgandek qabul qilinadi. Rivoyatdan farqli o'laroq afsonalar zaminida, albatta, mo'jiza, sehr-jodu bo'ladi. Ko'chma ma'noda afsonalar - uydirma, yolg'on, aqlga to'g'ri kelmaydigan gap, deb e'tirof etiladi⁵.

Afsonalar odamlarni erkin fikrlashga undaganligi va tarbiyaviy ahamiyatga egaligini inobatga olib, quyidagi ketma-ketlikda o'rganish maqsadga muvofiq.

1. Olam haqidagi afsonalar;
2. Toponimik afsonalar;
3. Elatlarning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan afsonalar;
4. Hayvonot dunyosi bilan bog'liq afsonalar;
5. Tabiatdagi voqea, hodisalar bilan bog'liq afsonalar;
6. Tarixiy shaxslar bilan bog'liq afsonalar;
7. Din bilan bog'liq afsonalar;
8. Shoir va yozuvchilarning asarlarida afsonalarning o'zni.

Shubhanbir qatordabiz bo'lajako'qituvchilarda pedagogik hurfikrlilikning ko'nikma va malakalarini shakllantirishda yurtimizda olib borilayotgan tub islohotlarning barchasi inson omiliga, uning qadr-qimmatiga, manfaatiga qaratilganligi borasidagi amaliy ishlarga e'tibor qaratishni e'tirof etamiz⁶. Bunda, birinchidan, yurtimizda buyuk siymolar qo'nim topgan qadamjolarni obod qilish va ularning faoliyatini yoshlar ongiga singdirish masalasi bo'yicha aniq rejalar tuziladi; ikkinchidan, millatlararo totuvlikni yo'lga qo'yish masalasi bo'yicha olib borilayotgan ishlar va ularning yoshlar tarbiyasiga ta'siri to'g'risida fikrlar almashinishi yo'lga qo'yiladi; uchinchidan, ta'lim sohasini tubdan

² Локк Д. Письмо о веротерпимости // Английское свободомыслие: Д.Локк, Д.Толанд, А.Коллинз / Отв. ред. Б.В.Мееровский. - М.: 1981.

³ Nishonova 3.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. - T.: Fan, 2003

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati 2 tom.

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati 2 tom.

⁶ Konoplyov N.S. Istoriya svobodomisllya. Irkutsk 2016 g.

isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarga o'zimizning hissamiz qay darajada bo'lishi kerakligi va bu jarayonda faol ishtirok etish masalasi doimiy ravishda ishimizda yetakchilik qiladi; to'rtinchidan, yoshlarning ijtimoiy faolligi orqali har bir hududning zamonaviy ma'naviy qiyofasini yaratish va u orqali turizmni yanada rivojlantirish masalasi bo'lajak o'qituvchilarga ekskursavodlik ilmi berib boriladi; beshinchidan, yurtda barqaror tinchlikni saqlab turish uchun yoshlarni Vatanga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash borasida hamkorlik pedagogikasi yo'lga qo'yiladi; oltinchidan, Vatanni dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga olib chiqishda biz bo'lajak o'qituvchilarning vazifalari nimalarda o'z aksini topishi borasida pedagogik hurfikrlilik qarashlari shakllantiriladi. Bu jarayonda talabalar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan «Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus»ni hamda «Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash» shiorlarining mohiyatini tushunish va amalga oshirish jarayonlarida pedagogik hurfikrlilikni shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratish kerakligi tushuntiriladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik hurfikrliligini shakllantirish va rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasining 5 ta muhim tashabbusi doirasida amalga oshirilgan ishlarining ham o'zni beqiyos. Bu borada bo'lajak o'qituvchilarni talabalar tomonidan tashkillashtirilgan hisobot konsertlariga olib borish, hamda ijro etilgan kuy, qo'shiq, ashula va raqs san'atida nimalar ifoda etilganligi, kuy, qo'shiqlar kimlar tomonidan bastalanganligini so'ng muhokama qilish, san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishida tashkillashtirilgan ko'rgazmaga olib borish, rassomlarning hayoti va ijodi bilan tanishish bilan bir qatorda uning hurfikrlilikka oid g'oyalari asarlaridagi aksini tushunishdan iborat.

Bundan tashqari talabalar teatrda qo'yiladigan spektakllarga olib boriladi va undagi asosiy g'oyalarni guruhlar kesimida muhokama qilish ham ta'lim oluvchilarning hurfikrlilik dunyoqarashini shakllantirish uchun asos bo'ladi. Jumladan, «Jannatga yo'l», «Vatan bolasi» (Talabalar teatri) kabi asarlarni ko'rish va ularning tahlili jarayonlarida talabalar bilan ochiq badiiy muloqotni yo'lga qo'yish natijasida ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar tahlil qilinadi.

Talabalarni xalq amaliy san'ati bilan yaqindan tanishtirish masalasida yurtimiz hududidan mezolit, neolit davriga taaluqli sopol idishlar, 3 ming yillik oxiri 2 ming yillikka oid jez davri quyma

badiiy buyumlari, ilk o'rta asr (V-VIII asrlar) amaliy bezak san'ati ganch o'ymakorligi (Samarqand, Varaxsha) va yog'och o'ymakorligi (Surxondaryo viloyati)da, VI-X asrlardan shisha idishlar ko'plab ishlanganligi o'sha davr ilg'or fikrlar natijasi hisoblanishi talabalarga tushuntirilib boriladi⁷.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik hurfikrliligini rivojlantirishda ikkinchi tashabbus bo'yicha talabalar o'rtasida shaxmat-shashka, yugurish, arqon tortish, milliy sport turlariga jalb qilish, talaba qizlar o'rtasida volleybol, futbol musobaqalari o'tkazish maqsadga muvofiq.

Uchinchi tashabbus bo'yicha talabalar o'rtasida kompyuter texnologiyalari savodxonligi bo'yicha bilimlar kechasini tashkillashtirish, kompyuter texnologiyalari mutaxassislari bilan uchrashuvlarni o'tkazish, talabalarga dasturlashtirish metodikasi bo'yicha trening o'tkazishni tashkillashtirish, fakultetda internetdan foydalanish bo'yicha mahorat darslari o'tkazish, to'rtinchi tashabbus bo'yicha talabalarning ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida kitobxonlik kechalari o'tkazish kabi ishlarini amalga oshirish ijobiy natijalar beradi. Unda amalga oshirilgan ishlar orqali talabalarni ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq bo'lgan innovatsion g'oyalarga o'rgatib boriladi, pedagogik hurfikrlilik madaniyati shakllantiriladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik hurfikrliligini rivojlantirishda beshinchi tashabbus bo'yicha talaba qizlarni ish bilan ta'minlash o'z xohish va istaklarini inobatga olgan holda tadbirkorlik ilmi bilan tikuvchi-bichuvchilikka, pazandalikka bo'lgan qiziqishini inobatga olgan holda shu yo'nalishlarning mohirlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik hurfikrlilikka oid bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish ularning ongi va qalbiga qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan shakllantirilgan hurfikrlilikni rivojlantirish masalasida tanlab olingan texnologiyadan foydalanishning mazmuni va metodlarini bosqichma-bosqich yoritish maqsad qilib olingan.

Bunda ta'lim-tarbiya jarayonlarida an'anaviy bilim olish tizimi va an'anaviy fikrlash doirasidan noan'anaviy bilim olishga ishtiyok va noan'anaviy ilg'or fikrlash ishtiyogining amalda samarali qo'llanilishi natijasidagi rivojlanishi ekanligini ko'rsatib o'tdi. Bu esa bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi bilan asoslaniladi.

⁷ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 1 tom. 800 bet

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT RUHIDA TARBIYALASHNING SHAKL VA VOSITALARI

Mamadoli Ruzimurodovich Isaqulov - katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jaholat va ma'rifat tushunchalari mazmuni, mohiyati ochib berilgan hamda uni yuqori sinf o'quvchilarini jaholatga qarshi ma'rifat ruhida tarbiyalashning shakl va vositalari to'g'risida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье раскрываются содержание и сущность понятий невежество и просвещение, обсуждаются формы и средства воспитания старшеклассников в духе просвещения против невежества.

Abstract: This article reveals the content and essence of the concepts of ignorance and enlightenment, discusses the forms and means of educating high school students in the spirit of enlightenment against ignorance.

Kalit so'zlar: ma'rifat, jaholat, tarbiya, shakl, vosita, texnologiya, ma'naviy-ma'rifiy hordiq.

Ключевые слова: просвещение, невежество, образование, форма, средства, технология, духовно-познавательная рекреация.

Keywords: enlightenment, ignorance, education, form, means, technology, spiritual and cognitive recreation

Bugungi kunda dunyo miqyosida yoshlarni ma'rifat ruhida tarbiyalashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish global muammolaridan biri sanaladi. Shu ma'noda rivojlangan davlatlarning ilmiy tadqiqot mussasalarida o'quvchilarning jaholatga qarshi ma'rifatga oid dunyoqarashlarini shakllantirish borasida zamonaviy o'qitish usullarini erkin tanlash, tarbiya mashqlaridan va multimediyali tarbiya dasturlaridan foydalanishning ta'minotini takomillashtirish bilan bir qatorda amaliyotga tadbiriq qilishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishda muvofiqlarini tanlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilga rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda - konsepsiya) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, 2030-yilgacha mo'ljallangan "Yoshlar strategiyasi", Yoshlar manfaatlari

bo'yicha butunjahon harakatlar dasturi, 2020-yil dekabr oyida tashkil etilgan "O'zbekiston yoshlari" forumida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy majlisga Murojatnomasida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqilgan¹ bo'lib aynan yoshlar faoliyatiga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bu borada mamlakatimizda ham yuqori sinf o'quvchilarini jaholatga qarshi ma'rifat ruhida tarbiyalashning samarali usullaridan foydalanish bilan bir qatorda xorijiy tajribalarni qo'llash asosida ularda jaholatga qarshi ma'rifat kompetensiyasini shakllantirishning nafaqat me'yoriy asoslari balki moddiy texnika bazasi ham yaratildi. Bu borada jaholatga qarshi ma'rifat g'oyalari o'qituvchilarning takomillashtirish, jaholat va ma'rifat bilan bog'liq tushunchalarni o'qituvchilar ongiga singdirish maqsadga muvofiq. Bunda Sharq allomalarining jaholatga qarshi ma'rifat g'oyalari o'qituvchilarga foydalanish, dars jarayonlarida o'qituvchilarga

¹ <https://lex.uz/docs/5234746> Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январдаги 23-сон қарори

o'rganish mumkin bo'lgan materiallarni tanlash asosida amalga oshiriladi, ammo u faqat bilishga emas, balki borliqni o'zlashtirishga ham yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Shuningdek, adabiyot, tarix, tarbiya darslarida buyuk allomalarning jaholatga qarshi ma'rifat g'oyalariidan foydalanishda umumta'lim maktab o'qituvchilari ta'lim tarbiyaning zamonaviy shakl, metod va vositalarini qo'llash jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat, buyuk siymolarning ilmiy-adabiy meroslarini o'rganish va ularda yoritilgan jaholatga qarshi ma'rifat g'oyalari borasidagi qarashlari asosida o'quvchilarga shu g'oyalarga taaluqli bilimlarini boyitish orqali ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish ijtimoiy-pedagogik zaruratdir. Bunday obyektiv zaruriyat negizida yuqori sinf o'quvchilariga dars va darsdan tashqari sharoitlarda berilayotgan jaholatga qarshi ma'rifat g'oyalari o'qituvchilarga oid bilim, ko'nikma va malakalar yotadi. Ma'rifatga oid ilmiy-nazariy va amaliy tushunchalarni berishda oldingi bosqichlarda olgan bilimlari muhimligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni jaholatga qarshi ma'rifatga oid bilimlar va g'oyalar mazmuni bilan qurollantirishning pedagogik-psixologik vazifasi samarali shakl, metod va vositalarni aniqlash hisoblanadi. Shu jihatdan o'quvchilarni shu g'oyaga mos tarzda tarbiyalashga oid «Jaholatga qarshi ma'rifat dam (pauza)» deb nomlangan bilimlarni berish shakli va usulidan foydalanish taklifini ilgari surgan holda uning samarali ekanligini alohida qayd etib o'tish mumkin.

Bu borada «Ma'naviy-ma'rifiy hordiq» texnologiyasi sinf-dars, leksiya-seminar, sinfdan tashqari, frontal dars shakllari o'quvchilarga jaholatga qarshi ma'rifat g'oyasini targ'ib qila oladigan filmlardan foydalanish pedagogik-psixologik jihatdan olib qaralganda bugungi kunda o'ta muhim va samarali hisoblanadi.

² Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Т.: «Университет», 1998. – 184 б



1-rasm. Ma'naviy-ma'rifiy hordiq texnologiyasi asosidagi dars

Berilgan imkoniyat o'quvchilarning vaqtini qiziqarli o'tkazish va hordiq olishga yo'naltirilgandek tuyulsa-da, aslida bu vaqt ichida ular juda katta hajmdagi ma'naviy ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati yaratiladi.

O'tmishda yashab ijod etgan allomalarimiz Farg'oniy, Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Ulug'bek, Buxoriy, Termiziy, Marg'iloniy, Moturudiy, Zamaxshariy va boshqalar nafaqat ilm cho'qqilarini egallabgina qolmay, ma'rifatni ham keng targ'ib etganlar, o'rgatganlar, shogirdlar tarbiyalaganlar².

Bu borada Turkiston ma'rifatchilik maktabi boy o'tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Is'hoqxon Ibrat, Ahmad Donish va boshqalar mamlakatni, xalqni milliy zulm va ma'rifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bilganlar. Ma'rifatparvarlik harakatining yorqin siymolaridan biri Abdulla Avloniyning «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir» - degan g'oyasi ma'rifatparvarlik harakatining dasturini tashkil etadi.

Jaholatga qarshi ma'rifat ruhida tarbiyalashning dunyoviy ildizlari siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar majmuidan iborat. Insoniyat asrlar mobaynida bosqichma-bosqich dunyoviylik

sari intilib keldi. «Dunyoviylik-dahriylik emas» degan tamoyil asosida dunyo rivojlanadi, ya'ni dinning jamiyat hayotida tutgan o'рни va ahamiyatini aslo inkor etmaydi. Yunon faylasufi Geraklit o'zining Sharqda o'tgan g'oyaviy ustozlarini, «Avesto»dek muqaddas kitobda bitilgan falsafiy fikrlarni nazarda tutib, yurtimizga «falsafiy tafakkur beshigi» deb ta'rif bergan edi. Keltirilgan ma'lumotlarimizning asosi sifatida o'quvchilarni jaholatga qarshi ma'rifat ruhida tarbiyalashning ma'rifiy asoslarini ushbu rasmda berishni lozim topdik.

(2-rasm)



2-rasm. Jaholatga qarshi ma'rifat ruhida tarbiyalashning ma'rifiy asoslari

Bundan tashqari yuqori sinf o'quvchilariga jaholatga qarshi ma'rifat g'oyasini singdirib borishda darsliklardagi ko'rsatilgan mavzularga qo'shimcha ravishda ma'lumotlarning berilishi o'quvchilarning fanni chuqur o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Masalan, XIX asrning oxiri – XX

asr boshida Ahmad Donish, Berdaq, Feruz, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Bayoniy, Avaz O'tar kabi olim, shoirlar o'z davrining muhim masalalarini ko'tarib chiqdilar va xalqni ilmfan, ma'rifatni egallashga undadilar. Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Ayniy, Hamza kabilar jadidchilik g'oyalarini olg'a surishlari asnosida Turkistonning o'z rivojlanish yo'lini targ'ib etganlar³.

Ma'rifatparvar Munavvarqori Abdurashidxonov bir qancha darslik muallifidir. Uning «Adibi avval» (1907), «Adib us-soniy» (1907), «Usuli hisob», «Tarixi qavm turk», «Tajvid» (1911), «Havoyiji diniya», «Tarixi anbiyo», «Tarixi islomiya» (1912), «Er yuzi» (1916–17), 4 qismdan iborat «O'zbekcha til saboqligi» (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga, 1925-26, 4-qismi musodara qilingan) darsliklari bir necha marta chop etilgan. 1914-yilda taraqqiyparvar o'zbek shoirlarining she'rlarini jamlab, «Sabzavor» nomi bilan nashr etgan, Abdulla Avloniyning «Birinchii muallim»i (1911) 4 marta, «Alifbedan so'nggi o'quv kitobi», «Ikkinchi muallim» (1912) 3 marta qayta nashr etilgan. Axloqiy-didaktik mazmundagi «Turkiy Guliston yoxud axloq», Fitratning «Sayyoh hindi» («Hind sayyohining qissasi») nasriy asarlardagi ma'lumotlar berib borilishi ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Yuqori sinflarda o'quv dasturida belgilangan mavzular hamda sharq mutafakkirlarining ma'rifatga oid qarashlariga alohida e'tibor qaratilib, ularning o'quvchilarda jaholatga qarshi ma'rifat g'oyalariga oid bilimlarni shakllantirish imkoniyatlari aniqlandi. Quyida ana shunday mavzulardan ayrimlari bo'yicha maxsus darslarning tashkil etilishi haqida so'z yuritiladi.

7 – sinf adabiyot darsliklaridagi mavzular: Badiiy so'z qudrati

«Kitob varaqlari ichida yashayotgan qahramonlarning holatiga befarq bo'lmaydigan odam o'zining atrofidagi tirik kishilarning quvonch-u g'amlariga ham loqayd qarab tura olmaydi. Nima uchun badiiy asarlardagi qahramonlarning tuyg'u-kechinmalari bizga o'tadi, «yuqadi».

Rauf Parfi «Tong otmoqda...» deb nomlangan she'ridan bir parcha:

Tong otmoqda. Tong o'qlar otar,

*Tong otmoqda, Quyosh – zambarak.
Yaralangan yer shari yotar
Boshlarida yashil chambarak.*

Quyoshning zambarak bo'lib, «o'qlar» (nurlar) otishi, o'sha o'qlardan Yerning yaralanishi va bu yaralanish tufayli o'lim emas, balki boshida «yashil chambarak», ya'ni hayot paydo bo'lishi juda ham o'ziga xos, ta'sirchan ifodalangan.

«Cho'lponning «Buzilgan o'lkaga» she'ridan olingan quyidagi parchada:

*Ko'm-ko'k, go'zal o'tloqlaring bosilg'on,
Ustlarida na pada bor, na yilqi.
Podachilar qaysi dorga osilg'on?
Ot kishnashi, qo'y ma'rashi o'rniga
Oh, yig'i. Bu nega?!⁵*

Hamza Hakimzoda Niyoziy faoliyati.

U boshlang'ich sinflar uchun «Yengil adabiyot», «Qiroat kitobi» darsliklarni yaratgan. «Vatan», «O'qi», «Ilm ista», «Kitob», «Qalam» kabi she'rlari.

Adabiyot tarbiya vositasi bo'limida o'quvchilarga o'zlari o'qib chiqqan badiiy adabiyotlarda jaholat mavzusi yoritilganligi va bolalarni o'qimishli qilishga qaratilgan voqea va hodisalarning g'oyalari so'raladi.

Saida Zunnunova faoliyatida «Yangi she'rlar» «Gullar vodiysi», «Qizlarjon», «She'rlar», «Bir yil oylari», «Nilufar» kabi to'plamlar. «Sodiq va Anor», «Xayrixon», «Surat bilan suhbat», «Qo'shnilarim» singari dostonlari, Saida Zunnunova hayoti va ijodiga bag'ishlangan video dars.

Shuhrat ijodi. «Mardlik afsonasi».

Rasul Hamzatov ijodi. «Tog' qo'shig'i», «Mening qalbim tog'larda», «Tog' qizi», «Dog'istonim», «Yuksak yulduzlar», «Tug'ilgan kunim», «Tog'likning vatani», «Ovuldan xat» singari kitoblari, poemalari shoirni dunyoga tanitdi.

Cho'lpon ijodida «Go'zal», «Xalq», «Binafsha», «Buzilgan O'lkaga» kabi she'rlari.

Cho'lponning she'ri ham bolsheviklar qirg'ini, sho'ro mustamlakachilari tomonidan o'lkamizning vayronaga, o'lik xonaga aylantirilgan haqida. Lekin bunda bironta raqam, bironta ism, nasab, nom keltirilmaydi. Vayron qilingan shaharlar, egasiz qishloqlar sanalmaydi. Shunday bo'lsa ham o'quvchi qalbida bosqinchiga nisbatan nafrat uyg'onadi, u millatimiz boshiga ko'p balolar keltirgan

yovuzlardan g'azablanadi, o'tmishga beparvo qaramaydi».

Yuqorida qayd etilgan barcha mavzular doirasida darsni tashkil etishda o'quv materialini mazmuniga Sharq mutafakkirlarining qarashlari singdiriladi:

Hadisshunos olimlardan: Imom al-Buxoriy, Xo'ja Baxouddin Naqshband, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Abu Mansur al-Moturudiy, Zamaxshariy, Yusuf Hamadoniy, Najmiddin Kubro.

Qomusiy olimlardan: al-Xorazmiy, al-Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi.

Yozuvchi va shoirlardan: Alisher Navoiy, Aburahmon Jomiy, Bobur, Lutfiy, Sakkokiy, Boborahim Mashrab, Abdulla Oripov, Hamid Olimjon, Zulfiya, Saida Zunnunova, Said Ahmad, Muhammad Yusuf.

Davlat arboblardan: Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Islom Karimov, Shavkat Mirziyoyev.

Jadidchilardan: Munavvar qori (Abdurashidxonov), Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Hamza, Saidrasul Saidazizov kabi bir qancha ulug' allomalarimizdan qolgan boy ma'naviy meroslarga murojaat qilinib borildi. Ularning jaholatga qarshi-ma'rifatga oid qarashlarning keltirilishi o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu kabi topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar bilan suhbat tashkil etilib, unda o'quvchilar jaholat, johillik, xudbinlik, qoloqlik, ma'rifat, ilm, ziyo kabi tushunchalarni tahlil qilib ularga shu mavzularga mos ijod qilishlari topshirig'i berilib boriladi.

Suhbat so'ngida o'qituvchi o'quvchilarga agar har bir o'quvchi ilmi bo'lsa, uning dunyoqarashi keng bo'ladi, yurtimiz yanada gullab-yashnashida o'z hissasini qo'sha olishi istiqbolli misollarda ko'rsatilib beriladi. Jumladan: «Bahor kunlaridan birida keksa dehqon dalaga yong'oq ko'chati ekayotgan vaqtda podsho yo'ldan o'tayotgan ekan. Shoh keksa choldan qanaqa ko'chat ekayotganini so'rabdi. Keksa dehqon yong'oq ko'chati ekanini aytibdi, shunda podshoh «Eh, shoir, bu daraxtingiz qachon mevaga kiradi-yu, Siz uni qachon yeysiz?», - debdi. Shunda keksa dehqon «Ko'chatni o'zim uchun emas, o'zgalarga uchun ekayapman. Hosilini men yemasam,

³ Ниёзов Г, Ахмедова М, Педагогика тарихидан семинар машғулоти: Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. Н.Ношир, 2011. – 140 бет
⁴ Хошимов К ва бошқалар. Педагогика тарихи. Т.: Ўзбекистон миллий кутубхонаси. 2005 304 бет

⁵ Yo'doshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'doshebekov J. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri / – T.: «Sharq», 2017. 3 - 6et.

kelajak avlod yeydi»– deb javob beribdi. Shunda podshoh bu javobga qoyil qolib, keksa dehqonga in'om (mukofot) beribdi. Shunda shoir «Ko'rdingizmi, shohim, men ekkan ko'chat bir kunda hosil berdi» - degan ekan.

Yuqori sinf o'quvchilarini jaholatga qarshi ma'rifat ruhida tarbiyalash jarayonida zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan ham unumli foydalaniladi. Quyida shunday texnologiyalardan BBB texnologiyasidan foydalanishni ko'rib o'tamiz.

O'qituvchi o'quvchilarga jaholatga va ma'rifatga taalluqli tushunchalarni berib, ularga mos ko'rsatuvlar, kliplar, badiiy filmlar hamda ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan ma'lumotlar katta ekranga olib chiqiladi va ko'rsatiladi. O'quvchilar jaholat va ma'rifat haqida qanday ma'lumotlarga egaliklari aniqlanib boriladi va ma'lumotlar o'quvchilar daftarida chizilgan chizmaning birinchi qismiga yoziladi. Bu BBB texnologiyaning («Bilaman») qismiga yozib qo'yiladi. Asosiy tomoni shundan iboratki, bunda har bir o'quvchining faol ishtiroki ta'minlanib boriladi. Toki o'quvchilar samaraga erishmaguncha o'qituvchi o'quvchilar bilan ishlaydi.

Ikkinchi bosqichning xususiyati shundan iboratki, o'quvchilar yangi mavzu bo'yicha yangi ma'lumotlarga ega bo'lish istaklarini bildirishi kerak bo'ladi. Bu istaklar, bildirilgan fikrlar ikkinchi ustun («Bilishni xohlayman»)ga yoziladi.

Uchinchi bosqichda o'quvchilar darslik bilan ishlaydi. Bunda o'quvchilar, masalan, Cho'lponning «Go'zal», «Xalq», «Binafsha», «Buzilgan O'lkaga» she'rlarini o'rganadilar. O'quvchilar matn bilan ishlash jarayonida jaholatga qarshi-ma'rifat g'oyasi qanday aks etganligini tahlil qiladi, o'qituvchi yordamida yangi ma'lumotlarga ega bo'ladi, uni texnologiyaning uchinchi qismi («Bilib oldim»)ga yozib qo'yishadi.

3-rasm

BBB texnologiyasi		
Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Har bir mavzu xususiyatidan kelib chiqqan holda, buyuk siymolarning jaholatga qarshi ma'rifat borasidagi qarashlarini raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilar ongiga yetkazib borish ham o'z samarasini beradi.

Bu borada ulug' alloma Abu Ali ibn Sinoning suv, yer va havoning ifloslanishi, yashash joylarining torligi, ozoda bo'lmasligi turli yuqumli kasalliklar (moxov, chechak, vabo, yiringli toshmalar va boshqalar)ning tez tarqalishi uchun qulay sharoit yaratishini, shuningdek, yuqumli kasalliklar ko'p hollarda aholi zich joylashgan joylarda keng tarqalishi to'g'risidagi fikrlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Allomainsonlarsalomatliginisaxlashning quyidagi yo'llarini ko'rsatib o'tgan: 1) jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish; 2) ovqatlanish va dam olish shartlariga rioya qilish; 3) yetarlicha uxlash. Allomaning fikricha: «Jismoniy mashq kishini ketma-ket chuqur nafas olishga majbur qiladigan ixtiyoriy harakatdir». Bu ham ma'rifatning bir ko'rinishidir⁶.

Yuqori sinflarda o'tiladigan adabiyot darslarida buyuk siymolarning jaholatga qarshi ma'rifatni targ'ib qilganliklari va ularning bu boradagi qarashlaridan foydalanishda bir qator vazifalar amalga oshiriladi. Bunday vazifalar sirasida buyuk siymolarning jaholatga qarshi ma'rifatga oid qarashlari aks etgan majmuani yaratish va unda ifoda etilgan g'oyalardan samarali foydalanish mumkin bo'lgan mavzularni belgilash sanaladi.

Shunday qilib, o'quv dasturiga kiritilgan muayyan mavzular bo'yicha innovatsiyon yondashuv asosida jaholatga qarshi ma'rifat borasidagi qarashlar 7-sinf o'quvchilariga yetkazib berishda darslarni zamonaviy texnologiyalar vositasida tashkil etish ijobiy natijalarni beradi.

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT MASHG'ULOTLARI ORQALI TALABALAR SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH

Baxrom Sangirovich Mavlyanov - katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni sog'lom turmush tarzini shakllantirishda Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlarida etibor qaratishlari lozim bo'lgan muammolarni hal qilish masalalari yoritilgan. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy sifatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi nazarda tutilgan.

Аннотация: В данной статье освещены вопросы решения проблем, на которые следует обратить внимание студентов в физкультурно-спортивной подготовке при формировании здорового образа жизни. Предполагается, что развитие физических качеств имеет важное значение в формировании здорового образа жизни.

Abstract: This article highlights the issues of solving problems that students should pay attention to in physical culture and sports training in forming a healthy lifestyle. It is assumed that the development of physical qualities is important in the formation of a healthy lifestyle

Kalit so'zlar: Jismoniy madaniyat, jismoniy sifatlari, madaniy taraqqiyot, ko'nikma, kurash, jismoniy faollik.

Ключевые слова: физическая культура, физические качества, культурное развитие, навыки, борьба, двигательная активность.

Keywords: Physical culture, physical qualities, cultural development, skills, struggle, physical activity.

Jismoniy tarbiya va sport bilan taramqiyoti istiqbolini belgilash, jahon ilg'or shug'ullanish odam organizmini har tomonlama jismonan rivojlanishi va mustahkamlanishi, fiziologik funktsiyalarning takomillashtirilishi va sog'lomlashtirishga olib keladi. Talabalarning yoshi, jinsi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri uyushtirilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari yuqori samara beradi. Aks holda ular jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirish vazifasini hal qilish borasidagi ahamiyatini yo'qotadi.

Jismoniy tarbiya tufayli erishiladigan natijalar o'zidan-o'zi hali odamning mehnatga va Vatan himoyasiga g'oyaviy-siyosiy tayyorgarligini ifoda etmaydi. Har bir fuqaroning yuksak darajada rivoj topgan jismoniy sifatlari va ko'nikmalari, uning sportda erishgan natijalari estetik va g'oyaviy-siyosiy tarbiyasi bilan birga borgan bo'lsa, shu taqdirdagina ijtimoiy ahamiyat, chuqur mazmun kasb etadi. Sportchi talabalarni mehnatda ilg'or bo'lishlari, jamoa uchun kurashishlarining hal qiluvchi garovi, dastavval, ularning shu jamiyatning peshqadam kishilar sifatidagi ijtimoiy ongliligidan darak beradi¹.

Yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy

Jismoniy tarbiya va sport talabalar

⁶ Хошимов К. ва бошқалар. Педагогика тарихи. Т.: Ўзбекистон миллий кутубхонаси. 2005 304 бет

¹ F.Q.Axmedov. "Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi" Jizzax 2021-yil.45-bet

sog'lom turmush tarzining alohida muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Sog'lom turmush tarzi ko'p qirrali, jumladan, falsafiy, pedagogik, psixologik, falsafiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim kategoriya hisoblanadi. Albatta, faqat jismoniy tarbiya va sportga ahamiyat berish, sog'lom turmush tarzining bir yoqlama shakllanishiga olib keladi, xolos.

Talabalar jamiyatning eng faol qismi va ular jamiyatni rivojlantirishda katta kuchdir. Bugungi kunda Respublikamizda 177 dan ziyod davlat, nodavlat oliy ta'lim muassasalari, filiallar, shu jumladan xorijiy filiallar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 800 000 dan ziyod talabalar tahsil olmoqda. Talabalarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi uchun har tomonlama zamonaviy sharoitlar yaratilmoqda.

Ammo hamma vaqt ham talabalar jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan to'liq qamrab olingan,- deb bo'lmaydi. Ular faoliyatida aqliy mehnat yuqori turadi, o'quv mehnati o'ziga xos ravishda yuqori.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi.

Ma'lum bir faoliyatga maqsadli kirishish kishidan, ushbu faoliyatga ongli munosabatni talab qiladi. 2021-2022 o'quv yilida Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllanishini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlar olib borildi. Talabalar bilan o'tkazilgan anketa-so'rov natijalari dastlabki davrda quyidagi natijalar bilan yakunlangan. I-II-bosqich talabalarining o'rtacha yoshi 19,1 ni, eng kichigi-17 yoshni va eng kattasi 25 yoshni tashkil etdi. Ulardan 17 yoshlilar- 10 ta; 18 yoshlilar-22 ta; 19 yoshlilar- 32 ta; 20 yoshlilar-22 ta; 21 yoshlilar-8 ta; 22,23,24,25 yoshlilar-1 tadan iborat bo'ldi. I-II-bosqich talabalarini umumiy o'rta maxsus ta'lim muassasalarini bitirib o'qishga kirishini e'tiborga olsak, ularni oliy ta'lim muassasalaridagi yoshga va bosqichga mos o'qish davri 19-20 yoshni tashkil etishi kerak. Javoblardan ma'lum bo'lishicha 32 ta talaba vaqtida o'qishga kirgan va qolgan 66 talaba o'qishga kechikib kirgan. Demak, ularning ko'pchiligi kechikib bo'lsa-da oliy ma'lumot olish bilan bog'liq maqsadlarini amalga oshirishgan, o'qishga kirish uchun mehnat qilgan, irodasini mustahkamlagan. Talabalarining yashash joyi o'z o'quv mehnatini va sport -sog'lomlashtirish tadbirlarini bajarishlarida muhim ahamiyatga ega. So'ralganlardan 13 nafari ijarada, 21 nafari talabalar turar joylarida va 64 nafari shaxsiy xonadonlarida yashab o'qiganlar. Demak til o'rganish va xorijiy filiolegiya yo'nalishida

ta'lim olish uchun shahar sharoiti yaxshi. Kun tartibiga 82 talaba rioya qilishini va 16 talaba rioya qilmasligini aytgan. 63 talaba ertalabki badantarbiya bilan shug'ullangan bo'lsa, 32 talaba badan tarbiya bilan shug'ullanmasligini, 3 tasi esa ba'zida shug'ullanishini bildirgan. 68 talaba maktabdagi jismoniy tarbiya darslaridan qoniqish hosil qilgan bo'lsa, 30 ta talaba-qizlar maktabdagi jismoniy tarbiya darslaridan qoniqish hosil qilmagan. 96 talaba institutdagi jismoniy madaniyat mashg'ulotlaridan qoniqish hosil qilgan bo'lsa, 2 talaba-qiz institutdagi jismoniy madaniyat mashg'ulotlaridan qoniqish hosil qilmagan. 27 talaba bir kunda jismoniy madaniyat mashg'ulotlari uchun 15 daqiqadan, 29 tasi 20 minutdan, 26 tasi 30 minutdan, 7 tasi 40 minutdan, 4 tasi 50 minutdan, 2 tasi 60 minutdan, 2 tasi 70 minutdan va 3 tasi 90 minutdan vaqt ajratishgan.

1. Jismoniy salomatlikni ta'minlash jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u hozirgi kunda tibbiy, ijtimoiy-pedagogik mazmun va shaklga ega bo'lgan, shaxs jismoniy kamoloti hamda jismoniy tayyorgarligi va rivojlanishini maxsus vositalarini ishlab chiqish va foydalanishga qaratilgan tadbirlarning yig'indisidir.

2. Valeologiya - Jismoniy tarbiya va salomatlik, sog'lom turmush tarzi shunchaki, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish vositasigina bo'lib qolmay, u bugungi kunda o'z nazariyasi, metodikasi va ilmiy tadqiqot usullariga ega bo'lgan, hamda tibbiyot, pedagogika, psixologiya, iqtisodiyot, estetika va boshqa fanlarning kesimida vujudga kelgan fandır.

Jismoniy sifatlar deganda tug'ma (genlar tarzidagi me'rosni) morfologik xizmat sifatlarini, ular asosida inson organizmida namoyon bo'ladigan maqsadga muvofiq harakat faoliyatiga zarur bo'ladigan jismoniy faollikni (ifodalanishi) tushuniladi².

3. Salomatlikni ta'minlash va sog'lom turmush tarzini shakllantirish Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan alohida xalqaro va milliy dasturlar asosida rejali olib borilayotgan muhim global tadbirlar tarkibiga kiradi.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti aholi jismoniy faolligini oshirish va to'g'ri ovqatlanish (nutritsiologiya)ni tashkil qilish bo'yicha katta tadbirlarni olib bormoqda. Bu 2017 yildan respublikamizda ham yuqumli bo'lmagan kasalliklarni oldini olish va aholi jismoniy faolligini oshirish tadbirlari sifatida

muhim davlat dasturlari tarkibiga kiritilgan va ular bo'yicha rejali ishlar olib borilmoqda. Xususan, "besh ming qadam" (5000), "o'n ming qadam" (10 000) salomatlik marafonlari bunga

misol bo'ladi. Bu dasturlar ichida talabalar salomatligini oshirish masalalari ham butun chora-tadbirlar tarkibida keng olib borilmoqda.

BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA LOYIHALASH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Jamshid Bahodirovich Orishev - katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: O'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, jumladan, o'quv mashg'ulotini loyihalash usulini qo'llash ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Maqolada ta'lim jarayonida loyihalash texnologiyasidan foydalanish bosqichlari bayon etiladi.

Аннотация: В процессе обучения применение современных педагогических технологий, в частности, метода проектирования учебных занятий служит важным фактором повышения качества и эффективности образования. В работе рассматривается использование обучения в учебном процессе.

Abstract: While teaching the use of modern teaching technologies, a project-based method is an important factor in improving the quality and efficiency of education. The article describes the stages of using projecting technology in the educational process.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, loyiha, loyihalash modeli, loyihalash bosqichlari, ta'lim texnologiyasi.

Ключевые слова: процесс образования, проект, модел проектирование, этапы проектирования, виды проектирования, технология образования.

Keywords: education process, project model, proect stages, types of projects, educational processe.

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da ta'kidlanganidek, Milliy dasturning muhim vazifalaridan biri "... o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish"dir¹. Shu boisdan oliy ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun talabalarining qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga o'ziga xos innovatsion yondoshuvni joriy etish, ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, takomillashgan o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash zarur.

Bu borada pedagogika oliy ta'lim

muassalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash o'quv-tarbiyaviy jarayoni; ularda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, talabalarining hayotda faol ishtirok etishi, vijdonan xizmat qiladigan kasb-hunar sohiblari bo'lib yetishishlarida texnologiya fanining imkoniyatlari katta.

Texnologik ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini takomillashtirish bugungi kunning asosiy talablaridandir.

Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli hal etilishida pedagoglarning zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari, ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalana olishlari hamda darslarni puxta loyihalashlari

² F.Q.Axmedov. "Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi" Jizzax 2021-yil. 109-bet

¹ "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" //Oliy ta'lim meyoriy hujjatlar to'plami. Toshkent .Sharq. 2019

muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi bu jarayonda o'quv fanining o'ziga xos tomonlari, o'qitishning texnik va didaktik vositalari, eng asosiysi, talabalarning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishi kerak, shundagina kafolatlangan natijaga erishiladi.

Qator pedagog olimlar, loyihalash borasida turlicha fikrlar bildirib o'tishgan. Jumladan, V.P.Bespalkoning fikricha, loyihalash bosqichlari pedagogik tizimning tashkil etuvchilari (maqsad, mazmun, ta'lim oluvchi, o'qituvchi, ta'limning tashkiliy shakllari)ga mos bo'lishi lozim².

E.A.Kryukova taklif etgan pedagogik faoliyatni loyihalash modeli komponentlari quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidlaydi: 1.Maqsadga erishishni ta'minlaydigan pedagogik g'oyani ishlab chiqish (omillar tizimi haqida umumiy tasavvur). 2.Maqsad qo'yish. 3.Qo'yilgan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan axborotlarni to'plash va unga erishish vositalarini tanlash. 4.Pedagogik jarayonni tuzilmalarga ajratish. 5.Ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'zaro ta'sirini rivojlantirish variantlarini ishlab chiqish. 6.Natijalarni tashxis etish. 7.Loyihalash jarayonini va natijalarini rasmiylashtirish³.

V.V.Guzeevning fikricha, pedagogik loyihalash bosqichlari quyidagicha: tayyorgarlik, rejalashtirish, tadqiq etish, umumlashtirish va xulosa chiqarish, taqdimot yoki hisobot, o'qitish natijasini baholash⁴.

N.A.Kralyaning ta'kidlashicha, loyihalash ta'lim texnologiyasida quyidagilar o'z ifodasini topishi lozim: loyihaning asoslari, ahamiyati va mazmuni; loyiha tamoyillari, me'yorlari hamda qoidalari; loyihaning maqsad va vazifalari, undan kutilayotgan natija: loyihada ishtirok etuvchilarning vazifalari va o'zaro hamkorligi; loyihaning tarkibi, mantiqiy tuzilishi, bosqichlari; loyiha texnologiyasi, uslubi, vositalari; loyihani tashkil etish shakli; loyiha uchun zarur bo'lgan vosita va resurslar; loyihani amalga oshirish shartlari; loyiha sub'ektlariga talablar⁵.


Loyihalashning maqsadi shundan iboratki, ta'lim oluvchilar mustaqil va yanada kengroq bilimlarni har xil manbalardan egallashga o'z xohishlar bilan intiladilar; amaliy masalalarni hal etish uchun egallagan bilimlarni qo'llashni o'rganadilar; turli guruhlarda ishlab kommunikativ ko'nikmalarni egallaydilar; o'zlarida ilmiy tadqiqotchilik mahoratlarini, jumladan, muammolarni aniqlash mahorati, axborot yig'ish, kuzatish, sinov, tahlil qilish, faraz qilish, umumlashtirish, tizimli fikrlashni oshiradilar.

Ushbu sohadagi izlanishlarimiz natijalarining ko'rsatishicha, biz bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda ta'lim jarayonida o'quv mashg'ulotlarining loyihalashning quyidagi bosqichlarda olib borishni maqsadga muvofiq deb topdik: izlanish-tanlash, konstruktorlik, ta'limiy

konstruktorlik, texnologik, didaktik texnologik, loyihani joriy etish va yakuniy bosqich.

Har bir bosqichni amalga oshirishda o'ziga xos talablar qo'yiladi. Jumladan, ta'lim maqsadlarini to'g'ri belgilash; ta'lim jarayonida kutilayotgan natijalarni loyihalash; ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlarni to'plash; ma'lumotlar asosida axborotlar tayyorlash; ta'limning maqsad va vazifalariga ko'ra axborotlarni tizimlarga ajratish; ta'lim texnologiyasi tashkil etuvchilarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash va boshqalar.

Loyihalashning har bir bosqichida o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'ziga xos ta'limiy muhit hosil qilinadi. Bunda o'qituvchi va talabalarning uzluksiz ta'lim olish jarayonini shakllantirish uchun loyihalash asosidagi quyidagi modelni tuzib chiqdik (1-shakl).



1-shakl. Loyihalash texnologiyasi bosqichlari va o'quv jarayoni elementlarining

2 Беспалько В.П. Проектирование учебного предмета решение // Школьные технологии. 2006. - №6 С.76-88

3 Крюкова Е.А. Теоретические основы проектирования и применения личноно - развивающих педагогических средств. Автореферат дисс. док. пед. наук. Волгоград. 2000 С.42

4 Гузев В.В. «Метод проектов» как частный случай интегральной технологии обучения // Директор школы. 1995 №6. С.39-47

5 Краля Н.А. Метод учебных проектов как средство активизации деятельности учащихся. Учебно-методическое пособие. Омск. 2005. 59 с.

o'zaro aloqadorligi modeli

Shakldagi:
O'-o'qituvchi, T-talabalar;
1.1-"loyiha yo'nalishini aniqlash va uning muammosini tahlil qilish";
1.2-"loyiha mavzusini tanlash";
1.3-"ma'lumotlar to'plash, o'rganish, qayta ishlash va tahlil qilish";
1.4-"loyiha bo'yicha axborotlar tayyorlash";
1.5-"loyihalash bosqichlari bo'yicha rejalashtirish";
2.1-"loyiha muammosining qulay yechimini izlash";
2.2-"dizayn talablarini hisobga olib konstruktsiya variantlarini o'rganish";
2.3-"loyiha texnologiyasini ishlab chiqish";
2.4-"talabalarning intellektual salohiyatini o'rganish";
2.5-"tashkiliy ishlar va tayyorlangan mahsulotlar ekspertizasi";
2.6-"konstruktorlik va texnologik hujjatlarni tuzish";
3.1-"loyihaga taalluqli tushunchalar";
3.2-"loyiha yo'nalishidagi bilimlar";
3.3-"loyiha yo'nalishidagi ko'nikmalar";
3.4-"loyiha yo'nalishidagi malakalar";
4.1-"loyihani amalga oshirish rejasini tuzish";
4.2-"rejalashtirilgan texnologik operatsiyalarni bajarish";
4.3-"kerakli asbob-uskunalar, materiallar va jihozlarni tanlash";
4.4-"loyihalanayotgan jarayon tahlili";
4.5-"konstruktsiya va texnologiyaga zarur hollarda o'zgarishlar kiritish";
5.1-"darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanish";
5.2-"kompyuterli ta'lim dasturlaridan foydalanish";
5.3-"topshiriq-kartochkalardan foydalanish";
5.4-"boshqa didaktik materiallardan foydalanish";
5.5-"internet manbalaridan foydalanish";
5.6-"ommaviy axborot vositalari ma'lumotlaridan foydalanish";
5.7-"didaktik testlardan foydalanish";
5.8-"elektron vositalarini qo'llash";
6.1-"loyihani shakllantirish bo'yicha olingan yechimlar tahlili";
6.2-"loyiha taqdimoti";
6.3-"Aqliy hujum usuli";
6.4-"Klaster usuli";
6.5-"Blits-so'rov";
6.6-"BBB usuli";
6.7-"boshqa pedagogik usullar";
6.8-"mavzuni o'rganishga mos pedagogik usullarni tanlash";
6.9-"joriy etish usullarini (texnologiyasini) tanlash";
6.10-"ta'lim sifatini aniqlash (test-so'rov, yozma ish va boshqalar.)";
6.11-"DTSBKM ≤TBKM";
6.12-"video-audio texnikalardan foydalanish";

6.13-"kompyuter dasturlarini qo'llash";
6.14-"kichik hajmli qurilmalarda amaliy ishlar bajarish";
6.15-"joriy etishga tavsiya";
7.1-"olingan natijalar bo'yicha sifat ko'rsatkichlarini aniqlash";
7.2-"loyihani bajarish jarayonini va natijalarini tahlil qilish";
7.3-"loyiha natijalarini amaliyotga qo'llash imkoniyatlarini o'rganish";
7.3-"ko'zlangan maqsadga erishganlik darajasini baholash";
7.4-"loyihaning samaradorligi".
Loyihalash texnologiyasining amalga oshirish bosqichlarini qisqacha izohlaymiz.
I.Izlanish-tanlash bosqichi. Bu bosqichda asosan loyiha yo'nalishi aniqlanadi va uning muammosi tahlil qilinadi; loyiha mavzusi tanlanadi; mavzuga taalluqli ma'lumotlar to'planadi, ma'lumotlar o'rganilib, qayta ishlanadi va tahlil qilinadi; loyihalash bosqichlari rejalashtiriladi. Loyiha yo'nalishi va mavzusini tanlashda o'qitilayotgan fan, talabalarning fanga qiziqishi, dunyoqarashi va bilish qobiliyatlari e'tiborga olinadi.

Bu bosqichda o'qituvchi faoliyati: talabalarni quvvatlaydi; talabalar oldiga muammo qo'yadi va uni muhokama qilishni tashkillashtiradi; loyihaning maqsadini tushuntiradi; internetdan foydalanish yo'llarini va saytlarni tavsiya etadi; kuzatib boradi va talabalariga maslahatlar berib boradi.

Talabalar faoliyati: o'qituvchi tomonidan tavsiya qilingan muammo bilan tanishadilar; muammoga oid ma'lumotlar tarkibini o'rganadilar; axborotni aniqlaydilar va tahlil qiladilar; internetdan foydalangan holda o'qituvchidan maslahat olib loyihani shakllantirish rejasini tuzadilar; qo'yilgan maqsadga mos harakatlar rejasini belgilaydilar va uni o'qituvchi nazoratidan o'tkazadilar; natijalarni qayd qilib boradilar.

II.Konstruktorlik bosqichi. Bu bosqichda loyihada qo'yilgan muammoning qulay yechimi izlanadi; dizayn talablarini hisobga olib, konstruktsiya variantlari o'rganiladi; loyihalanayotgan yo'nalish bo'yicha qo'lga kiritilgan yutuq va kamchiliklar tahlil qilinadi; loyiha bo'yicha tashkil etiladigan ishlar va tayyorlangan mahsulotlar ekspertizadan o'tkaziladi, loyiha texnologiyasi ishlab chiqiladi; talabalarning intellektual salohiyati o'rganiladi; loyihaning konstruktorlik va texnologik hujjatlari tuziladi.

O'qituvchi faoliyati: g'oyalarni izlash va ishlab chiqishni tashkil etadi, faollashtiradi hamda yo'naltiradi; taxminlarni aytdi; qaror qabul qilishda yordam beradi; kuzatadi va maslahat beradi; tavsiya qiladi.

Talabalar faoliyati: axborotlar bilan ishlaydilar; g'oyalarni baholaydilar, tahlil qiladilar va sintezini o'tkazadilar; kompyuterdan foydalangan holda loyiha dizaynini va bajariladigan ishlar ketma-ketligini rejalashtiradilar; grafik ishlarni bajaradilar; hujjatlarni rasmiylashtiradilar.

III. Ta'limiy konstruktorlik bosqichi. Bu bosqichda loyiha mavzusiga taalluqli asosiy ta'limiy komponentlar tahlil qilinadi. Mavzu va loyiha yo'nalishiga oid asosiy tushuncha, bilim, ko'nikma va malakalar aniqlanadi va talabalarda shakllantirish usullari tanlanadi.

O'qituvchi faoliyati: loyiha mavzusiga oid nazariy ma'lumotlarni havola etadi; loyihaning amaliy ahamiyatiga ega ma'lumotlari bilan tanishtiradi; nazariy va amaliy ma'lumotlar asosida hosil bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtiradi; maslahat beradi.

Talabalar faoliyati: loyiha mavzusiga oid tushunchalar bilan tanishadilar; loyiha mavzusiga taalluqli bilimlar bilan tanishadilar; loyihaning shakllanishida ko'nikmalar bilan tanishadilar; loyihaning shakllanishidagi malakalar bilan tanishadilar.

IV. Texnologik bosqich. Bu bosqichda loyihani amalga oshirish rejasini tuziladi. Loyihani amalga oshirish uchun rejalashtirilgan texnologik operatsiyalar bajariladi; kerakli asbob-uskunalar, materiallar va jihozlar tanlab olinadi; loyihalangan jarayonlar tahlil etiladi. Dars jarayonida yanada yaxshiroq natijaga erishish uchun konstruktsiya va texnologiyaga o'zgartirishlar kiritish mumkin.

O'qituvchi faoliyati: moddiy bazani ta'minlanganligini aniqlaydi; talabalar faoliyatini bilvosita boshqaradi; texnologik jarayonni tashkil etilishini aniqlaydi va zaruriy holatlarda muvofiqlashtiradi; materiallarni qayta ishlashning yangi usullari bilan tanishtiradi; maslahat beradi;

Talabalar faoliyati: tayyorgarlik ko'radilar va mahsulot (buyum, ishlanma, axborot, ma'lumotnoma) tayyorlaydilar; o'z faoliyatlarini nazorat qiladilar va kamchiliklarni tuzatib turadilar; mahsulot sifatini nazorat qiladilar; materiallarni qayta ishlashda aniq usullarni qo'llaydilar.

V. Didaktik texnologik bosqich. Bu bosqichda loyihaning didaktik vositalari tanlanadi. Bunda loyiha ishtirokchilari tanlangan yo'nalishga oid materiallar, darslik va o'quv qo'llanmalari, ta'limiy dasturlardan foydalanadi. Mavzu yuzasidan tuzilgan didaktik materiallar: topshiriq-kartochkalar, testlar, tarqatma materiallar tayyorlanadi. Talabalarining tafakkuri va saviyasini kengaytirish maqsadida internet va ommaviy axborot vositalari ma'lumotlaridan foydalanish mumkin. Tayyorlangan barcha didaktik materiallar elektron vositalar (zamonaviy kompyuterlar, audio-video texnikalar, televizor va hokazo) yordamida namoyish etiladi.

O'qituvchi faoliyati: maslahat beradi; uslubiy yordam ko'rsatadi; loyihani tayyorlashda foydalaniladigan didaktik materiallarni tavsiya etadi; to'plangan didaktik materiallarni elektron vositalar orqali namoyish etish usullarini o'rgatadi.

Talabalar faoliyati: loyiha mavzusiga

oid darslik va o'quv qo'llanmalar bilan tanishadilar; kompyuterli ta'lim dasturlarida o'z imkoniyatlarini takomillashtiradilar; loyihaga oid internet va ommaviy axborot vositalaridagi so'nggi ma'lumotlar bilan tanishadilar; loyihaga oid topshiriq-kartochkalar va testlar ishlab chiqadilar.

VI. Loyihani joriy etish bosqichi. Bu muhim bosqich sanaladi. Ushbu bosqichda xatoga yo'l qo'yilishi mumkin emas. Bu o'quv mashg'ulot mavzusi bo'yicha tayyorlangan mahsulot (axborot, ma'lumot) ni namoyish etish bosqichi sanaladi. Bunda dastlab loyiha bo'yicha olingan echimlar tahlil qilinadi, so'ngra loyiha taqdimoti o'tkaziladi. Taqdimotda "Aqliy hujum", "Klaster", "Blits-so'rov", "BBB" (Bilaman. Bilishni xoxlayman. Bilib oldim) kabi usullardan mavzuni o'rganishga mos pedagogik usullarni tanlab foydalanishlari mumkin. Mashg'ulot paytida video-audio texnikalar, televizor va kompyuterlar qo'llanilishi mumkin, kichik xajmli qurilmalar yordamida amaliy ishlar bajarilishi mumkin. Mashg'ulot natijasi test, yozma ish, og'zaki so'rov o'tkazish orqali aniqlanadi. Mashg'ulot natijasiga qarab, talabalarga mavzu yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar beriladi. Raqamli texnologiyalari resurslaridan foydalanib, katta hajmdagi ma'lumotlar qisqa fursatda talabalarga etkaziladi.

Loyiha taqdimotidan so'ng talabalarining bilim, ko'nikma va malakasi (TBKM) davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan bilim, ko'nikma va malaka (DTSBKM) darajasida yoki undan yuqori bo'lsa (DTSBKM \geq TBKM), keyingi mavzularni o'rganishga o'tiladi, aks holda loyiha taqdimoti boshqa usul va texnologiyalar asosida qayta o'tkaziladi.

O'qituvchi faoliyati: maslahat beradi; yordam ko'rsatadi; kuzatadi va tinglaydi; noaniqliklarga tuzatishlar kiritadi; auditoriyani boshqaradi.

Talabalar faoliyati: mashg'ulotda faollik bilan qatnashadilar; tayyorlangan taqdimotlarni namoyish qiladilar; video yoki audio materiallardan foydalanadilar; turli pedagogik texnologiya usullarini qo'llaydilar; o'z loyihalarini himoyasini tashkil qiladilar va o'tkazadilar.

VII. Yakunlovchi bosqich. Olingan natijalar bo'yicha sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi, ya'ni talabalarining o'zlashtirish darajalarini tahlil qilinadi. Talabalarining egallangan bilim, ko'nikma va malakalari Davlat ta'lim standarti bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bo'lgan minimal bilim, ko'nikma va malakalar bilan qiyoslanadi. Loyihani amalga oshirish jarayoni va uning natijalari tahlil qilinadi; natijaga qarab loyihani amaliyotga keng qo'llash imkoniyatlarini o'rganiladi. Loyihadan ko'zlangan maqsadga erishganlik darajasini baholanadi va uning samaradorligi tahlil qilinadi.

O'qituvchi faoliyati: maslahat beradi;

yordam ko'rsatadi; loyihaning muhokamasi hamda himoyasini tashkil qiladi; tinglaydi; loyiha natijalarini tahlil qilish va baholashda ishtirok etadi; talabalarining loyiha ustidagi ishlarini asoslab baholaydi.

Talabalar faoliyati: loyihalash natijalarini o'zlari tahlil qiladilar va baholaydilar; himoya hujjatlarni tayyorlaydilar; loyihani himoya qiladilar; loyiha natijalarini jamoaviy muhokamasida ishtirok etadilar.

Xulosalar. Ta'lim jarayoni yakuniy bosqichidagi natijalar umumlashtiriladi va loyihalash bo'yicha quyidagi xulosalar chiqariladi:

-mashg'ulotlarda ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirib olishiga erishiladi;

-talabalar o'qitilbigina qolmay, ularni mustaqil ta'lim olishiga sharoit yaratiladi;

-talabalarga bilimlar tayyor holda berilavermaydi, ularni bilimlarni aniq manbalardan mustaqil o'rganishga o'rgatiladi;

-ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, qayta ishlash, tizimlashtirish, va umumlashtirish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni uchun axborotlar tayyorlanadi va mazkur jarayonda talabalarni faol izlanishga yo'naltiradi;

-ishtirokchilarning o'zaro ongli hamkorligi (ta'limiy, tarbiyaviy, tadqiqotchilik, kommunikativ, ijodiy, o'yin faoliyatlari va hokazo) axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida muloqatli jarayon sifatida qaraladi (ularning eng samarali yo'nalishlari onlayn konferentsiyalar hamda masofaviy ta'limdir).

Tavsiyalar. Tavsiyalar bevosita loyihalash natijalari va ularning jarayon yo'nalishiga hamda muammoning qo'yilishiga mosligi

asosida tayyorlanadi, bunday innovatsion texnologiyadan amaliyotda foydalanish ko'rsatmalari beriladi:

-ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarida loyihalash ta'limidan yanada kengroq foydalanishni yo'lga qo'yish kerak;

-talabalarining mustaqil faoliyatlarini tashkil etishda loyihalashdan yetakchi metod sifatida foydalanishga tavsiya etiladi;

-ta'lim jarayonida loyihalash texnologiyasini tadbiq etishda kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan umumiy jarayon mazmunining sifat jihatdan o'zgarishini doim nazorat qilib borish zarur;

-o'qituvchi (malakali mutaxassis) va talaba (barkamol shaxs)larning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyatlari hamda ularning samarasi ijtimoiy taraqqiyotning tezlashuviga olib kelishini doim yodda tutish shart.

Demak, loyihalash o'qituvchi tomonidan talabalarining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to'liq intellektual yoki oddiy mahsulotni ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Xulosa shuki, loyiha asosidagi mashg'ulotlar fan(mavzu)larning mazmunini ta'lim jarayonida to'la o'zlashtirib olishini kafolatlaydi; o'quv mashg'ulotini loyihalash texnologiyasi asosida tashkil etish va amalga oshirish bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

TANQIDIY-TAHLILY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR TADQIQI

Toshpo'lat Boshbek o'g'li Nazarov -o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tanqidiy-tahliliy fikrlashning ahamiyati hamda uni rivojlantirish borasidagi xalqaro ekspert va mutaxassislar fikrlari, tadqiqotlari haqida qator ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, tanqidiy-tahliliy fikrlashning qaysi sohalarida o'z o'rniga ega ekanligi turli tadqiqotlar bilan asoslanganligi haqida so'z boradi.

Аннотация: В этой статье представлена информация о важности критического мышления, а также мнения и исследования международных экспертов и ученых о его развитии. В нем также обсуждаются области, в которых критически-аналитическое мышление имеет свое место, на основе различных исследований.

Abstract: This article provides information on the importance of critical thinking and the views and research of international experts and scholars on its development. It also discusses the areas in which critical thinking is based on various studies.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, kognitiv usullar yoki strategiyalardan foydalanish, matnlarni tahlil qilish, refleksiya, meta-bilish, metakognitiv faoliyat, metakognitiv bilim, deklarativ bilim, protsessual bilim, shartli bilim.

Ключевые слова: критическое мышление, использование когнитивных методов или стратегий, анализ текста, рефлексия, метазнание, познавательная деятельность, метакогнитивное знание, декларативное знание, процедурное знание, условное знание.

Keywords: critical thinking, use of cognitive methods or strategies, text analysis, reflection, meta-knowledge, metacognitive activity, metacognitive knowledge, declarative knowledge, procedural knowledge, conditional knowledge.

Tanqidiy fikrlash bu – XXI asr talablarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o'rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobiy ko'nikmadir. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish yuqori kasbiy madaniyatli, ijodiy va ijtimoiy faol, hayotda o'z o'rnini topa oladigan malakali kadrlarni shakllantirish vazifasini hal qilishga ham mos keladi. Xo'sh, shunday bo'lsa tanqidiy fikrlashning o'zi nima? Adabiyotlarda bu tushunchaga berilgan turli xil ta'riflarni uchratish mumkin.

"Tanqidiy fikrlash" atamasidan pedagogik muhitda anchadan beri foydalanib kelinadi va turli pedagoglar buni xilma-xil tarzda tushunadilar. Ko'pchilik o'qituvchilar va metodistlar uchun tanqidiy fikrlash "yuqori tartibdagi" fikrlashni bildiradi. Yuqori degani shu ma'nodaki, u Benjamin Blum tizimiga ko'ra o'rganish qobiliyatlarining so'nggi oliy pog'onasida turadi. Faylasuflar tanqidiy

fikrlash deganda, odatda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko'nikmalarini tushunadilar, uning yordamida talabalar diqqat bilan o'qish, chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o'z fikrlarini aniq va o'ylab ifoda etish imkonini oladilar. Adabiyot nazariyotchilari va tarixchilar uchun matnning tarkibiy qismlarini ajratishga va matnning kitobxonga ta'sir qilish usullarini tanqidiy qayta mushohada qilishga hamda muallif asarni yaratishda amal qilgan sabablarni aniqlashda yordam beradigan matnga yondashish "tanqidiy" deb hisoblanadi.

Dayana Xalpern "Tanqidiy fikrlash psixologiyasi" («Психология критического мышления») kitobida "psixologiya va tegishli fanlar mutaxassislari tanqidiy fikrlash atamasining bir nechta ta'riflarini taklif qilishgan bo'lsa-da, bu ta'riflarning barchasi ma'no jihatidan juda yaqin. Bu g'oyaning mohiyatini anglatuvchi eng oddiylaridan biri: tanqidiy fikrlash - bu istalgan yakuniy natijaga erishish ehtimolini oshiradigan kognitiv usullar

yoki strategiyalardan foydalanish", – deb yozadi¹.

"Tanqidiy fikrlash" atamasi mashhur psixologlar Jan Piaje va L.S.Vigotskiyning asarlaridan ma'lum bo'lsa-da, hali ham, asosan, tanqidiy fikrlash haqida kundalik g'oyalar tufayli u salbiy narsa, hamma narsani inkor etish, rad etish, qarama-qarshilik qilish istagi kabi fikr mavjud. Shu bilan birga, Klarin Mixail Vladimirovich asarlarida AQSHda 80-yillardan, Yevropa mamlakatlarida esa o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biriga aylanganligi qayd etilgan. Tanqidiy fikrlash faktlar, qonunlar, tarixiy sanalar va voqealarni bilishning ahamiyati, shubhasizdir, lekin ma'lumotlar bilan mazmunli ishlash qobiliyati, undagi asosiy g'oyalarni ajratib ko'rsatish, ular orasidagi bog'liqlikni ko'rish, kerakli narsani tanlash va rad etish, noto'g'ri ma'lumot, uni tahlil qilish va baholash qobiliyatidir. Faqat shunday yondashuvga talabalarni tez o'zgaruvchan dunyoda kelajakdagi amaliy faoliyatiga tayyorlashi mumkin².

Tanqidiy fikrlash, savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi. Insoniyat o'z tabiatiga ko'ra qiziquvchidir. Biz biron-bir yangilikni sezar ekanmiz, albatta, uning mohiyatini bilishni xohlaymiz. Qandaydir tarixiy obidani ko'rar ekanmiz, bizda uning ichkarisiga kirish istagi paydo bo'ladi. "Barcha hayvonot olamida, – deb yozadi kimyogar va faylasuf Mikael Poloniy, – uning eng sodda shakli bo'lgan chuvalchangdan, ehtimol hatto amyobadan boshlab biz adabiy ehtiyotkorlik harakatini, ehtiyojni bevosita qondirishga bog'liq bo'lmagan izlanuvchanlik faoliyatini: har qanday jonli mavjudotni o'z atrofini aql-zakat bilan nazorat qilishga intilishini kuzatamiz"³.

Amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyuining aytishicha, agar talabalar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi. "O'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina, o'quvchi

haqiqatan ham fikrlaydi".

Bundan xulosa qilish mumkinki, o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, talabalar to'qnashishi mumkin bo'lgan muammolar doirasini aniqlashi, so'ngra esa, talabalarni bu muammolarni o'zlari mustaqil ravishda shakllantirishlariga tayyorlashi zarur. Tanqidiy fikrlash tufayli o'qish eski "oliy maktab" ishidan aniq maqsadga yo'nalgan, mazmunli faoliyatga aylanadi hamda bu faoliyat davomida talabalar haqiqiy aqliy ish bajarib, haqiqiy hayotiy muammolarni hal qiladilar. Ular dalillar to'plab, matnlarni tahlil qilib, teng kuchli nuqtayi nazarlarni taqqoslab hamda jamoa imkoniyatlaridan foydalanib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob izlaydilar va uni topadilar⁴.

Tanqidiy fikrlash – ijtimoiy bo'lib ham hisoblanadi (har bir inson ijtimoiy organizmdir). Har qanday fikr, agar u boshqalar bilan o'rtoqlashilgandagina, o'tkirlashadi yoki faylasuf Xanna Arendt yozganidek: "kimningdir huzurimda bo'lishi, meni barkamollikka erishtiradi". Bahslashuvda, o'qiganimizda, muhokamada ishtirok etganimizda, e'tiroz bildirganimizda, boshqalar bilan fikr almashganimizda biz o'z nuqtayi nazarimizni aniqlashtiramiz va uni chuqurlashtiramiz. Shuning uchun ham tanqidiy fikrlash yo'nalishida ishlayotgan pedagoglar o'z mashg'ulotlarida juftlikda yoki guruhlarda ishlashning turli shakllaridan foydalanishga, bunda debat va munozaralardan samarali foydalanishga hamda talabalar yozma ishlarini namoyish qilishning turli ko'rinishlaridan foydalanishga intiladilar. Umuman olganda, har qanday tanqidiy fikrlovchi inson biron-bir jamoa bilan ishlaydi va faqat o'z shaxsini konstruksiyalashga nisbatan anchagina keng ma'nodagi vazifalarni hal qiladi⁵.

Talabalar yangi axborotni ongli, puxta tushunishlari va yangi axborotga tanqidiy yondashishlari uchun ta'lim jarayonida faol qatnashishlari kerak. Talaba belgilangan maqsad asosida o'ylab, fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash orqali faollashadi. Bilimlarni namoyish qilish (o'ziga va sherigiga) og'zaki yoki yozma nutq yordamida, faol fikrlash orqali sodir bo'ladi. Shunday qilib, ilgari olingan bilimlar anglash darajasiga olib chiqiladi. Endi ular yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun negiz bo'lishi mumkin. Subyektning ichki jarayonlari va holatlarini o'zi tomonidan bilib borishi esa

¹ Даяна Халперн, Нафтульев А. И. – «Психология критического мышления». М.: 2000.

² Грузинская Е.Ю. Нетрадиционный подход к проведению семинаров в курсе «Концепции современного естествознания» (Тезисы доклада) // Региональная научно-методическая конференция «Учебный предмет «Естествознание в школе и вузе» 25–29 марта 2000г. Н.Новгород, ННГУ, 2000. С.51–52

³ O'g'liy Abdullayeva – "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA". T.: - 2015. B.-77.

⁴ R.U.Kuchqarov, G.A.Nosirovdjayeva – "SHAXSIY RIVOJLANISH". Darslik. T.: - 2019. B.-196.

⁵ O'g'liy Abdullayeva – "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA". T.: - 2015. B.-79.

refleksiya (ba'zan meta-bilish) deb ataladi.

Refleksiya (lotincha "reflexio" – orqaga qaytish) falsafiy tushuncha bo'lib, u individ ongida sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqida o'zining mulohaza yuritishini anglatadi. Refleksiya – bu subyektning faqatgina o'zini-o'zi tushinishi bo'libgina qolmay, balki u "refleksiyalanuvchi" ni, uning shaxsiy xususiyatlari, ta'sirga javob berishining ifodalanganligi va bilishga oid tasavvurlarning oydinlashtirilishi hamda boshqalar tomonidan tushunilishini ham anglatadi. Ushbu fazaning eng muhim vazifasi esa, yangi o'quv materialining tushunilishiga erishishdan iboratdir. Faol talabalar xabarni eshitib, odatda savol beradilar yoki tushunmaganlarini keyinchalik aniqlash uchun yozib qo'yadilar. Sust o'quvchilar esa bunday qilmaydilar, ular vujudga kelgan chalkashliklar, anglashilmovchiliklar haqida yoki nimanidir tushunmay qolganlari haqida o'ylab ham ko'rmaydilar.

Metakognitiv (refleksiv) faoliyat atamasi ko'pincha bu sohada olib borgan keng ko'lamli tadqiqotlari uchun Jon Flavell bilan bog'liq. Ushbu amerikalik rivojlanish psixologi bu konsepsiyani 1979-yilda birinchi marta ishlatgan. Flavell metakognitivsiya (meta-bilish) idrokni bilish va boshqarishni anglatishini tushuntirdi.

Umuman olganda, metakognitivsiya odamlarning o'zlarining bilim tajribalarini aks ettirish va tartibga solish qobiliyatiga ishora qiladi. Ushbu jarayon bizning idrok funksiyalarimizga tegishli, ular bilim jarayonlarini nazorat qilish va tartibga solish bilan bog'liq. Ya'ni, e'tiborni, ishlaydigan xotirani modulyatsiya qilish, rejalashtirish, xatti-harakatlarni tormozlash, hissiyotlarni boshqarish va hokazo⁶.

Metakognitiv bilim – bu insonning hayoti davomida egallagan bilimlari, shuningdek, egallangan bilimlarning o'zlashtirilish qonuniyatlari, egallangan bilimlarning turli jarayonlarga nisbatan to'g'ri yo'naltirilishi hamda bilimlarni qachon, qayerda va qay tartibda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan bilimlar majmui hisoblanadi.

Metakognitiv bilim tarkibi 3 toifadagi bilimlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bular deklarativ bilim, protsessual bilim va shartli bilim.

Deklarativ bilim – axborotni qanday

ishlashimiz nuqtayi nazaridan biz o'zimiz va boshqalar haqida bilamiz. Bunga talaba yoki fikrlovchi sifatida o'zimiz haqimizda olgan bilimlarimiz hamda faoliyatimizga ta'sir etuvchi omillar kiradi. Shuningdek, deklarativ bilim biz egallagan bilimlar hamda ularning o'zlashtirilish qonuniyatlarini o'z ichiga oladi. Bu shuni anglatadiki, biz biror axborotni o'rganish jarayonimizga tanqidiy yondashgan holda tahlil qilsak, mazkur axborotlar qanday qonuniyatlar asosida qabul qilinayotganligini bilib olishimiz mumkin bo'ladi.

Protsessual bilim – bu shunday bilimki, o'zlashtirilgan deklarativ bilimlarni turli xil vaziyatlarga mos tarzda qo'llay olishni rejalashtirishga oid bilimlardir. Ya'ni, bu bizning turli xil vazifalarni bajarish strategiyamiz va protseduralarimiz haqidagi bilimlarimizdir.

Shartli bilim – bu deklarativ va protsessual bilimlardan qachon va nima uchun foydalanilishini bilishdir. Mazkur toifadagi bilimlar har bir soha vakillari uchun katta ehtiyojga aylangan. Ushbu fikrimizning isboti sifatida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, soha va sohaga doir bilimlarni qachon va qay tartibda qo'llashga doir bilimlarning yetishmasligi sabab ko'plab sohalarda natijaviy ko'rsatgichlar past darajada⁷.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tanqidiy fikrlash alohida mahorat emas, balki bolaning rivojlanishi va ta'lim olish jarayonida asta-sekin shakllanadigan ko'plab ko'nikma va qobiliyatlar majmuasidir. Agar darslarda talabalar passiv tinglovchilar bo'lmasalar va aksincha ular o'rganganlarini o'zlarining amaliy tajribalari bilan bog'lab, doimiy faol ravishda ma'lumot qidirsalar, tezroq shakllanadi. Bundan tashqari, talabalar ma'lumotlarning ishonchiligi yoki ishonchsizligiga shubha qilishni, dalillar mantiqini tekshirishni, xulosa chiqarishni, nazariy bilimlardan foydalanish uchun yangi misollar tuzishni, qarorlar qabul qilishni, sabab va oqibatlarini o'rganish kabi turli hodisalarni o'rganishlari kerak (bunda o'qituvchilar ham yordam berishi kerak).

Umuman olganda xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, ta'lim jarayoniga tanqidiy fikrlashni tizimli ravishda kiritish, alohida fikrlash va kognitiv faoliyat uslubini shakllantirish ta'limning to'liq o'zlashtirilishini ta'minlaydi hamda shu orqali ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadr tayyorlash imkonini beradi.

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Furqat Qo'ldashevich Axmedov - p.f.n., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Nodirjon Salaydinovich Kulboyev - v/b dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy talim muassasari talabalar jismoniy madaniyatining yo'nalishlari belgilab berilgan. Shuningdek, talabalar jismoniy madaniyatidagi mavjud muammolarni aniqlashga qaratilgan ilmiy nazariy malumotlardan iborat.

Аннотация: В данной статье определены направления физической культуры студентов высших образовательных учреждений, а также освещены научные взгляды к определению существующих проблем в этой сфере.

Abstract: This article covers the areas of physical culture of higher education students, as well as provides detailed information aimed at identifying current problems in the student's physical culture.

Kaliti so'zlar: talabalar, jismoniy madaniyat, sport inshootlari, jismoniy madaniyat yo'nalishlari, kundalik turmush tarzi, jismoniy madaniyat darajasi, sport natijalari.

Ключевые слова: физическая культура, спортивные сооружения, повседневный образ жизни, уровень физической культуры, спортивные результаты.

Keywords: physical culture, sports facilities, everyday life, level of physical education, sports results.

Mamlakatimizda aholi turmush farovonligini oshirish davlat siyosatining bosh masalasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohatlarning mazmun-mohiyati ham asosan mamlakat aholisining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan.

Aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash bugungi kunning eng asosiy masalalaridan biri bo'lib, bunda jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bularni inobatga olgan holda, aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik, vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olishni tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekiston sportchilari xalqaro sport maydonlarida juda katta

muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Bunga misol faqatgina joriy yilning keyingi oylarida (2022-yil 30-oktabr – 12-noyabr kunlari) lordaniya poytaxti Ammon shahrida boks bo'yicha kattalar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida O'zbekiston ayollar terma jamoasi bitta oltin, beshta kumush va ikkita bronza medallariga sazovar bo'lgan bo'lsa, O'zbekiston yerkaklar terma jamoasi beshta oltin, ikkita kumush va uchta bronza medallari bilan umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi. O'zbekiston erkaklar va ayollar terma jamoalari umumiy hisobda oltita oltin, uchta kumush, to'rtta bronza medallarini qo'lga kiritdi. Shuningdek, 2022-yil 28-iyul – 10-avgust kunlari Hindistonning Chennai shahrida o'tkazilgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston erkaklar terma jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Shunday nufuzli musobaqalarda JDPU talabalarining muvaffaqiyatli ishtirok etishini alohida qayd etish mumkin. Jumladan, jismoniy madaniyat fakulteti talabalarini Nigina Uktamova va Jahongir Zokirov 2021-y 16-26 - martda Polshada boks buyicha yoshlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida oltin medallarni qo'lga kiritdilar. 2022-yilning 14-26-noyabrda boks buyicha yoshlar urtasida Ispaniyada utgan jahon chempionatida fakultet 1-kurs talabalarini Saboxat Husanova

⁶ Livingston, Jennifer A. "Metakognitivsiya: umumiy ko'rinish". 2003. 3-B. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED474273.pdf>
⁷ <https://eric.ed.gov/>

bronza, Aziza Zokirova kumush medallarini qo'lga kiritdilar. Sportdagi bunday yuqori natijalarga erishishda sportchi uchun har tomonlama shart-sharoitlarni yaratilganligi muhim ahamiyatga ega.

Aholi va yoshlarning eng faol a'zolari hisoblangan oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirish bilan birga ularning turmush tarziga jismoniy madaniyat va sportning singdirilishi dolzarb masala hisoblanadi, chunki oliy ta'lim muassasasi talabalar kelajakda jamiyatning ziyoli qatlami, boshqaruvchi va yetaklovchi kuchi hisoblanadi. Bu borada pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'rnini alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarga qo'yilgan talablarni inobatga oladigan bo'lsak, ta'lim-tarbiya olish orqali mutaxassis bo'lib yetishishi o'ta muhim hisoblanadi. Zero, o'qituvchi kelajak avlodga talim-tarbiya berishda har tomonlama ilg'or va na'muna bo'lishi tegishli meyoriy hujjatlarda ham belgilab qo'yilgan. Shu nuqtai nazardan pedagogika ta'lim yo'nalishidagi talabalarda sog'lom turmush tarzining shakllanganligi, ularda jismoniy madaniyatning takomillashgan bo'lishi o'ta zaruriy ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun ham talabalarining jismoniy madaniyati va uni rivojlantirish, takomillashtirishni ilmiy tadqiq etish dolzarb masaladir. Respublikamiz va MDH olimlari tomonidan talabalarining sog'lom turmush tarzi, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, shuningdek, jismoniy madaniyatiga oid bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Yurtimiz olimlaridan: T.S.Usmonxo'jayev, R.Abdumalikov, I.Kushbaxtiyev, A.Atoyev, O.Musurmonova, O.Jamoliddinova, F.Ahmedov, R.Salomov, H.T.Rafiyev, F.Xo'jayev, K.Maxkamdjonov, Sh.Mardonovlarning ishlari, shu bilan birga Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari olimlaridan: M.Y.Vilinskiy, O.Y.Milova, Y.Y.Andriyanova, Y.D.Jeleznyaklarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari o'rganilib, ilmiy-nazariy tahlil etilganda, talabalar jismoniy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini yanada takomillashtirish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni maqsad qildik. Buning uchun:

Ilmiy tadqiqotning obyekti:

-pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarning amaldagi

holatini tahlil etish;

Ilmiy tadqiqotning predmeti: pedagogika yo'nalishidagi talabalarining jismoniy madaniyatini rivojlantirish (pedagogik texnologiyalari) asoslari;

Ilmiy tadqiqotning maqsadi: oliy ta'lim muassasalari talabalarini jismoniy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirishning ilmiy, nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, metodik qo'llanmalar yaratish hamda amaliyotga joriy etish belgilab olindi.

Ilmiy tadqiqotning vazifalari haqida to'xtaladigan bo'lsak, ular

quyidagilarni tashkil etadi:

talabalar jismoniy madaniyatining amaldagi holatini ilmiy jihatdan aniqlash;

talabalar jismoniy madaniyatiga oid mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil etish va xulosalar qilish;

talabalar jismoniy madaniyatini tashkil etuvchi faktorlarni (ko'rsatkichlarni) aniqlab olish;

talabalar jismoniy madaniyatini rivojlantirishga oid ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

talabalar jismoniy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va tajriba-sinovdan o'tkazish olingan natijalarini amaliyotga joriy etishdan iborat bo'ldi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini sog'lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu jismoniy madaniyat hisoblanadi. Haqiqatdan ham, jismoniy madaniyatsiz sog'lom turmush tarzini kechirish mumkin emas. Avvalambor, jismoniy madaniyat tushunchasining o'ziga aniqlik kiritib olish zaruriyatidan kelib chiqib, bu tushunchaga mutaxassislarning bergan ta'riflari o'rganildi. Jismoniy madaniyat tushunchasi mutaxassislar tomonidan turlicha ta'riflangan. Jumladan, professor L.P.Matveev tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan; "jismoniy madaniyat jamiyat a'zolarining jismoniy kamolotga erishishini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun maxsus vositalar, metodlar va sharoitlarni yaratish hamda ulardan ratsional foydalanish bo'yicha erishilgan yutuqlarning majmuasidir. Jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning tarkibiy bir qismi bo'lib, uning yuksalishi jamiyat rivojlanishining asosidir". Berilgan ta'riflarga asosan talabalar jismoniy madaniyatining ko'rsatkichlari aniqlandi va ular quyidagicha tasniflandi:

olliy ta'lim muassasasidagi sport

inshootlarining mavjudligi va ularning holati;

olliy ta'lim muassasasining jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi o'quv-tarbiyaviy, me'yoriy hujjatlarning mavjudligi va ularning mazmuni (o'quv reja, fan dasturi, ishchi dastur va boshqalar);

talabalar jismoniy-tarbiya va sport bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratishda oliy ta'lim muassasasi rahbariyatining munosabati, ular tomonidan amalga oshiriladigan ishlarning mazmuni (maxsus savolnoma asosida o'rganiladi);

talabalar jismoniy tarbiyasiga oid metodik ta'minotning holati (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, va metodik ko'rsatmalarning ta'minoti);

olliy ta'lim muassasasining jismoniy-tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning shtatlar birligi (kafedra, o'qituvchi, murabbiy, sohada xizmat qiluvchi boshqa turdagi shtatlar va boshqalar);

olliy ta'lim muassasasidagi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasi (ilmiy, darajalar, unvonlar, sport ustalari va boshqa ko'rsatkichlarning mavjudligi);

talabalar turmush tarziga jismoniy tarbiya va sportning singdirilganlik darajasi (doimiy bir sport turi bilan shug'ullanuvchi talabalar sportdagi natijalar, faol talaba sportchilar, sport to'garaklarida ishtirok etuvchi talabalar, ertalabki badantarbiya bilan muntazam shug'ullanuvchi talabalar, muntazam ravishda mustaqil jismoniy mashqlar bilan shug'ullanuvchi talabalar va boshqalardan iborat);

talabalar bilan tashkil etiladigan va o'tkaziladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining xilma-xilligi;

vaqtincha sog'ligida muammolari bulgan talabalar bilan olib boriladigan sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etilishi utkazilishi

imkoniyati cheklangan talabalar bilan olib boriladigan, jismoniy-tarbiya sport tadbirlari, mashg'ulotlari va ularga yaratilgan shart-sharoitlar talabalarining salomatlik darajasi.

Talabalar jismoniy madaniyatini rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik jarayon, balki ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy sohalarga ham bevosita bog'liq.

Talabalar jismoniy madaniyatining asosiy ko'rsatkichlarini o'rganish maqsadida dastlabki ilmiy pedagogik kuzatishlarni o'tkazdik. Bunga asosan oliy ta'lim muassasalaridan Jizzax politexnika instituti va Jizzax davlat pedagogika universiteti tanlab olindi. Jizzax

politexnika institutida 8500 ga yaqin talabalar tahsil oladi. Talabalar uchun bitta yopiq zal, ikkita sun'iy maydon, bitta tennis maydoni, bitta badminton maydoni, bitta voleybol maydoni, bitta ochiq futbol maydoni, bitta gimnastika maydonchasi mavjud. Bir vaqtning o'zida ushbu maydonlar 180 ga yaqin talabalarini qamrab oladi. Jizzax davlat pedagogika universitetida 14000 ga yaqin talabalar tahsil oladi. Talabalar uchun ikkita sun'iy maydoni, bitta futbol maydoni, bitta basketbol maydoni, bitta gimnastika maydonchasi, ikkita yopiq turdagi sport zali, bitta yopiq basseyn hamda yugurish yo'lakchalari mavjud. Ushbu sport maydonlari bir vaqtning o'zida 250 ga yaqin talabalarini qamrab oladi. Sport inshootlarining mavjudligi asosiy masalalardan biri, albatta. Ammo eng asosiy masala talabalar kundalik hayotiga jismoniy madaniyatning singdirilganligidir. Chunki mavjud sport inshootlarida ham talabalar doimiy ravishda shug'ullanayotgani yo'q. Demak, talabalarini ongli va muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlariga ehtiyoj yetarli darajada emas.

Buning turlicha sabablari bo'lib, mavjud sabablarni aniqlash maqsadida talabalar bilan maxsus jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga bo'lgan munosabatini (yondashuvini) aniqlashga qaratilgan so'rovnoma o'tkazildi. Bunda Jizzax davlat pedagogika universitetining rus tili va adabiyoti, o'zbek tili va adabiyoti, tabiiy fanlar, maktabgacha ta'lim fakultetlaridagi 50 nafar II - III kurs talabalaridan jami 200 nafar talaba yoshlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Ushbu talabalarining 82 nafari o'g'il bolalar va 118 nafari qiz bolalardan iborat bo'ldi.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlandi:

Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini 10 % qoniqarsiz - 3% yaxshi - 64% qoniqarli na'munali - 23% baholaganlar. Talabalar orasida futbol - 34%, voleybol - 21 %, shaxmat shashka -14%, boshqa sport turlari - 9% shug'ullanishlarini malum qilgan bo'lsa, 22% umuman shug'ullanmasligini ma'lum qilgan. Mustaqil ravishda sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishlari o'rganilganda muntazam shug'ullanuvchilar -18%, ba'zan shug'ullanib turadiganlar -46% va 36% umuman shug'ullanmasligini ma'lum qilgan. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanmasligining sababi nima? Deb, qo'yilgan savolga jismoniy tarbiya bilan shug'ullanmaydigan talabalarining 26% xohlamayman, 21% zarur

deb hisoblamayman, 33% vaqtim yo'q, o'qishim kerak, 20% xohlayman, ammo universitetda sharoitlar yaratilmagan deb, javob berganlar.

O'quv jarayoni dars jadvali asosida jismoniy tarbiya darslarini qo'yilishini xohlaysizmi? deb qo'yilgan savolga xohlayman -89%, xohlamayman - 6%, menga farqi yo'q - 5% javoblarni berishgan. Jismoniy tarbiya darsini -52% talabalar haftasiga bir marta, 48% talabalar ikki marta qo'yilishini ma'qul deb hisoblashgan. Oliy ta'lim muassasalari talabalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommaviylashtirish uchun 59% talabalar dars jadvaliga jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari qo'yilishini, 41% turli sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish ko'lamini oshirish mazmunidagi javoblarni berishgan.

O'tkazilgan so'rovnomada asosida olingan javoblarga asoslanadigan bo'lsak, talabalar jismoniy madaniyatining takomillashi k'o'pgina omillarga bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. So'rovnomada asosidagi olingan ma'lumotlardan qo'rinib turibdiki, talabalar kundalik turmush tarzida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish to'la qonli o'rin olmagan. Shuning uchun ham talabalar asosiy qismi turli holatlarni sabab qilib jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanmaydi. Talabalar yana bir qismi oliy ta'lim muassasalarida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanadi va yaratilgan sharoitlarni yanada yaxshiroq bo'lishini xohlaydi. Demak, talabalar jismoniy madaniyatini oshirishning asosiy masalalaridan biri va hal yetuvchi ko'rsatkichi bu ularning kundalik turmush tarziga jismoniy tarbiya va sportni singdirishdan iboratdir.

Ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan

holda oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy madaniyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

Oliy ta'lim muassasalarida doimiy ravishda jismoniy tarbiya va sportning moddiy texnik bazasini boyitib borish zarur.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini jismoniy madaniyatini amalga oshirishga oid ilmiy metodik ta'minotni doimiy ravishda yangilab borish.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini doimiy ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishini ta'minlashga oid huquqiy meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish zarur.

Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan soha mutaxassislari (o'qituvchi, murabbiylar, instruktorlar) kasbiy mahoratini oshirib borish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirishga oid tizim joriy etish.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'rtasida turli miqyosda o'tkazilayotgan sport musobaqalarining turlarini va miqdorini oshirish zarur.

Talabalarni jismoniy imkoniyatlarini inobatga olgan holda ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlariga jalb etishning innovatsion metodlarini qo'llash zarur.

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar bilan maxsus jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini muntazam ravishda o'tkazib borish zarur.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini muntazam ongli va mustaqil ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga undovchi targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish orqali talabalar jismoniy madaniyatini yanada rivojlantirishga erishish mumkin.

Vokal ijrochiligi va texnikasini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari

Abatbay Nagmetullayevich Kalliyev -v.b professor, O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali, Qoraqalpog'iston Respublikasi san'at arbobi

Annotatsiya: Maqolada vokal san'atining fan sifatida taraqqiy etish jarayonlari va o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Talabalarning vokal ijrochiligi va texnikasini takomillashtirishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga talabalar mazkur fan bo'yicha ko'nikma va iqtidorlarini yanada oshirishda pedagog nimalarga e'tibor qaratishi kerakligi, vokal ijrochiligi texnikasini takomillashtirishda mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish, vokal malakalarini egallash yuzasidan takliflar bildirilgan.

Аннотация: В статье говорится о процессах развития и особенностях вокального искусства как науки. Проведена научно-исследовательская работа и даны рекомендации по совершенствованию вокального исполнительства и техники студентов. При этом были высказаны предложения, на что следует обратить внимание педагогу для дальнейшего совершенствования навыков и талантов учащихся по данному предмету, как правильно организовать учебные занятия по совершенствованию техники вокального исполнительства, как приобрести вокальные навыки и умения.

Abstract: The article talks about the processes of development and specific features of vocal art as a science. Scientific-research work was carried out and recommendations were made on improving the vocal performance and technique of students. At the same time, suggestions were made on what the pedagogue should pay attention to in order to further improve the skills and talents of students in this subject, how to properly organize training sessions to improve the technique of vocal performance, and how to acquire vocal skills.

Kalit so'zlar: vokal fani, vokal texnikasi, vokal pedagogikasi, nazariya va amaliyot, xalq ijrochilik san'ati, talaba mahorati, ovozni qo'yish, kuylash mahoratini takomillashtirish.

Ключевые слова: вокаловедение, вокальная техника, вокальная педагогика, теория и практика, народное исполнительское искусство, мастерство учащихся, качка, совершенствование певческого мастерства.

Keywords: vocal science, vocal technique, vocal pedagogy, theory and practice, folk performance art, student skills, pitching, improvement of singing skills.

Vokal – musiqa san'atining o'ziga xos turi bo'lib, eng avvalo, ashula aytish mahoratini yuksak darajada o'zlashtirishga asoslanadi¹. Yaqin va O'rta Sharq mintaqalarida, xususan, Markaziy Osiyoda joylashgan ko'hna davrlarda vujudga kelgan professional musiqa san'atida yakkaxonlik va hamnafaslik ijro shakllari qadimdan qo'llanilgan. Ijro shaklining oddiy ko'rinishlari mahalliy mehnatkash aholi orasida folklor musiqasi negizida, kasbiy tus olgani esa saroyning madaniy, ko'ngilochar hamda joriy etilgan zardushtiylik marosimlarida ancha erta paydo bo'lgan. Vokal san'atining birinchi tarixiy vakillari – xalq xonandalaridir. Har bir millatning madaniy taraqqiyoti qaysi bir davrga mansub bo'lishidan qat'iy nazar,

mazkur xalqning iqtisodiy, ilm – fan, adabiyot va ma'naviyat sohalarida erishgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liq. Har bir xalqning ma'naviy ravnaqi esa, eng avvalo, uning umumbashariy madaniyatga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi va qadrlanadi. Ana shu nuqtai nazardan o'zbek xalqi ham boshqa O'rta Osiyo xalqlari bilan birgalikda jahon ilm – fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi². Butun insoniyat tarixida insonga berilgan ijrochilik ovozi Alloh tomonidan berilgan deb hisoblangan. U har doim ilohiy titroqni, havasni va uni egallash xohish istagini keltirib chiqargan. Ijroga nisbatan katta hurmat va maishiy qiziqishlarni

¹ Sharapov A. Vokal va uning musiqadagi ahamiyati// jur. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. №1. 2021. (1114-1117b)
² Malikova D. Vokal. Toshkent.: "Lesson press" 2019. 210-b.

ortib borishi, vokal maktablarini va yangi ovoz usullarining tashkil topishiga sabab bo'ldi. Ammo talabchanlik maqsadiga ko'ra ularni usul deb aytib bo'lmaydi. Bu pedagogik tarafdin shaxsni vokalni his qilish tuyg'usi orqali ovozni yo'lini topish harakatlari edi. Ulardan har biri o'z usulini ajoyib ijrochi sifatida taklif qilgan. Ayni damda esa gap o'quvchini o'qitish emas, balki tabiatan unda bo'lgan ovozining imkoniyatlarini mukammallashtirish va uning tabiiy sifatlarini rivojlantirish haqida edi va pedagogik tarafdin qaralganda ijobiy natijaga o'qituvchi va o'quvchining vokalni o'zaro juda yaqin sezishi orqali erishiladi³. "Vokal" fani talabalarning musiqiy qobiliyatini yanada rivojlantirish va kuylash mahorati san'ati ko'nikmalarini o'rgatishga asoslanadi.

Shuningdek, vokal malakalarini egallash, vokal pedagogikasining sistemalilik, izchillik, oddiydan murakkabga, yakka yondashish kabi qator didaktik prinsiplariga asoslanadi. "Vokal" fanning asosiy vazifasi talabalar ovozini ilk mashg'ulotlardan boshlab kuylashga moslashtirish va ovoz apparatini bosqichma-bosqich ijodiy jarayonga singdirib borishdan iboratdir. Talabalarga vokal darsi jarayonida ta'lim va tarbiya berish, ularni dunyo standartlariga javob beradigan chuqur bilim, yuqori malakali mutaxassis qilib tayyorlash, badiiy jihatdan rivojlantirish, ularga vokal texnikasini, uning sirlarini o'rgatishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan darslari jarayonida talabalarning nafaqat vokal ijrochilik, kuylash malakalarini va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirib boriladi, balki ularning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, badiiy-estetik didini tarbiyalash borasida ham uzluksiz ishlar olib boriladi. Vokal fani – musiqqa nazariyasi, solfedjio, garmoniya, polifoniya, musiqqa asarlari tahlili, musiqqa tarixi, fortepiano, dirijyorlik, vokal ansambli kabi fanlar bilan o'zaro bog'liq. Vokal fani ilm fan va san'at sohasida muhim o'ringa ega.

Vokal san'ati vositasida talabalarning estetik va badiiy didini tarbiyalash, ularning ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishda uzluksiz talabchanlik bilan ish olib borish, ularni o'zbek kompozitorlarining asarlari, qardosh xalqlar vokal asarlari, shuningdek, chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan nodir asarlar bilan tanishtirish, professional

uslubda kuylash malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ovozni qo'yish bu talabani professional kuylashga o'rgatish demakdir. Bu jarayonda ovoz apparati, diapazon, jarang kuchi hamda bir qator badiiy vositalar ustida tinmay ish yuritilishi zarur. Vokal o'qituvchilari yigit va qizlarning ovoz imkoniyatlari haqida mukammal bilimga ega bo'lishlari shart.

Talabada xonandalik ovozini tarbiyalashda bir qator metodik qo'llanmalarga amal qilish kerak. Ularga vokal kuylash ko'nikmalarini o'zlashtirishda avval ovoz apparati tuzilishi haqida tushuncha berib o'tish juda muhimdir.

Qo'shiq aytish jarayonida ular bir organizmdek birlashadilar. Kuylash holati haqida talabalarga qator ko'rsatmalar berib o'tish eng asosiy omillardan hisoblanadi. Bunda talabaning qaddi-qomati erkin holatda, boshi va bo'yini to'g'ri, chakaklari bo'sh va tabiiy harakatda bo'lishi uqtiriladi. Talabani erkin kuylashga o'rgatish jarayonida ovoz paychalari to'g'ri kuchlanishi va bo'g'izni siqmaslik talab etiladi. Ovoz organlarining faoliyati natijasida eshitish idroki hosil bo'ladi. Talabada eshitish qobiliyatini rivojlantirish o'ta muhim masalalardan biri, chunki qo'shiqni intonatsion tiniq kuylanishi eshitish qobilyatiga juda ham bog'liqdir⁴.

Ovoz qo'yish metodlari (vokal maktablari) turlicha, biroq ularning hammasi umumiy tamoyillar va bosqichlarga tayanadi: nafas olishni rivojlantirish va takomillashtirish; rezonatrlar, pozitsiya, tovushni hujum qilish tushuncha va ko'nikmalarini egallash; texnika vokal usullarini o'zlashtirish; talaffuz apparati bilan ishlash kabidir⁵. Vokal ijrochiligi va texnikasini takomillashtirishda ijrochilik mahoratini professionalashtirishning ahamiyati kattadir.

Odatda "ijrochilik" musiqiy namuna talqini bilan bog'liq bir qator ichki xususiyatlarni o'zida mujassam etgan va bu jihatlar ijrochilik mezonlari sifatida amaliyotda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Iste'dod, bilim, har tomonlama mukammal ovoz, sozandalik, jo'r bo'lish mahorati, badihago'ylik mahorati, saboq, ijodiy yondashish, to'g'ri so'z talaffuzi, izlanish va doimiy mashq kabi xususiyatlar shular jumlasidandir. Musiqqa ijrochiligi amaliyotida ana shunday xususiyatlarga imkon

³ Rahimov E. Vokal. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi TDML. – 105 b.

⁴ D.M.Malikova. Vokal. Toshkent.: "Lesson press" 2019. 210-b.

⁵ Pirmatov Sh. Professional aktyorlar tayyorlashda vokal maktabining o'rni// jur. Teatr №3. Toshkent.: 2014. "Paper Max" – 48. (36-37)

darajada ko'proq ega bo'lgan san'atkorgina mumtoz musiqqa namunalari mukammal talqin etishga qodir bo'ladi. Vokal musiqqa pedagogikasining asosiy tamoyil (prinsip) va uslublari ta'lim berish jarayonida "Vokal san'ati asoslari" fani muhim o'ringa ega, chunki u kasb yuzasidan olinayotgan bilimga amaliy tushuncha bera oladi. Talabalarga vokal san'atini o'rgatish jarayonida hamma xonanda-o'qituvchilar to'rtta bosh tamoyilga asoslanadi:

1. Ta'limda ketma-ketlik va uzluksizlik tamoyili. Bu umumpedagogik tamoyil bo'lib, u ta'lim jarayonida soddadan – murakkabga asoslanadi. Uzluksizlik hamma narsada zarur – xonandaning diapazonini kengaytirishda ham, mashqni murakkablashtirishda, repertuar tanlashda, ruhiy kechinmada lirikadan dramatik asarlarga (his – tuyqular cho'qqisiga), repertuarni kuchaytirilishi ovozni yo'qolishiga olib boradi. Talabalar bilan mashg'ulotlarda ovozning sifati, toblanishi, tebranishi, uzoqqa yetishi haqida qayg'urish kerak. Repertuarni kuchaytirishga yo'l qo'ymaslik kerak.

2. Badiiy – musiqqa va vokal texnik tamoyillarining birligi. Xonandani qoida bo'yicha tarbiyalash uchun bir vaqtning o'zida ikki muammoni hal qilish talab qilinadi: ijro etish apparatini qurish – demak xonandani professional ovozini hosil qilish va unda aytishni mashq qilish. Bu ikki masala bir vaqtda bir biriga bog'liq holda amalga oshiriladi. Har qanday hattoki eng soddaga ko'nikmani elementar ijro etish uchun avvalo, ovozga ishlov berish, shundan so'ng ijro mahoratini egallash kerak, deb o'ylagan katta xatoga yo'l qo'yadi.

3. Alohida yondashuv tamoyili. Xonanda – bu o'ziga xos musiqiy asbob. Hammasi juda alohidalikni talab qiladi. O'zgaruvsiz (dogmatik) ko'rsatmalar vokal pedagogikasiga zarar yetkazadi. Har bir o'quvchining imkoniyat darajasi har xil bo'ladi, chunki uning ovozini kuchi va chidamliligi shaxsiy xarakteriga bog'liq. Ayniqsa, uning ruhiy xususiyatlarini bilish va ularga ahamiyat berish, ovozga ortiq ruhiy ta'sir ko'rsatmaslik kerak. O'quvchi xarakteri hamma sohada mustaqil ravishda ovozning mayinligida ham, kengligida ham, quvvati, chidamliligi, sifatida hamda iste'dodli, serg'ayrat, hayoli, irodali yoshlarda ochiq-oydin namoyon bo'ladi. Shu sababli darslarni yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda o'tkazish

kerak.

4. Muntazam mukammallikka erishish tamoyili. Bu tamoyil oxirgi 15 yildan beri ovoza qilingan. Agar o'quvchi o'z ustida mustaqil ravishda shug'ullanmasa pedagog mashg'ulotlarida bergan bilimning o'quvchiga foydasi bo'lmaydi. Ta'limning so'nggi jarayonlarida talabaning mustaqil tayyorlanishiga alohida ahamiyat beriladi⁶.

Vokal ijrochiligini takomillashtirish bilan birga vokal texnikasini ham to'g'ri taraqqiy ettirish lozim. "Vokal texnikasi" deganda, biz xonandaning kuylash jarayonida ovoz chiqarish apparatining barcha qismlarini o'zaro harakati deb tushunamiz. Rivojlanayotgan ovozning qadr-qimmatini, boyligi va tembri esa dars jarayonida ma'lum bo'ladi. Har qanday musiqqa yoki musiqiy jumla o'z ifodali mazmuniga ega. Asar va uning obrazi ustida ishlash uchun bosqichga taqsimlanadi. Birinchi – asar musiqasi va so'zlarini o'rganish, ikkinchi – vokal texnikasi ustida ishlash, uchinchi – badiiy ishlov berish. Professional xonanda – g'azab, rahm-shafqat, hazil, masxara, erkalash, bo'sa, ayyorlik, og'riq, jasorat kabi his-tuyg'ular hammasini kuylash mahoratiga ega bo'lishi kerak. Ijrochining asosiy maqsadi tinglovchilar qalbiga insonlar dunyosining ehtiroslarini kirita bilishdan iborat bo'ladi.

Ovozning tug'ilishi (hatto klassik ovozning) ba'zilar uchun tasodif, ba'zilar uchun esa mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Qo'shiq kuylashning uch uslub (akademik), hamda estrada yo'nalishi. Estrada yo'nalishidagi qo'shiqlarda xalq kuylari va jaz elementlari qo'llaniladi. Bu janr ko'pgina qo'shiqchilik yo'nalishlarni qamrab olgan. Jaz yo'nalishidagi ijro, avvalambor, ritm va garmoniyani (notalarni uyg'unligini) yuksak darajada his etish, shu bilan birga, ovozning harakatchanligini va improvizatsiya qilishni anglatadi. Jaz yo'nalishidagi qo'shiqlarda asarning shaklini his etish, uni o'zgartirib, lekin kerakli garmoniyadan chiqib ketmagan holda musiqiy jumlaning namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari musiqachi sozandalar bilan hamkorlikda improvizatsiya qilish ham maqsaddan xoli emas. Xonanda vokal texnikasiga ega bo'lishi kerak, ya'ni ovozini erkin boshqara olishi kerak.

Estrada vokali akademik vokaldan

⁶ Qahharov N. Ayubov Q. Vokal san'ati asoslari. Toshkent.: "Iqtisod-Moliya", 2008.

tovushning tabiiyligi va ochiqroqligi bilan farq qiladi. Biroq akademik yo'nalish kabi estrada janrida ham kuylash ko'nikmalari, tovushning pozitsiyasi va tirgakligi muhim o'ringa ega⁷.

Vokal ijrochiligi va texnikasini takomillashtirishda yana bir alohida e'tibor talab qiladigan unsur bu so'z va ohangga uyg'unligiga alohida e'tibor qaratishdir. Ashula ijrochiligi bizga ma'lumki, so'z va kuyning mutanosib talqiniga xos, ularning har birini alohida yondashish bilan ifodalanishiga asoslanadi. Tabiiyki, tovushlar majmuasida vujudga keladigan musiqiy kuy alohida o'z ma'nosiga ega bo'ladi. O'z o'rnida unga bog'langan so'z ham muhim g'oyani ifoda etadi. Aslida, azaldan kuy so'zga bog'langan. Bu jarayonda so'zning g'oyasi kuyga ham asos bo'lgan. Ashulachi esa kuy va so'zni birligini ta'minlagan holda har ikki omilni Yashirin mazmunini ovoz talqinida kuylash orqali ochishi lozim. Uning saviyasi va ahamiyati aynan asarning qay darajada talqin etilishiga ham bog'liqligini e'tirof etib o'tish lozim. Qo'shiq ijro etganda so'z talaffuzning aniq va to'g'ri bo'lishiga katta ahamiyat beriladi. Aniq talaffuz musiqqa mazmunini yoritishda eng muhim badiiy ifoda vositalaridan biri hisoblanadi⁸.

So'z bilan ohangning qanchalik uyg'unligi zaminida bir qator musiqiy va adabiy unsurlar borki, xonanda yoki hofiz buni bilishi bilan birga bu ilmlarni badihaviy talqin etishi ham juda muhimdir. Bu jarayon xonanda talqinining har bir amalga oshiriladigan harakatlari bilan bog'liqdir. Bir tovush sadosidan boshlab kuy harakatining barcha jabhalaridagi tovush munosabati muhim va alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni tovush va so'z bo'g'inidan boshlab, so'z va jumlagacha bo'lgan ijroda musiqqa tovushlarining oraliqlari, intervallari va keyingi harakatlari alohida ma'nolarga egaligini namoyish etishdir. Tovushlarning har bir harakati muayyan ma'no kasb etadi. Xonanda esa unga ijodiy yondashib asarni jonlantiradi. Demak, uslubning shakllanishi ham aynan shu so'z, ohang va ijro talqini zaminida dunyoga kelar ekan.

Ijrochilik mohiyatini ko'rsatishda xonanda har bir asarni ichki dunyosini tushunib, uning obraziga tayyorlangan holda kira olishi va shu obrazni ijodkor tasavvur qilgandek yarata

olishi ovoz talqinida muhimdir. Shu bilan birga ovoz imkoniyatlarini, sifatini ko'rsatishda, avvalo, o'z ijrosini o'zi tinglashi va o'z bilimi doirasida to'g'ri idroklashi lozim. Bu jarayon musiqqa san'atida muhim omillardan bo'lgan ayniqsa cholg'u va ashula ijrochiligida katta ahamiyatga ega bo'lgan va ijro bilan bevosita bog'liq bo'lgan qator o'ziga xos xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ijro asar ruhiga, obraziga kirishi va o'z imkoniyatlarini ko'rsatishdagi zarur omillar deb hisoblanadi.

- So'z matni jumlarining ijrodagi yakuni;
- Kuy tuzilmalarini tarkibiy ravonligi;
- So'z bo'linishlari;
- Musiqiy kuy bo'laklari frazalari;
- Tinish jarayonlari pauzalar;
- Nafas olish joylari uslublari;
- Kuyda tovush cho'zimlarini uzaytirish uslubiyatlari;
- Quyda metro-ritmik tuzilmalarini aniq qaytarish;
- Quyda ma'lum bo'laklarning boshqa balandlikda ketma-ketqaytarish;
- Og'zaki tekstdagi tinish belgilari
- Asarning kadans davralari;

Quyda metro-ritmik tuzilmalarni o'zgarishlar bilan qaytarilishi. Muallif qayd etgan sifatlarni xonanda nazarda tutib, mumkin darajada rioya qilsa, xonish omilidagi ijro har tomonlama bu jarayonning mohiyati nuqtai nazaridan mukammal ifodasini topadi. Ijrochilikda muhim bo'lgan sifatlarni alohida olganda, har biri o'ziga xos ahamiyatga egadir. Chunki asarning umumiy g'oyasini ifoda etishda musiqqa va so'zning mazmuni, ularning ohang vositasidagi talqini, kuy rivojining pog'onalari, dinamikasi. Har bir kuy va so'z jumlarining boshlanish tugallanishlari, kuyning metro-ritmik jihatlarining o'zaro uyg'unligi, xonandaning bilimi va imkoniyatlari darajasini anglatadigan tomonlaridir. Ana shu jarayondagi barcha xususiyatlar uyg'un holda asarning ichki va tashqi dunyosini ifoda etish uchun lozim bo'lgan musiqiy omillardir. Musiqiy asarning talqini so'zdan matndan mustasno holda o'zining ichki qonuniyatlariga bo'ysunishi hammaga ayon. Bu qonuniyatlar tovush, qator, uslub tuzuk, turg'un tovushlar va kuyning tarkibiy shakllari bilan izohlanuvchi tomonlari orqali xarakterlanadi. Bu jarayon aslida "ijro tarkibi"ni tashkil etadi. Odatda har

7 Yuldasheva A. Vokal. Toshkent.: 2020. Fan va jamiyat. 160 b

8 Mirzayev Q. Badiiy (vokal-xor) jamoalar bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent.: 2020. Fan va ta'lim poligraf. 183 b.

bir musiqiy asar ma'lum tovush qator tizimida harakat qiladi. Harakatlarning qay darajada ifoda topishi asarning bastakori, qolaversa, ijrochi talqinida jonlanadi. Ijro yonlanishi tovushlarning tuzuk tarkibidagi o'zaro bog'lanishiga asoslanadi. Lekin bubog'lanishda har bir kuy bo'laklari, jumalari alohida va asar doirasida jumalarning bir butunlikda tarkib topishi, tovush qatorning asosiy va yondosh tovushlarning mutanosib tarkib topishi juda muhim. Bu ma'noda xalq va mumtoz ijodiyot janrlari o'z shakily tarkiblariga egadirlar. Xalq musiqqa ijrochiligida, ayniqsa badixaguylik, erkin talqinga asoslangan ijro turlarida, asar tarkibi qisman bo'lsada o'zgarishga uchraydi. Lekin, tarkibiy qismning asosiy tizimini shakllantiruvchi turg'un tovushlar harakatdagi turg'un tovushlar, ularning rivojlanish jarayoni va tugallanish jabhalari asoslangan holda gavdalanadi. Bu albatta, ijro tarkibining negizini tashkil etadi⁹. Inson ovozi cholg'u asbobi bera olmaydigan narsani ifodalay oladi, ya'ni qo'shiqchi bir paytning o'zida ham shaxs, ham cholg'u asbobi, ham musiqachi bo'la oladi¹⁰. Buning uchun o'qituvchining tushuntirish vositalarining maqsadga muvofiqligi, aniq va ravshanligi, bolalarning so'z boyligiga mosligi, vokal mashqlari va qo'shiqlar esa ularning ovozi va kuylash malakalariga mos tushishi shart. Musiqqa savodidan o'rganishda

esa onglilik va faollik musiqani nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri bilish va o'zlashtirishini osonlashtiradi¹¹. Talabalar bilan vokaldan mashg'ulotlar o'tkazishda quyidagilar zarur:

-Talabalarning psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olish:

-Ovoz tembri va diapazoni o'zgarishini kuzatish:

-Tezlatilgan va davomiy ijroga yo'l qo'ymaslik:

-Talabalarga o'z ovozigacha nisbatan ehtiyotkorona munosabatda

-bo'lishni o'rgatish¹².

Biz vokal ijrochiligi va texnikasini takomillashtirishning ahamiyati haqida ilmiy-amaliy tadqiqot olib borish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, mazkur ijodiy-pedagogik jarayonni birdek tahlil qilish mumkin emas. Chunki vokal ijrochisi odam bo'lgandan keyin odamlarning fiziologik-psixologik xususiyatlarini birdek deb bo'lmaydi. Har bir ijrochi o'z xususiyati va mahoratiga ega. Shunday ekan, vokal ijrochiligi va texnikasini takomillashtirish uchun avvalo to'g'ri amaliy va nazariy ishlanmalar, ko'nikma va mashg'ulot tavsiyalari kerak. Bu esa musiqashunos olimlarimizda vokal ijrochiligi va texnikasini takomillashtirishga oid yangidan-yangi tadqiqotlarni talab qiladi.

9 Nurullayev F. Vokal va zamonaviy musiqqa. Buxoro.: 2020. BuxDU. 172 b

10 Muzafarova S. Vokal ansambli. Toshkent.: 2020. Fan va ta'lim poligraf. 198.

11 Ortiqov T. Musiqqa o'qitish metodikasi. Toshkent.: Muharrir, 2011. - 196 b.

12 Alimbekova O. Vokal ansambli. Toshkent.: 2020. Fan va ta'lim poligraf. 156 b.

ARXITEKTURA YO'NALISHI TALABALARINING BADIY-GRAFIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Nurmon Ochilovich Berdiyev - v.b. dotsent, Toshkent Arxitektura qurilish instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola arxitektura va dizayn yo'nalishlariga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida tahsil oluvchi talabalarining grafik savodxonliklarini oshirish muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda bu masala yechimining hozirgi ahvoli, mavjud muammolar, ularni bartaraf qilish yo'llari, bu boradagi xorijiy tajribalar atroflicha tahlil etilgan hamda qiyosiy taqqoslash asosida ulardan mahalliy sharoitda foydalanishga oid tavsiyalar bayon etilgan. Muallif malakali arxitektorlar va dizaynerlarni tayyorlashda tasvirlash san'ati, jumladan, grafikaning, ayniqsa, arxitekturaviy grafikaning bo'lajak arxitektorlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqidagi fikr-mulohazalarini ilmiy asosda yoritib bergan.

Аннотация: Данная статья посвящена проблемам повышения графической грамотности студентов, обучающихся в высших учебных заведениях по специальности «архитектура и дизайн», в которой подробно рассмотрено современное состояние существующих проблем и пути их решения, всесторонне анализированы зарубежный опыт на основе сравнительного сравнения в этом отношении и представлены рекомендации по их исползованию в местных условиях. Автор на научной основе изложил мнение о важности изобразительного искусства, в том числе графического дизайна, особенно архитектурной графики в подготовке квалифицированных архитекторов и дизайнеров.

Abstract: This article is devoted to the problems of increasing the graphic literacy of students studying in higher education institutions specializing in architecture and design, in which the current state of solving this problem, existing problems, ways to eliminate them, foreign experiences in this regard are thoroughly analyzed and, based on a comparative comparison, their use in local conditions recommendations are presented. The author has explained on a scientific basis the opinion that visual arts, including graphics, especially architectural graphics, are important in training future architects in the training of qualified architects and designers.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, grafika, grafik dizayn, animatsiya arxitekturaviy grafika, kompozitsiya, qalamtasvir, kollaj, ijodiy imtihon, kompetentsiya, portfolio.

Ключевые слова: изобразительное искусство, графика, графический дизайн, анимация, архитектурная графика, композиция, рисунок, коллаж, творческий экзамен, компетентност, портфолио.

Keywords: visual arts, graphics, graphic design, animation, architectural graphics, composition, pencil drawing, collage, creative exam, competence, portfolio

Arxitektor va dizaynerlar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlarining professional vazifalari ichida talabalarda hajmli-fazoviy tafakkurni rivojlantirish masalasi yetakchi o'rin tutadi. Chunki, u ushbu yo'nalishlar ta'limida yangi texnologiyalarning joriy qilinishiga zamin yaratadi, yoshlarning professional tayyorgarligi uchun muhim bo'lgan maxsus fanlarni egallash vazifasini osonlashtiradi. Aksincha, fazoviy fikrlash darajasining yetarli bo'lmasligi ularning ushbu yo'nalish doirasidagi boshqa fanlarni o'zlashtirishlariga, professional mutaxassis bo'lib yetishishlariga to'sqinlik qiladi.

Ammo, keyingi ikki-uch yil ichida arxitektura yo'nalishlarida bu sohaga tegishli fanlarni, jumladan "Qalamtasvir", "Arxitekturaviy grafika" fanlarini o'qitishga yetarli e'tibor berilmayotganligi sababli bo'lg'usi arxitektorlarning grafik savodxonligining past darajaga tushib qolayotganligini ko'rishimiz mumkin. Albatta, buning turli sabablari bor. Shu o'rinda eng muhim sabablarni keltirib o'tamiz:

1. Oliy o'quv yurtlarining arxitektura yo'nalishlariga talabalarni qabul qilish uchun o'tkaziladigan kirish sinovlarida shu paytgacha

amalda bo'lgan "ijodiy imtihonlar"ning hozirda mavjud emasligi;

2. "O'quv rejalari"da ushbu fanlar uchun ajratilgan dars soatlarining qisqartirilganligi;

3. Maxsus fanlardan ijodiy imtihon topshirmagan holda talabalikka qabul qilingan yoshlarning bu fanlarni o'zlashtirishlari uchun kerak bo'ladigan boshlang'ich bilim va malakalarining yetarli emasligi;

4. Ayrim toifa kishilar o'rtasida "hozir texnika va texnologiyalar, kompyuterlashtirishlar davri – hamma ishni texnika bajarishi mumkin, shunday ekan bo'lajak arxitektorlarning mana shu zamonaviy texnologiyalarda ishlashni o'rganishlari o'zi yetarlik, degan tushunchalarning mavjudligi.

Mavjud vaziyatda qanday qilib talabalarining fazoviy tasavvurlarini, tasvirlash ko'nikmalarini o'stirish, ularning kompozitsion qobiliyatlarini shakllantirish (eng qizig'i "rivojlantirish" emas aynan "shakllantirish") masalasi shu sohada ta'lim beruvchi juda ko'p pedagoglarni o'ylantirib turibdi. Chunki aytib o'tilganidek, bo'lajak arxitektorlarning bu boradagi bilim va malakalarini rivojlantirmasdan turib, yuqoriroq natijalarga erishib bo'lmaydi.

Ammo, xulosa chiqarishga shoshilmaylik. Balki bugungi kunda haqiqatan ham rivojlangan mamlakatlardagi Arxitektura oliy o'quv yurtlarida talabalarining ijodiy tayyorgarligi masalasi e'tiborga olinmas, balki yaxshi arxitektor bo'lish uchun zamonaviy kompyuter texnologiyalari va undagi kerakli dasturlar bilan ishlashni o'rganishning o'zi yetarli bo'lar?

Biz ana shunday savollarga aniqlik kiritish maqsadida ayrim xorijiy oliy o'quv yurtlarida bu boradagi olib borilayotgan ishlar amaliyotini tahlil qilib ko'rdik. Hozirgi kunda xorijiy turdosh oliy o'quv yurtlarida, masalan, "Moskva arxitektura instituti (davlat akademiyasi)" da mutaxassislik fanlarini o'qitish dasturlarida ham qandaydir o'zgarishlar bo'lmoqdam?

Shu kabi savollarga javob topish maqsadida Moskva arxitektura instituti (MarXl)ning 2018 yilgi bakalavriyat ta'limiga abituriyentlarni talabalikka qabul qilish bo'yicha tashkil qilinadigan ijodiy imtihonlar dasturi bilan tanishib chiqdik. Uni tahlil qiladigan bo'lsak, "Arxitektura" yo'nalishlari uchun:

1. "Qalamtasvir". Klassik haykaltaroshlik namunasi-odam boshining o'ziga qarab rasm ishlash;

2. Kompozitsiya. Geometrik shakllar asosida hajmli kompozitsiya;

3. Chizmachilik.

Va bu dastur 2018-yildan buyon

o'zgarishsiz qolmoqda. Faqat 2020-yilgi pandemiya sababli ijodiy imtihonlar abituriyent tomonidan taqdim qilingan "Portfolio" ko'rinishida qabul qilingan va "o'tdi" yoki "o'tmadi" shaklida baholangan.

Shu institutning 2021-2022 o'quv yili uchun abituriyentlarni talabalikka qabul qilish ijodiy imtihonlari: "Qalamtasvir", "Rangtasvir" va "Chizmachilik" fanlari bo'yicha o'tkazilgan.

Va shuningdek, ushbu institutning arxitektura yo'nalishlariga talabalikka qabul qilishning 2022-yilgi ijodiy imtihon rejasida sinovlar qalamtasvir, kompozitsiya, chizmachilik fanlari yuzasidan tashkil qilinishi internetda e'lon qilingan.

Arxitektura yo'nalishidagi Rossiyaning boshqa oliy o'quv yurtlari, jumladan, Davlat Yer qurilishi Universitetiga abituriyentlarni talabalikka qabul qilishda qalamtasvir va chizmachilik fanlari bo'yicha ijodiy konkurs ham tashkil qilinadi va u quyidagi tartibda o'tkaziladi:

1. Gipsdan ishlangan bosh qalamtasviri. Imtihon uchun 6 soat vaqt ajratiladi.

2. Doriy kapiteli. Imtihon uchun 4 soat vaqt ajratiladi.

3. Chizmachilik. Imtihon uchun 4 soat vaqt ajratiladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, bakalavriyatga kirish imtihonlarida "Qalamtasvir", "Rangtasvir" va "Kompozitsiya" fanlariga asosiy o'rin berilmoqda. Demak, bu yerdagi o'quv jarayonlarida ham tasviriy san'at darslariga alohida e'tibor beriladi.

Shuningdek, bugungi kunda Buyuk Britaniya (Angliya)ning arxitektura yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida talabalikka qabul qilishda ularning ilmiy-ijodiy tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun har bir abituriyentning "portfolio"si ko'rib chiqiladi. Ijodiy portfolio arxitektura ixtisosligiga kirishning asosiy komponenti - bu abituriyentning yuzi, uning tahlilii, ijodiy qobiliyatlarini, texnik ko'nikmalari va fazoviy fikrlash qobiliyatining ko'rsatkichidir. Unda quyidagilar bo'lishi mumkin:

- qalamtasvirilar;
- chizmalar;
- eskizlar va qoramalar;
- 3D grafika, grafik dizayn yoki animatsiya namunalari;
- kulolchilik, metall, yog'ochdan yasalgan hunarmandchilik namunalari;
- bezaklar;
- veb-dizayn namunalari;
- video yoki fotosuratlar;
- kollajlar;

- arxitektura va dizayn bo'yicha abituriyentning o'z tadqiqotlari matnlari;
- har xil ijod namunalari.

Portfoliodan o'rin olgan ishlar oxirgi ikki, uzog'i bilan uch yil ichida bajarilgan bo'lishi kerak, chunki hakamlar hay'ati bunda arizachining ijodiy rivojlanish dinamikasini ham baholaydi.

Qozog'istonda arxitektura sohasini tanlagan abituriyentlardan "Qozog'iston tarixi", "Qozoq tili" yoki "Rus tili" fanlaridan kirish imtihonlari olinadi. Shuningdek, ular "Qalamtasvir" va "Chizmachilik" fanlaridan ijodiy imtihonlarni ham topshiradilar.

Arxitektura - bu san'at va ilm-fan chorrahasida joylashgan yo'nalish ekanligi juda ko'p manbalarda ta'kidlab o'tilgan. Arxitektor iste'dodli "ijodkor" va tajribali muhandis-konstruktor bo'lishi kerak.

Rossiya Badiiy Akademiyasi qoshidagi I.E.Repin nomli "Sank-Peterburg Davlat Akademik rangtasvir, haykaltaroshlik va arxitektura instituti" haqida ko'pchilik yaxshi biladi. E'tibor beradigan bo'lsak, ushbu institut nomlanishining o'ziyoq tasviriy san'at sohasi arxitekturaning ajralmas qismi ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat xorijiy mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlari arxitektura yo'nalishlarida o'qish uchun talabadan "nafaqat matematikani mukammal bilish balki, fazoviy fikrlash va san'atga muhabbat, shuningdek, uzoq muddatli nazariy va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik, va albatta, ijodkorlik talab etiladi"¹.

Mashhur fransuz materialist-faylasufi, entsiklopedisti D.Didro (1713-1784) "Rasm chizishni bilmagan arxitektorga ishonma"² - deb aytib o'tganligini ko'pchilik yaxshi bilishadi. Mana shu jumalarning o'ziyoq ushbu yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida tasviriy san'at bilan bog'liq fanlar o'qitilishining o'rnini va ahamiyatini ko'rsatib turibdi. Haqiqatan ham, ijodiy fikrlovchi, badiiy fikr doirasi keng bo'lgan, grafik tasvirlash asoslaridan puxta xabardor bo'lgan arxitektor "rasm chizishni bilish arxitektor uchun shart emas", - deb fikrlovchi shu kasb egasiga nisbatan jamiyat uchun ko'proq foydali ekanligi kunday ravshan. Albatta, bu yerda o'z fikr va g'oyalarni eskiz va qoramalar orqali ko'rsatib bera oluvchi usta rassom-me'morning imkoniyatlari yuqori. Buning ustiga u o'sha yuksak darajadagi qobiliyati bilan zamonaviy kompyuterga o'tirib ishlasa va g'aroyib kompozitsion

yechimlar o'ylab topsa-chi? Unda, ko'r-ko'rona mavjud kompyuter dasturlariga suyanib, ko'chirmachilikni egallab olgan, fazoviy tasavvuri boy bo'lmagan va kompozitsiya yaratish qobiliyati keng rivojlanmagan "arxitektor" bilan uning o'rtasida katta farq borligi ko'rinib qoladi.

Shu yerda yana bir mulohazali savol paydo bo'ladi: balki, arxitektura yo'nalishidagi oliy o'quv yurtiga ijodiy imtihonsiz kirgan talabalarni ham mutaxassislik fanlarini o'qitish orqali ham malakali arxitektorlarga xos bilim va ko'nikmalarni hosil qilish mumkindir? Afsuski, bunday hollarda natija juda past bo'lishi aniq. Chunki:

- chizishga layoqati yo'q talabaga ushbu fanlar asoslarini o'rgatish qiyin, chunki, bu holatda bu sohaga tegishli individual qobiliyatlar, boshlang'ich bilim va malakalar talab etiladi;

- chizishni bilmadimi, demak u bu soha (arxitektura) ga qiziqmaydi;

- bunday hollarda talaba shu asosdagi boshqa fanlar - kompozitsiya, arxitekturaviy grafika, chizma geometriya, maketlash, loyihalash kabi fanlardan ham yuqori natijalarga erisha olmaydi;

- demak, o'z-o'zidan aniqki, kompyuter grafikasi sohasida ham unumli faoliyat olib bora olmaydi. Chunki, yangicha loyihalar yaratishda juda muhim hisoblanadigan fazoviy tasavvur, kompozitsion tafakkur, ijodiy fikrlash kabi qobiliyatlar bu toifaga kiruvchi talabalarda deyarli rivojlanmagan bo'ladi.

Haqiqatan ham, grafik tasvirlash asoslarini, tasviriy san'atdagi kompozitsiya qonuniyatlarini puxta egallamasdan turib, zamonaviy, turli uslubiy yechimlarga ega bo'lgan arxitekturaviy loyihalarni eskizlarini bajarib bo'lmaydi. Natijada vaqtdan besamar foydalanish, maqsadsiz faoliyat yuritish hollari kelib chiqadi.

Shu o'rinda bir narsani aytib o'tish kerakki, hanuzgacha ayrim toifa kishilar o'rtasida "arxitektor", "loyihachi" va "quruvchi" so'zlarini aralashtirib, chalkashtirib tushunish hollari uchrab turadi. Aslida, bu atamalarining qanday ma'nolarga ega ekanligini chuqurroq anglab olish ham nazarda tutilgan muammo yechimini osonlashtirgan bo'lar edi.

Ilmiy manbalarda "me'mor", "arxitektor" tushunchalariga - turli imorat va inshootlarni me'morlik qonun-qoidalari asosida ijod etuvchi va loyihalar yaratuvchi mutaxassis, - deb ta'rif berilgan. "Loyihachi" (proektirovshik) bu loyiha

yaratuvchi inson. Ular planshetlarda bo'lajak ob'ektlarning turli xil eskizlari, sxemalari va rejalarini ishlab chiqadilar. Demak, arxitektor va loyihachi so'zlari ma'no jihatidan juda ham yaqin. Ammo, har qanday holatda ham arxitektor atamasi tasvirlash san'ati, ijodkorlik so'zlari bilan hamohangdir.

Quruvchi atamasi esa biror - bir qurilish inshootini quruvchi-injeneri ma'nosini bildiradi.

Fan va texnikaning rivojlanishi, yangi-yangi qurilish materiallarining yuzaga kelishi natijasida yaqin kelajakda misli ko'rilgan bino va inshootlarning paydo bo'lishiga zamin yaratilishi bor haqiqat. Balki biz hali ko'rmagan, tasavvurimizga ham sig'maydigan me'moriy kompozitsiyalar vujudga kelar. Bunday qurilishlar haqiqiy ijod mahsuli bo'ladi. Shuning uchun ham bo'lajak arxitektorlar har tomonlama yetuk, badiiy tafakkuri keng, har bir loyihaga individual, ijodiy yondoshadigan bo'lishi talab qilinadi. Shu o'rinda o'tmishda yashab ijod etgan mashhur me'morlar - Mikelanjelo Buanorotti, Djovanni Lorentso, Bernini, Leon Battista Alberti, Filippo Brunellinski shuningdek, shu sohaning hozirgi davrdagi taniqli mutaxassislari ijodiga murojaat qiladigan bo'lsak, ularning barchasi ham ajoyib chizuvchilar bo'lganligiga amin bo'lamiz.

Shunday ekan, masalaga kengroq yondashadigan bo'lsak, arxitektura tarixi ming yillar oldin, qadimgi odamlar o'zlarini tabiiy ofatlardan himoya qilish uchun ibtidoiy kulbalar qurishni boshlagan paytlardan boshlangan. Shu bilan birga arxitektura uslublari ham mavjud bo'lib, ular asrlar davomida sezilarli darajada o'zgaragan. Ko'pgina madaniyatlar bugungi kunda o'zlarining aniq me'moriy an'alariga ega³. Boshqacha aytganda, qadim zamonlardan buyon arxitektorlar (me'mor) tasviriy san'at sohasining yetuk namoyondalari bo'lishgan. Bunday insonlar bo'lajak bino yoki inshootning nafaqat tashqi va ichki ko'rinishlari, balki ularning chizmalari, unda ishlatiladigan materiallar, qurishda foydalanish mumkin bo'lgan turli qurilmalarni ham ko'rinishlarini tasvirlab berishgan, chizmalarini yaratishgan. Boshqacha aytganda, birgina arxitektor qurilayotgan binoning barcha ish jarayonlarini to'liq tasavvur qilgan, ishlab chiqqan va asosiy yaratuvchisi sifatida bu ishlarining boshida turgan. Hozirgi davrda esa bu ishlar har bir soha bo'yicha tobora ixtisoslashib bomoqda. Yuqorida aytib o'tiladigandek, arxitektor, loyihachi, quruvchi-injener, so'zlari garchi bir-

birini to'ldiruvchi va yaqin tushunchalardek bo'lib tuyulsa-da, aslida alohida-alohida kasbiy soha egalaridir. Arxitektorlar binolarning reja loyihagini, uning tashqi va ichki ko'rinishlarini, dizaynini ishlab chiqadigan insonlardir. Qurilish muhandislari esa me'mor loyihasi xavfsiz va tizimli himoyalanganligini ta'minlaydigan tajribali mutaxassislar hisoblanadi.

Shunday ekan, ushbu atamalarni ikki toifaga bo'ladigan bo'lsak, ularning san'at sohasiga eng yaqini bu arxitektorlik kasbidir.

Fikrimizcha, ayrim hollarda bo'lajak arxitektorlarni tayyorlash borasida mana shu haqiqatni to'liq anglab yetishimiz, talabalikka qabul qilish va o'qitish jarayonlarida ishni ana shu asosda olib borishimiz kerak. "Imtihon olishning qanday shakli bo'lishidan qat'iy nazar qalamtasvir va chizmachilik bo'yicha bilim va malakalar bo'lmasdan turib arxitektura fakultetida o'qish mumkin emas, chunki, ushbu fanlar bo'yicha baribir fundamental bilimlar olish talab qilinadi"⁴.

Tasviriy san'atning grafika turi, uning arxitektura va dizayn sohasiga tadbiiq qilinishi o'quv jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning eng samarali usullaridan biridir⁵. Shuning uchun ham talabalarga arxitekturaviy grafika fanini o'qitish va uni zamonaviy talablar asosida olib borishga alohida e'tibor berib kelingan. Ushbu fan oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlardan biri - arxitekturaviy grafikaning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish, me'moriy loyihalarning yaratilishida grafika san'atining o'rnini va ahamiyatini talabalarga to'g'ri tushuntirish, turli usul va vositalardan foydalanish orqali ularning tasvirlash malakalarini yuqori darajada shakllantirishdan iboratdir.

Ma'lumki, an'anaviy arxitektura grafikasi chizmalarida narsa va ob'ektlarni ortogonal va perspektiv tasvirlashning texnik usullari qabul qilingan bo'lib, ularda soyalar yasalishi, tasvir ishlashdagi yuvish (otmivka) va boshqa shu kabi usullarning qonuniylashtirilgan tartibi joriy qilingan edi. Shu paytgacha mavjud bo'lgan chizma chizish madaniyatida foydalaniladigan kam sonli va imkoniyatlari ham chegaralangan asbob-uskunalar bilan ish bajarish bir xillikka va shtam ko'rinishidagi chizmalarining ko'payishiga olib kelar edi. Shuning uchun ham arxitekturaviy faoliyatda yangi - yangi grafik tasvirlash usullarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi. Ammo, ishlab chiqilgan usullar har bir holatda ham o'zini oqlashi, ya'ni qurilishni loyihalashtirishning yangi uslublari,

1 https://www.unipage.net/ru/universities_architecture

2 Гильманова Н.В. "Рисунок". Учебно-методическое пособие. Тошкент-2015.1.3-б

3 <https://www.begin.ru/add/spravochnik/vostrebavannye-speczialnosti/arxitektura-i-stroitelstvo.html>

4 <https://marhi.academy/rossiyskiy-universitet-druzhbi-narod/>

5

ijodiy izlanishlarini aks ettiruvchi arxitekturaviy shakllar bilan aloqador bo'lishi, qolaversa ish chizmachiligidagi talab va normalarga ham javob berishi kerak edi. Zamonaviy arxitektura grafikasidagi yangicha ifodaviylik vositalarini izlash tabiiyki, yangi ko'rinishdagi me'morchilik ixtisosligi va uning mazmunidan kelib chiqadi. Shuningdek, inshoot materiallari, uning konstruktsiyasi, undagi g'oyani tomoshabinga aniq yetkazib berishga imkon beruvchi yangicha tasviriy vositalaridan foydalanish va boshqalar ham grafik usullarning o'ziga hos ixtisoslashuviga olib keladi.

Ish chizmalarida ayrim hollarda, masalan, rangli betonlar yoki keramikalarni, shuningdek shaffof va shaffof bo'lmagan plastiklar hamda boshqalarni shartli ranglarda emas, balki ana shu materiallarning o'zigagina hos bo'lgan ranglarda tasvirlash uchun an'anaviy klassik "yuvish" usullari samarali bo'lmagan bo'lar edi.

Tasviriy vositalar – akvarel, badiiy markerlar, guash, tempera, lak, bronza va boshqalar orqali grafik tasvirlashning turli usullarida aynan shunday rangli materiallarni o'z tabiiy rangiga yaqin, aniqroq tasvirlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunday tasvirlash usullari kompozitsiya elementlari dekorativ-rangtasvir orqali ifodalanuvchi arxitekturaviy loyihalarda qo'llaniladi. Shu kabi arxitekturaviy kompozitsiya loyihalaridagi grafik ko'rinishlar – hajmli fazoviy tuzilish, tektonika (joylashuv), ritm(marom)vaboshqalarchiziqlar,ton(ohang), yorug'-soya, fakturalar orqali ifodalanadi. Demk, bu borada muvaffaqiyatli ish olib borish uchun bo'lajak arxitektor tasvirlash qoidalarini yaxshi bilishi, ijodiy ishlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun esa, oliy ta'limning

arxitektura yo'nalishlarida o'qish uchun institut ostonasiga qadam qo'yayotgan abituriyentda tasviriy san'at sohasida fundamental bilim va malakalarga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Qurilish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligining qo'shma (2020-yil 30-avgustdagi "6", "8", "2", "68"-sonli) qaroriga 1-ilova sifatida Toshkent arxitektura-qurilish institutini rivojlantirish kontsepsiyasi ishlab chiqilgan. Jumladan, unda "...konseptual tamoyillar asosida ta'lim faoliyatini takomillashtirish orqali mutaxassislar tayyorlash sifatini sezilarli darajada yaxshilash" maqsadi qo'yilgan. Shuningdek, ushbu hujjatda "talabalarning chuqur bilim, kasbiy malaka va ko'nikma olishlari, shuningdek, o'zlarining ijodiy potentsiallarini namoyon qilishlari uchun o'quv, ilmiy, innovatsion faoliyat birligini ta'minlash" vazifalarini amalga oshirish belgilab berilgan.

Zero, xalqaro miqyosda kechayotgan o'zgarishlar, taraqqiyot jarayonlarida shaharsozlikning alohida o'rnini bo'lib, bu omil, birinchi navbatda, yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan arxitektorlarni tayyorlashni talab qiladi. Shu ma'noda ularda tasviriy vositalardan optimal tarzda foydalanish natijasida zamonaviy talablarga javob beradigan arxitekturaviy loyihalarning tasviriy talqinlarini yaratish kompetensiyalarini tarkib toptirish, bu jarayonda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri bo'lgan ularning grafik savodxonligi darajasini oshirish masalasi yetakchi masala sifatida qaralishini esdan chiqarmasligimiz kerak.

BASTAKORLIK IJODINING MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA O'RGANISH USULLARI

Ismatilla Qudratov - p.f.n., dotsent, Samarqand davlat universiteti

Elnoz Ismatillayevna Abdulkarimova -katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: O'zbek mumtoz musiqa san'atida bastakorlik ijodiyoti o'zining paydo bo'lishi, rivojlanishi, tutgan mavqeiga ko'ra muhim o'rin tutadi. Maqolada o'zbek bastakorlik san'ati tarixi, buyuk namoyandalari ijodi haqidagi ma'lumotlarga to'xtalib o'tildi.

Аннотация: В искусстве узбекской классической музыки композиционное творчество занимает важное место по своему возникновению, развитию и положению. В статье основное внимание уделено сведениям об истории узбекского композиционного искусства, творчестве его великих мастеров.

Abstract: In the art of Uzbek classical music, compositional creativity occupies an important place according to its emergence, development, and position. The article focused on information about the history of Uzbek compositional art, the work of its great masters.

Kalit so'zlar: mumtoz musiqa, bastakorlik, yozma manbaalar, namoyanda, uslub, hududiy uslublar, Buxoro-Samarqand, Farg'ona-Toshkent, Xorazm, Surxondaryo-Qashqadaryo.

Ключевые слова: классическая музыка, композиция, письменные источники, экспрессия, стиль, региональные стили, Бухара-Самарканд, Фергана-Ташкент, Хорезм, Сурхандаринско-Кашкадаринская.

Keywords: classical music, composition, written sources, expression, style, regional styles, Bukhara-Samarkand, Fergana-Tashkent, Khorezm, Surkhandarya-Kashkadarya.

Respublikamiz ta'lim tizimida umumta'lim maktablari eng asosiy shakllantiruvchi bosqich hisoblanadi. Maktabda o'qitiladigan fanlar tarkibida musiqa darslari o'quvchilariga musiqa madaniyatining umumiy asoslari, ya'ni tarixi, nazariyasi, janrlari, ijro uslublari to'g'risidagi bilim bilan tanishtirish orqali, ularning ma'naviy-axloqiy, estetik madaniyatini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Darslarda o'quvchi-yoshlarga musiqa madaniyati bo'yicha beriladigan bilimlar tarkibida o'zbek mumtoz musiqa san'ati, bastakorlik ijodiyoti uning atoqli namoyandalari hamda bastakorlik san'atida qaror topgan hududiy uslublar to'g'risida ma'lumotlar berishga alohida o'rin ajratilgan¹.

Bastakorlik O'rta Osiyo xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan professional sozanda va xonandalarning musiqiy ijod san'atidir. Bu san'at bir xalqning o'ziga xos musiqiy an'analari asosida vujudga kelib uzoq madaniy tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqiy ijod sifatida shakllangan. Qariyb 2000 yillik ko'hna tarixga ega bo'lgan ushbu sohada Barbad, Abu Nasr Farobiy, Sayfuddin al-Urmaviy, Hoji Abdulqodir

Marog'iy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish ali Changiy kabi ulkan siymolar ijod qildi. Ular musiqa nazariyasi va bastakorlik sohasida juda katta boy meros qoldirdi. Biroq arab istilosi davrida musiqaga oid yozma manbalar kuydirilib, yo'qotib yuborilgan. Shuning uchun ular yaratgan musiqiy asarlar bizgacha yetib kelmagan, lekin keyingi mingyillik tarixga oid yozma manbalar bizgacha yetib kelgan. O'rta asr musiqashunos olimlari musiqa nazariyasi va bastakorlik masalalari bo'yicha ko'proq Abu Nasr Farobiyning "Musiqaga oid katta kitob", "Musiqaga oid risola", "Kitob ash shifo" asarlarida musiqa ilmi va bastakorlik san'atiga berilgan tarifi asos qilib oladilar.

O'zbek xalqining donishmand shoiri va olimi Alisher Navoiy o'zining "Xazoyin ul-maoni", "Holati Pahlavon Muhammad", "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlarida o'zidan oldin o'tgan buyuk musiqiy allomalarimizning musiqiy ilmiy, bastakorlik an'analari davom ettirib boyitdi.

Musiqa ilmi XIII-XIV asrlarda yashab, ijod etgan olimlar-Sayfuddin Urmaviy, Hoji

¹ Qudratov I, Abdulkarimova E. "Musiqaga darslarida fanlararo aloqadorlik" Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015-yil.

Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabi va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantirilgan edi.

O'zbek bastakorlik san'atining mashhur namoyandalari Hoji Abdulaziz Rasulov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Muhammadjon Mirzayev, G'anijon Toshmatov, Orif Qosimov, G'ulomjon Hojiqulov va boshqa ustoz bastakorlar o'z ijodida, asosan, xalq musiqiy an'alariga suyandilar. Ularning har biri o'z musiqiy ijod yo'lini yaratdilar. Ular yaratgan va yaratayotgan asarlarining aniq uslubi, ladi, ohang aniqligiga intonatsiyasiga katta e'tibor berishgan. Ular musiqani nihoyatda serohang va jiloli bo'lishi uchun xilma-xil va murakkab usullarga murojaat qilishgan. Bundan tashqari, ularning asarlarida o'ziga xos ichki milliy ruh, falsafiy kayfiyat borki, ular asarga go'zallik va umrboqiylik bag'ishlaydi. Bunday ijodiy mahorat, albatta, o'z-o'zidan emas, ko'p yillar davomida olib borilgan sermashaqqat mehnat, xalq musiqiy merosini chuqur, mukammal bilish evaziga paydo bo'lgan va shakllangan. Shuning uchun ham ustoz bastakorlarning kuy va ashulalari o'zlarining mantiqan serjiloligi hamda falsafiy mushohadakorlik darajasi to'liq, tugal mazmuni bilan mumtoz xalq musiqiy asarlari bilan bimalol bellasha oladi.

Bu borada ustoz bastakor Yunus Rajabiyning ijodi o'ziga xos ko'p qirralidir. U o'zbek xalq musiqasi va o'zbek mumtoz musiqasining asosi hisoblangan maqom san'ati, xususan, Shashmaqomning chuqur bilimdonigina bo'lib qolmay, 20 ta musiqali drama, 200 ga yaqin ashula va kuylar ijod qildi. Shulardan "Koshki" (Navoiy g'azali), "Judo" (Navoiy g'azali), "Jonimdadir" (Navoiy g'azali) "Muncha ham" (Muqimiy g'azali), "Kuygay" (H.Olimjon sheri), "Ranolamasin" (G'oziy g'azali) kabi ashulalari xonandalar tomonidan sevib ijro etilib kelinmoqda.

O'zbek xalqining ustoz bastakorlaridan yanada biri O'zbekiston xalq artisti To'xtasin Jalilovdir. U musiqiy folklori o'zbek musiqali dramalariga olib kirgan birinchi bastakor hamdir. San'atkorning "Tohir va Zuhra" musiqali dramasi "Otmagay tong", "Ey quyosh", "Ayirmish", "Qalandar", "Oh faryodkim", "Nurxon" musiqali diramasidan "Ey sabo", "Muhabbat o'tida kuydim", "Yayragil", "Naxushdirkim", "Ravshan va Zulxumor" musiqali dramasi "Uzoqdan kelayotirman" kabi qo'shiq ariyalari xalqimizning hurmat e'tiboriga sazovor bo'ldi.

O'zbek bastakorlik san'atining yirik namoyandalardan Muhtorjon Murtazayev klassik va zamondosh shoirlarning she'rlariga rang-barang xalqchil ashulalarini yaratdi. Jumladan: "Biri ishva bilan" (Sobir Abdulla so'zi), "Bizni tashlab" (Miskin g'azali), "Aylading, qo'yding" (Muqimiy g'azali), "Tasadduqman" (Chustiy g'azali), "Barnoligingdan" (Charxiy g'azali), "Farg'ona tong otguncha" (Xaziniy g'azali) kabi ashulalari xalq dilidan mustahkam o'rin egalladi.

O'zbekiston xalq artisti, bastakor va sozlanadi Muhammadjon Mirzayev XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Xalqimizning sevimli hofizi Mamurjon Uzoqov ijrosida bastakorning quyidagi xalqchil ashula va yallalari ilk bor yangradi: "Qachon bo'lgay", "Yor istab", "Yo'lingda", "Sho'xi jononim mening" (Furqat g'azali), "Yakka bu Farg'onada", "Ko'zlarim", "Suvrating", "Yolg'iz", "Yana" (Muqimiy g'azali), "Parvo etib ket" (Sobir Abdulla so'zi), "Shaydo bo'libman" (Kamtar so'zi), o'zbek va tojik xalqlarining sevimli xonandasi, Tojikiston xalq artisti Hanifa Mavlonova ijrosida "Parvona bo'ldim" (Kamtar so'zi), "Gulchehra yor", (Po'lat Mo'min sheri), "Tong otguncha" (Dilafkor so'zi) kabi lirik ashulalari xalq orasida mashhur bo'lib ketdi. Shuni ham aytish joizki, M. Mirzayev yillar davomida, Mukarrama Turg'unboeva nomidagi "Bahor" davlat ansambli repertuarini boyitib keldi. "Bahor vals", "Gulnoz", "Dildor 1 va 2", "Ufor sanam", "Intizor etma" kabi raqs kuylari ansambl repertuaridan mustahkam o'rin egalladi.

Bastakor Muhammadjon Mirzayev o'z davrining mashhur kuychisi edi. Shuning uchun uning ijodida zamonaviy mavzu ustuvor turdi. "Oltin sandiq", "Uch dugona", "Ey gul", "Toshkent nahori", "Muhabbat maktubi" (Turop To'la so'zlari), "Ko'zlarimga ziyo olaman", "Chavandoz qizlar" (Normurod Narzullayev so'zlari), "Onalar", "Assalom, kelin salom" (O'tkir Rashid so'zlari) kabi qo'shiqlari rubob uchun yaratilgan, "Go'zal Vatanim", "Orzu qil", "Dilrabo", "Marg'ilon qizlari", "Shodlik", "Yangi tanovar" kabi kuyladi keng qanot yozdi.

Ulkan iste'dod egalari bo'lgan bu ustoz bastakorlar o'z ijodiy faoliyatlari bilan Barbod, Forobiy, Ibn Sino, Hoji Abdulqodir Marog'iy asos solgan o'zbek bastakorlik san'atining nodir namunalari targ'ib qilishdi va davom ettirishdi. Sir emaski, milliy bastakorlik masalasiga yaqin yaqinlargacha, asosan, g'arbiy musiqashunoslikda qabul qilingan talablar bilan yondashiladi. Shuningdek, kompozitorlik ijodi uchun birdan-bir xos

bo'lgan sabablar, umuman, zamonaviy musiqiy ijodkorlikning shartli mezonlariga aylandi.

Milliy bastakorlik san'atimizning bugungi o'ziga xos ijodiy xususiyatlari yangi uslublarning paydo bo'lishi, inson qalbiga zavq bag'ishlash yo'lidagi izlanishlar ijodkorlik san'atimiz muhitini boyitmoqda. Eng muhimi, xalqning tengsiz mulki hisoblanuvchi taniqli bastakorlar ijodi bilan boyidi².

Hozirgi kunda bastakorlarimizdan O'zbekiston xalq artisti Baxtiyor Aliyev, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov, Ortiq Otajonov, Sultonali Mannopov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Shavkat Mirzayev, Ahmadjon Dadayev, Halimjon Jo'rayev, Shermat Fayzullayev, Qo'ldosh Mamirov, Tuyg'un Otaboyev, Rahmatjon Tursunov, Ravshan Hamraqulov, Orif Atoev, Payziql Zokirov va boshqa bastakorlar ijod qilgan kuy va qo'shiqlar xalqimizga manzur bo'lmoqda. Bu iste'dodli bastakorlarning musiqiy ijodini tahlil qilar ekanmiz, haqli ravishda o'zbek milliy bastakorlik san'atining munosib davomchilari borligiga turli ishonch hosil qilamiz.

O'zbek bastakorlik san'atida hududiy uslublar. O'zbek bastakorlik merosi ijodida shakllangan asosiy 4 ta hududiy uslublar mavjud. Ular quyidagicha nomlanadi:

1. Buxoro- Samarqand musiqasi uslubi.
2. Fargona- Toshkent uslubi.
3. Xorazm uslubi.
4. Surxondaryo- Qashqadaryo uslubi.

Har bir hududiy uslub o'ziga xos musiqaviy ijod, xususiyatlariga ega. Har birining, o'z navbatida ijodiy maktablarga bo'linishi diqqatga sazovordir. Masalan, Buxoro, Samarqand bastakorlik maktabi, Andijon, Farg'ona, Toshkent bastakorlik maktabi va Xorazm bastakorlik maktabidir.

Ushbu hududiy uslublar har bir bastakor ijodining "Oltin beshik" asosini tashkil etadi. O'zbek va Tojik professional musiqasi madaniyatining atoqli namoyandasi Ota Jalol (Jaloliddin) Nosirov XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshida yashagan taniqli musiqasi arboblardan biridir. Maqomdon ustoz Ota Jalol Nosirov Shashmaqomning barcha sho'balari va tarona yo'llarini puxta bildi. Ushu sababli xalq orasida obro' qozongan, ashula shinavandalarini o'zining keng diapazonli ovozi bilan maftun etgan ajoyib xonanda edi.

Buxoroda birinchi musiqasi maktabi, Samarqandda musiqasi bilim yurtining yuzaga kelishida Ota Jalolning xizmatikatta. Usta Shodi Azimov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov,

Boboqul Fayzulloev kabi maqomdon xonandalar ham Otajonovdan ta'lim olishgan edi. O'zbek va Tojik professional musiqasi san'atining durdonalaridan Shashmaqomini yozib olinishi va saqlab qolinishida Ota Jalolning qo'shgan hissasi katta. Ota Jalol nomini tilga olganimizda ustozlar ustoz, Shashmaqom bilimdoni, murakkab usullar ustasi, ajoyib tadbircha va xushovoz xonanda ko'z oldimizga keladi. Shu sababli O'zbekiston va Tojikistonning turli vohalarida Ota Jalolning nomi hurmat bilan tilga olinadi. Darhaqiqat, maqomdonlar tili bilan aytganda u "Ustoyi kulliy" edi. Bu ibora arabcha "Ustoz ul-kulliy" ya'ni hamma narsa (kuy) tillarni mukammal va to'kis-tugal biluvchi maqomdon ustozlarga nisbatan ishlatilardi.

O'zbek xalq musiqiy merosini milliy qadriyatlarimizning bir bo'lami sifatida o'rganish hozirgi davrda dolzarb masalalardan biridir. O'zbek musiqiy merosimizga nazar tashlar ekanmiz, o'tmishda xalqichida yetishib chiqqan o'zlarining ijro mahoratlari, murabbiyligi bilan xalq dilidan joy olgan san'atkorlarimiz ko'z oldimizda gavdalanadilar. Ular ichida musiqasi san'atimizning birinchi akademigi Yunus Rajabiyning alohida o'rinlari borligi, shakshubhasiz. U kishi yashagan davr ijodining takrorlanmas qirralari mavjudki, ularning merosini o'rganish kelgusida yaratilajak cholg'uchilik mahoratini rivojlantirishda ijobiy bosqich bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek mumtoz musiqasi janrlari tasnifi.

Asrlar osha davr tahririga uchrab, sayqallashib, o'ziga xos murakkab shakllari, teran mazmuni, jozibali va ohangdor kuylari bilan bizgacha yetib kelgan mumtoz musiqasi namunalari hanuzgacha eng sevimli, eng ardoqli xalq asarlari bo'lib kelmoqda.

Mumtoz musiqasi asarlarining badiiy kuchi – ularning xalq orzu-umidlari, his-tuyg'ulari, fazilatlar va turmush haqiqatlari bilan uyg'unligi, kishilarning ruhini, dardini o'zida aks ettirishida, undagi tinglovchilarga ham birday yoqimli, so'z va ohang, soz va kuy mushtarakligidir. Inson yashashi uchun, millat taqdiri va munosabatlari uchun zarur bo'lgan ma'naviy jarayonlar kuyda va aytim-ashulaga solinadi. Inson boshidan kechiradigan turli-tuman voqeilik, yuragini zabt etuvchi shodu-xurramlik yoki dardu-alamlar, bu yorug' yoki qorong'u kunlarning izi cholg'u va ashulaga aylanadi.

Mumtoz ashula yo'llari va cholg'u kuylarining umrboqiyliigi ulardagi ma'naviy-axloqiy ma'noning chuqurligi, musiqiy

² Hamidov H. "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi". – T.: O'qituvchi, 1996-yil.

ohanglarning go'zaligidadir. Ularda insoniy kechinmalar andishaga boy, hayotiy va samimiydir; shuning uchun tinglovchiga zavq bag'ishlaydi, ko'nglini ko'taradi. Bunday ma'naviy go'zallik taronasi mumtoz musiqaning ajib va o'lmas an'anasiga aylangan. Mumtoz musiqa o'zining mukammalligi, mo'jaz shakli, obrazlarning serqirra ma'nodorligi va nafisligi bilan ajralib turadi. Abdurauf Fitrat musiqa ijodiyotining asrlar mobaynida yashab kelgan shakl-shamoyillari, ularning turlari (ashula, doston va b.) haqida yozar ekan, ashulaga quyidagicha ta'rif beradi: "Kuy, ohang bilan o'qilayotgan she'rlar, tizmalarga ashula deyiladi".

Har bir musiqa asari, birinchi navbatda, kishiga ruhiy yengillik baxsh etish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, kishining tashqi dunyoga estetik munosabatda bo'lishini shakllantiradi; uchinchi tomondan esa tarbiyaviy ta'sir vazifasini ham o'taydi. Musiqa asarlarining kishi ruhiyatiga ta'siri haqidagi fikrlarni qadim davrlarda yashab o'tgan olimlarning asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Sharqning buyuk mutafakkirlari o'zlarining "Musiqiy risolalarida" musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri turli his-tuyg'ular uyg'ota olish xususiyatlarini batafsil tahlil qilishib, jumladan, maqom va ularning shu'balari kishiga shijoat va jasorat bag'ishlaydi deb uqtirib o'tishgan. Navo yoki Ushshoq jozibador va ohangdor maqom yo'llari deb hisoblansa, Rost yoki Iroq nozik va yoqimli maqom yo'llari bo'lib, kishiga huzur, xushchaqchaq kayfiyat bag'ishlaydi. Buzuk yoki Segoh va ularning shu'balari ulug'vorlik, g'amginlik, quvonch hamda qayg'u kayfiyatini qo'zg'aydi. "Dilxiroj" cholg'u kiyini tinglaganda kishida ko'tarinki ruhiy holat vujudga kelsa, "Cho'li Iroq" kuyi ruhim moziydan sado eshitilgandek bo'ladi. Kishining tashqi dunyoga estetik munosabat shakllantirishdagi mumtoz musiqaning vazifasi insonning ta'sirchanlik kayfiyati bilan bevosita bog'liqdir³.

Xalq yoki bastakor tomonidan yaratilgan har bir musiqa asari o'z oldiga u yoki bu darajadagi vazifani qo'yadi. Mumtoz musiqa ham mavqeyi, mohiyati, mazmuni, vazifasi va ijrochilik xususiyatlari jihatdan ikki yirik guruhga-ovoz va so'z bilan bog'liq bo'lgan aytim yo'llari va cholg'u orqali ifoda etiluvchi cholg'u yo'llarida bo'linadi. Ularning har biri, o'z navbatida quyidagi janrlarga tasniflanadi:

Aytim yo'llari:

1. Mumtoz yalla va ashula-har biri rivojlangan kuy va shakldan, o'ziga xos mazmunda va ijro uslubidan iborat. Bulardan lokal xususiyatlariga ega bo'lgan xalq ashula yo'llari, suvoralar, naqshlar ham kiradi.

2. Yirik ashulalari bo'lmish – faqatgina Farg'ona vodiysida shakllanib, rivoj olgan katta ashula.

3. Dostonlar, xalq epik janri bo'lib, adabiy matn, she'r, musiqadan iborat uch birlik tamoyili mavjudligi bilan ajralib turadi.

4. Maqomlar, o'z navbatida maqom ashula yo'llari va yirik ashula-cholg'u turkumli janr sifatida keng tarqalgan. Buxoro "Shashmaqomi", "Xorazm maqomlari" turkumi va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari kabi maqom turkumlaridan iborat⁴.

Cholg'u yo'llari:

1. Rivojlangan kuy va shakllardan iborat, murakkab ijro uslublari mavjudligi bilan ajralib turuvchi cholg'u kuyi yoki asar va cholg'u turkumlar (bu toifaga yirik cholg'u usullari ham kiradi), jumladan, "Eshvoy-Eshvoy kurd-Eshvoy Turkman"; "Dilxiroj" va "Sinaxiroj".

2. Maqom cholg'u yo'llari va turkumlari, jumladan, "Cho'li Iroq", "Mushkiloti dugoh", Ajam taronalari; dutor maqom turkumlari (Xorazmda), "Surnay" maqom yo'llari – "Navo", "Chorgoh" va b. (Farg'ona-Toshkent).

3. Mumtoz ashulalarining cholg'u yo'llari (variantlari) va turkumlari, jumladan, "Tanovar" turkumi, "Chorgoh" turkumi va bosh.

Har bir janr o'z mavqeyi, kuy-ohang tuzilishi, ijro uslubi bilan ajralib turadi.

O'zbek mumtoz musiqasi asrlar osha og'zaki tarzda avlodlar-avlodga o'tar ekan, bu jarayonda u boyib, xalqning fikr-o'yi, dardi, orzusi, donishmandligini o'zida mujassamlashtiradi. O'zining an'anaviyligi, buyukligi, ta'sirchanligi, professionalligi, mukammalligi ko'plab badiiy vositalarga boyligi bilan o'ziga xos musiqa-san'at turiga aylanadi. Katta badiiy-estetik imkoniyatlarga ega bo'lgan o'zbek mumtoz musiqasi milliy ruh, milliy qiyofani shakllantirish, milliy qadriyatlarini saqlash, boyitish va keyingi avlodga yetkazib berishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek mumtoz musiqasida xalqning ma'naviy madaniyatiga doir durdonalar to'plangan bo'lib, hozirgi mustaqillik davrda milliy o'zlikni anglash va milliy ongni taraqqiy ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TA'LIM MUASSASALARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TASHKIL ETISHDA SPORT MUTAXASSISLARINING O'RNI

Ulug'bek Lochinbekovich Kuchkarov - v.b. professor, Namangan muhandislik texnologiya instituti

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya va sport milliy genofondning shakllanishi, sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil etish va yosh avlodni sog'lom tarbiya qilishda ma'naviy, mafkuraviy va amaliy vosita sifatida keng qo'llaniladi. Ushbu maqola sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari pedagogik faoliyati masalalariga bag'ishlangan hamda tegishli xulosa-takliflar keltirilgan.

Аннотация: Физическая культура и спорт широко используются как духовно-мировоззренческий и практический инструмент формирования национального генофонда, правильной организации здорового образа жизни, здорового воспитания подрастающего поколения. Статья посвящена вопросам педагогической деятельности специалистов физической культуры и спорта по правильной организации здорового образа жизни.

Abstract: Physical training and sports are widely used as a spiritual, ideological and practical tool in the formation of the national gene pool, the proper organization of a healthy lifestyle, and the healthy upbringing of the young generation. The article is devoted to the issues of pedagogical activities of physical education and sports specialists in the proper organization of a healthy lifestyle.

Kalits'o'zlar: jismoniy madaniyat, sog'lom turmush, sport, o'qituvchi, o'qituvchi-trener, amaliy mashg'ulotlar, mardlik, chaqqonlik.

Ключевые слова: физическая культура, здоровый образ жизни, спорт, педагог, педагог-тренер, практические занятия, смелость, ловкость.

Keywords: physical culture, healthy life, sport, teacher, teacher-trainer, practical training, courage, agility.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda jismoniy yordam beruvchi quvvat. va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda yaxshi axloq va ilm-ma'rifatga ega bo'lmoq Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan uchun badantarbiya bilan shug'ullanish pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiya zarur: «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri Chunki, o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va sanaladi. Yoshlarni sog'lom bo'lib voyaga o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz yetishlarini ta'minlash masalasi milliy vujud lozim. Sog' badanga ega bo'lmagan pedagogikamiz, xalq og'zaki ijodi hamda insonlar amallarida, ishlarida kamchilikka yo'l mutafakkirlar asarlarining bosh g'oyalaridan qo'yurlar¹. Badantarbiyasini fikr tarbiyasiga biri bo'lib kelgan. ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir

Abu Ali ibn Sino insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlarini sanab o'tar ekan, quyidagilarga alohida urg'u beradi:

1. Jasurlik – biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat.

2. Aqllilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat.

3. Ziyraklik – sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushuntirishga

Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq va ilm-ma'rifatga ega bo'lmoq uchun badantarbiya bilan shug'ullanish zarur: «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki, o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz vujud lozim. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarida, ishlarida kamchilikka yo'l qo'yurlar¹. Badantarbiyasini fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabitur. Agar jism tozalik ila ziyatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yib astarini yuvib ovora bo'lmak kabiturki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mehnat va sog'lom bir vujud kerakdur». Buyuk pedagog Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yohud axloq» asarida bu borada quyidagilarni ta'kidlagan edi: «Nazofat (gigiyena) deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni

³ Einoza Ismatillayeva Abdukurimova Актуальные вызовы современной науки. "Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqasi merosi qudratli tarbiya vositasi" iscience 2017-yil.
⁴ Abdullayev R.S. "O'zbek mumtoz". O'quv qo'llanma. T.: Yangi nashr, 2008-yil.

¹ Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: «O'qituvchi», 2018.

pok va toza tutmoqni aytilur. Poklik zehn va idrokingni keng va o'tkir qilur. Xalq orasida e'tibor va shuhratga sabab bo'lur. Poklik ila har xil kasalliklardan qutulib, jonimizning qadrin bilan bo'lurmiz. Pok bo'lmak salomatimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadir².

Ushbu maqola ma'lumotlari orqali sog'lom turmush tarzini tashkil etishda jismoniy tarbiya mutaxassislarining ahamiyati yoritib beriladi.

Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish kuch-quvvatni saqlab turishning ajoyib vositasidir. Sport dam olish bilan mehnatni almashtirib turish manbai bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarning jismoniy madaniyatga ega bo'lishlari jismoniy tarbiya samaradorligini belgilovchi muhim omil sanaladi. Shuningdek, jismoniy madaniyat inson va jamiyat umumiy madaniyatining ham ajralmas qismidir. Jismoniy madaniyat mazmunida quyidagilar aks etadi:

1. Inson a'zolarining funksional kamoloti (ichki a'zolar, nerv va harakat, suyak-mushak tizimi, tana uyg'unligi va ularning funksional faoliyatini boshqarish layoqati)ga egalikni ta'minlash.

2. O'quvchilarning sog'ligini mustahkamlash.

3. Ularni gigiyena qoidalariga amal qilishga ko'niktirish.

4. O'quvchilar mohirligini har tomonlama o'stirish.

5. Bo'lajak kasb-hunar egalarining jismoniy va fiziologik sifatlarini kasbiy nuqtayi nazardan shakllantirish, ularning ishchanlik qobiliyatini oshirish.

6. O'quvchilarning jinsiy jihatdan to'g'ri kamolga yetishlari uchun sharoit yaratish.

7. O'quvchilarda mustahkam iroda, qat'iy xarakter, intizomga so'zsiz amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarni gigiyena qoidalar bilan tanishtirish, ularga so'zsiz amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga erishish muhimdir.

Jismoniy tarbiya bolalarga faqat oilada yoki ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish jarayonidagina emas, balki ta'limdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlar, turli musobaqalar, tadbirlar chog'ida ham samarali tashkil etib borilishi maqsadga muvofiq. «Sog'lom tanda sog' aql» degan maqolda jismoniy tarbiyaga oid ma'no lo'nda qilib ifoda etilgan. Jismoniy tarbiyani bugungi kun talablariga muvofiq

yuqori darajaga ko'tarish o'quvchilar o'rtasida salbiy holatlar keng tarqalishining oldini oladi.

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlarga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularni kamol toptirish, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijadorligini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 3-iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3031-son qarorida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda sport maktablarini yuqori malakali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta'minlash, ularning o'quv muassasalarida funksional vazifalarni belgilab olish muhimligini bugungi davrning o'zi ko'rsatmoqda³.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari faoliyatini pedagogik boshqarishning o'ziga xususiyatlari bo'lib, turli ta'lim muassasalarida (oliy ta'lim muassasalari, barkamol avlod bolalar va o'smirlar sport maktablari, nodavlat sport ta'lim muassasalari) o'qituvchi trener va sport mutaxassislari faoliyat olib borishadi (1-jadval).

1-jadval. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari faoliyat turlari [5]

Ta'lim muassasasi	Faoliyat mazmuni
Umumiy o'rta ta'lim maktabi, KHK va OTMlarida	Rasmiy bo'lib, belgilangan DTS asosida tashkil qilinadi, ma'lum bir vaqt me'yorlariga amal qiladi.
Barkamol avlod bolalar va o'smirlar sport maktablari	Maktabdan tashqari vaqtlarda tashkil qilinadi, sport sportlari va toifalari bo'yicha belgilangan me'yorlariga amal qiladi, o'quvchi va talabalarning bo'sh vaqtlari asosida tashkil qilinadi.
Xususiy sherikchilik muassasalari	O'rnatilgan tartibda barcha yoshdagilar uchun asosida nodavlat sport ta'limi mo'ljallangan bo'lib, asosiy faoliyati sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan (bozor iqtisodiyoti sharoitida bugungi kunda tobora rivojlanib bormoqda).

2 Belarusova V.V. va boshqalar. Pedagogika. - T.: «O'qituvchi», 2010.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3031-son qarori.

Ta'lim muassasasi Faoliyat mazmuni
Umumiy o'rta ta'lim maktab, KHK va OTMlarida Rasmiy bo'lib, belgilangan DTS asosida tashkil qilinadi, ma'lum bir vaqt me'yorlariga amal qiladi.

Barkamol avlod bolalar va o'smirlar sport maktablarida Maktabdan tashqari vaqtlarda tashkil qilinadi, sport turlari va toifalari bo'yicha belgilangan me'yorlarga amal qiladi, o'quvchi va talabalarning bo'sh vaqtlari asosida tashkil qilinadi.

Xususiy sherikchilik asosida nodavlat sport ta'lim muassasalari O'rnatilgan tartibda barcha yoshdagilar uchun mo'ljallangan bo'lib, asosiy faoliyati sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan (bozor iqtisodiyoti sharoitida bugungi kunda tobora rivojlanib bormoqda).

Turli ta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchilar ta'lim muassasasi funksional vazifasidan kelib chiqib yondashadilar. Biz quyida shaxsiy tajribamizdan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari va Barkamol avlod bolalar sport maktablari o'qituvchi trenerlarining pedagogik boshqaruvdagi o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etdik.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quv mashg'ulotlari jarayoni tuzilishida jismoniy tarbiya haqidagi fanga tayanish uchun shu fan asoslarini yaxshi bilishi kerak. O'qituvchi o'z fanini bilishidan tashqari, pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, gigiyena, tibbiyot va inson fiziologiyasi sohasiga taalluqli hamma fanlarga oid butun bir bilimlar tizimiga ega bo'lishi kerak.

Sport turi bo'yicha o'qituvchi-trenerning faoliyati jismoniy tarbiya o'qituvchisining ishidan jiddiy farq qiladi. Trenerning ishi, avvalo, o'quvchi va yoshlarning sport qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, ularning sport hayot yo'lini oldindan ko'ra bilishga qaratilgan bo'ladi. Shaxsning gormonik va jismoniy jihatdan kamol topishi uning sportdagi hayot yo'li uchun asos bo'lib xizmat qiladi⁴.

Sport turi bo'yicha o'qituvchi-trener uchun zarur bo'lgan bilimlar tizimi va xarakteri o'ziga xosdir. U sportchilar tayyorlashning milliy tizimi tamoyillari, vositalari va metodlari, sportchilar tayyorlashning asosiy xalqaro xorijiy talab xususiyatlari, tanlangan sport turidagi ta'lim va trenirovka (mashg'ulot) nazariyasi va metodikasi, shuningdek, jismoniy

mashqlarning asosiy turlariga o'rgatish metodikasi, o'quv-trenirovka jarayonini tashkil etishning asosiy psixologik-pedagogik qonuniyatlari, sportchilar tayyorlashda turli vositalardan didaktik imkoniyatlar, sport bilan shug'ullanuvchilarning yosh-jins xususiyati qonuniyatlari hamda ularda asosiy jismoniy sifatlar va harakat malakalarini rivojlantirish xususiyati, o'quv-trenirovka uchrashuvlari va sport-sog'lomlashtirish maskanlari sharoitida sport ishlarini tashkil etish xususiyatlari, jismoniy tarbiya sport faoliyatining sanitariya-gigiyena asoslari, sport mashg'ulotlari jarayonida shikastlanishning oldini olish asoslari, sport turi bo'yicha sport inshootining tuzilishi, undan foydalanish xususiyatlari, uning konstruksiyasi, sport inventari va jihozlaridan foydalanish va ularni saqlash qoidalarini mukammal ravishda bilishi kerak⁵.

Bu borada o'qituvchi-trener quyidagilarni bilishi lozim deb o'ylaymiz:

- sport tayyorgarligining umumiy va aniq maqsadlari, aniq sport mashg'ulotining maqsadi hamda vazifalarini belgilash;

- o'quv trenirovka jarayonida shug'ullanuvchilarning yosh-jins, morfofunktsional va individual-psixologik xususiyatlari va sport tayyorgarligi darajasini hisobga olib hozirgi zamon metodlarini qo'llashni bilish sport turiga yo'llash maqsadida jismoniy rivojlanganlik va tana tuzilishini aniqlash va baholash;

- sportchilarning faoliyatini tekshirish natijalariga qarab o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritish;

- hozirgi zamon metrologik apparatlaridan va mashg'ulotlarda xavfsizlikni ta'minlovchi usullar, shuningdek, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usulidan foydalangan holda sport-pedagogik nazorat metodlarini egallash;

- musobaqalar tashkil etish va ularda hakam, guruh vakili sifatida ishtirok etish;

- shug'ullanuvchilarda sport mashg'ulotlarini tayyorlash va o'tkazish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakalarini tarkib toptirish usullaridan foydalanish;

- shug'ullanuvchilar orasida kasb tanlashga yo'llash ishlari olib borish, o'quv-trenirovka jarayoni va musobaqalarni tashkil etishda yordam berishga qodir sport faollarini tayyorlash.

4 Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. - T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2012.

5 Zayniddinov T.B., Achilov T. «Jismoniy tarbiya o'qitish metodikasi» o'quv fan dasturi. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2015.

TEKNOLOGIYA FANIDA O'QITUVCHILARNING TA'LIM NATIJALARINI BAHOLASH VA TASHXISLASH FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA BILIMLAR UZVIYLIGI VA UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASH

Muhammad Maxmudovich Yusupov - PhD, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim natijalarini tashxislash va baholashda taniyaladigan prinsiplar, nazoratning turlari, o'ziga xos jihatlari, ta'lim natijalarini tashxislash va baholash jarayoni bilan bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni orasida uzviylik va uzluksizlik, bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularga taqdim etiladigan pedagogik-psixologik bilimlar haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В этой статье обсуждаются принципы, типы контроля, особенности, преемственность и преемственность между процессом подготовки и оценки будущих учителей технологии, педагогические и психологические знания, которые будут предоставлены будущим учителям технологии в процессе выявления и оценки результатов обучения. был выполнен.

Abstract: This article discusses the principles, types of control, features, continuity and continuity between the process of preparing and evaluating future technology teachers, pedagogical and psychological knowledge that will be provided to future technology teachers in the process of identifying and evaluating learning outcomes. It was performed.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, uzviylik, uzluksizlik, tashxislash, baholash, nazorat, o'quv jarayoni, ta'lim natijalari, prinsip, qadriyatli yondashuv, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya.

Ключевые слова: будущий учитель, последовательность, преемственность, диагностика, оценка, контроль, учебный процесс, результаты обучения, принцип, ценностный подход, знания, навыки, компетентность.

Keywords: future teacher, sequence, continuity, diagnostics, assessment, control, educational process, learning outcomes, principle, value approach, knowledge, skills, competence.

Ta'limning natijalarini tashxislash va baholashda muayyan prinsiplarga tayanish talab etiladi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar pedagogika oliy o'quv yurtlaridayoq ushbu prinsiplar bilan yaqindan tanishishlari, amaliy faoliyatda ularga tayanish tajribasiga ega bo'lishlari talab etiladi. Xuddi mana shunday prinsiplar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin¹:

1. Tashxislash uchun zarur bo'lgan test topshiriqlari, savollarning mazmunida ob'ektivlikni ta'minlash lozim. Tashxislash tadbirlarini amalga oshirishda o'qituvchi bilan sinfdagi o'quvchilar orasida do'stona munosabat hukm surishi zarur. O'quvchilarning ta'lim natijasida hosil qilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari muayyan mezonlar yordamida aniqlanadi. Tashxislashning amaliy jihatdan obyektivligi nazorat metodlari va vositalaridan qat'iy nazar qo'yilgan bahoning o'zaro muvofiq kelishida namoyon bo'ladi. Tashxislashni amalga oshiradigan pedagoglardan bunga alohida e'tibor qaratishlari talab etiladi.

2. Baholashning tizimliliigi o'zida tashxislash didaktik jarayonining barcha bosqichlarida nazoratni amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda bilimlarni dastlabki idrok etishdan ularni amaliy jihatdan qo'llashgacha bo'lgan uzluksiz jarayon qamrab olinadi.

3. Ko'rgazmalilik, ochiqlik prinsipi esa barcha ta'lim oluvchilarni yagona

mezon asosida sinovdan o'tkazishda o'z ifodasini topadi. Tashxislash jarayonida har bir o'quvchining o'rnatilgan reytingi ko'rgazmalilik, ochiqlik xarakteriga ega bo'lib, natijalarni o'zaro qiyoslash imkonini berishi kerak. Ochiqlik prinsipi baholarni oshkor etmaslik va asoslashni ham talab qiladi. Baho vositasida o'quvchilar o'qituvchining obyektivligi va ular oldiga qo'yilgan talablarni anglashga yo'naltiriladilar. Mazkur prinsiplarni amalga oshirishning zarur shartlaridan biri tashxislashning muayyan bosqichida olingan natijalarni oshkor qilishni talab etadi. Bu natijalar o'quvchilarning o'zlari, ularning ota-onalari bilan muhokama qilinishi, shu asosda bo'shliqlarni to'ldirish rejalari tuzilishi kerak². Mazkur prinsiplar asosida o'quvchilarning bilimdonlik va kompetentlik darajalarini nazorat qilish o'zining muayyan bosqichlari va bo'g'inlariga ham ega.

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini tashxislash, nazorat qilish, tekshirish va baholash muayyan mantiqiy izchillik asosida amalga oshiriladi, ularni o'rganish ham o'ziga xos tarzda kechadi. O'rganish, tashxislash va baholash bosqichlari orasida muayyan uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash zarurligini bo'lajak o'qituvchilar aniq ta'asavvur eta olishlari lozim. Chunonchi:

1. Tekshirish tizimida o'quvchilarning bilim darajalarini oldindan aniqlash tadbiri amalga oshiriladi. O'quv yili boshida to'ldiruvchi, moslashtiruvchi o'quv jarayoni tashkil etiladi. Bu tadbir o'quv yilining dastlabki kunlaridayoq o'quvchilar bilimidagi bo'shliqni to'ldirishni nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda bunday tadbirlarni o'quv yili o'rtasida, o'quv dasturining yangi bo'limini boshlash oldidan ham amalga oshirish mumkin.

2. O'rganilayotgan har bir mavzu yakunida, yangi mavzuni o'tishdan oldin joriy tekshirish amalga oshiriladi. Garchand bu tadbir darsdan darsga uzluksiz tarzda amalga oshirilsa-da, o'quv dasturining alohida qismlari bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini tashxislash imkonini beradi. O'quvchilar bilimni joriy nazorat qilishning asosiy vazifasi ta'limiy xarakterga ega. Bunday tekshirishning metodlari va shakllari turli-tuman bo'lishi

3. Takroriy tekshirish ham joriy nazorat kabi muayyan mavzularni o'rganish doirasida amalga oshiriladi. O'quvchilar yangi mavzuni o'rganish bilan bir vaqtda o'tilgan mavzuni ham takrorlaydilar. Shu asosda ularning bilimlarni o'zlashtirish darajasida uzviylik va uzluksizlik ta'minlanadi. Bu tadbir bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi, biroq o'quv ishi dinamikasini tavsiflash va ta'minlashga asos bo'la olmaydi. Shunga ko'ra, bu o'rinda ta'lim natijalari tashxislanib, uning samaradorligi aniqlanadi. Bunday tekshirishning samarasi uni tashxislashning boshqa turlari va metodlari bilan uyg'unlashtirilgandagina namoyon bo'ladi.

4. Davriy tekshirish bosqichida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari o'quv dasturidagi muayyan mavzu yoki o'quv kursi bo'limlarini o'rganish jarayonida amalga oshiriladi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari sifatini nazorat qilish hamda uning o'quv materiallarining tarkibiy qismlari bilan aloqadorligini oydinlashtirishdan iborat. Davriy tekshirish o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirishni nazarda tutadi.

5. Yakuniy tekshirish va o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari va ko'nikmalarini hisobga olish bosqichida ularning didaktik jarayonning barcha bosqichlarida o'rgangan bilim, ko'nikma, malakalari, ular orasidagi uzviylik va izchillik hisobga olinadi. Yakuniy tekshirish har bir o'quv choragi va o'quv yili yakunida amalga oshiriladi. Tekshirishning maqsadi shundan iboratki, ushbu jarayonda nafaqat o'quvchilarning kompetensiyalarni o'zlashtirganlik darajalari va uning sifatini aniqlashdan iborat, balki ular tomonidan o'zlashtirilgan o'quv mehnatining ko'lami ham aniqlanadi.

¹ Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodlari to'plami: amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma. - Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti, 2003. - 94 b

² Yusupov M.M. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini o'quv jarayoni natijalarini baholashga o'rgatish metodikasi: PhD... diss. avtoref. - T.: 2021. - 14 b.

Tekshirishning asosiy didaktik vazifasi quyidagilarda namoyon bo'ladi³:

a) o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida teskari aloqani ta'minlash;

b) o'qituvchilarning o'quv materialini o'zlashtirilganlik darajasi haqida obyektiv ma'lumotga ega bo'lish;

v) o'quvchilarning bilimlaridagi bo'shliqni o'z vaqida aniqlash.

Tashxislash tadbirlari quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

1. Tekshirish. 2. Baholash. 3. Natijalarni belgilash.

O'qituvchi qo'yilgan baho uchun mas'uldir. Bu o'rinda "belgilash" va "baholash" tushunchalarini farqlash lozim.

Baho - rejalashtirilgan maqsadga asoslangan aniq natijalarga aloqador hodisa hisoblanadi.

Belgi esa mazkur jarayonning natijasi, uning shartli shakliy ifodasi bo'lib, sub'ektiv fikr, taassurotlarni aks ettiradi. Belgining vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

-O'quv materialini qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish;

-Yo'naltiruvchilik harakatlarini amalga oshirish;

-O'quvchining muayyan o'quv predmeti bo'yicha shug'ullanish yoki shug'ullanmasligini aniqlash;

-O'quvchining o'rganilgan o'quv materiali uchun qanday baho olganligini ifodalash;

-Jazolash uchun asos bo'ladigan holatlarni aniqlash;

-Boshqaruvchilik harakatlarini amalga oshirishga imkoniyat yaratish, ya'ni o'quvchini ijobiy baho olishga undash kabilar.

Belgining asosiy vazifasi nazorat qilish va yo'naltirishdan iborat. Nazorat qilish vazifasi ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Buning uchun o'quvchilar yakuniy, darsda bajariladigan nazorat ishlari, mustaqil ishlarning turli shakllari va turlaridan foydalanish, tekshirish xarakteridagi uy vazifalarini topshirish usullaridan foydalanadilar. Agar belgilashning mazkur funksiyasi tizimli, obyektiv, barcha pedagogik omillarni batafsil hisobga olgan holda amalga oshirilmasa o'z mohiyatini yo'qotadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muayyan holatni belgilashda o'qituvchi uning mazmunini kengaytirishga harakat qiladi. U faqatgina ta'lim natijalarini tashxislash va baholashdan iborat bo'lib qolmasdan, uning axborotlar bilan ta'minlanganligi, ya'ni o'quvchilar nimani bilishlari yoki bilmasliklarini aniqlashga ham e'tibor qaratiladi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi ushbu jarayonda o'quvchilarning o'quv mehnati, ta'lim muassasasidagi kundalik faoliyatiga bo'lgan munosabatini ham hisobga olishi kerak. Bunda o'quvchilarning tartibiligi, intiluvchanligi, intizomligi, darslardagi umumiy faolligi, o'quv predmetiga bo'lgan qiziqishi, ijodiy layoqatlari kabilar nazarda tutiladi.

Belgilashning muhim vazifalaridan yana biri yo'naltiruvchilikdir. Bu sifat o'quvchini o'z faoliyatini mustaqil takomillashtirishga undaydi. Qo'yilgan bahoga qarab yo'nalish olgan holda o'quvchi o'z xulq-atvori, xatti-harakatlarini o'zgartiradi va yaxshi baho olishga intiladi. U o'zining salbiy baholarini tuzatish, darslarda faol bo'lish, o'qituvchining barcha talablarini muntazam bajarishga harakat qiladi⁴.

Bahoning yo'naltiruvchilik va nazorat qiluvchilik vazifasi o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'lishi kerak. Agar bu uyg'unlik buzilsa, baho o'quvchining xulq-atvorini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bunday vaziyatlarda o'quvchi salbiy bahoga e'tibor bermaydi. U bahoga befarq bo'lib, o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini yo'qotadi va o'zi uchun faoliyatning boshqa, qiziqarli turini izlashga harakat qiladi. Bunday vaziyatda bahoning nazorat qiluvchilik va yo'naltiruvchilik vazifalari yomon bahodan qo'rqish yoki unga e'tibor bermaslik, uni nazarga ilmaslikka olib keladi. Bunday vaziyatlarda baho o'zining asosiy vazifasini bajara olmay qoladi.

O'quvchilar ko'proq ish jarayonini qadrlay boshlaydilar, o'qituvchi esa ta'limning yakuniy natijalariga qiziqadi. Albatta, har qanday o'quv jarayonida ko'zlangan natijaga erishish maqsadi ilgari suriladi. Agar o'quvchilar topshiriqlar ustida qanchalik jiddiy o'ylasalar ham, uni yecha olmasalar o'qituvchi ularga yuqori baho qo'ymaydi.

Biroq o'quvchilarning izlanishlari, o'y-fikrlarini baholash ham nihoyatda zarur hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda xuddi mana shu maqsad ustuvor bo'lishi lozim.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda qadriyatli yondashuvga tayanish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammosi hisoblanadi⁵. Ma'lumki, qadriyatli yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'z-o'zidan o'quvchilarga insonparvarlik nuqtai nazardan yondashgan holda ularni har tomonlama rivojlantirishni nazarda tutadi. Buning uchun o'quvchilar hamkorlikdagi o'quv faoliyatini amalga oshirishlari, shu asosda aniq o'quv materiallarini o'zlashtirishlari lozim. Muayyan yoshda o'quvchilar aniq bir faoliyat turini egalashga muvaffaq bo'ladilar. Bunda texnologiya ta'limi alohida ahamiyatga ega. Chunki texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarda muayyan kasblarga qiziqish, mehnat ko'nikmalari hosil qilinadi. Ta'lim jarayoni bilan o'quvchilarning ruhiy rivojlanishi orasidagi mutanosiblik hamkorlikdagi o'quv faoliyati orqali ta'minlanadi. Chunki o'quv jarayoni pedagogik jihatdan maxsus yo'naltirilgan jarayon bo'lib, unda o'quvchilar birgalikdagi o'quv faoliyatini amalga oshiradilar. Ular texnologiya ta'limi jarayonida amaliy mehnat harakatlarini amalga oshiradilar. Bu o'rinda Texnologiya fani o'qituvchisi o'quvchilarning ruhiy rivojlanishlari asosida ularning tashqi faoliyatlari bilan bog'liq harakatlari ichki

rivojlanish imkonini berishini yaxshi bilishi lozim. Shu asosda ularda kognitiv faoliyat tajribasi, tafakkur, idrok rivojlanadi. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilarda bilish qiziqishlari shakllanadi. Demak, o'quvchini rivojlantirish, birinchi navbatda, uning hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri tashkil etishni talab qiladi. O'quvchi o'quv materialini sustkashlik bilan idrok qilganida rivojlanish kuzatilmaydi. O'quvchilarning aynan shaxsiy hamkorlikdagi faoliyatlari ularning istiqbolda ularda mehnat ko'nikmalari va kasbiy layoqatlarning shakllanishiga asos bo'ladi. Shuning uchun ham qadriyatli yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga yo'naltirish ularning taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil bo'la olishi haqidagi bilimlarga bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilari oliy ta'lim jarayonida ega bo'lishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari maktab o'quv dasturlari, darsliklar bilan ishlash, ikkilamchi didaktik loyihalar, ishlanmalar tayyorlash, o'zlari egallagan bilimlarni pedagogik amaliyot davrida ta'lim jarayoniga tatbiq etish, texnologiya ta'limi natijalarini tashxislash va baholash kompetensiyalariga egaliklarini amaliy jihatdan namoyon qilishga xizmat qiladigan pedagogik-psixologik bilimlarni ham uzluksiz tarzda o'zlashtirgan bo'lishlari kerak ekanligi aniqlandi.

³ Sharipov Sh.S, Abduraimov Sh.S, Zaripov L.R, Qodirov B.E. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi darslik - Toshkent: 2022-37 b

⁴ Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt. ... diss. - T.: 2007. - 357 b

⁵ Yusupov E. Qadriyatlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli. - T.: 1995. - 123 b

BADIIY BEZASH ISHLARIDA AMALIY SAN'ATNING TUTGAN O'RNI

Muratbay Abdimuratovich Amanbayev - katta o'qituvchi, Nukus davlat pedagogika instituti
Gulmari Yuldashovna Smaylova - dotsent, Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagogik markazi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq amaliy san'ati turlari va ularni badiiy bezatish usullarining kelib chiqishi, hozirgi kundagi o'rni va darajasi ko'rsatib berilgan va kerakli adabiyotlar yordamida isbotlangan, ma'lumot o'rnida shuni aytish joizki, amaliy bezak san'ati insoniyat yaratilgandan buyon, asrlar davomida sayqallanib kelingan, eng muhimi bugungi kungacha saqlanib qolgan haqiqiy san'at turidir.

Аннотация: В данной статье показаны происхождение, место и уровень видов народного творчества и приемы их художественного оформления, и доказано с помощью необходимой литературы с тех пор это истинный вид искусства, который совершенствовалась веками, а главное, сохранилась до наших дней.

Abstract: In this article, the origin, place and level of the types of folk art and the methods of their artistic decoration are shown, and it is proved with the help of the necessary literature. Since then, it is a true art form that has been refined over the centuries, and most importantly, it has survived to this day.

Kalit so'zlari: xalq amaliy san'ati, badiiy bezatish, o'quvchi, ma'naviyat, kolorit, naqsh.

Ключевые слова: народное творчество, художественное оформление, ученик, одухотворенность, цвет, узор.

Keywords: folk art, artistic decoration, student, spirituality, color, pattern.

Hozirgi kunda milliylikimizni, qadriyatlarimizni urf-odatlarimizni asrab-avaylab mamlakatimizda yashovchi barchamizning insoniylik burchimiz hisoblanadi. Biz o'tmishimiz, millatimiz, xalqimiz uchun qadriyatlarimizni asrab avaylab va yosh mutaxassis sifatida bu tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdira olishimiz kerak. Darhaqiqat, inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson hayoti jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar borliqqa go'zallik va nafasat baxsh etadi, insonga shu qonuniyatlar orqali qarashga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizda tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2020-yil 21-aprel, PQ-4688-sonli "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori qabul qilinib bunda, albatta, o'sib kelayotgan yosh avlodni jahon andozalariga javob beradigan barkamol etib

tarbiyalashda amaliy va badiiy bezak san'ati faniga ham alohida diqqat qaratilmoqda. Yoshlarga badiiy ma'lumot berishda tabiat unsurlarini stillashtirish mashg'ulotlarining ahamiyati benihoya katta bo'lib, bu ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Amaliy san'atni o'rganish, oddiy naqsh namunalarini chizish, boyash va pardoqlash mahoratini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan sanaladi.

Demak, o'quvchilarda ma'naviyatimiz, o'tmishimiz urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz haqida bilimlarni rivojlantirish asosiy vazifamiz hisoblanadi. Yurtimizda badiiy madaniyat o'ziga xos tarzda shakllandi. Unda xalq san'atining o'ziga xos jihatlari aks etdi. Hunarmandchilikning misgarlik, kulolchilik, to'qimachilik, kashtado'zlik, gilam to'qish kabi hunarmandchilik turlari rivojlandi.

Xalq amaliy bezak san'ati bu hunar, albatta. U asrlar mobaynida ota-bobolarimiz



tomonidan ko'z qarachigidek asrab-avaylab kelingan xalq amaliy bezak san'ati durdonasidir¹. Tarixda va ayni kunlarga bizda saqlab kelinayotgan bu amaliy san'at turlari kelgusidayanada qadrlanadi, ardoqlanadi. Zero o'yib, chizib, bo'yab ishlangan takrorlanmas naqshlar insonning go'zal g'oyasi idrokining, odam his tuygularining ifodasidir. Amaliy bezak san'atida odatda yorqinligi va tusi bir-biriga yaqin bo'lgan ranglar o'zaro birlashadilar, demak kolorit ranglar o'zaro tuslar orqali birlashganda, ular alohida ko'zga tashlanadi.

Kolorit (italyancha colorio, lotincha color - rang, buyoq) - tasviriy va amaliy san'at asarlarida voqelikni real va ifodali tasvirlashda ranglarning o'zaro mutanosibligi. Tasvirdagi turli ranglarning gormonik, go'zal tus birikmalari o'rtasidagi o'zaro bogliqligi "kolorit" deb ataladi. Voqelikni ta'sirli tasvirlash vositasini tarkibiy qismi bo'lgan kolorit amaliy san'at asarining g'oyasi, mazmuni, davri uslubi hamda muallifning sharhiga bog'liq. Tarixda voqelik tasvirida mahalliy ranglar ozmi-ko'pmi cheklanib, ramziy ranglardan ko'proq foydalanish (o'rta asrlar san'atida) va voqelikni barcha bo'yoqlarda (uning rang, tus, nur soya va boshqalardan foydalanib), rangdor ifodalash an'anasi shakllangan. Kolorit ranglar uyg'unligiga ko'ra, iliq (qizil, sariq, zargaldoq) yoki sovuq (ko'k, yashil, binafsha), sokin va jiddiy, och yoki to'q, rangdorligiga ko'ra, yorqin, xira va boshqa bo'lishi mumkin. Kolorit bizga olamning boy, rang-barang va go'zalligini ochib beradi. Shunisi muhimki, tasvirda to'g'ri tutashgan ranglar uyg'unligi, go'zallikni anglay olish bilan birga, nafis asar go'zalligini bilish ravnaqiga ham zamin yaratadi.

Amaliy san'at, amaliy bezak san'ati - bezak san'ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va boshqalar) ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohasini o'z ichiga oladi. Amaliy san'atda badiiy bezatish usullari o'zining kerakli asboblari bilan amalga oshiriladi, birinchi navbatda bezatish uchun xom ashyoni silliqlab chizish holatiga keltiriladi, keyin ketma-ketlikda ish olib boriladi. Silliqlangan xom ashyoga nafis naqsh masalan, axta,

bofta, bodom, anor gul, chiziladi. Ajdodlarimiz qadimdan yashayotgan maskanlarini, devor-u toshlarni, idish-tovoqlarini ov jarayonlari, jang-u jadallar, bazmlar, yozuvlar, tantana marosimlar, turli hayvon, qush hamda o'simlik naqshlari tasvirlari bilan bezab kelganlar. Bundan tashqari bezaklarning ta'sirchanlik kuchini yanada oshirish uchun xalq hikmatlari, ulug' allomalarning pand-nasihatlarini, turli ramziy ma'nolarda ifodalaganlar².

Naqshni bo'yashdan oldin tayyor bo'yoq oq qog'ozga surtib sinab ko'riladi. Qorib tayyorlangan rang tusi talabga javob beradigan bo'lsagina, u bilan kerakli joylar bo'yab chiqiladi. Keyin siyoh qalam-eng nozik qil qalam hisoblanib uning yordamida naqsh elementlarining atroflari bir xil qalinlikda ravon chizib chiqiladi. Targ'il yordamida -gul, g'uncha, barg elementlarining turli xarakterlarini taroq sifat shakllar yordamida ochib beriladi³.

Naqsh - arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlik, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, panjaralar va hokazolarda har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi⁴.

Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy nuhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o'zining ko'rinishi, tuzilishi xususiyatlari insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir qiladi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanishdan tashqari badiiy qimmat bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom ashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi amaliy san'atda estetik ta'sirini oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir. Amaliy san'atda buyumlarning nafisligiga ikki usul bilan erishiladi:

1) shakli oddiy buyumlarga bezak ishlab badiiy qiymati oshiriladi;

2) shakli chiroyli qilib ishlanadi.

Buyumlarning tuzilishi badiiy buyumlarning ishlanishida muhim rol o'ynaydi. Xom ashyoning go'zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta'sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi

¹ Q.Q. Qosimov Naqqoshlik. -T.: O'qituvchi, 1990

² S.S. Bulatov Rangshunoslik. -T.: O'qituvchi, 2009.

³ S.A. Solovyev Dekorativnoye oformleniye. -M.: 1987.

⁴ X.X. Muratov, R. R. Jabbarov Amaliy va badiiy bezak san'ati. -T.: O'qituvchi, 2020.



yagona vositadir. Buyumda hosil bo'layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta'sir etadi. Bezagi tufayli buyum amaliy san'at asariga aylanadi. Amaliy san'atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at (rangtasvir, haykaltaroshlik ayrim hollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha birikuvlari) keng qo'llaniladi.

Naqqoshlik xalq-amaliy bezak san'atning birturisifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muhim bo'lagi hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi va rivojlandi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini, milliy an'analarning davomiyligini ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o'g'ilga o'tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqqoshlik san'ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof-muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg'unligida va o'ziga xos kompozitsiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh usta o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan va

uyg'unligidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi. Nozik o'simliksimon-geometrik naqshdagi o'zaro singib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o'zbek ustalarining ishlaridagi islami va girih naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan. Naqsh ko'proq interyerlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi. Hozirgi paytda naqshdan me'morchilikda, uy jihozlari, sovg'alar, mayda yog'och o'yinchoqlar, musiqa asboblari va turmushda kerakli buyumlarni bezashda foydalaniladi.

Demak xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Vatanimiz madaniyati va san'ati durdonalarini o'rganish bilan birga o'tmish ajdodlarga bo'lgan mehr-muhabbat kuchayib, uni kelajak avlodga o'rgatish hissi oshib boradi. Shu bilan ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma'naviyatimizdan boxabar bo'lib boramiz. Xalq naqqoshlik san'atini o'rganish o'quvchilarda badiiy didni, mehnatsevarlikni rivojlantirishga va qator foydali bilim hamda malakalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ularning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va o'stirishga yordam beradi va ularning shu hunarni qiyomiga yetkazib o'rganishlarida asos bo'lib xizmat qiladi

O'QUVCHILARDA MEHMON KUTISH ODOBI BO'YICHA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Rahim Tojiyevich Umarov - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada Texnologiya fani bo'yicha mashg'ulotlarda o'quvchi larda mehmon kutish odobi, uning hurmatini joyiga qo'yish va ehtirom bilan kuzatish hamda Respublikamizning turli vohalarida mehmonni kutishning o'zi ga xos urf-odatlariga oid ko'nikmalarni shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Аннотация: В статье в обучении предметам техники основными моментами являются манеры ожидания гостей, уважение и соблюдение с уважением, формирование навыков, связанных со специфическими традициями ожидания гостей в разных оазисах нашей Республики. , - отметил.

Abstract: The main focus of the article is on the formation of the skills of the students in the classes on the science of technology, on the manners of waiting for a guest, showing his respect and observing with respect, as well as the specific traditions of waiting for a guest in different oases of our Republic.

Kalit so'zlar: qarindosh-urug', mezbon, mehmon kutish, ko'nikmalarini shakllantirish, marosimlar, mehmondorchilik, an'analar, dasturxon tuzash, sarpo.

Ключевые слова: родственники, хозяин, ожидание гостей, формирование навыков, обряды, гостеприимство, традиции, сервировка стола, sarpo.

Keywords: kinship, host, waiting for guests, formation of skills, ceremonies, hospitality, traditions, table setting, sarpo.

Uzoq o'tmishdan bugungi kungacha yetib kelgan sharq xalqlarining, jumladan, o'zbek

xalqlarining o'ziga xos udumlari va an'analari bor bo'lib, ular jumlasiga to'y va tantanalar, marosimlar, mehmondorchiliklar hamda boshqalar kiradi. Bugunga kelib ayniqsa bu udumlarimizdan mehmondorchilikni yoshlarimiz ongida shakllantirish o'ta muhim muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

Maqolada maktablarda o'tiladigan Texnologiya fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar ongida mehmon kutish odobi bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'limning Texnologiya fanidan davlat ta'lim standarti asosida ishlab chiqilgan fan dasturiga ko'ra 9-sinfda o'tiladigan Texnologiya faning "Servis xizmati" yo'nalishining Ro'zg'orshunoslik asoslari qismida "23-mavzu: Dasturxon tuzash qoidalari. Mehmon kutish odobi." (1 soat ajratilgan) mavzusi kiritilgan¹. Mavzuni Mehmon kutish odobi qismni o'tish jarayonida maktab Texnologiya fani o'qituvchilari maqolada keltirilgan ma'lumotlardan mashg'ulot davomida foydalanishsalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yor-u birodarlar, qarindosh-urug' va do'stlarnikiga tez-tez borish kelish qilib turish eng yaxshi insoniy fazilatlaridan biri deb biladi xalqimiz. Mehmondorchilikda o'z uyiga kelgan har bir mehmonni yaxshi ochiq yuz bilan chin ko'ngildan kutib olish mezbonning chiroyli bir fazilatlaridan hisoblanadi. Oldinlari hech bir ogohlantirishsiz ham xohlagan vaqtda mehmonlar tashrif buyurur edi. Ba'zan mehmondorchilik avjiga chiqib uzoq davom etgan. Ammo ko'pincha mehmondorchilikning vaqti-soati mehmonning xohish-ixtiyorini va mezbonning izzat-ikromi bilan belgilangan.

Dastlab, o'quvchilarga Mehmondorchilik odatda mehmonni kutish, uning hurmatini joyiga qo'yish, unga munosib dasturxon tuzash (millatiga, mavqeyiga, yoshiga va jinsiga qarab) va uni ehtirom bilan kuzatib qo'yishdek muhim tadbirlardan iborat ekanligi to'g'risida tushunchalar berish lozim. Mehmon degani forsiy tildan olingan bo'lib "mehmon, tashrif buyuruvchi"² degan ma'noni anglatadi. Mehmonlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- to'y, ziyofat va shu kabi munosabatlar bilan yo'qlab kelgan (borgan) shaxslar;
- majlis, yig'ilish, kengash va shu kabilarga chetdan chaqirilgan shaxslar;
- chetdan tashrif buyurgan, vaqtinchalik qo'ngan shaxslar;

-yangi tug'ilgan yoki tug'iladigan chaqaloq (yangi mehmon).

Sharq olamida ilmiy-tarbiyaviy va pedagogik tomondan kitobxonlar diqqatini jalb qilgan muhim asarlardan biri - Kaykovusning 1082-1083

melodiy yillarda yaratilgan "Qobusnoma" asaridir³. Kaykovusning bu asari o'g'li Gilonshohga bag'ishlangan pandu-nasihatlardan iboratdir. Uning bir bobini "Mehmon olmoq va mehmon bo'lmoq zikrida" deb nomlanib, unda o'z zamonasining mehmondorchilik urf-odatlarini bilan bog'liq hayotiy masalalarga alohida e'tibor qaratiladi. Ular quyidagilardan iborat bo'lib, ayrimlarini keltirib o'tamiz: "Har vaqt mehmonlarning uyingga oyoq qo'ysalar, sen barcha odamlarning bilan ularning oldiga chiqqil va yaxshi so'z bilan muloqot qil, to ular sening shukringni aytsinlar. Agar meva vaqti bo'lsa, taom emasdin avval meva kelturg'il to bahuzuri dil yesunlar"³.

Birzamon tavaqquf qil undan so'ng barcha odamlarni o'lturg'uz va o'zing o'lturmag'il, toki barcha mehmonlar ittifoq bilan esunlar. Mehmonlar bir-ikki so'ramaguncha sen o'lturma. Ular o'ltirg'il va bizlarga muvofaqat qil (bizlar rozimiz) desalar, sen aytgilkim: "meni qo'yinglar, to sizlarga xizmat qilg'umdur". Agar yana takror taklif qilsalar, undin so'ng o'ltirg'il va ularga muvofaqat ko'rguzg'il, ammo hammadan pastda o'ltirg'ul".

U farzandiga yana shunday qo'shimcha qiladi: "Ey farzand, agar mehmon bo'lsang, har kishinikiga mehmon bo'lib boravermag'il, chunki hashamat shavkatingga ziyon yetkarsan. Agar mehmon bo'lib bir yerga borsang, ko'p och bo'lib bormag'il va tez yurib bormag'ilkim, taom emakdin ma'zur bo'lib o'ltirsang, mezbon ozor topor. Agar taomni ko'p esang, xalqning ko'ziga yomon ko'rinur. Shuning uchun mezbonning uyiga kirsang o'zinga munosib joyga o'l turg'il. U garchi oshno kishingni uyi bo'lsa ham taom va nabizning ustida korfarmoliq qilmag'il, ya'ni mezbonning xizmatkorlariga: "Ey falonchi, bu uy mening o'z uyimdir va tabaqni u yerga qo'yg'il, o'zgalarning taom va kosasiga qo'l urmag'il"-demag'il. O'z chokarlaringga zulolni olib bormag'ilkim, deb durlar, mehmonning uyidan narsa olish uyat".

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin yurtimizda turizmga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda, ya'ni Fransiya, Italiya, Angliya, Misr va boshqa davlatlarda turizmga e'tibor katta, chunki turizmdan davlat g'aznasiga

¹ Umumiy o'rta ta'limning Texnologiya fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, Toshkent-2017, 103 b

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилди, "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, Тошкент-2020-й.

³ Кайковус. Қобуснома, Т.: "Истиқлол", 1994 й., 174 б.

katta mablag' kelib tushadi. So'nggi besh yilda ayniqsa ichki va tashqi turizm yurtimizda jadal rivojlanmoqda. Kelgan mehmonlar Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa birqator shaharlarimizdagi ko'plab yodgorliklar hamda qadamjolarga tashrif buyuradir. Turizm maqsadida yurtimizga tashrif buyurgan mehmonlarni kutish ularga xizmat ko'rsatish va kuzatib qo'yishdagi milliy an'analarimiz bo'yicha o'quvchi yoshlarga tushunchalar berish lozim.

Mehmon kutishda Respublikamizning turli hududlarida o'ziga xos odatlari borligi haqida o'quvchilarga ma'lumotlar berilsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi⁴. Dasturxoniga albatta palov tortishdan tashqari, Toshkentda, masalan, qazi-qartali norin tayyorlash va xushbo'y familchoy damlash odat tusiga kirgan. Farg'ona vodiysining barcha hududida va Samarqandda mehmoning dastlab issiq ko'k choy beriladi. Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va Farg'onada mehmonga choy berilgach, kashnich, rayhon solingan va qatitlangan mastava, so'ngra devzira guruchdan lola rang qovurma tortiladi. Bu shaharlarda mehmon dasturxoniga patir va jizzali nonlar, anvoyi ho'l mevalar, oq ko'ngillikning ramzi sifatida sut, qatiq, qaymoq qo'yiladi.

Kelgan mehmonga darhol qatiq taklif etish yoki nonushtasiga, albatta, qatiq berish, ayniqsa, Namanganda yaxshi odat tusiga kirgan. Sababi, bu yerda mehmonlar qatiq ichishning insonga ko'pgina foydali ekanligini e'tiborga oladi. Shu bilan birga uzoq joydan kelib suv va havo o'zgartirgan kishini kayfiyatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Samarqandda mehmonni shirin-shakar ho'l mevalar, dunyoga dong'i ketgan Osiyo nonlari hamda qaymoq bilan siylash, so'ngra esa murch sepilgan chuchvara va to'g'rama palov bilan siylanadi. Buxoroda mayizli palov va yaxlit qilib pishirilgan barra kabob, viloyatning chorvador hududlarida esa yangi so'yilgan qo'zi go'shtining sho'rvasi va kabobi mehmonning oldiga tortiladi. Xorazmliklar mehmonni tilyorar qovunlar, maxsus tayorlangan palov bilan siylashadi. Qoraqal- poqliklar mehmonni baliq va kulchatoy bilan siylashadi.

O'zbeklar uchun mehmonning muhim yoki nomuhimi, katta yoki kichigi degani bo'lmaydi. Ostonadan xonadonga qadam ranjida qilgan har qanday inson bir piyola choy ichib ketishi azaliy odat hisoblanadi. Uzoq hayotiy tajribaga ega bo'lgan qariyalarimiz

doimo oilada shuni ta'kidlaydi: "Ovqat qilganda doimo ko'proq qil, chunki kutilmaganda mehmon kelib qolishi mumkin", deb nasihat qiladi.

Mehmon kelishi ozodalikka va shaxsiy poklikka ham sababchi bo'ladi.

Betartib joylar tartibga keltiriladi. Uy-joy, hovli va ko'chalar tartibga

solinib, supirilib, suv sepiladi. Idish-tovoqlarini va barcha uy-anjomlarini avvalgidan ham ozodaroq tutishga harakat qilinadi. Mehmon ham, mezbon ham orasta kiyinib oladilar. Tutilmagan buyumlar mehmon kelgan kundan boshlab ishga solinadi. Xullas mehmon kelgan uyning chirog'i ravshan yonadi⁵.

Mehmonga chaqirganda shaxsan uchrashib yoki telefon orqali aytiladi. Hech bo'lmasa, telefon orqali aytish imkoniyati bo'la turib, mehmonni kimdir orqali chorlash chiroyli nuomala tarzidan emas. Bu taklif etilgan insonga nisbatan hurmatsizlikdir. Shuningdek, biron kishini mehmonga chaqirmoqchi bo'linsa, uning vaqtini surishtirib, ziyofatni unga ma'qul kelgan vaqtga to'g'rilanadi. Mehmon kutishga tayyorgarlik ko'rayotganda, xonalarning ozodaligiga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, vannaxonaga toza sochiq, yangi sovun, atir va hokazolardan qo'yiladi. Mehmonning ko'zi dorda osilgan ichkiyim, chaqaloqlarning kiyimlariga va hokazolarga tushib qolmaydigan bo'lishi lozim.

Mehmonlar belgilangan vaqtdan erta kelib qolishi mumkinligini inobatga olib, yarim soatlar oldin chiroyli kiyinib, ularni kutishga tayyor bo'lib turiladi. Mehmonlar oldida oila a'zolariga baqirib, ularni urushib, asabiylashmaslik lozim. Bu mehmonni quvish bilan barobar.

Taom tanovul qilinayotganda mehmonning yeyish sur'atiga karab, sekin-sekin tanovul qilishib, undan avval tugatib qo'ymaslik, shuningdek, mehmonga taomni keltirilgach, u bilan birga tanovul qilish kerak. Bir mehmon: "Mehmon uchun mezbonning to'qligidan ko'ra zararliroq narsa yo'q", degan ekan. Chunki mehmonning oldiga ovqat olib kelinsa-yu, mezbon ovqat yeb, to'yib olgan bo'lsa, mehmon bilan birga yeyisha olmaydi. Natijada mehmon uyaliq, bemalol ovqatlana olmasligi mumkin. Mehmon asosiy taomni tanovvul qilib, biroz hordiq chiqarib, nafasini rostlab olgach, farzandlarni imi-jimida chaqirib, ularni mehmonga tanishtirish lozim. Farzandlarin chiroyli kiyintirishni unutmaslik lozim.

Agar yangi uyga ko'chgan bo'lsangiz yoki anchadan beri shunday yangi qurilgan ko'rkam xonadonda istiqomat qilayotgan bo'lsangiz va uyingizga birinchi marta kimdir mehmon bo'lib kelgan bo'lsa, vaqt topib unga xonalarni ko'rsatib sayr qildiring. Ehtimol, mexmoningiz uyingizni tomosha kilgisi kelar, lekin buni ochiq aytishga iymanishi mumkin. Albatta, yotoqxon va ayollar o'tirgan xonalar ko'rsatilmaydi.

Agar bir jamoani mehmonga chaqirilsa, ular ozchilik bo'lsa birga o'tirsa zarar qilmaydi. Chunki ularga dasturxon ustida xizmat qilib turish kerak bo'ladi. Bordi-yu, ular ko'pchilik bo'lsa, tashqarida xizmat qilib turgan ma'qul. Ziyofat so'ngida mehmonni eshikdan tashqariga kuzatib chiqish, uning tashrifi dan benihoya xursand bo'lganligini izhor qilish va yana tashrif buyurishini so'rab qolish ham mehmonnavozlik qonun-qoidalari sirasiga kiradi. Shuningdek, mehmonnibirontanishining mashinasida manziliga eltib qo'yish yoki hech bo'lmaganda ko'chadagi mashinaga o'tqazib yuborish ham juda yaxshi ish. Mehmon ketayotganida uni eshik oldigacha kuzatib qo'yish kerak. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): "Mehmonni eshik oldigacha kuzatib borish sunnatdir", deganlar⁶.

O'zbeklarda mehmonga sarpo kiydirish odati qadimdan to shu kungacha mavjud bo'lib, u ikki ma'noni anglatadi. Birinchisi, o'zining yaqin kishisiga, qarindoshiga sarpo kiydirganda uzoqlashmaslik, begonalashmaslik,

hamjihatlik istagini bildiradi. Ikkinchisi, begona kishiga sarpo kiydirilsa u bilan yanada yaqin do'st bo'lish istagini bildiradi. Sarpo kiydirish udumi to'g'risida turli xildagi rivoyatlar bo'lib, mehmondo'stlikda haqiqiy do'stlashishning, qarindoshga aylanganlikning, yoki qardron bo'lib qolganlikning ramziy ifodasi hisoblanadi. Shu sababli yurtimizga xorijiy davlatlardan, qardosh respublikalardan mehmon bo'lib kelgan kishilarga ham milliy kiyimlarimizdan kiydiriladi, bu uzoq yillar davomida shakllangan ajoyib an'analarimizdan biri hisoblanib kelinadi.

Xulosa qilib aytganda o'tmishdan to shu kungacha ota-boblarimizdan bizgacha yetib kelgan yillar davomida sayqallangan udum va an'analarimizdan biri bo'lgan mehmon kutish madaniyatini yoshlarimiz ongiga singdirish va ularda mehmonlarni kutish hamda kuzatish ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini oilada va ta'lim muassasalarida to'g'ri tashkil qilish muhim tadbirlardan hisoblanadi. Bugungi kundagi yoshi ulug' kishilar, ota-onalar, shuningdek maktablarimizdagi fan o'qituvchilari, ayniqsa Texnologiya fani o'qituvchilari buni aslo yodidan chiqarmasligi lozim. Aks holda ma'lum bir vaqtlar kelib bu an'ana va udumlarimiz unut bo'lib ketish mumkin. Shuning uchun ham buni ta'lim muassasalarida o'tiladigan fan dasturlariga, ayniqsa "Texnologiya ta'lim" servis xizmati bo'yicha fan dasturida yanada bu mavzuga ko'proq vaqt ajratilsa (kiritilsa) ayni muddao bo'lar edi.

4 Махмудов К. Меҳмоннома, Тошкент: "Ёш гвардия", 1989 й., 240 б.

5 Маҳкамов Улфат. Ахлоқ-одоб сабоқлари, Т.: "Фан" нашриёти, 1994 й., 136 б.

6 Собиров А.А. Меҳмон кутиш одоби. "Ҳидоят" журнали 2011 йил, 7-сон

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MUSIQIY- NAZARIY FANLAR O'RNI VA AHAMIYATI

Sabina Shuxrat qizi Urinova -o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini va uning bir tarmog'i sanaladigan kasbiy kompetensiyasini oshirish ahamiyati haqida so'z boradi. Bugungi kun musiqa o'qituvchilari faoliyati samaradorligini, pedagogik faoliyatini yo'lga qo'yishga tayyorlashda, avvalo, unda pedagogik mahorat, har bir pedagogik jarayonda zarur bo'lgan kompetensiya turlariga egalik faoliyatdagi ahamiyati yoritib o'tilgan. Kreativlik va kasbiy kompetensiyani oshirishda musiqiy-nazariy fanlar ahamiyatiga to'xtalib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье говорится о важности повышения профессионально-педагогического мастерства будущего учителей музыки и профессиональной компетентности, которая является одной из ее ветвей. Сегодня в деятельности подчеркивается эффективность деятельности учителей музыки, подготовка к началу педагогической деятельности, прежде всего важность педагогического мастерства, владения видами компетенций, необходимых в каждом педагогическом процессе. Затронута значимость теоретико-музыкальных наук в повышении креативности и профессиональной компетентности.

Abstract: This article talks about the importance of improving the professional-pedagogical skills of future music teachers and professional competence, which is one of its branches. Today, the effectiveness of music teachers' activities, preparation for starting pedagogical activities, first of all, the importance of pedagogical skills, the possession of the types of competences necessary in each pedagogical process, is highlighted in the activity. The importance of music-theoretical sciences in increasing creativity and professional competence was touched upon.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, axloqiy tarbiya, estetika, faoliyat, pedagogika, pedagogik mahorat, kompetensiya, komponent, mutaxassis.

Ключевые слова: музыкальная культура, нравственное воспитание, эстетика, деятельность, педагогика, педагогическое мастерство, компетентность, компонент, специалист.

Keywords: music culture, moral education, aesthetics, activity, pedagogy, pedagogical skills, competence, component, specialist.

Ta'lim sohasi rivojida pedagogik kadrlarni bilimli, zamon talablariga mos tarzda tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "biz islohotlarimiz ko'lamini va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz"¹ deb ta'kidlar ekan, Yangi O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda o'z yo'lini tanlashida

kadrlar tayyorlash masalasini ham dolzarb vazifa sifatida belgiladi. Bu vazifani amalga oshirishda uzluksiz ta'limning muhim bosqichi bo'lgan Oliy ta'lim muassasalari alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida Oliy ta'lim muassasalari rivoji, pedagogik kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratilgan. "Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi... Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. President.uz sayti <https://president.uz/oz/lists/view/4057>. 2020-yil 29-dekabr.

davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir"².

Oliy dargohlarda pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilar bilim va salohiyati umumiy o'rta ta'lim sifatini belgilab beradigan eng zarur omillardan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonidabelgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashda bo'lajak pedagoglarni o'z faoliyatlarida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llab, olingan bilim, ko'nikma, malakalarini amalga tadbir eta oladigan qobiliyatli, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash zaruratini yuzaga keltiradi.

Mamlakat fuqarolari har tomonlama komillik sari intilib yashashi, davlat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanadi. Yurt ravnaqi yo'lida talaba-yoshlarning bilim egallashlari bilan bir qatorda o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan, ma'nan yetuk, sog'lom fikrlovchi, yuksak kasbiy mahoratli qilib tarbiyalash bu yo'lda dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "...kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha qilib aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishini farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"³ deb ta'kidlagan.

Demak, musiqa ta'limining oliy maqsadi: "musiqani idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan

qilib voyaga yetkazishdan iboratdir"⁴

Yuqoridagi kabi jihatlarni bolalarda shakllantirishda pedagog asosiy rol o'ynashini hisobga olsak, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash musiqa madaniyati fanlarining sifat ko'rsatkichini belgilab berishini anglash qiyin emas. O'qituvchining kasbiy jihatdan shakllanishi oliy ta'limda kasbiy ta'lim olish jarayonidan boshlanadi.

Bugungi kun jamiyat taraqqiyotida raqobatbardosh malakali kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim yetakchi ilm dargohi sifatida alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mamlakatimizda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida Musiqa ta'limi yo'nalishi bakalavriat bosqichi bitiruvchilarining davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablari uchun pedagogik kadr sifatida shakllanishi; magistraturada ta'lim olish, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish, ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat muassasalarda faoliyat yuritishga tayyorlab borishda ularning pedagogik va kasbiy mahorati, kasbiy kompetensiyasi va kreativligini oshirib borish esa ertangi kun zamonaviy pedagog xodimlarining sifat ko'rsatkichini belgilab beradigan omillaridandir.

Oliy ta'limning bakalavrlar tayyorlash o'quv jarayonida turli xil faoliyat turlarini bajarishlari, malakalarni o'zlashtirishlari zaruriy qayd etilib, xususan, musiqa ta'limida 3 yillik o'qish mobaynida bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari quyidagicha:

- pedagogik;
- ilmiy-tadqiqot;
- ma'naviy-ma'rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish"⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Kasbiy faoliyat turlarining pedagogik faoliyat turida bakalavrlar oldiga bir necha vazifalarni qo'yib, bakalavriat bitiruvchisi ularni bajarishga qodir bo'lishi kerak.

Pedagogik faoliyat turlari o'z navbatida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy

² O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son. 11-modda.

³ I. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Ma'naviyat nashriyoti, Toshkent., 2008. 61-bet.

⁴ Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. Musiqa nashriyoti. Toshkent., 2010. 4-bet.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. 5111100 - Musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari. O'z.R. O.O.'M.T.V. Buyruq № 418., Toshkent., 2020. 6-bet

kompetentligi va kreativlikka ega bo'lishi va ularni bitiruv jarayonigacha oshirib borishini talab etishini anglash mumkin. Bakalavriat bosqichida bo'lajak musiqa o'qituvchilar tayyorlash jarayonida o'quv rejasida "Musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi" fanining bo'lishi ularda ushbu sifatlarni shakllantirish, rivojlantirib borishni belgilab, talabalarni bo'lajak faoliyatga kasbiy kompetentlikka egalik va kreativ yondashuv orqali tarbiyalab borishni ta'minlaydi. "Fanni o'qitishdan maqsad – fanni nazariy va amaliy faoliyatni o'zlashtirish jarayonida, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tasvirlab berish, musiqiy ta'lim tarbiya berishda kasbiy kompetensiyaviy yondashuvi va ish faoliyatiga kreativ yondashishga qo'yilgan talablarga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish... Fanning vazifasi – musiqa o'qitishning innovatsion texnologiyalari ta'limining mazmuni, o'qituvchi va talabalar ijodiga pedagogik ta'sir etish, musiqa ta'limida rivojlanuvchi ijodiy o'yinli va interaktiv texnologiyalar, innovatsion texnologiya va axborot texnologiyalari haqida asosiy ma'lumotlar berish. Musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasidagi ilg'or tajribalarni mustaqil tayyorlashni o'rganishga tayyorlash"⁶dan iborat.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiya va kreativligini rivojlantirib borishda bakalavriatda fanlarning qay darajada o'zlashtirilishi muhim. Fanlar kesimida qaraydigan bo'lsak, musiqiy-nazariy fanlar musiqa ta'limining, eng avvalo, musiqiy savodxonlik darajasini belgilab beradigan asosiy fanlar hisoblanadi. Unda rivojlanishi lozim bo'lgan badiiy (musiqiy) fikrlash kompetensiyasi⁷ni fan orqali o'qituvchi qachonki o'zi yuqori salohiyatli, o'z sohasida badiiy-obrazli tarzda fikrlay olsagina o'quvchilarini musiqa olami bilan yaxshiroq tanishtira olishga erishishi mumkin.

Musiqanazariyasi – musiqashunoslikning nazariy jihatlarini bilan shug'ullanadigan fanlar majmuasini qamrab oladigan qismidir. Musiqa nazariyasi - musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya, polifoniya, musiqa shakli, solfedjio, cholg'ushunoslik, ritmika kabi fanlarni umumlashtiruvchi tushuncha.

Oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishlarining musiqiy ta'lim yo'nalishida "Musiqa nazariyasi" fani bo'lib, "fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish qobiliyatini hosil qilish, talabalarining musiqiy dunyoqarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to'g'ri yo'naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish; talabalarni musiqa o'qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushunib yetishlarida chuqur bilimlar berish hamda musiqiy-texnik ko'nikmalarni o'rgatish;

-kompozitorlik ijodining ahamiyatli masalalari va asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqa tizimi va unda muqim o'rin egallagan garmoniya haqida aniq tushunchalar berish;

-musiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlari, muhim musiqa elementlari, musiqiy rivojlanish prinsiplari, shakldagi qismlar funksiyasi bilan talabalarni tanishtirish va turli xil musiqiy shakllarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish;

-talabalarining musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani his eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, ularda lad, ritm, temp va uslub tuyg'usini tarbiyalash hamda o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishga o'rgatishdir⁸. Fan tarkibiga "Musiqa elementlari nazariyasi", "Garmoniya", "Musiqa asarlari tahlili" va "Solfedjio" fanlari kiritilgan.

Fanlarni 3 yil davomida o'zlashtirib boradigan bo'lajak musiqa o'qituvchisida mavzular, nazariy va amaliy topshiriqlar vositasida musiqiy-nazariy fanlar bo'yicha bir necha kompetensiyalar shakllanadi.

Jumladan: "Musiqa elementlari nazariyasi" fanini o'qitish natijasida talabada:

-musiqiy tovush xususiyatlari, musiqiy tizim, nota yozuvi tizimi, ritm, metr, o'lchov, temp, dirijorlik qoidalari, interval, lad, tonallik, tonalliklar kvinta davrasi, akkord, xalq lادلari, alterasiya, xromatizm, xromatik gamma, transpozitsiya, tonalliklar pog'onadoshligi, og'ishma, modulyatsiya, kuy, musiqiy belgilar,

ijrochilik uslubining belgilari haqida tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar;

-tovushlarni nota yo'lga to'g'ri yozish, transpozitsiya qilish, major va minor tonalliklari tovushqatorini tuzish, turli tovush va tonalliklarda intervallar tuzish, ularni yechish, tovushdan akkordlar tuzish, ularni yechish, tonalligini aniqlash va tonalliklarda akkordlar tuzish, xalq musiqasi tovushqatorlarini tuzish, aniqlash, xromatik gammalarni yozma va amaliy tuzish ko'nikmalariga ega bo'ladilar;

-interval, akkordlar, ladlar tuzish, asarlarning tempi, tonalligini aniqlab, obrazlarning xarakterini tahlil qilish malakalariga ega bo'ladilar.

Garmoniya kursida esa bo'lajak musiqa o'qituvchilari:

-garmonik qonun-qonuniyatlar, garmonik tahlil, akkordlar va ularning garmoniyadagi xususiyatlari haqida tasavvur va bilimlarga;

-akkord tuzilishi, to'rtovozlik tuzilmada akkordlar yozish, akkordlar qo'shilishi, ovozlarning to'g'ri yo'nalishi, ovozlarning birgalikdagi harakati, kuy va basin garmoniyalash, ularning aylanmalari va yechilishini tuzish, garmonik davralarda akkordlarni qo'llash, akkordlar ketma-ketligi va sekvensiyalarni fortepianoda ijro etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Musiqa asarlari tahlili kursida talabalar:

-musiqa asar shakli haqida, rivojlanish tamoyillari, muhim musiqiy ifoda vositalari, tuzilmalarning gomofon va polifon turlari, bayon turlari, shakl tuzilishlari haqida nazariy bilimlarni egallaydi;

-biron musiqiy asarni musiqiy ifoda vositalarini tahlil qilish, asar rivojlanish tamoyillari, bayon turlarini aniqlash, turli shakldagi asar xususiyatlarini tushungan holda ularni tahlillash, musiqiy asar mavzulari xarakteri, vositalari, o'ziga xosliklarini tushunish ko'nikmalarini egallaydi.

Solfedjio kursi musiqa nazariyasi fanining laboratoriya qismi hisoblanib, bunda talabalar:

- solfedjioning amaliy ahamiyatini tushunish, bir va ikki ovozli kuylarni sof intonasiyada kuylash, musiqiy diktant yozish, musiqa elementlarini tinglab aniqlash, kuyga akkomponiment tuzish qonun – qoidalari haqida tasavvur va bilimlarga ega bo'lishi mumkin;

-sof, ma'noli, to'g'ri me'yorda, xarakterga mos, dinamik belgilarga e'tibor bergan holda, bir, ikki ovozli xalq, klassik va zamonaviy yo'lidagi asarlar namunalarini solfedjiolash, ularni eshitib turib notaga solish, davriya shaklidagi o'tilgan akkordlardan tuzilgan ketma – ketliklar kuylash; xromatik tovushlari mavjud bir tonally va modulyatsiyalovchi bir ovozli hamda gomofon-garmonik va polifonik uslubdagi ko'p ovozli namunalar kuylash; interval, akkord, ladlarni tinglab aniqlash; berilgan kuyni transpozitsiya qilib kuylay olish; bir va ikki ovozli melodik diktant, intervalli diktantlar yozish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Amaliy mashg'ulotlar uchun fan tarkibiga kiruvchi musiqaning elementlari nazariyasi, garmoniya, musiqa asarlari tahlili fanlaridan alohida- alohida mavzular berilgan bo'lib, amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor- o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

"Bo'lajak musiqa o'qituvchisi "Musiqa nazariyasi" fanidan barcha musiqiy-nazariy bilimlarni egallab, ularni amaliy tarzda qo'llay olar ekan, uni shu fan bo'yicha yetarli bilim, ko'nikma va malakalarga ega deb hisoblash mumkin"⁹. Bu o'rinda anglash mumkinki, nazariy fanlar musiqiy savodxonlik faoliyati muhimdir.

Talabaning pedagogik faoliyati davomida darslarni faoliyat turlari ya'ni biz yuqorida sanab o'tgan boshlang'ich sinflarda:

- 1."Xor bo'lib qo'shiq kuylash.
- 2.Musiqa savodi.
- 3.Musiqa tinglash.
- 4.Musiqaga mos harakatlarni bajarish.
- 5.Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish...

O'rta sinflarda esa musiqa darsi uchta faoliyat turi asosida olib boriladi:

- 1.Xor bo'lib qo'shiq kuylash.
- 2.Musiqa savodi.
- 3.Musiqa tinglash"¹⁰kabilar bo'yicha tashkillashtirishida kasbiy kompetensiya va kreativligi muhim. Kasbiy kompetensiya va kreativlikni esa oliy ta'lim muassasasida shu nomli fan va boshqa nazariy, amaliy, ijodiy bilimlar orqali oshirib borishi uning

⁶ "Musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi". Fan dasturi. Toshkent davlat pedagogika universiteti. Toshkent., 2020. 2-bet

⁷ Аврамкова С.И. «Понятие «компетенция» в современной теории и практике преподавания музыки» // Известия Российского государственного педагогического университета им. Герцена. №136. М., 2010 г. 149 стр.

⁸ "Musiqa nazariyasi". Fan dasturi. Toshkent davlat pedagogika universiteti. Toshkent., 2020. 2-bet

⁹ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. Pg 11.

¹⁰ Sharipova G, Najmekdinov G'. "Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi". O'quv qo'llanma, "Turon-Iqbol" nashriyoti. Toshkent., 2014-yil. 11-bet.

kelajakda o'qituvchilik kasbi faoliyatida ham salohiyatli pedagog sifatida shakllanishiga zamin yaratishi tabiiy. Dars faoliyat turlarining barchasi musiqiy-nazariy bilimlarni talab etishini hisobga olsak, bo'lajak musiqi o'qituvchisining har bir faoliyat turida o'z kasbiy kompetentligini namoyish etishi va jarayonlarga kreativ yondashishi uchun bakalavr davrida kasbiy kompetentligi va kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirib borish samarali natija ko'rsatadi.

Umuman olganda, umumta'lim maktablarida musiqi madaniyati darslarida mavzu mohiyatidan kelib chiqib, faoliyat turlarini almashtirgan holda qo'llash orqali bir butun kompleksga erishish dars samaradorligi, bolalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda xizmat qiladi. Har bir faoliyat turining musiqiy-nazariy fanlar bilan chambarchas bog'liq ekanligini tahlil qilar ekanmiz, pedagogning bakalavr davridanoq bu fanlarda puxta bilim egallashiga alohida e'tibor qaratish lozimligini anglash mumkin. Darslarni faoliyat turlari bo'yicha tashkillashtirishda esa o'qituvchining kasbiy kompetentligi va kreativligi an'anaviylikni zamonaviy yondashuv asosida boyitishda yetakchi omil bo'lib, bo'lajak musiqi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi va kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasi oshirib borilsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak musiqi o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligini musiqiy-nazariy fanlar orqali oshirish maqsad qilib qo'yilar ekan, bu fanlar ertangi kun pedagogik faoliyatda darslarni tashkillashtirish, olib borishda o'qituvchi uchun tayanishi mumkin bo'lgan bilimlarni bera oladigan tarzda egallanishiga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Musiqaning elementlari nazariyasi,

garmoniya, musiqi asarlari tahlili, solfedjio fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar, bu fanlar orqali shakllangan kompetensiyalar, avvalo, darsda samarali "ishlata olinishi", o'quvchilarda ham aynan shu fanlar vositasi fanga oid kompetensiyalarning shakllanishiga erishish maqsadi, fanlarning faoliyatning qaysi o'rnida yetakchi ekanligiga e'tibor qaratishga undadi. Ya'ni, umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqi madaniyati fanidagi dars faoliyat turlari va talaba oliy ta'lim muassasasida bilim egallagan musiqiy-nazariy fanlarni o'zaro bog'lash, pedagogda rivojlantirilgan kompetensiyalarning aynan qaysi biri biror faoliyat turida eng asosiy ekanligini, aynan ushbu kompetensiyaning oshirib borilishida qaysi musiqiy-nazariy fan eng zaruri ekanligini yanada yaxshiroq tushunishimizga imkon yaratadi.

Dars faoliyat turlarini tashkil etishda, bolalarda faoliyat turi orqali bilim, ko'nikma va malakalarni, zarur kompetensiyalarni shakllantirishda kreativ pedagog bo'lish, ijobiy samaraning garovi ekanligini hisobga olsak, bo'lajak musiqi o'qituvchisining kreativ jihatlarining qaysi qirralarining dars faoliyat turlaridan ko'proq qo'l kelishini hisobga olgan holda, bu orqali talabaning kasbiy kompetentligi va kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirib borishda ko'zlangan natijaga erishish yo'li sifatida, dars faoliyat turi-kompetentligi-kreativlik parametri-yetakchi musiqiy-nazariy fan bog'liqligi tizimlashtirildi.

Mazkur bog'liqliklarni inobatga olgan holda, shu asosida bo'lajak musiqi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi va kreativliklarini musiqiy-nazariy fanlar orqali oshirib borish muhimligi haqida xulosaga kelindi.

THE DEVELOPMENT OF THEATER ART IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE (IN THE CASE OF THE MANNON UIGHUR MUSICAL-DRAMA THEATER OF SURKHANDARYA REGION)

Nozima Hayrullayevna Nasriddinova - independent researcher, Termiz state university

Abstract: This article provides comprehensive information about the activities of the Surkhandarya regional musical-drama theater named after Mannon Uyghur during the years of independence, its creative achievements, and its participation in republican and international theater festivals.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mannon Uyg'ur nomidagi Surxondaryo viloyat musiqali drama teatrining mustaqillik yillarida amalga oshirgan faoliyati, erishgan ijodiy yutuqlari, respublika va xalqaro teatr festivallarida ishtirok etishi haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье представлена исчерпывающая информация о деятельности Сурхандаринского областного музыкально-драматического театра имени Маннона Уйгура в годы независимости, его творческих достижениях, участии в республиканских и международных театральных фестивалях.

Keywords: theater, art, drama, nomination, actor, performance, decoration, comedy, performance, pageant, tour.

Kalit so'zlar : teatr, san'at, drama, nominatsiya, aktyor, spektakl, bezak, komediya, spektakl, tomosha, gastrol.

Ключевые слова: театр, искусство, драма, номинация, актер, спектакл, декорация, комедия, профессия, театрализованное представление, гастроли.

In the process of spiritual and educational reforms implemented in Uzbekistan during the years of independence, the art of theater has developed a lot. The state budget of theaters based on the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 20, 1995 "On measures to support and encourage further development of theater and music art in Uzbekistan"¹, "On development of theater art in Uzbekistan"² dated March 26, 1998 was supported based on Also, in 1998, the creative-production association "Uzbek Theater" was established within the system of the Ministry of Culture and under the union of theater creative workers. The joint theater teams were helped to create performances that evoke a sense of respect for the rich spiritual world of our nation, its cultural heritage, national and universal values, to attract talented young people to the theater, to strengthen the material and technical base of theaters,

and to provide social protection for creative employees. Despite the difficulties of the transitional period, the Surkhandarya Regional Musical Drama Theater paid great attention to the formation of its creative and organizational activities based on the requirements of the new era.

In particular, during this period, the repertoire of the theater was enriched with dramatic works of various themes and genres. During its creative activity, the theater team tried to make the plays performed more national, to be in harmony with the people's psyche and desires. The theater team, which has a great creative power, has greatly enriched its repertoire by bringing the works of the creators of the oasis to the stage. For example: between 1992 and 1994, regional artists such as "Yulduz Sondi" by Nor Hayit, "Shocked Eyes" by Isomiddin Atakulov, "Sadoqatli Arvoh" by Khurram Maqsadkulov decorated the theaters

¹ The Voice of Uzbekistan newspaper. October 22, 1995.

² People's word newspaper. March 29, 1998.

of the republic, such as Usman Azim, Shafoat Rahmatullo Termizy, Khaliq Khursandov, Nizomjon Parda. the authors were formed as playwrights in cooperation with the regional musical drama theater. For example, Usman Azim's "Bir kadam yol", "Alpomis'h's return", Khalik Khursandov's "You died, you were dear", "My wife's three lovers", "I will find an old lady, dadajan", "My love is my fate", "My boy who has never seen pain", M. Boboev's A series of plays such as "Death Nation" first appeared in this theater³.

Among the topical works created on the stage of the theater, Usman Azim's "Bir kadam yol" and Khaliq Khursandov's "Die, dear one" dramas stand out for their ideological and artistic depth, encouraging the audience to observe, and rich in emotional feelings. Because these works are based on everyday life events, they quickly attract the attention of the audience. In 1993-1994, the creative team of the Surkhondarya regional musical drama theater named after Mannon Uyghur staged the play "Adib Sabir Termiziy" written by the poet and playwright Nizomjon Parda. Due to the mature and thorough performance of Pesa, the theater team won the "Adib Sabir Termiziy" award established by the Regional Trade Union Council in 1994⁴.

On November 5, 1995, the 60th anniversary of the establishment of the theater was celebrated. In the same year, the theater team put on the stage the famous playwright Mashrab Boboev's play "Ochmasin khali". The theater team participated in the "Navroz" festival of the republican theater groups with this performance, and actors A. Rakhmatov and Kh. Bobokhonova were awarded with the nominations "Best Male" and "Best Female"⁵. On the occasion of the 50th anniversary of the victory over fascism, Genghis Aytmatov's play "Momo yer" was staged. On the occasion of the 600th anniversary of the birth of the host Amir Temur, the theater team staged the play "Amir Temur and Yildirim Bayazid" by Q. Abdunabiev. This work won several nominations of the 2nd traditional theater art festival of the Republican theaters. Including: the director won the Best Director and Grand Prize. Among the actors, H. Oripov's roles in "Amir Temur", R. Mamataliev's "Yildirim Boyazid", B. Ramazonov's roles in "Mashara" won the "Best roles" nomination. At the same

festival, Zulfia Bagiyeva won the "Best Female Role" nomination for her role in M. Kadirov's play "The Magic Ring". In 1998, the theater team staged plays such as A. Ibrahimov's "Zol'dir", I. Oktamov's "Late Marriage", Kh. Khursandov's "Kampir Topaymi Dadajon". The satirical comedy "Zol'dir" exposes such vices as bribery, greed, greed, which are regarded as negative vices in our society. H. Khursandov's work "Kampir topayim dadajon", which tells about the restoration of our national values and the love between parents and children, was warmly received by the audience. H. Rasul's play "Farishta" staged in 1999 is about love for mother, the duty of children to respect her and pure love. Gulnara Ravshanova, who interpreted the role of mother, won the award "The best female role of the stage queen of the year" at the inter-theatrical contest of the Republic. Usman Azim's "Return of Alpomish", which glorifies feelings of love for the Motherland and returning to our national traditions, was staged by the theater team in 2000 and brought to the attention of the audience. In the same year, local dramatist Khaliq Khursandov's play "You have died dearly" was staged. This work was awarded with the "Grand Prix" at the "Andijan Spring" theater festival held in Andijan⁶. Also, Usman Azim's play "One Step" was successfully staged in the theater, which calls for a discussion about the fact that human conscience, honor, and faith cannot be measured by wealth, and that putting money above everything else leads to bad consequences. During this period, the theater team also tried historical works, staging "Alisher Navoi" by Izzat Sultan and Uygun, "Adib Sabir Termiziy" by Nizomjon Parda, and won a number of nominations at the festival of republican theaters⁷. "Sleepless Nights" staged in 2001 by R. Orifjanov was positively evaluated by experts. In 2002, the 2500th anniversary of the city of Termiz was widely celebrated under the auspices of UNESCO. On the occasion of this jubilee, Shafoat Rahmatullo Termizy and Mansur Ravizhov staged the script "Bizkim, Termiz...". This theatrical spectacle was recognized by all the guests who attended the anniversary. The staging of M. Boboev's play "The Nation of Death" about ending terrorism and its consequences, drug addiction and its soil, which is sacred for those who live there, was one of the best works of the theater. The

³ Abduvahidov F. Surkhondarya region musical drama theater yesterday and today. - Tashkent: "Voriz-nashriyoti LLC", 2017. - B 118.

⁴ Surkhan Tong newspaper. January 23, 1996.

⁵ The current archive of the theater, volume 137, page 48.

⁶ Newspaper of literature and art of Uzbekistan. October 21, 2000.

⁷ Gulistan magazine. No. 4 of 2002. - B 28-29.

performance was shown to the audience in all regions of the Republic and in the city of Nukus, Karakalpakstan. The director who staged the play, M. Ravshanov, an honored artist of Uzbekistan, won the "Sarhisob" Republican Theater art competition in the nomination "For the effective cooperation of the director with the playwright". In 2003, the creative team of the theater staged the works "Shout" by M. Khairullaev, "Thirsty hearts" by K. Shangitboev and B. Boyseitov, "Kilich botir" by H. Khursandov, "My boy who has not seen pain".

Winning the love of the audience and raising the reputation of the theater M. Ravshanov, G. Ravshanova, M. Mahmudova, T. Ergashev, Kh. Nasriddinov, A. Narzullayev, R. Mamataliyev, Kh. Oripov, S. Muqimov, M. Sharipov, Z. Boqiyeva, Y. Mirqurbanov and many other artists have great merit. In 2004, G. Ravshanova, one of the sensitive creators of the theater, was awarded the title of "People's Artist of Uzbekistan". On November 14-16, 2005, the theater team went on a tour in Tashkent, and presented to the audience "King and Poet" based on Sh. Rahmatullayev's "King and Poet" based on the works of Kh. exhibited his works⁸.

In 2007, the theater team presented the play "The Deed of the Old Emperor" by Kh. Khursandov at the "Navroz-2007" international theater festival of academic theaters held in Dushanbe, Republic of Tajikistan. This play was also successfully performed at the 20th International Festival of Experimental Theaters held in Cairo, Egypt, on October 10-20, 2008⁹.

Also, this performance was performed at the international theater festival of the Central Asian countries held in Almaty, Kazakhstan in 2010, and the theater team won the 3rd place of the international festival. G. Ravshanova,

who demonstrated her excellent acting skills in this play, won the "Best Female Character" nomination, and I. Mirgurbanov won the "Best Male Role" nomination.

In May 2011, the creative team of the theater performed in Tashkent city "Seni kuylayem zamondosh!" They took part in the I-Republic audition competition with the play "Shijoat" by H. Khursandov and won in a number of nominations. At the "Debut-2014" festival held in Tashkent on December 14-20, 2014, the drama "The Last Queen of the Nightingale" by Erkin Norsafar, the director of the literary department of the theater, won the nomination "The best drama of the year". In conclusion, it should be noted that the theater team achieved great creative achievements during the years of independence. First of all, many works glorifying our national values, imbued with national spirit, were staged. The material and technical support of the theater was strengthened, and in 2016 the theater team moved to a new modern building.

In conclusion, it should be noted that the theater team achieved great creative achievements during the years of independence. First of all, many works glorifying our national values, imbued with national spirit, were staged. The material and technical support of the theater was strengthened, and in 2016 the theater team moved to a new modern building. On August 1-8, 2022, the Consul General of Uzbekistan in Novosibirsk went on a tour to the Surkhondarya regional musical drama theater Novosibirsk. In a word, the team of Surkhondarya Regional Musical Drama Theater has been staging ideologically perfect works of various colors, enriching the theater repertoire, as well as presenting the performance opportunities, acting skills, and new achievements in directing to the general public.

⁸ Theater Magazine, 2006 No. 2. - B 48.

⁹ The newspaper of literature and art of Uzbekistan. 2008.

TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY TARAQQIYOTDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Akbar Saitkasimov - f.f.d, professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Globallashuv sharoitida zamonaviy ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiy jarayonlarning o'zagi bo'lgan ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyotining muhim mezonini hisoblanadi.

Аннотация: В условиях глобализации современные процессы общественного развития невозможно представить без инноваций. Образовательный процесс, являющийся ядром социальных процессов, является важным критерием развития общества.

Abstract: In the conditions of globalization, modern social development processes cannot be imagined without innovations. The educational process, which is the core of social processes, is an important criterion for the development of society.

Kalit so'zlar: globallashuv, axborotlashgan jamiyat, ijtimoiy rivojlanish, innovatsiya, yangilanishlar, ta'lim, ilm-fan, texnologiyalar.

Ключевые слова: глобализация, информационное общество, общественное развитие, инновации, обновления, образование, наука, технологии.

Keywords: globalization, information society, social development, innovation, updates, education, science, technologies.

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida zamonaviy ijtimoiy rivojlanish jarayonlari shiddati kuzatilib, mazkur yangilanishlar bosqichini innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiy jarayonlarning o'zagi bo'lgan ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etilishi esa, jamiyat taraqqiyotida uchraydigan muammolarni hal etishga, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda o'zining muhim o'rniga egadir. Mazkur tizimida innovatsiyalarni joriy etish borasidagi muhim tamoyillar va qonuniyatlarni ilmiy tahlil etish zaruriyati mavjud.

Ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda ilm-fan va innovatsion jarayonlar yuqori sur'atlarda takomillashib, zamon tezlik bilan rivojlanib borar ekan, boshqa sohalar kabi ta'lim tizimini ham yangilab borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, bugungi kunda ta'lim va fan sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda va uni zamonaviy innovatsion asoslarda rivojlantirishda bir qator muammolar ko'zga tashlanmoqdaki, bugungi kunda

mazkur vaziyatlarni aniqlash va bartaraf etish, tizim faoliyatini yanada takomillashtirishni kun tartibidagi muhim vazifalar qatoriga qo'yadi.

Mazkur sohalarga e'tibor davlat ijtimoiy siyosatining muhim o'zagi hisoblanadi. G.Teshaboyevaning fikricha, "Ilm-fan va innovatsiyalar sohasida davlat siyosati – O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining uzviy qismi bo'lib, davlatning ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsiyaviy faoliyatga munosabatini ifodalaydi hamda ilmiy-texnik innovatsiya sohasidagi davlat faoliyatini asosiy ustuvorliklari, maqsadlari, yo'nalishlari va shakllarini belgilaydi"¹.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini innovatsion asosda takomillashtirish masalasining dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

– birinchidan, mamlakatda ta'lim va fan tizimida uning sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha yaratilgan iqtisodiy, moddiy-texnik shart-sharoitlar mavjudligiga qaramasdan undan oqilona foydalanilmayotganligi;

– ikkinchidan, ta'lim-tarbiya tizimida innovatsion fikrlaydigan kadrlar yetarli emasligi

va bu jarayon bilan bog'liq muammolarning saqlanib qolayotganligi;

– uchinchidan, O'zbekiston manfaatlari kesimida xorijiy davlatlarning ta'lim-tarbiya tizimidagi ilg'or tajribalarini qo'llash imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishda ba'zi muammolarning mavjudligi;

– to'rtinchidan, umumiy o'rta ta'lim tizimidagi mavjud kamchilik va muammolarning to'liq hal etilmasligi ta'limning keyingi bosqichlari sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi.

Ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish O'zbekistonda yoshlarga har tomonlama shart-sharoitlar yaratilib berilayotganligi bilan chambarchas bog'liqdir. O.Muhammadjonovning fikricha, "Yosh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratish O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab yoshlarning manfaatlariga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Zero, bu kelajakka yo'naltirilgan sarmoya hisoblanadi"².

Fuqarolik jamiyati asoslari yaratilar ekan, bu jarayonlarda ijtimoiy soha ta'lim va fan tizimini rivojlantirish borasida dunyo tajribasi asosida keng ko'lamdagi o'zgarishlar va yangilanishlarni qo'llash talab etiladi. Chunki globallashuv davrida inson omili yangicha ko'lam kasb etmoqda, uning jamiyatdagi maqomi o'zgarmogda, qadr-qimmatini yuqoriga ko'tarish kun tartibiga qo'yilmoqda. Ana shunday sharoitda inson kamolotining falsafiy mazmuni uning jamiyat taraqqiyotida o'ziga xos o'ni va mas'uliyatining salmog'i oshib borayotganligini ifodalaydi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga koreyalik mutaxassis P.Xvan tomonidan quyidagicha baho berilgan: "O'zbekistonning kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy modeli jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etildi va har tomonlama o'rgansa arziydigan obyektga aylanmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi o'z mohiyatiga ko'ra, ilg'or ta'lim tizimi prinsipi "ta'lim bir umrga" prinsipini amalga oshirgan holda uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarini qamrab olgan. Bizningcha, dasturning umumiy g'oyasi shundan iboratki, u yangi asrda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda sifatli bozorning asosiy omili bo'ladi"³.

Bugungi kunda ham O'zbekistonda turli dasturlar va "yo'l xaritalari" qabul qilish va ularni ijro etish orqali ta'lim tizimining iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, bu jarayonni yanada takomillashtirish uchun oliy ta'lim tizimi faqatgina o'qish yoki o'rganish dargohi emas, balki ilmiy g'oyalarni ishlab chiqish, real hayotga yangi mahsulotlar, texnika va texnologiyalar barpo etuvchi muassasalar sifatida rivojlantirish, ilm-fan bilan shug'ullanuvchi olimlarning har tomonlama rag'batlantirish, ularning mehnat natijalarini keng xalq xo'jaligiga keng joriy etish borasida chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish lozimligini ham ta'kidlash joiz.

Oliy ta'lim pedagog xodimlarini innovatsion jarayonlarga kengroq jalbetish davr taqozosi hisoblanadi. Innovatsion rivojlanish yo'lga o'tishda nafaqat turli sohalarada kadrlarni tayyorlash masalasi, balki oliy ta'lim tizimida band bo'lgan xodimlarni yuqori ilmiy va ijtimoiy-iqtisodiy faolligi talab etiladi. Oliy ta'limda talabalarga fanlardan faqat bilim berish bilan birgalikda, yoshlar ichidan yangi g'oyalar va texnologiyalar yaratishga qurbi yetadigan iqtidorlilarini tanlab olish, dolzarb ilmiy-texnika muammolarni yechishga jalb etishlari lozim. Bu jarayonlarni tashkil etishda oliygohlarda tajriba-texnik va konstruktorlik bo'linmalar, texnoparklar, yuqori texnologik asosda ishlaydigan zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bu jarayonda iqtidorli talabalarning nafaqat ilmiy salohiyati, balki ularning yangi g'oyalar va innovatsiyalarga ko'nikmalari va moyilligi oshadi. Olimlarning ta'kidlashicha, "Mustaqil milliy ijtimoiy taraqqiyot yangi sifatli bosqichga o'sib o'tishini ta'minlashda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarini dialektik tarzda uyg'unlashtirishning yana bir usulini innovatsiyalarni iqtisodiyot va ma'naviyat sohasiga joriy etish asosida ularni uyg'un tarzda rivojlantirishni yo'lga qo'yish tashkil etadi. Bu usul yoshlarning mehnat faoliyatini iqtisodiyot va ma'naviyat bilan uyg'un tarzda tashkil etish asosida rivojlantirishning dialektik xususiyatlarini o'zida ifodalagan vositalar orqali ish yuritadi"⁴.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda o'zini o'zi tashkillashtiradigan

² Муҳаммаджонов О. Конституция: халқ манфаатларининг ҳуқуқий кафолати. – Тошкент: Муҳаррир нашриёти, 2017. – Б. 28.

³ Хван П. Янги давр ва янги халқ билим олиш. Миллий таълим модели: ўн йиллик изланиш ва натижалар. // «Правда Востока», 2007 йил 29 май.

⁴ Тоғаев Н., Шерманов И. Жамият тараққиётида моддий ва маънавий ишлаб чиқаришни уйғунлаштиришнинг замонавий воситалари. // "Жамоатчилик назорати – жамият барқарорлиги омилли" илмий-амалий конференция материаллари. Жиззах, 2018. – Б. 64-65.

jamiyat sharoitida innovatsion tafakkur va faoliyatni shakllantirishning yangi usullari paydo bo'ladi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy va iqtisodiy faol fuqaroni shakllantirish jarayoniga innovatsion usullar kirib keladi. Bu borada inson innovatsion faolligini shakllantirish borasida ta'lim sohasini ta'sirini keskin oshirishga zaruriyat tug'ilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018-yil 7-mayda "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁵gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qabul qilingan qarorga muvofiq, mamlakatimizda barcha oliy o'quv yurtlari tarkibida innovatsion jamg'armalar bilan ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'yicha bo'linmalar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Mazkur bo'linmalar oldiga qarorda quyidagi vazifalar qo'yilgan: bozorni tizimli ravishda tahlil qilish va innovatsion mahsulot (ish, xizmat)larga bo'lgan talabni o'rganish, o'zini qoplash muddatini, rentabellik va innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish bilan bog'liq xatrlarni baholash, yuqori tijorat salohiyatiga ega va amalga oshirishga tayyor bo'lgan, o'zlashtirish uchun istiqbolli loyihalarni tanlab olish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun investorlar, sheriklar va boshqa manfaatdor shaxslarni jalb qilish, yangi texnologiyalarni joriy qilish va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida sanoat korxonalarini bilan o'zaro hamkorlik qilish⁶.

Ta'lim sohasining barqaror rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda muhim o'rin tutadi. Unga erishishda ta'lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish asosida ta'lim muassasalarining samarali faoliyatini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanish yuqori o'sish sur'atlariga erishishning yetakchi omili bo'lib hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim sohasining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnini uning rivojlanishi bilan o'zgarib boradi. Xususan P.Drakerning fikricha, hozirgi davrda "bilimlar kapital va ishchi kuchini chetga surib, ishlab chiqarishning yetakchi omiliga aylanoqda"⁷.

Hozirgi davrda ta'lim tizimida tashkiliy qayta qurishning nazariy asosini resurslarga bog'liqlik nazariyasi va neoinstitutsional nazariya tashkil etadi. Birinchi nazariyaga muvofiq muassasalar faoliyatining samaradorligi uning resurslarga ehtiyoj, moddiy ta'minotni kuchaytirish qobiliyati bilan bog'liq. Unga muvofiq, globallashtirish tashqi muhitdagi o'zgarishlarga iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali moslashish lozim. Neoinstitutsional nazariyada esa davlat ta'limni rivojlantirishga ajratilayotgan resurslar ustidan nazoratni o'rnatishga qaratishi lozimligi ifodalanadi. Ushbu yondashuv ta'lim tizimida bozor munosabatlarini kengaytirish g'oyasiga ziddir.

Ta'lim xizmatlari bozorida innovatsion iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashda quyidagi holatlarni inobatga olish zarur:

- ta'lim va fan tizimining, shu jumladan sohalardagi innovatsion jarayonlar orqali xizmatlar bozorining rivojlanishi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq va u to'g'ri proporsional tavsifga egaligini;

- mamlakatimizda bozor talablari va xalqaro andozalarga mos keladigan innovatsion ta'lim tizimi barpo etilgan hozirgi davrda asosiy vazifa uning samaradorligini oshirishdan iborat ekanligini.

Oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan talabalarda yangilikka, faollik, kashfiyotlarga moyillik qobiliyatini shakllantirish ilmiy-texnika taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'limda innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda ilmiy g'oyalar va texnologiyalar yaratadigan yosh iqtidorlarning o'sib borayotgan aqliy ehtiyojlarini qondirish va tayyorlangan mutaxassislarining yuqori harakatchanligini ta'minlashi lozim. Shuningdek, ta'limda talabalarning kasbiy tafakkur va chuqur innovatsion dunyoqarashga ega bo'lishida ta'lim jarayonida o'qitishning sifat ko'rsatkichlari muhim o'rin tutadi.

A.Alikariyevning ta'kidlashicha, "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish quyidagi maqsadlarga erishishni nazarda tutadi:

- innovatsion axborot mahsulotlarini ishlab chiqish;
- yuqori malakali mutaxassislarni

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Иқтисодий тarmoqlari va sohalariга инновацияларни жорий этиш механизмларини тақомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори. 2018 йил 7 май. ПҚ-3698-сон. www.lex.uz.

⁶ Ўша манба.

⁷ Дракер П. Посткапиталистическое общество // Экономика XXI века. - Москва, 1999. - № 11 - С. 3-4

tayyorlashning zamonaviy usullarini joriy etish asosida innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish;

- ta'lim sifati va uzluksizligini ta'minlash;
- pedagogik kadrlarning kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borish;
- yangi texnologiyalardan foydalanish asosida o'quv jarayonini uzluksiz takomillashtirib borish⁸.

Ta'limda innovatsiyalarni joriy etish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri - bu ta'lim tizimini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va yangilarini tatbiq etishdan iborat. Ta'lim tizimida davlat budjeti mablag'laridan o'z vaqtida, oqilona va samarali foydalanish bilan birgalikda budjetdan tashqari mablag'larni ishlab topish mexanizmlarini innovatsion asoslarda takomillashtirish bilan bir qatorda, unga xususiy va korporativ mablag'larni investitsiyalash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish sohadagi umumiy moliyaviy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash bilan bir qatorda, uning mehnat bozorida talabalarga moslashuvchanligini oshiradi, ta'lim sifatining yaxshilanishiga olib keladi. "Bilimlar - bu zamonaviy jamiyatning asosiy kuch-quvvati hisoblanadi, deb ta'kidlaydi, P.Druker, u o'ziga taalluqli bo'lgan amaliy soha bilan bevosita bog'liqdir"⁹.

Ta'lim tizimi mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni kuchaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, birinchidan, fan va texnikaning rivojlanishini yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislar tasavvur qilib bo'lmaydi va hozirgi davrda ilmiy ishlanmalarning aksariyat qismi oliy ta'lim muassasalarida, ikkinchidan, yangi texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqarishni

tashkil etishni takomillashtirish u yerdagi ilmiy jarayonlarda amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va tarbiya sohasini innovatsion rivojlantirishning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- mamlakatimizda oliy ta'limda yaratilgan yangi g'oyalar, fundamental ilmiy ishlanmalar, innovatsiyalar, intellektual mulk mahsulotlaridan foyda olish va mulk munosabatlarini olimlar o'rtasida taqsimlash, ilmiy xodimlarning o'z ulushini olishi borasida me'yoriy qonunchilikni takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi;

- jamiyatda innovatsion rivojlanishning asosiy parametrlaridan biri sifatida ta'lim tizimi imkoniyatlarini oilalarning, mahalliy jamoalarning, korxonalarining o'ziga xos manfaatlariga qaratish, ta'lim sohasida o'zaro mas'uliyat mexanizmlarini yaratish va takomillashtirish, ta'limning innovatsion va investitsiya salohiyatini oshirish muhim vazifa sanaladi;

- oliy ta'lim tizimini yangilashning asosiy omili iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, hududiy demografik, geografik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olish asosida hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalari, ular qoshida ilmiy va ishlab chiqarish muassasalari tashkil etish, ta'lim, fan va biznes sohalari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zaruriy xususiyat sanaladi;

- ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish jarayonlarida xususiy sektorning ishtirok etishi orqali oliy ta'lim va ilmiy muassasalarda innovatsiyalarni rivojlantirishga sharoit yaratish, xususiy sektor yoki investorlarga ham imtiyozlar tizimini belgilash, davlat-xususiy sheriklik tizimini joriy etishda hududiy shart-sharoitlarni hisobga olish zaruriyati mavjud.

⁸ Аликариева А. Таълим сифатини бошқариш тараққиёт гарови сифатида.//Социологияни ўқитиш ва социологик тадқиқотларни ташкил этишнинг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. -Тошкент, 2018 й. -Б. 223.

⁹ К обществу знания. Всемирный доклад ЮНЕСКО. -Париж, 2005. -С. 53.

O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA XOTIN-QIZLARGA NISBATAN DAVLAT SIYOSATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Baxti Muradovna Ochilova - f.f.d., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, xotin-qizlarga ta'lim olishlari, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun davlatning yangi kafolatlar va imtiyozlar paketi, ularning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, maqsadli va manzilli tartibda ishlash amaliyoti yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрены основные направления единой государственной политики в сфере поддержки женщин, защиты их прав и законных интересов, новый пакет государственных гарантий и льгот для женщин на получение образования, на занятие научной и творческой деятельностью, для поддержки их предпринимательской деятельности выделяется практика адресно-целевой работы.

Abstract: In this article, the main directions of the unified state policy in the field of supporting women, protecting their rights and legal interests, a new package of state guarantees and benefits for women to get an education, to engage in scientific and creative activities, to support their entrepreneurial activities. the practice of working in a targeted and addressed manner is highlighted.

Калит so'zlar: xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy himoya, xotin-qizlar bandligi, kasbga o'qitish, jamiyatning faol qatlami, ilmiy va innovatsion faoliyat, Olima ayollar jamiyati, gender tengligi.

Ключевые слова: поддержка женщин, повышение их социальной активности, социальная защита, занятость женщин, профессиональное обучение, активный слой общества, научная и инновационная деятельность, Общество женщин-ученых, гендерное равенство.

Keywords: women's support, increasing their social activity, social protection, women's employment, vocational training, the active layer of society, scientific and innovative activity, the Society of Women Scientists, gender equality.

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimining shaxsni faollashtiruvchi, insonning o'zini o'zi rivojlantiruvchi, salohiyatni inson kapitaliga aylantiruvchi ustuvor yo'nalishlari, ehtiyojmand aholi qatlami vakillarini o'z iqtidori, iste'dodi va qiziqishlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashuvchi to'laqonli qo'llab-quvvatlash siyosati, xotin-qizlarni himoyalash va ularni ijtimoiy faollashtirishdagi gender tenglikni ta'minlash yondashuvi Yangi O'zbekiston ijtimoiy innovatsion modelining muhim jihati.

"Ayolni e'zozlash – ezgulik va adolat mezoni", degan g'oyani hayotga tadbiriq etish maqsadida aholimizning qariyb yarmini tashkil etadigan ayollarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'zni va nufuzini oshirish, iste'dodi

va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, onalik va bolalikni himoya qilish davlat siyosatining markaziga qo'yildi¹. O'zbekistonda xotin-qizlarni keng ko'lamda qo'llab-quvvatlashga e'tibor, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, sog'lom va baxtli hayotini ta'minlashga qaratilgan siyosat quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zni va faolligini oshirish. Barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi va qonun tomonidan bir xil himoya etilish huquqiga egaligi demokratik davlatning xususiyati hisoblanadi. Xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash sohasidagi siyosatning huquqiy asosini

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: "Ўзбекистон", 2021.Б-53.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil etadi. Unda barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavgeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasi ayollar va erkaklarning teng huquqli ekanligi to'g'risidagi normani o'zida mujassam etgan. Bugungi kunda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida 28 ta qonunchilik hujjati (shu jumladan, 5 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 ta Farmon va qarori, Vazirlar Mahkamasining 16 ta qarori) loyihalari ishlab chiqildi. Shu kunga qadar ularning – 10 tadan ortig'i qabul qilindi va ijroga qaratildi. 2020-yilning o'zida O'zbekistonda xotin-qizlarning hukumat va jamiyatdagi rolini oshirishga, ularning bandligini ta'minlashga, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga va muhtoj ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 15 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, boshqaruv lavozimlarida ayollarning ulushi 26,6 foizga yetkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniy larni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori, "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini va xotin-qizlar bilan ishlashning yangi mexanizmi, ya'ni mahallalarda xotin-qizlar bilan maqsadli va manzilli tartibda ishlash amaliyotida sifatli o'zgarishlarga imkoniyat yaratdi. Jumladan, 2022-yil 7-martdagi 87-sonli "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan xotin-qizlar uchun 42 ta imtiyoz va imkoniyatlar belgilab berildi, 17 mln. nafardan ziyod xotin-qizlarning muammolarini o'rganish va to'liq ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish maqsadida 7 ta bo'lim, 17 ta yo'nalish va 138 ta ma'lumot bazasini o'z ichiga olgan "Xotin-qizlar balansi"ni shakllantirish bo'yicha "Xotin-qizlar.uz" platformasi yaratildi. Mazkur farmoni bilan 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur ishlab chiqildi. Milliy dasturni amalga oshirishda quyidagi asosiy vazifalar belgilandi: xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish; gender tenglikka erishish, xotin-qizlarning ijtimoiy-

iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish; xotin-qizlarning ta'lim olishlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni ilm-fan sohasiga keng jalb etish; xotin-qizlarning salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish choralari kuchaytirish; xotin-qizlar orasida tazyiq va zo'raonlikka uchrash hamda odam savdosi qurboni bo'lish holatlarining oldini olish; jazoni ijro etish muassasasida saqlanayotgan, chet elga chiqib ketgan, davlat va jamoat tashkilotlarida hamda xususiy sektorda mehnat qilayotgan xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularning qonuniy manfaatlarini himoyasini yanada kuchaytirish; ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralari yanada takomillashtirish; nuroniy onaxonlarni e'zozlash, ularning bilim va boy hayotiy tajribasidan oilalarni mustahkamlash, qizlarning ta'lim-tarbiyasi, ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda foydalanish, shuningdek, ularning madaniy horidiq chiqarishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish; oila institutini mustahkamlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarini targ'ib etish orqali oilalardagi sog'lom va ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash; xotin-qizlar orasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularda huquqiy madaniyat va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga daxldorlik hissini oshirish choralari ko'rish².

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi ayollarni huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi yirik jamoat tashkiloti butun mamlakat hududida o'zining 41 taga yaqin boshlang'ich tashkilotlariga ega bo'ldi. Qo'mitaning hududiy bo'linmalariga saylangan rahbarlar esa 14 ta viloyat, 168 tuman va 25 shahar hokimlarining o'rinbosarlari hisoblanadi.

Xotin-qizlarni davlat va jamiyat boshqaruvidagi ulushini kengaytirish. Huquqiy-demokratik jamiyatning eng muhim sharti – jamiyatdagi barcha toifalar, qatlamlar va aholining barcha darajadagi vakillari xohish-irodasini ifoda etilganligidir. Bu borada aholining 56%ini tashkil etadigan xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida jalb etish chora-tadbirlarini kuchaytirish oldinga qo'yilgan maqsadlarning ro'yobga chiqarishning asosiy omillaridan biriga aylanadi. Ayniqsa, qonun ijodkorligi, uning ijrosi va nazorati bilan bog'liq faoliyatni olib boradigan qonun chiqaruvchi hokimiyatda ayollarning salmog'ini oshirish milliy qonunlarimizning yanada ijtimoiy hayot bilan hamohang ishlab chiqilishini belgilab beradi.

Takidlash kerakki, qonunlar barcha fuqarolar uchun teng ravishda qabul qilinarkan,

² <https://lex.uz/docs/5899498>

uni ishlab chiqishda jamiyat a'zolari manfaati to'la ifodalanishini ta'minlash uchun ayollarning ham lozim darajadagi ishtirokini talab etadi. Shu bois parlamentga ayollarning saylanishi bilan bog'liq masalalar ba'zi davlatlarda deputatlik o'rinlarini ajratish – kvotalash institutini qonun bilan mustahkamlash orqali hal etilgan. Shu jihatdan qaraganda, deputatlikka nomzod ko'rsatishda siyosiy partiyalarga ular ko'rsatgan nomzodlarning ma'lum foizini ayollar tashkil etishi lozimligi haqidagi qoidalar qonun normalari bilan mustahkamlangan. "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan O'zbekistondagi saylov qonunchiligiga - "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatligi saylovi to'g'risida"gi qonunlarga muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonunning 22-moddasida siyosiy partiyalar tomonidan nomzod ko'rsatish tizimiga yangi band kiritildi. Ya'ni 22-modda: "Xotin-qizlar soni siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida o'ttiz foizini tashkil etishi lozim", degan yangi norma bilan to'ldirildi³. Shu bilan milliy qonunchiligimizda siyosiy partiyalarning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga nomzod ko'rsatish bo'yicha alohida kvotalash instituti joriy etildi. 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Oliy Majlisidagi ayollarning 32,7 foiz ulushi bilan dunyodagi 190 ta parlament orasida 45-o'rinni egalladi.

Xotin-qizlarga ta'lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borish. Yuksak axborot asrida ayollarning chuqur ta'lim olishi, texnika va texnologiyalarni egallashlari uchun, bir tomondan, jamiyatda amaliy ishlarni olib borish zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning ilmiy-innovatsion faolligi ham katta ahamiyatga ega. Bu borada xotin-qizlarning oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga e'tibor berilmoqda. 2020-yilning o'zida 950 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar o'qishga qabul qilindi. 2022-2023 o'quv yilidan boshlab "Oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta'lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat budjetidan har yili 1,8 trillion so'm resurs mablag'lari, davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning

kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, Davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so'm yo'naltirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim dasturlari bo'yicha - 50 nafar, magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha - 10 nafar xotin-qizlarga har yili «Elyurt umidi» jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratish, shuningdek, "Ayollar biznesi uchun birinchi qadam" tanlovini o'tkazib borish, buning uchun ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan 10 milliard so'm ajratish, "Olima ayollar jamiyati"ni tashkil etish va xotin-qizlarni amalda qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish uchun Davlat budjetidan 50 milliard so'm ajratish"⁴belgilandi. Xotin-qizlarning innovatsion loyihalarini qo'llab-quvvatlash, ular o'rtasida ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish maqsadida mamlakatimizning 14 ta hududida "Innowomenweek"-xotin-qizlarning innovatsion haftaligi, 36 ta forum va konferensiya, 72 ta ilmiy-amaliy va o'quv seminari, 17 ta seminar-trening, 41 ta davra suhbat va uchrashuv, 35 ta ko'rgazma, shuningdek "Eng yaxshi innovatsion mahsulot", "Eng yaxshi innovatsion loyiha" va "Iqtidorli qizning innovatsion loyihasi" nomli tanlovlar tashkil etildi. Ushbu tadbirlarda jami 14 ming 274 nafar xotin-qizlar jalb etildi.

Xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish. O'z-o'zini tashkillashtirishning muhim tarkibiy qismi oilada iqtisodiy – mulkiy munosabatlardir, ya'ni oila turmushini tashkil etishdir. O'zini mulkdor, mulk xo'jayini, o'z mehnati va ishlab chiqargan mahsulotining xo'jayini deb his etish insonning yashirin kuch-g'ayratini yuzaga chiqaradi, uning aqliy, ijodiy imkoniyatlarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon etadi, uni tashabbuskor va omilkor qiladi. Hozirgi zamon iqtisodiyot ilmining yirik nomoyondasi, iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotining laureati, amerikalik olim Gerri Bekker o'zining "Traktat o seme" nomli tadqiqotida yozganidek, "Oila hayotning iqtisodiy nuqtayi nazaridan talqin etilmagan va ana shu nuqtayi nazardan yondoshilmagan hech bir sohasi yo'q, oilaning yashovchanligi va rivoji ham iqtisodiyot bilan bog'liq"⁵. Bu oiladagi jinslar-erkak va ayol, bolalar o'rtasidagi mehnat taqsimotidan tortib, oila maishiy hayoti, oila tadbirkorligi, oila daromadi va hattoki ajralishlar hamdir. Oilani bugungi kun imkoniyatlarigagina emas, balki ertangi kun ehtiyojlariga tayanib shakllantirmoq zarur. Ana shu ma'noda oilada farzand ruhiyatiga tadbirkorlik fazilatlarini singdirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday fazilatlar esa, bugungi kunda oila tadbirkorligini rivojlantirish asosida singdiriladi. "2022-yilda xotin-qizlarni

³ "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисида сайлов тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси қонуни //Lex.uz.

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/5899498>

⁵ Гэри С.Беккер. Тракт о семье. М. "Наука", 1987, С.113

kasbga o'rgatish va bandligini ta'minlashga ko'maklashadigan hamda ularning muammolari bilan shug'ullanadigan nodavlat notijorat tashkilotlariga 17,1 milliard so'm miqdoridagi grant mablag'lari ajratish hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida ajratilayotgan mablag'larning jami 4 trillion so'm qismi tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan xotin-qizlarga yo'naltirilishi"⁶ko'zda tutildi. Natijada 378 ming nafardan ziyod ishsiz xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi. 13 ming 110 nafar xotin-qizlarga tadbirkorligini yo'lga qo'yish hamda tomorqadan unumli foydalanish maqsadida subsidiyalar ajratildi. 13 ming 314 nafari kasanachilikka jalb etildi. 5003 nafari kooperatsiyalarga birlashtirildi. Bugungi kunda "Hunarmand" markazi tomonidan 6 ming 198 nafar hunarmand xotin-qizlar ishlab chiqargan mahsulotlari realizatsiya qilindi. 41 ming 311 ta oilaga o'z tomorqasidan gul, limon, meva-sabzavot yetishtirish uchun issiqxona qurish hamda chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikni yo'lga qo'yishlari uchun 35 mln. so'mgacha imtiyozli kreditlar ajratildi. 159 ming 436 nafar xotin-qizlar tomorqasida tadbirkorlik qilish orqali o'zini o'zi band qilish toifasiga kiritildi. Chekka hududlarda, mahallalarda xotin-qizlar uchun bugungi kun talab etayotgan kasb-hunarlariga, tadbirkorlikka o'qitish maqsadlarida respublikaning 14 ta hududida, 159 ta tuman, shaharlarida xotin-qizlar "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari" tashkil etildi va ularning faoliyati orqali ayollar bandligini ta'minlash imkoniyatini oshirishga erishildi.

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tomonidan Jahon bankining bilan chekka qishloq hududlardagi "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, bandligini ta'minlash hamda iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Yaponiya ijtimoiy rivojlanish fondining 2,728 mln AQSh dollari miqdorida grant mablag'lari hisobiga 2021-2024-yillarda Farg'ona viloyatining Furqat, Uchko'priq, Yozyovon, Qo'shtepa va Jizzax viloyatining Yangiobod, Baxmal, Forish, Zomin tumanlaridagi mahallalarda amalga oshirilishi mo'ljallangan grant qo'lga kiritilgani bu boradagi ishlar ko'lamini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash. 2022-yil 29-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga ko'tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o'rgatish ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Qarorga

muvofiq 2022-yil 1-iyuldan boshlab har bir xonadon ahvolini o'rganib, oilalardagi haqiqiy holat va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash; ijtimoiy yordamga muhtoj har bir oilani individual ijtimoiy himoya qilish rejasini ishlab chiqish; aholi murojaatlari asosida va ijtimoiy himoya rejasining ijrosini o'rganish jarayonida ijtimoiy xizmatlarning o'z vaqtida va sifatli ko'rsatilishini doimiy nazorat qilib borish; murakkab va yuqori texnologik tibbiy amaliyotlarga, nogironligi bo'lgan shaxslarning protez-ortopediya buyumlariga va shu kabi boshqa ijtimoiy xizmatlarga oilalarning ehtiyoji bo'yicha tavsiyalar va buyurtmalar berish; ijtimoiy himoyaga mas'ul barcha idoralar tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi ustidan monitoring olib borish⁷vazifalari yuklatiladi.

Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarning manzilli yordamlar ko'rsatilishini tashkil etish maqsadida O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi bilan birgalikda 644 ming 849 nafar xotin-qizlar "Ayollar daftari" ga kiritildi. Bugungi kunda 476 ming 616 nafar (73,9 %) xotin-qizlarga yordam ko'rsatildi. Shundan 214 ming 457 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlardan 166 ming 848 nafari yaratilgan yangi ish o'rinlari va jamoat ishlariga joylashtirildi. 46 ming 455 nafar tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlarning 20 ming 509 nafari tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun imtiyozli kreditlar ajratildi. 179 ming 497 nafar boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand xotin-qizlardan 125 ming 411 nafari bir martalik moddiy yordam berildi. Shundan, 1613 nafarining uy-joyi ta'mirlab berildi. 121 ming 966 nafar ijtimoiy yordamga muhtoj 1 va 2 guruh nogironligi bo'lgan shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlardan 99 ming 940 nafari moddiy va tibbiy yordam ko'rsatildi. Shundan, 908 nafarining uy-joyi ta'mirlab berildi. 11 ming 421 nafar uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlarning 865 nafari uy-joy bilan ta'minlandi, 3 354 nafari ijara kompensatsiyasi to'lab berildi. 71 ming 053 nafar qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandi bor ehtiyojmand ayollardan 59 ming 674 nafari moddiy yordamlar berildi. Shundan, 2646 nafariga tomorqadan unumli foydalanish uchun amaliy hamda moddiy yordamlar ko'rsatildi.

Gender tenglikni ta'minlash. "Gender tenglik" konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati taraqqiyotni butkul noodatiy va nostandart qarashlar, tamoyillar tizimida ko'rib chiqishi va qayta baholashida namoyon bo'lib, falsafiy-metodologik jihatdan an'anaviy qarashlarning butun bir tizimiga qarshi pozitsiyada turadi. Xuddi mana shu holat gender muammosining nazariy-falsafiy

⁶ <https://lex.uz>.

⁷ <https://huquq.uz/2022/09/09/mahallada-izhtimoiy-hizmat/>

kontekstda insoniyat oldida turgan dolzarb masalalaridan biriga aylanganligini ko'rsatadi. Qolaversa, u amaliyotda insoniyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy va hal qiluvchi, har bir mamlakat uchun esa modernizatsiya jarayonining taqdirini belgilab beruvchi yetakchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. Butun insoniyat, mamlakatlar, insonlar taqdiri mana shu omilning ijtimoiy hayotda aks etish darajasiga bog'liq bo'lib qoldi.

Gender muammolarini hal etishning eng og'riqli tomoni oilaviy munosabatlar sohasiga tegishlidir. Chunki oila individ hayotining gender tenglik prinsipi to'liq qamrab ololmaydigan, qat'iy ravishda o'rnatilgan nisbiy ierarxiya tizimli (ota-onalar va farzandlar, aka-ukalar, opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar) munosabatlari doirasini o'z ichiga oladi. Odatda, bunday munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlariga qaraganda qarindoshlik aloqalari bilan uzviy bog'langan bo'lib, uning zamirida ruhiy-emotsional yaqinlik, doimiy va barqaror bo'lgan o'zaro ishonch, o'ta xudbinona qarashlar doirasidan chetga chiqib ketuvchi samimiy va umumiy manfaatlarini anglash yotadi hamda oila o'ziga xos xususiyatlari, strukturasi, funksiyasi va nisbatan barqarorligi bilan boshqa ijtimoiy munosabatlar va institutlardan jiddiy farq qiladi. Mana shu ma'noda oila sotsiologlar talqinidagi ijtimoiylashuv agenti va ijtimoiy institut tushunchasi mazmunidan ham kengroq va teranroq mohiyatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda globallashuv sharoitida turli jamiyatlarda oilaning madaniy farqlari yo'qolib borishi - unifikatsiyalashuv jarayoni yuz bermoqda. Bundan ko'rinadiki, oilaning madaniy qiyofasi muayyan vaqt davomida o'zgarishi mumkin. Lekin bu o'zgarishlar oilaning ijtimoiy mohiyati va rolining o'zgarishi uchun xizmat qilmasligi kerak. Oilaning muqobil yo'q, ungamuqobil bo'la oladigan biron-bir ijtimoiy variant haligacha topilmagan. O'zbek xalqi yashab kelayotgan mintaqaning geografik va iqlimiy xususiyatlari hamda shunga mos tarzda turmush tarzini - jamoaviylikni tashkil etishga yo'naltirilgan, shuningdek, uni faol qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Demoqchimizki, masalan, oiladagi zo'ravonlikni faqat gender tenglashtirish orqali hal qilib bo'lmaydi. Aksincha buni betakror madaniyatlarining o'z xususiyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan usullar orqaligina hal qilish mumkin. Masalan, iqtisodiy rivojlanish ijtimoiy hayotdagi keskinlikni kamaytirishi bilan birga jinslar o'rtasidagi ziddiyatlarni ham yumshatadi. Ayollarning savodxonlik darajasining o'sishi va iqtisodiy ahvoning yaxshilanishi oilaviy munosabatlarni zaiflashtiruvchi emas, aksincha muayyan darajada muvozanatni saqlab turishga xizmat

qilmoqda. Chunki, bugungi globallashgan muhitda inson kapitali ilgoriga qaraganda juda muhim ahamiyatga ega. Bu oilalarning ahamiyatini yanada oshirib yuboradi. Negaki oila tomonidan uzatilgan resurslar maktab va ish joyidagi muvaffaqiyatlarning oliy darajadagi belgilovchisidir.

Oilaviy munosabatlar sohasidagi erkaklar va ayollar huquqlarining tengligi quyidagilarda asoslanadi: erkaklar va ayollar nikohining ixtiyoriyligiga; majburiy va erta nikohlarga yo'l qo'ymaslikka; er-xotinlarning shaxsiy va mulkiy huquqlari tengligiga; oila ichidagi nizolarni o'zaro kelishuv bo'yicha hal qilishga; uydagi mehnat xususida erkaklar va ayollar huquqlari va majburiyatlarining tengligiga; voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquqlari va manfaatlarini himoyasini, onalik, otalik va bolalik himoyasini ta'minlashda teng ishtirok etish. Shuningdek, alohida e'tibor "mamlakatning chekka hududlaridagi qishloqlardagi xotin-qizlarga, etnik ozchilik guruhlari, nogironlar, OIV/OITSga chalingan ayollar, ozodlikdan mahrum qilish va cheklash joylaridagi xotin-qizlarga (shu jumladan qamoqxonalarda, pansionatlar, qariyalar uylari va ruhiy kasalliklar shifoxonalari), inson huquqlari himoyachilari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va qochqinlarga qaratiladi"⁸.

Xulosa qilib aytganda, XXI asr boshida jahonda inson fenomeni, xususan, xotin-qizlar ulkan ijtimoiy o'zgarishlar fonida bo'rtib namoyon bo'lmoqda. Ular jamiyatning faol qatlami sifatida ilmiy-tadqiqot, tibbiyot va ta'lim muassasalari, sanoat korxonalarini, fermer xo'jaliklari, kichik biznes sub'ektlari, tadbirkorlik, sport, qo'yingki, barcha sohalarda faolli, oila, davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli yuksalib bormoqda. Hozirgi zamon xotin-qizlar faolligining aksiologik umumiy jihatlari quyidagilar:

birinchidan, ularning o'z hayotida mo'ljal oladigan asosiy qadriyatlar - bu oila, o'zini-o'zi nazorat qilish, o'zini-o'zi boshqarishi va anglashi singari ma'naviy va ijtimoiy jihatlari birligi;

ikkinchidan, ulardagi konturlar, bu qo'lga kiritish, tashkillashtirish, muzokaralar olib borish va kalkulyatsiya qilish;

uchinchidan, ularning faoliyati o'z faolligini mutlaqo oqilonlashtirish va kengaytirish tamoyillariga to'la bo'ysunadi;

to'rtinchidan, tirishqoqlik, tejamkorlik va insonparvarlik kabi xususiyatlar amaliy faoliyatining tarkibiy qismlariga aylanadi.

Xotin-qizlar o'z-o'zini tashkillashtirishi jarayonida unda tartibot, o'z-o'zicha harakat, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini yaratish, kaosdan tartiblikka o'tish va barqarorlik holatlari yuzaga keladi.

MA'NAVY-AXLOQIY FAZILATLAR KOMILLIK TIMSOLI SIFATIDA

Dilfuzaxon Aliyevna Abdurahimova - p.f.d. (DSc) professor, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Taxir Maxammatjonovich Burxanov - dotsent, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol, sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligi va yoshlar tarbiyasida xalqimizning boy, milliy, madaniy, tarixiy an'analari, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlardan va ma'naviy-axloqiy mezonlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning ahamiyati yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье отражены вопросы актуальности воспитания гармонично развитого молодого поколения на основе здорового образа жизни и значение использования богатых национальных, культурных, исторических традиций, обычаев нашего народа, также общечеловеческих ценностей и духовно-нравственных критериев в процессе обучения и воспитания.

Abstract: In this article, upbringing a young generation on the basis of a comprehensive, harmonious, healthy lifestyle is one of the pressing challenges of today, and the use of rich, national, cultural, historical traditions, customs, and universal values and moral and ethical standards in the upbringing of young people. The importance of the

Калит so'zlar: barkamol, sog'lom turmush, milliy, madaniy, urf-odat, umumbashariy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy, mezon, ta'lim-tarbiya, tarixiy, ma'naviy meros, e'tiqod.

Ключевые слова: гармонично развитый, здоровый образ жизни, национальный, культурный, обычаи, общечеловеческие ценности, духовно-нравственный, критерий, обучение и воспитание, исторический, духовное наследие, убеждение.

Keywords: adolescence, healthy living, national, cultural, customs, universal values, spiritual, moral, educational, historical, spiritual heritage, belief.

Yosh avlodni vatanparvarlik, ta'kidlaydi O'zbekistonning Birinchi Prezidenti insonparvarlik, millatparvarlik ruhida Islom Karimov¹.

tarbiyalash, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini kuchaytirish, iymon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik singari xislatlarni shakllantirish, har bir fuqaroni mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish - xullas komil insonni, har taraflama sog'lom, fidoyi barkamol avlodni voyaga yetkazish hozirgi kundagi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishining asosiy maqsadi ekanligiga alohida ahamiyat berish kerak bo'ladi. Asrlar davomida xalqimizning e'tiqodini o'zida aks ettirgan muqaddas dinimiz asosidagi ma'naviy meros izchil o'rganila boshlandi. "Agar mendan, nega milliy qadriyatlarimiz shuncha zamonlar osha bezavol yashab kelyapti, deb so'rashsa, bu avvalo, muqaddas dinimiz hisobidan, deb javob bergan bo'lur edim. Shu zaminda o'tgan necha-necha avlodlar diniy e'tiqodni yurakda saqlamasa, islom falsafasini rivojlantirib kelmasa, biz bebaho va betakror ma'naviy-ruhiy merosdan mahrum bo'lib qolardik" - deb

Yoshlarimizni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilat egasi sifatida, yetuk, komil, sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash, ularda ma'naviy jasorat tuyg'usini shakllantirish turli mafkuraviy-ma'naviy tahdidlardan himoya qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bu haqda shunday deydi: "Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharafli burchimizdir. Islom - haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi"².

Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir!" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni

⁸ <https://strategy.uz/index>.

¹ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. - Т.: Ўзбекистон, 2000. - 356.

² Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз, 1-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2018. - 30-б.

o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak".

Inson ulg'aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchalari ham kengaya boradi. Lekin, alohida ta'kidlash joizki, yurtimizda tug'ilib o'sgan har bir inson – "Vatanim" deganida o'z uyini, qishlog'ini yoki shahrini emas, balki O'zbekiston Respublikasini nazarda tutadi. Bu esa Vatan tuyg'usining, vatanparvarlikning xalqimiz qalbidagi ifodasidir. Shuning uchun ham bugungi kun yoshlarini har tomonlama tarbiyalash faqatgina ta'lim muassasalarining vazifasi bo'lib qolmasdan, balki oilaning mas'uliyati ham yuksak bo'lishi zarurdir. Oila asosiy tarbiyaning o'chog'idir. Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarining rivojini ta'minlaydigan yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, ma'naviy, moddiy tarbiyasida asosiy omil va vosita oila hisoblanadi.

Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy fazilatlar sohibi etib tarbiyalashda xalqimizning boy, milliy, madaniy, tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, zamonaviy pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash oila tarbiyasining asosiy maqsadidir.

"Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlarni ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'or bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada, hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim"³. Shu jumladan, voyaga yetgan har bir farzand o'z ota-onalari haqida o'ylashi, g'amho'rlik qilishi ham qarz, ham farz sanaladi. Burchni, mas'uliyatni huquqdan oldin qo'yishni his etish huquqiy madaniyat sohibiga hos oliyanob fazilatlaridir. Bu haqda Abdulla Avloniy "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda

qilur?" degan savolga: "Birinchiy uy tarbiyasi, bu vazifa ona zimmasidadir. Ikkinchisi maktab va madrasa tarbiyasida ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir"⁴, deb javob bergan edi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ham yangi davrning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Ma'naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyat bo'lmaganidek, jamiyatsiz ma'naviyatning ham bo'lishi mumkin emas. Shunday ekan, boshqa xalqlar qatori o'zbek oilalari ham milliy tarbiya an'alariga boy. Ularni tiklab, boyitib, zamonaviylashtirib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktab tarbiyasi bilan uyg'unlashtirish nafaqat har bir oila, balki butun O'zbekiston ijtimoiy-ma'naviy hayotini boitishga xizmat qiladi.

Insonni komillik sari yetaklaydigan har qanday axloqiy ta'limot o'z yo'nalishi, o'z tartib-qoidasi va o'z tamoyillariga asoslanadi. "Shu tariqa, komil insonning o'ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu-armoni deb qaralgan. Bundan yana shu ham ma'lum bo'ladi-ki, o'rta asrlardagi yaxshi axloq, komil inson haqidagi tushunchalar nisbiy xususiyatga ega – bir tomondan, jami ruhiy-ma'naviy qudrat, aqlu-zakovat, yaxshi sifatlarning jamuljami hisoblangan mavhum bir zot tushunchasi, ikkinchi tomondan, shu cho'qqiga intilib, muayyan martabalarga erishgan kishi ham komil inson deb hisoblangan"⁵.

Shunday ekan, o'zbek milliy xarakterining o'ziga xos muhim belgilar, ya'ni insof, diyonat, o'tmishga hurmat va e'tiqod bilan qarash, tilimizga hurmatda bo'lish, diniy e'tiqodning yuksakligi, milliy an'ana va marosimlarimizga hurmat, Vatan qayg'usi bilan yashash, Ona tuproqni muqaddas deb bilish, Ota nasihatiga sodiqlik, Ona sutiga hurmat, ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy merosiga nisbatan qarzdorlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat va h.k.larni oila, maxalla, o'quv maskanlari tashkilot va muassalarda doimiy ravishda suhbatlar orqali yoshlar ongiga singdirib borish muhim vazifa ekanligini hech qachon unutmasligimiz zarur. Tinchlik va totuvlik shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi"⁶, - deb yozadi. Bu fikrlarga qo'shilgan holda, yana shuni

3 Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови". Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси 07.12.2016. // <http://press-service.uz/uz/news/5384/>.

4 Авлоний, Абдулла. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. Танланган асарлар. 2-жилд. - Тошкент: Маънавият, 2009.

5 Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. - Т.: Ёзувчи, 1996. - 153б.

6 Фитрат. Оила. - Т.: Маънавият, 1998. - 13 б.

yoddan chiqarmaslik kerakki, oilada har bir farzandning yuksak ongi, yangicha tafakkur va dunyoqarashi, odob-axloqi, yuksak ijtimoiy munosabat mohiyatini anglab yetishi ota-onaning majburiyati, hattoki, axloqiy va huquqiy burchidir.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlar, avvalo, ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida inson komilligida muhim ahamiyatga ega. Bu borada akademik E.Yusupov o'zining "Inson kamolotining ma'naviy asoslari" nomli kitobida «Axloq insonning konkret sharoitlarda bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil baho berishi, ularga nisbatan o'z munosabatini bildirishi,-deb ta'kidlaydi"⁷.

Umuman, ma'naviy-axloqiy fazilatlar ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro muloqot va munosabatda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir.

Qadriyatlar o'z-o'zidan bevosita insonning ma'naviy qiyofasi, turmush tarzi, umuman jamiyat taraqqiyotini belgilay olmaydi. Qadriyatlarining ahvoli, ahamiyati, insonga ko'rsatadigan ta'siri, uning istiqboli, u yoki bu jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tuzum tomonidan olib borilayotgan siyosat, uning manfaatlari va tarbiyaviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqdir. A.Avloniy tarbiyani quyidagicha tasvirlab beradi: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" deb katta baho beradi. Chunki, Avloniy masalaning falsafiy asosiga ko'chadi. Masalan, u tana va ruhning uzviy birligi haqida gap ochadi: "Badan tarbiyasining, fikrlar tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkalasi bir choponning o'ng ila ters tomoni kavidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustuni qo'yub, astarini yuvib ovrora bo'lmoq kavidirki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur",- deb yozadi Abdulla Avloniy"⁸. Shunday ekan, jism va ruh shakl bilan mazmunning uzviy birligi va ularning o'zaro bir-biriga ta'siri masalasi juda muhim va murakkabdir.

Ta'kidlash joizki, yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda qobiliyatli

pedagoglarning o'rni beqiyosdir. Ular samimiy, insonparvar, keng ma'lumotli pedagogik faoliyatga layoqatli, o'quvchilar, talabalar bilan til topisha oladigan bo'lishi, shu bilan birga milliy g'oyaning targ'ibotchisi bo'lishlari zarur. Bu borada, N.G.Chenishevskiy "Badbasharaning – go'zallik, zolimning – odillik, o'lib borayotganning – hayot va hokimiyat, munofiqlarning – oqko'ngillik da'vo qilishi kulgi chiqaradi"- deydi"⁹.

Jamiyat va insonlarning yosh avlodga hayot hodisalari va rivojlanish qonuniyatlarini o'zi yashab turgan turmushda yaratgan alla, ertak, maqol, hikmatli so'zlar orqali ham nasihat, ibrat vositasida berib kelishini yuqorida keltirilgan fikrlardan ham ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda o'sib kelayotgan yoshlarni, xususan, vatanimizning bugungi va ertangi himoyachilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy fazilatlarining o'rni davr talabidir. Birinchidan, ma'naviy komillikka eltuvchi ma'naviy-axloqiy fazilatlar insonning inson ekanligini ko'rsatuvchi sifatida qadrlidir. Ikkinchidan, inson o'z-o'zini anglab, haqiqatni topishi uchun holati o'zgarishi, ya'ni botiniy poklanishi zarurdir. Bu esa, go'zal axloqli bo'lish insonning yuksak fazilatlaridan biridir. Uchinchidan, inson axloqini tubanlashuviga sabab bo'ladigan ichki va tashqi omillarni ehtiyotkorlik bilan tarbiyalash insonning komil inson bo'lib yetishishidagi birinchi va muhim qadamidir. Zero, vatanparvarlik insonning o'z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va o'z so'ziga sodiqligidir. Barchamizga ayonki, insonni bolalikdan o'z yurtiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat hamda hurmat ruhida axloqiy fazilatlariga ega shaxs etib tarbiya qilmasak, unda vatanparvarlik hissi bo'lmasligi muqarrar. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxs sifatida tarbiyalash ularni komil insonlar bo'lib yetishida katta ahamiyat kasb etadi.

7 Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари.-Тошкент.: Университет, 1998. –38 б.

8 Авлоний, Абдулла. Танланган асарлар: 2 жилдлик. 2-нашри. 2-жилд. Пандлар, ибратлар, ҳикоятлар, набийлар ҳаёти, драмалар,мақолалар, саёҳатхотиралари // Таҳрир ҳайъати: Н. Каримов ва бошқ.; Тўпловчи: Б. Қосимов,Изоҳлар ва луғатлар.- Т.: Маънавият, 2006.- 37 б.

9 Ченишевский Н.Г Полное собрание сочинений. В 4-х т. –М.: Искусство, 1974.- 31 с.

ISLOM ILOHIYOTI VA MA'RIFATIDA SHAXS MA'NAVIY QIYOFASI TALQINI

Abdurasul Xakimovich Amonlayev - f.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom ilohiyoti va ma'rifatidagi ota-onaga mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat, kishilarni yaxshilik qilishga undash, savob ishlarga qo'l urish, insofli-diyonatli, vijdonli bo'lish, mehr-shafqatlilik, to'g'rilik, rostguylik, sofdil bo'lish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish g'oyalari bayon qilingan.

Shuningdek, Qur'oni Karim, hadisi sharif, buyuk muhaddislarning bizga qoldirgan manbalari, ma'rifat ahlining o'g'itlari shaxs ma'naviy qiyofasini takomillashtirishdagi o'rni tahlil etilgan.

Аннотация: В этой статье, в исламском богословии и просвещении, родительская любовь, забота, воспитание детей и верность семье, поощрение людей к добру, совершение достойных поступков, честность, благочестие, совесть, доброта, правилность, правдивость, честность, братство изложены идеи помощи и призыва к смирению.

Также анализируется роль Священного Корана, хадисов, источников, оставленных нам великими мухаддисами, учений просвещенных людей в совершенствовании духовного облика человека.

Abstract: In this article, in Islamic theology and education, parental love, care, raising children and fidelity to the family, encouraging people to do good, doing worthy deeds, honesty, piety, conscientiousness, kindness, correctness, truthfulness, honesty, brotherhood, the ideas of help are outlined. and a call to humility.

It also analyzes the role of the Holy Quran, hadiths, sources left to us by the great Muhaddiths, the teachings of enlightened people in improving the spiritual image of a person.

Kalit so'zlar: Qur'oni karim, hadislar, tasavvuf ta'limoti, tariqat, ilm, islomda ma'naviyat tushunchasi, axloqiy kamolot, axloq-odob tarbiyasi, halollik va poklik, imon, vijdon, hadislar,

Ключевые слова: Священный Коран, хадисы, учения суфизма, секта, знание, концепция духовности в исламе, нравственное совершенство, нравственное воспитание, честность и чистота, вера, совесть, хадисы

Keywords: Holy Quran, hadith, teachings of Sufism, sect, knowledge, the concept of spirituality in Islam, moral perfection, moral education, honesty and purity, faith, conscience, hadith

Ma'lumki, islom dini inson kamolotining ma'naviy-ruhiy zaminiga katta ahamiyat beradi. Bu narsa jamiyat hayotida, ijtimoiy va oilaviy munosabatlarda, farzand tarbiyasida o'z ifodasini topgan. Barchamizga yaxshi ma'lumki, – deb yozadi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev, – islom dini, eng avvalo, tinchlik va do'stlik, ahillik va birdamlik, bilim va ma'rifat dinidir. Mana shu oliy haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimizning mujassam ifodasi sifatida qadrlaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi¹.

Islom dini ta'limotlarida yaxshilik va pokizalikning naqadar buyuk ne'mat ekanligi, bironvga ozor bermaslik, til bilan dilni doimo bir tutish, nochorlarga zakot berish va ko'nglini ko'tarish chin insoniy fazilat ekanligi xususida juda ko'p eslatmalar mavjud.

Islom dinida har bir kishining ma'naviyatli bo'lishi uning ilmiga, aqlu farosatiga bog'liq ekanligi

ta'kidlanadi. Bu xususda Muhammad payg'ambarimiz o'z hadislarida shunday fikr bildiradi: "Har bir musulmonga talaba ilm qilish farzdir... Bir soat ilm o'rganish kechasi bilan namoz o'qib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm o'rganish uch oy ro'za tutgandan yaxshiroqdir"².

Ana shuning uchun ma'naviyatli bo'lish uchun birinchi navbatda ilmli, bilimli inson bo'lmoq joiz. Hadisi shariflarda ilm va olimlik xusiyatlari haqida ko'plab misol va o'g'itlar mavjud: "Oxirtda nabiyalar, olimlar va shahidlar shafaot qilish huquqiga ega bo'ladilar", "Olimlarga ergashingiz. Zero, ular dunyoning mash'allari va oxiratning chiroqlaridir..." "Olim bo'l (ilm beruvchi bo'l) yoki ilm o'rganuvchi bo'l yoki tinglovchi bo'l, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli bo'l. Beshinchisi bo'lma, halok bo'lasan"³. Ilm insonni ana shunday yuksak ma'naviyat shohsupasiga ko'taradiki, natijada ilm va ilmli shaxslar ma'naviyat timsoliga aylanadilar.

Ana shu ma'noda G'azzoliy yozadi: "Har kishining

izzati va sharofati ilm birla va qudrat va quvvat birla va yo jamoli va sifati bila bo'lur"⁴.

Islomda ma'naviyat tushunchasi nainki ilm, xulqu odob, shuningdek, imon bilan ham chambarchas bog'liq holda talqin qilinadi. Iymonli odamning qalbi, fikri va niyati toza bo'ladi. Iymon inson ma'naviyati shakllanishiga yo'l ko'rsatadi, bu yo'lni yoritadi va maqsad mazmunini chuqurlashtiradi. Jaloliddin Rumiy iymonni hatto namozdan ustun qo'yadi. U yozadiki, "Iymon namozdan ustundir. Chunki namoz kunda besh mahal, iymon esa hamma vaqt farzdir. Namoz uzrli sabab bilan qoldirilib, fursat bo'lishi bilan ado etilishi mumkin. Iymon uchun hech qanday uzrli sabab bilan buzilib, keyinroq bajarish ruxsati yo'q. Namozsiz iymonning foydasi bo'ladi. Biroq iymonsiz namozning foydasi yo'q"⁵. Binobarin, Jaloliddin Rumiy so'zi bilan aytganda "Iymon to'g'ri bilan xatoni, naqd bilan naqlni farqlay oladigan tamizdir". Demak, islom dinida ma'naviyat masalasi inson aqli, bilimi va iymon-e'tiqodi, axloqi, odobi bilan o'lchanuvchi murakkab ma'naviy jarayon sifatida talqin qilinadi.

Zero, o'tmishda ham, bugungi kunda ham xorijiy dunyo ayniqsa musulmon olami Movarounnahr madaniyati va fanidan bahramand bo'lgan hamda ta'sirlanib kelgan. Bu hol ayniqsa «o'rta asrlar» degan sifat bilan tarixga kirgan davr uchun xos bo'lgan. Ayni shu davrda bizning yurtimizdan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom ad-Darimiy kabi peshvo muhaddislar, Imom al-Moturidiy, Abulmu'in an-Nasafiy kabi mutakallim-ilohiyotchilar, Burhonuddin al-Marg'iloniy kabi faqihlar yetishib chiqdilar, ular yaratgan o'lmas asarlar musulmon dunyosi hayotini tashkil etishning dasturilamaliga aylandi.

Islom ilmi va qadriyatlarini yuksaklarga ko'targan allomalarimiz ibrat yo'lining inson fazilatlarini kamolga yetkazishdagi o'rni va ta'siri katta. Bu xususda to'xtalar ekan, I.Karimov: «Xalqimizning ma'naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning O'lo' marhamat qilgan bu hayotda to'g'ri yo'l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi...»⁶ deb ta'kidlagan edi.

Shu o'rinda Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning «Al-jomi' as-sahih» (ishonchli hadislar) to'plami «Al-Adab al-mufrad» to'plamlariga kiritilgan hadislar aynan shaxs ma'naviyati masalasida muhim manba ekanligini ta'kidlash zarur.

«Al-Adab al-mufrad» (Adab durdonalari) imom Buxoriyning axloq va odob masalalariga doir hadislarini o'zida jo qilgan eng nodir asarlaridan hisoblanadi. U ikki yuz oltmish yetti bobdan iborat anchayin salmoqli asardir⁷.

To'plamga kiritilgan hadislarining mazmunini jiddiy o'ylab ko'radigan bo'lsak, ular eng oliy qadriyatlarni kasb etishga chaqirilgan da'vat ekanligiga amin bo'lamiz.

Ana shu qadriyatlar zamirida inson ma'naviy fazilatlarini takomiliga xizmat qiluvchi qoidalar va ta'limotlar mujassamdir.

Hadislar ota-ona, aka-ukalar va aka-singillarni oiladagi o'z burchlarini jamiyatdagi kabi mukammal ado etishga chaqiradi, chunki «jamiyatning har bir a'zosi o'z

zimmasidagi majburiyatlar uchun mas'uldur».

Hadislar odamlarni rostgo'y bo'lishga chaqiradi, ilohiyot haqiqati shundan iboratki, «doimo rostgo'y bo'lgan odamgina Alloh taolo tomonidan mo'minlar qatoriga kiritiladi». Hadislar odamlarni mehribonlikka chaqiradi: «Yer yuzidagilarga mehr-shafqat ko'rsating, samoviy va aroziy olamlar Parvardigori ham sizlarga shafqat qiladi». Qur'oni Karim va Sunani sharif bulardan boshqa ezgu qadriyatlarga ham da'vat etadiki, turli asr olimlari ularni sharhlashga juda ko'p kuch sarflaganlar.

Islom ilohiyoti va ma'rifatida ma'naviyatga munosabat ko'proq shaxsning axloqiy dunyoqarashi hamda dinu diyonat, adolat, xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalari alohida ko'zga tashlanadi. Xususan, tasavvuf ta'limotining ko'zga ko'ringan namoyandasi, Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband merosidan bunga ko'plab asoslar keltirish mumkin.

Bu tariqatning ikki tomoni bor: Birinchisi – axloqiy jihati: u zamindan, xalqdan, mehnatdan uzilib qolmaslikka, ma'rifatga erishishga va jaholatga, zulmga qarshi kurashishga, biron-bir kasbning boshini tutishga, o'zgalarga axloqiy namuna bo'lib yashashga chaqiradi. Ikkinchisi – ilohiy jihati: u axloqiy qismatga da'vat etadi. Bu tariqatning yana «Xilvatda – shuhrat, shuhratda ofat» degan aqidasi ham diqqatga sazovor. Xilvatda faqat o'zini o'ylab, ertadan kechgacha ibodat qilishda ham g'araz bor: bu, birinchidan, kishining jannatdan eng avvalo o'zi o'rin olishi uchun tirishib-tirmashishi bo'lsa, ikkinchidan, xudoga xudbinlik orqali yaxshi ko'rinish va, uchinchidan, odamlar ko'ziga o'zini zo'r qilib ko'rsatish, ya'ni shuhrat orttirishdir. Shuningdek, bu tariqat avvalo ziyolilarga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Uning «Agar mamlakat xarob bo'lsa, shohdan xafa bo'lma, haqiqat ahli nazdida bu darveshlarning – ziyolilarning, ilm ahlining gunohidir», «Hech kimdan xafa bo'lma va hech kimni xafa qilma», «O'lik sherdan tirik mushuk afzal» singari hikmatlar ham hech qachon o'z kuchini yo'qotmaydi⁸.

Islom ma'rifatida diniy-irfoniy ilm va shaxs ma'naviy barkamolligini targ'ib etgan Pahlavon Mahmudning diniy-tasavvufiy qarashlari alohida o'rin tutadi. Uning ruboiylarining asosiy g'oyasini inson va uning jamiyatdagi o'rni, axloqiy fazilatlarini, ijtimoiy adolat, rostgo'ylik, to'g'rilik tashkil qiladi va bularning juda ko'pchilik qismi Qur'oni Karim hamda hadisi shariflarning ta'sirida yozilgani ko'rinib turadi. Ana shu bois uning asosiy g'oyasi ham mardlik, jasurlik, Alloh bergan umrni ilmu hikmat qidirib yashashga sarf etishga da'vat ustuvorlik qiladi:

Hamla qilar menga g'am-og'u ko'raman,

Ko'z ochaman, har ko'zda qayg'u

1 Ш.М.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси - Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. 310-б

2 Муҳаммад пайгамбар қиссаси. Ҳадислар. - Тошкент: Камалак, 1991. - Б. 93.

3 Уша манба. - Б. 61.

4 Ғаззолий. Кимийи саодат. - Тошкент: Камалак, 1995. - Б. 39.

5 Мавлоно Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадур. - Тошкент: Езувчи, 1997. - Б. 34-35.

6 Каримов И.А. Юксак маънавият - энгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. - Б. 36-37.

7 Қаранг: Бобоев Х., Ғофуров З. Миллий истиқлол мафқураси ва тараққиёт. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. - Б. 45.

8 Саттиев И.М. Имом Ал-Бухорийнинг «Ал-Жомий Ас-Саҳих»-и-муслмонлар ҳаётининг йўлчи юлдузи. Замонамиз уламулари. - Тошкент, 2001. - Б. 52-53.

9 Қаранг. Дам бу дамдир, дам бу дамдир, дам бу дам. Академик И.Султон билан А.Шер суҳбати // Соғлом авлод учун. - Тошкент, 1996. - № 1.

ko'raman,
O'y suraman boshni oyog'imga
qo'yib,
O'zini tanib, tizzamni ko'zga
ko'raman.

Mutafakkir, hayotning og'ir zarbalari hamla qilar ekan, bu hamlalarning og'irligidan, zahardek achchigligidan zo'rg'a ko'z ochgan va o'ziga o'xshagan juda ko'p odamlarning ham ko'zida shunday qayg'u va g'amni ko'rgan. Bu qayg'ular esa hayotda uchraydigan insofsizlik, adolatsizlik, tengsizlik, boylikka ruju qo'yish, shayton vasvasasiga uchish, nafsni jilovlay olmaslik, hayot jilvalariga aldangan insonlar fojiviy taqdirining so'nggi nuqtasini ko'ra olish natijasida paydo bo'lgan. Ushbu fojialar esa o'zini tanigan insonni o'y surib, qayg'uga botishiga majbur qiladi.

U jamiyatdagi mavjud axloqiy illatlar, soxta dindorlik, tarkidunyochilik, boyluk ortidan quvishni insoniy qusur hisoblab, inson hayotining mazmunini ma'naviy barkamollikda deb biladi¹⁰.

Shu ma'noda har bir alohida inson-har qanday jamiyatning mavjudligi va barhayotligini ta'minlab turadigan asosiy ijtimoiy unsurdur. Bu insonning individual shaxsiy xatti-harakati, ya'ni biror guruh, qatlam, qavm, elat, xalq va millat doirasidagi, oila va turmushdagi, muayyan jamiyat miqyosidagi faoliyati, yaratgan moddiy va ma'naviy boyluklari, avvalo, o'ziga va o'zgalarga nisbatan munosabati orqali namoyon bo'ladi. Bu munosabatlarning eng muhimi, ya'ni inson shaxsining ma'naviy qiyofasini

shakllantiradigan jihati – ilmdir.

Shu o'rinda ma'naviy mustaqilligimizning tayanch nuqtasi sifatida kishilarimizdagi imon-e'tiqodni takomillashtirishning muhim omili hisoblangan milliy g'urur va nafsoniyatni, milliy fe'l-atvorni tiklash ham ma'naviy barkamollik orqali amalga oshishi hech kimga sir emas..

Qur'oni karim, hadislar va shariat ko'rsatmalari inson ma'naviy-ma'rifiy kamolotining asosi bo'lgan axloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o'z ichiga olgan. Sirasini aytganda, hadislar ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid bo'lgan fikrlarning mukammal to'plamidir. Qur'oni karim, hadislarini, shariat ko'rsatmalarini o'rganar ekanmiz, ularda axloqiy kamolot, halollik va poklik, imon va vijdon bilan bog'liq bo'lgan birorta ham muhim masala e'tibordan chetda qolmaganini ko'ramiz.

Xulosa qilib aytganda, islomda ota-onaga mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat masalalariga alohida e'tibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qo'l urish, insofli-diyonatli, vijdonli bo'lish, mehr-shafqatlilik, to'g'rilik, rostguylik, sofdil bo'lish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish g'oyalari ilgari surilgan.

Shu boisdan ham Qur'oni Karim, hadisi sharif, buyuk muhaddislarning bizga qoldirgan manbalari, ma'rifat ahlining o'g'itlari shaxs ma'naviy qiyofasini takomillashtirishda bebaho asos, ma'naviy xazinadir.

SHAXS MENTALITETI SHAKLLANISHINING ASOSIY OMILLARI

Raushana Kurbanbayevna Kurbaniyazova - f.f.b.(PhD), v.b. dotsent, TTA Urganch filiali

"Eng katta boyluk – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!"

Annotatsiya: Ushbu maqolada mentalitet shakllanishining asosiy omillari: oila, ta'lim, tarbiya jarayonlari, ularning shaxs dunyoqarashini shakllantirishdagi va tafakkur darajasini kengaytirishdagi o'rnini yoritilgan.

Аннотация: В этой статье освещаются основные факторы формирования менталитета: семья, процессы образование и воспитание, место их в формировании мировоззрения и расширении степени мышлений личности.

Abstract: This article highlights the main factors in the formation of mentality: the family, the processes of education and upbringing, their place in the formation of the worldview and the expansion of the degree of thinking of the individual.

Kalit so'zlar: mentalitet, oila, ta'lim va tarbiya jarayonlari, shaxs dunyoqarashi, tafakkur darajasi.

Ключевые слова: менталитет, семья, процессы образования и воспитание, мировоззрение личности, степени мышления.

Keywords: mentality, family, processes of education and upbringing, worldview of the individual, degrees of thinking.

Mentalitet atamasi fanga XX asrda Bu termini fransuz etnolog va sotsial "Annallar" maktabi vakillari tomonidan kiritilgan. antropologi Lyus'en Levi-Bryul' (1857-1039)

¹⁰ Қаранг: Абдулҳаким Матназар. Имон туҳфаси. – Тошкент, 1997. – Б. 57.

o'zining 1922-yilda yozgan "Ibtidoiy mentalitet" asarida mentallik tushunchasidan sotsiumning fikriy, psixologik umumlashmasi sifatida foydalanadi¹.

"Mentalitet" (lot. "mens" – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan, ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati². Mentalitet o'ziga xos milliy an'analar, rasm-rusumlar, urf-odatlar, diniy e'tiqodni ham qamrab oladi.

Jamiyatdagi har qanday yangilanish va o'zgarishlar, avvalo, tafakkurdan boshlanadi. Xalq ongu tafakkuri va dunyoqarashining o'zgarishi – jamiyat islohotlarining ibtidosi sanaladi.

Jamiyatning, millatning yoki shaxsning mentalitetini o'rganish, unga jiddiy yondashishni talab qiladi.

G'arb ilm-fanida bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, eksperimental psixologiya asoschilari V.Vundt va A.Ful'e o'z tadqiqotlarida mentalitetning, ya'ni milliy aql va milliy fe'l-atvor qanday vujudga kelishi va rivojlanishi to'g'risidagi masalani xalqlar psixologiyasi nuqtayi nazaridan yondashgan holatda talqin qilganlar, ularning ishlarida biologik irsiyatga, xususan irqiy xususiyatlarga, ayniqsa, keng o'rin berilgan. Ammo shu bilan bir qatorda tabiiy-iqlim omillari, mamlakatning geografik o'ri, madaniyat, avlodlar o'rtasidagi kelayotgan jamoaviy tarixiy tajriba, o'tmishdagi yirik voqealar haqidagi xotira ham muhokama qilingan. Etnik guruhlarining tillari, afsonalari va urf-odatlarini empirik o'rganish dasturi orqali xalqlarning psixologiyasiga aniq, real qarashni berishga intildilar³.

Shaxs mentaliteti shakllanishi bir qancha omillar bilan bog'liq bo'lib, bular: oila, tabiiy-geografik muhit, yashash joyi, mahalla, ta'lim-tarbiya (bog'cha, maktab, institut), turmush tarzi, milliy xususiyatlar va hokazo.

N.N.Gubanovning ilmiy-tadqiqot ishlarida shaxs mentaliteti shakllanishida biologik (genotip), geografik va ijtimoiy omillarning ta'siri, shaxsning kreativligi masalalari ochib berilgan⁴.

Shveytsariyalik J.Piaje o'z tadqiqotlarida, bola tafakkuri yetilishining va u kattalar tafakkuridan butunlay farq qilishining o'z sxemasini taklif qilgan bolaning shakllanish jarayonini davrlarga bo'lib tushuntirgan⁵.

Shaxs mentalitetining shakllanish jarayonida oila, ta'lim va tarbiya masalalari S.Otamurodovning "Globallashuv va millat", "Globallashuv va milliy – ma'naviy xavfsizlik

(siyosiy-falsafiy tahlil)", M.Quronovning "Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi", Sh.Qahharovning "Global ma'naviyat – globallashuv asosi", O.Musurmonovning "Oila ma'naviyati va milliy g'urur" asarlarida ochib berilgan.

Mamlakatimizda shaxsning intellektual qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Oila tarbiyasi, maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim va tarbiyasi bu sohadagi ishlarning asosini tashkil qiladi.

Inson shakllanishining ma'naviy asoslari oiladan boshlanadi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola ongida shakllanadi, oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini angalaydi va his qiladi.

"Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta'lim va umuman, ijobiy xislatlarni o'rgatuvchi maktab, bu – oiladir. Tarbiya – oiladan boshlanadi. Oila qancha sog'lom bo'lsa, jamiyat ham shunga mutanosib bo'ladi. Lekin tagiga zil ketgan, mo'rt oilalar oxiri ajralish bilan tugaydi, bolalar yetim, xonadonlar parokanda bo'ladi. Bu esa jamiyat ravnaqiga albatta putur yetkazadi"⁶. Shu bois, yurtimizda oila institutini, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish, oilada zo'rvonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishni huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash darajasini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

2018-yil 27-iyunda "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3808-sonli Qarori qabul qilingan. Konsepsiyaning IV-bandida "oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy qadriyatlarini saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash" masalalari berilgan. Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 20-25 bandlarida bu masalalar atroflicha ko'rsatib o'tilgan⁷.

Jamiyat hayoti va taraqqiyotida oilaning o'ri haqida Abdurauf Fitrat "Oila" asarida shunday yozadi: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi"⁸.

¹ Lyus'en Levi-Bryul'. Pervobitniy mentalitet. – M.: Kul'turnoye naslediyе, 2003. – 228с.

² Falsafa. Qomusiy lug'at. – Toshkent: "Sharq", 2004. – B.257.

³ Vundt V. Problemi psixologii narodov. – Moskva, Kosmos', 1912.; Ful'e A. Psixologiya frantsuzskogo naroda. // Revolyutsionniy nevroz. – Moskva: KSP, 1998.

⁴ Gubanov N.N. Formirovanie, razvitie i funktsionirovanie mentalita v obshestve. – M.: Etnosotsium, 2014. – S.143-155.

⁵ Piaje J. Kognitivnoe razvitie rebenka. <http://www.Psycho-logos.ru-view>

⁶ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston", 2021. – B. 72.

⁷ "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash Kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3808-sonli Qarori. 2018 yil 27 iyun.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2016 yil

⁸ Fitrat Abdurauf. Oila, – Toshkent, "Ma'naviyat", 2000. – B. 8.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishni falsafa fanlari doktori, professor S.Otamurodov "Globalashuv va millat" asarida: "Bugungi kunda globalashuvning kuchli bosimini sezmoqdamiz. U xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz ong va qalbini millatimizning o'ziga xosligi va mentalitetiga yot g'oyalarni singdirishga katta omil bo'lib xizmat qilmoqda"⁹ – deb ta'riflab berganlar.

Globalashuv jarayonlari shiddat bilan kirib kelayotgan, fan, texnika, texnologiyalar rivojlangan, innovatsion ta'lim tizimi keng qo'llanilayotgan, ijtimoiy hayotdagi rivojlanish yoshlar ta'lim-tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir paytda, bugungi rivojlanish va taraqqiyot ota-onalarimizga o'z talablarini qo'yimoqdaki, farzandlarimiz hayoti, ma'naviy dunyosini bugun kechagidan, ertaga bugungidan yaxshiroq qilishni talab qilmoqda. Barkamol rivojlangan shaxs ijtimoiy qarashlarining shakllanishi jarayonida, ularga vaqt va iqtisodni bekorga sarf qilmaslik, zamonaviy bilim, ko'nikmalar va malakalar bilan qurollantirish, o'z huquq va burchlarini bilish, oilaning muqaddasligi, ota-ona va farzand burchi, odob-axloq me'yorlari, tejamkorlik, oilada mehnat tarbiyasi, mustaqil fikrga ega bo'lish sifatlarini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, ijtimoiy-siyosiy bilim berish jarayonida, zamon talablari, fan-texnika yutuqlarini anglagan holda, jamiyat va oila rivojiga o'z hissasini qo'shadigan salohiyatli inson bo'lib yetishi mas'uliyatini farzandlar ongiga singdirish muhim.

Mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilgan "Yoshlarga oid Davlat siyosati to'g'risidagi" Qonunning 5-moddasida: yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish¹⁰ yoshlar tarbiyasidagi asosiy yo'nalishlardan biri ekanligi belgilangan. Respublikamizda bu Qonunni amalga oshirish va ularning manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga qaratilgan bir-qancha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Ma'lumki yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda"¹¹, – deb ta'kidlab o'tganlar. Shuning uchun shaxs tarbiyasida oilaning o'zni muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni – shaxsning dunyoqarashini shakllantirishda, tafakkur darajasini kengaytirishda, ma'naviy salohiyatini

yuksaltirishda – eng muhim omil sanaladi.

Ta'lim – o'quvchi va talabalarga bilim berish, ularni tarbiyalash, rivojlantirish ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi sanaladi. Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; u yosh avlodni mujassam rivojlantirishga yo'naltirilgan umuminsoniy va milliy ijtimoiy tajribani o'quvchi va talabalarga uzluksiz taqdim etish jarayoni hisoblanadi¹². Buyuk yunon olimi, etika fanining asoschisi Aristotel miloddan 350 yil avval, "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", – degan so'zlarni aytgan. Demak, inson ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Ta'lim va tarbiya bilan shug'ullanishdan iborat bo'lgan barcha institutlar vazifasi, odatda o'z kuch-g'ayratini tizimning shaxsga ta'sirini takomillashtirishga qaratadilar. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat"¹³.

Shu sababli hammamiz uchun ilg'or bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Farzandlar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in – maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'zni va ahamiyati muhim bo'lib, davlatimizda bugungi kunda kichik yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini 28 foizdan 60 foizga yetkazishga, bolalar sonini esa 3 barobar ko'paytirilib, 14,2 mingtadan oshirishga erishildi. Bu ko'rsatkich 2025-yilga borib, 3-7 yoshdagi bolalarning 74,5 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni nazarda tutuvchi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi hayotga joriy etilmoqda.

Bu esa farzandlarimizning erta yoshdan jamiyat hayotiga moslashishiga, ongu-tafakkuri shakllanishiga zamin yaratadi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi", degan shior asosida maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylandi.

Yurtimizda iqtidorli o'quvchi-yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida zamonaviy

Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilishi, bu maktablarning ilk bitiruvchilarini qamrab olish uchun 2021-yil Yangi O'zbekiston universitetining ochilishi va faoliyatini boshlashi buning yorqin dalilidir¹⁴.

Hozirgi vaqtda respublikamizda 10 mingdan ziyod davlat umumta'lim, 171 ta nodavlat, 18 ta davlat – xususiy sheriklik shaklidagi maktablar faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, 56 ta matematika, 28 ta kimyo-biologiya, 14 ta axborot texnologiyalari fanlariga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi¹⁵.

"Yangi O'zbekistonning maktab bitiruvchisi zamonaviy ko'nikmalarni egallagan, axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo'lib shakllanishi zarur. Bu ezgu maqsadga erishish uchun maktablarning o'quv dasturlari, o'qitish uslubi, darsliklar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish bo'yicha boshlagan ishlarimizni albatta mantiqiy yakuniga yetkazamiz"¹⁶.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar samarasi sifatida o'tgan o'quv yilida yoshlarning xalqaro va mintaqaviy fan olimpiadalarida 45 ta oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritgani – muhim dalil hisoblanadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, ilm-fanning yangi o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinganlik darajasi muttasil oshirib borilmoqda. Bu ko'rsatkich 2016-yilda – 9%, 2020-yil – 25%, 2021-yilda – 28% , 2022-yilda esa – 38% ni tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" asarida "maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2030-yilda 60-70 foizga yetkazish – asosiy vazifamizdir"¹⁷, – deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" PF-5847-son Farmonida "oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy

soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish"¹⁸ masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

2021-yilda oliy o'quv yurtlarining soni 141 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda har bir viloyatda pedagogika universitetlari, institutlari va bir qancha oliy ta'lim muassasalari tashkil etilib, ularning soni hozirgi kunda 180 tadan ortib ketdi.

Mamlakatimizda yangi oliy ta'lim muassasalari, jumladan, xorijiy universitet va institutlarning filiallari tashkil etilib, kelajakda ularning sonini 200 taga yetkazilishi ko'zda tutilmoqda.

"Bularning barchasidan yaqona maqsadimiz – maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda ilmiy madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to'rt uzviy xalqasiga, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuniga aylantirishdan iborat"¹⁹.

Har bir mamlakatning taraqqiyotini, kelajagini bilimli va intellektual qobiliyatga ega aqlli odamlar ta'minlaydi. Intellektual va bilimli yoshlarning ko'payishi mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishiga olib keladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Yangi O'zbekistonni – obod va farovon, demokratik mamlakatni, Uchinchi Renessansni barpo etishda pedagoglar, professor-o'qituvchilar, ijodkor ziyolilarni eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Ularning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berishni o'z burchim, deb hisoblayman"²⁰.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ta'lim sifatiga, bilimli kadrlarni va keng dunyoqarashga ega bo'lgan komil insonni tarbiyalashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganligi, kelajakda ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ishtirok eta oladigan, rivojlanishning ijtimoiy jarayonlariga faol ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxsni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatlarini rivojlantirish uchun qo'yilgan muhim qadam hisoblanadi. Bu esa milliy mentalitetning rivojlanish darajasini, mamlakat taraqqiyotining kelajagini belgilaydi.

9 Otamurodov S. Globalashuv va millat. – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2008. – B.5.

10 "Yoshlarga oid Davlat siyosati" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2016 yil 14 sentyabr. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2016 yil.

11 Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir. // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. Jild 1. – Toshkent, "O'zbekiston", 2017. – B. 504-505.

12 Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent, Fan, 2008. – B. 118; 121-122.

13 Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Jild.2. – Toshkent, O'zbekiston, 2018. – 372.

14 "Yangi O'zbekiston" Universitetini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5158-son Qarori. 2021 yil 23 iyun. // <http://www.lex.uz>. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 24.06.2021 y.

15 Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatimiz maktablarini bitiruvchi o'g'il-qizlarimizga tabrigidan. 2021 yil 24 may. // <https://yuz.uz/>

16 Mirziyoyev Sh.M. Ustoz va murabbiylarga bayram tabrigidan. 2022 yil. 30 sentyabr. // <https://www.gazeta.uz/uz/2022/09/30/president/>

17 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 2021. – B. 226.

18 "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr. // <http://lex.uz/> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2019 y.

19 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 2021. – B. 57.

20 O'sha joyda. – B. 236.

MAHALLALARDA TABIIY EKOLOGIK MUHITGA EGA BO'LISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Jamshid Abdulahadovich Suvankulov - yuridik fanlar b.f.d (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola mahallalarda inson ekologik huquqlari yuridik mexanizmlarining yetarli emasligi tanqidiy tahlil qilindi. Bu borada, inson ekologik huquqlarini ta'minlash maqsadida Konstitutsiyani yanada takomillashtirishga oid asoslantirilgan takliflar bildirildi.

Аннотация: В данной статье критически анализируется неадекватность правовых механизмов экологических прав человека в соседних районах Узбекистана. В связи с этим внесены обоснованные предложения по дальнейшему совершенствованию Конституции в целях обеспечения экологических прав человека.

Adstract: This article critically analyzes the inadequacy of the legal mechanisms for environmental human rights in neighboring regions of Uzbekistan. In this regard, substantiated proposals have been made to further improve the Constitution in order to ensure environmental human rights.

Kalit so'zlar: mahalla, "Yashil makon", Konstitutsiya, inson ekologik huquqlari, ekologik siyosat, qulay atrof tabiiy muhit.

Ключевые слова: махалля, «Зеленое пространство», Конституция, экологические права человека, экологическая политика, комфортная среда.

Keywords: mahalla, "Green Space", Constitution, environmental human rights, environmental policy, comfortable environment.

Mahallalarda insonning ekologik huquqlarini, jumladan qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini zamon talabiga mos ravishda takomillashtirib borish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 2-fevral kunidagi ekologiya masalasiga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "mahallardagi ekologik muammolarni bartaraf etish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilishini davom ettirish, 2022-yil 1-martdan "Yashil yillik" umummilliy loyihasi boshlanishi, unda har bir hududning iqlimiga mos, kam suv talab etadigan ko'chatlarni yetishtirish va ko'paytirish zarurligi" yuzasidan muhim topshiriqlar berildi.

Mamlakatimizda ekologiya masalalarida mahallalarning ishtirokini ta'minlash, shuningdek, insonning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash masalasiga davlat siyosati

darajasida etibor qaratilib, uning huquqiy asoslari mustahkamlangan.

O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hududida inson ekologik huquqlarini, jumladan qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish ta'minlash yo'llarini ilmiy tadqiq etish va amaliy takliflar ishlab chiqish hozirgi davr talabiga aylandi.

Mamlakatimizda ekologik huquqlar bo'yicha muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada lekin², ularda mahallalardagi inson ekologik huquqlari muammosi hozirgacha alohida masala sifatida tadqiq etilmagan. Shuning uchun mazkur muammoni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishtirokida hal qilish yo'llarini ilmiy yondashuv orqali huquqiy-amaliy asoslash muhimdir.

Umuman olganda, ekologik huquqiy muammolarni hal etish jarayonini atroflicha tadqiq etish mutaxassislarining diqqat markazida

turgan dolzarb muammolaridan biri sifatida qoladi. Su bois ekologik faoliyatdagi huquqiy muammolarning yechimini topishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari oldida turgan muhim vazifalarni tadqiq muhim sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimida inson huquqlarini tahminlash borasida bir qator xalqaro shartnomalarga amal qilinib kelinadi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "mamlakatimiz inson huquqlari bo'yicha 70 dan ortiq xalqaro shartnomaga qo'shildi"³.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining inson ekologik huquqlarini tahminlashda "ishtirok etish" instituti ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida belgilangan⁴.

Bu esa davlatning ekologik siyosatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi yana bir bor qo'yilgan katta qadam bo'lib hisoblanadi. Shunday ekan, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning asosidagi mavjud ekologik qonunchilik normalarini qayta ko'rib chiqish va amaliyotga joriy qilish mexanizmini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bu ishlarning hozirgi vaqtda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida bo'lishi mavzuning yanada dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Jamiyatda tabiatni muhofaza qilish normalarini amalga oshirishning ishonchli mexanizmi yaratilmasa, ekologik qonunchilikning o'zi har qancha takomillashtirilsin, mahallalardagi aholining qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlashga qodir bo'la olmaydi. Ekologik qonunchilikni amalga oshirishning samaradorligi uni to'xtovsiz dolzarblashtirish hisobigagina emas, balki mavjud qonunlarning ijro etish intizomini mustahkamlash hisobiga ham ta'minlash mumkin.

Aholining ekologik - huquqiy ongini yuksaltirish va fuqarolarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash mazkur muammoni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining tegishli qonunchilikda belgilangan tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan vakolatlariga taalluqli inson ekologik huquqlari masalasi ham ekologiya huquqi sohasidagi muhim ahamiyatga molik masala deb, hisoblaymiz.

Insonni va uning ekologik huquqlarini muhofaza qilish ekologik tizimning o'ziga xos rivojlanish bosqichlarida namoyon bo'lib, mazkur jarayonda tabiatni muhofaza qilishdan tabiat resurslaridan oqilona foydalanish bosqichiga o'tilishi insonning bevosita muhofaza obyektiga ekanligini anglatadi⁵.

Ammo, R.Ikramovning fikricha, bu yerda obyekt sifatida aynan tabiatning yoki insonning o'zi emas, balki fuqarolarning ekologik huquq va manfaatlari namoyon bo'ladi⁶.

Fikrimizcha, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hududida yoki unga yaqin hududda bevosita istiqomat qiladigan fuqarolar tabiatni muhofaza qilishda va undan foydalanishda mahalla tuzilmalarining ekologik vakolatlarini

bilvosita tarzda yoxud o'zlariga tegishli ekologik huquqlarini bevosita amalga oshirishlari mumkin.

Bunda fuqarolar o'z ekologik huquqlarini mahalla tarkibida yoki o'zlarining xohishlariga ko'ra individual tarzda amalga oshirganda ham inson huquqlari tahminlanadi.

Demak, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ekologik vakolatlari va inson ekologik huquqlari bevosita bir-biriga bog'liq va uzviylikda amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi.

Ushbu bog'liqlikni quyidagilarda ifodalash mumkin:

aholining bevosita fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hududida yashashi;

mahallaning ekologik vakolatlari bevosita mahalla hududi va mana shu mahalla fuqarolarining manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilganligi;

inson ekologik huquqlarining amalga oshirilishi mahallaning ekologik vakolatlari amalga oshirilishi bilan uyg'un ekanligi;

deyarli barcha ekologik qonunchilikda fuqarolar va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishga oid vakolatlari bir xil etib belgilanganligi;

fuqarolarning ekologik huquqlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlariga bevosita taalluqli ekanligi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari doirasiga taalluqli inson ekologik huquqlari bu - fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining tegishli hududida yoki unga yaqin hududda doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan insonlarning (fuqarolarning) atrof muhitni muhofaza qilish, tabiat resurslaridan foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga oid O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlangan huquqlaridir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ekologik vakolatlariga taalluqli inson ekologik huquqlarining qonunchilik asoslari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54, 55-moddalarida fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburiyati hamda shaxs va jamiyatning ekologik talablari aks ettirilgan. Konstitutsiyaning 54-moddasida "Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart" deyilgan⁷. Ya'ni ushbu moddada mulkdor o'z mulkidan foydalanayotganda atrof tabiiy muhit holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin emasligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida esa shunday deyilgan: "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir"⁸.

Bundan tashqari, O'zbekistonda ekologiya sohasida bir qancha qonun hujjatlari ham mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini

1 *Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ekologik muammolarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi, 2022 yil 2 fevral // https://president.uz/uz/lists/view/4955*

2 *Бу ҳақда қаранг: Жураев Ю.А. Право и управление в области использования и охраны природной среды Республики Узбекистан: Дис. ... докт. юрид. наук. –М., 1996. –С. 362.; Файзиёв Ш.Х. Теоретические проблемы правового обеспечения экологической политики Республики Узбекистан: Дисс... докт. юр. наук. -Ташкент: 2004; Холмунинов Ж.*

Эколога - правовые проблемы рационального использования и охраны орошаемых земель в Республике Узбекистан: Автореф. дисс... докт.юр.ид.наук. -Алма-ата, 1997. -45с.;

Икрамов Р.А. Правовые основы участия общественных институтов в обеспечении экологических прав человека в Республике Узбекистан.// Вестник Пермского университета, 2010 г. Выпуск 2(8), ст.37-41., Умаров Д. Махалля как важнейший фактор защиты экологических прав граждан. ТДЮИ Ахборотномаси, -№2, 2011.-Б.102-104; Сафаров Дж.

Экология соҳасида қонун ҳужжатлари тизими ва уларни кодификациялаш. Юридик фан. доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс.Т., ТДЮУ, 2018. - Б. 338;

Нарзуллаев О. Узбекистонда биологик ресурсларни муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш. Юридик фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Т. 2020, -Б. 71.; Утегенов О.Д. Экология соҳасида жамоатчилик назоратини ҳуқуқий таъминлашни такомиллаштириш. Юридик фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Т. 2020, -Б. 57; Узакова Г.Ш. Аҳоли пунктларида табиий ресурслардан фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий тартиби. Юридик фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Т. 2021, - 69 б.; Даминов А. Экологик суғуртани ҳуқуқий таъминлаш муаммолари. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Автореферати. Т., 2022. –Б.51; Суванкулов Ж.А. Экологик фаолиятда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари иштирокининг ҳуқуқий масалалари. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Автореферати. Т., 2022. –Б. 54.

3 Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishidagi nutqi, 2020 yil 20 yanvar // www.president.uz

4 Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. www.Lex.uz

5 Николаев А.В. Основы экологического права и проблемы экологии. Санкт-Петербург:Знание, г. 2001. ст. 60.

6 Икрамов Р.А. Фуқароларнинг экологик ҳуқуқлари ва уларни таъминлаш. –Т. "Университет". 2008. 5 б.

7 Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Т.: Uzbekiston. // www.Lex.uz

8 Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Т.: Uzbekiston. // www.Lex.uz

muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi kabi qonunlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari - mahallalardagi insonlarning ekologik huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tabiatni muhofaza qilish haqidagi Qonunning 12-moddasida insonning ekologik huquqlari haqida: "O'zbekiston Respublikasi aholisi o'z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqiga ega ekanligi, ana shu maqsadda aholi tabiatni asrash bo'yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof muhitning ahvoli va uni muhofaza qilish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqiga ega ekanligi" qayd qilingan.

Atmosfera havosini muhofaza qilish haqidagi Qonunning 4-moddasida "fuqarolar o'z hayoti va sog'lig'i uchun qulay atmosfera havosidan foydalanishi, atmosfera havosini asrash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida tegishli davlat organlaridan o'z vaqtida axborot olishi, o'z sog'lig'iga va mol-mulkiga zarar yetkazilganda mazkur zararining o'rnini qoplanishini talab qilishi hamda atmosfera havosini muhofaza qilish masalalari bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish va jamoat ekologik ekspertizasini amalga oshirishda ishtirok etishi"⁹ kabi huquqlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarga alohida bob ajratilib, ekologik huquqlar masalasiga o'rin ajratilmagan. Bu esa hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etayotgan bunday huquqlarning qonunchilik hujjatlarida belgilansa-da, ammo bu holat, yahni insonning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari yetarlicha

ta'minlanmaganligini ko'rsatadi.

Asosiy Qonundagi bunday kamchilikni bartaraf uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bobini "Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik huquqlar" sifatida o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki, amaldagi bobda ("Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar") insonning ekologik huquqlari aks etmay qolgan. Shuning uchun mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida Konstitutsiyani yanada takomillashtirish zarur. Ya'ni, alohida normada "Har bir inson qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqiga egadir" tarzida bayon qilish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar qisqa, takrorlanmasligi va o'zgarishlar mazmuni aniq aks etadigan tarzda bo'lishi, uning Asosiy Qonun sifatidagi ahamiyatiga mos bo'lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda "inson - mahalla - ekologik huquqlar" tamoyili insonning ekologik huquqlarini ta'minlashda fuqarolik jamiyati sharoitida o'ziga xos kafolat tizimi ekanligi, bu tamoyilning haqqoniyligi davlat va uning ekologik manfaatlarini uchun ahamiyatli ekanligi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ekologik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini tegishli tartibda ta'minlash zarurligini inobatga olish lozim.

Bunday sharoitda amalga oshirilayotgan oqilona ekologik siyosat va ekologik - huquqiy muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, ularni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish mahallalardagi insonning ekologik huquqlarini, jumladan qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi, deb o'ylaymiz.

JAMIYATDA MULKDORLAR QATLAMINING RIVOJLANISHI GENEZISI VA TRANSFORMATSIYASI

Adiba Ergashevna Shaymanova - dotsent, Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mulk va mulkdorlar qatlami tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati hamda ularning shakllanish va o'zgarish jarayonlarining genezisi yoritilgan.

АННОТАЦИЯ: В данной статье освещается социально-философская природа понятий собственности и словес собственников, а также генезис процессов их формирования и изменения.

Abstract: In this article, the socio-philosophical nature of the concepts of property and the strata of owners, as well as the genesis of the processes of their formation and change, are highlighted.

Kalit so'zlar: mulk, mulkdorlar qatlami, mulk munosabatlari, davlat mulki, xususiy mulk, urug', qabilalarning jamoaviy mulki, o'rta mulkdorlar qatlami, egalik qilish.

Ключевые слова: собственность, собственнический слой, имущественные отношения, государственная собственность, частная собственность, род, родовая коллективная собственность, средний собственнический слой.

Keywords: property, owner stratum, property relations, state property, private property, clan, tribal collective property, middle owner stratum.

Ma'lumki, jamiyat ijtimoiy-sinfy strukturasi bazasini mulkdorlar qatlami

⁹ www.Lex.uz
¹⁰ www.Lex.uz

tashkil etadi. Mulkdorlar qatlami - keng miqyosdagi moddiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli darajada barqaror daromadga ega kishilarning ijtimoiy guruhi hisoblanadi. Ularning boyligi yoki mulki, daromadi «munosib» turmush sifatini ta'minlash uchun yetarli darajada bo'ladi. Shuning uchun, ham mulkdorlar qatlamining vujudga kelishi va rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik bilan bevosita bog'liq.

Jamiyatning rivojlanishi va taraqqiy etishiga asos bo'luvchi mulkdorlar qatlami tushunchasiga o'tishdan oldin, mulk nima degan savolga to'xtalib o'tish joizdir. Zero, mahalliy faylasuflar va iqtisodchilarning davlat mulkchilik nazariyasini kelib chiqishiga va uning rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasiga qaramay, uning mohiyati va mazmunini, mulk shakllarining genezisi va tuzilishini aniqlash masalalari munozarali bo'lib qolmoqda.

Mulk tushunchasi ming yillar davomida huquqshunoslar, siyosatchilar, iqtisodchilar va faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Ammo, shuni ta'kidlash kerakki, qadimgi davrlarda mulkning roli va o'rnini haqida nisbatan kam ma'lumotlar mavjud. Eng sodda va qo'pol o'xshatish, mulk - bu narsaga o'zinikidek munosabatda bo'lishdir. Yoki, ayrim olimlarning fikricha, mulk haqidagi eng qadimgi va eng oddiy tushunchalar "sizniki va meniki" dixotomiyasiga (Dixotomiya yunoncha dixotomiya: dixos, «ikkida» + tok, «bo'linish») qurilgan tushunchalardir.

Tarixan bu munosabatlar turli mazmun bilan to'ldirilib kelingan. Jumladan, tarixchilarning fikriga ko'ra, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida, shaxsiylashtirilgan narsalarga (zamonaviy ma'noda, taxminan ba'zi shaxsiy buyumlar, qurollar va zargarlik buyumlar) egalik qilishga nisbatan, mulk huquqi haqida gapirish mumkinligi e'tirof etilgan. Ko'chmanchi turmush tarziga ega bo'lgan va ibtidoiy dehqonchilik bilan shug'ullangan holda hayot kechirayotgan kishilarda mulkga egalik qilishning ular uchun iqtisodiy ehtiyoji yo'q edi. Chunki ularning ma'lum bir hududga egalik qilishi, ushbu qabila uchun faqat qisqa vaqt ichida (oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun qulay vaqt) manfaat keltirishi bilan izohlanadi. Sababi, yer tugagach, qabila yangi joyga jo'nab ketadi.

Shuningdek, tilshunoslar tomonidan olib borilgan izlanishlar qadimgi "egalik", "egalik qilish" so'zlariga borib taqaladigan "mulk" tushunchasini bildiruvchi zamonaviy atamalarining yanada chuqur ildizlarga ega

ekanligini ko'rsatadi. Rus tilida "mulk" so'zi "sob", "sobina" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, hozirda eskirgan, bu o'z mulkini va ayni paytda shaxsni anglatadi². Mashhur huquqshunos olimlar V.A.Venediktov, P.A.Argunovaning ta'kidlashicha, "sobina" atamasi ma'lum darajada mulkni anglatadi³.

Darhaqiqat, tarixan odamlar ongida dastlab yerga, o'rmonlarga, yaylovlarga va boshqa asosiy resurslarga jamoa mulki bo'lishi haqidagi g'oyalar shakllangan. Yakka tartibdagi mulk asosiy mulk sifatida emas, balki u jamoaning yashash vositasi, jamoa mulkiga qo'shimcha mulk bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, yuzaga kelgan, nisbatan kichik oilaviy fermer xo'jaliklarining shakllanishi nafaqat jamoalar o'rtasida, balki jamiyat ichidagi mulk huquqini tartibga solishni talab qila boshladi. Natijada, mulkni jamiyat ichidagi tartibga solish asta-sekin nafaqat shaxsiy uy-ro'zg'or buyumlarini, balki tobora kengroq doirani ham qamrab ola boshladi.

Ko'rinib turibdiki, antik davrda shahar va davlatlarning paydo bo'lishi ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishiga bilan belgilangan. Biroq, mulk (yoki uning o'rnini bosuvchi antik davr institutlari) haqidagi g'oyalarni talqin qilishda tarixchilar faqat bir jihatini ko'rsatadilar: ular bunday tadqiqotlarni o'tkazishning qiyinligini ta'kidlaydilar. Boy adabiy manbalardan biri bo'lmish "Avesto"ning bugungi kungacha yetib kelgan qismlarida bugungi kunda fuqarolik huquqida salmoqli o'rin egallagan mulk, shartnoma, majburiyatlarni tartibga soluvchi qoidalarni ko'rishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, "Avesto"da mulk munosabatlari kishilarning ijtimoiy hayotiga asoslangan mulk turi bo'lib, unda mulkka qabila oqsoqollari yoki oqsoqollar jamiyati tegishli bo'lgan va ularni boshqargan⁴. Ya'ni jamiyat rahbari jamiyat mulkini boshqargan, bu jamiyat a'zolarining kundalik ehtiyojlarini qondirish bilan birga jamiyatning harbiy iqtisodiy qudratini mustahkamlashda ham katta o'rin tutgan. Agar bu mulkiy holatni hozirgi zamon mulkiy munosabatlari bilan qiyoslasak, «Avesto»da jamiyatning ayrim vazifalarini davlat mulkining mohiyatiga juda yaqin bo'lgan jamoat mulki bajarganligini ko'ramiz. Bundan tashqari, markazlashgan davlatlar mavjud bo'lmagan davrda davlat boshqaruvining iqtisodiy asosi mulk bo'lgan, shuning uchun odamlar jamiyatini boshqarish uchun hukmronlik asosi sifatida mulk zarur deb hisoblangan.

Bundan xulosa qilish mumkinki,

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B8%D1%85%D0%BE%D1%82%D0%BE%D0%BC%D0%B8%D1%8F>

² В словаре древнерусского языка отмечается, что собина – «то, что принадлежит кому-то, собственность, имущество» и приводится цитата из источника XV в.: «Купил есми... деревню Сарьскую на Юэ с хлебом и сьяны, опрочь половинич и половины. Да их собины, и с пустошьми и с лъсы с пожнями» (1493 г.) (187, с. 14).

³ Вenediktov A.B. Избранные труды по гражданскому праву: В 2-х т. – М.: Статут, 2004. – Т. 2. – 557 с.

⁴ Imomov, N. F. Avesto fuqarolik huquqining manbai / N. F. Imomov. - Matn: to'g'ridan-to'g'ri // Yosh olim. - 2014. - No 5 (64). - S. 353-355. - URL: <https://moluch.ru/archive/64/8234/>.

“Avesto”da jamiyatning mulkiy munosabatlarda ishtirok etishi fuqarolik huquqiga ko'ra, maqsadli huquqiy qobiliyatdir. Jamiyat rahbarining asosiy vazifalari sifatida jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirish, harbiy qudratni kuchaytirish bilan jamiyat xavfsizligi va qudratini ta'minlashga qaratilgan.

Zero “Avesto” davrida davlat va jamiyatning iqtisodiy vazifalari, birinchidan, jamiyatning harbiy qudratini mustahkamlash bo'lsa, ikkinchidan, boshqa qabilalar bilan bo'lgan janglarda ham befarq qolish belgilab qo'yilgan edi.

Binobarin hamma narsani “qurol va kuch” hal qilgan bir paytda mulk taqsimotini ham harbiy kuch hal qilgan. Jamiyatning asosiy boyligi oqsoqollar, lashkarboshilar va obro'li kishilar qo'lida bo'lgan. Jamiyatning erkin a'zolarining asosiy boyligi, ya'ni chorvadorlar, askarlar, hunarmandlar chorva, ishlab chiqarish qurollari bo'lgan. “Avesto”da yer nafaqat mulkiy munosabatlar obyektini, balki insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishning ma'naviy vositasi ham sanaladi. Binobarin, “Avesto”da ko'chat ekish har bir insonning ma'naviy burchi hisoblanishi, ekmaslik baxtsizlik va gunoh keltirishi ta'kidlangan⁵.

Darhaqiqat, “Avesto”da mustahkamlangan qoidalar yerga munosabatni belgilabgina qolmay, balki mulkning paydo bo'lishining asosini ham belgilaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, “Avesto”da hosil va hosilning o'zi dehqon yoki yer egasining mulki hisoblanadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkin, “Avesto” davrida mulk va mulk masalalari jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan bo'lib, odamlarning jamiyatdagi mavqei mulkning miqdori va iqtisodiy xavfsizligi bilan belgilangan.

Zero, “bundan 2700-yil muqaddam “Avesto”da “inson” tushunchasiga berilgan ta'rifda tirik organizm va uning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji rivojlangan jamiyatda bu oziq-ovqatni mulk yordamida ta'minlash⁶” mumkin deb bekorga aytilmagan.

Shuni ta'kidlash kerakki, “Avesto” davrida ijtimoiy munosabatlar jamiyat mulki va jamiyat manfaatlari asosida o'rnatilgan bo'lsada, odamlar mulkka egalik qilish huquqiga ega bo'lgan. X. Baboyev, T. Do'stjonov, S. Xasanovlar “Avesto”dagi mulkchilik va xo'jalik munosabatlari masalalarini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldilar: Vindidata fikricha, odamlar ko'chmas mulk egasi bo'lgan, deyishga asos bor. Ya'ni, turar-joylar, ekin va bog'lar, yirik va mayda mollar kishilarga tegishli mulk hisoblangan. Shuningdek, mulk egasi o'z

mulkiga egalik qilish va foydalanish bilangina cheklanmay, u mulkni boshqa shaxsning ixtiyoriga o'tkazishni, shuningdek, shartnoma bo'yicha boshqa shaxsning mulkiga ham egalik qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Mulk konsepsiyasining rivojlanishi nuqtai-nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, unda insoniyatning o'zini-o'zi rivojlanishini aks ettiradi. Mutaxassislar fikricha, tarixan olib qaraydigan bo'lsak, vaqtlar o'tishi bilan, ba'zi ijtimoiy davrlar boshqalari bilan almashinadi va har doim ham evolyutsion, ham inqilobiy o'zgarishlarning asosiy tugunlaridan biri mulk bo'lib kelgan. Shundan kelib chiqib, “mulk” tushunchasining rivojlanishining asosiy bosqichlarini va ushbu turkumning zamonaviy mazmunini tashkil etgan qonuniyatlarni ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, ibtidoiy jamoa tuzumida mulk odamlarning birgalikdagi faoliyat jarayonida o'zlashtirgan mehnat qurollari va tabiiy hududlargacha bo'lgan urug', qabilalarning jamoaviy mulki sifatida tavsiflangan.

Mehnatning dehqonchilik va chorvachilikka bo'linishi mehnat unumdorligining o'sishiga va mulkiy munosabatlarning rivojlanishiga, dehqonchilik madaniyatining shakllanishiga – oila mulkining qabila mulkidan ajralishiga sabab bo'ldi. Xususiy mulkning alohida tushuncha sifatida vujudga kelishini Rimdagi respublikaning qadimgi davri misolida yaqqol ko'rish mumkin, bunda xususiy mulk proprietar (proprietar - xususiy, egalik, egalik qilish degan ma'noni bildiradi) atamasi bilan belgilangan. Rimliklar mulk huquqini tashkil etuvchi vakolatlar to'g'risidagi keng ta'limotni ishlab chiqqan bo'lsalar ham, mulkka aniq ta'rif bermaganlar. Darhaqiqat, “Xususiy mulkdor o'z narsasi bilan o'ziga to'g'ridan-to'g'ri taqiqlanmagan hamma narsani qilish huquqiga ega degan rim huquqshunoslarining o'zining yorqinligi va shu bilan birga keng qamrovli tezisi⁷” mavjud bo'lib, u bugungi kunda ham muhim ahamiyatga egadir. Darvoqe, Rimda ushbu konsepsiyani yaratilishiga sabab u yerda yuzaga kelgan sivilizatsion jarayongina emas balki, “o'sha davrdagi Osiyo huquqiy fikr yodgorliklarida mulk batafsil huquqiy tartibga solingan⁸”ligini ko'rish mumkin. Shuningdek, shuni alohida ta'kidlash lozimki, qadimiy davrning turli mamlakatlarida mulkka oid xulq-atvor qoidalari faqat tafsilot darajasida farq qilgan bo'lib, ular umumiy yo'nalishda emas edi. Zero, o'sha davrda mulkchilik ta'limotining rivojlanishini quldorlik davri bilan bevosita bog'liq bo'lib,

5 Imomov, N. F. Avesto fuqarolik huquqining manbai / N. F. Imomov. - Matn: to'g'ridan-to'g'ri // Yosh olim. - 2014. - No 5 (64). - S. 353-355. - URL: <https://moluch.ru/archive/64/8234/>

6 Imomov, N. F. Avesto fuqarolik huquqining manbai / N. F. Imomov. - Matn: to'g'ridan-to'g'ri // Yosh olim. - 2014. - No 5 (64). - S. 353-355. - URL: <https://moluch.ru/archive/64/8234/>

7 <https://jurisprudence.club/pravo-grajdanskoe/istoriya-ponyatiya-sobstvennosti.html>

8 <https://jurisprudence.club/pravo-grajdanskoe/istoriya-ponyatiya-sobstvennosti.html>

mulkka egalik qilish - qadimgi davrda barcha munosabatlarning modeli hisoblangan deyish mumkin.

Ma'lumki, feodal davrga kelib, yerga egalik namuna hosil qiluvchi mulk sifatida birinchi o'ringa chiqdi. Feodal tuzumning asosiy huquqiy belgisi lug'atchilar tomonidan asoslab berilgan bo'lingan yoki bo'lingan mulk (dominium divisum) haqidagi ta'limot edi. “Bo'lingan mulk (dominium divisum), Rim mulk huquqining bo'linmaslik haqidagi an'anaviy ta'limotidan farqli o'laroq, bo'lingan mulk modeli feodal jamiyatiga xos bo'lsa-da, Rim huquqida allaqachon paydo bo'lgan⁹”. Ushbu ta'limotning amaliy natijasi turli vakolatli subyektlarning (syuzeren va vassal) yerga nisbatan manfaatlarini taqsimlash edi. Shunday qilib, feodal jamiyatida bo'ysunuvchi mulkdorning biror narsaga faqat ma'lum chegaralarda egalik qilish va undan foydalanish imkoniga ega bo'lgan, unga nisbatan oliy mulkdorning huquqlarini buzilishiga yo'l qo'yilmagan.

Shuningdek, Rossiyada yuzaga kelgan feodalizm davrida “mulk” va “egalik huquqi” atamalari kech bo'lsada shakllandi va qonunchilikda (bunga misol, 1767-yildagi Yekaterina II ning Bosh prokurorga buyrug'i; 1782-yil Manifest. “Dvoryanlarning yerga egalik huquqini tasdiqlash to'g'risidagi¹⁰” qo'llanila boshlandi.

Shu bilan birga, burjua inqiloblari davrida hamma joyda, birinchi navbatda, xususiy mulkni ayniqsa ishlab chiqarish vositalarini qo'llab-quvvatladi. 1789-yilda Fransiyaning Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasiga asosan mulk “tabiiy” va “ajralmas” huquq deb e'lon qilindi. Har bir shaxs o'z mulkini, kapitalini va eng muhimi, o'z daromadi va ishlab chiqarishini tasarruf etishga qodir bo'lgan xo'jayin deb e'lon qilindi. Agar dastlab mulk shior, shaxsiy va iqtisodiy erkinlik ramzi sifatida qabul qilingan bo'lsa, keyinroq, inqilobiy ehtiroslar susaygandan so'ng, u o'ziga xos mulkiy konturlarga ega bo'ldi.

Shuningdek, mutaxassislar fikricha, XX asr islohotlaridan so'ng, Rossiyaning

iqtisodiy rivojlanishiga turtki bo'lgan yangi sinf - burjuaziyaning xususiy mulki hisoblangan. Sobiq Sovet davrida mamlakatimizda kapitalistik o'tmishning yodgorligi sifatida xususiy mulkka nisbatan umuman salbiy munosabat siyosiy va huquqiy jihatdan (birlashmalarni yo'q qilish uchun u hatto “shaxsiy” deb ham o'zgartirildi) o'rnatildi. Darhaqiqat, aynan iqtisodiy siyosat, jumladan, mulk masalasi va jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlik kelib chiqdi va ushbu davr uchun chuqur salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Mulk – iqtisodiy kategoriya bo'lib, - mulk obyektini tasarruf etish, egalik qilish va undan foydalanish huquqiga ega bo'lgan subyektga tegishlilikni tavsiflovchi taqsimlash (o'zlashtirish) bilan bog'liq tarixiy rivojlanayotgan ijtimoiy munosabatlar shaklidir. Muayyan subyektga - mulkdorga tegishli bo'lgan narsalarning yig'indisi tegishli shaxsning mulkini tashkil qiladi, shuning uchun ushbu munosabatlar mulkiy munosabatlar deb ham ataladi¹¹.

Mulk – huquqiy kategoriya sifatida - huquq subyektining o'z mulkiga nisbatan ega bo'lishi mumkin bo'lgan huquqlarning eng to'liq majmui¹² hamdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida mulkchilik va uning asosida mulkdorlar qatlamini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu avvalo, “mulkdorlar qatlami” to'g'risidagi g'oya va qarashlarning ma'no-mohiyatiga, uni jamiyat rivojlanishi bilan qanday tarzda bog'lab tushunishga, talqin etilishi, hamda hayotga tadbqiqabog'liq bo'ladi. Shuningdek, mulkdorlar qatlami, bir tomondan, jamiyatning insoniyat rivojlanishidagi o'rni, roli va xususiyatlarini baholash uchun ma'lum bir koordinatalar tizimini shakllantirishga, ikkinchi tomondan, uning hozirgi holatini (oldindan shartlar, mustaqillik yillaridagi islohotlarning mazmuni va oqibatlari) va keyingi rivojlanish istiqbollari aniqlashga yordam beradi.

9 <https://studfile.net/preview/9478629/page:2/>

10 <https://studopedia.info/1-88582.html>

11 Собственность. Большая советская энциклопедия.

12 Гражданское право. Учебник / В. П. Мозолин, А. И. Масляев. - М.: Юрист, 2007. - Т. I. - С. 362. - 719 с.

XOTIN-QIZLARNING DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TIZIMIDAGI O'RNI

Refide Izmerovna Ablyakimova - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi o'rnini, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqiy manfaatlarini hamda bandligini ta'minlash masalalari yoritilgan.

Аннотация: В статье рассматривается роль женщин в государственном управлении, повышении их общественно-политической активности, обеспечении их законных интересов и занятости.

Abstract: The article discusses the role of women in public administration, increasing their social and political activity, ensuring their legitimate interests and employment.

Kalit so'zlar: davlat, jamiyat, boshqaruv, xotin-qizlar, gender tengligi, barkamol avlod, rahbar.

Ключевые слова: государство, общество, управление, женщины, гендерное равенство, гармонично развитое поколение, лидер.

Keywords: state, society, management, women, gender equality, harmoniously developed generation, leader.

O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmoqda. Xususan, gender tengligini ta'minlash davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida ustuvor vazifa sifatida qo'yilmoqda. Bunda xotin-qizlarning jismoniy imkoniyatlari erkaklar imkoniyatlaridan qolishmaydi, degan yondashuv bilan emas, balki har bir sohaga faqat erkaklar yondashuvi bilan emas, xotin-qizlar "ko'zi" ham qarash lozimligi nazarda tutilmoqda. Chunki respublikada xotin-qizlarning erkaklar bilan ulushi deyarli teng. Bunday nisbat boshqaruvda ham nisbatan aks etishi mantiqan olganda ham to'g'ri yondashuv hisoblanadi. Davlat rahbarining o'zi shu yondashuvdan kelib chiqib, davlat hokimiyatining markaziy tarmoqlarida xotin-qizlarni ulushini oshirish muhim masala ekanligini uqtirib kelmoqda. Natijada Oliy Majlis Qonunchilik palatasida xotin-qizlar ulushi 32 foiz, Senat a'zolarining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, mahalliy kengashlar deputatlarining qariyb 25 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 26 foizga, tadbirkorlikda 25 foizga yetdi. Bu faqat vakillik hokimiyati tarkibida xotin-qizlar ulushi, xolos. Bundan tashqari, tegishli lavozimlarga xotin-qizlar nomzodini shakllantirish ham mana shu yo'nalishdagi vazifalarning bir qismi hisoblanadi. Ya'ni, rahbarlikka xazira kadrlarni shakllantirishda xotin-qizlardan istiqbolli kadrlar ro'yxatini tuzish ham ularni rahbarlikka tayyorlashning tizimli mexanizmi bo'layapti. Ushbu yo'nalishdagi raqamlarga e'tibor bersak rahbarlikka xaziraga olinganlar 2016-yilda 3 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda ularning soni 15 mingdan oshdi¹.

Bularning barchasi xotin-qizlardan rahbarlikka tayyorlashning o'ziga xos institutsional mexanizmi hisoblanadi.

Aytib o'tilganidek, O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmoqda. Xususan, gender tengligini ta'minlash davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida ustuvor vazifa sifatida qo'yilmoqda. Bunda xotin-qizlarning jismoniy imkoniyatlari erkaklar imkoniyatlaridan qolishmaydi, degan yondashuv bilan emas, balki har bir sohaga faqat erkaklar yondashuvi bilan emas, xotin-qizlar "ko'zi" bilan ham qarash lozimligi nazarda tutilmoqda. Chunki respublikada xotin-qizlarning erkaklar bilan ulushi deyarli teng. Bunday nisbat boshqaruvda ham nisbatan aks etishi mantiqan olganda ham to'g'ri yondashuv hisoblanadi. Davlat rahbarining o'zi shu yondashuvdan kelib chiqib, davlat hokimiyatining markaziy tarmoqlarida xotin-qizlarni ulushini oshirish muhim masala ekanligini uqtirib kelmoqda. Natijada Oliy Majlis Qonunchilik palatasida xotin-qizlar ulushi 32 foiz, Senat a'zolarining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, mahalliy kengashlar deputatlarining qariyb 25 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 26 foizga, tadbirkorlikda 25 foizga yetdi. Bu faqat vakillik hokimiyati tarkibida xotin-qizlar ulushi, xolos. Bundan tashqari, tegishli lavozimlarga xotin-qizlar nomzodini shakllantirish ham mana shu yo'nalishdagi vazifalarning bir qismi hisoblanadi. Ya'ni, rahbarlikka xazira kadrlarni shakllantirishda xotin-qizlardan istiqbolli kadrlar ro'yxatini tuzish ham ularni rahbarlikka tayyorlashning tizimli

mexanizmi bo'layapti. Ushbu yo'nalishdagi raqamlarga e'tibor bersak rahbarlikka xaziraga olinganlar 2016-yilda 3 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda ularning soni 15 mingdan oshdi². Bularning barchasi xotin-qizlardan rahbarlikka tayyorlashning o'ziga xos institutsional mexanizmi hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ijtimoiy faol xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning el-yurt oldida ko'rsatgan xizmatlarini munosib rag'batlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilayapti. Davlat rahbarining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-apreldagi "Mo'tabar ayol" ko'krak nishonini ta'asis etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'asis etildi. Mazkur qarorga ko'ra, "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishiga va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan, shuningdek, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik va istiqloq g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash, joylarda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish va milliy qadriyatlarimizni keng targ'ib etish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar taqdirlanadi³. Bunday mukofot bilan yaxshi farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan ayollar, jumladan, uy bekalaridan 2018-yilda 855 nafari, 2019-yilda 290 nafari, 2020-yilda 287 nafari, 2021-yilda 278 nafari, 2022-yilda 282 nafari taqdirlandi. Mana bu ham tariximizda bo'lmagan siyosat edi⁴.

"Ayollar daftari" bilan manzilli ishlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ular o'rtasida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ayollarimiz ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, ularning muammolarini o'rganish va hal etish borasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar hamda erishilayotgan natijalar oshib borayapti⁵. Magistratura bosqichida o'qishini

davom ettirgan talaba-qizlar soni 2019-yil 4 ming 488 nafarni, 2020-yilda 12 ming 855 nafarni, 2021-yil 13 ming 600 nafarni tashkil etadi⁶. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi "Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoz qizlar va boquvchisi yo'q yolg'iz ayollar oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 585-son qarori⁷ bilan ota-onasi va ularning biridan ayrilgan muhtoz qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollar oliy ta'lim olishlarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2021/2022 o'quv yilidan boshlab har yili o'qishga kirgan 25 nafardan hamda 2-4-kurslarda tahsil olayotgan 75 nafar (har bir kursdan – 25 nafardan), jami 100 nafar xotin-qizlar uchun kontrakt summasini to'rt o'quv yilining yakunlanguniga qadar to'lab beradi. Moliyaviy barqaror oliy ta'lim muassasalari kengashlarining qaroriga muvofiq 50 nafargacha xotin-qizlar birinchi o'quv yilida bepul o'qitib beriladi. Bunda abituriyentlarga ikkinchi va undan keyingi o'quv yillari uchun ta'lim kreditlari rasmiylashtiriladi. Hokimiyatlar o'z hududlaridagi talabgorlar uchun uchinchi shaxs kafilligini beradi va o'qishni tamomlagandan so'ng ularni ish joyi bilan ta'minlaydi. Talabgorlarni tanlab olish quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi: otasi yoki onasi yoxud ularning ikkalasi ham vafot etgan muhtoz qizlar; boquvchisi yo'q ehtiyojmand yolg'iz ayollar⁸. Bazaviy to'lov-kontrakt asosida davlat oliy ta'lim muassasasiga qabul qilingan, ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan 1 ming 431 nafar muhtoz qiz, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollar uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari hisobidan to'lov-kontrakt pullari to'lab berildi⁹.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ayollarning izchil islohotlar jarayonidagi, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki kuchayib borayotgani ularga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor, xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida yaratilgan mustahkam qonunchilik bazasining amaliy ifodasidir.

2 Сафоев С. "Ўзбекистон мўъжизаси": ижтимоий халқпарвар давлат барпо этиш — бoш мақсадимиз//Янги Ўзбекистон. -2021 йил, 24 декабрь, 260-сон.

3 Toshqorayeva M. Uy bekalar ham "Motabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlanishi mumkin// https://uz.uz/uz/posts/uy-bekalari-ham-motabar-ayol-kokrak-nishoni-bilan-taqdirlanishi-mumkin_238530

4 Safoyev S. "O'zbekiston mo'jizasi": ijtimoiy xalqparvar davlat barpo etish — bosh maqsadimiz//Yangi O'zbekiston. -2021-yil, 24-dekabr, 260-son.

5 Shundagina Yaratgan bizdan rozi bo'ladi — Shavkat Mirziyoyev ayollarni baxtli qilish haqida// <https://xs.uz/uzkr/post/shundagina-yaratgan-bizdan-rozi-boladi-shavkat-mirziyoyev-ayolni-bakhtli-qilish-haqida>

6 Safoyev S. "O'zbekiston mo'jizasi": ijtimoiy xalqparvar davlat barpo etish — bosh maqsadimiz//Yangi O'zbekiston. -2021-yil, 24-dekabr, 260-son

7 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi "Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoz qizlar va boquvchisi yo'q yolg'iz ayollar oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 585-son qarori// <https://static.norma.uz/documents/doc4/585.pdf>.

8 Abduzaimova L. Yolg'iz ayollarga oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlari uchun kontrakt puli to'lab beriladi// <https://www.norma.uz/qonunchilikda-yangi/elgiz-ayollarga-oliy-uvuv-yurtlarida-talim-olishlari-uchun-kontrakt-puli-tulab-beriladi>

9 Safoyev S. "O'zbekiston mo'jizasi": ijtimoiy xalqparvar davlat barpo etish — bosh maqsadimiz//Yangi O'zbekiston. -2021-yil, 24-dekabr, 260-son.

GLOBALASHUV DAVRIDA YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION OMILLARI

Orif Shukurov - mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning jamiyatning turli sohalarida faolligi va ijtimoiylashuv xususiyatlarini shakllanishi tadqiq qilingan, uni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiya va tavsiflar berilgan.

Аннотация: В статье рассматривается активность молодежи в различных сферах жизни общества и формирование характеристик социализации в условиях современной глобализации, даются рекомендации и характеристики по ее дальнейшему совершенствованию.

Abstract: The article examines the activity of young people in various spheres of society and the formation of socialization characteristics in the conditions of today's globalization, recommendations and descriptions are given for its further improvement.

Kalit so'zlar: globallashuv, yoshlar, dunyoqarash, jamiyat, islohotlar, ijtimoiylashuv, innovatsiya, tashabbus, mas'uliyat.

Ключевые слова: глобализация, молодежь, мировоззрение, общество, реформы, социализация, инновации, инициатива, ответственность.

Keywords: globalization, youth, outlook, society, reforms, socialization, innovation, initiative, responsibility.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning jamiyatning turli sohalarida faolligi va ijtimoiylashuv xususiyatlarini shakllanishi, rivojlanishi va amal qilish qonuniyatlari tadqiq qilish, uni yanada takomillashtirish bo'yicha nazariy jihatdan asoslangan va yangi xususiyatlari hisobga olingan tavsiya va tavsiflar ishlab chiqish o'ta dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bugungi kunda islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilgan davrida jamiyatda yoshlarning Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, irodalilik, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini shakllantirish, ma'naviy jihatdan ma'suliyatini shakllantirish muhim masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida zamonaviy sharoitda islohotlar amaliyotini samarali ta'minlashda yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini yuksaltirish, fuqarolik mas'uliyati va innovatsion tashabbuskorligini oshirish lozimligi yuzasidan quyidagilarni ta'kidlaydi: "Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu

sababli biz islohotlarimiz ko'lamini va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz"¹.

Zamonaviy sharoitda jamiyat hayotini har tomonlama rivojlantirishda yoshlarning ijtimoiy faolligini yuksaltirish, fuqarolarni davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning bevosita ishtirokchisiga aylantirish dolzarb ham jamiyatning muhim masalalaridir. Jamiyatda islohotlar samaradorligini oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishda yoshlarni innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ularni ijtimoiy jarayonlarning to'laqonli ishtirokchisiga aylantirish taraqqiyotga oid tamoyillarni amaliy asoslarini namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda "Mehnat unumdorligini oshirish, sifatini yaxshilashga va insonning ijodiy tashabbuskorligiga ko'maklashuvchi inson omilini faollashtirish ushbu ijtimoiy iqtisodiy va ma'naviy vazifalarning to'g'ri, ilmiy asoslangan holda qo'yilishi bilan bog'liqdir"².

Jamiyatda yoshlar ijtimoiy faolligini yuksaltirishda ularni ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy, huquqiy va ma'naviy bilimlarini rivojlantirish, ma'rifiy jihatdan tarbiyalash, ularni zamonaviy ijtimoiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq qonuniyatlar amal qiladi. Yoshlar bilan bog'liq tizimlarni rivojlantirishni ta'minlashning mexanizmlari amaliyotga tadbiiq etishda yoshlarning ma'suliyatsizligini vujudga kelishining oldini olish, bu sohadagi mavjud muammolarni o'rganish, ularni hal etish bo'yicha ilmiy xulosalarni berish tadqiqot ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

A.Saitkasimovning ta'kidlashicha, "Fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilish, uni jamiyat siyosiy jarayonlarida o'ziga xos o'ringa ega ekanligini hamda mamlakatda barqaror muhitni asrash borasida asosiy vazifalardan birini bajarishi bo'yicha tegishli xulosalarni berish muhim ahamiyatga ega masala hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida jamiyatda sog'lom muhit, sog'lom turmush tarzini, xalqimizning tinchligi, osoyishtaligi, faol mehnat munosabatlari va ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirib borish bilan bog'liq jarayondir"³.

Shuningdek, yoshlar ongidagi destruktiv qarashlarning o'rnini konstruktiv g'oyalari bilan to'ldirish jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash jarayonlari o'ziga xos falsafiy qonuniyatlar bilan bog'liq bo'lib, mazkur jarayon jamiyatning turli sohalarida yoshlarning faolligini innovatsion shakllantirish muammolarini nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oladi. Jamiyatda vujudga kelishi mumkin bo'lgan yoshlar hayotidagi ma'naviy beqarorlik jarayonlari ijtimoiy hayot rivojlanishida salbiy rol o'ynaydi, shuning uchun yoshlarning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash borasida ham muhim chora-tadbirlarni takomillashtirish lozim bo'ladi.

Yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlash ularni jamiyat barqaror taraqqiyotidagi ijtimoiy-ma'naviy mas'uliyatini oshiradi, natijada taraqqiyotga oid muhim tamoyillar vujudga keladi. D.Ernazarovning ta'kidlashicha, "Shuni alohida ta'kidlab aytish lozimki, milliy xavfsizlik tushunchasi o'z ichiga davlatning hayotiy faoliyatlarining ravnaqini ta'minlovchi

barcha siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy va boshqa sohalaridagi stabillik darajasini ta'minlanganligi, ya'ni ularning rivojlanishida tashqi va ichki salbiy ta'sirlarning xavf solmasligidir. Fuqarolik jamiyati esa ana shunday xavf-xatarlarni o'z vaqtida anglashi va ularga qarshi kurashish strategiyasini belgilab berishi lozim"⁴.

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, ularning huquqiy va ma'naviy faolligini oshirishda mamlakatimizda fuqarolar, o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat, jamoat, nodavlat va notijorat tashkilotlarining o'ziga xos mas'uliyati, vazifalari va xatti-harakatlari muhim ahamiyatga egadir. Bu esa, o'z navbatida jamiyatda sog'lom muhit, sog'lom turmush tarzini, xalqimizning tinchligi, osoyishtaligi, faol mehnat munosabatlari va ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirib borish bilan bog'liq jarayondir.

Ijtimoiy faolligini shakllantirishning muhim xususiyatlaridan biri yoshlar mas'uliyatini yuqori bo'lishidir. Jamiyatda ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda yoshlar o'zlarining faolligini namoyon etishi ularning tafakkuri, innovatsion bilimlari, ma'naviy qarashlari, axloqiy tarzidan, milliy manfaatlarini anglashidan kelib chiqadi. B.Mamatyusupovning ta'kidlashicha, "Ijtimoiy faollik ostida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifani qabul qilish, qayta qurish yoki yangidan izohlash bilan bog'liq xulq-atvor usullari va harakatlarini tushunish kerak bo'ladi"⁵.

Yoshlarni jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda innovatsion faolligini oshirish xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- yoshlar ijtimoiy va siyosiy faolligi, ma'naviy va huquqiy mas'uliyatining ijtimoiy hayot bilan bog'liq omillar hisoblanadi;

- yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy-siyosiy institutlarning roli va ahamiyati katta hisoblanadi;

- jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash, modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirishda yoshlar ijtimoiy faolligining o'zni muhim hisoblanadi;

- jamiyatning turli sohalarida yoshlar ma'suliyatini shakllantirish muammolarini nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etib borish va bu borada sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish muhim jarayondir.

3 Saitkasimov A. Jamiyat barqarorligi va shaxs mas'uliyati. - Toshkent, Ta'fakkur, 2013. - B. 3.

4 Ernazarov D. Fuqarolik jamiyati milliy xavfsizlikning yulit tizimi sifatida // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. - Toshkent, 2006. - №2. - B. 87.

5 Mamatyusupov B. Huquqiy madaniyat endogen xususiyatlarining shaxs ijtimoiy faolligiga ta'siri. Falsafa fanlari b'uyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtorreferati. Toshkent, 2018. 13-14 betlar.

ILMIY BILISH IMKONIYATLARI MASALALARIGA DOIR MULOHAZALAR

Xulkar Raxmatullayevna Abdullayeva - mustaqil tadqiqotchi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti

Annotatsiya: Maqolada ilmiy bilish imkoniyatlari keng va batafsil tahlil qilingan. Falsafiy tafakkur tarixida bilish imkoniyatlari masalasi tadqiq etiladi. Shuningdek, zamonaviy faylasuflardan T.Kun, M.Polani, K.Popper kabi olimlarning ilmiy va falsafiy yondashuvlari tahlil qilingan. Maqolada inson bilimlarining chegarasi, ilmiy bilimlar rivoji, paradigma, tafakkurni tejash, demarkatsiya, verifikatsiya va falsifikatsiya tamoyillariga urg'u qaratilgan.

Аннотация: В статье широко и подробно анализируются возможности научного познания. Глубоко исследуется вопрос о возможностях познания в истории философской мысли. В статье также проанализированы научно-философские взгляды таких современных философов как Т. Кун, М. Полани, К. Поппер и др. В статье рассматриваются возможности и границы научного познания, развитие научного знания, парадигма, демаркация, принципы верификации и фальсификации.

Abstract: The article broadly and in detail analyzes the possibilities of scientific knowledge. The question of the possibilities of cognition in the history of philosophical thought is deeply investigated. The article also analyzes the scientific and philosophical views of such modern philosophers as T. Kuhn, M. Polanyi, K. Popper and others. The article discusses the possibilities and boundaries of scientific knowledge, the development of scientific knowledge, paradigm, demarcation, principles of verification and falsification.

Kalit so'zlar: ilmiy bilish, narsa o'zida, narsa biz uchun, demarkatsiya, verifikatsiya, konvensionalizm, falsifikatsiya, proliferatsiya, paradigma

Ключевые слова: научное познание, вещь в себе, вещь для нас, демаркация, верификация, конвенционализм, фальсификация, пролиферация, парадигма

Keywords: scientific knowledge, thing in itself, thing for us, demarcation, verification, conventionalism, falsification, proliferation, paradigm

Bilish masalasi azal-azaldan asosiy falsafiy muammolari qatoridan o'rin olib kelgan. Falsafaning boshida turgan Fales ham, Anaksagor ham, harakatning yo'qligini tasdiqlagan metafiziklar ham biz nimani bilishimiz va qanday bilishimiz haqida bosh qotirgan. Bu masalaga ilk bor Eley maktabi vakillari murojaat qilgan, jumladan, Parmenid borliqni "haqiqiy borliq" va "fikriy borliq"ga ajratgan¹. "Haqiqiy borliq" o'zgarimas va abadiy, shuningdek, uni bilish inson bilish imkoniyatlaridan tashqarida, "fikriy borliq" o'zgaruvchan, bu borliqni inson bilishga qodir. Chunki insonning olamni anglashi subyektiv qarashlardan kelib chiqadi. Bu fikrni sofistlar ham yo'qlaydi. "Inson jamiki narsalarining mezonidir, ya'ni insonlar bor deb hisoblaydigan narsalar mavjud, insonlar yo'q deb hisoblaydigan narsalar mavjud emas"².

Keyingi izlanishlarda esa asosiy urg'u

bilish shakllarining ustunligi masalasida bordi. Bu masalani ilk bor atomchilar maktabining yirik vakili Demokrit ko'tardi. Uningcha, mantiqiy bilishning, ya'ni aqliy bilishning imkoniyatlari va ahamiyati, hissiy bilishnikiga nisbatan ko'p. Shu sababli u aqliy bilishni haqiqiy deb baholaydi. Hissiy bilishni esa qorong'u yoki noma'lum sifatida etirof etadi. Hissiy bilishda u beshta sezgi a'zolari orqali olinadigan bilimlarni tushunadi. Uningcha bilishning noma'lum shakli ish bermay qolsa, bilishning birinchi shakli ishga tushadi³. "Ko'zga ko'rinmagan har qanday narsa ustidan aql hukmron"⁴. Bu yerda shuni ham aytish kerakki, Demokrit yaratgan atomlar ko'zga ko'rinmas zararalar bo'lib, ularni faqat aql mushohadasi orqali borligini aniqlash mumkin.

Bilish masalasi borasida ilk faylasuflarning qarashlari keyingi avlod faylasuflarining qarashlarida ham keskin bahs-munozaralarga

¹ Фрагменты ранних древнегреческих философов В 2 ч. Ч.1. М.1989 Стр.274.

² Диоген Лаэртский. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. М.Мысль. 1986.С.375

³ O'sha asar, S.61

⁴ O'sha asar, S.84

sabab bo'ldi. Yangi davr falsafasida eng dolzarb masalalar qatorida muhokama etildi. Chunki fan taraqqiyoti, ilmiy bilishning rivoji shuni taqozo qildi. Dekart, Lokk, Bekon, Yum, Kant bilishda aql va hissiy bilishning imkoniyatlari haqida ko'plab mulohazalar bildirdilar. Aynan shu davrda tajribaviy bilish shakli yuzaga keldi. Dekart bilishda aql va ratsional bilishni, Lokk sezgilarni birinchi o'ringa chiqardi. Bekon tajribaviy bilimni haqiqiy bilish asosi sifatida yoqlab chiqdi. Ammo bu boradagi eng katta yetuk va tugallangan asar nemis mumtoz faylasufi I.Kantga tegishli edi. Kant bilish masalasini chuqur tahlil qildi va insonning bilish imkoniyatlari chegaralanganini ilgari surdi. U "narsa o'zida" va "narsa biz uchun" ta'limotini yaratdi. His-tuyg'ular orqali anglashiladigan narsalar "narsa biz uchun", insonning his-tuyg'ularidan tashqaridagi haqiqatda mavjud, ammo biz bilishimiz mumkin bo'lmagan narsalar "narsa o'zida". "Biz ularni bilish imkoniyatiga ega emasmiz, lekin "narsa o'zida" sifatida mavjud deb fikrlashga xaqimiz"⁵. Ammo shu bilan birga Kant yana bir narsani ta'kidladi, "narsa biz uchun"ni o'rganishda inson juda uzoqqa borishi, katta yutuqlarni qolga kiritishi mumkin.

Keyingi davr bosqichida ilmiy bilish imkoniyatlari va chegara masalalari Maxning "tafakkurni tejash" prinsipida, Puankarening konvensionalizmida, Popperring falsifikatsiya, Vena to'garagining verifikatsiya tamoyilida, Kunning paradigmal konsepsiyalarida namoyon bo'ldi.

XX asrning boshiga kelib ilmiy bilish asosiy falsafiy va ilmiy muammoga aylandi. To'g'ri, biz yuqorida ularning antik davrdan boshlanganligini aytib o'tdik. XX asrga kelib esa bu muammo yangicha postnoklassik qiyofa kasb eta boshladi. K.Popperring fikricha, bu muammo Kant davridayoq "bilish nazariyasining asosiy muammosi"ga aylangan va unda induksiya muammosi singari epistemologik muammolar manbai yashiringan"⁶. Popper chegarani belgilashni asosiy maqsad deb hisobladi: "bir tomondan empirik fanlar, ikkinchi tomondan matematika, mantiq fanlari bilan myetafizik tizimlar o'rtasida bo'lgan chyegarani aniqlashni men demarkatsiya muammosi deb hisoblayman"⁷.

Ularning asosiy maqsadi ratsionallikning o'rnini belgilash va uni madaniyatning va tafakkurning barcha sohalariga tatbiq etishdan iborat bo'lib, falsafaga qarshi qaratildi. Shunday bo'lsada, bu davrda fanning chegaralari hali aniq quyilmagan, Spenserning fanni tabiiy qonuniyatlar sifatida tushunib, "... hech qayerda

mana bu yerda fan boshlanadi, deya ko'rsatib bo'lmaydi"⁸degan fikrlarini uchratamiz.

Bunday urinishlarning birinchisi E.Max tomonidan ilgari surildi. U "Tafakkurni tejash" prinsipi orqali fanni faqat tavsiflovchi bo'lishi lozimligini ta'kidladi. Rivojlangan fanda izohlashning keragi yo'q, fan faqat voqealarni tavsiflashdan nariga o'tmasligi kerak. Bu bilan Max Yum va Berklining izidan ketdi.

Maxning fikricha, fizik tushunchalar narsalarning asl mohiyatini ochmaydi, chunki ular subyektiv.

Bu davrda vujudga kelgan yana bir yo'nalish konvensionalizm degan nom oldi. Uning vujudga kelishiga tabiiy bilimlarni nazariy tusga ega bo'la boshlagani, ilmiy tushunchalar nazariyalar, qonunlarning shakllanishi va olimlarning bir qarorga kelgan holda ish yuritishi lozimligi sabab bo'ldi. Konvensionalizm (lot.conventio - kelishuv) falsafiy konsepsiya bo'lib, ilmiy nazariyalar obyektiv olamning in'ikososi emas, balki olimlarning kelishuvi sifatida namoyon bo'lishi tushunildi. Konvensionalizmning yirik vakili va asoschisi fransuz matematigi va fan metodologi A. Puankare (1854- 1912), narsalar o'rtasidagi aloqadorlikni narsalar mohiyatidan farqladi. Aloqadorlikni anglasa bo'ladi, narsalar tabiati va mohiyatini yo'q. «Narsalar tabiatini bizga nafaqat fan balki boshqa biror narsa ham ochib bera olmaydi. Agar bu narsani xudo bilganida ham, u buni izohlash uchun so'z topa olmagan bo'lardi»⁹.

XX asrning 30-yillariga kelib masala shu qadar qizg'in tus oldiki, natijada fan va falsafa o'rtasidagi chegaraning ifodasi yaqqol namoyon bo'la boshladi. Ulardan biri "Vena to'garagi" pozitivistlari tomonidan ilgari surilib, verifikatsiyatamoyiliga asoslandi. Verifikatsiya tamoyili ilmiylikni belgilovchi vosita bo'lib, unga asosan, har qanday fikr hissiy bilish asosida qurilsa va tajribada sinalishi mumkin bo'lsa, unda u haqiqiy sanaladi. Tajribada sinab ko'rish mumkin bo'lmagan fikrlar esa mohiyatsiz hisoblanadi. Ilmiylikni belgilovchi faktlar qanchalik ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.

Verifikatsiya tamoyili paydo bo'lgandanog mag'lubiyatga uchray boshladi. Chunki ular mohiyat bilan ilmiylikni bir deb baholashdi. Sezgilarga asoslanmagan va ideallashtirilgan obyektlarni ifodalovchi ilmiy termin va fikrlar mohiyatsiz hisoblanardi¹⁰.

Popper ilmiylikni belgilashda verifikatsiya tamoyiliga qarama-qarshi bo'lgan falsifikatsiya tamoyilini ilgari surdi. Popperring falsifikatsiya tamoyili, ilmiy bilimlar rivoji undagi nazariyalarning inkor etilishi bilan bog'liq. Agar nazariyalar tekshirilib inkor etilishi

⁵ Кант И. Критика чистого разума. 2017. Изд.Аст. С.29

⁶ Поппер К. Логика научного исследования. 2005. С. 35

⁷ Поппер К. Логика научного исследования. М.2005. С.55

⁸ Спенсер Г. Основные начала. СПб., 1899. С. 10.

⁹ Пуанкаре А. «О науке». М., 1990. С. 277.

¹⁰ Carnap R. Überwindung der Metafizik durch logische Analyse der Sparche // Erkenntnis Bd2 1931

mumkin bo'lmasa, unda u fandan, ilmiylikdan tashqarida. Olimlar ehtimolli nazariyalarni ishlab chiqmasliklari kerak. Aksincha nazariya qanchalik axborotlashgan, mazmunli va kuchli bo'lsa, uning ehtimolligi chegaralanadi va unda inkor etish uchun barcha asoslar mavjud bo'ladi. Nazariyalarning doimiy ravishda inkor etilishi bu ilmiy bilimlarning o'sishi va murakkablashuviga olib keladi.

Popper ilmiy bilish o'sishini quyidagicha izohlaydi. P1 – TT – EE – P2. Bunda P1 - birinchi muammo, TT – nazariyalar, EE – nazariyaning inkor etilishi, R2 yangi yanada chuqur muammoki, uning yechilishini boshqa yangi bir nazariya ta'minlashi kerak¹¹.

“...empirik yoki ilmiy deb men faqat tajriba orqali sinalishi mumkin bo'lgan tizimlarinigina tushunaman. Bunga ko'ra verifikatsiya emas, balki falsifikatsiya chegaralash, ya'ni demarkatsiya hisoblanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy tizimdan ijobiy mohiyat bilan ajralib chiqishni emas, balki salbiy tomonlar yuzaga chiqishiga zamin yaratishimiz kerak: empirik ilmiy tizimga tajriba orqali inkor etish xususiyati xos bo'lishi kerak¹²”.

Tomas Kunning falsafasida asosiy o'rinni paradigma konsepsiyasi egallaydi, paradigma bu ilmiy izlanishlarning, birinchi navbatda ilmiy umumlashmaning, ma'lum bir vaqtda qo'yilgan nazariyaning umumlashmasi hisoblanadi. Bunda Kun qonun va prinsiplarda aks etgan bilimlarinigina nazarda tutmaydi. Olimlar, paradigmanning yaratuvchilar, bir nazariya va qonunni ishlabgina qolmasdan, muammolarni qanday yechish kerakligini ham ko'rsatadi, ya'ni ular ma'lum ilmiy tadqiqotning vazifalarning asosini, uning namunaviy dasturini va standartlarni ishlab chiqadi. Masalan, Nyuton yorug'likkorpuskulyarnazariyasini ishlab chiqish bilan birga quyosh yorug'ligining murakkab tuzilishga ega ekanligini ko'rsatdi va shu bilan uni qanday aniqlash mumkinligini izohlab berdi. Paradigma ilmiy tadqiqotning bajarilishi uchun ma'lum fan sohasida namunalar beradi. Bu ham hammasi emas. Kun dunyoning ma'lum ko'rinishini aniqlar ekan, paradigma faqat shu asosdagi muammolarni yoritadi. Bu aylanaga kirmay qolgan muammolar paradigma tarafdorlari uchun muhim hisoblanmaydi.

Kun buyicha, fan taraqqiyotida normal va ilmiy revolyutsiyalar payti mavjud. Normal fan umumtasdiqdan o'tgan paradigma tarkibida rivojlanadi. Bunda olimlar ma'lum qoidalar, standartlarga asosan ilmiy muammoni yechib boradilar. Agar nazariy farazlar bilan faktlar bir-biriga to'g'ri kelmasa, bu holat “anomaliya” hisoblanadi, lekin nazariyalardan voz kechishga bu narsa to'siq bo'la olmaydi. Lekin bu anomaliyalar ko'payib boradi va natijada krizis

yuzaga kelib ilmiy inqilobni keltirib chiqaradi. Bu davrda eski paradigmaning o'rniga yangi paradigma hosil qilinadi. Yangi paradigma ratsional tarzda emas, balki ijtimoiy psixologik jihatdan tanlanadi. Ya'ni uning mohiyatiga, obyektivligiga emas, balki normal fan uchun asos bo'la oladigan, namuna bo'la oladigani tanlanadi.

Verifikatsiya va falsifikatsiya tamoyillarida fan va falsafa o'rtasida qat'iy chegara belgilangan bo'lsa, Kunda metafizika va fan o'rtasida chegara yo'q. Uning metodologiyasida metafizika ilmiy tadqiqotning boshi: u ilmiy nazariyalarda aynan mavjud va ko'rinmas holda tadqiqot natijalarida ham aks etadi, hattoki fan faktlariga xam kirib ketadi. “Sermahsul tadqiqot ilmiy umumlashma biror bir quyidagi savollarga javob topmasdan ilgari boshlana olmaydi. Ya'ni Koinot tarkibidagi fundamental birliklar qanaqa? Ular bir-biri va sezgi organlari bilan qanday munosabatda? Olim bunday mohiyatlarni ochish uchun qanday usullarni ishlab chiqishi va qanday savollarni qo'yishga haqli?”¹³ E'tibor beraylik, mantiqiy pozitivistlar falsafani bemohiyat fanga aylantirib qo'ygan bo'lsa, Kun falsafani ilmiy bilimlarning asosi qilib olmoqda.

Kun fan va ilmiy bilimlar o'sishini tahlil qilar ekan, unga bir tomonlama emas, balki kreativ nuqtayi nazardan yondashdi. “Ilmiy berilgan”ni tahlil etish uchun Kun tashqi “stimullar”ni ajratadi, ya'ni inson organizmiga ta'sir qiluvchilarni va hissiy taassurotni farqlaydi. “Ilmiy berilgan” yoki “fakt”lar aynan hissiy taassurot xisoblanadi, “tashqi stimullar” emas. Olimning biror narsadan ta'sirlanishi va qanday “fakt”larni zaruriy deb belgilashi uning tarbiyasiga, ma'lumotiga va o'zi ishlayotgan pardigmaning chegaralariga bog'liq bo'lib hisoblanadi. Demak, bu yerda Kun ilmiy izlanishlar negizida tashqi omillar yotishini ta'kidlaydi. Kunning bu fikri bizning nazarimizda Polanining fikrlariga asoslanadi. Chunki Polani Popperdan farqli o'laroq, fan rivoji ichki emas, tashqi determinatsiya asosida rivojlanishini ta'kidlaydi. Bunga ba'zilar quyidagicha ta'rif beradilar. “Kun o'z ilmiy umumlashmasi orqali inson konsepsiyasini kirgizar ekan, fan falsafasi bor-yo'g'i g'oyalar tarixi hisoblangan internalistik konsepsiyaga qarshi chiqadi. Bu narsa unga fan rivojini immanent talqin qilishdan tashqariga olib chiqish imkoniyatini berdi, fan rivoji mexanizmini tushuntirishda yangi imkoniyatlar ochdi¹⁴”.

An'anaviy fan falsafasi fan va tarixga bilimlar, g'oyalar, gipotezalar, tajribalar rivoji sifatida qarab bilish subyektiga e'tibor qaratmas edi. Subyektga ilmiy tadqiqotda rol ajratilmagan edi. Masalan mantiqiy pozitivistlar

bilimlarni faqat obyektiv baholashga harakat qilishadi. Aniq insonlar va tarix umuman ularning tahlilidan tashqarida edi. Popperda ham bu yaqqol ko'rinadi, u o'zining “obyektiv bilim” konsepsiyasidan subyektini chiqarib tashlaydi. Kun, Polanini fikrlariga asoslanib, bu an'anaga qarshi chiqadi. Uningcha, bilim bu mantiqiy dunyoda mavjud narsalar emas, balki ma'lum tarixiy davrdagi insonlar miyasidagi fikrlardir.

Bir qarashda har qanday yangi paradigma olim imkoniyatlarini kengaytirayotgandek ko'rinadi. Ammo bu imkoniyat uni chegaralaydi ham. Chunki u paradigmadan tashqariga chiqib keta olmaydi. U mohiyatni paradigmadan tashqari holatda ham tushuntirib bera olmaydi. Ya'ni paradigma olamga bir nuqtayi nazardan boqishga normal fan nuqtayi nazaridan baho berishga o'rgatadi. Shuning uchun uning imkoniyatlari paradigma tashqarisiga chiqmaydi¹⁵. Buni Feyerabend ham ta'kidlaydi¹⁶. Buning uchun paradigmanni yangilash lozim bo'ladi. Shuning uchun paradigma ma'lum fan doirasida katta yutuqlarga sababchi bo'lsa-da, uni asosi va kelajagini o'zidan uzib quyadi. Ya'ni uning keyingi imkoniyatlarini chegaralaydi.

Ilmiy bilish keng imkoniyatlariga ega bo'lishi bu ilm fanni nafaqat boyitishi balki, uning yuksak chuqqilarga olib chiqishi mumkinligini Feyerabend yoqlab chiqadi. U T.Kunning “olimlari asosiy maqsadni, fan maqsadini unutishadi”, deb hisoblaydi¹⁷. Uningcha, bir paradigma ustida ish olib borish ilmiy bilimlar o'sishini ta'minlay olmaydi. Feyerabend ilmiy bilishda imkoniyatlar masalasiga katta o'rin ajratadi. Undagi g'oyalar variantlarning ko'pligi bilan izohlanadi. U ilmiy bilishni o'stiruvchi har qanday g'oyani variant sifatida olishga tayyor. “Obyektiv bilish uchun fikrlar xilma xilligi nihoyatda muhim. Va bu xilma xillikni yoqlovchi har qanday metod yagona va insoniy nuqtayi nazaridan eng maqbulidir¹⁸”. Qaysidir ma'noda Feyrabendning fikrlari Polanining shaxsiy bilimlariga teng. Har qanday tahlilda bo'lmasin, har qanday g'oya uning yaratuvchisi bilan birga yashashga haqli, uning qay biri muhimligini olimning o'zi belgilaydi.

P.Feyerabendning bunday g'oyalari anarxistik konsepsiyasi nomini oldi. U ilmiy bilish rivojida mantiq bo'lishi lozimligini butunlay inkor etdi. U “Fan taraqqiyotiga ta'sir etuvchi yagona prinsip hamma narsa mumkin¹⁹”prinsipi deb hisobladi. Biror nazariyani boshqalardan ustun qo'yish kerak emas, chunki nazariyalar har xil tilda, bir-biriga mos bo'lmagan tarzda

mavjuddir. Barcha paradigmalar bir xil bo'lib, ular olimlarning ijodiy fikrini chegaralaydi. Kunning “normal” fani vaqtinchalik mutaxassislar kallasida yuzaga kelgan g'oyaki, unga qarshi kurashish lozim. Fanning rivojlanish yo'li bu to'xtamaydigan revolyutsiya. Feyerabend “proliferatsiya”-gipotezalarini ko'paytirish prinsipini ishlab chiqadi. Ular qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi. Uningcha, fanning progressiv ravishda bilimlar to'plashi mumkin emas, chunki faqat bir-biri bilan raqobat qiluvchi gipotezalar mavjud xolos.

Xaken buni quyidagicha izohlaydi: “Dunyoda olimlar juda ko'p, lekin ularning biror yangi narsani yaratishi uchun ilmiy potentsiali ham, imkoniyatlari ham chegaralangan. Shuning uchun fan olamida ham muttasil kurash ketadi va natijada eng yaxshi va eng kuchli g'olib bo'ladi. Xuddi yagona lazer nuri yashab qolganidek, kurashlar natijasida faqat bir nom, birgina ish eng yuqori pog'onadan joy oladi²⁰”.

Xulosa qilib aytganda, olimlar asrlar davomida ilmiy bilimlarni tadqiq qilishda haqiqatni to'liqroq ochib beruvchi nazariyalar, gipotezalar va g'oyalarni izladilar. Inson nima uchun biladi, nega bilishga qodir, bila oladimi, bila olsa uning chegarasi qayerda, ilmiy bilimlar qanday rivojlanadi, ilmiy haqiqat nimada namoyon bo'ladi, degan savollarga javob topishda olimlar ko'plab izlanishlar olib bordilar va bu masalaga doir o'nlab gipoteza va nazariyalar ishlab chiqildi. Metodologiya o'zgarib, yangilanib bordi. Ilmiy bilishni tekshirishga, olimlarning imkoniyatlarini yanada kengaytirishga yo'l ochib bergan texnologiyalar orqali tabiiy fanlardagi kashfiyotlar, ixtirolar soni oshib bordi. Sun'iy intellektning qo'llanilishi ijtimoiy gumanitar fanlar rivojida ham katta yutuqlarga olib keldi. Olim hamma narsani tadqiq etishi va gipoteza yaratishi mumkin, gipoteza o'z tasdig'ini topsa, nazariyaga aylanadi, lekin uni inkor etuvchi omillar paydo bo'lsa, u inkor etilishi va o'rniga boshqa nazariya kelishi mumkin. Bir paradigma doirasidan tashqariga chiqish mumkin emas. Gipotezalar o'rtasida doimiy kurash boradi. Tez natija ko'rsata oladigan amaliy fanlar ko'proq tadqiq etila boshladi. Olimlarning izlanishlari natijasida bugungi kunda ko'plab ilmiy nazariyalar, gipotezalar yaratildi. Bilim yuksak qadriyat sifatida tan olindi. Bilimlar jamiyati tomon yuzlanildi. Haqiqatni topish, izlash masalasi olimlarning kun tartibida turishda davom etmoqda.

11 Popper. K.P. *Логика и рост научного знания* М.1983 С. 455

12 Popper K.P. *Логика научного исследования*. 2005. С.63

13 Кун Т. *Структура научных революций* М.1975. С.20

14 Микунский С.Р.Маркова Л.А. *Чем интересна книга Т.Куна. Структура научных революций* М.1975.С.281-282

15 Кун Т. *Структура научных революций*. М. 1975. С152

16 Фейерабенд П. *Избранные труды по методологии науки*. М., 1986. с.125-467

17 Кун Т. *Структура научных революций. Утишение для специалиста*. М.1975.С.281

18 Фейерабенд П. *Избранные труды по методологии науки*. М., 1986. с.130

19 Фейерабенд П. *Избранные труды по методологии науки*. М., 1986. с.125

20 Хакен Г. *Тайны природы. Синергетика учение о взаимодействии*. М.И.2003. С.275

ALISHER NAVOIY MEROSINING OMON MATJON POETIK MAHORATIDAGI ZUHURI

Manzura Matnazarovna Pirnazarova - f.f.n., dotsenti, Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodining Omon Matjon ijodiga ta'siri masalasi yoritib berilgan. O. Matjonning "Ming bir yog'du" ma'rifiy dostoni mavzusi, tuzilishi, ohangi, badiiyati, poetikasi Navoiy an'analari sezilib turishi ko'rsatib berilgan.

Аннотация: В данной статье освещается влияние творчества Алишера Навои на творчество Амана Матжона. Указывается, что в теме, композиции, мотиве, художественности, поэтике просветительского дастана «Минг бир ёгду» (Тысяча и одно сияние) А. Матжона обнаруживается влияние традиций Навои.

Abstract: This article highlights the influence of Alisher Navoi's creative literature on the work of Amon Matjon. It is proven that the traditions of Navoi are felt in all of the theme, structure, tone, artistry, poetics of Matjon's educational epic "Ming bir yog'du" (One thousand one ray)

Калит so'zlar: "Xamsa", ma'rifiy doston, badiiyat, poetika, ifoda uslubi, hujjat-bayt

Ключевые слова: «Хамса», просветительский дастан, художественность, поэтика, стили выражения, худжат-бейт

Keywords: "Khamsa", educational epic, literary art, poetics, style of expression, document-verse

Jahon adabiyotining o'lmas obidalaridan biri sanalgan Alisher Navoiyning "Xamsa" sining yaratilganiga 500 yil to'lishi arafasida Omon Matjon tomonidan yaratilgan "Ming bir yog'du" ma'rifiy dostoniga taqvimiy xarakterdagi asarlardan biri sifatida qaralishiga hech qanday asos yo'q. Shu o'rinda taqvimiy xarakterdagi asar bizning nazarimizda zo'raki ijod mahsuli - g'oya va badiiyati marosimbozlik uchun qurbon berilgan ishlardan ekaniga ham urg'u bermoqchimiz. Shunday ekan, Omon Matjonning shoir ruhiyatidagi iztiroblar, qalb kechinmalari tasvirlangan ushbu doston "Xamsa" yaratilganiga besh yuz yil to'lishi sanalari arafasida bunyod bo'lgan asardir. Bu esa doston tuzilishi, ohangi, badiiyati, poetikasi - barcha-barchasida aksini topgan. Mazkur asarning "sababi nazmi kitobi" tayin. Bunga muallifning o'zi aniq javob beradi: "Olam muttasil aylanib, o'zini yangilab turibdi, lekin juda ko'p savol va muammolari o'sha-o'sha. Ulug' bobomiz tariximizning, madaniyatimizning, jahon adabiyotining gultoji bo'lgan buyuk "Xamsa" sida bu jumboqlarning deyarli barchasiga aniq va lo'nda javobni bundan besh yuz yil burun aytib o'tgan. Biz uchun yaratilgan mazkur asarga, ya'ni ushbu nurli merosga biz, albatta, qonuniy vorislik g'ururi bilan qarashimiz zarur". (MBY, 47) Shoir vujudini iztirobga solgan, doston bitishga undagan omillar quyidagilardir: 1. Yangilanayotgan dunyoning eski dardlari. 2. Bugungi ijtimoiy va boshqa muammolarga besh yuz oldin ko'rsatilgan yechimlar sari

intilmaslik sabab va oqibatlarini. 3. "Xamsa" ga "nurli meros" egasi sifatida qonuniy vorislik hissi bilan yondashishimiz va yashashimiz zarurligini anglab yetish.

E'tibor berilsa, muallif "Xamsa" ga nisbatan muxtar' parafrasa kabi so'zlarni qo'llaydi: bu so'z nurli meros kabi ma'noni ifodalaydi. Doston bitilayotgan paytlarda shoir ruhiyatini zulmatga nisbatan cheksiz bir nafrat, murosa qilib bo'lmas darajada isyonkorlik hissi chulg'ab olgan bo'lsa kerakki, dostonning "Ming bir yog'du" deb nomlanganidan tashqari 14 marta (Navoiydan keltirilgan iqtiboslardan tashqari) nur va uning hosilalarini (sinonimlaridan tashqari) qo'llaydi. Asar mutolaasi ibtidosidayoq asarda qayd etilgan uch masala bir-biri bilan omuxta holda bayon qilinib borganini sezamiz:

Lekin... nega buncha begonasiraymiz?!

Toleimizda Nur borligini bilmaganimiz uchunmi?

"Avvalo, dostonning "Ming bir yog'du" deb atalib, uning nurga bog'lanishidayoq hikmat bor. Shuningdek tiriklikning mohiyati ham nurga borib taqaladi. Tiriklik esa ezgulikka ulanadi. Donishmand shoir Alisher Navoiy ham nurni oftobning panjalari deb qayd etgan, bu panjalarni inson panjalari bilan qiyos etgan. Chindan ham, inson qo'llarida xuddi nur kabi harorat bor. Doston muqaddimasi "Xamsa" ning o'zi asrlar osha, jaholat devorlarini o'yib kelgan jozibali nurga o'xshatilgan. Bosh harf bilan yozilgan "nur" bu yerda ulkan tarixiy meros, yuksak insoniy qadriyatlar, o'zlikni

anglash timsoliga aylangan¹. Yana bir nigoh bilan qaraganda Nur - "Xamsa" ning o'zi ekani muqarrar. "Najib ranglar" ga burkangan "tariximizdan xabar" tarzida yetib kelgan, "madaniyatimizning oyinayi jahonnomasi" sanalmish "vaqt oyinlaridan", "zulmat dovonlaridan", "jaholat devorlaridan o'tib" bizni topgan "Yog'du - bizniki". Shoir doston ibtidosidanoq "Xamsa" qa'rida buyuk bir kuch, ya'ni millatni birlashtirish, yakqalam qilish, bir manzilga birgalikda intiltirish quvvati borligi haqida bong uradi:

Bir-birimizga yaxshiroq, yaqindan qaraylik:

Hammamiz shu yoqtilik elchilarimiz,

Hammamiz shu nur farzandlari!

Lekin... nega muncha begonasiraymiz?!

Nega muncha nifoq, nizo, nadomat, nola,

nosog'lom nazar?

Shu o'rinda shoir tomonidan qo'llangan ayrim ta'bir va iboratlarga to'xtalish ayni paytda mavzudan ko'zlangan maqsadga ham xizmat qiladi. Shoir "Xamsa" ni "madaniyatimiz jahonnomasi" deb ta'riflaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da jahonnoma degan so'z yo'q. Jahonnomo so'ziga esa "[jahon + f. ko'rsatuvchi] folk. Jahonning istagan yerini ko'rsatuvchi ko'zgu; oynai jahon"² - deb izoh berilgan. Unda muallif tomonidan qo'llangan jahonnoma so'zini qanday tushunish kerak? Buni tasodif yoki imlo xatosi deb bilsak, dostonning barcha nashrlarida mazkur so'z mana shu shaklda yozilgan. Bundan tashqari shoir mumtoz adabiyot bilimdoni sifatida oyinayi jahonnomo birikmasining tasavvufiy mohiyatigacha chuqur anglar, xususan, Navoiyning mashhur "Ey ishq, g'arib kimyosen, bal oyinayi jahonamosen"³ baytini yod olganlardan edi. Muxtasar aytganda, shoir tomonidan jahonnoma so'zi ixtiro qilingan bo'lib, mazkur okkozionalizm muallifning bir necha badiiy niyatlari ro'yobiga xizmat qilgan: birinchidan, jahonnoma o'zbek tilida azaldan mavjud jahonnomoga tovush tomondan uyg'un, ikkinchidan, "Xamsa" yozma asar bo'lgani uchun uni jahon sirlari aks etgan asar, jahoniy qiymatga molik asar kabi ma'nolarda jahonnoma deb atash lisoniy qonuniyatlar jihatidan ham joiz. Shuning ta'siri bilan ilgari oyinayi jahonnomo shaklida ishlatilgan birikmani dostonida oyinai jahonnoma shaklida ishlatadi. (MBY, 89)

Asar ibtidosida muallif nomidan berilgan quyidagi so'zlar uning asl maqsadini ochiq bayon qiladi: "Ayrim bir kishi "Xamsa" ni to'lalagicha ilg'ab-uyqab olishi qiyin. Bu ko'pchilik mehnatini, uyg'un idrokni talab qiladigan ish!" Anglashiladiki, Omon Matjon

"Xamsa" ni bir inson to'liq idrok etishi, qabul qilish, o'z ongiga singdirishining imkoni yo'q deb hisoblaydi. Bu asarni shoir tomonidan butun millat vakillari tushunishlari va so'ngra asarni bahamjihatchilikda idrok etishlari talab qilinadi. Shoirning bu mulohazatalab fikrlariga o'z munosabatimizni bildirishimizdan oldin "Xamsa" muallifi - Hazratli Navoiyning bu boradagi fikrlarini bilishimiz lozim. Nazarimizda, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" idan keltirilgan quyidagi baytlar Omon Matjon mulohazalariga javob bo'ladi:

Bu durlarkim ko'zumni andin ochting,

Mening ilgim bila olamg'a sochting...

Gadolarg'a dag'i andin ato ber,

G'anilarg'a dag'i oni tuto ber.

Shah olsa dog'i qilsun toji torak,

Qul olsa ham anga bo'lsun muborak...

Ani sindurg'on elni qil shikasta,

Xujasta ko'rgan elga tut xujasta⁴.

Ya'ni, "Ko'zimni ochgan bu durlar (ma'no xazinasini durlari) ni mening qo'llarim bilan olamga sochding. Uni gadolarga ham in'om qil, boylarga ham tutaver. Shoh olsa ham boshiga toj qilsin, qul olsa ham muborak bo'lsin... Uni sindirgan (beqadr qilgan) el (ikki ma'noda: 1. el, xalq. 2. qo'l) ni sindir, aziz tutgan elni aziz tut!" Demak, "Xamsa" butun millat mulki ekaniga Alisher Navoiyning o'zlari nafaqat rozi va iqror bo'lgan, balki bu Hazratning o'z tili bilan bayon etgandek, orzu va istagati bo'lgan.

Muallif debochasi mutolaasida davom etamiz: "Har bir avlod bu borada o'z faolligini ko'rsatishi kerak". Haqiqatan ham "Xamsa" o'qigan va o'qib bilgan avlod bilan o'qimagan va o'qib bilmagan avlod har tomonlama boshqa bir nasl, boshqa bir millat bolalari darajasida bir-biridan farq qiladi. "Xamsa" o'qigan avlod - baxtli avlod. Shuning uchun muallif fikrlarini davom ettirib, "Ushbu yodgorlikka murojaat qilar ekanman, mening maqsadim bitta: shavkatli bobomizning ming bir xislati - ming bir yog'duli bu asarini tashviq-targ'ib qilmoq va ilohiy iste'dod egasiga yana bir bor ta'zim qilmoqdir" - deydi. Bugungi kunda Alisher Navoiy "Xamsa" sini tashviq-targ'ib qilishga qanday ehtiyoj bor, unda ming bir yog'duning borligi o'zi targ'ib emasmi, degan mulohaza boramiz. Lekin tashviq shavq uyg'otishi, targ'ib esa rag'bat tug'dirish ekanini nazarga olsak, millat vakillarida "Xamsa" ga nisbatan shavq va rag'bat uyg'otish Alisher Navoiyning o'ziga xos istak va umidi bo'lgani ayon: "Umidim uldur va xayolimga andoq kelurkim, so'zum martabasi avjdin quyi inmagani va bu tartibim kavkabasi a'lo darajadin o'zga yerni beganmagay"⁵. Ta'kidlash kerakki, ming bir birikmasi o'zi

1 Шукуров А. Лингвоэстетик талқиннинг графика воситалар ёрдамида ифодаланиши // Ilm sarchashmalari. №7 2019. - Б. 116.

2 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 2-жилд. - Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. - Б. 79.

3 Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 9-жилд. - Тошкент: Фан, 1992. - Б. 295.

4 Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 8-том. - Тошкент: Фан, 1991. - Б. 7-8.

5 Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. - Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1967. - Б. 121.

shoir ruhiyatida, shuurida cheksiz-chegarasiz, sarhadsiz his va ashyolar (masalan, koinot) ifodasi ekanini dostonning boshqa bir o'rinlari orqali ham anglab olamiz:

*Turon zaminning sipohdori
El dahosini ming bir buloq der!
Ming bir buloq - ming bir ko'zgu:
O'zi ne bir tashna lablarga obihayot.*

Dostonifodavabayonuslubibilano'zicha va o'zidan keyin yaratilgan asarlardan tubdan farq qiladi. Birinchidan, maqsad "Xamsa", xususan, "Hayrat ul-abror" dostonini baytma-bayt sharhlash emas, balki bu muhtasham asar mutolaasidan olingan taassurotda hayratlarni izhor qilishdir. Ikkinchidan, o'quvchida "Xamsa" va bugunning uzviylikini anglatish, "Xamsa" ayni bugunning kitobi ekanligini ko'rsatish. "Xamsa" har biri muayyan mavzu va muammoga ajratilgan alohida parchalardan tarkib topgan dostonidir. Bu qismlarda shoir o'zini iztirobga solgan masalalarni yuksak badiiy tusda ifoda etar ekan, ana shu fikrlariga mos tarzda "Xamsa"dan misol(lar) keltiradi. Shuning uchun dostonning muayyan mavzu bayoniga bo'lingan qismlari so'ngida ushbu masalaga oid bo'lganda "Xamsa"dan olingan iqtiboslardan iboratdir. Ana shu iqtiboslar asarda mohiyatan hujjat-bayt(lar) vazifasini o'taydi. Zero, Omon Matjon tili bilan aytganda, "Necha zamonlar turkiy xalqning Bosh so'zi - "Xamsa" misolida Asosiy qonuni bo'lib keldi!". (MBY, 53) Bu fikr muallif dilida bir necha yillar oldin tug'ilgani, uzoq vaqt shoir shu fikr bilan xamsaxonlik qilganini uning 1986-yilda yozilgan "Suhbatdosh" she'ridagi mana bu satrlar orqali ham ilg'ashimiz mumkin:

*Piring kim? Bilmadim, Men so'z ayturman
"Xamsa" bilan o'lchab xalqimning qonin.
Besh yuz yil o'zbekdek ch'ong bir xalqqa u
Qutlug' dastur bo'ldi, Asosiy qonun! (MBY, 23)*

Ilmiy adabiyotda "Xamsa" talqinlariga oid qator ilmiy ishlar dunyo yuzini ko'rgan⁶. Shoir dostonning "Ona tilini millatning bosh ilinji bilgan tilshunos" qismida

*Iztiroblarimiz izhori, borligimiz timsoli,
kelajakdan umidimiz - Ona tilimiz!
Tog' salobatini tog' dovonlariga chiqqan biladi!
Gullarni bir-biridan mehrli odam farq eta olar!
O'zga bog'larning iforini elchi xabarida
tuyib bo'lmas! - deydi.*

Bu qismga dalil-baytlar sirasida, jumladan,

*Turk surudi bila solib qo'lum,
Qilsam anda: Hay tulugim, hay tulum!"
bayti keltirilgan.*

"Hayrat ul-abror"dan keltirilgan bu bayt shoir ruhiyatiga o'zgacha ta'sir ko'rsatganini uning "Ayoq qal'ada" she'ri mutolaasi orqali ham sezamiz:

*Xoli astodonlar ichra mung kezar:
"Ne izlab ketarsan, hoy tulugum, hoy" (A., 78)*

Omon Matjonning "Tili omon bo'lsa o'lmaydi millat" so'zlari aforizmga aylangani haqiqat. Dostondagi "Iztiroblarimiz izhori, borligimiz timsoli, kelajakdan umidimiz - Ona tilimiz!" so'zlari esa ana shu hikmat, ana shu haqiqatni yana ham teranroq anglashimizda yordam beradi. Muallif ona tili masalasiga dostonning bir necha o'rnida, jumladan, "Shoir, o'z ona tilining donori!", "Abadiyat ijodkori" kabi qismlarida e'tibor qaratgan. Xususan, shoirning "Til! Xalq ruhining go'zalligini asrovchi tilsim! Yurakdan chiqayotgan sirli ehtirolarni, orzularni olam bog'larida moddiylashtiruvchi mo'jiza!" ekanligi haqidagi xulosasi tarix tajribalarini rangin qiyofada aks ettirgan badiiy haqiqatgina emas, balki ilmiy asosga ega bo'lgan hayot haqiqati hamdir. "Abadiyat ijodkori" muallif tomonidan keltirilgan:

*Aytib sovrmas tarona sen-sen,
Olib qurimas xizona sen-sen.
Olam eli zarra yig'sa jovid,
Nurini kam aylagaymu xurshid?!*

hujjat-baytlari "Layli va Majnun"ning "So'z gavhari vasfidakim, gavhar so'zi aning qoshida gavhar olida bir qatra suvdek bo'la olg'ay, bir necha so'z surmoq..." beshinchi bobidan olingan. Alisher Navoiy mashhur nemis olimi Vilgelm fon Gumboldt ham oldin so'z (til)ning ruh ekani haqida mulohaza bayon qilgan: "Derlar seni dur, savob emas bu, Sen javhari ruhu dur quruq suv" - "Seni dur deydi. Bu - ma'qul gap emas. Sen ruh javharisan, dur quruq suvning o'zi-ku!"⁷.

Umuman olganda, Omon Matjon - mumtoz adabiyot bilimdoni. Bu uning qalami bilan yaratilgan obrazlar silsilasi, shu bilan birga mumtoz timsollarga jilo berishida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir she'riyatida hamisha hissiyot va aql uyg'unlikda zuhur etgan.

ABDULLA QAHHOR IJODIDA KOMIK XARAKTER VA BADIY TALQIN

Murodulla Jo'rayev - f.f.b.f.d (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Qahhorning komik xarakter yaratish mahorati "Shohi so'zana" hamda "Tobutdan tovush" komediyalari misolida tahlilga tortilgan.

Аннотация: В статье анализируются способности Абдуллы Каххора к созданию комического персонажа на примере комедий «Шахи созана» и «Звук из гроба».

Abstract: In the article, the skill of creating a comic character of Abdulla Kahhor was drawn to the analysis using the example of the comedies "Shahi so'zana" and "sound from the coffin".

Kalit so'zlar: komediya, komik xarakter, obraz, badiiy ijod, badiiy talqin.

Ключевые слова: комедия, комический персонаж, образ, художественное творчество, художественная интерпретация.

Keywords: comedy, comic character, image, artistic creation, artistic interpretation.

Badiiy adabiyot mashhur adiblar va adabiyotshunoslarning an'anaviy ta'riflariga ko'ra obrazli tafakkur, "obrazlar orqali fikr yuritish" demakdir. Alisher Navoiy kabi buyuk shoirvayozuvchilar ham hayotvainson mohiyati yohud ulkan voqea-hodisalar mazmunini va kitobxonlarga aytmoqchi bo'lgan ezgu g'oya va qarashlarini bevosita badiiy obrazlar, xilma-xil xarakterlar orqali ifoda etganlar. Chunonchi, eramizdan oldingi III asrlarda yaratilgan va adabiyot nazariyasining ilk namunasi - "Poetika" muallifi Aristotel ham inson obrazi, inson xarakterining adabiyot va san'atdagi beqiyos roliga to'xtalib, uni yaratishda san'atkor quyidagi talablarga rioya etishi lozimligini ta'kidlaydi; har bir inson xakteri, eng avvalo, "haqqoniy, o'ziga xos va izchil" bo'lishini badiiy ijodning spetsifik xususiyati sifatida talqin etadi. Haqiqatan ham, ulkan so'z san'atkorlari yaratgan asarlardagi inson xarakterlari bamisoli bir butun mikrokosmos, chunki tomchida quyosh aks etganidek, to'laqonli va jonli xarakterlarda muayyan davrdagi ijtimoiy munosabatlar va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar majmuasi takrorlanmas shakl va ko'rinishlarda aks etadi. Ya'ni har jihatdan mukammal, to'laqonli inson obrazini yaratish haqiqiy ijod. Bu - "san'atning temir qonuni", yuksak badiiy mahorat mezonidir. Bu jihatdan ulug' adib M.Gorkiyning quyidagi fikri ham muayyan qimmatga ega: "Yozuvchining ishi nimadan iborat? U xayol qiladi - o'zining mushohadalari, taassurotlari, fikrlari va hayot tajribasini obrazlar, kartinalar va xarakterlarda mujassamlashtiradi, joylashtiradi"¹. Zotan, bu holat hamda faoliyat adabiyot va san'atning eng muqaddas bir qonuniyati, ta'bir joiz bo'lsa, mangu bir nizomnomasidir.

Asardagi voqea-hodisalar va xarakterlarning favqulodda real - hayotiyliigi, ifoda tasvirlarining tabiiyligi va xalqchilligi sirlarini, avvalo, yozuvchining serqirra ijtimoiy faoliyati va boy turmush tajribalaridan, ijodkorning takrorlanmas shaxsiyatidan qidirish to'g'ri bo'ladi. Bu jihatdan yirik adib Asqad Muxtorning adib shaxsi bilan ijodi ajralmas ekanligi xususidagi kuzatishlari xarakterlidir: "Tanqidchi va adabiyotshunoslar asosan asar haqida gapiradilar. Yozuvchi haqida esa... Vaholanki, asar yozuvchidan unib chiqadi; farzandiday unda tug'iladi, ulg'ayadi, kamol topadi; u farzandini avaylaydi, himoya qiladi. Asar - yozuvchi taqdiri; kerak bo'lganda, yozuvchi qurbon bo'lishga ham tayyor. Uning g'ayritabiiy sadoqati, yozmasdan turolmasligi, ruhiyati, falsafaga, mushohadaga mayli, shaxsi, fe'li, uslubi, qarashlari, dardi, qiyalishlari hech kimni qiziqitirmaydi. Yozuvchi o'z shaxsi va o'zgalarning shaxsi bilan birikib ketgan-asar uning subyekti. uning mohiyati, ehtirosi-ijod."²Chindan ham, muayyan bir shoir yoki adibning asarlari, eng avvalo, uning ulkan qalb kechinmalari, yuksak taxayyul va tafakkur olamining mahsuli, iztirobli va ehtirosli o'y-mushohadalarining ifodasi bo'lib maydonga kelishi jarayoni ilmiy-psixologik tadqiqotlarga mavzu bo'la oladi. Bunga misol tariqasida "Shohi so'zana" ("Yangiyer") yoki "Tobutdan tovush" komediyalarining qanday ezgu maqsadlar bilan yaratilgani va bu jarayonda adib asar qahramonlari hayotini o'zining qalb prizmasidan o'tkazib, qanday ruhiy kechinmalarni boshidan o'tkazganini xayolan tasavvur qilishga urinib ko'raylik.

Bunday chuqur milliylik va xalqchillik bilan yo'g'rilgan asarlarni o'rganishda va tahlil

⁶ Бу ҳақда қаранг: Алишер Навоий. Қомусий луғат. Иккинчи жилд. - Тошкент: Шарқ, 2016. - Б. 277 - 280.
⁷ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 9-жилд. - Тошкент: Фан, 1992. - Б. 30; 323.

¹ Gorkiy M. Adabiyot haqida.-T.: Fan, 1962. 10-b.

² Asqad Muxtor. Uyqu qochganda. Tundaliklar.-T.: Ma'naviyat. 2005. 39-b.

etishda, eng avvalo, badiiyatning yuksak mezonlariga asoslanilganidek, albatta, ularning dolzarb g'oyaviy-badiiy muammolari va ayniqsa, yozuvchining jonli inson xarakterini yaratishdagi mahoratiga asosiy e'tibor qaratilishi talab etiladi. Ya'ni san'atkor davrning dolzarb mavzu-muammolarini yoritish va shu zamonning vatanparvar, millatparvar qahramonlari, komil insonlari obrazlarini yaratish majburiyatini his etishi chinakam badiiy ijodning ham muhim talab va mezonidir.

Hayot muttasil o'zgarib-rivojlanib borishi bilan qahramonlar xarakterlarini badiiy gavalantirishning murakkabligi tufayli bu borada turli bahs-munozaralar ko'p bo'lgan va adabiyotshunoslar ta'kidlaganidek, hozirda ham davom etayotir³.

Bu jihatdan Abdulla Qahhorning yillar davomida muhim ijodiy qoidaga aylangan aqidalari ham e'tiborga molik. "Badiiy mahorat – bu – chiroyli ifodalar, antiqa voqealar, kulgili yo qayg'uli holatlar topish emas, xalqqa aytadigan zarur so'zimizni kitobxon qalbiga olib kiradigan obrazlar yaratish demakdir"⁴. San'atkor hayotni obrazlar orqali tadqiq etar ekan, barcha fikr-tuyg'ulari, kitobxonga aytmoqchi bo'lgan "dard"ini obrazlarda mujassamlashtiradi.

Obraz tushunchasi adabiyotshunoslikda, jumladan, Abdulla Qahhor tasavvurida, asosan, inson xarakteri ma'nosida talqin qilinadi. "30-yillar boshida "So'nggi kecha" degan bir film ko'rgan edim. Bu film o'ttiz yildan beri esimdan chiqmaydi. Bunga birdan-bir sabab – filmdagi qari bir ishchining alomat obrazidir. Bu insonning qalbiga chuqur qo'l solib, zargarning sabri hafsalasiyu, naqqoshning hunari bilan oro berilgan obrazdirki, bunaqa obraz asarning qanoti bo'lib, uni zamondan-zamonga, makondan-makonga parvoz qildiradi". Badiiy ijodning oltin qonuniga aylangan bu haqiqat yozuvchi va komediyanavis Abdulla Qahhor uchun ham yuksak ijodiy prinsip bo'lib xizmat qilganligini ko'ramiz. Zeroki, «Yozuvchining yozuvchiligi, degan edi Abdulla Qahhor, - u yaratgan obrazlariga, adabiyot «domovoyi»ga yozdirgan yangi odamlariga qarab baholash kerak"⁵. Chinakam iste'dod bilan yozilgan asar qahramonlari kitobxonga jonli odamlardek ta'sir qiladi va uning qalbidagi yot "unsur"larni yo'qotishga yordam beradi. Buyuk mutafakkir Aristotel aytganidek, adabiyotning, dramaning tomoshabinga ana shunday kuchli ta'siri orqali "katarsis"-poklanish jarayoni sodir bo'ladi.

Shu o'rinda aksariyat adiblar ijodi uchun xos bo'lgan muhim bir jihatga, ya'ni chinakam yetuk asar yaratish uchun, mavzuni chuqur o'rganish va bo'lajak qahramonlari - odamlar qalbiga qalbini payvand qila olishi zarurligiga

e'tibor qarataylik. Abdulla Qahhorning ilk komediyasi "Shohi so'zana" ("Yangiyer") yetuk san'at asari bo'lishining sabab va omillari ko'p. Eng avvalo, bu asarning qanday sharoitda va qanday holatda yaratilgani ham ko'p jihatdan o'rganishga loyiq.

Yozuvchining turmush o'rtog'i Kibriyo Qahhorovanning "Chorak asr ham nafas" kitobida bu mashhur komediyaning yaratilish jarayoni va ijodiy tarixi haqida juda qimmatli va ishonchli ma'lumotlar keltiriladi. Abdulla Qahhor kolxoz, sovxozni bir aylanib darrov ocherk yozib tashlayveradigan yozuvchilardan emas edi. "Yozilajak asarlarining qahramoni bilan yaqindan tanishmaguncha qo'lga qalam olmasdilar. 1948-yil avgustida Mirzacho'lga qarab yo'l oldik. O'sha yillari Mirzacho'lning ko'chalari to'piqqa uradigan tuproq, salgina yomg'ir tashlasa, bir haftagacha qurimay, shirachday bo'lib yotar edi. Kolxoz raisi bilan Abdulla Qahhor ko'pincha ot minib dala aylanishardi. Biz yashaydigan sharoitda ijod qilish nihoyatda dushvor edi. Kolxozning kichkinagina dvijogi bo'lib, birpas tap-tap qilib ishlar edi-yu, soat to'qqiz bo'lar-bo'lmas to'xtab qolardi.

Salvaqtda sovuq ham tushib qoldi. Hujrani isitay desak na o'tin bor, na ko'mir. Toshkentga tushib bir mashinada o'tin-ko'mir olib chiqdik, eski shahar bozorida bitta o'ttizinchi lampa oldik. Abdulla Qahhor shu lampadan kerosinka yasadilar. Elektr chiroq o'chgandan keyin lampa ham uyni yoritir, ham isitar, yana ustiga ustak unda choy ham qaynatir edik. Lekin biror marta Abdulla Qahhor, shu sharoitda yashab ijod qilish mumkinmi, deb shikoyat qilmaganlar. Kun bo'yi yo suvora, yo piyoda dala aylanan edilar.

Bir narsani alohida e'tirof qilish kerakki, garchibizuncha-muncha qiynalgan bo'lsak ham, Mirzacho'l safari Abdulla Qahhor ijodida katta burilish yasadi. "Yangiyer" ("Shohi so'zana") komediyasining "poydevori" ham o'sha yerda qo'yildi. Undagi Mavlon, "Sinchalak" dagi Eshon kabi obrazlarning protiplarini Abdulla Qahhor Mirzacho'lga uchratganlar"⁶. Afsuski, o'sha yillari adib bedavo bir dardga, qand xastaligiga ham chalingan bo'ladi. Kasalxonadan tuzalib chiqqach, "Shohi so'zana" komediyasini yozib tugatadi. Bu komediya 1949-yili respublika miqyosida o'tkazilgan yopiq konkursda "Mirzacho'llik" imzosi bilan qatnashib, yuksak mukofotga sazovor bo'ladi. O'sha yili o'zbek sahnasining otaxoni yetim Bobojonov bu asarni Hamza nomidagi akademik drama teatri sahnasida muvaffaqiyatli namoyish etadi.

1950-yili SSSR Davlat mukofotining laureati Y.German bilan B.Rest tarjimasida "Shohi so'zana" Moskvada, "Zvezda"

jurnalining mart sonida chop etiladi va kelgusi yili komediya SSSR Davlat mukofotiga sazovor bo'ladi. Abdulla Qahhor bu komediyasi bilan birinchi bo'lib o'zbek dramaturgiyasini umumittifoq sahnasiga olib chiqadi. Keyinchalik bu asar bir qator xorijiy mamlakatlarda ham sahnalashtiriladi. Bu komediya misolida badiiy ijodning muqaddas bir printsipini "kashf" etish mumkin, ya'ni chinakam san'at asari yaratish uchun yozuvchi o'sha hayotda yashashi va undagi barcha quvonchu tashvishlarni o'z boshidan qayta kechirishi talab etiladi. Adibning bu fazilatini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yozuvchi va san'atkorlar bilan uchrashuvida hozirda tanib bo'lmas darajada o'zgarib, zamonaviy shahar tusini olgan Yangiyer va Mirzacho'llarni 40-50-yillar o'zlashtirishda Abdulla Qahhorning cho'lquvar – paxtakorlar bilan birga yerto'lazemlyanka – qora uychalarda yashab, mashhur "Shohi so'zana" komediyasini yozganligini eslatgani ham ijod ahliga unutilmas saboq bo'lishi mumkin.

Yozuvchining asar yaratish jarayonida bu muqaddas ijodiy printsipiga izchil amal qilganligi va talabchanligini quyidagi misolda ham ko'rish mumkin. Adib dastlabki o'nlab asarlarini mutlaqo san'at asari emas deb hisoblagan va ularni butunlay tanqidiy baholab, biron to'plamiga ham kiritmagan. Yoki 1937-1939 yillarda yozgan va hamkasblari ijobiy baholagan "Tashvish" nomli ijtimoiy-axloqiy mavzudagi dastlabki komediyasidan ham ko'ngli to'lmagan va yozuvchining adabiyotga, ijodga bo'lgan talab-mas'uliyati yuqori bo'lganligidan ham bu asarni e'lon qilishni lozim topmagan. Ana shunday talabchanlik bilan yaratilgan "Shohi so'zana" komediyasida Xolniso va Hamrobuvi xarakteridagi o'ziga xos jihatlar samimiy kulgi vositasida estetik tanqid ostiga olinadi. Va shu orqali komediyadagi voqealar rivojlantiriladi, oqibatda asar boshida qo'yilgan tugun komik konfliktlar jarayonida, xarakterlar kulgisi orqali yechiladi. "Shohi so'zana" komediyasidagi kurash, ziddiyat komik va takrorlanmas xususiyatlarga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Ongida eskicha tafakkur mevalari qotib qolgan, qoloq fikrlash unsurlari mavjud, jamiyatimizdagi boshqa insonlar qarashlariga zid fikrlovchi xarakter egalari o'sib kelayotgan yangi, ilg'or kuchlarga to'qnash kelib, ularga asossiz va noo'rin holatda qarshi chiqib, kulgili, komik ahvolga tushib qolishadi. Jamiyatdagi yuz berayotgan yangiliklar mohiyatiga tez va o'z vaqtida tushuna olmay, o'zaro ziddiyatlarga duchor bo'ladi. Xarakterlaridagi kulgili jihatlarni, umuman fe'l-atvorlarini o'zlari anglamagan holda oshkor etadilar. Shu taxlit voqealar davomida xarakterlarning o'zaro munosabati natijasida ular yangilishish kolliziyasiga

tushadilar, asta-sekin, kechikib bo'lsa ham, ma'naviy nuqsonlari yo'qolib, o'z-o'zlarini anglab boradilar.

"Xolniso va Hamrobuvi bir tarixiy davr odamlari. Ular eski hayot qabohatlarini bir sidra boshlaridan o'tkazishgan. Inqilob yillaridagi alg'ov-dalg'ovlar, hayotni qayta qurish qiyinchiliklari va nihoyat fashizmga qarshi umumxalq kurashi – bular hammasi ular ongida turg'un, real dunyoqarash yaratgan. Bundan chekinish ularning xayollariga ham kelmaydi. Hatto farzandlarining hayotga yangicha munosabatlari ham ularni ko'p ajablantira bermaydi. Ammo ular hamon eski urf-odatlardan tamoman kechib qo'ya qolmaydilar. Mana shu hol bizda kulgi uyg'otadi. Qudalikka ahdu paymon qilishgan Hamrobuvi va Xolniso buvi farzandlarining faol mehnatiyu, ijtimoiy faoliyatiga qarshi bo'lmasalar ham ko'proq bitta umid bilan band. Bu ham bo'lsa orzu-havas ko'rish, chiroyli to'y qilib kelining bormi bor; kuyoving bormi, bor degulik bo'lib el-yurt orasida obro' qozonish"⁷. Asarning komikligini yangilishish damlarining komik planda, turli xil kulgili vaziyatlarda kechishi, ijobiy personajlarning o'z raqiblarini uddaburonlik va mehribonlik bilan aldab to'g'ri yo'lga solishlari, ular xarakteridagi nuqsonlarni anglab etishlariga ko'maklashishlari zaminidagi kurash kulgili, komik holatlarni yuzaga keltirgan.

Bosh qahramonlar Hamrobuvi va Xolniso o'z xarakterlaridagi kamchilik va nuqsonlarni anglab etmaydi, go'yoki ular o'ta aqli-yu, atrofdagilar esa, hech narsani anglamaslikda, hayotni to'g'ri tushunmaslikda ayblashadi. Xuddi shu ma'nodagi fikrlash, tafakkur natijasida turli chigalliklar, anglashilmovchiliklar kelib chiqadi. Bu esa o'z navbatida atrofdagilarning haqli kulgisiga sabab bo'ladi.

Muallif xarakterlararo ziddiyatni yuzaga keltirishda asardagi boshqa personajlardan biron tasning to'la ma'noda salbiy mohiyatga ega bo'lganligidan, ularda faqat xunuk sifatning zohirligidan, bular natijasida yuzaga keladigan to'sqinliklarning nisbatan katta va zararli ijtimoiy kuchga aylana olmasligidan kelib chiqadi. Shunga mos tarzda xarakterlararo munosabatlar, ular o'rtasidagi ziddiyatlar va to'qnashuvlar u qadar keskinlashtirilmaydi. Ammo muallif xarakterida, fe'l-atvorida jamiyat qarashlariga zid fikrlash mavjud kishilar ahvoli zamonaviy fikrlaydigan, ilg'or kishilar qarshisida kulgili ekanligini hayotiy va ishonarli tarzda ko'rsatib bera oldi. Bu jihat ayrim adabiyotshunoslar ta'kidlaganlaridek, komediya konfliktining kamchiligi emas, aksincha, muallifning yumoristik kulgi yaratishdagi, xarakterlar komediyasini yuzaga keltirishdagi o'ziga xos

3 Abdulla Qahhor. Asarlar. 6 tomlik. 6-t.-T.: Yozuvchi. 1971. 411, 311-bb.

4 O'jaboyev U. Zamon talabi va ijodkor mas'uliyati. -T.: Fan. 2012. 54-b.

5 Abdulla Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. -T.: Yosh gvardiya. 1968. 117-118-b.

6 Kibriyo Qahhorova. Chorak asr ham nafas. -T.: Adabiyot va san'at. 1987. 33-35-b.

7 Kibriyo Qahhorova. Chorak asr ham nafas. -T.: Adabiyot va san'at. 1987. 33-35-bb.

badiiy kashfiyotidir, desak xato bo'lmaydi.

Abdulla Qahhor "Shohi so'zana"da Hamrobuvi obrazlarini hamda "Ayajonlarim" komediyasidagi Bo'ston buvi kabi betakror xarakterlarni individuallashtirish jarayonida o'zbek xalqiga xos bo'lgan, jumladan, keksa onaxonlarimizdagi tipik milliy xarakter xususiyatlarining ayrim jihatlari juda katta mahorat bilan umumlashtiradi.

Hamrobuvi hamda Xolniso o'z farzandlarining Mirzacho'lga borishlariga birdaniga rozilik bildirishmaydi. Ayniqsa, Hamrobuvi qattiq qarshilik ko'rsatadi. Ikkala qudalarda bir-birlarini tushunmaslik, har qanday yangiliklarga shubha bilan qarash holatlari asar davomida rivojlantirib boriladi. Keyinchalik sekin-sekinlik bilan ular fikrlariga ishonishib, ularning Mirzacho'lga ketishlariga rozilik bildirishadi.

Muallif o'z qahramonlarining ichki dunyosi, xarakterlari dinamikasini jamiyat hayotidagi tub o'zgarishlar, yangiliklar bilan bog'liqlikda rivojlantirib boradi. Bu esa o'z navbatida komediyaning hayotiy voqelik bilan chambarchas bog'liqligini ta'minlagan va ta'sir kuchini oshirgan. Hamrobuvi va Xolniso xakteri, ichki dunyosi muallif tomonidan jonli hamda to'laqonli ochib berilgan. Chunki mazkur qahramonlar komediyadagi boshqa obrazlarga nisbatan ko'proq asar sujetida ziddiyatlarga duchor qilinadi. Bu holat qahramonlar xakteri dinamikasining to'laqonli chiqishini ta'minlagan. Abdulla Qahhor o'z obrazlarining xakteridagi ojiz va kuchli jihatlari komediyaning umumiy badiiy g'oyasiga mos keladigan komik elementlar bilan boyitib boradi.

LOCAL FOLK TALES AS AN EFFECTIVE TOOL FOR MEMORIZING VOCABULARY

Nargiza Arifovna Kadirova - PhD, Bukhara state pedagogical institute

Abstract: This article is dedicated to a vocabulary teaching strategy that helps students to memorize words faster and understand their meaning in context better. The core idea of the article is based on an assumption that familiarity of a text in native language, along with its cultural content, to students makes it easier to memorize the sentence and phrases in its English translation through drawing parallels and reflecting the plotline.

Annotatsiya: Ushbu maqola talabalarga so'zlarni tezroq yodlash va kontekstda ularning ma'nosini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan so'z boyligini oshirish strategiyasiga bag'ishlangan. Maqolaning asosiy g'oyasi talabalarga ona tilidagi matnni uning madaniy mazmuni bilan tanishtirish, uning ingliz tilidagi tarjimasida jumla va iboralar hamda syujet mazmunidagi o'xshashligini aks ettirish orqali eslab qolishni osonlashtiradi, degan taxminga asoslanadi.

Аннотация: Данная статья посвящена стратегии расширения словарного запаса, которая помогает учащимся быстрее запоминать слова и лучше понимает их значение в контексте. Основная идея статьи основана на предположении, что знакомство учащихся с текстом на родном языке, наряду с его культурным содержанием, облегчает запоминание предложений и словосочетаний в его английском переводе за счет проведения параллелей и отражения сюжетной линии.

Keywords: teaching, method, folk tale, vocabulary, native language, foreign language

Kalit so'zlar: o'qitish, metod, xalq ertagi, lug'at, ona tili, xorijiy til

Ключевые слова: обучение, метод, народная сказка, лексика, родной язык, иностранный язык.

Teaching language is a complex and time-consuming procedure. For many centuries specialists have developed and implemented various methods to simplify this process and make it more effective. The diversity of approaches for teaching English is currently

so wide, that it's sometimes quite difficult for young teachers to decide which strategy to choose, and it takes years of experience before they figure out which methods work and which don't. Understanding the process of reading has been the focus of much

research over the past 125 years¹. This article is dedicated to a vocabulary teaching strategy that helps students to memorize words faster and understand their meaning in context better.

In today's process of globalization, the effect of the radical reform of the education system of Uzbekistan is evident in all areas related to this area. The state pays great attention to the teaching and further development of foreign languages in the education system. The issue of attitudes to foreign language teaching is addressed in the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 19, 2021 No PP-5117 "On measures to bring the promotion of foreign languages in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level": "... education in foreign languages It is no coincidence that the need to develop as a policy priority, radically improve the quality of education in this area, attract qualified teachers to the field and increase the population's interest in learning foreign languages"².

The above resolution emphasizes the task of popularizing the study of foreign languages among the population and creating the necessary conditions for their perfect mastering, coordinating the introduction of internationally recognized programs and textbooks for teaching foreign languages at all levels of education and developing modern teaching skills.

One of the native assumptions on language teaching is that curriculum plans will be faithfully realized at the level of classroom action³. Absolute majority of language teaching programs are based on parsing texts that are originally written on the language being taught. That seems logical, since along with the language, learners become acquainted with the speech culture, traditions and patterns. Such approach has proven effective for decades.

However, to minimize the load on students, and focus on learning the language itself it might be effective to combine the traditional methods with the ones involving texts familiar to learners and translated

from the local language. That might incur additional costs, but at the end it could result in faster vocabulary memorizing, better understanding of phrases in the context and increase the students' engagement (during the experiment described in this presentation students demonstrated much higher levels of enthusiasm and interest, probably because the lesson seemed much easier to them due to the familiarity of the analyzed text).

The core idea of the article is based on an assumption that familiarity of a text in native language, along with its cultural content, to students makes it easier to memorize the sentence and phrases in its English translation through drawing parallels and reflecting the plotline. Purposes of the research were:

-To check the effectiveness of using English translations of local folk tales familiar to students within the process of memorizing vocabulary.

-To compare the mentioned method with the traditional one, involving texts written in English originally.

Research methodology:

-For the purpose of the first part of the research a well-known Uzbek folktale (Urtuqmoq)⁴ was translated and printed bilingual on one paper;

-The text was examined with a group of students at the beginning of the lesson;

-New words of average complexity were written out on the blackboard, analyzed and deleted;

-Students were told not to copy the words;

-At the end of the lesson students had a quiz requiring them to write a translation of the 11 new words analyzed at the beginning of the lesson;

-For the purpose of the second part of the research a text originally written in English was printed out (King Midas)⁵;

-The story was examined at the beginning of the lesson on the other day with a group of students of the same level as the first one;

-New words of average complexity were written out on the blackboard, analyzed and deleted;

¹ Practical English Language Teaching, first edition. David Nunan. International Edition 2003, P. 69.

² Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-5117 of May 19, 2021 // <https://lex.uz/docs/5426736>

³ Language Teaching Methodology. A textbook for teachers. David Nunan. Prentice Hall International English language Teaching.

⁴ <https://ertak.uz/tale/190>

⁵ <https://www.greeka.com/greece-myths/king-midas/>

-Students were told not to copy the words;

-At the end of the lesson students had a quiz requiring them to write a translation of the 11 new words analyzed at the beginning of the lesson;


-The Quiz was repeated a week later and all the results were analyzed and compared.

The analysis of several experimental lessons provided herein, has demonstrated the correctness of the assumption and revealed that the proposed strategy is sometimes a bit more effective than the traditional parsing of texts of British or American origin. A short quiz following each experimental lesson showed that students remembered words better when compared to standard syllabus texts.


	Group 1	Group 2
1	14	14
2	1	1
3	10 min	10 min

- Number of students in each group (1)
- Students' year of study (2)
- Time provided for 11 questions (3)

Quiz 1 Outcomes



Quiz 2 Outcomes (One week later, with the same Groups)



It should be noted that the idea promoted in the presentation requires a much deeper research since it is based on a very limited amount of data and small number of tests, however it can be used as an extra tool to help teachers and students in making educational process more effective. Also, the approach described in this article made lessons more interesting to students, thus increasing their engagement and level of attention (according to students' own perception). The experiment was carried out in Bukhara state pedagogical institute.

The data above shows that parsing texts in English for the purpose of enriching students' vocabulary might be more effective if those texts are not originally written in English but translated from local texts, especially artistic embodiment of traditions, human feelings, preliminary familiar to students (such as fairy tales or folk tales). Definitely, such a small analysis can't be enough to draw a full-fledged conclusion, however, its main task is to provide general overview, draw attention to the issue and entail further, more detailed and professional investigation by scholars.

6 Arifovna, K. N. (2021). The Study of Turkic Nations Folklore and its Development. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 10, P-55.

O'ZBEK, RUS VA INGLIZ TILLARIDA ANOR SO'ZINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Kamola Davranovna Khaydarova -katta o'qituvchi, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz, rus va o'zbek tillaridagi anor leksemasining leksik-semantik va lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, uning bu tillardagi kelib chiqish tarixi, matn va lug'atlarda qo'llanish xususiyatlari hamda ma'no va shakl o'zgarishlarini ochib berishga harakat qilingan. Maqolaning asosiy maqsadi turli tillarda anor so'zining tizimli tahlillarini ilmiy va nazariy jihatdan asoslash va ularni chuqur o'rganish.

Аннотация: Данная статья посвящена лексико-семантическому и лингвокультурологическому изучению лексемы гранат в английском, русском и узбекском языках, выявлению истории возникновения, особенностей употребления в текстах и словарях, изменений значения и формы в этих языках. пытался дат. Основная цель статьи - научно и теоретически обосновать анализы слова гранат в разных систематических языках и их углубленное изучение.

Abstract: This article is devoted to the lexical-semantic and linguo-cultural study of the lexeme pomegranate in English, Russian and Uzbek languages, revealing the history of origin, features of use in texts and dictionaries, and changes in meaning and form in these languages. tried to give. The main goal of the article is to scientifically and theoretically base the analyzes of the word pomegranate in different systematic languages and to study them in depth.

Kalit so'zlar: anor, lug'at, lingvokulturologiya, matn, Boburnoma.

Ключевые слова: гранат, словарь, лингвокультура, текст, Бабурнома.

Keywords: pomegranate, dictionary, linguistic culture, text, Baburnoma.

Anor – "Anordoshlarga mansub, kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi sub-tropik o'simlik va shu daraxtning ichi qizil donalar bilan liq to'la yumaloq mevasi"¹. "... Yaxshi qasaba voqe bo'lubtur, pur ne'mat; anori va o'rugi asru ko'p ho'b bo'lur. Bir jins anor bo'lur, "dona kalon" derlar, chuchukligida zardolu mayxushlig'idin andakchoshnibor. Samnon anorlarig'a tarjeh qilsa bo'lur..."²; "Anori yaxshilikda mashhurdir. Nechukkim, "Sebi Samarqand" derlar va "Anori Xo'jand" derlar. Vale' bu tarixda Marg'inon anori ko'p ortiqdur"³; "Dashnobod anori besh so'm bo'ldi. Toshdan qimmat-toshdan qimmat narx-navo bo'ldi! Nima bo'lsa bo'ldi – baridan bir kilodan oldim. Ikki dona anor bir kilo keldi. Men anor salmoqlab-anor salmoqlab o'yladim: dasturxonga ikkitagina anor qo'ysa bo'lmaydi. Katta mehmonlar nozikta'b bo'ladi. O'l-e, bor-yo'g'i ikkita anor qo'yibdi-e, deydi. Shu bois, tag'in bir kilo anor oldim. Jami to'rtta katta-katta anor bo'ldi"⁴.

Гранат – "1. Южное растение (кустарник, дерево) сем. гранатовых, преимущественно с яркокрасными цветами; плод этого

растения, с толстой кожурой, наполненный многочисленными семенами, покрытыми сочной, прозрачной кисло-сладкой мякотью 2. Самоцвет, полудрагоценный камень, обычно тёмнокрасного цвета. По середине [браслета]⁵: "...Гранаты и урюк там очень обильны и хороши. Ест один сорт граната, который называют «дона-калан; в его сладости чувствуется легкий приятный [кислый привкус] абрикоса. [Этим гранатам]// можно отдать предпочтение перед сем-нанскими гранатами..."⁶; "Плоды там очень хороши, ходжендские гранаты славятся своим прекрасным качеством. Как говорят: "самаркандские яблоки", так говорят: "ходжендские гранаты". Но в настоящее время маргинанские гранаты [считаются] много лучше"⁷;

Pomegranate – A pomegranate is a round fruit with a thick reddish skin. It contains lots of small seeds with juicy flesh around them⁸: "... Its apricots(aürük) and pomegranates are most excellent. One sort of pomegranate, they call the

1 O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, – 2006. – J. I. –B 87 / 680 b.

2 Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma", T.: "Yangi asr nashriyoti", 2018. – B 7 / 704 b.

3 O'sha yerda – B. 10–11 / 704 b.

4 Murod T. Otamdan qolgan dalalar. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni, 1994. – B. 122 / 168 b.

5 Словарь современного русского литературного языка. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1954. – Т.III. – Стлб. 365. / 1339 стлб

6 Бабур. Бабур-наме (Записки Бабур). (Сост. С. Азимджанова; отв. ред. М. Хайруллаев; пер. М. Салье. – Т.: Изд. ЦК КП Узбекистана, 1982). – С. 30 / 253 с.

7 O'sha yerda. – С. 19

8 Pomegranate // <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/pomegranate>

Great Seed (Dāna-i-kalān); its sweetness has a little of the pleasant flavour of the small apricot (zard-alū) and it may be thought better than the Semnān pomegranate...⁹; "Fruit grows well there; its pomegranates are renowned for their excellence; people talk of a Khujand pomegranate as they do of a Samarkand apple; just now however, Marghīnān pomegranates are much met with"¹⁰

Asosan Sharq mamlakatlari (O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Afg'oniston) hududlarida yetishtiriladigan meva nomlaridan biri anor bo'lib u kelib chiqishiga ko'ra asl forscha so'z hisoblanadi. Uning qisqartirilgan nor shakli turkiy yozma yodgorliklarda nara tarzida IX-X asrlardan boshlab uchraydi¹¹. Nor so'zi fors va turkiy tillarda qizil kabi ma'noni ifodalovchi so'z sifatida qo'llaniladi¹². Bunday holat, bizningcha, anor daraxti va uning mevasining nomi rangiga taqlid qilinishi natijasida kelib chiqqanligidan darak beradi.

Turkiy tillarda forscha anor so'zining qisqartma shakli nar murakkab otlar tarkibida qo'llanilib, semantik jihatdan rivojlangan. Jumladan, u **نار توتيه** [qōrā tūyā] "qora bir o'rkachli tuya" kabi ma'nolarni ifodalaydi¹³.

Sh.Rahmatullayev muallifligida chop etilgan "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da fors-tojikcha bo'lgan anor so'zi "tarkibidagi a tojik tilidagi o (ā) tovushiga almashtirilgan va o'zbek tiliga shu shaklda qabul qilingan" deb izohlagan¹⁴.

Bu mevaning vatani O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Afg'onistondir. Yovvoyi turlari esa O'rta Osiyoning janubida va Dog'istonda uchraydi¹⁵. Uning omonimi bo'lmish nor leksemasi ko'pincha "badandagi tug'ma qizg'ish dog'" deya nisbatan ham qo'llanilgan¹⁶.

Shunga o'xshash Anor (nor) leksemasi vositasida yasalgan qo'shma so'zlar tilimizda ko'plab uchratish mumkin. U asosan kishi nomlarini yasashga xizmat qiladi: Nortoji, Anorgul, Norqul, Anorgul, Nortoy, Anortoy, Norxo'ja, Normamat, Gulnorxon.

O'zbek tilida nor so'zi bilan bog'liq toponimlar ham mavjud: Norbo'ta, Denor (qishloq nomi)¹⁷.

Turkiy, jumladan o'zbek tilidagi, anor so'zining

ruscha ekvivalenti granat leksemasidir.

"Словар русского языка XI–XVII вв." гранат so'zi ilk bor "гранат (дерево и плод) ma'nosida" 1707-yil bilan "Писма и бумаги имп. Петра Великого" nomli kitobda qayd etgan: "На деревѣ гранатѣ яблоко поспѣло, и я, снявъ, послалѣ до вашего величества". Ushbu maqolasida uning "драгоценный камен, гранат" va "название сорта сукна" kabi ma'nolari ham keltirilgan¹⁸.

L.P. Krisinning fikriga ko'ra, lotincha granatus so'zi rus tiliga granata shaklida nemis (granat) tilidan o'zlashgan¹⁹.

Anor ingliz tilida pomegranate leksemasi bilan ifodalanadi. Ushbu leksema XV asrda ingliz tiliga pomegrenate ko'rinishida qadimgi fransuz tilidan kirib kelgan bo'lib, kelib chiqishi nuqtayi nazardan lotin tilidagi pomum granatum ("apple with many seeds" – ko'p donli olma; from pome "apple; fruit" + grenate "having grains" – pome – "olma; meva" + grenate – donli) so'ziga borib taqaladi²⁰.

Pomegranate so'zi deyarlik ingliz tilining barcha lug'atlarida qayd etilgan. Walter Skeatning "A Concise Etymological Dictionary of the English Language" etimologik lug'atida pomegranate lotin tilidagi pomum – an apple (olma); grānātum – full of seeds (donga to'la, donli); from grānum – a grain, seed (don, urug') so'zlaridan kelib chiqqanligi ko'rsatilgan²¹.

"Longman Dictionary of Contemporary English" nomli izohli lug'atda "pomegranate – a round fruit that has a lot of small juicy red seeds that you can eat and a thick reddish skin"²² – juda ko'p mayda, suvli, qizil urug'lar bilan to'la, qalin qizg'ish teriga ega, yesa bo'ladigan yumaloq meva (tarjima bizniki – K. D.), deb talqin qilingan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shundan darak beradiki, ma'no jihatdan o'zb. anor – rus. граната – ing. pomegranate bir-biriga juda yaqin, ammo qo'llanilishi jihatdan bir-biridan farq qiladi. O'zbek va rus tillarida ho'l meva nomini anglatuvchi anor so'zi ism hamda familiyalar tarkibida ham uchraydi.

9 Babur – nama (Memoirs of babur). – New Delhi: Oriental books reprint corporation, 1979. – P. 6 / 716 p.

10 O'sha erda – P.8 / 716

11 Bu haqida batafsil qarang: Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. – Санкт-Петербург, 1871. – Т. II. – С. 276. / 415 с.; Ишанкулов Ю. К истории названий плодов в узбекском языке. С.73.

12 Полный персидско-арабско-русский словарь. Т.: Электро-пар. типолитография Штаба Туркестанского военного округа, 1910. – С. 1642. /1815 с.

13 Qarang Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. – Санкт-Петербург, 1871. – Т. II. – С. 276.

14 Rahmatullayev Sh. O'zbek tiling etimologik lug'ati. – T.: Universitet, 2009. – J. III. – B. 11. / 283 b.

15 Batafsil qarang: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/anor-uz/>.

16 O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, – 2006. – J. III. – B.59. / 687 b.

17 Mirakmalov M.T. Xalq tabiiy geografik terminlari – T.: Toshkent, 2009. – B. 158. / 181 b.

18 Словарь русского языка XI–XVII вв. – М.: Наука, 2000. – Вып. 4. – С. 122. / 407 с.

19 Крысин Л.П. Тольковый словарь иноязычных слова. – М.: Эксмо, 2010. – С. 219. / 944 с.

20 Batafsil qarang: <https://www.etymonline.com/search?q=pomegranate>

21 Walter W. Skeat "A Concise Etymological Dictionary of the English Language" Published by forgotten books 2013. – P. 401. / 663 p.

22 Batafsil qarang: <https://www.idoceanline.com/>

CONNECTION BETWEEN LANGUAGE AND SOCIETY

Leninza Axmedjanovna Masharipova - teacher, Urgench state university

Abstract: Development is an objective, dialectical process, which happens due to the changes that occur as a result of the transition from one quality to another quality. Every object and event in the world is in constant motion. Likewise, language is always changing. This is related to the life of the society, to which the language is directly connected, its continuous movement and development. If the society stops this movement or if this connection is cut off, then the language will stop developing and it will disappear.

Annotatsiya: Rivojlanish - obyektiv, dialektik jarayon bo'lib, bir sifatdan boshqa sifatga o'tish natijasida yuz beradigan o'zgarishlar tufayli ro'y beradi. Dunyodagi har bir predmet, hodisa doimiy harakatdadir. Xuddi shuningdek, til ham hamisha o'zgarishda. Bu esa til bevosita bog'liq bo'lgan jamiyat hayoti, uning doimiy harakati, rivojlanishi bilan bog'liq. Jamiyat bu harakatdan to'xtasa yoki bu aloqa uzilsa, o'sha zahoti til ham rivojlanishdan to'xtaydi, yo'qoladi.

Аннотация: Развитие являяс объективным, диалектическим процессом, происходит за счет изменений в результате перехода из одного качества в другое. Каждый предмет и явление в мире находятся в постоянном движении. Точно так же и язык постоянно претерпевает изменения. Это связано с постоянным движением, развитием и жизнью общества с которым непосредственно связан язык. Если общество остановится в этом своем движении или разорвет эту непосредственную связь, то язык перестанет развиваться и пропадет.

Keywords: language, society, concept, idea, information, connection, specific, globalization.

Kalit so'zlar: til, jamiyat, tushuncha, g'oya, axborot, aloqa, maxsus, globallashuv.

Ключевые слова: язык, общество, концепт, идея, информация, связь, специфика, глобализация.

Language is considered not only as an important means of conveying information, but also as a product of the societies that use it. The specific choice of words that make up a language and the syntax of that language indicate how a society perceives and relies on its environment. By studying the language of a certain society in depth, a broader understanding of that society can be formed. The changing nature of language is equally true in reflecting the changing conditions that society faces.

V.A.Zveginsev confidently states the same opinion: "A language without society loses its developmental character and becomes artificial. For example, Latin became the language of the Catholic religion, and in the Middle Ages it served as the international language of science. Similarly, the classical Arabic language played an analogous role in the countries of the Middle East"¹

Language is a carrier of ideas and concepts. Therefore, the character of the language used by a given society reflects the way they choose to communicate these ideas and concepts. One of the most obvious ways to do this is through the words of the language. As is commonly noted, for example, the Eskimo languages have many words for snow and snow-related concepts. Because snow was such an important part of the Eskimos' way of life and a common element in their environment, they developed a language that included the concept of snow. There are no variations about snow in other languages.

As mentioned above, language is considered not only as an important means of conveying information, but also as a product of the societies that use it. The specific choice of words that make up a language and the syntax of that language indicate how a society perceives and relies on its environment. By

1 Звегинцев В.А. "Очерки по общему языкознанию". М., 1962. Pp 178- 179.

studying the language of a certain society in depth, a broader understanding of that society can be formed. The changing nature of language is equally true in reflecting the changing conditions that society faces. By observing the progress and changes in language, one can similarly trace another way of revealing the progress and changes in society through its use. Clearly, language is our most important tool and one of the most pervasive elements of civilization around the world. Indeed, the development and use of language seems to be an innate human trait. Thus, studying it is one of the most profound and revealing ways to understand people in our world.

Materials and methods. Comparing languages shows that the meanings, forms, and grammatical features of words in some languages are very different from each other. Of course, such languages cannot be considered as close languages. However, the structure, grammatical features of some languages, the origin of words in these languages, word forms and meanings are very close to each other.

The richness of the language does not depend on whether the race is white or black. Thus, the geneological classification divides the languages into groups, taking into account the fact that relative languages have spread from one root language in

the course of historical development and their interrelationship, word meanings and grammatical forms, closeness and similarity of speech sounds. Another way that language is reflected in society is through the syntax of that language. Words are not the only way to convey ideas and concepts; it is equally

important to show how these concepts and ideas are expressed in the way of thinking and their importance for a particular society. As the most obvious example of this, we can see in the placement of adjectives and nouns in the language. Most Roman languages follow the noun-then-adjective rule, where the noun described by the adjective comes before the adjective. The concept of a noun is given greater importance than the adjective that describes it, and this is based on the fact that

the noun must be spoken first.

Results. In the current era of globalization, English is one of the most widely spoken languages, the language of business, science and diplomacy. If someone wants to meaningfully participate in international events, he should definitely pay special attention to learning English. It can also be attributed to the success of the United States as a military, diplomatic, and economic hegemon over the past century, which necessitated that people speak its language if they wanted to communicate with it².

So how did the English language come about? The English language arose mainly through hybridization, and it went through three periods. The first period is the period from ancient times to the 11th century. During this period, the Angles, Saxons, and Jutes invaded Britain, pursued the local Celtic tribes (the ancient ancestors of the present-day Scots, Irish, and Welsh) and ruled the British island themselves. At the end of this period, in the 9th-10th centuries, wars took place between the Anglo-Saxons and the Danes, and in this war, the Danes won, joined the Anglo-Saxons and interbred.

The second period includes the 11th-15th centuries. During this time, the Normans invaded and took over Britain. They spoke French, the Anglo-Saxons spoke German. It was a long struggle between the two languages, and in the end the local language won, but the French language had some influence on the Anglo-Saxon language. For example, the "great shift of vowels" that occurred in the history of the English language is explained by the superstrata of the French language. When a cross occurs, it is possible to talk about the phenomena of substrate and superstrate (these words are from Latin, the first means "bottom layer", and the second means "upper layer").

Both concepts are elements of the defeated language in the winning language. If the elements of the defeated language destroy the phonetic and grammatical structure of the victorious language and actively influence it, then substrate (superstrate) phenomena occur. Acquisition of words from one language

² Iriskulov M.T. "Zamonaviy globallashuv jarayonida millat tili va madaniyatining o'rimi". 2020 yil - ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili/2020 год - развития науки, просвещения и цифровой экономики. ("The role of national language and culture in the process of modern globalization". 2020 is the year of development of science, enlightenment and digital economy)

to another is not included in the substrate. When the substrate occurs, the foreigner language displaces the local language, and the language that is being out of use has a significant impact on the foreigner language.

In the case of the superstrat, the foreign language competes with the local language and significantly affects it, but does not supplant it. Let us take as an example the second period in which the English language had.

It should be noted that changes in the language do not happen suddenly: there is no revolution in the language, changes in the language take place gradually, in an evolutionary way. At the same time, there is no stagnation in the development of the language, it is constantly developing.

The third period is connected with the end of the 16th century, the beginning of Shakespeare's work. This coincides with the end of the hybridization process between the Anglo-Saxon languages and the establishment of the national English language³.

While studying the history of the emergence of the English language, it is natural that the question "how was the Uzbek language formed?" arises.

Language is a carrier of ideas and concepts. Therefore, the character of the language used by a given society reflects the way they choose to communicate these ideas and concepts. Language is considered not only as an important means of conveying information, but also as a product of the societies that use it. The specific choice of words that make up a language and the syntax of that language indicate how a society perceives and relies on its environment.

Artistic wordsmiths, writers and poets have a great contribution to the formation of national languages. In particular, Alisher Navoi and Babur contributed greatly to the formation of the Uzbek language, Pushkin to the development of the Russian language, Shota Rustaveli to the new Georgian language, Martin Luther to the German language, W.Shakespeare and others to the development of the English language⁴.

THE ROLE OF LEARNING LANGUAGE IN TEACHING

Mahbuba Shavkatovna Mardiyeva - teacher, Samarkand state institute of Foreign Languages

Abstract: The article under discussion describes the roles of teachers and learners in CLT. The article suggests different interesting techniques to improve the language competency and enhance motivation of the learners. CLT, traditional, interactive, method, improve, competency, classroom, independent, interdependent, contribute, communicative, facilitate.

Annotatsiya: Muhokama qilinyotgan maqolada CLTda o'qituvchi va talabalarning roli tasvirlangan. Maqolada til kompetensiyasini yaxshilash va talabalar motivatsiyasini oshirish uchun turli xil qiziqarli usullar taklif etiladi. CLT, an'anaviy, interaktiv, usul, takomillashtirish, kompetensiya, sinf, mustaqil, o'zaro bog'liqlik, osonlashtiruvchi, kommunikativ, osonlashtiruvchi.

Аннотация: В обсуждаемой статье описываются роли учителя и учащихся в CLT. В статье предлагаются различные интересные техники для улучшения языковой компетенции и повышения мотивации учащихся. CLT, традиционный, интерактивный, метод, улучшение, компетенция, классная комната, независимый, взаимозависимый, способствующий, коммуникативный, облегчающий.

Keywords: verbal communication, nonverbal language, gestures, age differences in learning language.

Kalit so'zlar: og'zaki muloqot, og'zaki bo'lmagan til, imo-ishoralar, til o'rganishdagi yosh farqlari.

Ключевые слова: вербальное общение, невербальный язык, жесты, возрастные различия в обучении языку.

Adult learners are very independent, while young learners are not. It is possible and even

³ Iriskulov M.T. "Zamonaviy globallashuv jarayonida millat tili va madaniyatining o'rimi". 2020-yil - ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili/2020 год - развития науки, просвещения и цифровой экономики. ("The role of national language and culture in the process of modern globalization". 2020 is the year of development of science, enlightenment and digital economy)

beneficial – to give adults more autonomy in their lessons. You can do this by letting adults work things out for themselves rather than giving them the answers, asking them to organize themselves into pairs or groups instead of allocating partners, and even giving input into the topics or activities of the lessons. With young learners, on the other hand, it is necessary to plan the lesson as you see fit, give clear instructions, monitor the learners closely, and deal effectively with any issues of classroom management. For example, when teaching adults you don't need to think about bathroom breaks (they can worry about that themselves!) but with young learners you will need to ask them regularly if they need to go to the bathroom. With online learners, you can expect your adult learners to do more while you need to lead your young learners step-by-step in whatever you are doing. Researchers who believe that grammar is learned rather than innate, have hypothesized that language learning results from general cognitive abilities and the interaction between learners and their human interactants. It has also recently been suggested that the relatively slow development of the prefrontal cortex in humans may be one reason that humans are able to learn language, whereas other species are not. Further research has indicated the influence of the Forkhead box protein P2 gene. Stages Relationship between interpersonal communication and the stages of development. The greatest development of language occurs in the stage of infancy. As the child matures, the rate of language development decreases. 0-1 years of age: An infant mainly uses non-verbal communication (mostly gestures) to communicate. For a newborn, crying is the only means of communication. Infants 1-5 months old have different tones of crying that indicate their emotions. Infants also begin laughing at this stage. At 6-7 months old, infants begin to respond to their own name, yell and squeal, and distinguish emotions based on the tone of voice of the mother and father. Between 7 and 10 months the infant starts putting words together, for example "mama" and "dada", but these words lack meaning and significance. Verbal communication begins at approximately 10-12 months, and the child starts to imitate any sounds they hear, for example animal sounds. The non-verbal communication of infants includes the use of gaze, head orientation and body¹.

The non-verbal communication of infants includes the use of gaze, head orientation and body positioning. Gestures are also widely used as an act of communication. All these stages can be delayed if the parents do not

communicate with their infant on a daily basis. Nonverbal communication begins with the comprehension of parents and how they use it effectively in conversation. Infants are able to break down what adults and others are saying to them and use their comprehension of this communication to produce their own. 1-2 years of age: Verbal and nonverbal communication are both used at this stage of development. At 12 months, children start to repeat the words they hear. Adults, especially parents, are used as a point of reference for children in terms of the sound of words and what they mean in context of the conversation. Children learn much of their verbal communication through repetition and observing others. If parents do not speak to their children at this age it can become quite difficult for them to learn the essentials of conversation. The vocabulary of a 1-2 year old should consist of 50 words and can be up to 500. Gestures that were used earlier on in development begin to be replaced by words and eventually are only used when needed. Verbal communication is chosen over nonverbal as development progresses. 2-3 years of age: Children aged 2-3 communicate best in a turn-taking style. This creates a conversational structure that makes it easier for verbal communication to develop. It also teaches patience, kindness, and respect as they learn from the direction of elders that one person should speak at a time. This creates interactional synchrony during their preverbal routines that shapes their interpersonal communication skills early on in their development. Children during this stage in their life also go through a recognition and continuity phase. Children start to see that shared awareness is a factor in communication along with their development of symbolic direction of language². This especially affects the relationship between the child and the caregiver; it is a crucial part of self-discovery for the child when they begin to take ownership over their own actions in a continuous manner. 3-5 years of age: In this age group children are still learning how to form abstract thoughts and are still communicating concretely.

Children begin to be fluent in connecting sounds, syllables, and linking words that make sense together in one thought. They begin to participate in short conversations with others. Stuttering can develop, generally resulting in slowed-down speech with a few letter enunciation errors (f, v, s, z). At the beginning of this stage toddlers tend to be missing function words and misunderstand how to use verb tenses. Over time they start including functional words, pronouns, and auxiliary verbs. This is the stage at which most children

1 L. Cameron and P. Mc Kay *Bringing Creative Teaching into the young learner classroom* Oxford 2016 p 58.

2 S. Thornbury, *How to teach speaking*, Pearson 2016 p 76.

can pick up on emotional cues of the tone of adults' conversation. If negative feedback is distinguished by the child, this ends with fear and avoidance of the associated verbal and nonverbal cues. Toddlers develop the skills to listen and partially understand what another person is saying and can develop an appropriate response. 5-10 years of age: Much language development during this time period takes place in a school setting. At the beginning of the school age years, a child's vocabulary expands through exposure to reading, which also helps children to learn more difficult grammatical forms, including plurals and pronouns. They also begin to develop metalinguistic awareness which allows them to reflect and more clearly understand the language they use. They therefore start to understand jokes and riddles. Reading is a gateway for learning new vernacular and having confidence in complex word choices while talking with adults. This is an important developmental stage socially and physiologically for the child. School-aged children can easily be influenced through communication and gestures. As children continue to learn communication, they realize the difference between forms of intentions and understand that there are numerous different ways to express the same intent, with different meaning³. 10-18 years of age: By the age of 10, the child's cognitive potential has matured and they can participate fully and understand the purpose of their conversations. During this time, the sophistication and effectiveness of communication skills increase and understanding of vocabulary and grammar increases as a result of education. Adolescents go through changes in social interactions and cognitive development that influence the way they communicate. They often use colloquial speech (slang), however, which can increase confusion and misunderstandings⁴. An individual's style of interpersonal communication depends on who they are communicating with. Their relationships change influencing how they communicate with others. During this period, adolescents tend to communicate less with their parents and more with their friends. When discussions are initiated in different channels of communication, attitude and predispositions are key factors that drive the individual to discuss their feelings. This also shows that respect in communication is a trait in interpersonal communication that is built on throughout development. The

end of this adolescent stage is the basis for communication in the adult stage.

Children versus adults Language development and processing begins before birth. Evidence has shown that there is language development occurring antepartum. De Casper and Spence performed a study in 1986 by having mothers read aloud during the last few weeks of pregnancy. When the infants were born, they were then tested. They were read aloud a story while sucking on a pacifier; the story was either the story read by the mother when the infant was in utero or a new story. The pacifier used was able to determine the rate of sucking that the infant was performing. When the story that the mother had read before was heard, the sucking of the pacifier was modified. This did not occur during the story that the infant had not heard before. The results for this experiment had shown that the infants were able to recognize what they had heard in utero, providing insight that language development had been occurring in the last six weeks of pregnancy⁵. Throughout the first year of life, infants are unable to communicate with language. Instead, infants communicate with gestures. This phenomenon is known as prelinguistic gestures, which are nonverbal ways that infants communicate that also had a plan backed with the gesture. Examples of these could be pointing at an object, tugging on the shirt of a parent to get the parent's attention, etc. Harding, 1983, devised the major criteria that come along with the behavior of prelinguistic gestures and their intent to communicate⁶. There are three major criteria that go along with a prelinguistic gesture: waiting, persistence, and ultimately, development of alternative plans. This process usually occurs around 8 months of age, where an appropriate scenario may be of a child tugging on the shirt of a parent to wait for the attention of the parent who would then notice the infant, which causes the infant to point to something they desire. This would describe the first two criteria. The development of alternative plans may arise if the parent does not acknowledge what the infant wants, the infant may entertain itself to satisfy the previous desire.

As a conclusion I can say that learning the language is very crucial nowadays in all educational spheres, for that reason all teachers should increase their language learning abilities during teaching through the different pedagogical methods.

3 S. Thornbury, *How to teach writing*, Pearson 2016 p 93.

4 S. Thornbury, *How to teach vocabulary*, Pearson 2016 p 34.

5 L. Freeman and Anderson *Techniques and Principles in Language Teaching*, Oxford p 52.

6 J. Kang Shin *Teaching young learners English*, National Geographic Learning p 114.

ALISHER NAVOIY IJODIDA AKS ETGAN BOSHQARUV MASALASIGA OID BA'ZI MULOHAZALAR

Ikrom Qo'chqarovich Bo'ronov -o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xuroson davlatining o'z davridagi yuksalishiga shaksiz, katta hissa qo'shgan Navoiy shunchaki topshiriqlarni bajarish bilan emas, balki tashabbus ko'rsatish, tashkil etish, ta'minlash va nazorat qilish, boshqaruv faoliyati haqida nodir qarashlar bilan ham buyuk davlat arboblari qatoridan joy olgani yoritib beriladi.

Аннотация: В статье также подчеркивается тот факт, что Навои, несомненно внесший значительный вклад в становление Хорасанского государства, был государственным деятелем, обладавшим уникальными взглядами в решении государственных проблем и инициативностью в организационных и надзорных вопросах.

Abstract: The article also emphasizes the fact that Navoi, undoubtedly making a significant contribution to the formation of the Khorasan state in his time, was not only one of the great statesmen in fulfilling the state tasks, but also with his unique views on initiative, organization, provision and control.

Калит so'zlar: siyosiy jarayonlar, harbiy munosabatlar, boshqaruv tizimi, siyosiy guruhlar, tabaqalar va ularning o'rtalaridagi munosabatlar, boshqaruv qarorlari, ijtimoiy ahvol, iqtisodiy munosabatlar, diplomatik aloqalar, "Xazoyin ul-maoniy", "G'aroyib us-sigar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi' ul-vasat", "Favoyid ul-kibar".

Ключевые слова: политические процессы, военные отношения, система управления, политические группы, классы и отношения между ними, управленческие решения, социальная ситуация, экономические отношения, дипломатические связи, «Хазайн ал-маани», «Гараиб ас-сигар», «Навадир аш-шабаб», «Бадойи ал-васат», «Фавоид ал-кибар».

Keywords: political processes, military relations, system management, political groups, classes and relations between them, management decisions, social situation, economic relations, diplomatic ties, «Khazain ul-maaniy», «Garaib us-sigar», «Navadiru sh-shabab», «Badoi ul-wasat», «Favoid ul-kibar».

Navoiy mutlaq monarxiya hukmronligi davrida yashadi. Umuman tarixiy hukmdorlar haqida gapirganda ularning mutlaq monarxlar bo'lganligini ta'kidlash kerak. Albatta, Husayn Boyqaro nozik ko'ngilli, she'riyat, adabiyot, tarix va boshqa bir qator fan va san'at turlarini yaxshi tushunuvchi olim va shoir tabli inson bo'lganligi tarixdan ma'lum. Shu bilan birga uning birlamchi ishi mamlakatni idora qilish va bu jarayonlarda o'z davlati, siyosati, boshqaruvi, maqsad va manfaatlariga qarshi turganlarni beshafvat jazolash bilan ham belgilanardi. Bu jihatlardan u boshqa hukmdorlardan katta farq qilmasdi, deyish mumkin. Hukmdorga xos bu majburiyatlar O'rta asrlarda barcha xalqqa ma'lum edi va hukmdor ham xalqni, boshqaruv tizimini, xizmatchi va xodimlarni qo'rquv va umid orasida tutish bilangina o'z saltanatini saqlab tura olishini yaxshi tushungan.

Boshqaruv tizimi xodimlari ham buni yaxshi anglashar edi. Lekin yashash uchun kurash jarayonlari ularni kerak bo'lsa maqsadlari yo'lida hohlagan vaqtida kuydirib yuborishi mumkin bo'lgan ajdaho og'zida ushlashdan qaytara olmas edi. Navoiy bu holatni tasvirlar ekan, "Shohni ajdarhog'a nisbat qilibturur kim", unga xizmat qilishdan odamlarning "ganj umidi ham" (boylik, farovonlik hokimiyat va boshqa) va "ranj biymi ham" (xavf-xatarlarga duchor bo'lish qo'rquvi) borligini ta'kidlaydi. Albatta, Navoiy davridagi boshqaruv tizimida yo'l qo'yilgan xato yoki qarshiliklar uchun jazolash tamoyillari bugungi demokratik davlatchilik tizimlari jazolash tamoyillaridan katta farq qiladi. Navoiy bu mazmunni quyidagi qit'asida bayon etgan:

Jahon ganjina shoh erur ajdaho
Ki, o'tlar sochar qahri hangomida.

Aning komi birla tirilmak erur,
Maosh aylamak ajdaho komida¹.
"Badoyi' ul-vasat". "Xazoyin ul-maoniy"ning uchinchi devoni "Badoyi' ul-vasat", deb ataladi. Unda qaysi yosh va davridagi she'rlari to'planganligini Navoiyning o'zi shunday ifodalaydi: "Va kuhulat ayyomikim, o'ttuz beshdin qirq beshga degincha qiyos qilsa bo'lg'aykim, bu fusulning xazonidurkim, tiriklik bog'ining bargrezining nishonidur, aning ta'rifida "Badoyi' ul-vasat" bila o'tkardim"². Navoiyning o'z so'zlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, mazkur she'rlar uning Husayn Boyqaro davlatida yuqori lavozimlarda shijoat bilan ishlab yurgan kezarida qilingan ijod mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Shu tufayli bo'lsa kerak, boshqaruvga aloqador ma'nolarni ifodalashda Navoiy endi uning ko'p sir-asrorlarini egallagan, tajribali, boshqalarga o'z tajribalaridan chiqargan xulosalari bilan yo'l ko'rsatadigan, ibratli rahbar mavqeida fikr yuritadi.

Mazkur devondan Navoiyning Husayn Boyqaroga atab yozgan bir qasidasi ham o'rin olgan bo'lib, unda shoir, albatta o'z zamonasi va qasida an'anasiga ko'ra hukmdorni ko'klarga ko'tarib maqtaydi. Uni xalq istagan hukmdor sifatida ta'riflaydi. Lekin, Husayn Boyqaro chindan ham xalq istagan hukmdor edimi? O'sha davr tarixiy voqeligini kuzatadigan bo'lsak, shuni aytish kerakki, Husayn Boyqaro hokimiyatni qo'lga olguniga qadar Xuroson ham, Hirot ham nizolar makoniga aylangan edi. Uni bir tomondan Movarounnahr hukmdorlari qo'lga olishga intilgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan atrofdagi kichikroq hukmdorlar ham shunga harakat qilishar, oqibatda xalq ham, boshqaruv tizimi ham tinchlik, barqarorlikka erisha olmayotgan edi. Hukmdorlarning tez-tez almashinuvi boshqaruv tizimini ham izdan chiqargan, xizmatchi va xodimlar ko'pga bormas va doimiy tahlikada hayot kechirganlar. Husayn Boyqaro hokimiyatni qo'lga olgandan keyin, o'z atrofi, ya'ni mamlakat chegaralari va boshqaruv tizimini mustahkamladi va bu natija berib, mamlakatda ancha barqarorlik yuzaga keldi. Shu kabi boshqaruv tizimi xodimlarida ham barqaror faoliyatga ishonch mustahkamlandi. Mana shu nuqtai nazardan olganda Navoiy aytganidek, Husayn Boyqaro o'z faoliyatining boshlanishida ham jamiyat va ham boshqaruv tizimi tarkibi istagan hukmdor edi. Keyinchalik, o'n yillardan so'ng Navoiy uni ichkiligu maishatga berilib ketib, birgalikda qilgan orzulari barbod bo'lganligini aytib afsuslangan edi.

Qasidada Navoiy Husayn Boyqaroga tegishli bo'lgan ayrim xislatlarni ham ta'riflab

o'tadi. U o'z do'stini boshqaruv ishlarini tashkil qilish va olib borishda "Doroyi azim"ga o'xshatadi. Fanlar ichida, ayniqsa, ko'ngil fani bo'lgan she'riyatga, cheksiz sirlar makoni bo'lgan osmon yoritqichlari ilmi – ilmi nujum (astronomiya va astrologiya)ga, musiqaga, xususan, chang cholg'usiga qiziqishlari baland bo'lgani, changda hatto, Navoiy she'riga kuy bastalagani, unga yaqin bo'lganlar ham uning bu sohalaridagi bilimlariga hurmat bilan qaraganini yozadi:

Soz etib changu tuzub ul unga ruhafzo surud,

Kim, malak ko'ngliga solib aysh ila may rag'batin.

Cholibon naqshu amal bog'lab Navoiy she'rig'a,

lyd jashni xush tutarg'a shoh bazmi ishratin³.

Navoiy ta'rifiga ko'ra Husayn Boyqaro turli ilmu kasb ustalari bilan nihoyatda xushmuomalada bo'lgan, ular unga hatto hukmdor emas, o'zlarining yetakchi ustozlari kabi qarashgan. Bu Husayn Boyqaroning oddiy xalqning ko'ngliga yo'l topa olish, she'riyatda qator shoirlarni hijolat chektiradigan qobiliyat, boshqaruvda so'z bilan, yumshoq muomala bilan amaldorlar ko'nglini ola bilish kabi salohiyatiga ega bir rahbar bo'lganligini ham bildiradi:

Tab'ing ollinda sahob andoq hayodin terlabon,

Kim, hamul sudin yub o'zdin durfishonlig' tuhmatin.

Hilming ollinda jibol andoq o'zin topib xafif,

Kim, tahattukda begonmay barqi Xotif sur'atin⁴.

Shu bilan birga Navoiy tavsifiga ko'ra hukmdor nizoli vaziyatlarda birov yaqinlasha olmaydigan darajada qahrli, Rustam kabi qaytmas va urush yoki nizolarni hal qilishning eng yaxshi choralarini topishda o'tkir aql sohibi, yengilmas jangchi xislatlariga ega bo'lgan. Shunday salohiyatga ega bo'lsa-da, Navoiy uni "shohlar darveshi" sifatida ta'riflab kamtarligini ko'p bora ta'kidlaydi:

Shohlar darveshiyu darveshlar shohiki, haq

Shoh qildi suvratin, darvesh qildi siyratin⁵

Navoiy xizmat xodimlarning odamlar bilan muloqot qilish masalalariga doir ayrim tajribalarini ham she'rga solgan. Uning ijodini o'rganish natijalaridan bizga ma'lumki, u odamlarni boy yoki kambag'alga ajratmagan, hatto ayrim she'rlarida qayd etilganidek, yaxshi va yomonga ham ajratmagan, chunki

1 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20жилдлик. 4-жилд. Навадир уш-шабоб. – Тошкент: Фан, 1989. 500-бет

2 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20жилдлик. 3-жилд. Фаройиб ус-сигар. – Тошкент: Фан, 1988. 18-бет

3 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20жилдлик. 5-жилд. Бадойеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. 488-бет

4 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20жилдлик. 5-жилд. Бадойеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. 493-бет

5 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20жилдлик. 5-жилд. Бадойеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. 492-бет

bu haqda o'zi keyinchalik "Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'rmadim", deb yozgan edi. Odamlarga ularning mulkdorligiga qarab muomalada bo'lish Navoiy el mushkulini hal qilish vazifasini bajaradigan lavozimiga ham, ma'naviyatni g'oyatda chuqur his etadigan qalbiga ham tog'ri kelmas edi. U davlat xizmati xodimlariga ish, shart-sharoitlar, vaziyat, holat va umuman boshqaruvchi xabardor bo'lishi kerak bo'lgan har qanday ma'lumotlar, suhbatlarda qandaydir alohida kishilarga bog'lanib qolmaslik, ularning turli-tuman bo'lishiga erishish va bunda, albatta, xabar, ma'lumot, gapni kim gapirayotganligiga emas, aytilgan gapning nimaga arzishiga ahamiyat berish kerakligini uqtiradi. Shu ma'noda bo'lsa kerak, uning bu boradagi tamoyili hazrati Ali ibn Abu Tolibning "unzur limoqola lotanzur limanqola", degan iborasiga asosan odamlarning kimligiga emas, aytgan so'zlarining ma'nosiga e'tibor qaratish bo'lgan:

Chun g'araz so'z din erur ma'ni anga,
Noqil o'lsa xoh xotun, xoh er.

So'zchi holin boqma, boq so'z holini,
Ko'rma kim ne der ani, ko'rgilkim ne der⁶.

To'g'rilik har bir ishda bugungi rahbar shaxslarning ham oldida turadigan muhim talablardan hisoblanadi. To'g'rilikdan voz kechilishi, undan chekinilishi boshqaruvchining ham, boshqaruvning ham yuzlab illatlar hosil qilishiga olib boradi, bu illatlar janjir kabi bog'lanib, bir-birini hosil qiladiki, keyin uning chigalini ming urinish bilan yechib bo'lmaydi.

Aslida boshqaruv ishida chigalliklarning yuzaga kelishi Navoiy qarashlari bilan ham aytganda mana shu to'g'rilikning inkor etilishidir. Navoiy butun umr targ'ib qilgan adolatning asosi ham to'g'rilik bilan bog'lanadi. Biroq, to'g'rilikni niqob qilib olib, hammani to'g'ri bo'lishga chorlab, o'zi allaqachonlar undan voz kechgan boshqaruv xodimlari Alisher Navoiy davrida ham bo'lgan. Yuqorida aytilgani kabi, odamlar boshqaruv xodimlari xatti-harakati, fe'l-atvori, munosabatlaridan o'rnak oladilar, ular to'g'ri bo'lsa bular to'g'ri, ular egri bo'lsa, bular egri. Bu masalalar haqida Navoiy kelajak avlodlarga ajoyib bir qit'a hadya qilib ketgan:

Tuzlukka moyil o'lki, ishing borg'ay ilgari,
Yuz mushkul o'lsa, yo'qsa ming o'lingda

har zabon.
Yuz safha bir qalam bila kotib qilur raqam,
Ming qo'yni bir aso bila har yon surur chubon⁷

Bugungi kunda boshqaruv madaniyatiga doir ma'naviy xislatlar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan, tahlillar qilinib, mezonlashtirilgan, hatto ular yuzasidan ta'lim berish texnologiyalari va mexanizmlari ishlab chiqilgan. Shunga qaramay boshqaruv

xizmati xodimlarini jamiyat ichida yetarli obro'-e'tiborga ega deb bo'lmaydi.

Nazarimizda, bu ularning boshqaruv lavozimlari uchun belgilangan vazifalaridan tashqari, o'z ma'naviy xarakterlaridagi kamchiliklaridan yuzaga kelayotgan holat deyish mumkin. Shu ma'noda Navoiy kishining obro'-e'tibori to'kilishi, qadrsizlanishi, el nazaridan qolishining sabablari ularning "tund" (darg'azab)lik, "baxl" (yaxshilik istamaslik) va "molga maylu hirs" kabi xislatlaridan kelib chiqishiga ishora qilgan:

Uch kishidan uch ish yomon ko'rinur,
Sanga arz aylay ahli dunyodin:
Shohdin tundlug', g'anidin baxul,
Molg'a maylu, hirs donodin.

Navoiy insonni manfaatlar boshqarishini ta'kidlab o'tadi. Kim bo'lishidan qat'iy nazar insonlar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarida muayyan manfaatlarni ifodalaydilar. Lekin, nazarimizda, Navoiyni ajablantirgan narsa shundan iboratki, boshqaruv tizimida faoliyat ko'rsatadigan kishilarning aksariyatida bu manfaat ta'madan iboratdir. Ular o'z faoliyatlarida ta'maning xilma-xil ko'rinishlarini namoyon etadilar va bularni mehnat faoliyatlarining asosiy maqsadiga aylantiradilar. Ijtimoiy manfaatlariga xizmat qilishga yo'naltirilgan boshqaruv lavozimida turib, manfaatlarni shunday toraytirish ko'plab boshqaruvchilarga xoski, bu davlat va siyosat ishini ortga sudrashning eng asosiy sabablaridan biridir. Toki boshqaruv tizimidagi har bir lavozimda manfaat shu lavozimdan ko'zlangan manfaat darajasiga yetmas ekan, jamiyat hayotida o'zgarish yuz bermaydi. Navoiyning bu qarashini uning hikmatlaridan biri deyish mumkin, chunki u buni o'z hayoti bilan isbotlagan davlat arboblardan biri hisoblanadi:

Ey Navoiy, ahli olamda tama'siz yo'q kishi,
Har kishida bu sifat yo'qtur, anga bo'lg'ay sharaf.

San agar tarki tama' qilsang, ulug' ishdur bukim,
Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen bir taraf⁸.

"Favoyid ul-kibar". "Xazoyin ul-maoniy"dagi mazkur devon Navoiyning o'zi ta'kidlab o'tgani kabi keksaygan davrlaridagi she'rlarini va ular tarkibida ifodalangan qarashlarini qamrab oladi: "Va qirq beshdin oltmishyaqinig'achakim ta'yin qilsabo'lg'aykim, bu fusulning qishidurkim, kishining xam qad bila adam yo'lig'a kirib, zamon ahli bila xayrbod qilishidur, aning duosida "Favoyid ul-kibar"; bila nihoyatqa yetkurdum⁹.

Alisher Navoiyning yoshiga oid hayoti va faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu

6 Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 20жилдлик. 5-жилд. Бадойеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. 497-бет

7 Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 20жилдлик. 5-жилд. Бадойеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. 498-бет

8 Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 20жилдлик. 5-жилд. Бадойеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. 510-бет

9 Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 20жилдлик. 3-жилд. Фаройиб ус-сифар. – Тошкент: Фан, 1988. 18-бет

1485 yillardan keyingi davrlarni o'z ichiga qamrab oladi. O'sha davrda Navoiy davlat xizmatida bo'lib, ikki yilga yaqin Mozandaron viloyatining hokimi lavozimida ishlagan bo'lsa, keyin umrining oxiriga qadar "muqarrabi hazrati Sulton" (bosh davlat maslahatchisi) maqomida bo'ldi. Yuqorida biz Navoiyning o'sha davrda ijtimoiy, iqtisodiy, xalqaro munosabatlar, madaniy, ma'rifiy nuqtai nazardan amalga oshirgan bir qator ishlariga to'xtalib o'tgan edik. Navoiy garchi rasmiy lavozimda bo'lmagan esa-da, Husayn Boyqaro uning davlat xizmatidagi yuksak mavqeini saqlab qolgan. Navoiy davlat hokimiyati yig'inlarida ilgari kabi o'z maqomida va hamisha ko'riladigan masalalarga munosabat bildirish imkoniga ega bo'lgan va uning o'sha davr siyosiy tizim barqarorligini ta'minlashda katta xizmatlari bo'lgan. Masalan, Navoiy umrining so'nggi yillarida Husayn Boyqaro Mashhadga safar qiladi va u yerda uzoq ushlanib qoladi. Navoiy bir tomondan bemor, boshqa tomondan haj safariga chog'lanib yurgan bo'lsa ham, mamlakat ishlariga befarq qaray olmagan. Hatto, siyosiy idora tizimi va obro'li jamoat vakillari uning oldiga Husayn Boyqaro safardan qaytguniga qadar haj safarini kechiktirib turishni iltimos qilib kelganlari ham ma'lum. Bularning barchasi Navoiyning davlat siyosiy hokimiyati va jamiyat orasida juda katta mavqega ega bo'lganligini isbotlaydi.

Navoiyning keksalik davridagi boshqaruvga oid qarashlari ana shu jihatlarga ko'ra ham asosan pand-nasihatlarda o'z ifodasini topadi. Mazkur nasihatlarida Navoiy endi umumiy, boshqaruv tizimining barcha vakillariga birday tegishli bo'lgan masalalarda fikr yuritadi. Masalan, bir qit'asida u shunday deydi:

Har kishikim topsa davron ichra johu e'tibor Kim, aning zotida bedodu sitam bo'lg'ay qilig'.

Yaxshilig' gar qilmasa, bori yomonlig' qilmasa,

Kim, yomonlig' qilmasa, qilg'oncha bordur yaxshilig'¹⁰.

Ya'ni, ko'pgina insonlar davr kelib, ulug'lar nazariga tushib, mansab-u lavozimlarga erishadilar va jamiyat e'tiboriga tushadilar. Lekin, bu erishgan maqomlari ularni yanada yaxshilik sari emas, zulmu sitam, yomonlig-u zararkunandalik sari o'zgartirib yuboradi. Navoiy ularga murojaat qilur ekan, amal, lavozimlarga erishganda yaxshi xislatlarni saqlab qolish, odamlarga yaxshilik qilish, hech

bo'lmaganda yomonlik qilishdan tiyilishga chaqiradi.

Boshqaruv sohasida keng e'tibor qaratiladigan masalalardan biri shuki, boshqaruvchining boshqalar bilan qiladigan muomalasidir. Ko'plab boshqaruv masalalariga qaratilgan tarixiy asarlarda odamlar bilan muomalada qahrdan tiyilish va xushmuomalali bo'lish ta'kidlab kelinadi. Bu haqda Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmuluk, Kaykovuslarning asarlarida ham batafsil to'xtalib o'tilgan. Navoiy ham o'z asarlarida bu masalaga e'tibor qaratib, uning muhimligini ta'kidlab o'tgan. O'sha asarlarida Navoiy ko'proq boshqaruv tizimidagi faoliyatda so'z muhim ahamiyat kasb etib, xodim o'zi ifoda etgan so'zi bilan muayyan voqe'likni yuzaga keltirishiga ishora qiladi. Bu voqe'lik yo o'zi yoki boshqa birov uchun halokatli bo'lishi mumkinligi, shuning uchun biror bir masala yuzasidan fikr bildirishda uni aylantirib, cho'zish kerak emasligini ta'kidlaydi:

Og'zinga kirgan takallum rishtasin chekma uzun,

Kim bu ishtin sarnigunluq yuzlanib, nuqson kelur.

Ko'rki, chun og'zig'a kirgan rishtasig'a berdi tul,

Ankubut al rishtadin har dam nigunsor osilur¹¹.

Mazkur devondan Alisher Navoiyning bir qator fardlari ham o'rin olganki, ular boshqaruv tizimi xodimlariga, umuman olganda, barcha odamlarga birdek taalluqliligi bilan, shuningdek, chuqur hikmatli mazmuni bilan e'tiborni tortadi va ayni vaqtda ular katta tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi. Masalan:

Kishi aybin yuziga qilma izhor,
Taammul ayla o'z aybingg'a zinhor¹².

Navoiyning mazkur kulliyotiga oid va boshqa janrda yozilgan she'rlarida ham uning boshqaruv haqidagi keng miqyosdagi qarashlari o'z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytganda, biz bu o'rinda Alisher Navoiyning davlat, siyosat, hukmdor, siyosiy tizim, boshqaruv madaniyati, boshqaruv xodimlari va ularning o'ziga xos va farqlanuvchi xususiyatlari haqida "Xazoyin ul-maoniy" devonlaridagi ayrim qit'alarida ifodalangan qarashlarigagina to'xtalib o'tdik. Navoiyning davlat, jamiyat, boshqaruv madaniyati, insonparvarlik masalalariga qaratilgan qarashlari uchun xarakterli bo'lgan g'oyalar uning lirik she'riyatida keng o'rin egallaydi.

10 Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 6-жилд. Фавойид ул-кибар. – Тошкент: Фан, 1990. 523-бет

11 Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 6-жилд. Фавойид ул-кибар. – Тошкент: Фан, 1990. 529-бет

12 Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 6-жилд. Фавойид ул-кибар. – Тошкент: Фан, 1990. 541-бет

FRAZEOLIGIK SINONIMLARNING LEKSIK FORMAL TARKIBI TADQIQI

Dilshod G'aybullayevich Ochilov - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola frazeologik sinonimiya masalalariga bag'ishlangan bo'lib, bunda ikki komponentli frazeologik sinonimlar, ularning grammatik qurilishi, grammatik qurilishi bir xil bo'lgan frazemalar, ot va fe'l, ot va sifat modelida tuzilgan frazeologizmlar tadqiq etilgan.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам фразеологической синонимии, в которой рассматриваются фразеологические синонимы с двумя компонентами, изучение их грамматической конструкции, словосочетания с одинаковой грамматической конструкцией, фразеологизмы, образованные по модели существительного и глагола, существительного и прилагательного. учился.

Abstract: This article is devoted to the issues of phraseological synonymy, in which phraseological synonyms with two components, the study of their grammatical construction, phrases with the same grammatical construction, phraseological units formed in the model of noun and verb, noun and adjective are studied.

Kalit so'zlar: frazeologik sinonimiya, sinonimiya, frazeologik variatsiya, grammatik qurilish, komponent, model, sintaktik vazifa.

Ключевые слова: фразеологическая синонимия, синонимия, фразеологическая вариация, грамматическая конструкция, компонент, модель, синтаксическая функция.

Keywords: phraseological synonymy, synonymy, phraseological variation, grammatical construction, component, model, syntactic function.

Frazeologik sinonimiya masalalari tilshunos olimlarining diqqat e'tiborini doimo tortib kelgan. Sinonimiya masalalari ko'proq leksikaga nisbatan qo'llanilgan va ular leksik materiallar asosida ilmiy tadqiq etilgan. Frazemalarga nisbatan esa sinonimiya tushunchasini birinchi bo'lib tilshunoslikka A.V.Kunin tatbiq etgan. Keyinchalik esa rus tili va yevropa tillari asosida frazeologik sinonimiya tadqiq etilib, ko'plab ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsion ishlar yuzaga keldi.

O'zbek tilida frazeologik sinonimiya masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishi birinchi bo'lib Sh.Rahmatullayev tomonidan amalga oshirilgan. U o'zining "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli asarida tilimizdagi frazeologik sinonimiyaning eng muhim jihatlari tadqiq etgan. Shu bilan birga frazeologik sinonimiya va variatsiya masalarining ayrim bahsli o'rinlarga munosabat bildirgan. Olim frazeologik variatsiyada frazeologik ma'noni yuzaga keltiruvchi omil sifatida qaraydi. Shuningdek, u yana asarida frazeologik sinonimiyalarining yuzaga kelishi frazeologik shakllanishning

yuzaga kelishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi. Frazeologik sinonimiya yangi formaning yuzaga kelishi emas. Frazeologik sinonimiya yangi forma va o'xshash ma'noli til birligining yuzaga kelishidir. Shu ma'noda frazeologik sinonimiyani formal o'rganish ham ilmiy qimmatga, amaliy ehtiyojga ega va ular o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning taxminan to'rttdan biriga (iboralarning 20-25 foiziga) xos¹, deb ta'kidlab o'tadi. Keyingi tadqiqotlar ham frazeologik sinonimlarning miqdori taxminan to'g'riligini tasdiqlaydi. Shunday ekan ular ma'no jihatidan bir uyaga ikkitadan beshtagacha birlashishi mumkin. Aslida frazeologik sinonimiyada bir uyaga birlashgan frazemalarning leksik tarkibi turlicha bo'lishi mumkin. Frazeologik sinonimiya bo'lishi uchun leksik komponentning miqdori rol o'ynamaydi. Ular anglatgan ma'no birinchi planga chiqadi. Umuman olganda bu frazeologik sinonimiya uchun formal holat hisoblanmaydi va unga asosan frazemaning ma'no mutanosibligi hisobga olinadi. Shu sababli ham leksik sinonimiya ot so'zlar orasida ko'plab uchraydi. Frazeologik sinonimiyada esa birinchi o'rinni fe'l turkumiga to'g'ri keluvchi iboralar egallaydi.

¹ Ш.Рахматуллаев. Узбек фразеологиясининг баъзи масалалари, 1966, Тошкент, 61-бет.

Misollar sifatida "adi-badi"ga bormoq - "san-man"ga bormoq frazemalari fe'l so'z turkumiga to'g'ri keluvchi frazema, "bag'ri tosh" - "mehri tosh" kabi frazemalar sifat so'z turkumiga mos keluvchi frazema, "bir og'iz"dan - "bir ovoz"dan frazemalari esa ravish so'z turkumiga to'g'ri keluvchi frazema, "kim biladi" - "xudo biladi" kabi frazemalar esa modal frazemalar sanaladi. Bunday frazemalarning leksik tarkibi deyarli bir xildir. Ta'kidlash lozimki, bir so'z turkumiga tegishli so'zlargina sinonim bo'lishi leksikaga xos hisoblanadi. Ammo frazemalar ham shunday yondashuvni saqlaydi. "Boshiga yetmoq" - "boshini yemoq", "bahri ochmoq" - "bahri ochildi", "dimog'i ochildi" - "dimog'i chog' bo'ldi" - "dimog'ini chog' qilmoq" - "kayfi chog' bo'ldi" - "kayfini chog' qilmoq" va boshqalar.

Ikki komponentli frazeologik sinonimlar: "aqli kirdi" - "aqlini tanimoq" kabi frazemalar ikki komponentli ot fe'l modelida qurilgan va unda faqat fe'llar o'zgargan. Masalan: "yaxshi ko'rmoq" - "ko'ngil bermoq", "javob bermoq" - "javob qaytarmoq", "ko'zi yetdi" - "aqli yetdi", "qo'ldan bermoq" - "boy bermoq", "yo'lga qo'ymoq" - "yo'lga solmoq", "quloq solmoq" - "gapiga kirmoq", "bo'yniga olmoq" - "tan olmoq", "esi og'di" - "hushi ketdi", "to'g'ri kelmoq" - "mos kelmoq", "to'g'ri kelmoq" - "o'ng kelmoq", "baland kelmoq" - "ustun kelmoq" - "g'olib kelmoq", "boshi qotdi" - "miyasi qotdi" - "boshi shishdi", "ko'zi qiymadi" - "ko'ngli bo'lmadi" - "ko'ngli bormadi", "ko'zi qiymadi" - "ko'ngli bo'lmadi" - "ko'ngli bormadi", "aqldan ozmoq" - "esidan og'moq" - "esi og'di" va hokazo.

Frazeologik sinonimlarning leksik tarkibini o'rganish bir tomondan, iboralarda sinonimlik va variantlik masalasini hal etishda, ikkinchi tomondan, sinonimlarning paydo bo'lishini aniqlashda yordam beradi.

Ikki iboraning o'zaro sinonim bo'lishida komponentlarining miqdori ahamiyatsiz. Sinonimlar ayrim hollarda ozroq, ayrim hollarda ko'proq so'zdan tarkib topgan bolishi mumkin. Bundan qat'iy nazar ko'pchilik hollarda sinonim iboralar tarkibida qatnashuvchi komponentlarining miqdori son jihatdan bir-biri bilan teng bo'ladi. Bu ayniqsa, ikki komponentli iboralar orasida ko'p uchraydi. Uch komponentdan tashkil topgan bir qancha iboralar, shuningdek, to'rt komponentdan tarkib topgan ba'zi sinonim iboralarda ham komponentlarining miqdori teng bo'ladi.

Komponentlarining miqdori bir-biri bilan teng bo'lmagan sinonimlarda turlicha nomutanosiblik mavjud: biri ikkita, biri uchta komponent, biri to'rtta komponent, biri esa

beshta komponentlardan iborat bo'ladi.

Iboralarning leksik tarkibini o'rganishda bir tomondan, komponentlarining miqdorini, ikkinchi tomondan, sinonimiya uyasidagi iboralarning miqdorini hisobga olish zarur.

Ikki komponentli iboralarning bir komponenti ayni bir so'z, ikkinchi komponenti esa boshqa so'z bo'ladi. Bunda so'z komponentlar ot so'z turkumiga xos bo'ladi: ikki og'iz - ikki shingil, og'zi bormadi - tili bormadi, boshiga yetmoq - boshini yemoq, yo'l olmoq - yo'l solmoq. Fe'l so'z bo'ladi: jiniga yoqmaslik - jini suymaydi, ep bilmaslik - ep ko'rmaslik, jigardan urmoq - yuragidan urmoq, jonini hovuchlab - yuragini hovuchlab, ichi qora - yuragi qora. Sifat so'z bo'ladi: duch kelgan - to'g'ri kelgan, ko'ngli bo'sh - ko'ngli yumshoq, ko'zi ochiq - ko'zi tirik, haddan tashqari - haddan ziyod. Ba'zan olmosh va taqlidiy so'z bo'ladi: "san-man" ga bormoq - adi-badiga bormoq; kim biladi - xudo biladi.

Frazeologik sinonimlarning grammatik qurilishi tadqiqi. Frazeologizmlarning grammatik qurilishini aniqlash va o'rganish nazariy jihatidan ham va amaliy jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. Frazeologizmlar grammatik qurilishining o'zaro o'xshashlik va farqli tomonlarini o'rganish, frazeologizmlarning grammatik qurilishini, ularning birikmaga yoki gapga tengligini aniqlash imkoniyatini yaratadi, grammatik shakllarga ega bo'lishini, frazemalarning sintaktik vazifalarini, ularning grammatik konteksti va leksik kontekstini va ularning variantlarining mavjudligini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Umuman olganda, frazemalarning grammatik qurilishi o'zaro bir xil va har xil bo'ladi. Ammo bular ham ma'lum belgi xususiyatlari bilan farqlanib turadi. Grammatik qurilishi jihatidan frazeologizmlar ikki guruhga ajratiladi.

Grammatik qurilishi bir xil frazemalar. Bu turga kiruvchi frazemalarning barchasi bir xil grammatik qurilishli bo'ladi. 1. Frazemalar birikmaga teng qurilishli bo'ladi. Grammatik jihatdan bir qurilishga ega bo'lib, frazemalar komponentlarining grammatik bog'lanish shakli, shuningdek, qaysi turkum so'zi bilan ifodalanishi ham bir xil bo'ladi. Ya'ni shunday frazeologik modellar yuzaga keladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab frazemalarning komponentlari ot bilan fe'ldan tarkib topadi. Bu frazeologik model eng ko'p uchraydi.

Ot va fe'l modelida tuzilgan frazeologizmlar. Bu frazeologizmlar asosan ikki komponentli bo'lib, ular ot so'z turkumiga va fe'l so'z turkumiga tegishli bo'ladi, misollar:

yuragi yorildi, ko'ngli ochildi, yoqasidan ushlamoq, hayratda qolmoq, ensasi qotdi, hafsalasi pir bo'lmoq, o'pkasi to'lmoq, dog'da qolmoq, terisiga sig'maydi, g'ashi kelmoq, yurakka sig'maydi, esxonasi yorilmoq, g'azabi qaynamoq, diydoring qursin, yer yetkur, uying kuysin, beting qursin, yuragini ochmoq, yuragini bo'shatmoq, so'zida turmoq, tulkilik qilmoq, ajab qilmoq, ajali yetmoq, azaga aylantirmoq, azob chekmoq, aynab qolmoq, aytishib qolmoq, alami kelmoq, aljib qo'ymoq, amalga oshmoq, amalga minmoq, andishaga bormoq, arvoq urmoq, armonda qolmoq, baloga uchramoq, balodan qutilmoq, baloga qolmoq, barakasi uchmoq, bardosh bermoq, baxti ochilmoq, bas kelmoq, bag'riga bosmoq, bag'riga olmoq, bag'rida ezmoq va boshqalar. Bular tilimizdagi frazeologizmlarning ko'pchiligini tashkil etadi. Misollardan ko'rinadiki, ular tuzilishiga ko'ra ikki komponentli bo'lib, morfologik xususiyatiga ko'ra ot-fe'l modelida tuzilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, ular tarkibidagi birikma komponentlari grammatik jihatdan shakllangan bo'ladi, ot va fe'l bir-biri bilan turlovchi va tuslovchi, ya'ni kelishik, egalik, tuslovchi affikslar bilan sintaktik munosabatga kirishadi. Jumladan, "hayratda qolmoq" frazeologizmida so'zlar o'zaro kelishik (-da) va fe'lning tuslovchi affikslari, "o'pkasi to'lmoq" frazeologizmida esa (-si) egalik va fe'lning tuslovchi affikslari, "yoqasini ushlamoq" birikmasida (-si) egalik, (-ni) kelishik affikslari va fe'lning tuslovchi qo'shimchalari orqali o'zaro sintaktik munosabatga kirishadi. Ot va sifat modelidagi frazeologizmlar. Bu frazeologizmlar o'zaro grammatik usul bilan birikishidan tashqari leksik frazeologik usul bilan ham obrazli ifodalar hosil qiladi. Mazkur frazeologizmlar kishilar holatini, xarakterini va turli ko'rinishlarini ifodalaydi: "ta'bi xira", "ta'bi xufton", "aqli kalta", "kayfi buzuq", "yuragi g'ash", "ahloqi buzuq", "ko'ngli xira", "beti qattiq", "baxti qora", "yumshoq supurgi", "yuragi keng",

"yuragi toza", "bag'ri keng", "ko'ngli toza", "yuzi yorug'", "beli baquvvat", "chehrasi ochiq", "dili toza", "vujudi pok", "iymoni salomat", "aqli butun", "yuragi qora", "dami baland", "dili o'tkir", "tili shirin" va boshqalar. Gapda bular ega kesim munosabatiga ega bo'lmaydi, chunki frazeologizmlar gapda bir sintaktik vazifani bajaradi, ularni gap bo'laklariga ajratish maqsadga muvofiq emas. Shuningdek, sifat so'z turkumi birikma oldida kelib frazeologizmlar hosil qiladi. Bularga "yumshoq supurgi", "oq ko'ngil", "shirin so'z", "katta og'iz", "ochiq ko'ngil", "oq ko'ngil", "yengil oyoq", "qora xat" va boshqalar misol bo'la oladi.

Ot-ot-fe'l modelidagi frazeologizmlar. Bu turkum frazeologizmlar turli ma'nolar kasb etadi. Ular ko'pchilik holatlarda tugal bir fikrni anglatadi hamda grammatik jihatdan shakllangan bo'lib, ular bu xususiyatlari bilan gapga tengdir. Masalan, "og'zi qulog'iga yetdi", "og'zining tanobi qochdi", "labining tanobi qochdi", "boshi ko'kka yetdi", "boshi osmonga yetdi", "quvonchi ichiga sig'maydi", "do'ppisini osmonga otmoq", "ko'kragi tog'day ko'tarildi", "tarvuzi qo'ltig'idan tushdi", "bag'ri qon bo'lmoq", "yurak bag'ri qon bo'ldi", "boshida tosh chaqmoq", "boshida yong'oq chaqmoq", "boshi yostiqa tekanda", "burnini osmonga ko'tarmoq", "bo'yni yor bermadi", "gapga gap qaytarmoq", "dami ichiga tushib ketdi", "dili siyoh bo'ldi", "jonidan umidini uzmoq", "joni tomog'iga keldi", "ichidan it tirnadi", "ichini mushuk tatalayapti", "kuli ko'kka sovurildi", "ko'zini yog' bosdi", "ko'zi moshdek ochildi" va boshqalar.

Frazeologik birliklarni kompleks, formal tahlil etish, ularning grammatik mohiyatini hamda frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini anglash, frazemalar tarkibidagi komponent leksemaning semantik strukturasidagi lingvo-madaniy ma'nosini izohlash imkoniyatini yaratadi.

KOMIL XORAZMIY G'AZALLARIDA OBRAZLAR POETIKASI

Nigora Abdumannonovna Bo'tayeva - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitining yorqin vakillaridan Komil Xorazmiy g'azallarida obrazlar poetikasi masalasi tahlilga olingan. Xususan, g'azallarda oshiq-ma'shuq-raqib obrazlarining badiiy talqini gernevnik metod asosida o'rganilgan. Shuningdek, maqolada keltirilgan g'azallarning badiiy tahliliga, mazmuni va shoir badiiy mahoratiga ham e'tibor qaratilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется вопрос поэтики образов в газелях Камиля Хорезми, одного из ярких представителей литературной среды Хорезма. В частности, на основе герменевтического метода изучена художественная интерпретация образов любовника-любовника-соперника в газелях. Также внимание уделяется художественному анализу газелей, представленных в статье, их содержанию и художественному мастерству поэта.

Abstract: In this article, the issue of the poetics of images in the ghazals of Kamil Khorezmi, one of the prominent representatives of Khorezm's literary environment, is analyzed. In particular, the artistic interpretation of the images of lover-lover-rival in ghazals was studied based on the hermeneutic method. Also, attention is paid to the artistic analysis of the ghazals presented in the article, their content and artistic skill of the poet.

Kalit so'zlar: Aruz she'r tizimi, Komil Xorazmiy ijodi, obraz masalasi, badiiy talqin, oshiq, ma'shuq, raqib, shakl va mazmun.

Ключевые слова: система поэзии Аруз, творчество Камиля Хорезми, проблема образа, художественная интерпретация, любовник, возлюбленная, противник, форма и содержание.

Keywords: Aruz poetry system, Kamil Khorezmi's work, image problem, artistic interpretation, lover, mistress, opponent, form and content.

G'azal Sharq mumtoz adabiyotida eng sarmahsul va yetakchi janrlar sirasiga kiradi. Bilamizki, aruz she'r tizimi arab she'riyatida vujudga kelgan bo'lsa-da, Sharq she'r dunyosida o'z kamolotiga yetdi. Turli zamonlarda yaratilgan g'azallar jilosi bugungi kun kitobxonining ham diqqat-e'tiboridadir. Aytish lozimki, XIX asr oxiri-XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitining yorqin vakillaridan biri Komil Xorazmiy g'azaliyoti adabiyotshunoslik ilmidagi atroflicha o'rganilgan emas. Garchand o'tgan asrda shoir hayoti va ijodi borasida tadqiqotlar olib borilgan, asarlari qayta-qayta nashr etilgan, ammo ijodkor asarlarining badiiy tahlili, g'azallardagi mazmun, shakl, obraz poetikasi masalalari yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Bu da'fa siz bilan mumtoz she'riyatimizda o'z ovozigaga ega bo'lib, zamonasida salmoqli darajani ishg'ol etgan shoir Komil Xorazmiy g'azallarida oshiq-ma'shuq-raqib obrazlari uchligining badiiy talqini haqida suhbatlashsak.

Komil ijodi mavzulari rang-barang: Ishq-muhabbat, may-u mahbub, ma'rifatparvarlik,

do'stlik, ijtimoiy hayot, o'zaro ahillik, birdamlik g'oyalari ilgari sursa-da, g'azallarining asosiy qismini ishqiy lirika tashkil qiladi. Shoir bu g'azallarda ishqiy kechinmalarni to'laqonli tasvirlash pirovardida obrazlarni o'ziga xos talqin etadi. Sharq islom dunyosida esa, arab g'azaliyoti, forsiy va turkiy dostonchilik, xamsachilik ushbu uchlikni oshiq- ma'shuq-raqib (yoki ag'yor) tarzida talqin etadi. Voqean, "Qur'oni karim"ning "Baqara" surasi, 36-oyati tarkibida keladigan: "Sizlar bir-biringizga dushmansiz", degan Oloh kalomi, bevosita, uning o'zi tomonidan yaratilgan uch yaratiqqa – Odam alayhissalom, Momo Havvo va Iblisga qaratilgan edi. Keyinchalik Sharq adabiyotidagi oshiq- ma'shuq-raqib uchligiga aynan shu voqea asos bo'ldi¹.

Xo'sh, Komil bu masalani asarlarida qanday talqin etadi? Keling, g'azallarga bir qur nazar tashlaylik. Quyidagi g'azalda shoir uchlik masalasini shunday talqin qiladi:

Fig'onkim, ul parivash kulbama bir kelmay o'turdi,

Firoqida nechuk erkonin holim bilmay

¹ Jo'raqulov U. "Nazariy poetika masalalari". G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2015 y. 164-165 betlar.

o'lturdi.
Jamolidin qilib ag'yor bazmin har kecha ravshan,
Kelib bazmimg'a bir kun, gul kibi ochilmay o'lturdi².

Misralar avvalida oshiq mahbusining hajrida fig'on chekib, dardi dunyoga sig'mayotganligini, lekin sevimli yor o'z oshiq'iga beparvoligi, oqibatda uning holi yomonlashib borayotganini bayon etsa, keyingi baytda go'zal bazmini obod etib, uning dilini vayron etganini ta'kidlaydi. Shuni aytish lozimki, g'azaldagi oshiq obrazi-shoir shaxsining in'ikosidir. Parivash-ma'shuqa, raqib esa shoir nazdida bu o'rinda ag'yor deb keltiriladi, lug'aviy ma'nosidan kelib chiqilsa, bu so'z g'ayri, o'zga so'zlari bilan ma'nodoshlik kasb etadi³. Demakki, shoirning rashki, hislarining dushmani "begona"larga mehr ko'rsatayotgan pariga. Mumtoz shoirlarimiz ijodida "gul", "yor", "oy" tushunchalari asosan ma'shuqa ma'nosida qo'llangan. Shoir so'zni ko'chma ma'noda qo'llash orqali fikrni aniqroq ochadi, uni o'qigan kitobxon esa u haqda obrazli tasavvurga ega bo'ladi. Ushbu g'azalning 4-baytida avvalgi misralarda pariga, gulga menzalgan go'zal - "qotil" maqomini oladi va oshiq-shoir raqibini yuzi qora deb ataydi. Oshiq o'zidan o'tayotgan hajr soatlarini ming yillarga tenglashtiradi. Ya'ni,

Ming yillarda birdam yod qilmay, vahkim, ul qotil,

Raqibi ro' siyahdin bir nafas ayrimay o'lturdi.

"G'azal murakkab va ancha qiyin janr. G'azalnavisdan oz so'zda ko'p ma'no berish, fikr durdonalarini badiiy tashbeh sadaflari ichida taqdim etuvchi janr"⁴. Yuqoridagi g'azalda shoir til xazinasini dur-u g'aharlaridan ustalik bilan foydalanadi. Har baytda "o'lturdi" so'zining radif sifatida takrorlanishi g'azalni yanada jozibali bo'lishini ta'minlagan. G'azalning turli o'rinlarida berahm ma'shuqani turlicha nomlar bilan: birinchi baytda "parivash", uchinchi baytda "sangdil", to'rtinchi baytda "qotil" deb ataydi. Va misralarda bevafo yorning bu nomlarni sifatlovchi xususiyatlarini shoirona lutf ila keltirib o'tadi.

Navbatdagi g'azalda oshiqning raqibi ko'zgu. Oshiq ko'zguna boqqan yorning jamolini undan qizg'onadi. Go'zalning husnu jamolini ko'rgan ko'zguning xarob holi juda chiroyli tarzda bunday tasvirlanadi:

Xabar topmish bu mahfildagi jamolingdin magar ko'zgu,

Kamoli hayrat ila o'zidin o'lmish bexabar

ko'zgu.

Uzori otashining shu'lasi boqq'och, yoqor jonim,
Ko'rubmu hech nozir zohir etkanni sharar ko'zgu⁵.

Bu majlisda ko'zgu sening jamolingdan xabar topdi, ya'ni sen ko'zguna bir qaraganingdan u hayratdan o'z aql-u hushini, o'zligini unutdi. Sochlari olovining shu'lasidan oshiqning joni otashda qovrilmoqda. Bizningcha, bu g'azalda oshiqning qalbi dunyo ishqi bilan emas, Olloh ishqi bilan band. Olloh ishqi bilan barcha qalblarda uchqunlar bo'lsa-da, oshiq o'z ishqini barchadan avlo sanaydi. Oshiq-haqsevar, u qalbini ishqi ol etgan Robbisiga shunday murojaat qiladi:

Ruhing mir'otini tut zohidi xudbin ko'zidin dur,

Ne bahra topgusi ko'rgan bila ul bebasar ko'zgu.

Ruhing oyinasini o'zini sevuvchi yolg'onchi taqvodordan uzoq tut, chunki ularning qalb ko'zlari ko'r, ko'rganlarini qalban anglamaydilar, deydi. U shunday deb Olloh jamolini yolg'onchi zohiddan qizg'onadi va

Jamoli jilvasini Komil zamiridin tamosho qil,

Ki mazharliqq'a loyiq bo'lmag'oy ul yuzga har ko'zgu.

Uning jamoliga Komilning ko'nglidan boq, bu nafasatga boqishga har qaysi ko'zgu loyiq emas, eng munosibi ko'ngil ko'zgusidir, demog'chi. Bilamizki, g'azal janrining alohidaligi, avvalo, yor husn-u jamolini go'zal tasviri inshosi etmog'idadir. Shu o'rinda, Komil qalami yor jamolini betakror ranglar bilan chizadi. Alamli jihati shuki, bu husn-nafosat boshqalar nigohini ham o'ziga jalb etadi. Bu holatdan oshiq yana azobda.

Jon ofati erkandur, ey mahvash sanam, qosh-u ko'zung,

Soldi boshimg'a yuz tuman ranj-u alam qosh-u ko'zung⁶.

Shoir endi o'z azoblariga sanamning qoshu ko'zini sababchi deb biladi. Ma'shuqaning o'zgalarga tushgan nigohi, ya'ni ming noz-u jilvasi bechora oshiq uchun yuz ming sitam ekanligini aytadi:

Ming noz-u jilva aylabon ag'yorga, faryodkim,

Aylar mango yuz ming sitam qosh-u ko'zung.

Oshiq g'azalning turli o'rinlarida raqibini ag'yor, ya'ni, dushman deb ataydi va uning oldida o'zini ojiz sanaydi. Raqibiga qarshi hech chora ko'rolmay, sevgilisining u tomon

bir qarab qo'yishi ham bo'sa olgandek karam sifatida qabul qiladi.

Har dam solursen noz ila bo'ynungg'a ag'yor ilgini,

Nedur mango bir bo'sani qilsa karam qosh-u ko'zung.

Ko'rdikki, oshiq qasoskor emas, u faqatgina yorning vafosi, birgina mehrvash nigohi ilinjida. U "o'ldiraman", "yondiraman", demaydi. Vasi umidida yashashda davom etadi. Lekin "husn shohi" bevafoqlik yo'lini tanlagan, o'zining oshiq'iga, sodig'iga beparvo.

Ul oyni hiylavay afsunila tog'ay ozdurmish, Mani bechoradin bilkull oning ko'nglini tindurmish.

Maqomim aylabon hajrida bekaslik biyoboni,

Visoli shahrida ag'yor tun-kun anjuman qurmish.

Mango aylab jafou javrini andozadin berun,

Raqibu muddaiy'ga iltifotin haddin oshurmish.

Xadangi marhamatg'a aylabon dushmanlarin omoch,

G'amu bedod o'qini do'stlarning jonig'a urmish.

Ichib jomi visolin o'zgalar guldek bo'lub xandon,

Berib zahri firoqin, ro'zi shab rangimni so'ldirmish.

Ko'ngil xilvatsaroyi rozig'a mahram qilib xasmim,

Menga til uchidin so'z aytib asrorini yoshurmish⁷.

Yuqoridagi g'azalda shoir raqib obrazini har tusda jilvalantiradi, baytlar osha so'zning yanada ta'sirchan shakllarini qo'llay biladi. Bu uning shoirona mahorat va badiiy zehni namoyon qiladi. Avvalida hiylakor "g'ayr", "ag'yor", uchinchi baytda "raqibi muddaiy", keyingi o'rinlarda "dushman", "o'zga", "xasm" deya ta'riflaydi. Biror o'rinda raqibning qilmishlariga chora topilmasada, g'azal mazmunida oshiq tuyg'ulari kushandasidan, unga ro'yxushlik bergan dildordan norozi ohanglar kuchayib boraveradi. Yana bir g'azalda shoir o'z rashkini oshkora bayon etadi:

Illifot qilmasman sarvu

gul sori, ey gul,

Yuzu qadinga bo'lmish

vola aqlu hayron ko'z.

Masti noz o'lub chiqsang

rashk o'tiga yong'umdir,

Negakim jamolingg'a solur ahli davron ko'z⁸.

Lekin oshiq yoriga tikilgan har nigohni raqib deb bilmaydi. Kimki, ma'shuqasining karamiga sazovor bo'lsa, o'sha unga chin dushmanidir. "Gulruh" radifli g'azalda esa, oshiq-ma'shuqa-raqib uchligi quyidagicha talqin etiladi.

Ko'z uchidin mango qilmay nigoh bir dam, oh

Qilur ulusg'a o'kush ehtirom ul gulruh⁹.

Ushbu baytda uchlik - oshiq - man, raqib - ulus, ma'shuqa - gulruh so'zlari bilan ta'riflanadi. Ko'rinadiki, g'azal shoir hislarining tarjimoni bo'lib, shoir ruhiyati oshiq obrazida gavdalanadi. Uning afsuslari, zoru nolalari, anduhlari, armonlari ushbu obraziga jamlanadi.

Dilinga dog' solib loladek raqib bila,

lchar chamanda mayi lolafom ul gulruh.

Mayi visol ila dunlarni shodkom aylab, Hamisha qildi meni talxkom ul gulruh.

Yuqoridagi baytda, raqib obraziga yangi talqin berildi, endi shoir uni dun ya'ni tuban, past deb ataydi. Sitamkor go'zaldan umidini uzmag'an oshiq keyingi misralarda shunday xitob qiladi:

Meni ham etkamu, yorab, shamimi zulfidin,

Jahonni qildi muattar mashom ul gulruh.

G'azal so'ngida dunyo oshiqlari jam bo'lsa ham ishqdah bir undek sobit bo'lolmasliklarini aytadi.

Agarchi olam elidur g'ulomi Komildek,- Valek topmag'usi bir g'ulom ul gulruh.

Xulosa qilib aytganda, mislsiz muhabbati va o'rtanishlari evaziga hech narsa kutmaydigan chin oshiq ruhiy dunyosining nurli tovlanishlari aks etgan yuqoridagi g'azallarni tahlil qilish uning jozibasini to'laroq, ta'sirliroq anglash imkonini beradi. Komil Xorazmiy g'azallarida oshiq obrazi alamzada, qasoskor sifatida emas, sabrli, sadoqatli, o'z maqsadida sobit inson sifatida gavdalanadi. U muhabbat va hijron mavzusini to'laqonli kuylash uchun mazmunga qancha e'tibor qilsa, asar shakliga ham alohida e'tibor beradi. Shoir she'riyatida vaznlarning ravonligi, qofiyalarning to'laligi va o'ynoqiligi, tasvirning rang-barangligi, ichki ruhiy kechinmalarining jonli va yorqinligi, komilona badiiy mahorat yaqqol namoyon bo'ladi.

2 Komil Xorazmiy, "Devon". T.: 1975y. 157-bet.

3 Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati 4-jildlik.:T.Fan.(1983-1985). 1-jild.

4 Vohidov E. "Arus haqida". Toshkent. 1972 y. 21-bet.

5 Komil Xorazmiy, "Devon". T.: 1975y. 142-bet

6 Komil Xorazmiy, "Devon". T.: 1975y. -b. 102

7 Komil Xorazmiy, "Devon". T.: 1975y. -b. 80.

8 Komil Xorazmiy, "Devon". T.: 1975y.-b 70.

9 Komil Xorazmiy, "Devon". T.: 1975y. -b 50.

YETIMLIK MAVZUSINING MILLIY ISTIQLOL KONSEPSIYASI ASOSIDAGI POETIK IFODALANISHI

Matluba Toxirovna Norbaboyeva - o'qituvchi, Shahrizabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada mustaqillik davrida yaratilgan badiiy nasrda yetimlik motivi va "Yetim bola" obrazi poetik talqin etilgan. Bu davrda yaratilgan badiiy nasrda yetimlik mavzusi milliy istiqlol konsepsiyasi asosida ifodalanganligi bilan boshqa asarlardan farq qilishi ko'rsatilgan. Nasrdagi bosh, ikkinchi darajali va epizodik yetim bolalar obrazi tahlil qilingan.

АННОТАЦИЯ: В данной научной статье поэтически осмыслен мотив сиротства и образ «Сироты» в художественной прозе, созданной в период независимости. Художественная проза, созданная в этот период, показывает, что тема сиротства отличается от других произведений тем, что она выражена в Концепции национальной независимости. Анализируются образы детей-сирот начального, второго и эпизодического звеньев в прозе.

Abstract: This scientific article poetically interprets the motif of orphanhood and the image of the "Orphan" in the artistic prose created during the period of independence. The artistic prose created during this period shows that the theme of orphanhood differs from other works in that it is expressed based on the concept of national independence. The image of the head, secondary and episodic orphans in prose is analyzed.

Kalit so'zlar: yetimlik motivi, yetimlik mavzusi, "Yetim bola" obrazi, epizodik obraz, ikkinchi darajali obraz.

Ключевые слова: мотив сиротства, тема сиротства, образ «Мальчик-сирота», эпизодический образ, вторичный образ.

Keywords: motif of orphanhood, theme of orphanhood, "Orphan boy" image, episodic image, secondary image.

Qadimdan adabiyotda asosiy obraz inson obrazi bo'lib kelgan. Inson obrazi xarakter darajasiga ko'tarila oladigan obraz. Aristotelning "Poetika" asarida xarakterdan to'rt maqsad: qahramonning oliyanob bo'lishi; xarakter mardona bo'lishi kerakligi (bu esa ko'proq erkaklarga xos); xarakterning hayotiy bo'lishi va xarakterning izchil bo'lishi – mana shu xususiyatlar ko'zda tutiladi¹.

O'zini anglash yunon romanlaridagi inson obrazini shakllantiruvchi markaz hisoblanishini M.Baxtin ham ta'kidlab o'tgan. M.Baxtinning "Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar" kitobida "ertakdagi odam obrazi" hamda "bolalar obrazi"² haqida ham so'z yuritilgan.

B.Sarimsoqov "Badiiylik asoslari va mezonlari" asarida ham obraz va obrazlilik masalasiga alohida to'xtaladi. "Real

borliqdagi, inson ruhiyatidagi, turli-tuman o'zgarishlar va kechinmalarni ijodkor o'z ongi, dunyoqarashi, estetik ideali, g'oyaviy maqsadi orqali sintez qilishi oqibatida badiiy obraz shakllanadi"³. Adabiyotda badiiy obraz, "Yetim bola" obrazini alohida o'rganishni ham dolzarb muammolardan biri sifatida kiritish mumkin.

Istiqlol davrida yaratilgan nasriy asarlarda yangicha tasvirlar, yangicha uslublar ko'zga tashlanadi. Aynan shu davrda o'zbek adabiyotida yetimlik motivi va "Yetim bola" obrazi roman, qissa, hikoyachilikda ham kuzatiladi. Bu davrda O'.Hoshimov, L.Bo'rixon, A.Yo'ldosh, Q.Norqobil kabi ijodkorlarning asarlarida yetimlik motivi bilan bog'liq tasvirlar uchraydi.

Yozuvchi L.Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romani o'zbek adabiyotida

yangicha uslubni olib kirdi. Roman jazirama cho'lni obod qilgan cho'lquvarlar hayotidan so'zlaydi. Qahramonlari o'zgacha olam. Romanda yetim bola obrazi – epizodik obraz. Romanda yetimlik motivi o'tmishni eslash, xotirlash orqali tasvirlanadi. Romanni hikoya qiluvchi Samad otasi Ergashning erta yetimlikdan qiynalganligi haqida ammasining xotiralari orqali biladi. Romandagi mulla Mirza buva obrazi orqali birinchi xotini o'lgan, bir etak bolalari ustiga yana uylangan hamda ikki qiz-u bir o'g'il tug'ib bergan bu xotini ham olamdan o'tib bolalari onasiz qolishgani ham eslanadi. Milliy istiqlol nasrida yetimlik sarguzashtlari asosan bolalik xotiralarini eslash, xotirlash bilan bog'liq tasvirlar orqali kechganligi romanni o'qish davomida seziladi.

Yozuvchi O'ktam Usmonning "Girdob" romanida ham Mahamad chatoq obrazi tasvirlanadi. Romanda Mahamad chatoq – bosh qahramon emas, ikkinchi darajali qahramon. Uning taqdiri juda murakkab kechadi. Asar bosh qahramoni Azizga Mahamad chatoq o'z boshidan kechirganlarini aytib beradi. U o'zining to'rt yoshida yetim bo'lib qolganligini uyida uxlab yotganida ur-to'polon bo'lib, kimlardir bostirib kirib ota-onasini, olti yoshli opasini o'ldirib ketganligini, o'zi qo'rqib tanchaning ichiga yashirib tirik qolganligini achinib so'zlab beradi. Chatoq degan laqabni ham shundan orttirganini ma'lum qiladi. Bunday tasvirlar badiiy asarlarda ko'plab uchraydi. Romanda yetimlik motivi davrning, ijtimoiy hayotning ta'siri natijasida yuzaga kelgan. Mahamad chatoqning so'zlab bergan hikoyasidan uning uyiga bosmachilarning bostirib kirgani va buning natijasida ota-onasiz yetim bo'lib qolish syujeti keltirilgan. Bu holatlar ham badiiy asarga ijtimoiy-tarixiy omil ta'sirida ko'chib o'tgani ma'lum. Mustaqillik davrida yaratilgan badiiy nasrda ham yetimlik motivi Birinchi va Ikkinchi jahon urushidan ta'sirlanish, yetim bolalarning ko'pligi natijasida sodir bo'lganligini ko'rsatadi. O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida ham yetimlik motivi uchraydi. Bu romanda ham yetimlik motivining yuzaga kelishida urushning ayanchli oqibatlari, yetimlar sonining ortishi, ota-onasiz qarovsiz qolib ketgan yetim bolalarning ko'pligi asosiy sabab bo'lgan. "Ikki eshik orasi" romanida

Ra'noning Umar zakunchi bilan qochib ketishi va o'gli Muzaffarning otasi Shomurod qo'lida qolib ketishi, o'gay onasi qo'lida ulg'ayishi tasvirlangan. Ikkinchi jahon urushi tufayli bolalarning tirik yetim bo'lib qolishi, otasiz yoki onasiz yetim bo'lib qolishi kabi holatlar ko'p bo'lganligi shu davr ruhida tarbiyalangan yozuvchilarni urush motivi haqida yozishga undagan. Ikkinchi jahon urushida ko'p holatda otaning halok bo'lishi tufayli yetimlik yuzaga kelgan. Ammo ayrim onalarning o'z bolasini tashlab ketishi tufayli ham tirik yetimlar soni ko'paygan. "Ikki eshik orasi" romanida urushning bolalarga ko'rsatgan jabri ham tasvirlangan.

O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida "Dastxat" nomli kichik hikoya keltirilgan bo'lib, unda yozuvchining "Bolalar uyi"ga borishi va taassurotlari juda achinarli tarzda hikoya qilinadi. Mavzu – yetimlik mavzusi. Yozuvchi o'zini ta'sirlantirgan holatni kitobxonga ulashadi. Adibni ta'sirlantirgan holat shuki, bolalar tadbirda raqs tushayotganlarida bir qizchanning poyabzali muallifning e'tiborini tortadi. Poyabzalning bir poyi boshqa, ikkinchi poyi boshqa. Qizcha dunyolarga sig'may raqs tushayotgan bo'lsa-da, uning ko'zlarida bir mung borligini adib butun vujudi bilan his qiladi. Qizchanning bir ko'zi quvonchdan porlasa, birida adoqsiz g'am. Yozuvchi "Bolalar uyi" esdaliklari jurnalida ana shu bolalarning ota-onalarini dunyodan o'tgan bo'lsa, oxirati obod bo'lsin, tirik bo'lsa yuzlari qaro bo'lsin deya yozib dastxat qoldiradi. Buni adibning bolalarning quvonchini o'g'irlagan yetimlikka qarshi isyoni deb tushunish ham mumkin.

Q.Norqobilning "Quyoshni kim uyg'otadi?", "Urush tugasa ayting qaytib kelaman", "Daryo ortidagi yig'i", "Osmon ostidagi sir" kabi asarlarida urush motivi yetakchilik qilib, ularda urushni eslash va undan ta'sirlanish, urushning achchiq xotiralari kuzatiladi. Adibning asarlari real tarixiy davr va undagi insonlar taqdirini akslantirgan. Adibning asarlarida asosiy mavzu urush mavzusi bo'lib, asarda urushning ayanchli fojiasi – bolalarning yetim bo'lib qolishi ko'rsatilgan. Bu asarlarni o'qish davomida adibning urushga nafratini his qilish mumkin. Ayniqsa, "Urush tugasa ayting qaytib kelaman" kinohikoyasida

ham 2014-yil Dombasdagi qirg'inbarot urushlar tasviri bor. Ikkinchi jahon urushidan achchiq xotiralar bilan yashayotgan va vatanga qaytish umidini uzmagan yetim qizcha Dombasdagi takror taqdiridan qochib qabr toshi yoniga boradi. Asarda qizchani qo'li bilan yozilgan "Qabr toshda esa bundan uzoq yillar oldin kampirning bolaligi o'sha – qizaloq yozgan o'sha aji-buji yozuvni o'qiydiz: "Men ketdim. Urush tugasa xabar beringlar. Qaytib kelaman!"⁴ – degan yozuvlar inson qalbini titratadi. Dunyo tarixda shuncha urushni ko'rib ham yana urushmoqda, insoniyat xatosini qachon tushunib yetadi? Urushdan faqat bolalar jabr ko'rmoqda, urush yetimlarni ko'paytirmoqda. Kinohikoya badiiy ta'sirchan ruhda yozilgan. Yozuvchi unda jonli urush manzaralari, real, hayotiy detallardan unumli foydalangan. Kinohikoyadagi yetimlik motivi urush ta'sirida yuzaga kelgan.

Adibning 2014-yilda yozilgan "Osmon ostidagisir" qissasidaham yetimlik motivi bor. Qissada afg'on urushining achchiq xotiralari, urushda qatnashgan yigitning befarzand bo'lib qolishi oqibatida xotining xiyonati tufayli dunyoga kelgan yetim bola obrazi tasvirlangan. Afg'on urushining ayanchli og'riqlarini, xotiralarini totish bilan birga bir umr farzand ko'rish baxtidan mahrum bo'lgan To'lqin tankning taqdiri ko'rsatilgan. Xotini Xayrinisoning Ro'zi maxsumdan bola orttirib olganiga chiday olmagan To'lqin tank o'zini osib o'ldiradi. Odamlar Yodgoroyini To'lqin tankning qizi deb bilishadi. Uning gimnastika bo'yicha jahon chempioni bo'lganidan hayratlanishadi. Xayrinisoning sirini hech kim bilmaydi. Qissada urushning bevosita ta'siri tufayli yetimlik motivi yuzaga kelgan. Yozuvchi Q.Norqobilning asarlarida yetimlik urush tufayli yuzaga keladi. Afg'on urushining bevosita yoki bilvosita ta'siri orqali yetim bo'lib qolish masalalari ko'rsatilgan bo'lib, urush xotiralari bilan azoblanib yashaydigan insonning hayoti tasvirlangan.

A.Yo'ldoshevning "Daryo" romani ham 2011-2014-yillarda yozilgan bo'lib, unda daryo atrofida yashovchi odamlar hayoti va taqdiri tasvirlangan. Q.Yo'ldoshevning roman personaji Tojiboy haqida: "Bolalar uyida voyaga yetgan, hech kimdan mehr ko'rmay

o'sgani sabab hayotdan norozi, odamlardan alamzada"⁵– degan fikrlarni keltiradi. Bolalar uyida o'sgan Dilobar, Tamara, Jo'raboy, Tojiboy kabi personajlarning taqdirida o'z yo'lini topa olmagan, yetimlikda ulg'aygan bolalarni ko'ramiz. Romanda bu personajlar – ikkinchi darajali obrazlar. Darhaqiqat, ota-ona mehrini ko'rmagan, tug'ilgandayoq shafqatsizlikka uchragan bu bolalar jamiyatga, odamlarga nisbatan alamzada. Ayniqsa, Tojiboyning o'z qishlog'iga qaytishini xohlamasligining sababi u yerda uni "fohishaning bolasi" deb haqoratlashidir. " – Xo'sh, men bu dunyoga kelib nima ko'rdim, Dilya? Onam tirik bo'la turib yetimxonaga tushdim. Shu bilan bolalik ham ketdi qulog'ini ushlab. O'zimning tug'ilgan mahallamga borolmasam. Haligacha odamlar farishtaday pok onamni "Fohisha" deb atashadi. Meni muhabbat tufayli dunyoga kelgan bolani "Haromil!" deb barmoqlarini bigiz qilib ko'rsatishadi"⁶. Ko'rib o'tilayotgan asarlar tahliliga to'xtalsak, ota-onasi tirik bo'la turib yetimxonada tarbiyalanayotgan bolalar hayotdan norozi kayfiyatda ulg'ayayotganini izohlash mumkin, ammo jinoyatchilar yetimxonadan chiqadi deyishdan yiroqmiz, yetimxonada ulg'ayib jamiyatda o'z o'rnini topib ketganlar qancha. Bolaning qanday inson bo'lib yetishishi, uning kelib chiqishiga, irsiyatiga, tarbiyasi va atrof-muhit ta'siriga ham bog'liq. Asarda bolalar uyida tarbiyalangan Tolyan o'zining SPID ekanligidan xabar topgach, Tamara bilan nikohdan o'tish arizasini qaytarib olib go'yoki qahramonlik ko'rsatgandek tuyuladi, ammo uning faqat men o'lamami, o'zim bilan birga nechtasini olib ketaman, deya ayollarga kasalini qasddan yuqtirishi, bu obrazning vahshiyona qiyofasini ko'rsatadi, kishida bunday kimsalarga nisbatan nafratni ifodalaydi.

Romanda Jamilaning daryoga cho'kib o'lishi va bolasi Dilmurodning onasiz yetim o'sishi syujeti bor. Otasi Tohir esa Dilmurod voyaga yetgunga qadar uylanmay, uni parvarish qiladi. Romanda Dilya (Dilobar) obrazining faqat otasi bor edi, o'z yordamchisi Rustamning ochko'zligi tufayli yurak xurujidan vafot etib yakka-yu yagona qizi Dilya bolalar uyiga tushib qolishiga, u yerdan esa pastkash, razil insonga aylanib

4 Norqobil Q. Urush tugasa qaytib kelaman... Kinohikoya. – T.: 2014. – B. 4.

5 Yo'ldoshev Q. Ochqich so'z. – T.: 2017. – B. 144-163.

6 Yo'ldoshev A. Daryo. Roman. – T.: 2016. – B. 348.

chiqishiga sabab bo'lgan.

A.Yo'ldoshevning "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari" kitobidan o'rin olgan 2014-yilda yozilgan "Yetim so'z" hikoyasida yetimlarga soxta munosabatda bo'lgan ayrim mansabparast kimsalarning xatti-harakatlari "Yetim bola" obrazi Sunnat tomonidan fosh etilgan. Adib obrazni tasvirlashda o'zgacha uslubdan foydalangan. Hikoyada "Yetim bola"ni aqlli, ziyrak, xushyor bola sifatida ifodalagan. Sunnatning ustalik bilan laganbardor, xushomadgo'y kimsalarning nomlariga mas'ullar nomidan alohida-alohida iltimosnoma yozib uch-to'rt oyga uyida yashab turishini so'rashi ularning asl yuzlarini ko'rsatishlariga sabab bo'ldi. "Mehribonlik uyi" tarbiyalanuvchisining bu xatti-harakatlarini jamiyatdagi mansabdorlarga – o'zlarining soxta saxovatpeshaligini ko'z-ko'z qiladiganlarga ma'naviy tarsaki bo'lib tushdi. Hikoyada "Yetim bola" obrazi – asosiy obraz. Jamiyatda shunday insonlar borki, hatto yetimlardan ham o'z manfaatlari yo'lida foydalanib mavqelarini mustahkamlab olishdek uyatli ishga qodir. Hikoyada mana shunday kimsalarning maqsadlari fosh etilgan. Hikoyada yetimlik mavzusi hayotiy-maishiy, ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan. Adib asarda ayrim zamondoshlarimizning "Mehribonlik uyi"da tarbiyalanayotgan "Yetim bola"larga shubha bilan qarashlari, ularning nasl-

nasabini bilmay turib uyiga kirita olmasligi, o'z bolalarining tarbiyasiga salbiy ta'siri haqidagi o'ylarini Sunnatning ziyrakligi orqali yaqqol ko'rsatib bergan. Hikoya so'ngida Sunnatning o'zini tutishidan, xushomadgo'ylarga munosabatidan ularning minnatli koshonasidan davlatning beminnat uylari ming marta afzalligini anglash qiyin emas. Hikoyadagi yetimlik motivining boshqa asarlardan farqi shundaki, bunda "Yetim bola"larning jamiyatga, insonlarga munosabati ifodalangan. Yuqorida ko'rib o'tgan asarlarimizda esa jamiyatning, insonlarning "Yetim bola"larga munosabati ko'rsatilgan edi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, milliy istiqloq konsepsiyasi asosida yaratilgan bu asarlarda "Yetim bola" obrazi ikkinchi darajali qahramon yoki epizodik obraz sifatida ko'rsatilgan. Yetimlik holati ham asosan urushdan ta'sirlanish, urush xotiralarini eslash orqali yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lish tufayli yuzaga kelgan. Q.Norqobilning asarlarida urush motivi orqali yetimlik mavzusi yoritilsa, A.Yo'ldoshev asarlarida ona-onasi tomonidan tashlab ketilish orqali yetimlik motivi yuzaga kelgan, yetimlarning jamiyatga bo'lgan nafrati, alamzadaligi aks ettirilgan, L.Bo'rixon asarlarida esa yetimlik mavzusi yetimlikni eslash, o'tmish bolalikni xotirlash orqali kechgan.

LAKUNALARDA MILLIY-MADANIYATNING IFODALANISHI

Ilhom Rozmamatovich Kazakov - f.f.n., dotsent, Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek va qoraqalpoq xalqlari milliy nigohi ayrim tushunchalar ta'rifida bir-biriga muvofiq kelmasligi, bu esa lakuna hodisasini yuzaga keltirishiga doir mulohazalar aks etgan.

Аннотация: В статье отражены мнения о том, что национальные воззрения узбекского и каракалпакского народов не согласуются друг с другом в определении некоторых понятий, что создает явления лакуны.

Abstract: The article reflects the opinions that the national views of the Uzbek and Karakalpak peoples do not agree with each other in the definition of some concepts, which creates lacuna phenomena.

Калит so'zlar: urf-odat, an'ana, marosim, milliy-madaniyat, milliy nigoh, leksika, til sohibi.

Ключевые слова: обычай, традиция, обряд, народная культура, национальный облик, лексика, владелец языка.

Keywords: custom, tradition, ceremony, national-culture, national look, lexicon, language owner.

Keyingi yillarda lingvokulturologiya sohasi doirasidagi tadqiqotlarda til va madaniyat yaxlitligi, ya'ni tilning madaniyatda yoki madaniyatning tilda aks etishi masalasi kun tartibidagi dolzarb darajaga ko'tarildi. Xususan, lingvokulturologik birliklar tarkibiga mansub lakuna hodisasi talqini e'tibortalab jihat ekanligini ta'kidlash joiz. Bu hodisani qardosh xalqlar milliy-madaniyatini ifodalashga xoslangan leksika misolida o'rganish tillararo va madaniyatlararo izohtalab tushunchalar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, lakuna bu – bo'shliq degan ma'noni anglatadi. Ya'ni, muayyan millat madaniyatini istifoda etuvchi leksika boshqa xalq tilida uchramaydi, agar mavjud bo'lsa ham u butun mazmun-mohiyatni o'zida aks ettira olmaydi.

Qadimdan o'zbek xalqi orasida chaqaloqning dastlabki «qorin sochi» ni olish katta tantanaga aylanganligini alohida ta'kidlash kerak. Bizning ota-bobolarimiz o'tmish davrlardan sochda insonning joni, barcha kuch-qudrati jam bo'ladi degan tasavvurda yashaganlar. Ular o'z farzandining «qorin sochi» larini o'zlari olishdan qo'rqqan. Shu sababli ko'p farzandli, piru badavlat, keksa, tabarruk yoshdagi onaxonlarga o'sha «qorin sochi» ni oldirishni odat tusiga aylantirgan. Olingan «qorin sochi» ni esa avaylab-asrab mevali daraxtning ostiga ko'mganlar. Tojik

xalqi ham «qorin sochi» tushunchasiga ega. Ular bolasining olingan «qorin sochi» ni avaylab biror matoga o'rab, mevali daraxt shoxiga osib qo'yishgan. Uning zamirida chaqaloq kelajakda iqboli, istiqboli porloq bo'lib, xuddi shu daraxt kabi hosil bersin, degan niyat yashiringan¹. Bunda biz inson sochi bilan jon tushunchasining bog'langanligini, qolaversa, sochni mevali daraxt tagiga ko'mish bilan serpushtlik e'tiqodi unsurlarini ko'ramiz².

Soch bilan bog'liq bunday odat dunyoning juda ko'plab xalqlar hayotida saqlanib keladi. Dunyo xalqlarida soch magiyasi bilan aloqador ko'plab ma'lumotlar uchraydi³. Haqiqatan ham, ibtidoiy davrlardan odam o'z sochini juda e'zozlagan, tanasining ajralmas bir qismi, qandaydir ilohiy qudratga ega jonli narsa deb hisoblagan. Shu sababli sochini uzun qilib o'stirib yurishni afzal bilgan. Agar ibtidoiy odamlar sochini oldirsa, o'zlarining magik qudratidan mahrum bo'ladigandek hisoblashgan. Shunga bog'liq ravishda ular sochlarini o'ta avaylab, uni oyog'osti bo'lishiga yo'l qo'ymagan. Shuni ham qayd qilish muhimki, «Chaqaloqning dastlabki «qorin sochi» ni olish islomdan avvalgi an'ana bo'lib, u bolani jamiyat hayotiga qo'shilishi ramziy bosqichini anglatuvchi an'anaviy marosimning bir ko'rinishi bo'lsa kerak. Bola dastlabki sochining olinishi uning ona qornidagi hayotidan butkul ajralganligi va insonlar olamiga qo'shilganligini

anglatadi»⁴.

Qoraqalpoqlarda boshqa xalqlardagi kabi, albatta, bolaning sochiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lib kelinadi. Bu xalqda ham «qorin sochi» // «qarin shashi» tushunchasi mavjud. Ammo u o'zbek xalqidagi singari «qorin sochi» udumi bilan bog'liq barcha jarayonlarni to'liq qamrab olmaydi. Qoraqalpoqlarda yosh bolaning sochiga aloqador «aydar shash» tushunchasi qo'llaniladi. «Qoraqalpoq tilini túsindirime sózligi» da «aydar – belgi, yosh bolalar boshi tepasiga qo'yiladigan bir tutam soch» deb izohlangan. Mamanni qalpaqin alip ma'layinan bir súydi (T.Qayıpbergenov). Xalıq jıyın jıyıp hayalina keñesip, hár balaga aydar tağıp, at qoydı (A.Dabilov)⁵. Qoraqalpoq xalqida «aydar shash» qo'yish odati qadimgi davrlardan e'tiboran vujudga kelgan. «Aydar shash» ni barcha oiladagilar o'z bolasiga qo'ymagan. Ko'pincha uzoq fursat tirnoqqa zor bo'lib, farzand ko'rishni orziqib kutgan va murodlari ushalgan oilalargina o'g'liga ana shunday soch qo'yishni odatga aylantirgan. Bunda voyaga yetayotgan bola qirq kunlik davrida uning ona qornidagi sochi olinib, boshi tepasida bir tutam soch qoldirilgan. Bu soch chiroyli qilib o'rilgan va unga har xil rangdagi munchoqlar bog'lab qo'yilgan. «Shuni ham aytish kerakki, agar go'dak qiz bola bo'lsa, uning qulog'i old tarafidan kokil qo'yilgan. Qiz bolaning kokili yig'ilib, qulog'ining ortiga tashlangan»⁶.

«Aydar shash» bola 5-6 yoshga kirguncha, ya'ni sunnat to'yiga qadar, ba'zan esa 12 yoshigacha olinmagan. Shu vaqtga qadar qaychi tegmagan «aydar shash» deyarli bolaning yelkasigacha tushadigan darajaga yetgan. Sochni tabarruk yoshga kirgan, xalq orasida katta obro'-e'tibor qozongan kishilarga oldirishib, unga sarpolar yoki pul berib rozi qilishgan. «Aydar shash» ni oldirish vaqtida ota kambag'alroq odam bo'lsa, to'rt-besh kishilik dasturxon yozgan, o'ziga to'q oilalar esa yaqin-yiroqdan mehmonlar chorlab, dabdabali to'y bergan. Shuning uchun ham qoraqalpoqlar bu to'yni «to'qlikka sho'xlik» nishonasi deb ataydi»⁷.

«Aydar shash» ning bola sunnat to'yigacha olinmasligini shunday tavsiflash mumkin, ota-onalar o'z farzandlari ana shu

vaqt oralig'ida o'ta mo'rt, nozik bo'ladi, degan xayolda ularni har xil insu-jinslardan asrash kerak, deb hisoblashgan. Sochning bola boshi tepasida qoldirilishiga sabab, unga qaragan kishilar nigohi dastavval o'sha sochga tushadi. Shu soch bolani ko'z tegishidan, suqlardan asrab, himoya vazifasini o'taydi, degan tasavvur bo'lgan. O'zbek folklorshunos olimi M.Jo'rayevning qayd qilishicha, o'tmishda kishilarning ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarga bo'lgan mifologik qarashlari natijasida ana shunday soch bilan bog'liq «soch to'yi», «kokil to'yi», «haydar qo'yish», «soch siypatar» singari magik xarakterdagi udumlarni yuzaga keltirishga asos bo'lgan⁸.

O'zbek xalqida yanabitta soch bilan bog'liq «kokil» tushunchasi mavjudki, u qoraqalpoqlar milliy-madaniyatida kuzatilmaydi. Dunyodagi boshqa qator turkiy xalqlar kabi o'zbeklarda ham bepust, bolasi turmay, iltijolari ijobati orqali farzand ko'rganlar, ba'zan esa o'g'li ko'p bo'lib, qiz ko'rishni orzu qilganlar va nihoyat, aksincha, qizlari ko'p bo'lib, o'g'il tilaganlar tug'ilgan farzandlarining «qorin sochi» ni oldirganlarida muqaddas qadamjolarga, ziyoratgohlarga bag'ishlab bir tutam «kokil» qo'yish odati bor⁹. Bunday harakat zamirida umri uzoq, rizqi ziyod bo'lsin, unga hech qachon ziyon-zahmat yetmasin, degan ezgu niyat mujassam.

Ta'kidlash muhimki, ayol kishi iqtisodiy imkoniyati bo'lgan vaqtlarda qarindosh-urug'lari bilan tabarruk joylarga jonliq olib kelib qurbonlik qilgan. Qo'yning o'ng oyog'i farzand tilab bergan shayxga taqdim etilgan. Bundan oldin shayx bola kokilini olib qo'yan. Ushbu kokil oldirish marosimida shayxga bir kiyimlik sarmo hadya qilingan. Bunday paytda farzand ko'rgan ayol shayxdan bolasi kokilini qaytarib olgan. Farzandi kokilini tashlab ketishni istamagan ayol shayxdan bolasi kokilini o'ziga qaytarib berishini so'rab ma'lum miqdorda pul bergan¹⁰. Umuman, kokil qo'yish odati qadimgi turkiylar va mo'g'illarda ham bo'lganligi ushbu odatning uzoq tarixiy asosga ega ekanligidan dalolat beradi¹¹.

Qoraqalpoqlar milliy-madaniyatidan guvohlik beruvchi yosh bolalar sochida qoldiriladigan «aydar shash» o'zbek xalqining milliy nigohini aks ettiruvchi «kokil» ga

¹ Зарубин И.И. Рождение шугнанского ребенка и его первые шаги. // Сбр. В.В.Бартольд. Ташкент, 1927. 372 с.

² Аширов А. Узбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. 83-бет.

³ Черчиев А.М. О мотиве чудесных волос в дагестанской мифологии // Проблемы мифологии и верований народов Дагестана. Махачкала, 1988. 52-59 с; Жўраев М. Соч магисси билан боғлиқ маросимлар // Ўзбекистон энциклопедияси. Янгича қарашлар ва назарий методологик ёндашулар. Тошкент, 2004. 190-198-бетлар.

⁴ Абашинов С.Н. Кокил // Ислам на территории бывшей Российской империи: Энциклопедический словарь. Вып. 4. М., 2003. 44-45 с.

⁵ Қарақалпақ тилинің тусиндирме сөзлиги. 1-том. Нукус: Қарақалпақстан, 1982. 40-бет.

⁶ Низанов М. Қорақалпоқлар. Иккинчи китоб. Нукус: «Билим», 2021. 363-364-бетлар.

⁷ Низанов М. Қорақалпоқлар. Иккинчи китоб. Нукус: «Билим», 2021. 364-бет.

⁸ Жўраев М. Кўрсатилган манба. 191-бет.

⁹ Фирштейн Л.А. О некоторых обычаях и поверьях, связанных с рождением ребенка у узбеков южного Хорезма // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии И

Казахстана. М., 1978. 201-203 с; Шаханова Н.Ж. Половозрастная стратификация традиционного общества казахов / конец XIX начале XX в.) // Этнос и этнические процессы. М.,

1993. 141-142-с; Абашинов С.Н. Кокил // Ислам на территории бывшей Российской империи: Энциклопедический словарь. Вып. 4. М., 2003. 44-45-с.

¹⁰ Аширов А. Кўрсатилган манба. 84-85-бетлар.

¹¹ Абашинов С.Н. Кўрсатилган манба. 44-45-бетлар.

birmuncha o'xshaydi. Farqli jihat shuki, o'zbeklar orasida «kokil» yana bir qancha ma'nolarni ifodalash xususiyatiga ega. «O'zbek tilining izohli lug'ati» da «kokil» quyidagicha izohlangan: kokil – peshona, gajak; bir tutam soch; toj. 1. Soch o'rimi. Mayda o'rilgan qora, uzun kokillari beliga tushadi. Munisaxon yengil kiyimida, uzun va yo'g'on-yo'g'on ikki kokilini boshiga o'ragan, uning ustidan tagdo'zi do'ppi ko'rinib turar edi (A.Qahhor, Sarob). 2. Eski vaqtda yosh yigit-bachchalarni o'yinga solishda boshiga kiydiriladigan uzun yasama soch. Xuddi mana shu mehmonxonada tong otguncha kartabozlik bo'lar, yosh-yosh yigitlarga kokil solib o'ynatishardi (S.Ahmad, Hukm). 3. Nazr qilib, yosh bolalar boshida qo'yiladigan (ma'lum vaqtgacha qoldiriladigan) bir o'rim soch. Uchinchi sinfga o'tganidayam, Toshtemirning ikki qarich keladigan kokili bor edi (S.Siyoyev, Yorug'lik). 4. Ba'zi narsalar uchiga (boshiga) osib, qadab qo'yiladigan soch, popuk va shunga o'xshash narsa. U egniga zarbof to'n kiygan, boshiga kokil osilgan dubulg'a qo'ndirib olgan edi (O.Yoqubov, Ko'hna dunyo). Ko'k satin belbog'iga boylangan oq suyak sopli pichoq va kokillariga munchoq taqilgan qindoni otning yo'rg'asida tebranib boradi (H.Shams, Dushman). 5. ko'chma. Ba'zi narsalarning shunga (kokilga) nisbatini qiyoslash ifodasini bildiradi. Endigina ko'tarilayotgan quyosh zarrin kokillarini yozib jilva qilmoqda (T.Rustamov,

Mangu jasorat). Tog'larning ortiga qo'yib asta bosh, Kokilin ohista yig'ib oldi oy (Nurbek, Umid o'g'li). 6. max. Zargarlikda: quloq, soch, bo'yin va qo'ltiqqa taqiladigan bezaklar (isirg'a, qo'ltiq tumor va shu kabi) larning osilib turgan qismlari; shokila¹².

Xullas, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari milliy nigohi, ya'ni atrofni kuzatishlari natijasida butun olam manzarasini o'ziga xos va mos tarzda anglashi ayrim tushunchalar ta'rifida bir-biriga muvofiq kelmaydi. Buni ushbu xalqlar milliy-madaniyatiga mansub muayyan leksika orqali birdaniga ular tarixi, o'tmishiga doir to'liq tasavvur hosil qilish imkoniyati chegaralanganligida ko'rish mumkin. Darhaqiqat, ba'zan o'zbek va qoraqalpoq xalqlari madaniyatiga daxldor leksika o'zining noaniqligi bilan har ikki til sohiblari uchun g'ayritabiiy holda qabul qilinadi. Bunday birliklar izohtalabdir. Tahlillar orqali xuddi ana shu masalaga e'tibor qaratib, faqat har ikki millat lisonining o'zidagina ma'no mukammalligi qaror topgan, ular milliy-madaniy xususiyatlarini tavsiflovchi leksik birliklarni qiyoslashga harakat qildik. Bu bilan o'sha lisonga oid birlik ikkinchi tilda barcha imkoniyatlarini namoyish qila olmasligi, bu esa mazmunan bo'shliqni yuzaga keltirishi, natijada lakuna deb talqin qilinadigan hodisaning sodir bo'lishi haqidagi nuqtayi nazarlarimizni havola etdik.

TABIATNI MUHOFAZA QILISH VA UNDA OQILONA FOYDALANISHDA GEOGRAFIK NOMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Koshkar Maxkamovich Xakimov - g.f.n., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Jahon miqyosida tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish sohasida asrlar davomida to'plangan ma'lumotlarni uzatish vositasi sifatida geografik nomlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'kidlash joizki, tabiiy landshaftlar va ularning tarkibiy qismlari ko'p asrlik tabiat hodisalarini va jarayonlarini kuzatish natijasida mahalliy aholi tomonidan geografik nomlarda to'g'ri batafsil bayon etilgan. Tabiat hodisalarini aks ettiruvchi toponimlar qatlami Yer yuzida eng keng tarqalgan qatlamlardan biri hisoblanadi.

Ba'zi geografik nomlar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita uzoq ajdodlarimizning tabiiy muhitiga va ekologik tafakkuriga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lganligini ko'rsatadi. Ko'p asrlar davomida ovchilar, dehqonlar, ko'chmanchi chorvadorlar qimmatli tajriba to'plashdi, bu esa tabiatni muhofaza qilish va tabiatni boshqarishni optimallashtirish uchun yilning ma'lum bir vaqti bilan cheklash imkonini berdi. Ushbu maqolada tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish haqida ma'lumot beruvchi toponimlardan amaliy foydalanishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Аннотация: В мировом масштабе особое внимание уделяется изучению социально-экономическим аспектам географических названий как средств передачи данных накопленные веками в области рационального использования и охраны природы. Необходимо отметить, что природные ландшафты, их компоненты были точно детализированы местным населением в географических названиях в результате многовековых наблюдений за природными явлениями и процессами. Не зря, пласт топонимов, отражающих природные явления - один из самых широко распространенных на Земле.

Некоторые географические названия прямо или косвенно указывают на бережное отношение к окружающей природной среде и экологическое мышление наших далеких предков. За многие века охотники, земледельцы, кочевники-скотоводы накопили ценный опыт, с целью охраны природы и оптимизации природопользования позволявший ограничивать свой промысел каким-то временем года. В данной статье приоритетное внимание уделяется практическому использованию топонимов предоставляющих информацию об охране природы и их рационального использования.

Abstract: In the world scale, special attention is paid to the study of the socio-economic aspects of geographical names as a means of transmitting data accumulated over the centuries in the field of rational use and nature protection. It should be noted that natural landscapes and their components were accurately detailed by the local population in geographical names as a result of centuries-old observations of natural phenomena and processes. Not in vain, the layer of toponyms reflecting natural phenomena is one of the most widespread on Earth.

Some geographical names directly or indirectly indicate a careful attitude to the natural environment and ecological thinking of our distant ancestors. For many centuries, hunters, farmers, nomadic cattle breeders have accumulated valuable experience, which, in order to protect nature and optimize nature management, made it possible to limit their fishing to some time of the year. In this article, priority is given to the practical use of toponyms providing information about nature conservation and their rational use.

Kalit so'zlar: geografik nom, geografik obyekt, ekologik toponim, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy landshaft, optimallashtirish, tabiatdan foydalanish.

Ключевые слова: географическая названия, географический объект, экологический топоним, охраны природы, оптимизация, природопользования.

Keywords: geographical names, geographical object, ecological toponimy, defending of nature, optimization, nature management.

Hozirda inson yashab va doimiy munosabatda bo'lib kelayotgan tabiat

va uning tarkibiy qismlari, ya'ni tabiiy landshaft komponentlarining hududiy va tarixiy tarqalish areallarini aniqlash va o'rganish soha mutaxassislari oldida turgan muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Ma'lumki, tabiiy muhitdagi obyektiv voqea-hodisalarning mohiyatini anglab yetish har doim ham oson kechmagan, ko'pincha ular kishilardan alohida e'tiborni talab qilgan. Shuning uchun, odamlar kundalik hayotda, atrofdagi olam bilan muloqot qilishda, tabiiy obyektlarning boshqalardan farq qilib turadigan alomatlariga e'tibor berib, ularni bir-biridan farqlash maqsadida nomlashgan.

So'nggi yillarda tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish yo'nalishida asrlar davomida yig'ilgan, madaniy meros darajasidagi ma'lumotlarini avlodlardan avlodga yetkazib berish vositasi sifatida geografik nomlar tahliliga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Chunki inson tabiiy muhitni o'zlashtirib, undagi geografik obyektlarni birini ikkinchisidan farqlash uchun ularga nom beradi. Binobarin, har qanday joy nomi - geografik qobiq, ya'ni geografik muhitni, aniqrog'i, uning xo'jalik faoliyati uchun o'zlashtirilgan qismini mahsuli hisoblanadi.

Shuning uchun, aniq bir hududiy birlikning tabiiy sharoiti, o'simlik va hayvonot olami, tabiiy resurslari haqida ma'lumot beruvchi joy nomlardan kishilar amaliy maqsadlarda foydalanib kelishadi. Bu birinchi navbatda, toponimlarning geografik obyektning haqiqiy holatini aks ettirishi va ishonchli ma'lumot olish imkoniyatini berishi bilan bog'liq.

Ijtimoiy-iqtisodiy asosga ega bo'lgan geografik nomlar kishilarda tabiiy-antropogen obyektlarga nisbatan egalik hissini shakllantiradi, ulardan oqilona, tejamkorlik bilan foydalanishni tashkil etishga ko'maklashadi. Tabiiy obyektlarga jamoa mulkini anglatuvchi nomlar ma'lum hududda yashovchi xalqlarning ekologik madaniyatidan darak berib, aholining ekologik tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish tuyg'usi ko'plab xalqlarning ongu tafakkurida azaldan shakllangan bo'lib, bu holat o'z

navbatida geografik obyektlarni nomlashga ham ta'sir ko'rsatgan. Ma'lumki, ekologik muammolar - bu ma'lum bir hududda jamiyatni tabiatga nojo'ya ta'siri natijasida geografik muhitda sodir bo'ladigan salbiy oqibatlar bo'lib, ular kishilarning sog'lig'i yoki hayotiga xavf tug'dirishi, iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi, tabiiy resurslarni tiklanishi, atrof-muhit musaffoligiga hamda ekotizimlarni yo'qolib ketishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Rus toponimisti E.M.Murzayev ta'kidlaganidek, geografik obyektlar o'zini-o'zi nomlamaydi, balki ularga nom kishilar tomonidan beriladi. Nomlash jarayonida inson, eng avvalo, ma'lum bir geografik obyektga xos bo'lgan, eng ko'zga yaqqolroq ko'ringan belgi, alomatdan kelib chiqib nomlaydi. Belgi - geografik obyektning nomlashda muhim psixologik kategoriya bo'lib xizmat qiladi. U nom tanlashga turtki beradi, toponimning paydo bo'lish sababini tushuntiradi¹.

Aholi tabiiy landshaftlar va ularning tarkibiy qismlari, tabiat hodisalari va jarayonlarini ko'p asrlar davomida kuzatib, ularni geografik nomlar yordamida to'g'ri va batafsil bayon qilgan. Shuning uchun, tabiat hodisalarini aks ettiruvchi toponimlar Yer yuzida eng keng tarqalgan qatlamlardan biri hisoblanadi. Ba'zi geografik nomlar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash zaruriyatini o'zida aks etadi.

Tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish maqsadida to'plangan ma'lumotlarini keyingi avlodlarga yetkazib berishda geografik nomlar vositachi vazifasini bajaradi. Binobarin toponimlarning ijtimoiy-ekologik jihatlari, ya'ni mintaqaning tabiiy-ijtimoiy sharoiti, o'simlik va hayvonot olami, tabiiy resurslaridan foydalanish, tabiatni e'zozlash, asrab-avaylash, to'g'ri muomalada bo'lish maqsadida ularga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Turkiy va mo'g'ul tillarda ko'rug', qo'riq - "himoya" ma'nosidagi so'z bor. Ba'zi o'zbek shevalarida qo'riq so'zi daryolar bo'yidagi unumdor o'tloqlarni bildiradi. Qozoq tilida esa boy o'tloq, mo'l yaylov ma'nosida qo'llaniladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'riq so'zi zahiralangan, saqlangan degan

ma'noni bildiradi. Akademik V.V.Bartoldning yozishicha, o'tmishda mo'g'ullar aslzodalar, xonlar, lashkarboshilar dafn etilgan joylarni qurik, Chingizxon qabri joylashgan joy esa "ihe kurik", ya'ni buyuk qo'ruq deb atashgan².

Professor Suyun Qorayev ta'kidlashicha, qo'riq so'zi mo'g'ul tilidan o'zlashgan. Biroq shoh mulki ma'nosidagi bu atama mo'g'ullarni O'rta Osiyoni bosib olishdan oldin ham qo'llanilgan. Masalan, Muhammad Narshaxiy ming yil avval, ya'ni mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kirishidan qariyb uch asr oldin yozgan "Tarixi Buxoro" nomli asarida qo'riq so'zini "shoh mulki" ma'nosida qo'llagan. Hozirgi O'zbekiston toponimiyasi tarkibida Qo'riq, Qo'riqsoy, Kattaqo'riq kabi aholi punktlari nomlari mavjud, ular qo'riqlangan (taqiqlangan), katta qo'riqxona degan ma'nolarni anglatadi³.

Suv va yerga sig'inish odatda turkiy xalqlarga azaldan xos bo'lgan. Chunki suv inson hayotida muhim rol o'ynaydi va uning iqtisodiy faoliyatining ko'plab sohalarini qamrab oladi. Rus etnograf olimi G.P.Snesarev Xorazmdagi suv ma'budasi Vaxshvaraga sig'inish izlari haqida gapirar ekan, bir paytlar suv ma'budasi Vaxsh nomi bilan atalgan Amudaryoga qurbonliklar keltirilishini tilga oladi. Olimning yozishicha, qadimgi xorazmliklar bahor oldidan "suv ko'p bo'lsin, hosil mo'l bo'lsin, yurt obod bo'lsin" degan niyatlar bilan ho'kiz jasadini daryoga tashlaganlar⁴.

O'rta Osiyo toponimiyasining bilimdoni E.Murzayevning yozishicha, Yenisey tosh bitiklarida "turk yduk yarch sube - "turklarning muqaddas yer va suvi" degan runik yozuvni topishgan. Turkiy tillarning yana bir taniqli tadqiqotchisi S.E.Malov bu yozuvni Vatan deb tarjima qilish mumkin, deb hisoblaydi⁵. Darhaqiqat, Ona zaminni ko'plab xalqlar e'zozlagan. Bu faktlarning barchasi farovonligi ko'p jihatdan bunga bog'liq bo'lgan turkiy xalqlar orasida musaffo tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uning boyliklarini asrab-avaylash va g'amxo'rlik qilishidan dalolat beradi.

Muhofaza qilinadigan hududlarning turli shakllari orasida qo'riqxonalarda va

milliy bog'lar muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 9 ta qo'riqxona, 16 ta buyurtmaxona va 2 ta milliy tabiat bog'i mavjud. Ular joylashgan hudud davlat himoyasida bo'lib, o'zlari joylashgan aholi punktlari nomi bilan ataladi. Qo'riqxonalarda tipik yoki noyob ekotizimlarni himoya qilish, mahalliy fauna va florani saqlab qolish va ko'paytirish, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish uchun mo'ljallangan va shu bilan birga qat'iy tartibga solingan dam olish va turizm maskani bo'lib xizmat qiladi.

Buyurtmaxona (zakaznik) - aniq bir hudud yoki akvatoriyaning bir qismi. Unda qo'riqxonadagidek barcha tabiat majmuasi emas, balki uning ayrim elementlari - o'simlik, tuproq, hayvonot dunyosi, foydali qazilmalari va boshqa qismlari qonun bilan qo'riqlanadi va o'simlik, hayvonlari ko'paytiriladi. Bunday joylarda nodir, foydali o'simlik va hayvonot turlari ko'paytirilib, boshqa joylarga tarqatilishi ham mumkin. Buyurtmaxonalar qo'riqlanadigan hudud bo'lsa-da, ulardan foydalanish tartibi unchalik qattiq emas, vaqtinchalik chegara bilan cheklangan va qisman foydalanish imkoniyati mavjud⁶.

Hozirgi o'zbek tilida bokira tabiatni asrab-avaylashga e'tiborli munosabatni bildiruvchi so'zlar ko'p: aziz, ota, bobo, gur, mozor, avliyo. Diniy va huquqiy asosga ega bo'lgan bu so'zlar aholi punktlar nomlari tarkibida uchraydi, bu hududning qo'riqlanadigan rejimi va tabiatini bevosita ko'rsatadi. Masalan, Aziztepa, Nurota, Sufimozor, Avliyota va boshqalar.

Aziz-avliyolar, islom dini peshvolarining ismlari qo'yilgan geografik obyektlar, mahalliy xalq tomonidan obod qilingan va so'lim tabiat go'shalariga aylantirilgan. Bunday nomlar bir tomondan o'sha maskanga ziyoratchilar oqimini ko'paytirib, iqtisodiy jihatdan foyda ko'rilishiga sabab bo'lsa, boshqa tomondan o'sha hudud tabiatini ekologik jihatdan toza va ozoda saqlashga yordam beruvchi diniy-huquqiy himoya vositasi sifatida ahamiyatli ekanligini ham unutmaslik kerak.

Nomshunos olim Suyun Qoraevning qaydetishicha, mahalliy xalqlarning e'tiqodiga ko'ra, shunday joylar borki, unga har doim

1 Murzaev E.M. География в названиях. -М.: «Наука», 1979. стр. 19

2 Бартольд В.В. Сочинения. -М.; том 4. стр.58

3 Караев С. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарем. -Т.; «Турон замин зиё», 2015.

4 Снесарев Г.П. Реликты домузьяльских верований и обрядов у узбеков Хорезма. - М.: 1969. 336 с.

5 Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. - М.: 1951. 451 с.

6 Хакимов Кошкар Махкамович. Жиззах вилояти топонимлари. -Жиззах.: "Сангзор". 2014. 204 бет.

ham borilmaydi. Faqat qurbonlik qilinadigan paytlarda diniy marosimlarni bajarish uchun faqat erkaklar borishadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, muqaddas qadamjoylar - daryolar, ko'llar, tog'lar muqarrar ravishda mahalliy aholi tomonidan qo'riqlangan, va beixtiyor yovvoyi tabiat qo'riqxonalarini toifasiga kiritilgan.

E'tiborli tomoni shuki, ko'p asrlar avval rasmiy hujjatlar paydo bo'lishidan ancha ilgari davlat bu haqda hali o'ylamagan qadim zamonlardan boshlab xalq tabiatni asrash haqida qayg'urgan, uning ne'matlaridan qachon va qayerda zararsiz foydalanish mumkinligini aniq bilgan⁸.

Bu jarayonda nom berilayotgan obyektning ahamiyati muhimligini ta'kidlovchi, ulug'lovchi (aziz, azim, buyuk, bobo, ota, cho'n, sar, ulug'...), ilohiylashtiruvchi (avliyo, mozar, masjid, yetti, islom, imom, jannat, zohid, ko'k, payg'ambar, oq (safed)...), qo'rqituvchi (ajina (jin), alvasti, arvoh, borsakelmas, dev, devgar, devona, jinni, yomon (jomon), kallaxo'r, yalong'och, o'ldi, qarog'chi, qirildi...) yoki kishilarning orzu-istaklarini ifodalovchi (baxt, bog', bahor, boy, bo'ston, namuna, obod, chaman...)

terminlardan foydalaniladi⁹.

Tabiiy landshaft va uning tarkibiy qismlarini muhofaza qilish va oqilona foydalanishda joy nomlarini o'rni va ahamiyatini tahlil qilib, quyidagi xulosalarni bayon qilish mumkin: 1) geografik nomlar aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo'lgan va tabiat bilan jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni o'zida aks etadi; 2) toponimlarning katta qismining shakllanishida tabiiy landshaft va uning tarkibiy qismlari asos vazifasini bajargan; 3) joy nomlari tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishda yordam beradi; 4) joy nomlarini hudud tabiatining o'ziga xos tili, uning mantiqiy ifodasidir; 5) hudud tabiiy landshafti va uning tarkibiy qismlari negizida shakllangan joy nomlari tabiiy landshaftning, tarixi, dinamikasi va xususiyatlari haqida «gapiradi»; 6) joy nomlari yordamida tabiatning hududiy jihatlarini tadqiq etish, ularning o'tmishdagi geografik holatini aniqlash imkoniyati mavjud; 7) geografik nomlar yordamida hududning relyef shakli, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosini tarqalish areali va rivojlanish bosqichlarini aniqlash mumkin.

MAKTAB O'QUVCHILARIDA LOYIHALASH MADANIYATI MAZMUNI

Rabbim Mixliyevich Yusupov -t.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Bekzod Burxon o'g'li Abdug'aniyev - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada loyiha, loyihalash, loyihalash madaniyati mazmuni va turli sohalar bo'yicha qo'llagan xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar tahlillari keltirib o'tilgan. Shuningdek, maktab o'quvchilarining loyihalash madaniyatini shakllantirish bosqichlari va buning uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, robototexnika o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantirish vositasi sifatida ko'rib chiqilgan.

Аннотация: В данной статье представлено содержание дизайна, дизайна, дизайн-культуры и проведен анализ научных работ, проведенных зарубежными учеными в различных областях. Также дана подробная информация об этапах формирования проектной культуры школьников и необходимых для этого условиях. Кроме того, робототехника рассматривалась как средство развития дизайнерской культуры учащихся.

Abstract: In this article, the content of the design, design, design culture and the analysis of scientific works conducted by foreign scientists in various fields are presented. Also, detailed information about the stages of formation of the design culture of schoolchildren and the necessary conditions for this is given. In addition, robotics was considered as a means of developing students' design culture.

Калит so'zlar: loyiha, loyihalash, loyihalash madaniyati, robototexnika

Ключевые слова: проект, дизайн, культура дизайна, робототехника.

Keywords: project, design, design culture, robotics

Globalashuv sharoitida ta'lim, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida

⁷ Караев Суюн. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарем. –Т.: 2015. 550 стр.

⁸ Хакимов Кошкар Махаммович. Топонимика. –Т.: "Мумтоз сўз". 2016. 368 бет.

⁹ Отакулов Позилжон Собирович. Географик номлар шаклланишида минтақавий табий-ижтимоий хусусиятларнинг ўрни ва аҳамияти (Фарғона водийси мисолида). Дис... гео... фан... бўйича фалсафа доктори. Фарғона, 2021. -6.46

samaradorlikni yaxshilash, raqobatbardoshlikni kadrlar, sifatli mahsulotlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj, talab hamda takliflarning eng ommabop turlaridan biri – ta'limiy robototexnika vositasida o'quvchilarning ijodiy qobiliyati, loyihalash madaniyatini rivojlantirish o'ta dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Chunki, bugungi kunda jamiyatda ta'lim, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarida yo'lga qo'yilayotgan faoliyatning katta qismi robototexnika yordamida amalga oshirilmoqda. Pedagogik kuzatishlar yoshlar mazkur texnologiya imkoniyatlaridan foydalanish haqida umuman yoki to'liq xabardor emasligini ko'rsatmoqda.

Maktab jamiyatning eng muhim institutlaridan biri sifatida o'quvchi shaxs sifatida shakllanadigan, davlat, jamiyat hayotida faol ishtirok eta oladigan, tez o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy va pedagogik innovatsiyalar sharoitida ijtimoiylasha oladigan, davlat ta'lim siyosatiga qo'yiladigan quyidagi talablarni belgilaydi:

1) o'quvchilarning butun hayoti davomida va barcha ta'lim muhitida zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga ko'maklashish;

2) o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolligini shakllantirish platformasi sifatida maktablarning yetakchiligini ta'minlash;

3) sinfda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zaro hamkorlik orqali o'quvchilarning loyihaviy kompetensiyalarni egallashiga ko'maklashish, shuningdek, tashqi muhit bilan samarali aloqalardan foydalanishni ta'minlash.

Bugungi kunda maktab o'quvchilarning o'quv va ijodiy faoliyatini shakllantirishda katta tajribaga ega bo'lishiga qaramay shuni ta'kidlash joizki, o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy shakllari kamchiliklardan xoli emas. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) maktabning ta'lim muhiti zamonaviy loyihaviy ta'lim olishga yo'naltirilmagan, bu esa o'z navbatida o'quvchilarda shakllangan loyihalash madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatdi;

2) o'quvchi shaxsining ijodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan faktga asoslangan deklarativ shakldagi axborotlarni uzatishga yo'naltirilgan faoliyat, fikrlashi va xatti-harakatlar, turg'un stereotiplar mavjudligi;

3) o'qituvchilar tomonidan ta'lim muhitining resursi sifatida yetarli darajada foydalanmasligi.

Shakllangan loyihaviy madaniyat, maktabda ta'lim jarayoni natijasida ko'p

jihaddan samarali boshqaruv mexanizmlariga, maktab ta'lim maydonining barcha tarkibiy qismlarining o'zaro ta'sirlashuvchanligiga bog'liq. (muhit, usullar, pedagogik boshqaruv texnologiyalari, ta'lim shakllari va vositalari)

Shularni hisobga olib, o'quvchilarning loyihaviy madaniyatini shakllantirishning yetakchi omillari va uni tashkil etishning asosiy tamoyillarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

So'ngi yillarda ta'lim, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa ko'plab sohalarida mutaxassislarining loyihalash madaniyatini shakllantirishga va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ma'lumki XXI asr boshlarida pedagogika nazariyasi va amaliyotida yangi yo'nalish – loyihaviy (ijodiy) pedagogika paydo bo'ldi. Uning rivojlanishi esa dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-madaniy va innovatsion o'zgarishlar bilan belgilanadi. Bunday o'zgarishlar mamlakatimizda mavjud ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Ma'lumki, har qanday muammoning dolzarbligini har qanday faoliyatning samarasi uni dastavval puxta rejalashtirish, loyihaviy (ijodiy) yondashuv asosida aniq va mukammal, o'ziga xos bo'lgan yechimini topishga e'tibor qaratish bilan belgilanadi. Maktab o'quvchilarida loyihalash madaniyatini shakllantirish quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

1) o'quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi yoki ijodkorlik tafakkuri rivojlanadi;

2) ularning estetik didi o'sadi va buning natijasida borliqqa nisbatan estetik munosabat qaror topadi;

3) o'quvchilarda loyihalash vositalaridan o'rinli, maqsadli va samarali foydalanish ehtiyoji yuzaga keladi;

4) o'quvchilarda loyiha madaniyatini rivojlantirish jarayonida axborot, media resurslariga kirish va axborot almashish kontekstida ichki va tashqi muhitning konfiguratsiyasi sifatida ochiqlik, individual ta'limga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarga qarab ta'lim muhitini kengaytirish imkoniyati taqdim etiladi;

5) o'quvchilar va o'qituvchilarning o'zini o'zi rivojlantirish, o'z-o'zini tartibga solish, o'z taqdirini o'zi belgilash imkoniyatini belgilaydigan ta'lim muhitining rivojlanayotgan tabiati, bu individual rivojlanish trayektoriyasini yaratishga imkon beradi;

6) o'quv predmeti muhitini modellashtirish va loyihalashda barcha ta'lim subyektlarning qiziqishlari va imkoniyatlarini maksimal darajada hisobga olgan holda qo'shma loyiha faoliyatining maxsus shakllarini ishlab chiqish;

Uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida o'quvchilarda loyihalash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni mohiyatini ochib berishda "loyiha", "loyihalash" va "loyihalash madaniyati" tushunchalari tayanch atamalar sifatida foydalaniladi. Shu sababli ayni vaqtda ularning mazmun-mohiyati bilan tanishib chiqish, ko'rib chiqilayotgan umumiy jarayon haqida yaqqol tasavvurga ega bo'lishni ta'minlaydi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"¹da loyiha va loyihalash tushunchalari quyidagicha ta'riflangan:

loyiha – [arabcha - ro'yxat; nizom, qoida; reja, dastur]:

1. Bino, inshoot, mashina va shu kabilarni qurish yoki tiklash uchun ishlangan, tayyorlangan hujjatlar (chizma, hisob-kitob, andoza, nusxa va shu kabilarni) majmui.

2. Qaror, farmon, qonun va shu kabi hujjatlarning dastlabki xomaki matni.

Loyihalash – Mo'ljallangan obyektlar (asbob va jihozlar, bino va inshootlar, turli mashina va apparatlar, kiyim-bosh va mebellar)ning yangi xil va namunalarini qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish.

"Pedagogika fanidan izohli lug'at"da loyihalash tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: loyihalash - ta'limning mazmuniy qismini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, uning umumiy va aniq maqsadlar, o'qitiladigan ma'lumot (fan) lar majmuasini aniqlash, har bir fanning mazmuni, soatlar va boshqalarni rejalashtirishdir².

Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, "loyihalash" tushunchasi mualliflar o'zlarining pozitsiyasidan kelib chiqib holda faqatgina ta'lim jarayoniga nisbatan qo'llanilgan.

Biroq, zamonaviy sharoitda ushbu tushunchani ko'plab sohalarda keng miqyosda qo'llash mumkin. Masalan, og'ir sanoat, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi, ta'lim, ishlab chiqarish va hokazo. Zero, mazkur sohalarda tashkil etiladigan faoliyat mazmunini, ularning yo'nalishlarini dastlab loyihada aks ettirish, uning yordamida amaliy harakatlarni to'g'ri rejalashtirish, uning natijalarini bashoratlash jarayonini tartibga solish, mavjud vositalar va intellektual imkoniyatlarini oqilona hisobga ola bilish, zarur shart-sharoitlarni yaratish, mablag', kuch va vaqtni tejimli sarflash imkoniyatini yaratadi.

M.N.Axmetova³

"o'qituvchining

loyihalash madaniyati" tushunchasini quyidagicha sharhlaydi: o'qituvchining loyihalash madaniyati – kasbiy-pedagogik madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, "loyihalash" mohiyati pedagogik faoliyatini ta'limiy-tarbiyaviy hodisa, jarayon va tizimlarni bashoratlash, rejalashtirish, yaratish va modellashtirish negizida innovatsion qayta qurish usuli hisoblanadi. Muallif qayd etganidek, loyihalash madaniyati nafaqat o'qituvchi, balki zamonaviy sharoitda barcha sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar kasbiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki, loyihalash orqali mutaxassis sohaga oid dolzarb muammolarni ko'ra olish, ularning yechimini topish borasida asosli nazariy g'oyalarni ilgari surish, bashoratlash, puxta rejalashtirish, izlanish, modellashtirish, yaratilgan loyihani tegishli davralarda ekspert, mutaxassislar e'tiboriga havola qilish va loyihalash ilgari surilgan nazariy g'oyalarning amaliyotga tatbiqini ta'minlash ko'nikma, malakalariga egaligini namoyon eta olishi zarur.

V.D.Vasilyeva⁴ muhandislik faoliyatining o'zi bevosita loyihalashdan iboratligi sababli zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatdan kelib chiqqan holda talabalik yillaridanoq bo'lajak muhandislarda loyihalash madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri ekanligini qayd etgan. Zamonaviy sharoitda esa texnika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak muhandislarda loyihalash madaniyatini shakllantirish ustuvor va o'ta muhim maqsadlardan biriga aylandi. Muammoning ilmiy-nazariy yechimini topish jarayonida muallif "muhandisning loyihalash madaniyati" tushunchasini pedagogik iste'molga kiritadi. Muhandisga xos loyihalash madaniyati – zamonaviy fan va texnika darajasiga mos keluvchi kasbiy bilimlar, ularning loyihalashga doir amaliy ko'nikma va malakalarga muvofiqligini, amaliy loyihalashda innovatsion yondashuvlar hamda muhandislik-loyihalash vazifalarini yechishda nostandart va yaratuvchanlik qarorlarini topish, shuningdek, loyihalash uchun yetarlicha ma'lumotlar bo'lmagan va tavakkal sharoitida harakatlanishga imkon beruvchi axloqiy sifatlar, loyihalash qarorlarini qabul qilish oqibatlarini bashoratlash, nafaqat anglash, balki o'z kasbiy harakatlarining oqibatlarini uchun javobgarlikni aks ettirishga tayyorgarlikni ifodalovchi kasbiy-shaxsiy

1 O'zbek tilining izohli lug'ati-O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyati. Toshkent-2022

2 Pedagogika fanidan izohli lug'at/J.Hasanboyev va b. -Toshkent:"fan va texnologiya" nashriyoti, 200-245-bet

3 Axmetova, M.N. Проектная культура будущего учителя Текст. / М.Н.Ахметова // Школьные технологии. – 2004. – № 4. – С.210-220.

4 В.Д.Васильева. Проектная культура как цель профессиональной инженерной подготовки. // Знание. Понимание. Умение. – 2012. – № 2. – С. 249-252.

fazilat.

Uning qayd etishicha, loyihalash madaniyati loyihalashdek o'ziga xos hodisaning turli bosqichlarda namoyon bo'lishi sanalib, uning dastlabki bosqichi loyihalash faoliyatining ijtimoiy qoidalar, huquqiy hamda texnik me'yorlar, loyihalashga qo'yiladigan zamonaviy talablar, shuningdek, mavjud amaliy ko'nikmalarga mosligi bilan belgilanadi. Loyihalash madaniyatining yuqori darajasi esa loyihalashda boshlang'ich ma'lumotlar yetishmagan, biroq, xavf-xatar va tahlika omillari mavjud sharoitda nostandart va ijodiy injenerlik-loyihalash qarorlaridan foydalanish asosida izlanishga bo'lgan qobiliyat, innovatsion yondashuv, bashoratlashga tayyorlik hamda qabul qilingan loyihalash qarorlari oqibatlarini uchun mas'ullikning ko'zga tashlanishi bilan tavsiflanadi⁵.

V.M.Dyukov va G.S.Pyankova⁶lar qayd etishlaricha, loyiha ta'limning "yadrosi" S.I.Ojegov, N.Y.Shvedovalar tomonidan takidlanganidek, loyiha qurilma, mexanizm, moslamaning avvaldan rejalashtirib, so'ngra ishlab chiqilgan rejasi sanaladi. Loyiha metodi esa o'z-o'zidan loyiha ta'limining asosiy elementi tarzida namoyon bo'ladi. Loyiha metodi - ta'limning faol metodlaridan biri bo'lib, uning yordamida intellektual faollik yuzaga keladi, guruh yoki jamoada ishlash malakasi shakllanadi, ta'lim oluvchini qiziqtiradigan muammo bo'yicha faoliyat natijasi tarzida mustaqil ravishda vazifalarni belgilash va yechimini topish ko'nikmalarini rivojlantiriladi.

Zamonaviy sharoitda loyihalash metodidan ko'p hollarda texnik bilimlarni yorituvchi fanlarni o'qitishda faol foydalanib, gumanitar fanlar, shu jumladan, pedagogika va psixologiyani o'rgatishda esa undan foydalanishga u qadar jiddiy e'tibor qaratilmagan. Biz ham bu fikrni qo'llab-quvvatlagan holda buning asosiy sababi o'qituvchilarning o'zlari loyihalash malakalari hamda madaniyatiga ega emasligini aytib o'tishimiz kerak. Shu sababli bugungi kunda pedagogik loyihalash malakasi hamda loyihalash madaniyatini puxta o'zlashtirgan o'qituvchilarni shakllantirishni talab qiladi. Bu talabning yetarlicha hal qilinishi ta'lim mazmunini innovatsion qayta qurishga imkon beradigan pedagogik loyihalash ko'nikma, malakalarni o'zida yetarlicha shakllantira olgan o'qituvchilarning yordami bilan o'sib kelayotgan avlodning loyihalash madaniyatiga ega bo'lishiga erishiladi. O'z

navbatida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik loyihalash madaniyatiga ega bo'lishi ta'lim tizimini rivojlantirish uchun zamin yaratadigan innovatsion dasturlar, yangicha mazmundagi o'quv dasturlari, texnologiyalari, metodikalari, o'qitishning ilg'or shakllarini yaratishga yangi tipdagi ta'lim muassasalarining turkumini shakllantirishga xizmat qiladi.

V.M.Dyukov, G.S.Pyankova⁷lar "loyihalash madaniyati" tushunchasini quyidagicha sharhlangan: loyihalash madaniyati zamonaviy o'qituvchiga xos kasbiy madaniyatning o'ta muhim qismi bo'lib, u pedagogik faoliyatni bashoratlash, rejalashtirish, yaratish, tatbiq etish va rejalashtirilgan ish natijalarini baholash asosida innovatsion qayta qurishni nazarda tutadi. Ularning "loyihalash madaniyati" tushunchasini sharhlash borasidagi taklifida fikr qisqa, lo'nda, to'liq va tushunarli tarzda ifodalangan. Shu bois, tadqiqotimizda ularning fikrlariga qo'shilamiz.

Mualliflarning mutaxassis sifatida o'qituvchining loyihalash madaniyatiga egaligini turli sohalarda bo'yicha ma'lumotga ega kadrlarning innovatsion mohiyatiga ega kasbiy faoliyatini tashkil etishga tayyorliklari deb e'tirof etganlar. Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash madaniyatini shakllantirishga ularni kasbiy tayyorgarlik jarayonida loyihalash faoliyati asoslaridan ogoh qilmay, o'quv loyihalarining turli shakllari bilan tanishtirmay, pedagogik loyihalash tafakkurni rivojlantirmay, shuningdek, loyihalash faoliyatini tashkil etmay va kasbiy – pedagogik jihatdan o'z-o'zini takomillashtirmay turib erishib bo'lmaydi.

Ularning fikrlariga ko'ra, shaxsda loyihalash madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi zamonaviy mutaxassisda ilg'or, madaniy rivojlanish, hayotiy ehtiyoj hamda amaliyotga mos keladigan sifatlarni yaratish imkonini berishi bilan izohlanadi. Quyidagi jihatlar esa shaxsda bir qator loyihalash madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq quyidagi imkoniyatning yuzaga kelishini ta'minlaydi: birinchidan, loyihalash muammoli-rivojlantiruvchi ta'limning rang-barang bo'lishiga imkon beradi; ikkinchidan, loyihalash istalgan ta'lim muassasasining yangi, zamonaviy, innovatsion qiyofasini belgilab beradi; uchinchidan, loyihalash loyiha ishtirokchilarining tafakkur turini o'zgartiradi; to'rtinchidan, loyihalash shaxsga yo'naltirilgan pedagogika g'oyalarni amaliyotga joriy qilinishiga yordam beradi; beshinchidan, loyihalash mehnat bozorida o'qituvchining

5 В.Д.Васильева. Проектная культура как цель профессиональной инженерной подготовки. // Знание. Понимание. Умение. – 2012. – № 2. – С. 249-252.

6 В.М.Дюков, Г.С.Пьянкова. Формирование проектной культуры: введение в проблему // Современные наукоемкие технологии. – Красноярск, 2010. – № 9. – С. 83.

7 O'sha manba. -s. 80-83

raqobatga bardoshligini o'zgartiradi.

T.L.Stenina⁸e'tiborni talabalarda loyihalash madaniyatining muhim ko'rinishlaridan biri – ijtimoiy loyihalashtirish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Muallif tomonidan ko'rsatilishicha, shaxsga xos loyihalash madaniyati negizida izlanish, axborot (ma'lumot) larni tahlil qilish, o'zlashtirish va yangilash, bashoratlash hamda loyihalash qobiliyatlariga egalik ko'zga tashlanadi. Bu o'rinda muallif fikrini birgina taklif bilan yanada mustahkamlash mumkin. Ya'ni shaxsga xos loyihalash madaniyati negizida izlanish, axborot (ma'lumot) larni tahlil qilish, o'zlashtirish, yangilash, bashoratlash hamda loyihaning amaliyotga tadbiri, uning ijtimoiy-amaliy ahamiyatini baholash kabi sifatlar namoyon bo'lishiga erishish zarur. Shu bois ta'lim jarayonini maqsadli, majmuaviy tashkil etish asosida talabalarda innovatsion xarakterga ega loyihalash qarorlarini amaliyotga joriy qilish ko'nikma, malakalarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Muallifning e'tirofiga ko'ra, ta'lim jarayonida talabalarni qadriyatli yo'naltirish ularda ijtimoiy loyihalash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Binobarin, qadriyatli yo'naltirish o'z navbatida bashoratlash va loyihalash vazifasini bajaradi va bu jarayonda talabalar kelajakda o'zlari tomonidan o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish uchun sharoitni hosil qiluvchi faoliyatning ideal (har jihatdan puxta asoslangan, yetarlicha o'ylab, rejalashtirilgan) modelini yaratadi.

G.A.Lyuks⁹ loyihalash faoliyatini ijodkorlikning o'ziga xos shakli sifatida pedagogik maqsadlar asosida kichik (loyihalash mohiyatiga ko'ra o'yin faoliyatida nima muhimligiga e'tiborni qaratish), o'smir (yangi o'quv fanlarni o'rganish va o'z kuchini sinab ko'rish muhitidagi ehtiyojni inobatga olish), o'spirin (mustaqil hayot ostonasidagi shaxsning istiqboldagi o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga bo'lgan intilishini nazarda tutish) yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda ular rivojlanishining universal vositasi bo'la oladi, deb hisoblaydi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda biz o'z tadqiqotimiz uchun "loyihalash madaniyati" ga quyidagi ishchi ta'rifni qabul qildik.

Loyihalash madaniyati – loyihalash faoliyatini tashkil etish jarayonida shakllanadigan ko'nikma-malakalarning yuqori darajasi bo'lib, u loyihalash faoliyatining ijtimoiy hamda qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar, texnik meyorlar, zamonaviy loyihalash qoidalariga mosligini ifodalaydi. Demak, loyihalash madaniyati negizida quyidagi asosiy elementlar ko'zga tashlanadi: loyiha yoki loyihalashtirish g'oyasi; umumiy va xususiy maqsadlar; loyihalash faoliyati; vositalar majmui; loyihalash faoliyatiga doir ko'nikma va malakalar; ijodiy va innovatsion yondashuv; ma'lum sohaga oid hodisa, jarayon va tizimni bashoratlash, muayyan hodisa, jarayon va tizim bo'yicha tashkil etiladigan faoliyatni rejalashtirish; ma'lum sohaga oid hodisa, jarayon va tizimni shartli belgi, sxema va timsollar yordamida loyihalashtirish; ko'zda tutilayotgan hodisa, jarayon va tizimni modellashtirish; loyiha (model, dastur).

"Informatika va axborot texnologiyalari" kabi fan o'qituvchilarining ta'lim jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashishlari, ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga mos topshiriqlar majmuini shakllantira bilishlari, zarur o'rinlarda metodik ko'rsatmalarni berishlari shaxs tomonidan loyihalash madaniyatining samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Bugungi kunda o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantiruvchi ko'plab vositalarni uchratish mumkin. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning loyihalash madaniyatini rivojlantiruvchi eng samaradorlikka ega vositalardan biri sifatida foydalanilmoqda. Ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati, boy tasavvurga egaliklari, mavjud vaziyatni to'g'ri baholay olishlari, o'quv faoliyatini oqilona rejalashtira olishlari ular tomonidan robototexnika yordamida g'oyaviy, mantiqiy, texnik va texnologik jihatdan puxta loyihalarning yaratilishiga olib keladi.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Abdivali Shamshiyev - dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Shaxnoza Xasanova - magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Saidazim Asrayev - magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar tushunchasi, o'quv jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni, raqamli texnologiyalar asosida ta'limni axborotlashtirishning imkoniyatlari va ulardan foydalanish masalalari bayon qilingan. Umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi o'qitish vositalaridan foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрено понятие цифровых технологий, роль цифровых технологий, возможности информатизации образования основанных на цифровых технологий и вопросы и использования в образовательном процессе. Рассмотрено использование новых средств обучения основанных на цифровых технологий в обучении математике в общеобразовательных школах.

Abstract: This article discusses the concept of digital technologies, the role of digital technologies, the possibility of informatization of education based on digital technologies and issues and use in the educational process. The use of new teaching aids based on digital technologies in teaching mathematics in secondary schools is considered.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, o'quv jarayoni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, uzluksiz ta'lim tizimi, zamonaviy ta'lim.

Ключевые слова: цифровизация, цифровые технологии, образовательный процесс, информационно-коммуникационные технологии, система непрерывного образования, современное образование.

Keywords: digitization, digital technologies, educational process, information and communication technologies, continuous education system, modern education.

Mamlakatimizda fan, ta'lim-tarbiya va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim shakllari va mazmuni takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Zamonaviy jamiyat hayotiga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish, axborot makonini shakllantirish va elektron ta'lim tizimlarini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv jarayonini tashkil etish, ta'limga yondashuvlarni sifatli qayta ko'rib chiqish, shuningdek, ta'lim tizimini jadallashtirish to'g'risida yangi ilmiy va pedagogik g'oyalarni shakllantirishga olib keladi. Raqamli va axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga va o'quv jarayoniga keng joriy etish dunyo miqyosidagi tendensiya bo'lib, yaqinda ta'lim tizimida sodir bo'lgan eng muhim jarayonlardan birini anglatadi.

Ta'limda zamonaviy tendensiyalardan biri bu raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga kirishi. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish faqat axborot texnologiyalardan foydalanishdan iborat emas. Internet, mobil va turli platformalar orqali onlayn tarzda amalga oshiriladigan ta'limda talaba va pedagogning moslashuvchanligi, ularni individuallashtirish, ta'limning ijodiy xususiyatini oshirishga qaratilgan yangi ta'lim modelini yaratish kabi muhim vazifalar kiradi.

Ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik

⁸ Стенина Т.Л. Проектная культура студентов: аксиологический аспект // Казанский педагогический журнал. - 2010. - № 5. - С. 132-137.

⁹ Г.А.Люкс. социального инновационное проектирование в региональной молодежной политике. Самара, 2003. 278 с

asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda ta'limni «raqamlashtirish» muammolari, uning shakllanishiga ta'siri bo'yichabiror-birdavlatloyihasiyokiso'rovnomasida tadqiqotlar o'tkazilmaganligi ham muhimdir¹. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta'sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma'ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning, shuningdek, deputatlarning izlanishlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Raqamlashtirishga hozirgi kunda aniq ta'rif berilmagan. Ilmiy-tadqiqot ishlarida mualliflik ta'riflari mavjud. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ba'zi tadqiqotchilar va o'qituvchilar tomonidan ta'limni axborotlashtirish raqamlashtirishning tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Deyarli barcha tadqiqotlar ta'limni raqamlashtirish odamlarni jamiyatdagi o'zgarishlarga va kasbiy muhitga moslashtirishning moslashuvchan ko'nikmalarini rivojlantirishga olib keladi degan tushuncha bilan bog'liq.

Professional ta'limda raqamlashtirishning nazariy asoslari Y.M.Yegorova², A.A.Verbitskiy³, G.A.Kruchinina⁴ va boshqalarning asarlarida keltirilgan. Ilmiy adabiyotlarda "raqamli texnologiyalar" tushunchasi mualliflar tomonidan juda tor doirada yoritilgan. Normativ-texnik hujjatlar atamalariga lug'atida "raqamli texnologiyalar" tushunchasi "kodlar va signallarni ma'lum ketmaketlikda va ma'lum chastotada yozib olish uchun kompyuterlar yoki boshqa zamonaviy jihozlardan foydalanadigan texnologiyalar" deb talqin etiladi⁵. Aksariyat mualliflar ta'limda raqamli texnologiyalarni raqamli va axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan zamonaviy ta'lim muhitini tashkil etish usuli sifatida talqin etadilar. Ularning nuqtai nazariga qo'shilamiz va ushbu ta'rifni tadqiqotimiz uchun asos sifatida ishlatamiz.

N.S.Kramarenko, A.Y.Kvashin, S.D.Karakozova, A.E.Uvarova, O.B.Akimova va boshqalarning tadqiqotlarida resurslarning cheklanganligi va ta'lim xodimlarining raqamli savodxonligi yetarli emasligi sababli raqamli transformatsiya ta'lim tashkilotlariga kech va notekis ta'sir ko'rsatishini hamda so'nggi o'n yilliklarda amalga oshirilgan ta'lim islohotlari juda qiyin bo'lganligini ko'rsatdi⁶.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayoni ishtirokchilari uchun raqamli texnologiyalarning mavjudligi o'quv ishlari samaradorligini oshirish uchun zarur, ammo yetarli bo'lmagan shartdir⁷.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish bulutli hisoblash, jamoat yuqori tezlikdagi Internetning tarqalishi, aqlli raqamli vositalarni keng joriy etish, sun'iy intellekt usullaridan foydalanish va virtual texnologiyalarni keng joriy etish bilan bog'liq.

A.Y.Uvarovning tadqiqotlariga ko'ra, «shaxsiylashtirilgan o'qitish, yoki o'quv jarayonini shaxsiylashtirilgan tashkil etish professor-o'qituvchilarning ko'p avlodlari orzusidir»⁸. U tevarak-atrofdagi olamni o'zlashtirish jarayonida o'zining bilish motivlarini rivojlantiruvchi va amalga oshiruvchi o'quv ishlarining chuqur motivli subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi rivojlangan mamlakatlarda standartlashtirilgan mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarishdan ommaviy ravishda mavjud bo'lgan individual mahsulotlarni moslashuvchan ishlab chiqarishga o'tishga olib keldi. Shu bilan birga, ta'lim sohasida o'quv jarayonini natijaga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan tashkil etishga o'tish bo'yicha ishlar boshlandi. Har bir talaba puxta ilmiy va gumanitar ta'lim oladi va zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Shu jihatdan ham raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimida samarali qo'llash bo'yicha ishlarni jadallashtirish hamda bu bo'yicha izlanishlarni olib borish muhim ahamiyat kasb

1 Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личноно ориентированной Smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 1. 4. Abdullayev, M., Saidahror, G., & Ayupov, R. (2020). P
2 Егорова Е.М. Теоретические основы цифровизации в профессиональном образовании // Вопросы педагогики. – 2020. – № 6-1. – С.100-109.
3 Вербицкий А.А. Цифровое обучение: проблемы, риски и перспективы / А.А. Вербицкий // Электронный научно-публицистический журнал «Ното Cyberus». – – № 1(6). – [Электронный ресурс]. URL: <http://journal.homocyperus.ru/VerbitskiyAA12019>
4 Кручинин М.В. Применение цифровых технологий обучения в высшей школе: проблемы и перспективы, Swot-анализ / М.В. Кручинин, Г.А. Кручинина, Л.А. Петрукович // Казанский педагогический университет. – 2020. – № 3(140). – С. 64-75.
5 Словарь – справочник терминов нормативно-технической документации [Электронный ресурс] – URL: http://normative_reference_dictionary.academic.ru
6 Козлова Н. Ш. Цифровые технологии в образовании // Вестник Майкопского государственного технологического университета. 2019. Вып. 1/40. С. 83–90.
7 Козлов Р. С., Козлова Н. Ш. Российская система образования в период цифровой трансформации // Учитель создает нацию (А.-Х. А. Кадыров): Сборник материалов IV Международной научно-практической конференции. 2019. С. 344–348.
8 Уваров А. Ю. Образование в мире цифровых технологий: на пути к цифровой трансформации. М.: Изд. дом ГУ-ВШЭ, 2018. – 168 с

etadi. Ko'plab izlanishlarning tahlillariga asosan raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi⁹: pedagogning mehnat sifatini oshirishga imkon yaratadi; katta hajmli axborotlar bilan ishlashni ta'minlaydi; ta'lim-tarbiya jarayonini shaffoflik, ochiqlik va tizimlilikni kengaytiradi; ta'lim jarayonini diagnostika va monitoring qilish tizimini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi va boshqalar. Ta'kidlash kerakki, raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etilishi ko'plab pedagogik va psixologik masalalarni samarali yechishga imkon yaratadi, jumladan,¹⁰ raqamli texnologiyalar har bir talabaga individual yondashuv imkoniyatlarini beradi; raqamli texnologiyalar talabalarda axborot madaniyatining aksiologik va emotsional sifatlarini shakllantiradi; talabalarining o'qish va o'qishdan tashqari faoliyatning faol usullari va shakllarini kengaytiradi, onlayn rejimda hamkorlikda ishlashni osonlashtiradi; mustaqil ta'limni faollashtiradi va boshqalar.

Ta'lim tizimining raqamlashtirish bosqichiga o'tishi jamiyatni raqamli davrga ishonchli o'tishni va iqtisodiyotni raqamli o'zgartirishni axborot texnologiyalari, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va axborot xavfsizligi sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashni ta'minlashi kerak.

Raqamli transformatsiya tufayli zamonaviy sharoitda uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanishi o'quv jarayonini qurishga, shu jumladan, ilg'or o'quv texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy elektron axborot-ta'lim muhitini yaratishga, ta'limni boshqarish strategiyasini amalga oshirishga va individual xususiyatlarga asoslangan o'quv materiallarini moslashtirishga yangi talablarni qo'yadi.

Raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi o'qitish vositalari umumta'lim maktablarida matematikani o'qitishda foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratib bera oladi: o'quvchilarni rag'batlantiradi va ularning qiziqishini oshiradi; o'quvchilarni kelajakdagi faoliyatiga tayyorlashga ko'mak beradi. Hozirgi zamonda mehnat faoliyati

o'quvchilar qoniqish bilan ishlatayotgan kompyuterlar, texnologiyalar, dasturlar va qurilmalar yordamida boshqariladi; o'rganish va o'qitishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi; o'qituvchilarning kasbiy o'sishi uchun ularga o'z fanlari bo'yicha o'qitishning yangi usullarini kiritishga, yangi yondashuvlarni qo'llashga, g'oyalarni ro'yobga chiqarish va yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. O'z resurslaridan oqilona foydalanishga imkoniyat yaratadi; o'quv jarayonini oqilona boshqarish va nazorat qilish orqali vaqtni hamda mablag'ni tejaydi. Raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi o'qitish vositalari darslarga tayyorgarlik jarayonini qisqartiradi va o'qish jarayonini o'quvchilar uchun qiziqarli hamda ko'ngilochar qiladi; raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi o'qitish vositalari moslashuvchandir. Raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi o'qitish vositalari turli yoshdagi o'quvchilar, turli darajadagi o'qituvchilar uchun moslashtirilishi mumkin hamda ta'lim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ko'makdir.

Raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi o'qitish vositalaridan maktabda matematika darslarida foydalanish shuni ko'rsatdiki, mazkur vositalar o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, talaba, talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi talabaning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega. Eng muhimi o'qituvchilar noan'anaviy ta'lim metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari lozim. Qolaversa, ularni qo'llashda talabalarining yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktablarning bugungi kun sinf xonalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning

9 Иванова Н.И., Кукушкина О.Ю. Социализация личности в цифровой среде // Материалы Международного молодежного научного форума «ЛОМОНОСОВ-2017» / Отв. ред. И.А. Алешковский, А.В. Андриянов, Е.А. Антипов. [Электронный ресурс]. - М.: МАКС Пресс, 2017.
10 Современные подходы в отечественном и зарубежном образовании: коллективная монография / отв. Ред. А.Ю. Нагорнова. - Ульяновск: Зебра, 2018. - 193-204.

boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun o'quvchi yoshlarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Shu bilan birga, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari - ta'lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma'ruzalar va seminarlarni ma'lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchilar o'quvchi yoshlarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan interfaol o'quv jarayonida asosiy rol ni saqlab qoladi. O'qituvchining obro'si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina o'quv fani doirasidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o'quv materialini to'plash, qayta ishlash va o'qitishda o'qituvchining qanchalik zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash darajasiga bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta'lim qayta ko'rib chiqilishi va ta'lim paradigmasi o'zgartirilishi shart, chunki o'quvchi-yoshlar ortiq an'anaviy uslubda o'qishni xohlamaydilar va o'qituvchilar

ham bu kabi odatiy usulda o'qitishni davom ettirishlari kerak emas.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va elektron ta'limning tarqalishiga olib keladigan raqamlashtirishning yangi tendensiyalari va bir vaqtning o'zida yuzaga keladigan muammo va qiyinchiliklarni bartaraf etish sharoitida talabalarning samarali o'quv jarayonini qurish dolzarb bo'lib bormoqda.

Raqamlashtirishni rivojlantirishning hozirgi darajasi va zamonaviy avlodning xususiyatlari elektron ta'limdagi to'siqlarni yo'q qilmoqda, bugungi kunda onlayn va oflayn ta'lim formatlari o'rtasida unchalik raqobat mavjud emas, tadqiqotchilar onlayn va oflayn rejim integratsiyasi sharoitida o'quv jarayonini qurishning nazariy va uslubiy asoslarini elektron muhitda aralash (gibrid) o'rganish lozim degan fikrga qo'shilishadi.

Shuni qayd etish lozimki, ta'limni raqamlashtirish, birinchi navbatda, o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida onlayn ko'rinishdagi muloqot integratsiyasini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, talabalarning o'z ustida ilg'or o'quv texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa hozirgi rivojlanish jarayonida raqamlashtirishning yangi tendensiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi.

“AMINLAR VA AROMATIK AMINLAR” MAVZUSINI INTERFAOL USULLARDA O'QITISH METODIKASI

Kamila Xamidovna Rashidova - dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ozoda Jo'raqulovna Akbarova - magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Gulrux Shirinboyevna Qayumova - o'qituvchi, Jizzax shahar 19-maktab

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Aminlar va aromatik aminlar” mavzusini interfaol o'qitish metodikasi keltirilgan. Mavzuni mustahkamlashda interfaol metodlardan: “Keys”, “Toifalash”, “Klaster”, “Venna diagrammasi” kabi metodlar ko'rsatilgan.

Аннотация: В данной статье представлена методика интерактивного преподавания темы «Амины и ароматические амины». Среди интерактивных методов укрепления темы показаны такие методы, как «Кейс», «Категоризация», «Кластер», «Диаграмма Венна».


Abstract: This article presents the methodology of interactive teaching of the topic “Amines and aromatic amines”. Among the interactive methods used to strengthen the topic: “Case”, “Categorization”, “Cluster”, “Venna diagram” methods are shown.

Kalit so'zlar: Aminlar, aromatik aminlar, aminobirikmalar, azotli organik birikmalar, interfaol metodlar, reaksiya mexanizmi, oksidlanish - qaytarilish reaksiyalar, Gofman reaksiyasi.

Ключевые слова: Амины, ароматические амины, аминоксоединения, азотсодержащие органические соединения, интерактивные методы, механизм реакции, окислительно-восстановительные реакции, реакция Гофмана.

Keywords: Amines, aromatic amines, amino compounds, nitrogen organic compounds, interactive methods, reaction mechanism, oxidation-reduction reactions, Hoffmann reaction.

Azotli organik birikmalar ichida eng amaliy ahamiyatga ega bo'lgan birikmalar bular: aminlar va aromatik aminlar. Aminobirikmalarining molekulasidagi vodorod atomlarini uglevodorod radikallariga almashinishidan hosil bo'lgan birikmalar deb qarash mumkin. Ammiakdagi bitta vodorod radikalga almashsa birlamchi, ikkita vodorod almashsa ikkilamchi va uchta vodorod almashsa uchlamchi amin hosil bo'ladi^{1,2}




Nomlanishi va izomeriyasi. Aminobirikmalarni empirik nomenklatura bo'yicha nomlashda aminoguruh bilan bog'langan radikal nomi oxiriga amin so'zi qo'shib o'qiladi. Sistematik nomenklatura

bo'yicha nomlashda esa aminobirikma molekulasidagi uglerod atomining soniga qarab, unga mos keladigan to'yingan uglevodorod nomi oldiga “amino” so'zi qo'shib o'qiladi va aminoguruhning holati raqamlar bilan ko'rsatiladi³.

Olinish usullari. Aminobirikmalarni spirtlar va galoidalkillarga ammiak ta'sir ettirib, nitrobirikmalar, nitril va izonitrillarni qaytarib kislota amidlarini oksidlab olish mumkin.

1. Spirtlarga yuqori haroratda katalizator ishtirokida ammiak bilan ta'sir ettirilganda birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlarning aralashmasi hosil bo'ladi:




2. Galoidalkillarga ammiak bilan ta'sir etilganda dastlab tuz hosil bo'ladi. Bu tuz ammiak bilan parchalanganda

1 A.Abdusamatov //Organik kimyo, Toshkent “Talqin” 2005-yil.

2 Z. Sobirov // Organik kimyo, Toshkent “Aloqachi” 2005-yil.

3 A.Abdusamatov, R.Mirzayev, R.Ziyayev //Organik kimyo, Toshkent:O'qituvchi, 2012-yil.

aminobirikma erkin holda ajralib chiqadi:




Bu jarayonda ham birlamchi amin bilan birga ikkilamchi va uchlamchi aminlar aralashmasi hosil bo'ladi⁴[4].

3. Nitrobirimalarni qaytarib aminobirikmalar olish usuli 1842 - yilda rus kimyogari N.N. Zinin tomonidan kashf etilgan bo'lib, aminobirikmalar asosiy qismi sanoatda shu usul bilan olinadi:




Bunda qaytaruvchi sifatida vodorod va boshqalardan foydalaniladi. Jarayonni neytral, kuchsiz kislotali va ishqoriy muhitlarda olib borish mumkin.

4. Aminobirikmalarni kislota amidlarini parchalab (Gofman reaksiyasi) hosil qilish mumkin:



5. Nitrillar qaytarilganda birlamchi, izonitrillardan esa ikkilamchi aminlar hosil bo'ladi:




Fizik xossalari. Aminlarning dastlabki vakillari - metilamin, dimetilamin, trimetilamin - oddiy sharoitda gaz. Suvda yaxshi eriydi, ammiak hidiga ega. Qolgan aminlar ammiak hidiga ega bo'lgan suyuqliklardir, yuqori aminlar yoqimsiz hidga ega bo'lgan suyuq yoki qattiq moddalardir. Oddiy aminlar ammiakdan farq qilib havoda yonadi.

Kimyoviy xossalari. Aminlar kimyoviy jihatdan ammiakga o'xshash reaksiyalarga kirishadilar. Ular reaksiya vaqtida nukleofil xususiyatni namoyon qiladilar.


1. Aminlarni suvdagi eritmalar asos xossasiga ega, buni quyidagicha tushuntirish mumkin:



2. Aminlar mineral kislotalar bilan tuz hosil qiladilar:



xossasi azot atomidagi juftlashmagan elektronlarning protonni biriktirib olish qobiliyati tufayli namoyon bo'ladi




Aminlarning asoslik xossasi quyidagi tartibda ortadi:




3. Aminlar alkallanish xususiyatiga ega. Buni biz aminlarni olish usullarida ko'rib chiqqan edik.

4. Aminlar atsillash reaksiyalariga kirisha oladilar. Atsillovchi agent sifatida kislota angidridlari va kislota galoid angidridlaridan foydalanish mumkin:



Ishlatilishi: aminlar organik asoslar sifatida, dori - darmonlar, erituvchilar, pestitsidlar sifatida ishlatiladi. Aromatik aminobirikmalar ham xuddi yog' qatori aminobirikmalari kabi ammiakning hosilalari hisoblanadilar. Toza aromatik aminobirikmalarda aminoguruh benzol halqasidagi uglerod atomi bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Masalan:



Aminoguruhi yon zanjirda joylashgan aminobirikmalar yog' qator aminobirikmalarining xossalari takrorlaydilar⁵.

Mavzuni mustahkamlashda quyida interfaol usullardan foydalanamiz:

Toifalash - bu xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi umumiy xususiyat. Ajratilgan xususiyatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi⁶.

Tizimli fikrlashni, ma'lumotlarni bir tuzilmaga

keltirishni mumkin, umuman tizimlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ma'lumotlarni umumlashtirish va tarkibiy sifatlarini ajratib chiqish, o'rganilayotgan

tushunchalar o'rtasidagi aloqa va o'zaro uzviylikni o'rnatish usul va vositasi hisoblanadi.

Toifalash (metodi) 1- ilova



Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammolar (mavzu) xususida erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun imkoniyat yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil tushunchalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi⁷

2-ilova




3-ilova VENNA DIAGRAMMASI



VENNA DIAGRAMMASI TUZISH QOIDASI:

1-Doiraga: Aminlarning xossalari oid tushunchalarni, 2-Doiraga aromatik aminlarning xossalari oid tushunchalarni, doiralar kesishgan joyiga har ikki tushunchalarga doir bo'lgan umumiy tushunchalarini yozing⁸.

Topshiriq uchun "Ekspert varagi":



4-ilova

Keys texnologiyasi asosida kimyo fanini o'qitishning asosiy jihatlaridan biri o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, masalalar yechish ko'nikma va malakalarini hosil qilinishi hamda umumiy kimyoning asosiy tushuncha, qonun va nazariyalarini talab darajada o'qitilishida muhim ahamiyat kasb etadi⁹.

Keys bayoni: Rus olimi N.N. Zinin 1842-yilda nitrobenzolni cho'yan qirindisi va xlorid kislota ishtirokida qaytarib, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan qaysi aminni hosil qilgan?

Keys topshiriqlari:

1. Qaytarish qanday jarayon va u

4 R.Yunusov // Organik kimyo, Toshkent, "O'qituvchi" 1996-yil.
5 A.Qurbonov, S.Zokirov // Organik kimyo. Ma'ruzalar matni, Toshkent 2000-yil
6 G.S. Meliboyeva // Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, "Toshkent" 2020-yil.

7 L.V.Golish // Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash va amalga oshirish "T. O'rta mahsus kasb-hunar ta'limi markazi, 2001-yil.
8 H.T. Omonov, M.B. Xattabov // Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat, o'quv qo'llanma, Toshkent "Iqtisod-moliya" 2016-yil.
9 G.A. Ixtiyarova, D.J.Bekchanov, M.Sh. Ahadov // Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, o'quv uslubiy qo'llanma, Toshkent-2020-yil

qanday amalga oshadi?

2. Noma'lum modda formulasini keltiring?

3. Sanoatdagi ahamiyati?

Keysning yechimi

1. Bu reaksiyani dastlab rus olimi N.N. Zinin qo'llagan. Nitrobenzol cho'yan qirindisi va xlondkislota ta'sirida hosil bo'ladigan atomar vodorod ta'sirida qaytariladi va anilin hosil qiladi.

2. Aminlardan eng ko'p amaliy ahamiyatga ega bo'lgan amin - aromatik amin - anilindir.

3. Sanoatda anilinning olinishi nitrobenzolning qaytarilish reaksiyasiga asoslangan.

Keys bayoni: Laboratoriya stoli ustida ikkita "suv"li stakan turibdi. Ikkala stakanga ham shisha tayoqcha tushirilgan. Tayoqchalarni stakanlardan chiqarib, bir-biriga yaqinlashtirilsa, ulardan qalin oq tutun paydo bo'la boshlaydi. Stakanlardagi "suv"larni boshqa idishga quyib, ikkinchi stakan ustiga qog'oz qo'yiladi va birinchi stakan qog'oz ustiga chappa qilib o'rnatiladi, ikkala stakan o'rtasidagi qog'oz olinsa, uning o'rnida tutun hosil bo'lib, ikkala stakanni to'ldiriladi. Sizningcha, qanday reaksiya ketmoqda?

Keys topshiriqlari:

1. Stakanlardagi modda nima?

2. Hosil bo'lgan oq tutun nima?

3. Qanday reaksiya natijasida bunday holat yuz beradi?


Keysning yechimi:

1. Stakanlarda suv emas, balki birinchi stakanda ammiak eritmasi, ikkinchi stakanda esa xlorid kislota eritmasi bor

edi.

2. Hosil bo'ladigan oq tutun ammoniy xlorid NH₄Cl kristallaridir.

3. Bu modda ammiak gazi bilan vodorod xlorid gazi o'rtasidagi ta'sirlashuv natijasida hosil bo'ladi.



Ammiak gazi konsentrlangan ammiak eritmasidan, vodorod xlorid esa konsentrlangan xlorid kislotadan ajralib turadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar:

1. Nitrobirikmalar haqida umumiy tushunchalar.

2. Aminlarning fizik va kimyoviy xossalari

3. Nitrobirikmalar va aminlarning ishlatilishi tabiatda tarqalishi, haqida yozish.

4.92 g anilinni to'liq bromlash uchun qanday massadagi (g) brom sarflanadi?

Jadallik bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim jarayonining sifatini oshirishda interfaol metodlarning o'rne beqiyosdir. Interfaol usulda o'tilgan darsda ta'lim oluvchida fanga nisbatan qiziqishlarini oshiradi va mavzuni to'liq o'zlashtirishga yordam beradi. Umumta'lim maktablarda kimyo fanini o'qitishda organik birikmalar, xususan, "Aminlar va aromatik aminlar" mavzusini tushuntirishda, interfaol usullarini joriy etish va uning metodikasini takomillashtirish o'quvchilarni kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

KATALIZ MAVZUSINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QITISH

Dilafuz Muradova - dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Madina Kamolova - o'qituvchi, PIMA tizimidagi Jizzax shahar 1-son maktabi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanidan "Katalitik reaksiyalar" mavzusini o'qitishda interfaol metodlar, AKT, virtual laboratoriyalar, amaliy mashg'ulotlardan samarali foydalanish haqidagi fikrlar va bir soatlik dars ishlanma va darsning samaradorligi keltirib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье обсуждается использование эффективных интерактивных методов, ИКТ, виртуальных лабораторных работ в процессе изучения химического блока на тему «Каталитические реакции». А также приведены эффективность урока и составлена часовая разработка практического занятия для урока по химии преподаваемой в средних общеобразовательных школах.

Abstract: This article discusses the use of effective interactive methods, ICT, virtual laboratory work in the process of studying a chemical block on the topic "Catalytic reactions". And also the effectiveness of the lesson is given and an hour-long development of a practical lesson for a lesson in chemistry taught in secondary schools is compiled.

Kalit so'zlar: ta'lim, interfaol metodlar, taqqoslash sinfi, tajriba sinfi, AKT, amaliy mashg'ulotlar, kimyoviy kinetika, kataliz, katalizator, o'zlashtirish samaradorligi.

Ключевые слова: обучение, интерактивные методы, класс-сравнение, экспериментальный класс, ИКТ, практические занятия, химическая кинетика, катализ, катализатор, эффективность усвоения.

Keywords: education, interactive methods, comparison class, experimental class, ICT, practical training, chemical kinetics, catalysis, catalyst, mastering efficiency.

"Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish" kabi vazifalar belgilab berildi¹.

Dars tahlillarini olib borish uchun Sh. Rashidov tumani XTB ga qarashli 12-maktabning tajriba sinfi (XI-B sinf) sifatida va taqqoslash sinfi (XI-A sinf) sifatida tanlab olindi. Taqqoslash sinfida darslar an'anaviy tarzda va interfaol metodlar bilan, tajriba sinfida esa no'anaviy tarzda, amaliy mashg'ulotlar va kompyuter dasturlaridan foydalangan holda tashkillashtirildi. Darslarni o'tish bilan birga har hafta nazorat testlari o'tkazib borildi va umumiy o'zlashtirish natijalari aniqlandi.

Taqqoslash sinfi uchun darsda Aqliy hujum, Zinama-zina, Topqirlik bahsi, "Davom ettir", "Bilish zavqi", "Baliq skeleti" metodlari hamda laboratoriya va amaliy metodlarga bog'lab olib

borildi².

Kimyo fanini o'qitishda o'quvchilarning laboratoriya tajribalari, amaliy ishlar bajarishini amalga oshirish va virtual laboratoriya ishlarini qo'llashning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni o'quvchilarning fanni o'zlashtirishi uchun samarali hisoblanadi. Shuning uchun tajriba sinfida darslar laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lab olib borildi³.

Tajriba sinfi uchun dars ishlanma:

Sinf: XI-B

Mavzu: Katalitik reaksiyalar

Dars maqsadi:

(Ta'limiy maqsadi) O'quvchilar katalizator, katalitik reaksiyalar tushunchalari haqida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lishadi;

(Tarbiyaviy maqsadi) O'quvchilarda guruh bilan ishlash, bir-birini eshitish, bir-birini hurmat qilish ko'nikmalari rivojlanadi;

(Rivojlantiruvchi masadi) O'quvchilarda katalitik reaksiyalarni bajarish bo'yicha olingan

¹ "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.09.2018 yildagi PF-5538-son farmoni

² Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.-T.: 2008.

³ Sharipov, S. R., & Muradova, D. K. (2021). KIMYO TA'LIMIDA KIMYOVIY KINETIKA VA KATALIZ NAZARIYALARINI O'QITISHNING ILMIIY METODOLOGIK ASOSLARI. Academic research in educational sciences, 2(11), 1291-1306.

bilimlarini amaliyotda (laboratoriya sharoitida) qo'llay bilish, xavfsizlik texnikasiga e'tiborli bo'lish ko'nikmalari rivojlanadi.

Dars tipi: Yangi mavzuni o'rganish va mustahkamlash

Dars jihozlari va reaktivlari: AKT, tarqatma savollar, probirka, kolba, pipetka, shtativ, qisqich, quruq yoqilg'i, H₂O₂ ning 3% li eritmasi, marganes(IV)-oksid, (MnO₂), cho'p, qand, tamaki kuli,

Dars uslubi(metodi): Aqliy hujum, test yechish, laboratoriya va amaliy mashg'ulot o'tkazish, "Tushunchalar tahlili", "Venn diagrammasi", "BBB" metodi.

Doskada: Dars mavzusi, reja Darsning borishi I.Tashkiliy qism

- 1.salomlashuv, davomat
- 2.navbatchilik va sinf xonasining tozaligi
- 3.darsga tayyorgarlik

II.Amaliy mashg'ulotga tayyorlanish

1-guruh

1-savol:

Agar termometr sinib qolsa, to'kilgan simob yig'ishtirib olinib, to'kilgan joyga nima sepish kerak?

- Tuproq
- Qum
- Oltinugurt
- Suv

2-savol:

Konsentrlangan kislotani to'g'ri suyultirish tartibi berilgan rasmni belgilang.



2-guruh

1-savol:

Agar teriga ishqor eritmasi to'kilsa, birinchi nima qilish kerak?

- Hech narsa qilish kerak emas;
- Terini latta bilan artish kerak;
- Terini suv bilan yuvish kerak;
- o Qichirish kerak.

2-savol :

Quyidagi rasmda ko'rsatilgan spirt lampasining 1-3-qismlari nomini belgilang.

- Rasmda spirt lampasi berilmagan ;
- Spirt solinadigan idish, metall disk;
- Qalpoqcha, pilik;
- o O'lchov silindiri.



III.Yangi mavzu bayoni (AKT va kompyuter dasturi asosida tushuntiriladi.)

Katalizatorlar yordamida kimyoviy reaksiyaning tezligini o'zgarishi jarayoniga – kataliz deyiladi. Reaksiyaning tezligi faqat

zarrachalarning to'qnashish tezligiga bog'liq emas, balki ularning faollanish (aktivlanish) energiyasiga ham bog'liq.

Reaksiya sodir bo'lishi uchun yetarli bo'ladigan eng kam energiya miqdori – faollanish energiyasi deyiladi. Faollanish energiyasi qancha kichik bo'lsa, reaksiya shuncha tez sodir bo'ladi. Reaksiya uchun 40 kJ/mol energiya sarflansa, reaksiya juda tez sodir bo'ladi. 40-120 kJ/mol o'rtacha tez, undan katta bo'lganda sekin sodir bo'ladi.



Reaksiya tezligini o'zgartirib, o'zi kimyoviy jihatdan o'zgaraydigan moddalar katalizatorlar deyiladi⁴.

IV Yangi mavzuni mustahkamlash

a)Amaliy mashg'ulot

1-guruh

Mavzu: H₂O₂ ning parchalanishi

Kerakli jihozlar va reaktivlar: Tubi yassi kolba, shpatel, cho'p, keramik plita, quruq spirt, gugurt, H₂O₂ (3% li), MnO₂

Ishning borish tartibi: Tubi yassi kolbaga 3-4 ml H₂O₂ ning 3% li eritmasidan quyiladi. Ustidan shpatel uchida MnO₂ kukunidan solinadi. Kolbada H₂O₂ ning shiddatli parchalanish reaksiyasi ketadi. Keramik plitada quruq spirtni yoqib, unda cho'p cho'g'lantiriladi va cho'g'lanib turgan cho'pni kolba ichiga tushiriladi.



Nazorat savollari:

1.Cho'g'lantirilgan cho'p kolba ichiga tushirilganda nima kuzatildi? Sababini tushuntiring.

2.O'tkazilgan bu reaksiyaning mavzu bilan bog'liqligini tushuntiring.

2-guruh

Mavzu: Qandning yonishi

Kerakli jihozlar va reaktivlar: Chinni kosacha, rafinadlangan qand, tamaki kukuni, keramik plita, quruq spirt, gugurt, pinset

Ishning borish tartibi: Keramik plitaga quruq spirtni qo'yib yoqiladi. Rafinadlangan qandni pinset yordamida alangaga tutiladi. Rafinadlangan qandni tamaki kukuniga botiriladi va qaytadan alangaga tutiladi.



⁴ www.chemistry.ru

Nazorat savollari:

1.Rafinadlangan qand bo'lagi tamaki kukuniga botirilmasdan oldin va keyin nima kuzatiladi?

2.O'tkazilgan bu reaksiyaning mavzu bilan bog'liqligini tushuntiring.

a)"Mozaika" o'yini

bunda o'quvchilar o'qituvchi tumonidan berilgan katalitik reaksiyalarni ketma-ketligini bilgan holda terishlari kerak bo'ladi.

"BBB" metodi

Nr	Bilaman	Bilishni sehayman	Bilib oltim
1			
2			

V. Baholarni e'lon qilish va uyga vazifa berish.

Kundalik hayotda uchraydigan katalitik reaksiyalarni o'ganib kelish.

Katalitik reaksiyalar mavzusi o'tib bo'lingach, har ikki sinfda ham test sinovlari easy Quizzzy-2 dasturida o'tkazildi. Testlardan na'munalar:

1. Kataliz nima?

A)katalizatorning muvozanatga ta'sir etishi
B)Katalizatorlar yordamida kimyoviy reaksiyaning tezligini o'zgarishi

C)katalizatorning muvozanatga ta'sir etmasligi

D)Katalizatorlar yordamida kimyoviy reaksiyaning tezligini barqarorlashtirish

2.Katalizator nima?

A)Reaksiya tezligini o'zgartirib, o'zi kimyoviy jihatdan o'zgaraydigan modda

B)muvozanatqarortopishinitezlashtiruvchi


C)muvozanatni siljitivchi modda

D)oralik mahsulotlar

3.Katalizator qanday qilib reaksiya tezligini oshirtiradi? 1) dastlabki moddalardan birortasi bilan reaksiyaga kirishib aktiv oraliq kompleks hosil qiladi 2) Aktiv oraliq kompleks hosil qilish hisobiga reaksiyaning faollanish energiyasini pasaytiradi 3) moddalar sirtiga ta'sir etib sirt tarangligini pasaytiradi 4) Aktiv oraliq kompleks hosil qilish hisobiga reaksiyaning faollanish energiyasini oshiradi A) 1,2,3,4 B) 1,3 C) 1,2 D) 1,4

5.Gomogen (a) va geterogen (b) katalizni aniqlang.

1)Nitroza usuli



2) $NH_3 + HCl \xrightarrow{H_2O(hug)}$

3)Eterifikatsiya reaksiyalarida $H_2SO_4(qand)$

4)Kontakt usuli $2SO_2 + O_2 \xrightarrow{Pt} 2SO_3$

5) Hidrogenlanish reaksiyalarida Ni yoki Pt ishlatilishi 6) Ammiak sintezida Fe ning ishlatilishi

A) a-1,2,6 b-3,4,5 B) a-1,2,3 b-4,5,6

C) a-1,5,6 b-2,3,4 D) a-1,3,5 b-2,4,6

1-jadval

Kimyoviy kinetika. Kimyoviy reaksiya tezligi, kimyoviy muvozanat va ularga ta'sir etuvchi omillar mavzusi bo'yicha 11a-11b –sinflari sinov natijalari

Sinflar	O'quvchilar soni	1	2	3	4	5	6	7	8
XI-A sinf	26	60	60	62	60.5	61	62	63%	63%
Tayyib sinfi		%	%	%	%	%	%		
XI-B sinf	30	63	65	68	69%	71	75	75.6	77%
Tayyib sinfi		%	%	%	%	%	%	%	

O'rtacha to'g'ri javoblar sonini topish uchun har bir o'quvchi bergan to'g'ri javoblar soni yig'indisini o'quvchilar soniga bo'lganimizda guruhning to'g'ri javoblarining o'rtacha qiymati kelib chiqadi, bu qiymatni 100% ga ko'paytirib, savollar soniga bo'lsak har ikkala guruhning to'g'ri javoblari o'rtacha qiymatining foiz ko'rsatkichi aniqlanadi. 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 11b va 11a o'quvchilari 20 ta sinov savollari bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari 70% ga teng. Ushbu ko'rsatkichlar guruhning to'g'ri tanlanganligini ko'rsatadi.

2-jadval
Pedagogik eksperiment natijalari

O'quvchilar	To'g'ri javoblar soni	To'g'ri javoblar % da	O'quvchilar	To'g'ri javoblar soni	To'g'ri javoblar % da
XI-B	25	75	17	16	80
XI-A	26	80	18	12	60

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, an'anaviy va axborot texnologiyalarini qo'llab o'tilgan darslardan so'ng o'tkazilgan sinov natijalariga ko'ra, o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish ko'rsatkichlari ortdi. Bundan aytish mumkinki, an'anaviy darsdan farqli ravishda turli xil metodlar asosida va amaliy mashg'ulotlar orqali dars jarayonini olib borish o'quvchilar ongida ko'proq qoladi va bilim olish samaradorligi oshadi.

3-jadval
O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarining ortishi

Eksperimental dars o'tish		An'anaviy dars o'tish	
To'g'ri javoblar soni	To'g'ri javoblar, %	To'g'ri javoblar soni	To'g'ri javoblar, %
16,2	81	15	75

Jadval va diagrammadan ko'rinib turibdiki, axborot texnologiyalarini qo'llab o'tilgan dars an'anaviy darsga nisbatan ancha samarador ekan. Dars samarasi 1.5 barobargacha oshdi. Dars mashg'ulotlarini bunday tarzda olib borish o'quvchilarni bilim olish darajasini oshiradi, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Kimyoviy bilimlarni egallashda o'qitishni modernizatsiyalagan holda, innovatsion texnologiyalarini qo'llash bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

СТРУКТУРООБРАЗОВАНИЕ В СУСПЕНЗИЯХ ГЛИН

Эгамкул Болтаевич Каршиев - доцент, Жиззахский государственный педагогический университет

Аннотация: В статье рассмотрены результаты рентгенографических исследований установлено, что глина Акойского месторождения является монтмориллонитовой и содержит помимо основную минерала гидрослюда, каолинит, незначительное количество хлорита и других минералов.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Akoy gilmoyasining fizik-kimyoviy analiz usullarida o'rganilib rentgenologik tadqiqotlar natijalari yoritilgan. Akoy gilmoyasi, tarkibida asosiy mineraldan tashqari gidroslyuda, kaolinit, oz miqdorda xlorit va boshqa minerallar borligi aniqlangan.

Abstract: The article discusses the results of X-ray studies and found that the clay of the Akoi deposit is montmorillonite and contains, in addition to the main mineral, hydromica, kaolinite, a small amount of chlorite and other minerals.

Ключевые слова: суспензии, монтмориллонит, фаза, глина, акой, компонент

Kalit so'zlar: suspenziyalar, montmorillonit, faza, gil, akoi, komponent

Keywords: suspensions, montmorillonite, phase, clay, akoi, component

Глинистые суспензии используемые в качестве промывочных жидкостей при бурении на нефть газ и твердые полезные ископаемые представляют собой полидисперсные коллоидно-суспензионные системы. Работами отечественных изарубежных ученых П.А.Ребиндера, Ф.Д.Овчаренко, Б.В.Дерягина, М.П.Воларовча, и других широко изучены и создано учение о глинах глинистых минералах и их водных дисперсиях, разработаны на научные основы получения устойчивых дисперсий глинистых минералов и регулирования коллоидно-химических свойств глинистых суспензий в свойство и водорастворимые полиэлектролиты¹. Глинистые суспензии включают в себя частицы различных размеров: от коллоидных до частиц грубых фракций, состоящих из нераспавшихся агрегатов глин, а также других минеральных примесей. По степени дисперсности глинистые суспензии относятся к коллоидно-суспензионным системам и поэтому обладают высоко развитой поверхностью раздела и соответственно, большим запасом свободной поверхностной энергии²на границе раздела фаз. Это приводит к термодинамической неустойчивости этих систем. В силу этого в них постоянно происходят самопроизвольные процессы,

направленные на уменьшение поверхности раздела фаз, ведущие к агрегации частиц твердой фазы и коагуляции системы. Глинистые суспензии являются кинетически неустойчивыми вследствие действия гравитационных сил и агрегативно неустойчивыми, благодаря силам молекулярного взаимодействия между частицами. П.А.Ребиндер и др.³ указывают, что основным свойством глинистой суспензии является способность к образованию пространственной структуры. на этот процесс существенное влияние оказывают концентрация твердой фазы, конфигурация частиц, дисперсности их поверхностные или ионообменные свойства.одновременно с чисто механическим диспергированием начинаются процессы физико-химического взаимодействия глинистых минералов с водой: набухание, обмен катионами и адсорбция⁴. Глинистые минералы, как водные силикаты со слоистыми и цепочечными решетками, состоят из слоев кремнекислородных тетраэдров[SiO₄]⁴⁻ и алюмосиликатных октаэдров, реже тетраэдров, наиболее ванными и широко распространенными группами минералов являются: монтмориллонит, каолинит, гидрослюда, палыгорскит⁵. Принадлежность глин к той или иной минералогической группе

1 Гельфман, М.И. Коллоидная химия: Учебник / М.И. Гельфман, О.В. Ковалевич, В.П. Юстратов. - СПб.: Лань, 2010.

2 Кругляков, П.М. Физическая и коллоидная химия. Практикум: Учебное пособие / П.М. Кругляков, А.В. Нуштаева, Н.Г. Вилкова и др. - СПб.: Лань, 2012. - 208 с.

3 Кудряшева, Н.С. Физическая и коллоидная химия: Учебник и практикум для СПО / Н.С. Кудряшева, Л.Г. Бондарева. - Люберцы: Юрайт, 2016.

4 Белик, В.В. Физическая и коллоидная химия: Учебник / В.В. Белик. - М.: Академия, 2015. -


5 Вережников, В.Н. Коллоидная химия поверхностно-активных веществ: Учебное пособие / В.Н. Вережников, И. Гермашева. - СПб.: Лань, 2015.

может характеризоваться молекулярным соотношением SiO₂: R₂O₃, где R₂O₃ так называемые полуторные окислы, включающие сумму Al₂O₃ и Fe₂O₃ это соотношение для монтмориллонита колеблется в пределах 4-7, гидрослюда 3-4, каолина - 2-3, палыгорскита 2,1-2,5. Чем больше это отношение, тем сильнее проявляются гидрофильные свойства глинистых пород, тем сильнее набухаемость глин. Исследование процессов набухания глин различного минералогического состава показало, что наибольшей набухаемостью отличаются монтмориллонитовые глины. Это объясняется двумя явлениями: молекул воды между плоскостями решетки глинистого минерала и капиллярным всасыванием воды внутрь кристалла глины. Набухание монтмориллонита связано в первую очередь с увеличением межпакетного расстояния. Каолин обладает наименьшей набухаемостью, объем набухания соответствует примерно общей пористости образца.

По мере образования новых поверхностей контакта глины с водой происходит диссоциация глинистых частиц на крупные анионы, представляющие собой основную кристаллическую часть минерала, и катион, состоящий из металлов обменного комплекса, Р.Кунин и Р.Майер связывают явление катионного обмена со строением кристаллических структур глинистых частиц и объясняют его изоморфным замещением катионов кристаллической решетки на ионы раствора. При этом, в обмен вступают толко те ионы, размеры которых не позволяют им диффундировать через поры кристаллической структуры. при этом способность замещения определяется природой сил, связывающих ионы в кристалле, размерами, зарядом и концентрацией обмениваемых ионов.

Емкость катионного обмена, определяемая энергией связи, зависит от положения сорбированных катионов по отношению к алюмо-кремнекислородным пакетам, природы катионов⁶, формы глинистых

частиц, нарушений решетки и т.д. Известна следующая схема катионного обмена



О.М.Мдианишвили рассматривал гидроксилы как функциональные группы, сорбирующие воду и обменные катионы и удерживающие их водородными связями. Один из атомов водорода ослабляется, прото-низируется и значительно легче вступает в обменные реакции. Благодаря диссоциации глинистые частицы приобретают отрицательный заряд большой величины, в силу которого и держат в сфере притяжения положительно заряженные катионы и молекулы воды последние ориентируются положительно заряженными участками в сторону глинистой частицы и адсорбируются на ее поверхности⁷. Поэтому поверхность глинистых частиц покрывается адсорбционным слоем воды, образующим солватные оболочки. Таким образом, все дисперсные системы можно разделить на два класса: устойчивость первых определяется свойствами поверхности т.е. имеет термодинамический смысл; вторых - прослойками,

между частицами, т.е. энергетическим барьером. Физико-химические исследования сводились к оценке физико-химических свойств образцов. Гидрофильность образцов характеризовали через данные, полученные методами теплоты сначивания и набухания. При выполнении экспериментальных работ для приготовления глинистых суспензий использовалась монтмориллонитовая глина Акойского месторождения для сравнения были взяты натриевый монтмориллонит Азкамарского Келесского месторождения. Акойское месторождение расположено в 40-45 км к Северо-Востоку от райцентра Тамды на южном склоне гор Джетымтау. (Бухарской области). Площадь указанного разреза в 5-6 км Северо-Восточнее гор Тубаберган. Мощность глин 8-12м, они приурочены к верхнеэоценовым отложениям. Глина серая, бескарбонатная, тонкослоистая, без органических включений. Эти данные говорят о перспективности промышленной разработки Акайского месторождения, которые представляют большой практический интерес в качестве основного сырья в практике бурения и других отраслях народного хозяйства, которые до сих пор базировали на привозном сырье. О принадлежности глин Акойского месторождения, открытого в 1972г. М.З.Закировом, к щелочным бентонитам, впервые упоминается в работах. При изучении химико-минералогического состава образцов глины Акойского

6 Белопухов, С.Л. Физическая и коллоидная химия. Основные термины и определения: Учебное пособие / С.Л. Белопухов, С.Э. Старых. - М.: Проспект, 2016.

7 Щукин, Е.Д. Коллоидная химия: Учебник для бакалавров / Е.Д. Щукин, А.В. Перцов, Е.А. Амелина. - М.: Юрайт, 2013

месторождения проводилось их сравнение с образцами изученного бентонита Келесского месторождения Узбекистана. Для исследования были взяты образцы 1619,1622,1623 изредная проба из разных геологических разрезов, которые представлены нами сотрудниками института геологии и геофизики им.К.М.Абдуллаева АН Узбекистан, руководимыми доктором геолого-минералогических наук М.З.Закировым. При изучении химико-минералогического состава образцов глины Акойского месторождения нами использован комплекс современных физико-химических методов исследования, включающий рентгенографический, электронно-микроскопический, дифференциально-термический и химический валовой анализы. Из них наиболее прямым методом исследования является рентгенографический анализ. Результаты расшифровки рентгенограмм производились путем их сравнения с рентгенограммами, приведенными в литературе. Полученные данные, представленные в табл.

Таблица 1.
Минералогический состав образцов глины Акойского и Келесского месторождения %

Наименование месторождения	№№ образцов	монтмориллонит	Каолинит	Гидрослюда
	1619	65	5	25
	1622	65	10	20
Акойское	1623	75	5	15
	средний проб	70	5	20
Келесское	П горизонт	70	-	25

оказывают, что на рентгенограммах всех изученных образцов 1619,1622, 1623 и природного среднего глины Акойского месторождения, отчетливо выделяется дифракционный спектр монтмориллонита с определенными рефлексами, и межплоскостными расстояниями $d=12,4-12,6$ Анг. На дифрактограммах воздушно-сухих образцов при межплоскостных расстояниях ($d(001)=12,4-12,6$ А) после насыщения образцов глицерином происходит их смещение в сторону меньших углов отражения и фиксируются они при 17,7-17,8 А. При этом появляются также рефлексы более высоких порядков в результате дополнительной ориентации частиц параллельно плоскости отражения 001. Из рентгенограммы видно⁵, что в образцах присутствует незначительное количество хлорита-минерала сложного и неоднородного состава. Он регистрируется рефлексом при $d(001)=7,12$ А на дифрактограммах образцов глины, нагретых при 550-580°C. Из таблицы 1 видно, что основными компонентами образцов глины является монтмориллонит, содержание которого колеблется от 65 до 77%. Кроме монтмориллонита на рентгенограммах образцов акойской глины обнаружены рефлексы гидрослюды, для которой характерны линии с $d_{hkl}/n = 9,8; 10,1$, несмещающиеся при насыщении образца глицерином и после нагревания его до 550°C. Содержание гидрослюды в образцах акойской глины составляет от 19 до 30%.

Таким образом, в результате рентгенографических исследований установлено, что глина Акойского месторождения является монтмориллонитовой и содержит помимо основной минерала гидрослюду, каолинит, незначительное количество хлорита и других минералов.

KREDIT – MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH

Samar Sattor o'g'li Aliqulov - (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Kredit-modul tizimi dunyoning ilg'or mamlakatlari oliy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan tizim bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'quv jarayonida asosiy e'tibor talabalarning mustaqil ishlashiga qaratilganligidir. Ushbu maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning o'qituvchi rahbarligida mustaqil ta'limini tashkil etish haqida so'z yuritiladi.

Аннотация: Кредитно-модульная система широко используется в системе высшего образования передовых стран мира, и одной из ее уникальных особенностей является то, что основное внимание сосредоточено на самостоятельной работе студентов в учебном процессе. В данной статье говорится об организации самостоятельного обучения студентов под руководством преподавателя по кредитно-модульной системе в педагогических вузах.

Abstract: The credit-modular system is widely used in the higher education system of the advanced countries of the world, and one of its unique features is that the main attention is focused on the independent work of students in the educational process. This article deals with the organization of self-study of students under the guidance of a teacher on a credit-modular system in pedagogical universities.

Kalit so'zlar: o'quv jarayoni, kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, didaktik tamoyillar.

Ключевые слова: учебный процесс, кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, дидактические принципы.

Keywords: educational process, credit-module system, independent education, didactic principles.

Bo'lajak mutaxasislarning mustaqil ishini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish, ularning shaxsiy-kasbiy, ijodiy imkoniyat va integrativ tafakkurini shakllantirish, onlayn ravishda o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, tarmoqlararo integratsiyasining pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish bugungi kunda oliy ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda talabalarda mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish, ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan, mul'timedia vositalaridan foydalanish va ularni amalda qo'llay olish, mustaqil ishini tashkil etish metodikasini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lami ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

So'ngi yillarda mamlakatimizda xorijiy rivojlangan davlatlarning tajribalarini

o'rgangan holda talabalarning mustaqil ishi faoliyati, o'quv-metodik ta'minot, yangi o'quv adabiyotlar hamda o'qitish texnologiyalarini jalb qilish va amaliyotga joriy etish, Respublika oliy ta'lim muassasalarining xalqaro oliy ta'lim muassasalari bilan o'quv va ilmiy hamkorlik aloqalarini o'rnatishning huquqiy asoslari yaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan – O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari bosqichma bosqich kredit-modul tizimiga o'tmoqda¹. Ushbu tizimda talabalarning mustaqil ishlashiga asosiy e'tibor qaratilgan. Ma'lumki o'quv jarayoni talabalarni mustaqil fikr yurita olishga o'rgatsa, unday ta'limni rivojlantirishga asoslangan o'quv-metodik jarayoni deb qabul qilish mumkin. Talabalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan maxsus vositalarni qo'llab, uni fanga qiziqtirish, erkin

8 Каршиев Э.Б. Узбекистон гилмояларини озик-овқат саноатида ишлатилиши. сборник научных трудов.Респ. научно-технической конф.Джиззах 2009. 226-228-бет

1 Узбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон“ Узбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги фармони //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. –Тошкент, 2019 йил 29 март.

fikrlashga o'rgatish, rivojlantirish tizimi yaratish orqali ularda kreativ g'oyalarni shakllantirish mumkin.

Kredit-modul tizimi, bu – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi². Kredit-modul' tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Shu vaqtga qadar mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarning asosiy vazifalari muayyan fanlardan talabalarga bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiya berish uchun ma'lumotlar qidirib topish, ularni o'zlashtirish, qayta ishlash va talabalarga tarqatishdan iborat bo'lgan, ya'ni ular mutaxassislarni tayyorlashda lozim bo'lgan ma'lumotlarni shunchaki qabul qiluvchi va uzatuvchi vazifasini bajarishgan. Talabalarning vazifalari esa, auditoriya va laboratoriyalarda faqat o'quv mashg'ulotlariga qatnashib bilim olish va o'zlashtirishdan iborat bo'lgan, ya'ni ularga etuk mutaxassis bo'lish uchun zarur bo'lgan ilmiy-texnik yangiliklardan foydalanish, tahliliy va mantiqiy fikrlash, innovasion loyihalarni yaratish kabi vazifalarni bajarishda yordam beruvchi mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga ahamiyat berilmagan.

Kredit-modul tizimida talaba ta'lim olishi jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z elkasiga olishi, fan bo'yicha auditoriyadan tashqarida mustaqil ishlashi shartdir. Kredit-modul tizimida auditoriyadan tashqarida ishlash o'qituvchidan talabani mustaqil ishlashini tashkil etishni, mustaqil ishlash uchun materiallar va vositalar berishni hamda talabalarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilishning samarali usullarini yaratish kerakligini talab qiladi. Talabalardan esa, mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat material va vositalar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy eta olish malakalarini shakllantiradigan mustaqil ishlash tajriba va ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim ulushining ortishi tufayli o'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi, hamda faolligini oshirishga, har qanday ishni bajarishda innovatsion-

kreativ yondashishiga olib keladi.

Bunda talaba doimo o'qituvchi va tengdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'z natijasida o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi, natijada bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.

Ta'limda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash tufayli axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlarda kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat auditoriya mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarga etkazish qiyindir. Shuning uchun kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim olish zamonaviy mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omili hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim, talabalarga bilim berishda ularni o'z holiga tashlab qo'yish emas, balki o'qituvchilar tomonidan muntazam boshqariladigan talabalarning mustaqil faoliyatidir. O'quv jarayonini sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli kattadir. Talaba mustaqil ta'lim uning manfaati uchun olib borilishini tushunishi kerak.

Pedagogning o'quv jarayonida talabalar bilan hamkorligi ularning mustaqil ta'limga ishonchini shakllantiradi. Ma'ruzalarni an'anaviy usulda, ya'ni faqatgina ma'lumot berish bilan cheklanmasdan, balki muammoli interaktiv usulda olib borilishi kutilayotgan ijobiy natijalarga olib keladi. Ta'lim oluvchining esa mustaqil ishlashi olayotgan bilimiga o'zi mas'ulligini anglatadi va kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ko'p hollarda mustaqil ish va mustaqil ishlash tushunchalari bir hil ma'noda qo'llaniladi, vaholanki, ular adabiyotda turli ma'noni anglatadi. Shuning uchun ushbu tushunchalar mazmuni, mohiyati hamda maqsadini aniqlash lozim. Mustaqil ishlash jarayonida talaba o'ziga berilgan ma'lum topshiriq yoki vazifada ko'rsatilgan talablarni qoniqtiradigan mustaqil ishni bajaradi va ishlanmani, ya'ni natijani biror ko'rinishda tayyorlaydi hamda taqdim etadi.

Mustaqil ish, bu – talabani muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, malaka, ko'nikma va kompetensiyalarni auditoriyadan tashqarida ta'lim beruvchining rahbarligida yoki individual-ijodiy ravishda o'zlashtirishi uchun raqamli texnologiyalardan foydalanib olgan ilmiy ma'lumotlar hamda turli texnik vositalar

yordamida bajargan (ijod qilgan va yaratgan) yozma ishlar, dasturiy ta'minotlar, ko'rgazmali qurollar, mahsulotlar, jihozlar kabi moddiy ishlanmalaridir.

Mustaqil ishlash, bu – talabani muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, malaka, ko'nikma va kompetensiyalarni auditoriyadan tashqarida ta'lim beruvchining rahbarligida yoki individual-ijodiy ravishda o'zlashtirish hamda oshirish uchun yo'naltirilgan o'quv faoliyatidir. Mustaqil ishlashdan asosiy maqsad talabada nafaqat muayyan fan sohasida didaktik topshiriqlarni mustaqil bajarish, bilimlarni oshirish, balki mantiqiy fikrlash, ijodiy faollik, o'quv materialini o'zlashtirishda kreativ yondashuv kabi kasbiy kompetentlikni shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriq va vazifalarni bajarishdir.

Talabalarning mustaqil ta'limi – talabani o'quv predmetiga aylantiradigan bilish faoliyati, kasbiy rivojlanishda o'z-o'zini boshqarish mexanizmi shakllanadi, o'qituvchi tomonidan bilvosita nazorat qilinib, kasbiy bilim va ko'nikmalarni takomillashtirishga hamda bo'lajak mutaxassisning kasbiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu ta'rifda biz uchun quyidagi xususiyatlar muhim ahamiyatga ega:

-talabalarning bilish faoliyati; o'qituvchi tomonidan bilvosita rahbarlik; talabalar o'z-o'zini boshqarish mexanizmini shakllantirish; kasbiy bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish; mutaxassisning kasbiy mahoratini rivojlantirish; mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish kompetensiyalari shakllantirish.

Ta'kidlash joizki, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va uni faollashtirish muammosi psixologlar, pedagoglar, hamda metodistlar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Ularning tadqiqotlari ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonidagi mustaqil ta'limning didaktik maqsadlarini umumiy ko'rinishda shakllantirishga imkon yaratadi.

Talabalarda mustaqil ishlash metodik kompetentlikni shakllantirishning maqsadi kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida talabani o'z-o'zini anglash, baholash va boshqarish kabi tarkibiy qismlarni rivojlantirish va turli ta'lim muassasalarida ishlashga tayyorlash sanalsa-da, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari asoslarini o'rganish vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

-aniq pedagogik hamda ishlab chiqarish muammoli vaziyatlarda masalani ajratib olish

va ularni hal qilish usuli sifatida pedagogik va texnik-texnologik tafakkurni rivojlantirish; bo'lajak o'qituvchining pedagogik-shaxsiy faoliyati asosi sifatida pedagogik, umumkasbiy va ixtisoslikka oid bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga erishish; bo'lajak kasbiy faoliyat individual metodining asosi sifatida, o'quv-pedagogik va ishlab chiqarish harakatlarining reproduktiv va ijodiy usullarini shakllantirish; muhim kasbiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirish (hamddardlik, bolalarni sevish va boshqalar), kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini yuzaga keltirish hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning ta'limiy qadriyatlarini guruhida o'z-o'zini takomillashtirishning omillari - o'z-o'zini takomillashtirishga yangicha yondashuv, mustaqil ta'lim olish, mustaqil bilim olish, shaxsiy qobiliyatlarni namoyon eta olish, ijtimoiy-kasbiy mustaqillik, mustaqil bilim olish strategiyasi, rejalashtirish va o'zini boshqarish, o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi kasbiy-shaxsiy jihatdan takomillashtirish, mustaqil bilim olish manbalari, shakli, metod, usul va vositalari, ularning turli-tumanligi, ulardan samarali foydalanish va hokozalar hisoblanadi.

O'quv jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin: fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash; (bitiruv) malakaviy ishi uchun materiallar to'plash; amaliyotdagi mavjud muammoni yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash; ilmiy maqola, tezis va ma'ruza tayyorlash; tavsiya qilingan adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish; fanni o'qitishdagi innovatsiyalar, pedagogik texnologiyalar hamda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va boshqalar.

Talabalarning mustaqil ishi – bu talabani o'ziga xos o'quv faoliyati bo'lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o'qishga qiziqtirishga va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan. talabani mustaqil ish mazmuni mantiqiy fikrlashni, ijodiy faollikni, o'quv materialini o'zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi³

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi 824-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori //Qonun xiyjatlarini ma'lumotlar milliy bazasi. -Toshkent, 2020 yil 31 dekabr.

³ Муслимов Н.А. Каасб таълими ўқитувчисини касбий акллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дис. - Т.: 2007. - 315 б..

Talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarni bir qancha turlarga ajratish mumkin.

1) Mobil qurilmasi orqali bajariladigan mustaqil ishlar (darsga tayyorlanish, axborot izlash, FAQ-ko'p so'raladigan savollar, Forum, test yechish, nazorat ishiga tayyorlash).

2) O'qituvchi rahbarligidagi an'anaviy shakldagi mustaqil ishlar (misol va masalalar ishlash, referat tayyorlash, kollokvium, esse yozish, taqdimot materiallari tayyorlash, keystadilar bilan ishlash, ish o'yinlari, glossariy, kurs ishi va kurs loyihasini bajarish, hisobgrafik ishlarini bajarish, BMLlarni tayyorlash, amaliyot hisobotini tayyorlash, to'garaklar va tanlovlarda ishtirok etish, olimpiadalarda ishtirok etish, ilmiy tezis va maqolalar tayyorlash, ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilish, o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlashda ishtirok etish).

3) O'qituvchi rahbarligidagi elektron shakldagi mustaqil ishlar (Link, Chart, Q/A, Review, SWOT, Interview, Google Apps, Report, dayjest).

ECTS kredit-modul tizimida faoliyat yuritadigan oliy ta'lim muassasalari amaliyoti tahlil qilinganda, ularning aksariyatida auditoriya mashg'ulotlariga umumiy o'quv yuklamasining 40%i va talabani mustaqil ishlariga 60% ajratilganligini kuzatish mumkin. Bu nisbat boshqacha qilib aytganda 1:1.5 to'g'ri keladi. Ya'ni, talaba muayyan fan bo'yicha belgilangan har 1 soat dars uchun unga darsdan tashqarida bir yarim soat mustaqil o'qishi, tayyorlanishi kerak bo'ladi⁴.

ECTS kredit-modul tizimida talabani ongidan "bilim olish vaqti auditoriyadagi dars mashg'ulotlaridagina iborat" degan tushunchani chiqarib tashlashga erishishimiz kerak. Unda yangi bilimning manbai faqat o'qituvchi yoki auditoriya mashg'ulotlari emas, balki ular uning uchun yo'l ko'rsatuvchi, yo'naltiruvchi, dastlabki va umumiy ma'lumotlarni beruvchi sifatida qarash lozimligi bo'yicha tushunchalarni shakllantirishimiz kerak. Chunki, talaba auditoriyada o'qituvchi tomonidan berilgan dastlabki ma'lumotlar va tushunchalarni yanada chuqurroq o'rganib mustahkamlash, o'zida malaka va ko'nikmalarni hosil qilishi o'zining bajaradigan mustaqil ishlariga, umuman olganda o'zining xatti-harakati va intilishiga bog'liq ekanligini his etishi lozim.

Misol orqali tushuntiradigan bo'lsak, talaba fan bo'yicha 1 kredit to'plashi uchun 12 soat auditoriya mashg'ulotlari (ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, seminar darslari) da qatnashishi va 18 soat hajmdagi mustaqil ish turlarini bajarilishi kerak bo'ladi.

Talabalarni mustaqil ishining sifatli bajarilishini va talaba faoliyati yaxshi samara berishi, eng avvalo, fan o'qituvchisiga bog'liq, ya'ni o'qituvchining talabani fanga qiziqitirish olishi, motivasiya bera olishi, kreativligiga bog'liq. O'qituvchi talabalarga o'z vaqtlaridan samarali foydalanishlari uchun ularga darsdan tashqarida o'qish uchun adabiyotlarni va qiziqarli materiallarni taqdim etib borishi, turli topshiriqlar va muammolar berib borishi kerak bo'ladi.

O'qituvchi rahbarligida talabani mustaqil ishi yakka tartibda va guruh tarzida, hamda maslahat va interfaol shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Guruh tarzidagi o'qituvchi rahbarligida talabani mustaqil ishi har bir fan bo'yicha butun akademik o'qish davrida sana, vaqti, auditoriyasi va tyutorlarni ko'rsatgan holda, tasdiqlangan grafik-jadval asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha yakka tartibda maslahat olgan talaba o'qituvchilarning mehnatini hisobga olish bo'yicha yuritiladigan maxsus qayd jurnaliga registrasiyadan o'tadi va imzo qo'yadi. Talaba mustaqil ishining hajmi, mazmuni va hisobot turini, ishning hajmini (soatlarda), ketma-ketligini va topshirish muddatlarini kafedra belgilaydi, shuningdek, bajarilgan talabani mustaqil ishi sifatini nazorat qilib, talabani mustaqil ishi natijalari bo'yicha talabalar va o'qituvchilarning hisobotlarini ko'rib chiqadi. Buning uchun kafedra miqyosida talabani mustaqil ishi sifatini nazorat qilish bo'yicha maxsus komissiya ham tashkil etiladi. Ushbu komissiya fanlar kesimida talabani mustaqil ishilarini tashkil qilish va rejalashtirish, ularni tarqatish, topshirish muddatlarini va sifatini nazorat qilish va uslubiy ta'minotini yaxshilash maqsadida tashkil qilinadi.

Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning tobora keng qo'llanilishini e'tiborga olgan holda, talabani mustaqil ta'lim ishini bajartirishda elektron shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi talabani mustaqil ta'lim ishiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Ya'ni talabani mustaqil ta'lim ishining

4 В.Уринов. Узбекистон Республикаси Олий таълим муассасаларида ECTS кредит-модуль тизими: асосий тушунчалар ва қоидалар. Қўлланма. Эл-норт умиди жамғармаси ва Республика Олий Таълим Кенгаши билан ҳамкорликда. 2020 й. -64 б.

30-35%ini tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda talaba quyidagi mustaqil ish turlarini bajarishi mumkin bo'ladi⁵:

- Chart – jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish; Q/A – masofaviy ta'lim platformasida o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga belgilangan hajmda yozma javob berish;

- SWOT – fan bo'yicha biror tushunchani cheklangan hajmda SWOT-tahlil qiladi;

- Link – internet havolasini ochib unda keltirilgan video yoki matn shaklidagi materialni belgilangan hajmda izohlash;

- Report – laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha hisobotlarni masofaviy ta'lim platformasiga kiritish;

- Interview – muammoni tadqiq qilish bo'yicha suhbat uyushtirish va uni masofaviy ta'lim platformasiga yuklash;

- Google Apps – Google Classroom platformasida hamkorlikda slaydlar, jadvallar, matnlar shaklidagi topshiriqlarni bajarish;

- Dayjest - berilgan mavzu bo'yicha internet-havolalar to'plamini keltirish, kartoteka tuzish va ularni qisqa izohlash.

Bundan tashqari o'qituvchi fanning xususiyatidan kelib chiqib, talabalarga turli komp'yuter o'quv-dasturlari (MatLab, CorelDRAW, AutoCad, Excel) yordamida elektron tarzda bajariladigan mustaqil ish

topshiriqlarini ham berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimida talabani mustaqil ishini tashkil etish, samaradorligini va sifatli bajarilishini ta'minlash hozirgi paytdagi asosiy dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ishini sifatli bajarilishini ta'minlashda "O'qituvchi-talaba" mexanizmini shakllantirish va uning uzluksiz harakatini ta'minlash lozim. "O'qituvchi-talaba" mexanizmi – bu shunday mexanizmki, bunda o'qituvchi talabaga topshiriqlar va ularni bajarishga motivasiya berish orqali uning harakatini ta'minlasa, talaba esa o'qish, o'rganish va izlanish natijasida o'zi duch kelgan muammolar yuzasidan murojati orqali o'qituvchining harakatini ta'minlaydi. Bu mexanizm o'zaro aks ta'sir tamoyiliga asoslangan.

Chunki talaba mustaqil ishlarni bajarishi jarayonida qanchalik ko'p muammolarga, savollarga duch kelsa, shunchalik darajada o'qituvchiga yaqinlashib, murojaat qila boshlaydi. Talabalarning savollariga yetarli darajada javob bera olishi uchun esa o'qituvchi o'z sohasining bilimdoni bo'lishi talab etiladi. Aks holda o'qituvchi va u o'qitadigan fanning reytingi tushib ketadi, agar u tanlov fani bo'lsa, o'quv rejasidan olib tashlanishigacha borilishi mumkin.

5 Азизов. У. Кредит-модуль тизими ва унинг ўзига хос хусусиятлари. -http://uzbekiston ovozi. uz/uz/articles/index. php? ECTION_ID=161&ELEMENT

OLIY TA'LIMDA VIRTUAL LABORATORIYA ISHLARI TALABALARNING MUSTAQIL ISHI SHAKLI SIFATIDA

Xasan Narzullayevich Karimov - o'qituvchi, Toshkent axborot texnologiya universiteti

Annotatsiya: Ushbu ishda oliy ta'limda virtual laboratoriya ishlaridan mustaqil ta'limda foydalanish muammolari muhokama qilingan. Virtual va real laboratoriya ishidan foydalanishdagi muammolar taqqoslangan. Virtual laboratoriyadan mustaqil ish sifatida o'z-o'zini o'qitishda foydalanish muammolari uslubiy jihatdan hal qilingan. Fan va texnika rivojlangan davrda texnik ta'lim yo'nalishlaridagi universitetlar uchun muhim bo'lgan talabalarning mustaqil o'z-o'zini o'qitish qoidalarini tahlil qilingan, kamchiliklari ko'rsatilgan va takliflar ishlab chiqilgan. Fizika darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, ularning o'рни va roli haqida fikr mulohaza yuritilgan.

Аннотация: В данной работе рассмотрены проблемы использования виртуальной лабораторной работы в высшем образовании в самостоятельном образовании. Сравнивались проблемы использования виртуальной и реальной лабораторной работы. Методически решены проблемы использования виртуальной лаборатории как самостоятельной работы в самообразовании. В период развития науки и техники были проанализированы важные для вузов по направлениям технического образования правила самостоятельного обучения студентов, указаны недостатки, разработаны предложения. На уроках физики обсуждалось использование информационно-коммуникационных технологий, их место и роль.

Abstract: In this work, the problems of using virtual laboratory work in higher education in independent education are considered. The problems of using virtual and real laboratory work were compared. The problems of using a virtual laboratory as an independent work in self-education are methodically solved. During the development of science and technology, the rules of independent study of students, important for universities in the areas of technical education, were analyzed, shortcomings were indicated, proposals were developed. The use of information and communication technologies, their place and role were discussed at physics lessons.

Kalit so'zlar: mustaqil ish, virtual laboratoriya, real laboratoriya, AKT, innovatsion texnologiya.

Ключевые слово: самостоятельная работа, виртуальная лаборатория, реальная лаборатория, ИКТ, инновационные технологии.

Keywords: independent work, virtual laboratory, real laboratory, ICT, innovative technologies.

Yuqori innovatsion texnologiyalar va fan texnika rivojlangan davrda texnik ta'lim yo'nalishlaridagi universitetlar oldida muhandislik-texnik muammolarni hal qiladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifa turibdi. Shuning uchun fizika fanini ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari shaklida o'qitishning an'anaviy usullaridan voz kechmasdan, yangi texnologiyalarni qo'llagan holda o'qitish uslublarini qayta ko'rib chiqish zaruriyati paydo bo'ldi. Zamonaviy talabada mustaqil o'z-o'zini o'qitish ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifadir. Sifatli bilimlarni rivojlantirish talaba tomonidan ana'naviy auditoriyada va mustaqil auditoriyadan tashqari o'rganilgan bilimlarni birlashtirish orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy oliy ta'lim o'quv jarayoniga AKT-axborot va kompyuter texnologiyaning turli shakllari va qurilmalarini faol joriy etish orqali, talabaning mustaqil auditoriyadan tashqari faoliyatini prinsipial jihatdan ta'limning yangi shakli sifatida joriy qildi¹. Hozirgi vaqtda talabalar tomonidan uyda bajariladigan mustaqil ishlarning hajmi va ahamiyatini yo'qotmasdan ko'p sonli mavzularni o'zlashtirishini rivojlantirishning yangi shakli AKT qurilmalarining o'рни va rolini oshirish orqali amalga oshirilmoqda². Mustaqil ish – bu, qoida tariqasida, o'qituvchi tomonidan auditoriyada batafsil

1 Козел С.М. Открытая Физика 1.1. Интерактивный курс физики для использования в вузах / С.М. Козел. – М.: ФИЗИКОН, 2002.
2 Лаптенков Б.К., Тихомиров Ю.В. Физика. Виртуальный лабораторный практикум. В 2 х частях. – Чебоксары, 2014.

bayon qilingan materiallar asosida va batafsil namoyish etilgan metodikadan foydalangan holda uy vazifasining yozma, og'zaki va tajriba shakldagi variantini tayyorlash jarayoni³.

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish metodikasi ko'p jihatdan nazariy materiallarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga olib keladi. Universitet bitiruvchisi eksperimentlar o'rnatish, mustaqil tadqiqotlar o'tkazish, innovatsion texnologiyalarni yaratish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun talabalar real va virtual laboratoriya ishlarini tayyorlash va bajarishda mustaqil o'z-o'zini o'qitishning roli muhimdir. Talabalarning ilmiy va kasbiy faolligi oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari tomonidan yangi innovatsion texnologiyalardan darslarda faol foydalanganligi bilan shakllanishi kerak.

Hozirgi vaqtda texnika oliy o'quv yurtlari oldida yuqori innovatsion texnologiyalar sharoitida murakkab muhandislik-texnikaviy muammolarni hal qilishga qodir mutaxassislarni tayyorlashning dolzarb vazifasi turibdi. Shubhasiz, bugungi kungacha universitet ta'limida muhim bo'lgan narsa ma'lumotni yodlash amaliyoti zamonaviy ta'lim texnologiyalarida o'z ahamiyatini yo'qotishi kerak. Hech qanday fan dasturlari va o'quv fanlarizamonaviy dunyoda mutaxassisgakerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarining to'liq hajmini o'z ichiga olmaydi. Shunday ekan, bugungi kunda ta'limning asosiy vazifasi talabalar bilim olish va bu bilimlarni ishlab chiqarish faoliyatida qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu ko'nikmalar faqat talabalarning mustaqil ishlashi sharti bilan shakllanadi. Hech kimga sir emaski, hozir universitetlarda dars soatlari ma'ruzalar, seminarlar va laboratoriya mashg'ulotlari sezilarli darajada qisqartirilgan. Bunday sharoitda talabalarning mustaqil o'z-o'zini o'qitishni samarali tashkil etish fanni o'rganishning muhim omili hisoblanadi. Talabalarni ilmiy va o'quv adabiyotlar, laboratoriya jihozlar bilan ishlashga, multimedia vositalaridan, internet resurslaridan foydalanishga o'rgatish zarur⁴. Aslida bu juda qiyin vazifa chunki u to'g'ri tashkillashtirilmasa, oqibatlar ta'lim uchun halokatli bo'lishi mumkin. Oliy o'quv yurtlarida auditoriya soatlarining qisqarishi munosabati bilan ko'plab masalalar mustaqil o'z-o'zini o'qitishga topshirilmoqda. Ammo, talabaga u yoki bu materialni o'qituvchining to'g'ridan to'g'ri nazorati va ko'rsatmalarisiz mustaqil

ravishda o'rganishga berish orqali o'qitishning natijalariga erisha olmaymiz. Ilmiy adabiyotlarni tahlili shuni ko'rsatdiki texnika faning asosi bo'lgan fizika o'qitishni takomillashtirish zamonaviy muhandislik ta'limining dolzarb muammosi biri bo'lib hisoblanadi. Muhandislik ta'limining rivojlanish bosqichidan boshlab, fizika laboratoriya darslari muhandis-texniklarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bakalavriaturada fizika kursi va boshqa umumta'lim fanlari talabalarning mustaqil yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini shakllantirish muammolarini hal etishga qaratilgan. Mutaxassislik uchun zarur qobiliyatlar - bu izchil va mantiqiy fikrlash, ishni rejalashtirish va tashkil etish, qurilmalar va texnikalar bilan ishlash, ko'nikmalarni kelajakdagi mehnat faoliyatida qo'llash jarayonidir.

Fizika texnik ta'lim yo'nalishidagi maxsus fanlarning rivojlanishi uchun asos yaratadi, shuning uchun har qanday profildagi zamonaviy muhandisni tayyorlashda uning alohida roli, shubhasiz, kattadir. Ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlari – fizika o'qitishning yillar davomida isbotlangan samarali metodidir va bu ta'lim tizimida hozirgi sharoitida ham saqlanishi kerak. Ma'ruza mashg'ulotlarida talaba nazariy savollar bilan tanishadi, laboratoriya mashg'ulotlarida nazariyada olingan bilimlar qo'llaydi, shuningdek, fizik o'lchashlarni amalga oshiradi, natijalarni qayta ishlash va taqdim etishda amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiradi, amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi va talabalar o'rtasida suhbat o'tkazish orqali mavzuga oid masalalarga yechim topadi.

Mutaxassislar tayyorlashning zamonaviy qarashlarida asosiy nuqtalardan biri talabalarning mustaqil ishini to'g'ri tashkil etishdir. Uni fizika fanidan laboratoriya ishlarini bajarish misolida tahlil qilaylik. Masalan, fizika fanidan laboratoriya ishlarini bajarishda talabaning ikki xil mustaqil ishini ko'rib chiqaylik. Birinchisi: talaba mustaqil ravishda ta'lim muassasasidan tashqarida, masalan, uyda yoki kutubxonada ishlashga tayyorgarlik ko'radi (auditoriyadan tashqari ish), ikkinchisi - auditoriya ishi, ya'ni talaba ishga tayyorlanib, universitet laboratoriyalarida ishni bajaradi. Shu bilan birga shuni ta'kidlash kerakki, darslarni optimallashtirish uchun an'anaviy o'qitish usullarini to'ldiradigan yangi o'qitish usullarini ishlab chiqish kerak.

3 Э.З.Имамов, Х.Н.Каримов, С.С.Халилов, А.Э.Имамов. Будущее за обучением с активным процессом самообразования студентов. Международный научный журнал "Science and Innovation" Volume 1. Issue 5. 2022. – С. 479-489.

4 Лаптенков Б.К., Тихомиров Ю.В. Физика. Виртуальный лабораторный практикум. В 2 х частях. – Чебоксары, 2014.

Ushbu ishda biz fizika fanidan real laboratoriya ishlarini bajarishga mustaqil tayyorlanishning tarkibiy elementi sifatida virtual laboratoriya ishlaridan foydalanishni tahlil qilib ko'ramiz.

Laboratoriya ishlarini sifatli bajarish uchun laboratoriya mashg'ulotlariga mustaqil ravishda oldindan tayyorgarlik ko'rish kerak bo'ladi. Eng avvalo, ushbu ma'ruza kursida tavsiya qilingan ma'ruza va darsliklardan nazariy materiallarni mustaqil o'rganish kerak. Shuningdek, o'quv-uslubiy qo'llanmalardagi ishlarning mazmuni bilan tanishish kerak. Bugungi kunda "Fizika kafedrası" tomonidan fizikaning barcha bo'limlari bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda ko'pchilik o'qituvchilari real laboratoriya ishlarini virtual laboratoriya ishlariga almashtirishni taklif etadi. Lekin biz buni noto'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki bo'lajak muhandis haqiqiy qurilmalar bilan ishlashi, tajriba o'tkazishi, o'lchash va matematik hisob kitob ishlarini amalga oshirishi kerak.

Endi har bir ish turining afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz. Kompyuter laboratoriyasi qurilmalaridagi virtual laboratoriya ishlari, qoida tariqasida real eksperimental qurilmaning kompyuter modelini ifodalaydi. Virtual laboratoriya ishlari (VLI) model bo'lgani uchun u har doim ham o'rganilayotgan hodisa yoki obyektning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettira olmaydi. Bundan tashqari, virtual ishning kamchiligi ma'lum darajada u yoki bu ishni talaba uyda yoki maxsus kompyuter bilan jihozlangan laboratoriya xonasida individual bajarishi kerak, lekin universitetni bitirgan mutaxassis jamiyatda yashashi va jamoa bo'lib mehnat qilishini hisobga olishimiz kerak. Real laboratoriya ishlari (RLI) talabalarni guruhda ishlashga, eksperimental topshiriqlarni qo'yish va loyihalashga, ularni real bajarishga o'rgatadi.

Shunga qaramay, virtual laboratoriya ishlarining an'anaviy laboratoriya ishlaridan bir qator afzalliklarini ko'rib o'tamiz:

-Laboratoriya ishlarining soni va ularning hajmi ko'p jihatdan o'quv muassasasi laboratoriya jihozlarining mavjudlik imkoniyati bilan bog'liqligi;

-O'quv xonalaridagi laboratoriya jihozlari biz xohlaganicha yangilanmasligi;

-Ba'zi bo'limlar (elektromagnitizm, kvant, atom va yadro fizikasi)dan ko'pgina tajribalarni o'quv laboratoriyalarida amalga oshirib bo'lmasligi;

-Qimmat uskunalarni xarid qilmasdan kompyuter modellarini yaratish mumkinligi;

-Real vaqt rejimiga qaramasdan virtual ishlarni qayta-qayta amalga oshirish mumkinligi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan masofaviy ta'limning ajralmas qismi sifatida virtual laboratoriya ishini qaraymiz. Bugungi avlod talabalari maktabdan boshlab kompyuter texnologiya imkoniyatlaridan keng foydalangan, shuning uchun ularni kompyuterda bajariladigan virtual ishga tayyor deb qaraymiz.

Mustaqil ish uchun virtual laboratoriya ishlari ilovalaridan foydalanishning asosiy masalalaridan biri - talabaga real laboratoriya ishlariga tayyorlanish imkoniyatini berishdir⁵. Natijada amaliy darsga kelgan talaba allaqachon laboratoriya jihozlari haqida tasavvurga ega bo'ladi, real laboratoriya ishlarini o'tkazish metodologiyasi tushunib, ularni amalga oshirish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi.

Agar universitetlarda real laboratoriya ishlari virtual laboratoriya ishlari bilan almashtirilsa, talabalarni real vaziyatlardan ajralishga olib keladi. Virtual laboratoriya ishlarini bajarishda asboblar va jihozlar yordamida fizik kattaliklarni o'lchash bo'yicha amaliy ko'nikmalar, tajriba o'tkazish, elektr zanjirlarini yig'ish va boshqa malakalari shakllanmaydi⁶. Haqiqiy obyektlar bilan ishlay olmaydigan mutaxassisni tayyorlash oliy ta'limdagi bitiruvchi kadrlarning sifatsizligini belgilaydi. Ko'pincha virtual laboratoriya bilan yaxshi ishlayoladigan zamonaviy talaba haqiqiy modellar bilan ishlashda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lmaydi, bu esa zamonaviy muhandisni tayyorlashdagi yirik kamchilik hisoblanadi.

Har qanday real yoki virtual laboratoriya ishining bajarilishi bir necha bosqichlardan iborat:

1) ishga tayyorgarlik - talaba ish daftariga ishning qisqacha tavsifini kiritadi. Ishning tavsifi ishning maqsadini, qisqacha nazariyani, zarur jihozlarni, ishni bajarish tartibini, o'lchangan qiymatlarni qayd etish jadvalarini aks ettiradi;

2) ishga ruxsat berish - o'qituvchi ish bo'yicha so'rov o'tkazadi;

3) ishning eksperimental qismini bajarish;


4) o'lchov natijalarini hisoblash va qayta ishlash. Asbobdagi xatolarni aniqlash;

5) laboratoriya ishini himoya qilish. Talabalar har bir ish oxirida berilgan nazorat

savollariga javob beradilar va tadqiqot natijalari bo'yicha yozma hisobot taqdim etadilar.

Ammo asosiy farq shundaki, VLI individual ravishda amalga oshiriladi, RLI esa 2-3 kishidan iborat kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Guruhda ishlash talabalarda hamkorlikda ishlash qobiliyatini, jamoada ishlashdagi mas'uliyat hissini shakllantiradi, bu ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur omil hisoblanadi. Ishning eksperimental qismidagi farqni ham qayd etamiz. Keling, ushbu farqni elektromagnitizm bo'limida VLI va RLIni bajarish misolida tahlil qilaylik "Elektromagnit induksiya hodisasini o'rganish" ishda 3-rasm. VLI va 4-rasm. RLI.

3-rasm



4-rasm



4-rasm

Talaba VLIni bajarishda kompyuter modeli

bilan ishlayotganda, masalan, Sichqoncha bilan "Run" tugmasini bosib, tajribani boshlaydi. Tutashtiruvchi o'tkazgich harakatini va magnit oqimining o'zgarishini (oynaning pastki qismidagi raqamlarni) kuzatadi. RLIni bajarayotganda, talaba 4-rasmda ko'rsatilgan qurilmani yig'adi. Magnit maydonni o'zgartirib induksion tok hosil bo'lishini kuzatadi. Agar kompyuter modeli bilan ishlashda xatolik yuzaga kelsa, siz shunchaki maydonni tozalashingiz va tajribani yana takrorlashingiz mumkin. Ammo RLIni bajarishda xatoni tuzatish unchalik oson emas, bu esa talabani ehtiyot bo'lishga va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilishga majbur qiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, real laboratoriya ishlarini virtual ishlarga almashtirmasdan, balki ularni mustaqil ish sifatida to'ldirish orqali amaliyotga joriy etish zarur. Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish ta'limning an'anaviy shakllariga nisbatan qo'shimcha afzalliklar mavjud bo'lsagina o'zini oqlaydi. Biz talaba va o'qituvchi o'rtasidagi bevosita muloqotni yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning ajralmas qismi deb bilamiz. Laboratoriya ishlarining soni va ularning hajmi ko'p jihatdan o'quv muassasasi laboratoriya jihozlarining mavjudlik imkoniyatiga bog'liq. Agar o'qituvchi laboratoriya ishini o'tkazish metodikasini ishlab chiqmagan va bu haqda yetarlicha o'ylab ko'rmagan bo'lsa, u holda hatto eng kerakli laboratoriya ishini bajarishda ham vaqtni behuda sarflashi, o'qitish samaradorligi tushishi mumkin bo'ladi. Universitetda o'qish yillari davomida talabaning bilish faoliyati o'qituvchilar tomonidan yangi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkillashtirilishi kerak.

⁵ Aryana, dkk. 2007. "Pengembangan Peta Pikiran Untuk Peningkatan Kecakapan Berpikir Kreatif Siswa". Jurnal Universitas Pendidikan Ganesha. Makasar.
⁶ Дозоров Е.В., Дозоров В.А. «Виртуальный лабораторный практикум как одна из эффективных форм урока в инновационной школе». - Омск, 2012. - С. 27-31.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Shokir Ravshanovich Bobobekov - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida amaliyotga kirib kelayotgan zamonaviy innovatsion texnologiyalardan biri hisoblangan "Blockchain" texnologiyasi va uning ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashdagi o'рни haqida fikr yuritilgan. Xususan, blokcheyn tushunchasi va uning kelib chiqish tarixi, kriptografik asosi hamda jamiyat ijtimoiy hayotida tutgan o'рни bevosita va bilvosita tahlil etilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается технология Блокчейн, которая считается одной из современных инновационных технологий, внедряющихся в практику в условиях цифровизации экономики, и ее роль в обеспечении безопасности данных. В частности, прямо и косвенно анализируется понятие блокчейна и его история возникновения, криптографическая основа, его роль в социальной жизни общества.

Abstract: This article discusses the Blockchain technology, which is considered one of the modern innovative technologies coming into practice in the context of the digitization of the economy, and its role in ensuring data security. In particular, the concept of blockchain and its history of origin, cryptographic basis, and its role in the social life of the society are directly and indirectly analyzed.

Kalit so'zlar: blokcheyn, bitkoin, taqsimlangan reestr, kriptovalyuta, blok, tranzaksiya, xesh-funksiya, kriptografiya, shifr, deshifr, initializatsion vector, shifr kalit.

Ключевые слова: блокчейн, биткойн, распределенный реестр, криптовалюта, блок, транзакция, хэш-функция, криптография, шифр, дешифрование, вектор инициализации, ключ шифрования.

Keywords: blockchain, bitcoin, distributed ledger, cryptocurrency, block, transaction, hash function, cryptography, cipher, decryption, initialization vector, cipher key.

Bugungi kunda inson faoliyatining barcha sohalari raqamlashtirish masalasi juda dolzarb va muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga keng joriy etilishi esa nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ularga sarflanadigan ortiqcha xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

Ushbu sohaga bugungi kunda hukumatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kriptο-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"

gi 2018-yil 03-iyuldagi, PQ-3832-sonli Qarori¹ hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 28-apreldagi, PQ-4699-sonli Qarori² da 2023-yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini ikki baravarga ko'paytirish nazarda tutilganligi asos sifatida keltirish mumkin.

Hozirgi kunda bu muammolarning yechimi sifatida ko'pgina va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ko'pgina kriptografik algoritmlar va dasturiy vositalar taklif qilinmoqda. Ko'pgina kriptografik algoritmlarda hisoblash

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kriptο-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-sonli Qarori, 03.07.2018 yil

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli Qarori, 28.04.2020 yil.

masalasi murakkabligi va kriptοanalitiklar tomonidan tahlil qilinishi natijasida algoritmlarga nisbatan shubhalar kelib chiqmoqda. Albatta, bu muammolarni yechish yangi zamonaviy konfedentsialligi va kriptοmustahkamligi yuqori bo'lgan kriptοalgoritm yoki himoya tizimi zarurligi ko'pchilik mutaxassislar tomonidan aytilmoqda. Bu turdagi masalalarni yechishda blokcheyn texnologiyasini qo'llash bo'yicha ko'pgina mulohazalar keltirilmoqda. Endi, biz quyidagicha blokcheyn texnologiyasining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarga qo'llashning asosiy bosqichlarini ko'rib chiqamiz.

Hozirgi kunda, butun dunyoda raqamli texnologiyalarni keng joriy etilishi ijobiy tomonlari bilan birga bir qancha muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Masalan, molyaviy amallar masofaviy tizimlar yordamida amalga oshirilishi natijasida tizim xavfsizligiga tahdidlar paydo bo'lmoqda. Ushbu muammolarning yechimi sifatida konfedentsialligi va kriptοmustahkamligi yuqori bo'lgan kriptοalgoritmlarga asoslangan himoya tizimlari zarurligini ko'pchilik mutaxassislar ta'kidlaydi. Buturdagimasalalarni yechishda blokcheyn texnologiyasini qo'llash bo'yicha ko'pgina mulohazalar keltirilmoqda. Shu sababli, quyida blokcheyn texnologiyasi hamda uning jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy hayotida tutgan o'рни haqida so'z yuritamiz.

Bugungi kunda blokcheyn texnologiyalari yangi innovatsion texnologiya yo'nalishi bo'lishiga qaramasdan bir qator ijtimoiy sohalarga kirib borib, o'z o'rnini egallagan. Tarmoqda ma'lumotlarni xavfsiz saqlashning eng qulay usuli – bu uni taqsimlab qayd etishdir. Bugungi kunda blokcheyn texnologiyasi taqsimlangan ma'lumotlarning reyestri sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Blokcheyn (inglizcha Blockchain – blok zanjiri) – ma'lum qoidalar asosida tuzilgan ma'lumotni o'z ichiga olgan bloklarning doimiy ketma-ket zanjiri³.

Taqsimlangan reyestr – ma'lumotlar bitta tashkilot reyestrda saqlanmaydi, yani ma'lumotlar nusxalari global

tarmoqqa ulangan virtual kompyuterlar xotirasida saqlanadi va sonidan qat'iy nazar bir vaqtning o'zida yangilanadi. Blokcheyn texnologiyada ma'lumotlar reyestrini qalbakilashtirish imkonsiz, yani ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchililigini kafolatlaydi.

Blok – bu taqsimlangan reyestrda amalga oshirilgan tranzaksiyalar haqidagi qaydlar hisoblanadi. Unda, bir shaxs boshqa shaxsga qancha miqdordagi aktivlar o'tkazmalari aks etgan bo'ladi. Barcha bloklar o'z o'rnida bitta zanjirga ulangan bo'ladi⁴.

Bloklar orasidagi aloqa nafaqat raqamlash bilan balki, har bir blokda o'zining va o'zidan oldingi blokning xesh qiymati bilan ta'minlanadi. Blokdagi ma'lumotni o'zgartirish uchun keyingi barcha bloklarni tahrirlash kerak bo'ladi. Ko'pincha blok zanjirlarining nusxalari bir-biridan mustaqil ravishda turli kompyuterlarda saqlanadi. Bu esa o'z navbatida bloklarga o'zgartirish kiritishni qiyinlashtiradi.

Blokcheyn atamasi birinchi bo'lib, 2008-yil oktabrda Bitkoin tizimida to'liq takrorlangan taqsimlangan ma'lumotlar bazasining nomi sifatida paydo bo'ldi. Shuning uchun blokcheyn texnologiyasini kriptovalyutalar bilan bog'liq operatsiyalar sifatida tushuniladi, ammo ushbu texnologiyani istalgan o'zaro bog'liq axborot (ma'lumot)ni bloklariga qo'llash mumkin.

Blockchain texnologiyasi g'oyasi birinchi bo'lib ikki tadqiqotchi olim Styuart Xaber va V.Skott Stornetta 1991-yilda raqamli hujjatni vaqtini o'zgartirishi yoki buzib bo'lmaydigan qilib tamg'alash uchun amaliy yechimini taklif qilganda paydo bo'ldi. Vaqt tamg'asi hujjatlarini saqlash uchun tizim kriptografik himoyalangan bloklar zanjiridan foydalangan.

Endi Blockchain texnologiyasi asosi bo'lgan blokli shifrlash algoritmlari ishlash rejimlari, yani kriptografik asosi haqida so'z yuritsak.

Kriptografiya (yunoncha κρυπτός (kryptós) – "maxfiy" γράφω (gráfo) – "yozish" so'zlaridan tashkil topgan) ochiq ma'lumotlarni shifrlashni, maxfiylashtirish

³ Y.Ilxamova, M.Azizova, M.Jumaniyozova, N.Mirzanova. Taqsimlangan ma'lumotlar reyestri (blokcheyn) texnologiyasi va kriptο-aktivlar aylanmasi. Uslubiy qo'llanma. -Toshkent, 2021, 22-6
⁴ N.To'raqulova. (Blokcheyn texnologiyasi tushunchasi va uning huquqiy maqomi), Central asian academic journal of scientific research, ISSN: 2181-2489, 2022-yil 5-son

usullarini o'rganadi⁵.


Simmetrik shifrlash algoritmlarida xavfsizlik nuqtayi nazaridan kriptografik tizimlardan ma'lum ketma-ketliklarga asosanib foydalanish mavjud. Bu toifadagi algoritmlar blokli shifrlash algoritmlari modellari sanaladi.

Ushbu algoritmlarda amalga oshiruvchi vektor (initialization vector, IV) dan foydalaniladi. Amalga oshiruvchi vektor ma'lum bitlar ketma-ketligidan iborat bo'lib, ochiq matnga yoki kalitga ma'lum algoritm bo'yicha qo'shiladi. Bu kattalik kalitdan farqli sanalib, odatda zarur bo'lsa ham sir saqlanmaydi. Hozirda quyidagi modellar keng qo'llaniladi⁶:

- Electronic codebook (ECB);
- Cipher-block chaining (CBC);
- Propagating cipher-block chaining (PCBC);
- Cipher feedback (CFB);
- Output feedback (OFB);
- Counter (CTR).


Endi ushbu modellardan biri, yani eng samarali bo'lgan Cipher Block Chaining (Shifrmavn blok zanjiri) modeli bilan batafsil tanishib chiqamiz.

Ushbu Cipher Block Chaining modeli 1976-yil IBM tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, dastlab ochiq matn birinchi blokiga boshlang'ich vektor (initialization vector) qo'shib, natija kalit yordamida shifrlanadi. Keyingi bloklar initialization vector o'rniga o'zidan oldingi shifr matn blokini oladi, natijada zanjirli shifr bloklar hosil bo'ladi(2-rasm).



2-rasm. CBC modelida shifrlash

Deshifrlashda esa dastlab shifr matn birinchi blokiga boshlang'ich vektor (initialization vector) qo'shib, natija kalit yordamida deshifrlanadi. Keyingi bloklar initialization vector o'rniga o'zidan oldingi ochiq matn blokini oladi, natijada ochiq matn bloklari olinadi (3-rasm).



3-rasm. CBC modelida deshifrlash

Blockchain texnologiyasi asosi ushbu model kabi ishlaydi. Yani bloklar orasidagi aloqa nafaqat raqamlash bilan balki, har bir blokda o'zining va o'zidan oldingi blokning xesh qiymati (CBC modelida intialization vector) bilan ta'minlanadi. Blokda ma'lumotni o'zgartirish uchun keyingi barcha bloklarni tahrirlash kerak bo'ladi. Ko'pincha blok zanjirlarining nusxalari bir-biridan mustaqil ravishda turli kompyuterlarda saqlanadi. Bu esa o'z navbatida bloklarga o'zgartirish kiritishni qiyinlashtiradi.

Xesh-funksiya ixtiyoriy uzunlikdagi (bit yoki bayt birliklarida) ma'lumotni biror fiksirlangan(qayd qilingan) uzunlikdagi qiymatga o'tkazadi.

Misol uchun, MD5 algoritmda ma'lumotlarning xesh qiymatini hisoblaganda quyidagicha ko'rinishdagi natijalar olinadi⁷:

1) M= "kalit" bo'lsa, u holda bu matnning xesh qiymati:

$H=0c56246cbd935ffb8143dffa0c427143.$

2) M= "pedagogika unversiteti" bo'lsa, u holda bu matnning xesh qiymati:

$H= ca4b46b4ba7b724443a92fbf812a7c1e.$

Blokcheyn texnologiyasi moliyaviy xizmatlar sektori bajaradigan uch muhim

⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kriptografiya>

⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/Block_cipher_mode_of_operation

⁷ <https://www.online-toolz.com/tools/text-encryption-decryption.php>

rolni o'z zimmasiga olishi mumkin: bitimlarni ro'yxatdan o'tkazish, shaxs haqiqiyligini tasdiqlash va shartnomalar tuzish. Bugungi kunda, banklar tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning bir qismini blokcheyn texnologiyasiga o'tkazilishi, banklarda mijozlar bilan munosabatlarda, xizmat ko'rsatishda muayyan muddatda uzilishiga olib kelishiga qaramasdan, moliya tashkilotlarida ish hajmining kamayishiga, xizmatlarning samaradorligi oshishiga imkoniyat yaratadi.

Blokcheynning rasmiy sayti interfeysi 1-rasmda keltirilgan⁸.



1-rasm. www.blockchain.com rasmiy sayt interfeysi.

Blokcheyn hamyonidagi mablag'larga faqat egasi kirish huquqiga ega. Pul odatda bank bo'lgan vositachilarga topshirilmaydi. Shu tufayli tranzaksiyalar hech kimning nazorati ostida bo'lmaydi.

Blockchain texnologiyasi quyidagi asosiy afzalliklarga ega⁹:

- O'zgarmaslik – barcha qatnashchilarning 100% roziligisiz tuzatish kiritish mumkin emas;
- Ishonch – provayderning infratuzilmani tekshirishiga ehtiyoj yo'q;
- Auditosonligi – istalgan qatnashchi audit o'tkazishi mumkin;
- Foyda – xarajatlarning sezilarli

darajada qisqarishi.

Bugungi kunda blokcheyn texnologiyasi qo'llanilayotgan sohalarda ro'yxati doimiy ravishda o'sib bormoqda.

Blockchain texnologiyasidan quyidagi jarayonlarda foydalanish mumkin¹⁰:

- moliyaviy jarayonlarni amalga oshirishda;
- shartnomalar va bitimlar tuzishda;
- turli xil tijorat amallarida;
- tovar va xizmatlarni sotib olishda;
- maxfiy ma'lumot almashish paytida;
- sug'urta polisini ro'yxatdan o'tkazishda;
- mulk huquqlarini himoya qilish, shuningdek, ularni yangi egasiga o'tkazishda;
- shaxsiy ma'lumotlarni boshqarishda;
- intellektual mulk xavfsizligini ta'minlashda;
- hujjatlar arxivlarini yaratishda.

Xulosa. Bugungi kunda umumjahon tendentsiyalari va tashqi siyosatda ro'y berayotgan hodisalardan kelib chiqib, davlatimiz oldida global raqobatbardoshlik hamda milliy xavfsizlik masalasi turibdi. Ushbu masalani hal qilishda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muhim rol o'ynaydi.

Bitkoinidan foydalanishi yoki foydalanmasligidan qat'iy nazar, blokcheyn taqsimlangan hisoblanadi. U internet tarmog'idagi kompyuterlarda markazlashmagan holda ishlaydi, shu sababli, uni buzib kirish imkoniyati amalda mavjud emas. Shu bilan birga, uni istalgan kishi istalgan vaqtda ko'rish mumkin. Uning ma'lumotlar bazasi assimetrik shifrlash tizimi asosida imzolangan barcha jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni ommaviy ravishda saqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Blokcheyn texnologiyasini joriy qilish, faqatgina moliya yoki iqtisodiyot sohasida emas, balki boshqa bir qator ijtimoiy sohalarda ham o'z samarasini beradi.

⁸ <https://www.blockchain.com/explorer>

⁹ Y.Ilxamova, M.Azizova, M.Jumaniyozova, N.Mirzanova. Taqsimlangan ma'lumotlar reyestri (blokcheyn) texnologiyasi va kripto-aktivlar aylanmasi. Uslubiy qo'llanma. -Toshkent, 2021

¹⁰ <https://uz.rancholaorquidea.com/4200-blockchain-technology-what-is-it-in-simple-words-and.html>

ERITMA KONSENTRATSIYALARI MAVZUSINI O'QITISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Nargiza Isatullayevna Muminova - dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maxsuda Sag'dullayevna Inatova - dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maftuna G'anisher qizi Usmanova - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida 11-sinf kimyo darslarida Eritma va eritma konsentratsiya mavzusini interfaol metodlar, AKT vositalari yordamida o'rganishda kommunikativ kompetentlikni oshirish yo'llari keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлены способы совершенствования коммуникативной компетентности при изучении темы растворов и концентрации растворов на уроках химии 11 класса общеобразовательной школы с использованием интерактивных методов и средств ИКТ.

Abstract: This article presents ways to improve communicative competence in studying the subject of solution and solution concentration in 11th grade chemistry classes in secondary schools using interactive methods and ICT tools.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, eritma, eruvchanlik, eritma turlari, foiz, molyar, normal konsentratsiyalari, "Assesment", "Klaster", "Aylana stol atrofida".

Ключевые слова: педагогические технологии, раствор, растворимость, виды растворов, процентное содержание, молярная, нормальная концентрация, «Оценка», «Кластер», «Вокруг круглого стола».

Keywords: pedagogical technologies, solution, solubility, solution types, percentage, molar, normal concentrations, "Assessment", "Cluster", "Around the round table".

Ma'lumki, kimyo fani uchun nazariy bilimlarni mustahkamlashda olingan bilimlarni asosi sifatida laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar muhim o'ringa ega. O'quvchilarga kimyo fanidan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida virtual tasvir (animatsion tasvir) orqali kompyuter yordamida ko'rsatib tushuntirish yaxshi natija beradi¹.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya beruvchi, ularni rivojlantiruvchi innovatsion pedagogik texnologiyalardan hamda interfaol usullarni optimal tanlashdan iborat.

Zamonaviy pedagog qanday bo'lishi kerak?

Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan xabardor bo'lishi;

O'quvchilarning psixologik xususyatlaridan kelib chiqib ular bilan muomalada bo'lish;

Mohir aktyor;

Notiq;

O'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega; O'quvchilar bilan do'stona munosabatda bo'la oladigan, ularni dardini his qila biladigan; Darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni qo'llay olishi;

Yangi mavzuni o'qitishda ko'rgazma, tarqatma, multimedia vositalaridan foydalanib ularni fanga bo'lgan qiziqishini oshirishi;

Faqatgina darslik bilan chegaralanib qolmasdan, boshqa manbalardan (kitoblar, internet) ma'lumotlar berishi;

Milliy g'urur, insonparvarlik, ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashi, hamda o'quvchilar olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishi, kasbga yo'naltira olishi zarur².

O'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning aqliy qobiliyatini o'stirish-kimyoni o'qitishdagi eng muhim psixologik va pedagogik muammo. Buning uchun o'qitishning faol metodlaridan,

ta'lim va tarbiyaning noan'anaviy shakl va usullaridan keng miqyosda foydalanish, predmet va hodisalarni, ularning o'zaro aloqadorligi, harakati va rivojlanib borishi orqali o'rganish taqozo etiladi.

Bunda, ayniqsa, o'quvchilarning o'yin faoliyati yangi bilimlarni o'zlashtirish, ularda ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirish, umuman, kimyoni o'rganish jarayonining samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlar davomida o'quvchilarda hosil bo'ladigan ijobiy his-hayajon tuyg'usi ularni charchashdan saqlaydi, ularning kommunikativ va intellektual imkoniyatini oshiradi. Maktab o'quvchilari uchun "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar" asosida kimyo fanidan laboratoriya va amaliy mashg'ulot darslarini tashkil etish jarayonida o'quvchilarning o'quv biluv faoliyatini faollashtirishning samarali pedagogik shakli, usullarini aniqlash va ilmiy amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat^{3,4}.

Umumta'lim maktablarida "Eritma va eritma konsentratsiyalari" mavzusi 11-sinfda o'tiladi. 11-sinf darsligida bu mavzular chuqurlashtirilgan holda o'quvchilarga yetkaziladi. 11-sinf o'quv rejasida IV bobi "Eritma" bo'lib quyidagi mavzularga bo'lib o'qitiladi:

Eritma haqida tushuncha.

Eruvchanlik

Eruvchanlik mavzusiga oid masalalar va ularning yechimi

Eritma konsentratsiyasi va uni ifodalash usullari. Foiz konsentratsiya mavzusida masalalar yechish

Foiz konsentratsiya, eritma massasi, hajmi va zichligi orasidagi bog'lanish

Molyar konsentratsiya

Normal konsentratsiya

Foiz va normal konsentratsiya o'rtasidagi bog'lanish

Foiz va normal konsentratsiya o'rtasidagi bog'lanish

Ta'lim jarayonlarini interfaol usullarda olib borish, o'qitish samaradorligiga ijobiy

ta'sir etadi. Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida "Klaster" metodi, "Assesment", "Aylana stol atrofida" kabi metodlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi⁵.

"Eritma" bo'limining asosiy tushunchalari "Klaster" metodi yordamida keltirib o'tish va tushuntirish samarali hisoblanadi.

Har bir bosqichni taqdimotlar va amaliy tajribalar asosida tushuntirib berish zarur.



"ASSESSMENT" metodi

Bu metod asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:



o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama, holis baholash;

2. o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

3. o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbol reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish^{6,7}.

"ASSESSMENT-1"

³ G.A. Ixtiyarova, D.J. Bekchanov, M.Sh. Ahdov "Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar" T.2020.

⁴ Muftaxov A.G., H.T. Omonov, R.O. Mirzayev Toshkent-2002 (202-bet)

⁵ N.A. Parpiev, X.R. Rahimov, A.G. Muftaxov Toshkent-2000 (376-377 betlar)

⁶ Sh, N. J., Smanova, Z. A., Tojimumhamedov, H. S., & Inatova, M. S. (2013). Synthesis o-nitrosophthols and their application in analytical chemistry. The Advanced Science. USA, (10), 16-22.

⁷ Inatova, M. (2020). "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ Suv tarkibidagi temir (II) ionini sorbцион-спектрoскопик usulda yangi analitik reagent ёrдамидa аниқлаш. Архив Научных Публикаций JSPi.

<p>Test</p> <p>1 Eritmalar qanday agregat holatda bo'ladi.</p> <p>A) Gaz</p> <p>B) Suvug</p> <p>C) Kattiq</p> <p>D) Eritma (suvob to'g'ri)</p> <p>2 30g shakerni 170g suvda eritish yo'li bilan nechta turda eritma olinadi?</p> <p>A) 10%</p> <p>B) 15%</p> <p>C) 20%</p> <p>Savol: Eritmaning turlari mavjud.</p> <p>Eruvchanlikka nech tining</p> <p>Eritmaning qanday konsentratsiyalarini bilasiz?</p>	<p>Muzamamoh vaziyat</p> <p>Do'xonalarida sotiladigan yodli eritma yodning qanday 10%li eritmasidir 100g shunday eritma tayyorlash uchun qancha yod va erituvchi kerak?</p> <p>Amaliy ko'nikma.</p>  <p>Kamida nima tavsiflangan?</p>
---	--

bajaradi, o'qituvchi tomonidan tekshirilib, baholanadi.



“AYLANA STOL ATROFIDA” metodi
O'tilgan mavzu bo'yicha guruhlarga topshiriq beriladi va barcha o'quvchilar faol qatnashadi. Yuqoridagilardan tashqari mavzuni yaxshi tushunganlik darajasini bilish mumkin.

Topshiriq: Eritma konsentratsiyalariga oid masala tuzish.

Birinchi guruh: 2mol NaOH 160gr H2O erishidan hosil bo'lgan eritmaning molyar konsentratsiyasini toping. (p=1.2g/ml)

Ikkinchi guruh: masala guruh a'zolari bilan birgalikda yechiladi va uchinchi guruhga masala tuzib beriladi.

Masala: 100 g suvga 46 g natriy qo'shilganda hosil bo'lgan eritmaning foiz konsentratsiyasini (%) aniqlang.

Uchinchi guruh: masala guruh a'zolari bilan birgalikda yechiladi va uchinchi guruhga masala tuzib beriladi.

Masala: AgNO3 ning 0oC dagi eruvchanligi 115 ga teng bo'lsa, ayni temperaturada 240 gr suvda qanday massa tuz eriydi.

Har bir guruh aytilgan topshiriqni

Darsni mustahkamlash uchun interfaol metodlardan va testlardan foydalanish o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish samaradorligini aniqlash uchun juda qulay hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil va mukammal bilim olishi uchun imkoniyat yaratish, ularning dunyoqarashi va tasavvurini kengaytirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish o'qituvchining intellektual salohiyatiga, dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinni va unumli foydalanishiga bog'liq. Shunday ekan, ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatli kechishi uchun pedagog – o'qituvchilar o'z kasbining ustasi, fidoyisi bo'lishi kerak. Shu ma'noda bugungi o'qituvchidan yurtimiz kelajagi uchun yangicha fikrlaydigan, ertangi kunga yangicha nigoh bilan qaraydigan, zamon bilan hamnafas komil insonni shakllantirish talab etiladi.

EKOLOGIYAGA OID TUSHUNCHALARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH (1-4-sinf misolida)

Surayyo Qaxramon qizi Eshboyeva - o'qituvchi, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvning pedagogik-psixologik asoslari haqida yozilgan. Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, shakl, metod va vositalarini tanlash va amaliyotga tadbiiq etishdan iborat.

Аннотация: В данной статье написано о педагогико-психологических основах творческого подхода к формированию экологических представлений у учащихся начальной школы. Статья состоит из особенностей совершенствования творческого подхода к формированию экологических представлений у учащихся начальной школы, выбора форм, методов и средств и их реализации.

Abstract: In this article, it is written about the pedagogical and psychological foundations of the creative approach to the formation of ecological concepts in elementary school students. The article consists of the specific features of improving the creative approach to the formation of ecological concepts in elementary school students, the choice of forms, methods and tools and their implementation.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchi, ekologiya, tushuncha, kreativ, pedagogika, shakl, metod.

Ключевые слова: начальный класс, ученик, экология, концепсия, творчество, педагогика, форма, метод.

Keywords: primary class, student, ecology, concept, creative, pedagogy, form, method.

Bugungi kunda tabiatni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik masalalari jahon hamjamiyatining umumiy global muammosiga aylandi. Jumladan, mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish barobarida, fuqarolarga ekologik barqaror hayot sharoitini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida ekologik tarbiyaning jamiyatda ma'naviy hayoti bilan aloqadorligi masalalari, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativlikni takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ekologik tarbiya inson va tabiat munosabatlarini hayotiy timsollarda aks ettirish orqali o'quvchilarning ekoma'naviy - madaniy saviyasi darajasi hamda dunyoqarashini ifodalash bilan birga inson shaxsini tarbiyalash vazifasini ham bajaradi¹.

Tabiatni e'zozlash atrof-muhitni musaffo va go'zal qilish singari ekologik tarbiya

masalalari ajdodlardan - avlodlarga, asrlardan asrlarga o'tib, boyib, sayqal topib hozirgacha davom etib kelayotgan sharqona, o'zbekona hikmatlar, tuzuklar, ta'limotlar, falsafiy qarashlar, milliy qadriyatlar, milliy udum va an'analarda o'z aksini topgan.

Bugungi kunda o'quvchi yoshlarning ekologik tafakkuri, ularning dunyoqarashi, xatti-harakati, ekologik madaniyatini shakllantirishda kreativ yondashuv muhim pedagogik-psixologik muammosifatidako'plab olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, Sh.Avazov, A.Y.Ko'chkinov, A.N.Zaxlebniy, I.D.Zverev, N.Sh.Bozorova, P.U.Berdanova, G.Komilova, N.J.Isaqulova, M.G.Nishonboyeva, D.M.Maxmudova, N.O'.Nishonova, E.A.Turdiqulov, O.Musurmanova, X.B.Norbo'tayev, M.Tilakovalar, maqolani tayyorlashda ushbu manbalardan foydalanildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tushunchalarni shakllantirishda kreativlikni tarkib toptirishda ularga atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish

¹ Файзулина С.Х. Экологическая ответственность важный аспект экологического воспитания // Материалы Республиканской конференции. - ФергУ, 2003. - С. 41- 42.

va tashkil etish ta'lim tizimining ustuvor masalasiga aylandi.

Yangi asrning barkamol kishisi o'zida ekologik tarbiya unsurlarini ham namoyon eta olishi zamon talabidir. Jumladan, ekologik muvozanat - bu atrof - muhit to'g'risida chuqur bilim, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simlik va hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko'rsatkichidir².

Ana shu xislatlarni o'zida aks ettira olgan o'quvchini ekologik tarbiyaga ega deb atash mumkin. Ekologik bilimni o'quvchi albatta dastlab dars jarayonida o'qituvchidan oladi, o'qituvchi dars jarayonida o'quvchini qiziqitira olsagina o'quvchi o'zi mustaqil ravishda ekologik bilim olishga harakat qiladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi nihoyatda bilim va o'zi tabiatni sevgan va tushunganda inson bo'lsagina, o'quvchini o'z ortidan ergashtira oladi.

Ekologik tarbiya-ekologik bilimdan oldin shakllangan bo'lib, qadimdan tuproqni asra, toza saqla, degan undov so'zlar bizga Zardo'shtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"dan ma'lum. Tabiiy fanlarni o'qitish tamoyillari bizda qadimdan shakllangan va jamiyatdagi tizimning almashishi, siyosiy qarashlarning u yoki bu tomonga shakllanishi natijasida ekologiya faniga e'tibor biroz sustlashdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirish jarayoni muammoli, vaziyatli va ijodiy o'quv topshiriqlarni ishlab chiqishda quyidagi qoidalarga rioya etish tavsiya etiladi:

topshiriqlar haqiqiy vaziyatlar bilan bog'liq muammolarga qaratilishi kerak;

yangiliklarni izlash va topishga yo'naltirish - o'quv topshirig'idagi muammoni hal etishda o'quvchilar aqliy faoliyatini turli usullar yordamida rivojlantirishni ko'zda tutadi;

topshiriqlar mazmunida aks ettirilgan hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi muhim bog'liqlik ko'rsatilishi kerak;

topshiriqlar yechimini aniqlash va o'quvchilar ongida hodisalar yoki jarayonlar o'rtasida bog'liqlikni mustahkamlash imkoniyatlari nazarda tutilishi lozim;

topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi oddiy tushunchalardan, u hali o'zlashtirilmagan yanada murakkabroq tushunchani keltirib

chiqarish imkonini berishi lozim;

topshiriqni bajarish jarayonida oddiy tushunchalar o'quvchiga ma'lum bo'lmagan tushunchalar bilan o'zaro tahlil qilinadi;

ijodiy (kreativ) fikrlash asosida yangi bilimlar shakllanadi.

Ta'kidlash lozimki, ekologik ta'lim berish murakkab pedagogik jarayon bo'lib, ekologiya asoslarini bilish maktab o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan muhim tarkibiy qismidir. Bugungi kunda maktab va maktabdan tashqari ta'lim va tarbiya tizimi tarkibiga ekologik madaniyatni rivojlanishi, qo'yilgan talablarga javob beradigan ko'p miqdordagi ekologik bilim, ko'nikma va malakalar kiradi. Shu asosda beqaror ekologik vaziyat sharoitida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning butun tizimini ekologizatsiya qilish muhim hisoblanadi. Ekologik ta'limning muhim tamoyillaridan biri bu uzluksizlik tamoyili, ya'ni insonni butun hayoti davomida o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishdir.

O'quvchilarning ekologik tushunchalarga asoslangan nazariy fikrlash tarzi, hayotiy hamda o'quv vazifalarini yechish jarayonida turli tushunchalarga murojaat qilgan holda fikrlashini ifodalaydi. Bu jarayonda o'quvchilar turli tushunchalarga murojaat qilgan holda o'z harakatlarini bevosita aql yordamida bajaradilar. Bunda tajribaga asoslangan holda hissiy organlar faoliyatiga tayaniladi. Obrazli fikrlash jarayonida esa, muayyan materiallardan u yoki bu vazifalarni bajarish maqsadida foydalaniladi. Bu o'rinda obrazlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'quvchining xotirasi yoki kreativ faoliyati natijasida tug'iladi. Ular o'quv vazifalarni yechish jarayonida o'zaro aloqador obrazlar sifatida namoyon bo'ladi. Buning natijasida esa, o'quvchilar muayyan o'quv-bilish harakatlarini bajaradilar va o'zlarini qiziqitiradigan masalalarning yechimini izlaydilar³.

O'quvchilarning fikrlash faoliyatiga asoslangan o'quv jarayonida ular axborotlarga tayanish va mazkur axborotlarning mazmunini qayta ishlashga harakat qiladi. O'quvchilarning bunday tafakkur tarzi ularning idroklari, tasavvurlari va dunyoqarashlarida aks etadi. Bu tarzdagi tafakkurning reproduktiv (mustaqil bo'lmagan) hamda mustaqil tarzda namoyon bo'ladigan produktiv (mahsuldor), konvergent (o'zaro o'xshash) hamda divergent (tafovutli) turlari mavjud⁴.

O'quvchilarning bilishga asoslangan tafakkur tarzi uchun asosan mustaqil

bo'lmagan reproduktiv hamda o'zaro o'xshash, ya'ni konvergent fikrlash tarzi xosdir. O'quvchilarning reproduktiv tafakkur tarzlari tayyor bilimlarni o'zlashtirishga asoslangandir. Bu ularga o'quv materiallarini o'zlashtirish va esda saqlab qolish imkonini beradi. Bu asosan diqqat va xotiraning imkoniyatlariga tayanilgan holda amalga oshiriladi. O'quvchilarning bunday tafakkur tarzi muayyan pedagogik qimmatga ega. Ularning rivojlanishi esa, o'quv jarayonining muayyan bosqichlarida amalga oshiriladi. O'quvchilarning konvergent, ya'ni o'zaro o'xshash tafakkur tarzining rivojlanishi ularga muammoning yagona, eng qulay yo'lini topish imkonini beradi. Bu esa, o'quvchilar oldiga qo'yilgan savollarga ularning to'g'ri javobni izlashlari va topishlarida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirish ularni intellektual rivojlantirishning muhim shartidir. Bugungi kunda intellektual jihatdan taraqqiy etgan shaxsni shakllantirish uchun, o'quvchilarning bilishga asoslangan tafakkur tarzlarinigina rivojlantirish yetarli emas. O'quvchilar tabiat va kishilik jamiyati qonuniyatlarini tushunishlari uchun, ularni ijodiy o'zlashtirishlari va tabiat hamda jamiyat olamiga olib kirishlari lozim. Buning uchun, o'quvchilarning ko'pdan-ko'p masalalarda o'z shaxsiy nuqtayi nazarlariga ega bo'lishlari talab etiladi. Shu maqsadda ularni ma'naviy, intellektual jihatdan takomillashtirish kerak. Shuning uchun ham o'quvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirish nihoyatda zarur.

O'quvchilarning ijodiy tafakkuri tabiiyligi, betakrorligi, hozirjavobligi bilan ajralib turadi. Tafakkurning bunday tarzi uchun divergent, ya'ni tafovutli hamda produktiv, ya'ni mahsuldor fikrlash tarziga xosdir. Mahsuldor fikrlash tarziga ega bo'lgan o'quvchilar axborotlarni tanlash, to'plash va muammolarni yechishda o'zlarining mustaqilliklari bilan ajralib turadi. Divergent, ya'ni tafovutli fikrlash tarziga ega bo'lgan o'quvchilar esa, muammolarning yechimiga turli tomondan yondasha olishlari bilan alohida namoyon bo'ladi⁵.

Shuning uchun ham o'quvchilarni intellektual rivojlantirish maqsadini qo'yganda ularga individual yondashgan holda, fikrlash tarzining turli ko'rinishlarini egallashlariga

alohida e'tibor qaratish lozim. Har bir o'quvchining fikrlash tarzi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. O'qituvchi ulardagi o'ziga xosliklar, yutuqlar, kamchiliklarni o'z vaqtida payqay olishi lozim, aks holda o'quvchilarda ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirish natijalari ijobiy ko'rsatkichni bermaydi.

O'quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan holat, ular tafakkurining boshqa barcha ruhiy jarayonlarga ko'rsatadigan ta'sirini har tomonlama hisobga olishdan iborat. Bunda eng asosiy narsa, o'quvchi tafakkurining uning xotirasi va idrokiga ko'rsatadigan ta'sirini hisobga olishdadir⁶.

O'quvchilarning idrokida moddiy borliq, xalqning turmush tarzini anglash imkoniyatining kengayishi, uning kuzatish jarayoniga aylanishi natijasida nazariy bilish faoliyati sifatida namoyon bo'ladi⁷.

O'quvchi xotirasining mantiqiy jihatdan boyishi natijasida u kreativ fikrlay boshlaydi va bu esa o'quvchilarni topilishi zarur bo'lgan tushunchalarni izlashlariga undaydi. Natijada, o'quvchilarda erkin tarzda shakllangan xotiraning mustahkamlanishiga olib keladi. Ushbu holat o'quvchilarning eslab qolish usullarini egallaganliklarida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, o'quvchilarning mayllariga asoslangan qadriyatli yo'nalishni ajratish muhim pedagogik ahamiyatga ega. O'quvchilarning mayllariga asoslangan qadriyatli yo'nalishlar ularni qadriyatlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirish hamda intellektual faoliyat ko'rsatishga yo'naltiradi. Mazkur yo'nalish ham mayllar, ham qadriyatlar sifatida o'quvchilarning intellektual taraqqiyotlari bilan bog'liqdir.

Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishda ularga individual yondashuv nihoyatda zarur ekan. Bugungi kunda pedagogika fani oldidagi o'quvchilarni intellektual rivojlantirish vazifasi o'z yechimini kutmoqda, buning uchun har bir o'quvchi va o'quvchilar guruhining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni intellektual rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik tizimni vujudga keltirish alohida ahamiyat kasb etmoqda⁸.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinflarda "Tabiiy fanlar"ni

5 Qalandarova M.K. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni individual endashuv asosida intellektual rivojlantirish tizimi. Pedagogika fanlari b'ycha fal'safa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Chirchik, 2021. - 145 b

6 Eshboeva S.K. Use of people's oral creativity in the formation of ecological concepts of primary school students on a creative basis. //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 10 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423 November 2021 ilmiy jurnal 10-son www.oriens.uz Doi 10.24412/2181-1784-2021-10 763-769-page

7 Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии.- СПб.: Питер, 2006.-с. 713.

8 Мамашохиров С., Усмонов Э. Барқарор taraqqiётning ekologik xavfsizlik masalalari. -Toşkent: Fan, 2009. -247 b

2 Surayyo Eshboeva. (2022). CREATIVE APPROACH TO FORMING ECOLOGICAL CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS. European Scholar Journal, 3(10), 93-95.

3 Сагилян Э.М. Индивидуализация домашней учебной деятельности младших школьников: Дисс. ... канд. психол. наук. - Сочи, 1999. -136 с.

4 Садовая В.В. Творческая самореализация учащихся в познавательной деятельности в условиях индивидуализации обучения: Дисс. ... канд. пед.наук. - Казань, 1999. - 177 с

o'qitishda ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirish o'quvchilarning yaxlit, bir butun tarzda ongli, samarali o'zlashtirishlarini hamda ularning mushohada, tafakkur qilish faoliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, boshlang'ich ta'limda "Tabiiy fanlar"ni o'qitishda ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishda oddiydan-murakkabga tomon izchil va uzviy tarzda, ilgari egallangan bilimlarga tayangan holda amalga oshiriladi. O'quv dasturi yoki o'quv materiallari mavzulari orasida mantiqiy bog'liqlik, uzviylik va izchillikda amalga oshirilmasa, bunday o'quv materiallarining o'quvchilar tomonidan to'liq o'zlashtirilishiga erishib bo'lmaydi. Mavjud bilim va tushunchalarni alohida kichik tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganish, keyinchalik ularni bir butun, yagona tizim shaklida uzviy tarzda o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadga muvofiq sanaladi⁹.

Bunda, albatta, dastlab asosiy obyekt xususidagi asosiy tushuncha o'quvchilar diqqatiga yetkazilishi va shu tushunchadan kelib chiqqan holda obyektning qismlari mohiyatini ochib berishga o'tilishi lozim bo'ladi.

"Tabiiy fanlar" o'quv fani ta'lim doirasida izchillik va uzviylikni nazarda tutgan holda ekologiyaga oid tushunchalarni ta'lim dasturida nazarda tutilgan barcha tanlangan mavzularni o'quvchilar tafakkurida uzviy ravishda to'liq o'zlashtirish jarayonini pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri tashkil qilish lozim. Jumladan:

materialni to'liq, aniq puxta va ketma-ket o'zlashtirishga yo'naltirilgan tafakkur faoliyatning ma'lum shakllarini yuzaga

keltiradi, natijada to'liq, aniq, puxta va ketma-ket eslab qolish ta'minlanadi;

o'quv materialini o'zlashtirishga o'quvchilar faoliyatining motivlari, ularning o'rganilayotgan ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuvlari, qiziqishlari, ijobiy hissiyotlar, materialning muhimligini anglash, shuningdek, qiziqish va ehtiyojlarning turg'unligi katta ta'sir ko'rsatadi;

material mohiyatini ma'lum darajada tushunish, uni xotirada muvaffaqiyatli saqlab qolishning zarur shartlaridan biri ijodiy (kreativ) yondashuv bo'lib hisoblanadi;

agar anglashdan oldin xotirada to'liq va aniq anglash sodir bo'lsa, unda material mazmunini yaxlit holda tushunish qiyinlashadi; material mazmuni tushunishga yo'naltirilgan faol tafakkur faoliyati uning xotirada bevosita saqlanib qolishini ta'minlaydi.

Tabiat haqidagi fanlar tizimi bu tabiiy fanlar majmui hisoblanadi. "Tabiiy fanlar"ning maqsadi tabiat hodisalarining mohiyatini aniqlash, tabiat qonunlarini bilish, ularda amalda foydalanish imkoniyatlarini ochib berishdir¹⁰.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinfda o'rganiladigan tabiiy bilimlar o'quvchilarni olamni yaxlit idrok etishga undaydi. Buning natijasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan individual yondashuv va hissiy-qadriyatli faoliyat tajribasi hosil bo'ladi. Atrof - olamga moslashish uchun o'quvchilar ta'limning ilk bosqichlaridan boshlab, mustaqil harakatlanish, tabiat bilan ongli muloqotni o'rnatish, tabiat hodisalarining mazmun - mohiyatini to'g'ri anglash layoqatiga ega bo'lishlari lozim.

SPORTS ORIENTED GAMES FREESTYLE WRESTLERS MUST PERFORM TO ENHANCE THEIR GENERAL PHYSICAL PREPARATION

Nodir Azimovich Khanturayev - teacher, Jizzakh state pedagogical university

Abstract: *It can be inferred that not only physical exercises, but also different forms of sports oriented games mostly focused on enhancing techniques and tactics are used in freestyle wrestling to improve the physical preparation of wrestlers. This article covers our detailed recommendations on the use of sports oriented games to improve their physical fitness level.*

Annotatsiya: *Erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda jismoniy mashqlar bilan bir qatorda turli xil ko'rinisdagi sportga yo'naltirilgan harakatli o'yinlardan foydalanish mumkin. Ushbu maqolada erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan hamda ularning ahamiyati to'g'risida ta'kidlab o'tilgan.*

Аннотация: *В волной борьбе для совершенствования физической подготовки борцов используются не только физические упражнения, но и различные формы спортивно-игровой направленности, в основном направленные на совершенствование техники и тактики. В этой статье представлены наши подробные рекомендации по использованию игр спортивной направленности для повышения уровня их физической подготовки.*

Keywords: *overall physical preparation, physical qualities, general physical preparation, sports oriented games, freestyle wrestling.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, umumiy jismoniy tayyorgarlik, sportga yo'naltirilgan harakatli o'yinlar, erkin kurash.*

Ключевые слова: *общая физическая подготовка, физические качества, общая физическая подготовка, игры спортивной направленности, волная борьба.*

Our research will serve to ensure the implementation of Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 3, 2017, No PP-3031 "On measures for further development of physical culture and mass sports", Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 5, 2018, No. PF-5368 "On measures to radically improve the system of public administration in the field of physical culture and sports", Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 30, 2020, No. DP-6099 "On measures for the widespread introduction of a healthy lifestyle and further development of mass sports", Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated November 3, 2020, No. PP-4877 "On measures to improve the training system and increase the scientific potential in the field of physical culture and sports".

Freestyle wrestling is one of the most acclaimed and popular sports around the globe, and it is one of the first sport disciplines to be included in the program of the ancient Olympic Games. As with most sports, freestyle

wrestling carries a risk of injury for athletes. From a personal perspective, general physical preparation is of paramount importance in preventing injuries, and thus sports oriented games play a leading role in improving the level of general physical preparation of wrestlers, to my mind.

"Practicing sports oriented games on a daily basis during trainings is considered to be one of the best ways to enhance overall performance not only in the training, but also in the international competitions. Even though they seem to be some risks associated with physical activities, they are far outweighed by the long-term health benefits. They are able to prolong life, improve life quality and a significant component of weight management since they have a major influence not only on health, but also physical appearance as well as well-being. An adequate level of physical activity guarantees a higher quality of life and helps prevent many diseases such as obesity. To engage children in freestyle wrestling from an early age, one of the forms of physical activity are specific exercises, in which children

⁹ Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб.: Питер, 2006. - с. 713.

¹⁰ R.A.Mavlonova., N.H. Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integrasiyalashgan pedagogikasi". O'quv qo'llanma. - Toshkent. "Ilm Ziyos", 2009. -192 b.

are able to participate with their partners or under the guidance of a coach”¹.

“Freestyle wrestling is about controlling somebody else’s body, and if you are not able to control your own, you will never control theirs,” says Travis Rutt, assistant wrestling coach at Rochester Community and Technical College (Rochester, MN).

Practicing sports oriented games always helps wrestlers concentrate on proper stance and position (head up, back straight, hips in, knees off the mat) while incorporating the most crucial footwork movements, circling to find an attack angle. Similarly, they have the possibility to cultivate circling skills from a modified snap-down position, as it is great for developing both the offensive and defensive skills of the wrestler.

When we studied the attitude of coaches and athletes towards sports oriented games in the training process of freestyle wrestling, found out, coaches and athletes have been utilizing them less often. Both coaches and athletes admit that these exercises play an essential role in the training process, and they have a will to use more than they are using now.

MATERIALS AND METHODS

The aim of the research is to provide information on general physical preparation of freestyle wrestlers and a set of specific, upper and lower body exercises which intend to be done on the wrestling mat with an opponent or a partner. These exercises given below are hugely recommended for the development of general physical preparation, as well as the following methods were used in the implementation of research:

- pedagogical observation;
- interviews;
- analysis of scientific and methodological literatures on the subject;
- surveys.



Sports oriented games can stretch muscles and joints, which in turn can increase flexibility and help prevent injuries, and may also improve balance by increasing strength of the tissues around joints and throughout the body. They make muscles stronger, allowing wrestlers to do tasks that they otherwise might not be able to do, or to do them more easily.


RESULT AND DISCUSSION

General Physical Preparation in Freestyle Wrestling – wrestlers are prepared in order to partake in fitness. They are prepared not only for being prepared to train, but having a general physical level so that as wrestlers begin to work with more specific exercises, or start to do more specific training towards

a chosen athletic venture, a higher level of general physical preparation can help them prevent loss of gains from time off and a sports injury. “...General physical preparation is a way for physical qualities coaches to prepare wrestlers for fitness goals and to sustain a level of sports performance”².


Whilst the training goal of Freestyle Wrestling is to bring wrestlers a high level of physical fitness as well as aimed at wrestlers competing in the international tournaments where they are required to be fit perfectly. Sports oriented games which seem to increase and enhance a level of general physical preparation of freestyle wrestlers are listed below:


THE MOST DEXTEROUS	THE DESCRIPTION OF THE GAME
	Freestyle wrestlers are shared into pairs, accepting a starting position on their knees. After the coach's signal, freestyle wrestlers begin to touch each other by a palm to a shoulder. The task of each wrestler is to touch the shoulder of the opponent many times as much as possible. A winner wins who will execute the greatest number of contacts for a minute.
	RULE Wrestlers should touch only by a palm (not fist or elbow) the designated part of a body of the opponent. It is absolutely forbidden to render strong painful impacts.

COMPETITION WHEELBARROWS	THE DESCRIPTION OF THE GAME
	One of the wrestlers lying in an emphasis and puts legs for width of shoulders. A wrestler takes him by legs such connection refers to as "wheelbarrow", so "two wheelbarrows" compete. Their task is to touch the same hands of the opponent. One wins who will execute more contacts in short given time. The wrestler loses, who will lose balance at first.
	RULE Freestyle wrestlers are strictly forbidden to rise on elbows and to fall on a stomach.

“During a general physical preparation phase, the only goal is to cultivate an overall foundation for the inclusion of more freestyle wrestling specific training, movements, and intensities to best prepare freestyle wrestlers for the specific demands

of their sport. The GPP phase will further their baseline potential and can allow them for greater advanced in sport”³.

STRUGGLE AGAINST CAPTURE	THE DESCRIPTION OF THE GAME
	Freestyle wrestlers are distributed in pairs, raise the person to each other, and put hands on shoulders. They carry out minimal capture by legs, the head, having fixed a correct starting position, gives a signal to begin the game. The task of freestyle wrestlers is to decompose the opponent, having applied capture.
	RULE One loses who the first lose his balance and put his leg on a carpet. It is not authorized to omit a hand from shoulders.

PUSHING OUT OF THE CIRCLE	THE DESCRIPTION OF THE GAME
	Two freestyle wrestlers stand in a circle, diameter 3-4 m. After a signal of the coach, they put hands on shoulder, begin mutual pushing out. The task of each freestyle wrestler is to push out an opponent of circle. It is possible to make pushing out by a chest of the opponent, then hands are behind the opponent's back.
	RULE A freestyle wrestler loses when there is even one leg, not only two outside a circle.

A successful GPP phase transition freestyle wrestlers to a Specific Physical Preparedness (SPP) phases of training, often when preparing for a specific sporting event, such as World Championships or Summer Olympic Games. Coaches and freestyle wrestlers must comprehend that the ability to train and compete at high levels is earned

as time passes, and developed through systematic increases in volume, intensity and preparation. Dedicating energy and time into more general physical preparation phases can be a very beneficial part of the overall health and physical performance of freestyle wrestlers at nearly every level.

PULLING	THE DESCRIPTION OF THE GAME
	Freestyle wrestlers are divided into two teams and rise one opposite to another along the line which has been carried out between them. Freestyle wrestlers settle down opposite each other. After a signal of the coach, each team tries to pull the greatest number of the wrestlers of the other team. Each wrestler, pulled over the line, raises a hand, and the coach can count up the quantity of points.
	RULE The one who has crossed the line by two legs constitutes pulled. It is expressly forbidden to pull the clothes of the wrestlers.

As we have mentioned above, general physical preparation training focuses on mostly developing the foundation on which physical qualities and cardiovascular capacity are built. As a pyramid can only be as tall as its foundation, freestyle wrestlers are capable of obtaining high levels of athletic performance if they have the firm base to allow for it. A common weak point in beginning and intermediate freestyle wrestlers is back strength.

If you recognize this is an area that needs improvement, a general physical preparation training period can be the perfect time to cope with it.


Recommended sports oriented games will help freestyle wrestlers familiarize and obtain the elements of techniques of freestyle wrestling, ways for peak performance and various complex combinations as well.


WHO IS STRONGER?	THE DESCRIPTION OF THE GAME
	Two wrestlers stay on a prone position, keeping the same hands, capturing for a wrist of the opponent with the right or left hand. The task of freestyle wrestlers is to pull the opponent to each other's side, having forced each other to lose balance. The one who carry out a task firstly becomes a winner.
	RULE It is not allowed to stand on knees and pull each other's clothes.

¹ Kerimov F.A., Yusupov N "Active games for Kurash" Tashkent – 2003; 71 pages.

² Salomov R.S. "Theory and methodology of physical education." Volume I, Textbook. ITA-PRESS. T. -2014 y. 297 pages.


³ Adilov Sarvar Kakhramonovich, "Improving sports and pedagogical skills (Freestyle wrestling) textbook, Tashkent-2019; 197 pages.


PUSHING OUT BY A BACK	THE DESCRIPTION OF THE GAME
	<p>Freestyle wrestlers have to sit by back to each other and every one capture under hands. The task of each wrestler is to rest a back to push out the opponent outside a circle.</p> <p>RULE</p> <p>It is impossible to get off legs from a wrestling mat, as well as it is strictly forbidden to break off capture of hands.</p>

FALL DOWN ON A WRESTLING MAT	THE DESCRIPTION OF THE GAME
	<p>Two freestyle wrestlers from different teams have to lie near each other on a back. After the signal of a coach, they have to jump on their knees and try to fall down each other on a wrestling mat. The winner receives one point.</p> <p>RULE</p> <p>The team which has taken more scores wins.</p>

“Organizing sports oriented games on a daily basis effectively and efficiently during trainings is one of the important means of general physical preparation. Exercises specifically approached can be used for the general physical development of freestyle wrestlers, mastering skills that are of paramount importance in freestyle wrestling”⁴.

Believe or not, the more you work on your overall physical preparation by paying great attention to specific but acceptable exercises concentrated on mostly physical qualities, the better you will perform not only in trainings, but also international competitions. In reality, the vast majority of Freestyle wrestlers find themselves improving their lifts after adding specific approaches they have never done before to their training, as a consequence have the possibility to make their whole body stronger, more flexible as well as unstoppable. Freestyle wrestlers should think hard about their sport. What kind of movements are they likely to do? Study workouts mostly focused on developing physical qualities.

COLLIDING BY PALMS	THE DESCRIPTION OF THE GAME
	<p>Freestyle wrestlers have to stand in pairs opposite to each other, and they try to discompose impacts of palms to the opponent. It is also allowed to play in sitting position on the floor.</p> <p>RULE</p> <p>The one loses who will set aside a leg after impact by palms.</p>

EXTEND FROM A CIRCLE	THE DESCRIPTION OF THE GAME
	<p>Two freestyle wrestlers have to enter a circle. One of them turns a back to his opponent. After a signal, one of them have to grab a wrist of the opponent and tries to pull him out of a circle. Freestyle wrestlers have to demonstrate active resistance as well as try to remain in a circle. The wrestler who has executed the task efficiently and efficiently wins.</p> <p>RULE</p> <p>Freestyle wrestlers are not authorized to be uncoupled.</p>

CONCLUSION

Those above-mentioned sports oriented games will absolutely generate concrete wrestling skills and teach mobilizing all spiritual and physical strengths and qualities for achievement of a competition in freestyle wrestling. During a GPP phase, the aim is to develop and improve an overall foundation for the inclusion of more sport specific training. We are not just saying that the only sports oriented games we have offered will improve freestyle wrestlers' overall physical preparation.

O'QUVCHILARDA HUQUQIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK PRAKSILOGIYA

Zafar Usmonov - mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarda huquqiy dunyoqarashni rivojlantirishda praktsiologik bilimlarni pedagogik talqin qilishning ahamiyati asoslab berilgan.

Аннотация: В статье обосновано значение педагогической интерпретации праксиологических знаний в развитии правового мировоззрения учащихся.

Abstract: The article substantiates the importance of pedagogical interpretation of praxeological knowledge in the development of legal outlook in students

Kalit so'zlar: praktsiologiya, ta'lim, dunyoqarash, rivojlantirish, huquqiy dunyoqarash, optimallashtirish, pedagogik praktsiologiya.

Ключевые слова: праксиология, образование, мировоззрение, развитие, правовое мировоззрение, оптимизация, педагогическая праксиология.

Keywords: praxisology, education, outlook, development, legal outlook, optimization, pedagogical praxiology.

O'quvchilarning huquqiy dunyoqarashni rivojlantirishda zamonaviy ta'lim standartlarini joriy etish sharoitida uning samaradorligi, ratsionalligi nuqtai nazaridan muvaffaqiyatli faoliyatni tashkil etish asosida o'quv ishlarini optimallashtirish imkoniyatlarini o'rganish ayniqsa muhimdir. Bunday faoliyatni tashkil etish nazariyasini ko'rib chiqish mavzusi ilmiy bilimlarning integral sohasi - pedagogik praktsiologiyadir.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy-pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish" kabi ustuvor vazifalar belgilandi. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi jarayonida bugungi ta'limni raqamlashtirish muhitida pedagogik faoliyatga inson amaliy faoliyati samaradorligi haqidagi ta'limot borasida dunyoqarashni shakllantirish bo'lajak o'qituvchilarda intellektual bilimlar zaxirasini puxta egallash, ta'lim sohasida huquqiy dunyoqaraga oid ko'nikmalari va malakalarini oshirish orqali qo'yilgan maqsadga erishish imkoniyati kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi, 2017-yil PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2019-yil PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2020-yil PQ-4699-son «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil PQ-4623-son «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil PF-6079-son «Raqamli O'zbekiston 30» dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2020-yil PF-6097-son «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmon va qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar ham aynan yoshlarda huquqiy dunyoqarashga oid bilimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik praktsiologiyaning mohiyatini tushunish uchun biz "praksiologiya" atamasiga murojaat qildik. "Praksiologiya" tushunchasi birinchi marta 1897-yilda A.Yespinas tomonidan Les Origines de la Technogi" (texnologiyaning paydo bo'lishi) kitobida qayd qilingan. U "hunarmand yasaydi, dehqon shudgor qiladi, kemachi kemada suzib yuradi, askar jang qiladi, savdogar savdo qiladi, professor o'qitadi, menejer turur. Va shuning uchun "amaliyot" so'zi praktsiologiya atamasini ularning birligida ko'rib chiqilgan, tirik mavjudotlar dunyosidagi harakatning eng umumiy shakllari va tamoyillari haqidagi fanni aniqlash uchun ishlatiladi", hamda "Praksiologiya" ilmiy talqinda "faoliyatni samarali tashkil etish nazariyasi" degan xulosaga kelgan.

4 Khanturayev, N. (2022). GENERAL PHYSICAL PREPARATION OF FREESTYLE WRESTLERS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022(1), 80-95.

XX asr o'rtalarida polyak faylasufi va mantiqchisi T.Kotarbinskiy "yaxshi ish to'g'risida risola" kitobini nashr etdi, bu unga butun dunyodan shuhrat keltirdi va praksiologik yondashuvni inson faoliyatini maqsadga muvofiqligi, ratsionalligi jihatidan tahlil qilish va tushuntirishning maxsus usuli sifatida shakllantirishga asos bo'ldi. Muallif praksiologiyani faoliyatni samarali ("xizmatga yaroqli") tashkil etishning umumiy nazariyasi deb ta'riflagan. T.Kotarbinskiyning fikriga ko'ra, praksiologiya-bu mehnatni tashkil qilish bilan bog'liq turli fanlarning ma'lumotlarini sintez qiluvchi fan. U faqat har qanday faoliyat uchun qo'llaniladigan va universal xarakterga ega bo'lgan narsalarni birlashtiradi. "Praksiologiya-bu amaliy maslahatlarni ishlab chiqishga tarfkashlik bilan, o'nlab fanlardan olingan ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan, ushbu ma'lumotlarni ushbu faoliyat sohasi vazifalari nuqtai nazaridan tizimlashtirish bilan tashkiliy fanning tipik modeli" shu bilan bir qatorda muallif "Praksiologiya o'quv intizomi sifatida insonning dunyoga amaliy munosabatini, amaliy aql va donolikni tashkil etish tamoyillarini shakllantirishning ta'lim amaliyoti vazifasini bajaradi" degan xulosaga kelgan.

Ilmiy va ma'rifiy ishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, "praksiologiya" atamasi turli xil sharoitlarda qo'llaniladi: oilaviy munosabatlar praksiologiyasi, falsafiy va huquqiy praksiologiya, yurist praksiologiyasi, siyosiy praksiologiya, refleksiv praksiologiya, pedagogik praksiologiya va boshqalar.

Praksiologiya, shuningdek praksiologiya (boshqayunontilidan: "faoliyat, amaliyot" + "fan, o'qitish", so'zma – so'z – "amaliyotni anglash") - bu inson amaliy faoliyati samaradorligi haqidagi ta'limotlarning jamoaviy nomi.

Hozircha atamaning yagona talqini yo'q, turli mualliflar uni turli jihatlar bilan bog'lashadi, lekin ko'pincha bir yo'nalish haqida gap ketadi¹

Yoshlarni ma'lum bir faoliyat sohasiga yo'naltirishda pedagogik praksiologiyaning o'rnini alohida ta'kidlash kerak. Pedagogik praksiologiya uslubiy ko'rsatma vazifasini bajarib, yoshlarni yangi munosabatlarga kiritish orqali ma'nau yuksalishning yuqori pog'anasiga ko'tarilishiga yordam beradi. Pedagogik praksiologiya nafaqat ta'lim –

tarbiya harakatning zamonaviy maqbul usulini, balki harakat haqida fikr yuritishning zarur tomonlarini ham ochib beradi. Ushbu fan nafaqat o'qituvchini nima va qanday qilish kerakligini, balki yaxshi ishlash uchun qanday qilib oqilona o'ylash kerakligini ham aytadi²

Pedagogik praksiologiya o'quvchilarda huquqiy dunyoqarashni rivojlantirish tizimiga ham ijobiy ta'sir kuchini o'tkazadi.

O'quvchilarda huquqbuzarlikka oid dunyoqarashni rivojlantirishda praksiologik modellarini yaratish asnosida praksiologik yondashuvning mohiyatini metodologik asos sifatida tushunishni ochib berishni talab qiladi.

Praksiologiya-bu inson amaliy faoliyatining samaradorligi to'g'risidagi ta'limotdir³.

O'quv faoliyati samaradorligini baholashga va ta'limiy faoliyat natijadorligi masalasini N.B.Avaluyeva o'z izlanishlarida yoritib bergan⁴.

"Pedagogik praksiologiya pedagogik faoliyat nazariyasi va pedagogik bilimlarning integral amaliyotga yo'naltirilgan sohasi sifatida uning samaradorligi darajasini oshirishga imkon beradigan o'quv faoliyatini tashkil qilishning bir qator yondashuvlari va mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

"Modellar ishlab chiqilgan va praksiologik yondashuvni qo'llash bo'yicha tajribalar tavsiflangan bo'lib, uning asosiy ma'nosi maktabda va kasbiy ta'limda ham o'quv faoliyatining maqsadga muvofiqligi darajasini (ishlatilgan usullar va ishlatilgan manbalarda) oshirishdir. Xususan, bizning fikrimizcha, hal qilingan vazifalar darajasiga ko'ra tabaqalashtirilgan o'quv faoliyatini praksiologizatsiya qilish modellari qiziqish uyg'otadi (A.E.Marion, L.Y.Monaxova, V.S.Fedotova, 2012), amaliy kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish va uning samaradorligini baholashda praksiologik yondashuvni qo'llash tadqiqotlari (N.B.Avaluyeva, Y.V.Voronina, N.L.Galeeva, T.N.Tretyakova va boshqalar.). "Praksiologizatsiy" atamasi "praksiologiya" va "praksiologik" ning hosilasi sifatida E.N.Mixaylova, E.Y.Semchenko, J.N.Axatovalar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan⁵. Shu bilan bir qatorda o'qituvchining ilmiy-tadqiqot faoliyatiga praksiologik yondashuvni qo'llash

e.N.Mixaylova tomonidan o'rganilgan⁶bo'lsa O.A.Langler o'quvchilar subektivligini shakllantirish praksiologiyasi bo'yicha izlanishlar olib borgan⁷. Y.V.Voronina uzluksiz texnologik tayyorgarlikni tashkil etishga va o'qituvchilarmalakasini oshirishda praksiologik yondashuv masalasi bilan shug'ullangan⁸.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, o'quvchilarda huquqiy dunyoqarashni rivojlantirish ta'limi tizimidagi pedagogik praksiologiya qoidalar, toifalar, qonunlarni to'playdigan umumiy metodologiya vazifasini bajaradi, uning yordamida yuksak ma'naviy faoliyat fenomeni tushuntiriladi; o'quvchilarning huquqiy dunyoqarashni rivojlantirish muammolarini ko'rib chiqish va hal qilish bilan bog'liq umumiy ilmiy yondashuvlar amalga oshiriladi; o'quvchilarda huquqiy

dunyoqarashni rivojlantirish integratsiyasi amalga oshiriladi; natijalarning muvaffaqiyati, uning sabablari, shartlari va mexanizmlari yoritiladi.

O'quvchilarda huquqiy dunyoqarashni rivojlantirishning praksiologik yondashuv mohiyati "ratsionallik", "samaradorlik", "ma'naviyat", "yestetika", "psixologiya" kabi tushunchalarni o'quvchilarning ongiga singdirish orqali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan turli xil vositalarni izlash, tanlash va ta'lim amaliyotiga kiritishdan iborat.

Umuman olganda o'quvchilarda huquqiy dunyoqarashni rivojlantirishning praksiologik yondashuvini amalga oshirish orqali o'quv jarayoni sub'ektlari faoliyati takomillashtiriladi va uni amalga oshirish rejalari ishlab chiqiladi.

OZARBAYJON DIASPORASI VAKILLARINING O'ZBEKISTON MADANIYATI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

Mansur Yangibayevich Boysariyev - tadqiqotchi, O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistondagi ozarbayjon diasporasi vakillarining hayoti, ularning o'zbek san'ati, adabiyoti, madaniyati rivojlanishiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ozarbayjon milliy madaniy markazlari faoliyati va turli millatlararo totuvlik, do'stlik g'oyalari shakllantirishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Аннотация: В статье представлена информация о жизни представителей азербайджанской диаспоры в Узбекистане, их вкладе в развитие узбекского искусства, литературы и культуры. Также показана деятельность азербайджанских национально-культурных центров и их значение в формировании идей согласия и дружбы между разными народами.

Abstract: The article provides information about the life of representatives of the Azerbaijani diaspora in Uzbekistan, their contribution to the development of Uzbek art, literature and culture. It also shows the activities of Azerbaijani national cultural centers and their importance in shaping the ideas of harmony and friendship between different peoples.

Kalit so'zlar: ozarbayjon diasporasi, milliy madaniy markazlar, "Gardashlik", Ozarbayjon milliy madaniy markazlari uyushmasi, "Ozarbayjon qizlari".

Ключевые слова: азербайджанская диаспора, национально-культурные центры, «Гардашлык», Ассоциация азербайджанских национально-культурных центров, «Азербайджанские девушки».

Keywords: azerbaijani diaspora, national cultural centers, "Gardashlyk", Association of Azerbaijani national cultural centers, "Azerbaijani girls".

Bugungi kunda mamlakatimizda yashab Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan kelayotgan 130 dan ziyod millat va elatlarning teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, vakillari O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy

1 / Г. Д. Гловели // Большая российская энциклопедия [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. – М. : Большая российская энциклопедия, 2004–2017.

2 Колесникова И. А., Титова Е. В. Педагогическая праксеология. - М.: Академия, 2005. - 256 с.

3 <https://www.google.com>

4 Авалуева Н.Б. Праксеологический подход к пониманию результативности и эффективности воспитательной деятельности // Воспитание. Научные дискуссии и исследования: Сб. науч. тр. / Под ред. Е.В. Титовой. СПб.: Издательство РГПУ им. А.И. Герцена, 2005. С. 121-127.

5 А.Э.Абдулатипова, А.Х.Чупанов, Е.С.Сахарчук «Праксиологизация как механизм актуализации содержания профессионального туристского образования» // ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В СФЕРЕ ТУРИЗМА И ГОСТЕПРИИМСТВА УДК 379.851 DOI 10.22412/1999-5644-11 -2-2

6 Михайлова Е.Н. Исследовательская деятельность как цель и ресурс профессионального саморазвития педагога в концепции праксеологического подхода // Вестник Томского государственного педагогического университета. Томск, 2009. Вып. 6 (84). С. 5-8. Михайлова Е.Н. Праксеологический подход в исследовательской деятельности педагога. // Вестник Томского государственного педагогического университета. – Томск, 2006. Вып. 10 (61). С. 25-27

7 Ленглер О.А. Применение праксеологического подхода в процессе становления субъектности учащихся // Актуальные задачи педагогики (III): материалы междунар. заоч. науч. конф., г. Чита, февраль 2013 г. Чита: Изд-во Молодой ученый, 2013. С. 110-113.

8 Воронина Ю.В. Использование праксеологического подхода в системе повышения квалификации педагогов // Педагогическое образование и наука. № 2, 2008. С. 35-38.

sohada, ilm-fan va madaniyat sohasida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga, Respublikaning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Shunday millatlardan biri ozarbayjonlar hisoblanadi. Ozarbayjon diasporasi vakillarining O‘zbekiston ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga munosib hissasi yuzasidan maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Bu esa ularni ilmiy jihatdan tadqiq etishga, ularning ilm-fan, madaniyat sohasida qo‘shgan hissasini va faoliyatini ommalashtirish zarurligini hamda ilmiy muomalaga kiritish dolzarbligini ko‘rsatadi. Bu tadqiqot bilan O‘zbekistonning eng yangi tarixi uchun muhim ish hisoblanadi.

Amalga oshirilayotgan ustuvor yo‘nalishlar sur‘atini, keng ko‘lamli demokratik islohotlarni, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili O‘zbekiston xalqi yagona g‘oya – O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha olijanob maqsadlar va g‘oyat muhim vazifalarga erishishdan iborat yagona maqsad atrofida birlashganligini ta‘kidlash uchun barcha asoslarni beradi.

O‘zbekistondagi milliy-madaniy markazlar – mamlakatda yashovchi muayyan millat vakillarining milliy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlaridir. O‘zbekistonda dastlabki milliy-madaniy markazlar 1989-yilda tuzilgandi¹.

Biroq ularning chinakam rivojlanishi va samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin keng imkoniyatlar yaratildi. Markazlarning asosiy maqsad va vazifalari o‘z xalqining tarixini o‘rganish, ona tilini va yozuvini, adabiyotini, xalq og‘zaki ijodi, teatr va rassomlik san‘atini, milliy urf-odatlar va hunarmandchilikni, milliy sport turlarini saqlash, rivojlantirishdan iborat.

O‘zbekistonlik ozarbayjonlar xalq an‘analari va urf-odatlarini hurmat qilib, ularni avaylab-asrab keladilar. O‘zbekistondagi birinchi Ozarbayjon milliy madaniy markazi – “Gardashlik” 1989-yili yanvar oyida Toshkentda tashkil etilgan. “Gardashlik” milliy madaniy markazi asosan Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi ozarbayjon diasporasi vakillaridan iborat bo‘lib, ular ozarbayjon xalqining tarixini o‘rganish, ona tilini va yozuvini, adabiyotini, xalq og‘zaki ijodi, teatr va rassomlik san‘atini,

milliy urf-odatlar va hunarmandchilikni targ‘ib etishga qaratilgan edi.

O‘zbekiston madaniyati san‘ati rivojida N.Po‘latxonova, R.Po‘latxonova, F.Safarov, K.Aliyeva, ilm-fani rivojida S.Ojiyev, R.Ibodov, G.Abdullayev xizmatlarini e‘tirof etish zarur. Ushbu ozarbayjon diasporasi vakillarining hayoti va faoliyatini o‘rganish ikki qardosh xalq tarixini o‘rganish demakdir.

O‘zbekiston musiqa san‘ati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan Po‘latxonova Nargiz Shamilqizi 1957-yil 12-iyulkuni Toshkent shahrida tug‘ilgan². U 1981-yilda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat Konservatoriyasini, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, professor A.M.Gekkelmanning maxsus fortepiano sinfini imtiyozli diplom bilan tugatgan.

Konservatoriyada o‘qiyotganda u milliy va xalqaro fortepiano tanlovlarida qatnashdi va laureat bo‘lishga sazovor bo‘ldi. Davlat imtihon komissiyasi raisi, Rossiya Xalq artisti, Moskva konservatoriyasi professori M.S.Voskresenskiyning tavsiyasiga binoan u Gnassin nomidagi davlat musiqa va pedagogika institutida aspiranturada o‘qishni davom ettirdi. (hozirgi Rossiya musiqa Akademiyasi)

Po‘latxonova aspiranturadan so‘ng 1986-yilda Toshkent davlat konservatoriyasida maxsus fortepiano bo‘limida dars bera boshladi.

Po‘latxonovaning o‘qituvchilik faoliyati boshlanganidan beri uning sinfini

60 dan ortiq bakalavr, magistr va aspirantura bitiruvchilari tugatgan, ularning barchasi yaqin va uzoq xorij mamlakatlarida faoliyat yuritishmoqda.

Po‘latxonovaning ko‘plab talabarlari xalqaro tanlovlarda g‘olib bo‘lishgan: B.Allaberganov (1999, Gollandiya), F.Xaydarova (1998, Rossiya, 2000, Fransiya), Ye.Brovkina (1999, Qozog‘iston), V.Umarova (2005, Litva; 2005, 2007, Fransiya), L.Davlyatova (2007, Rossiya), I.Sokolova (2009, Shimoliy Koreya).

Qozog‘istonda (1999) va Litva (2007) davlatlarida tashkil etilgan musiqa tanlovlarida hakamlar hay‘ati tarkibida bo‘lgan N.S.Po‘latxonovaga xalqaro fortepiano musobaqalari laureatlarini yuqori darajada tayyorgarligi uchun “Eng yaxshi o‘qituvchi” diplomini topshiriladi.

N.S.Po‘latxonova samarali pedagogik faoliyatni intensiv ijrochilik faoliyati bilan muvaffaqiyatli birlashtirgan. U ajoyib pianino

maktabiga ega, pianino texnikasining barcha turlari ustasi, u chuqur, nozik musiqachi.

Uning arsenalida 40 dan ortiq to‘liq metrajli konsert dasturlari mavjud. Pianinochi repertuaridan jahon klassiklarining: Bax, Motsart, Betxoven, Shubert, Shumann, Brams, Shopen, List, Debussi, Ravel, Raxmaninov, Chaykovskiy, Qoraev, F.Amirov, N.Zokirov, A.Hoshimov fortepiano asarlari o‘rin olgan.

Bugungi kunga qadar u F.P.Blavaskiyning butun pianino sikllarini ijro etgan O‘zbekistondagi yagona pianinochi hisoblanadi. N.S.Po‘latxonova “She‘riy va diniy uyg‘unliklar”, “Vizyonlar”, “Archa”, “Vena oqshomlari” yakkaxon dasturlari 5 ta kompakt diskka yozib olingan.

Uning ijrosidagi F.Shubert va F.List asarlari o‘zbek radiosining oltin fondiga kiritilgan. Maxsus fortepiano o‘qitish metodikasini chuqur, jiddiy o‘rganish professor N.S.Po‘latxonovaning ko‘plab ilmiy-uslubiy ishlarini aks ettiradi. U o‘nlab ilmiy maqolalar, shu jumladan xalqaro nashrlar va fundamental asarlarni yozgan va nashr etgan.

Uning “Katta shakldagi bir qismli fortepiano asarlarining uslubiy talqini muammolari” nomli oliy musiqa o‘quv yurtlari uchun darsligi “2007 yilning eng yaxshi darsligi” respublika tanlovida g‘olib deb topildi.

Po‘latxonovaning bir qator asarlari nemis, italyan, fransuz va o‘zbek fortepiano musiqalarini talqin qilish muammolariga bag‘ishlangan. Uning “Maxsus pianino sinfida yosh musiqachining ijodiy shaxsini tarbiyalash masalasi to‘g‘risida” asari ingliz tiliga tarjima qilingan.

Professor Po‘latxonovaning ulkan pedagogik, ilmiy-uslubiy va ijrochilik tajribasi unga milliy va xalqaro fortepiano tanlovlarida hakamlar hay‘ati a‘zosi sifatida ishtirok etish huquqini beradi. Universitet Davlat imtihon komissiyasining doimiy a‘zosi.

2008-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan unga professor ilmiy unvoni berildi. San‘at va yuqori malakali kadrlar tayyorlash sohasida erishgan yutuqlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining faxriy yoriqlari, “Tasanno” sertifikatini, O‘zbekiston teatr xodimlari uyushmasining sertifikatlari bilan taqdirlangan.

Hozirgi kunda N.S.Po‘latxonova O‘zbekiston davlat konservatoriyasining maxsus fortepiano kafedrasini professori sifatida faoliyat yuritmoqda.

Ya‘na bir ozarbayjon diasporasi

vakillaridan biri Po‘latxonova Ramida Shamil qizi 1955-yil 27-dekabr kuni Toshkentda tug‘ilgan³.

1978-yilda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasini, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, professor O.Yusupovning maxsus fortepiano sinfini imtiyozli diplom bilan tugatgan.

Leningrad konservatoriyasida professor I.Radin sinfida konsertmeyster sinfi va palata ansambli bo‘limida amaliyot o‘tagan.

Konservatoriyaning 1-kurs talabasi sifatida R.Sh.Po‘latxonova xor dirijorligi bo‘limlarida konsertmeyster, so‘ngra O‘zbekiston xalq artisti, professor N.Hoshimov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, professor N.Rizayev kabi O‘zbekiston vokal san‘atining taniqli namoyandalari sinflarida akademik qo‘shiqchi sifatida ish boshladi.

Akkompanist sifatida u respublika vokal tanlovlarida faol ishtirok etib, eng yaxshi akkompaniment uchun diplom va o‘z chiqishlari va laureatlarni tayyorlagani uchun O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining sertifikatlarini oldi.

1985-yilda R.M.Po‘latxonova O‘zbekiston davlat konservatoriyasining konsertmeyster mahorati bo‘limiga o‘qituvchi sifatida taklif etilib, shu kungacha faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Kafedrada o‘qituvchilik faoliyati davomida u 80 dan ortiq bakalavr, magistr va aspirantlarni tayyorladi. Uning ko‘plab talabarlari milliy va xalqaro tanlovlardagi ishtiroki uchun eng yaxshi akkompaniment uchun diplom bilan taqdirlanilar.

Jumladan, D.Axmetshina Qozog‘iston va Rossiyada (2004, 2009), E.Brovkina (2004, Qozog‘iston), E.Tishkunova (1999, 2002, O‘zbekiston) “Romantika Jozibasi” tanlovlarining diplom sohibi, N.Abduraxiyimova (1998, 2005, O‘zbekiston), G.Musabayeva (2007, O‘zbekiston), E.Abdullayeva (2009, Fransiya), L.Davlyatova (2008, Qozog‘iston), I.Sokolova (2008, Koreya) kabi shogirdlari bor.

O‘zbek radiosining oltin fondiga N.Narxodjayev, K.Kenjayev, M.Atajanovlarning musiqalari R.Po‘latxonova tomonidan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar G.Zokirova va S.Ruziqulovlar bilan yozib olingan asarlari kiritilgan.

Akademik M.Xamidova va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist R.Titeyev bilan birgalikda Verdi, Grig, Gadjibekov, Puchchini, Mosart, Donizetti, Raxmaninov, Rimskiy

¹ O‘zbekiston – umumiy uyimiz. Toshkent, 2004 y. 32-b.

² Азербайджанцы за рубежом (краткий биографический справочник). Баку-2016. С 422

³ Азербайджанцы за рубежом (краткий биографический справочник). Баку-2016. С 427

Korsakov, Chaykovskiy, Straussning vokal kompozitsiyalari kompakt-disklarga yozib olingan.

R.Sh.Po'latxonovga konsertmeyster sinfining ilmiy ishlariga, o'qitish usullariga katta e'tibor beradi.

Uning yelkasida konsertmeyster ishining o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan o'nlab nashr etilgan asarlar, ilmiy va uslubiy maqolalar mavjud. Uning bu sohadagi tadqiqotlari doirasi juda xilma-xil: barokko musiqasining uslubiy ishlanmalaridan Shubert, Verdi, Chaykovskiy, Braxms, Debussiy, M. Ashrafiy,

D.Yanov-Yanovskiy va boshqalar asarlarigacha mavjud.

Uning "2006-yilning eng yaxshi darsligi" respublika ko'rik-tanlovida oliy musiqiy ta'lim muassasalari uchun "Konsertmeyster mahorati sinfida opera sahnasida ishlash" nomli fundamental tadqiqotlari vakolatli hakamlar hay'ati tomonidan eng yaxshi deb topildi.

Bu asar ikki marta nashrdan chiqqan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan sertifikat berilgan.

R.Sh.Po'latxonova bir necha bor "San'at g'unchalari" respublika tanlovi hakamlar hay'ati ishida qatnashgan. Universitet davlat imtihon komissiyasining doimiy a'zosi. 1997-2007-yillarda O'zbekiston davlat konservatoriyasining dekani bo'lib xizmat qildi.

2008-yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi R.Sh.Po'latxonovaga professor ilmiy unvonini berdi. Hozirgi kunda Po'latxonova O'zbekiston davlat konservatoriyasi musiqi akademiyasi konsertmeyster mahorati bo'limi boshlig'i bo'lib xizmat qilmoqda.

Aliyeva Kelyob Miri qizi 1935-yil 20-sentabrda tug'ilgan. Uning ota-onasi Ozarbayjonning Qorabog' viloyati Xojali qishlog'idan bo'lgan.

Xizmat yuzasidan keyinchalik Eron davlati Mashhad shahriga ko'chib kelishgan. Muallifning 2020-yildagi Aliyeva Kekeb bilan suhbatidagi ma'lumotiga ko'ra, 1979-yil Eronda shoh hokimiyati ag'darilishidan keyin harbiy Alievlar oilasi O'zbekistonga ko'chib kelishadi⁴.

U Ozarbayjon milliy madaniy markazi – "Gardashlik" tashkil etilishida faol ishtirok etdi. 1989-yildan beri u Ozarbayjon diasporasi vakili sifatida o'zi yaratgan to'garaklarda turli millatga mansub bolalar va o'smirlarga yuzlab ozarbayjon raqslarini o'rgatgan.

Uning rahbarligida "Ozarbayjon g'izlari"

ansambli O'zbekistonning davlat tadbirlarida, xalqaro festivallarda va boshqa turli tadbirlarda ishtirok etib, Ozarbayjon musiqasi va raqslarini targ'ib qiladi.

U o'z faoliyati orqali O'zbekiston xalqi, turli millat vakillarining ozarbayjon musiqi madaniyatiga mehrini uyg'otdi. Ta'kidlash joizki, Kokyab Aliyevaning faoliyati O'zbekistonda yuqori baholanib, u bir necha bor faxriy yorliq va ordenlar bilan taqdirlangan.

"Ozarbayjon g'izlari" ansambli O'zbekistonda o'tkaziladigan turli yuqori darajadagi tadbirlarda muntazam ishtirok etib kelmoqda.

Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazi loyihasi doirasida tashkil yetilgan, O'zbekistonning yirik shaharlari Samarqand, Farg'ona, Chorbog' va boshqa shaharlarda bo'lib o'tgan Ozarbayjon san'ati, madaniyati va musiqasiga bag'ishlangan tadbirlarda "Ozarbayjon g'izlari" ansamblining chiqishlari har doim mahalliy tomoshabinlarning olqishiga va zavqiga sabab bo'ladi.

K.Aliyevaning xizmatlarini hisobga olgan holda, 2007-yilda Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev unga "Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan artist" unvonini berdi⁵. K.Aliyevaning jamoatchilik faoliyati ham e'tiborga loyiqdir.

U "Mehrjon" xayriya jamg'armasining hamraisi edi. Ushbu fond yetim bolalarni, shu jumladan Ozarbayjon bolalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'plab tadbirlarni amalga oshiradi. K.Aliyeva bolalarga yordam berish, ular bilan Mehribonlik uylariga yordam berish va xayriya tadbirlarini o'tkazish uchun ishbilarmon va tadbirkorlarni hamkorlikka jalb qiladi va ular bilan munosabatlar o'rnatib bolalarga yordam berish bilan doimiy shug'ullangan.

K.Aliyevaning O'zbekistondagi ozarbayjon diasporasini shakllantirishda katta xizmatlari bor. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda madaniyat va xalqlar do'stligini mustahkamlash sohasidagi uzoq yillik faoliyati uchun K.Aliyevani "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlagan edi.

2017-yilda Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazining O'zbekistondagi taqdimoti asosida "Ozarbayjon qizlari" ansamblining badiiy rahbari, Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan artist K.Aliyeva Ozarbayjon Respublikasining "Faxriy madaniyat xodimi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Ozarbayjonning xizmat ko'rsatgan artisti

K.Aliyeva umrining ko'p qismini O'zbekistonda Ozarbayjon musiqasi va raqsini targ'ib qilish bilan o'tkazdi.

2021-yil 86 yoshida Toshkent shahrida vafot etdi. Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazida unga atab barelef o'rnatilgan.

O'zbekiston ilm-fani rivojida tarixchi olim Sahovat Ojiyevning alohida o'rni bor.

Saxovat Ojiyev 1951-yilda Ozarbayjon Respublikasi Jalilobod tumani Qorazanji qishlog'ida tug'ilgan⁶.

O'z qishlog'ida 8 yillik maktabni bitiradi. 1966-1969-yillarda Bokuda 5-sonli texnika va kasb-hunar maktabini tugatib, duradgor kasbga ega bo'ldi.

1975-1981 yillarda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining Tarix fakultetini tamomlaydi. Keyingi yillarda Samarqand viloyati Arxiv ishi boshqarmasi Ijroiya qo'mitasida Bosh inspektor hamda Samarqand davlat universiteti Tarix fakultetida "Arxivshunoslik" kafedrasida ma'ruza o'qish bo'yicha ish olib bordi.

1990-yilda Samarqand davlat universiteti Pedagogika kafedrasida o'qituvchilik faoliyati boshlandi. Sahovat Ojiyev o'zbek, tojik va rus tillarida gapiradi va ma'ruzalar o'qiydi, shuningdek, seminar va darslar o'tkazadi.

"Said Rza Alizoda, o'quv faoliyati va pedagogik uchrashuvlar" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi va ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

"Turkistonda Ozarbayjon ma'rifatparvarlarining o'quv faoliyati va pedagogik qarashlari (XIX-XX asrlar)" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

Ozarbayjonlik olim hozirda Samarqand davlat universiteti Pedagogika kafedrasida mudiri, professor sifatida faoliyat olib bormoqda.

1992-yildan buyon Ozarbayjon-O'zbekiston madaniy va iqtisodiy aloqalar

markazining asoschisi va raisi. Uzoq vaqt davomida mahalla raisi lavozimida faoliyat yuritgan.

2001-yil noyabr oyida Bokuda tashkil etilgan Jahon ozarbayjonlarining birinchi Kongresida ishtirok etgan.

Turon akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylangan. Sahovat Ojiyev 200 dan ortiq ilmiy-pedagogik va publitsistik maqolalar, ssenariylar, monografiyalar va kitoblar muallifi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston ilm-fani va madaniyati rivojlanishida turli millat vakillari, jumladan ozarbayjonlar munosib hissasini qo'shishdi va hozirda mamlakatning turli sohalarida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. O'zbekiston davlatida har bir millat vakiliga keng imkoniyat, sharoit yaratib berilgan. Mustaqillik yillarida ozarbayjon diasporasi vakillaridan O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakatni yuksaltirish ishlariga qo'shgan munosib hissasi, o'zining yorqin iste'dodi, serqirra ijodi, samarali ilmiy-amaliy faoliyati bilan mamlakatimizning ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish, yoshlarimizni ona yurtga muhabbat va sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo'lidagi katta xizmatlari hamda jamoat ishlaridagi faol ishtiroki uchun "Do'stlik" ordeni bilan K.Aliyeva, M.Mamedov, M. Ragimova, E. Mamedov, F.Guseynov, A. Azimbekov, Ali Geydar o'g'li Nasirli, X.Abdullaev, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan F.Safarov, M.Shayxzoda, "Shuhrat" medali bilan K.Aliyeva, I.Mamedov, II darajali "Salomatlik" ordeni bilan R.Ibadov kabi o'nlab ozarbayjon diasporasi vakillari taqdirlanishdi. Millatlararo aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishga intilayotgan ozarbayjon faollari o'zbek va ozarbayjon madaniyatlarining o'zaro almashinuvi va boyitilishiga, xalqlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

4 M.Boysariyevning 2020-yil oktabr oyida Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazida Aliyeva Kekeb Miri qizi bilan qilgan suhbatidan olingan.
5 <https://mytashkent.uz/2017/01/08/izvestnye-azerbajdzhantsy-v-uzbekistane/>

6 M. Seyidbayli "Azarbaycanin elmi diasporu" Baki-2017. Avropa nashriyati, s. 194

O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" QISSASIDA ONA OBRAZI ORQALI XALQ OG'ZAKI IJODINING KO'RINISHI

Gulnoza Mamatqulovna Abdullayeva - magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotimizning yirik vakillaridan biri O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida ona obrazi orqali xalq og'zaki ijodi namunalarini yoritish hamda adibning asarlarida folklordan samarali foydalanilganligi, uning jamiyat hayotida, milliy adabiyotimiz rivojida munosib o'rni ko'rsatib beriladi.

Аннотация: В этой статье показывается в произведении крупного представителя узбекской литературы Уткира Хашимова «Дунёни ишлари» («Дела всего мира») через образ матери достойное место в освещении примеров устного народного творчества, а также как успешно исполняются в произведениях писателя фольклор, его достойное место в развитии национальной литературы в жизни общества.

Abstract: In this article, one of the great representatives of our modern Uzbek literature, Utkir Hashimov, in his work "Affairs of the World", illuminates the examples of folk oral creativity through the image of the mother, as well as the effective use of folklore in the works of the writer, its worthy place in the life of society and the development of our national literature.

Калит so'zlar: xalq og'zaki ijodi, inson psixikasi, jamiyat, qarindoshlik rishtalari, tarbiya, ma'rifat, ota-onaga ehtirom, folklor unsurlari, afsona, mif, asotir, insoniy tuy g'ular.

Ключевые слова: устное народное творчество, психика человека, общество, родственные узы, воспитание, знания, уважение к родителям, элементы фольклора, легенда, миф, загадка, человеческие чувства

Keywords: folklore, human psyche, society, kinship ties, education, enlightenment, respect for parents, elements of folklore, legend, myth, mystery, human emotions.

Har qanday iste'dod yoniga insoniy fazilatlar qo'shilsagina, ijod muayyan salmoq kasb etadi. Bunga esa butun umr bo'yi davom etadigan mashaqqatli mehnat bilan, astoydil jon kuydirish bilan erishiladi.

Badiiy obraz hayot hodisalarining mohiyatini takrorlanmas, individual belgilarda ochishdir¹.

XX asr va istiqloq davri adabiyoti ijodkorlari sarmahsul ijodkorlar sanaladi. Bu davr ijodkorlarining ijodidagi joziba mavzularning kengligi, rang-barangligidadir. XX asr o'zbek adabiyotining zabardast namoyondalaridan biri serqirra iste'dod sohibi, suyuqli adibimiz O'tkir Hoshimovdir. O'zbekiston xalq yozuvchisi va jamoat arbobi O'tkir Hoshimov qariyb qirq yillar mobaynida o'zining ajoyib publitsistik maqolalari, hikoya, qissa va romanlari bilan adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib ulush qo'shib keldi. O'tkir Hoshimov asarlarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish, unumli qo'llash xalqimiz tarixini, udumlarini, milliyligini

ifodalash orqali o'quvchi qalbiga yo'l topadi.

Keyingi yillarda xalq og'zaki ijodiga va uning janrlariga yuksak e'tibor bilan qaralmoqda. O'zbek xalq og'zaki ijodi o'zining betakrorligi, yuksak mahorat natijasi ekanligi bilan ajralib turadi. Xalq og'zaki ijodiga murojaat etgan, asarlarida foydalanib kelgan va foydalanib kelayotgan adabiyot ahillarini bilamiz. Ularning san'at asarlarida o'z o'rnini topgan beqiyos go'zalliklar kashf etgan xalq o'g'zaki ijodi o'quvchi ongiga singib ketgan.

O'tkir Hoshimov XX asr adabiyotining zabardast vakili. O'tkir Hoshimov ijodi rang-barang janrlarga boydir. U yaratgan romanlar, qissalar va hikoyalar xalqimiz orasida mashhur. XX asr o'zbek adabiyotida o'z o'rnini va uslubiga ega bo'lgan adib O'tkir Hoshimovning asarlari oddiy va xalqchilligi bilan ajralib turadi. O'tkir Hoshimov ijodiga nazar solsak, uning naqadar insonparvar, naqadar xalqchil ijodkor ekanligini ko'ramiz. Ayniqsa, "Dunyoning ishlari" qissasida mehr-muhabbatning tengsiz

¹ Sharofiddinov O. Tanlangan asarlar. -T.: "Sharq", 2019. 1 bet.

kuchini, onalik sharafini, insoniy tuyg'ularni ulug'lab, bevosita dunyoni ko'ra olgan adib namoyon bo'ladi. Zero, adib tili bilan aytganda bu kitobni u emas, balki onasi yozgan va bu yaratilgan butun dunyodagi onalar uchun yozilgan edi.

Uning birgina "Dunyoning ishlari" asarida inson psixikasi, an'analar bardavomligi, xalq og'zaki ijodidan unumli, o'rinli, o'zgacha bir sehrli tasvirlab foydalanishi O'tkir Hoshimovni o'z ishinin ustasi ekanligidan darak beradi. Asarlari oddiy insonlar hayotini real aks ettirish bilan birga, ularning o'z dunyoqarashlari, ichki kechinmalarini mohirona ochish bilan adibning aytmoqchi bo'lganlari yoritiladi.

Qissa haqida O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shunday deydi:

"Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu

jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlrimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizga ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi².

Dunyoning ishlari asari katta-kichik hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va to'liq tarzda 2005-yilda "Sharq" nashriyoti tomonidan nashr etilgan memuar asardir. Adib O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek nomidagi yillik mukofoti bilan taqdirlangan- Dunyoning ishlari qissasini yaratib, ma'naviyat haqidagi bahsni davom ettirdi va o'zbek Onasiga haykal qo'ydi.

Asarda kitobxonni mulohazaga undaydigan, o'ylarga todiradigan o'rinlar ko'p. Ayniqsa, ushbu asarda ona obrazi orqali xalq o'g'zaki ijodiga e'tibor berish, obraz tafakkuri bilan yosh avlodni tarbiyalash, ertaklardan, afsonalardan, miflardan oqilona foydalanish bilan o'quvchiga o'z bolaligini yodga soladi. Xalq og'zaki ijodi orqali ona o'z bolalariga, kelajak avlodga o'rinli tarbiya beradi. Voqea, hodisalarni shundayligicha tushuntirmay, balki, qiyosiy, ibratomuz holatda yetkazadi.

Birgina ushbu asardagi "Haqqush" hikoyasini olaylik. Unda onasi ertakdagi bir-biri bilan noahil bo'lgan bolalarning ayanchli taqdiri, tabiatning jazosi va sho'rlik ona qismatini bolalariga aytib berib, ahillikni

ulug'laydi. Bunda onasining cho'pchakdan foydalanib, bolalari tarbiyasiga psixik ta'siri, farzandlariga to'g'ri tarbiya berish borasida ustaligi, ulkan fahm-farosat egasiligini ochib berish adibning o'quvchiga yetkazib berishi kerak bo'lgan vazifasi edi. Yo'lchi yulduz

yanglig' onasi o'z orqasidan hali bola bo'lmish O'tkir Hoshimovni xalq og'zaki ijodi bilan tanishtiradi, o'sha olamga yetaklaydi. Og'zaki ijodning inson

tafakkuriga, ongiga, shuuriga ijobiy ta'sirini ko'rsatib beradi. O'zi bilan birga o'sha sehrli olamga yetaklaydi. Adib hikoyada "Bola edim, go'dak edim. Onam aka-ukalar haqida g'alati bir cho'pchak aytib bergan edi"³deb afsonani boshlaydi. Afsonada aytilishicha, ikki aka-uka bir-biri bilan noahil bo'lganligi oqibatida Xudoning qahri kelibdi-yu, ikkovining ham ko'zini ko'r qilib, qushga aylantirib qo'yibdi. Shundaygina aka-uka bir-birini ko'rmasa turolmashligini, bir-biriga kerak ekanligini tushunibdi. Ushbu afsona yozuvchi ilmiy salohiyatini ortiqcha izohlarsiz ochib beradi. "Bechora onam! O'sha iztirobli afsonani aytayotganingda inidan mo'ralagan qaldirg'och bolasidek ko'rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir-biri bilan inoq bo'lishini shunchalik xohlaganmiding!"⁴deb ta'kidlaydi yozuvchi.

Islom dinida aka-ukalarning inoq bo'lishi, ota-onaga hurmat, qarindosh-urug' munosabatlari Silayi rahm haqida juda ko'p bora ta'kidlangan. Hadislardan birida "Kim o'z aka-ukasi yoki opa singlisi bilan urisharkan, uning qulog'ini kar, ko'zini ko'r qilinadi" deyilgan. Bu kar va ko'rlik jismoniy emas, balki ruhiy holat bo'lib, uning qalbiga Allohning so'zlari, marhamati kirmaydi, deyilgan. Qarindoshlik rishtalari haqidagi bunday hadislarga juda ko'p misollarni keltirishimiz mumkin.

Bu holat yozuvchi va o'quvchini bir qatorga tenglaydi. O'quvchi ham o'z hayoti haqida fikr yuritadi. Adib ta'kidlaganidek, asar muallifining onasi.

Biz ushbu asarni o'qir ekanmiz, uning inson tarbiyasiga, ma'naviyatiga, qadriyatlariga xalq o'g'zaki ijodi orqali ta'sirini o'rgandik. Ma'naviy merosimiz, ajdodlar o'giti, milliy urf-odatlarimizni qadrlashni yodga soluvchi ushbu asarning badiiy qiymati benihoya yuqoridir.

² internet ma'lumotidan

³ O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari". "Ilm-ziyo-zakovat". Toshkent -2019 yil 7- bet

⁴ O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari". "Ilm-ziyo-zakovat". Toshkent -2019 yil 7- bet

KINOYA XUSUSIYATLARI VA MUALLIF MODALLIGINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA IFODALANISHI

O'g'iloy Hamdamovna Mavlonova - o'qituvchi, Turon Zarmed universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kinoyaning xususiyatlari, uning kuchayishiga sabab bo'luvchi ikkita asosiy ijtimoiy-psixologik omillar o'rganilgan. Kinoyaning matn kategoriyasi, muallif modalligining tarkibiy qismi sifatida yanada rivojlanib borishi nazariy jihatdan ochib berilgan. Kinoya ko'p darajali ontologik-gnoseologik hodisa ekanligi dalillangan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются семь особенностей иронии, два основных социально-психологических фактора, способствующих его интенсификации. Теоретически выявлено дальнейшее развитие текстовой категории иронии как составной части авторской модальности. Доказано, что ирония является многоуровневым онтолого-гносеологическим феноменом.

Abstract: This article discusses seven features of irony, two main socio-psychological factors contributing to its intensification. Theoretically, further development of the textual category of irony as an integral part of the author's modality is revealed. It is proved that irony is a multi-level ontological and epistemological phenomenon.

Калит so'zlar: gnoseologiya, falsafiy-estetik hodisa, implikasiya, muallif modalligi, ontologik-gnoseologik.

Ключевые слова: гносеология, философско-эстетический феномен, импликация, авторская модальность, онтолого-гносеологический.

Keywords: gnoseology, philosophical and aesthetic phenomenon, implication, author's modality, ontological and gnoseological.

Kinoya so'z o'yinining bir turidir. Kinoya so'z o'yini mexanizmlariga tayanib, katta-kichik qarama-qarshiliklarni hal qilishga olib keladi va illyuziya, dogmatizm va inersiyadan xalos bo'lishga yordam beradi. Yana kinoya komik va estetik hodisaning faol shakli sifatida o'zida insonning voqelikka estetik munosabati: insonning dunyoni estetik bilishi va barcha turdagi estetik faoliyati, xususan, inson turmush tarzi, estetik ong va uning aksiologik muammolari, estetik badiiy ijod, badiiy madaniyat, shaxsning har tomonlama va barkamol rivojlanishi – oliy estetik ideal, madaniy-sivilizatsiya jarayonlarida estetika va san'atning o'rni masalalari bilan bog'lanadi. Badiiy asar tilida ma'noni aktualashtirishning ko'p darajali asosiy mexanizmlaridan, muallifning niyatlarini aks ettiruvchi kinoyaviy baholashni amalga oshirishning asosiy shakllaridan biri bo'lgan kinoya orqali davrning ijtimoiy-ma'naviy muammolari qoralanadi va ularga tanqidiy munosabat bildiriladi. Kinoya asosidagi baholashda o'ziga xos subyektiv modallik namoyon bo'ladi. Shuning uchun

kinoyani "modal va baholovchi ma'nolarning keng tizimidan tashkil topgan" muallif modalligining tarkibiy qismi sifatida izohlash mumkin bo'ladi.

Kinoya inson umidlarini o'zgartirishi, kishining kutilmaganda o'z qarashlarida burilish yasashi uchun ta'sir ko'rsata olish kuchiga egaligi sababli yozuvchilar e'tiborini qozongan. Shuning uchun har bir ijodkor yozuvchi o'z asarida imkon qadar kinoyadan foydalanishga harakat qiladi. Chunki kinoya yozuvchilarga asar g'oyaviyligini va badiiyatini oshirish, eng muhimi, uning xalqchilligi va ta'sirchanligini ta'minlash imkonini berishi bilan poetik ahamiyat kasb etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, uning xususiyatlarini quyidagicha belgilab ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, kinoyadan ko'pincha uslubiy vosita sifatida yetakchi qahramonlarning nutqiy muloqot jarayonida foydalaniladi. Kinoya atamasi uslubiy vosita nomi bo'lib kelganda, "badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo'lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatq,

qochiriq vositasida yashirin kulishdan iborat" bo'ladi¹ Ikkinchidan, kinoya badiiy asarning til sathida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, kinoyalar tasvirlanayotgan voqelikka o'quvchi yoxud tomoshabin munosabatini anglata oladi.

To'rtinchidan, kinoya badiiy asarning g'oyaviy-mavzusi, syujet-kompozitsion jihatlarini qamrab oladi.

Beshinchidan, asarning umumiy badiiy strukturasi belgilovchi omilga aylanadi.

Oltinchidan, kinoya, avvalo, ijtimoiy adolatsizliklarga qarshilikni ifodalashga xizmat qiladi.

Yettinchidan, kinoya orqali yozuvchi ijtimoiy turmushni o'zgartirish, yangilashga da'vat qilishni ko'zda tutadi.

Kinoyaning kuchayishiga, odatda, ikkita asosiy ijtimoiy-psixologik omil zamin yaratadi. Bulardan:

Birinchisi – davrning ijtimoiy shart-sharoiti, odamlarning qiyin turmush tarzi, ya'ni obyektiv omil.

Ikkinchisi – ayni shu shart-sharoitlarda yetilgan va ijodkor shaxsida namoyon bo'lgan ijtimoiy dard-kayfiyat, ya'ni subyektiv omil.

Kinoyaning ontologik asoslari va gnoseologik imkoniyatlarini tushunish zamonaviy jamiyat madaniyati rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari hamda istiqbollari tushunishga yaqinlashtiradi. Unga xos an'anaviy estetik dominantlarning intensiv o'zgarishi xususiyatlarini ochishga yordam beradi.

Kinoya ko'pincha iqtibos, stilizatsiya va simulyatsiya maydoni sifatida namoyon bo'ladi. Kinoya ko'p narsani o'z ichiga olgan yagona maydon sifatida yuzaga chiqadi.

S.Kerkegor kinoyani fikrlash tarzi deb hisoblagan va u haqdagi o'z nazariyasini shu asosda qurgan.

Kinoya – gnoseologiya, ya'ni bilishning o'zigaxos usuli. Zero, insonning o'z-o'zigakinoya qilishi uning dunyoga estetik munosabatining o'ziga xos turi sifatida namoyon bo'ladi. Kinoyaning ontologik jihatlarini va gnoseologik imkoniyatlarini uni hamisha subyektlararo estetik aloqaning favqulodda dolzarb shakliga aylantirib kelgan. Kinoya muallifning yashirin baholash pozitsiyasini aks ettira olishi sababli dunyoqarashning elementi hisoblanadi².

Kinoya onging falsafiy-estetik hodisasi sifatida shakllangani antik davrlardayoq

tan olingan va bu qarash hozirgi kungacha saqlanmoqda. Chunki kinoya insonlarni shubha ostiga olingan haqiqatni qayta o'ylashga majburlaydi. Shuning uchun u mohiyatan o'ziga xos estetik fikrlash usulidir.

Kinoya voqelikni shunchaki subyektiv baholash usuli emas. U insonni o'ziga xos so'z o'yinlari orqali voqelikni o'rganish, tahlil qilish va baholashga majbur qiladi. Boshqacha aytganda, kinoyani aks ettirish xususiyati aql o'yiniga xoslanganida ham ko'rinadi.

Kinoya turli xil nutq usullarining tarkibiy va ekspressiv qismi bo'lib, mazmunan yashirin kontekst (implitsit ifoda)ni yuzaga chiqarishga yordam beradi. Kinoya shakli semantik jihatdan, ya'ni mazmunan, bir tomondan, ifodalanayotgan voqelikni masxaralashga, qoralashga, uning haqiqatdan uzoqligini, yolg'onligini ko'rsatishga xoslansa, boshqa tomondan, bu haqiqatning sinov ekanligini, uning imkoniyatiga umid qoldirishni tavsiya qiladi. Xuddi shu ifoda shakli kinoya uslubining modelini tashkil qiladi.

"Qattiq sxemaga kiritib bo'lmaydigan jonli va murakkab hodisa" hisoblanuvchi kinoya hodisasi ko'pincha ma'noni yashirin ifodalab keladi. Mana shuning uchun kinoyani badiiy matnda muallif modalligini ifodalashning yashirin shakli sifatida ham qayd etish joiz. Shuni inobatga olib, I.R.Galperin: "badiiy asarning har qanday matni ikki tomonlama xarakterga ega: u aniq va noaniqdir" va yashirin ma'lumotlar nafaqat muallifning niyatini amalga oshirishga va uning g'oyasini ochishga yordam beradi", – deydi³.

Darhaqiqat, badiiy matnda yashirin baholash namoyon bo'lishining yetakchi shakllaridan biri kinoya bo'lib, u o'z mohiyatiga ko'ra matnga baholovchi ma'nolarni kirituvchi yashirin xarakterdagi semantik kategoriyadir.

O.Genrining "G'ayrioddiy hikoya" nomli novellasida shunday parcha uchraydi: "Ming bor uzr, – dedi kekxa Jon Smozers, – ozgina kechikdim, men yo'lda mashina kutaman, deb biroz qolib ketdim"⁴. Aslida shu gapni aytayotgan qahramon yigirma yildan ko'p vaqt qolib ketadi.

Mashhur ingliz tilshunosi P.G.Grays nutqdagi yashirin ma'noni ifodalash uchun implikasiya atamasidan foydalanadi. Olim qo'llagan leksemalarning ma'nosiga ko'ra, implikatura shartli, noan'anaviy (kommunikativ, nutq implikaturasi, og'zaki aloqa) – gapning

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси, 83-бет, Ziyoz.com кутубхонаси

² Жукова С.А. Ирония в романах М.А. Булгакова («Театральный роман», «Жизнь господина де Мольера», «Мастер и Маргарита»): Дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2003. – 252 с

³ Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. С. 48.

⁴ Генри О. Гайриоддий хикоя. // Ишбилармон кишилар: хикоялар. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – Б.57.

yashirin ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri ma'noga zid kelishi sifatida tushuniladi. "Kommunikativ implikatsiyalarni hisoblash", deb ta'kidlaydi P.G.Grays – "bu hamkorlik prinsipiga muvofiqlik prezumpsiyasini saqlab qolish uchun mavjud bo'lishi kerak bo'lgan ma'no tarkibiy qismlarini hisoblash"dir.

Kinoya asosidagi baholashda o'ziga xos subyektiv modallik namoyon bo'ladi. Shuning uchun kinoyani "modal va baholovchi ma'nolarning keng tizimidan tashkil topgan"⁵ muallif modalligining tarkibiy qismi sifatida izohlash mumkin bo'ladi. Masalan, "It might be only the false mouth, so smooth and wide; and yet there seemed to lurc beneath the humility and subserviency of this short speech a something like a snarl; and for a moment, one might have thought that that the white teeth were prone to bite the hand they fawned upon. But the Major thought nothing about it; and Mr. Dombey lay meditating with his eyes half shut, during the whole of the play, which lasted until bedtime"⁶. – Tarjimasi: "Bu faqat soxta nutq bo'lishi mumkin, og'iz ham shunchalik silliq va keng. Shunday bo'lsa-da, bu qisqa kamtarona nutq ostida xirillashga o'xshash bir narsa yashiringandek edi; va bir zum oppoq tishlar qo'llarini tishlashga moyil, deb o'ylash mumkin edi. Ammo mayor bu haqda hech narsa o'ylamagan; janob Dombey esa uyquga qadar davom etgan o'yin davomida ko'zlarini yarim yumgan holda meditatsiya qilib yotardi".

Ushbu parchada qahramonning gapirish holati, og'iz tuzilishi, nutq so'zlash vaziyatida og'zini ochar ekan, tishlarining ko'rinishi va hokazolar tasvirida baholovchi, modal ma'no borligi, bu modallik esa qiyoslash bilan kinoyaviy tarzda berilganligi jihatidan e'tiborni tortadi.

Muallif modalligini semantik sohada yashirin baholash sifatida kinoyani ifodalash tilning turli vositalari yordamida amalga oshiriladi. Shu tariqa kinoya matn kategoriyasi, muallif modalligining tarkibiy qismi sifatida yanada rivojlanib boradi. Badiiy matnda kinoyani shakllantirishda uning ichki mexanizmlarini o'z ichiga olgan ko'p bosqichli lingvistik hamda ekstralingvistik omillarni to'g'ri tanlash ham hisobga olinadi. Ularning yaxlitligida muallifning g'oyaviy maqsadi alohida asarda ham, janrlararo darajada ham ochib berilishi mumkin. Bunda muallifning niyati va e'tiqodiy qarashlari ta'siri ham kuzatiladi. Yozuvchi tomonidan tasvirlangan qahramonlar, davr va jamiyatning ijtimoiy va axloqiy voqeliklariga uning o'z hissiy-baholovchi munosabati subtekst, implikatsiya, yashirin ma'no, presuppozitsiya va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Kinoya subyektning eskirgan qadriyatlar tizimidan noroziligini bildiradi. Agar kinoya inson va jamiyat hayoti bilan bog'liq eskirgan tushunchayu qarashlarni to'g'ridan-to'g'ri amaliy o'zgartirish imkoniyati bo'lmasa, ularni bilvosita rag'batlantirish vositasidir. Kinoya eskirgan hodisalarning ijobiy bahosi haqidagi da'volarning puchligini ochishga xizmat qiladi. Uni fosh qiladi, yangi hukmron sharoitlar bilan muvofiqligini inkor etadi.

Xulosa shuki, kinoya ko'p darajali ontologik-gnoseologik hodisa bo'lib, o'zida estetikaning an'anaviy mumtoz aksiomatikasini, komiklikning o'ziga xos estetik tomonlarini namoyon etadi, shu bilan birga kinoya matn kategoriyasi, muallif modalligining tarkibiy qismi sifatida rivojlanib borishi kuzatiladi.

JAMIYATDA INSON QADRI VA IJTIMOY MANFAATLARINI RO'YOBGA CHIQRARISH BARQAROR TARAQQIYOT KAFOLATI

Vazira Shamshiyeva - mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish ko'lami kengayib borayotgan sari inson qadrini ulug'lash, turmush farovonligini yuksaltirish sohasida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonlari aks etgan.

Аннотация: В данной статье отражены процессы совершения глубоких изменений в сфере прославления человеческого достоинства и улучшения жизненного благополучия по мере расширения масштабов социально-экономического развития в обществе.

Abstract: This article reflects the processes of making profound changes in the field of glorifying human dignity and improving living well-being while the scope of social and economic development is expanding in the society.

Kalit so'zlar: jamiyat, ijtimoiy, taraqqiyot, inson, insoniyat, taraqqiyot, qadr-qimmat, manfaat, qadriyat, islohotlar, jamiyat barqarorligi.

Ключевые слова: общество, социальное, развитие, человек, человечество, развитие, ценность, благо, ценность, реформы, социальная стабильность.

Keywords: society, social, development, human, humanity, development, value, benefit, value, reforms, social stability.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar yanada chuqurlashayotgan bir paytda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi inson qadrini ulug'lash va turmush farovonligini yuksaltirish sohasida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy talabi bo'lib qolmoqda. Mamlakatdagi iqtisodiy ko'rsatkichlar, barqarorlik kafolatlari birinchi navbatda aholi turmush darajasi va sifati bilan baholanadi. Aholi farovonligi ko'p jihatdan uning hayotiy muhim ehtiyojlarini qondirilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Jamiyatda inson qadrini ulug'lash olib borilayotgan islohotlarning o'ziga xos tamoyili bo'lib, mamlakat aholisi ijtimoiy hayotining ko'p ming yillik falsafasi, ijtimoiy madaniyati, milliy maqomi, mentaliteti, tabiiy va demografik vaziyatdan kelib chiqadigan yangi tamoyillarning qaror topishi hamda ularning amalga oshishi bilan bog'liq. Ushbu tamoyillarning jamiyatda ro'yobga chiqishi tizimlilik xususiyatiga ega bo'lib, davlat va jamiyatning hayotiy manfaatlarini ifodalaydi. Inson omilini yuqori darajada ta'minlanishi tufayli jamiyatda ijtimoiy tanglik va beqaror vaziyatlar chetlab o'tiladi, demokratik va

ma'naviy yangilanishlarning muhim bosqichiga qadam qo'yiladi.

O'z navbatida, jamiyatda inson qadrini ulug'lash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat va jamoatchilik tuzilmalari ishtirok etadi. Insonni jamiyat hayotida oliy qadriyat sifatida ulug'lanishi, uning ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini barqaror asoslarda rivojlantirish madaniy tamaddunga erishayotgan har bir jamiyat uchun ahamiyatli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad - inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda"¹.

Bugungi globallashuv jarayonida dunyo xalqlari uchun o'zaro munosabat va inson qadri tushunchalari keng ma'no mazmun kasb etmoqda. Inson qadrini jamiyatda ulug'lash va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish har bir jamiyatning eng ustuvor yo'nalishi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Inson qadri umumbashariy tamoyillardan biri bo'lib, bu jamiyatning inson ravnaqi uchun adolat va farovonlikni kafolatlaydigan ijtimoiy

⁵ Пивоев В.М. Ирония как феномен культуры. Петрозаводск: Изд-во ПетрГУ, 2000. С. 5.
⁶ Page:Dombey and Son.djvu/334 - Wikisource, the free online library.

¹ Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б. 14.

manfaatlar ustunligi uchun xizmat qiladigan jamiyat barpo etishni talab etadi. Inson uchun, insoniyat jamiyati uchun asosiy, dastlabki eng muhim oliy qadriyat - bu inson hayotining o'zidir. Har bir inson jamiyatning bir bo'lagi bo'lib, uning umumiy manfaatlar, ehtiyojlar va intilishlar bilan bog'laydigan muhim hayotiy an'analarga ega bo'ladi.

O'zbekistonda olib borilayotgan bugungi kundagi islohotlar mohiyatida inson qadrini ulug'lash tamoyillari yaqqol ifodasini topgan. Bugun mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar shunchaki islohot uchun emas, aynan inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qiladi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning xalqimizga yo'llagan tabrigidagi quyidagi so'zlari diqqatga sazovordir: "Yurtimizda keng ko'lamlil islohotlarimiz barqaror tus oldi. Ularni yanada rivojlantirish maqsadida biz Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqdik. Uning asosida "Inson qadri uchun", degan ulug'vor g'oyani amalga oshiramiz. Biz yangi yilga nom berishda, keng jamoatchilikning fikrlarini o'rgandik. Ana shu takliflardan kelib chiqib, men Yangi - 2022-yilni mamlakatimizda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb e'lon qilishni taklif etaman"².

Inson uchun eng muhim qadriyatlardan yana biri - bu, uning hayotda maqsadga muvofiq darajada mavjudligini anglash, o'zi tanlagan faoliyatdan qoniqish hosil qilishdir. Davlat mamlakatda inson faoliyatining barcha jabhalarini barqaror asosda takomillashib borishi uchun doimiy g'amxo'rlik qilish, inson manfaati ustuvorligi uchun doimiy chora-tadbirlar olib borishi ijtimoiy rivojlanishning muhim o'zagi bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatda doimiy yangilanish, innovatsion taraqqiyot va texnologik jihatdan ta'minlangan ijtimoiy rivojlanish jarayonlari inson omilini va uning farovonligini ta'minlashning muhim shartlari hisoblanadi.

Aholining turmush tarzi va uning darajasini oshirish inson manfaatlarini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. "Aholi turmush darajasi deganda, odamlarning zarur moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanganligi, ularning iste'moli va ehtiyojlari qondirilganligi darajasi tushuniladi. Turmush darajasi tor ma'noda aholining iste'mol ehtiyojlari qondirilganligi, iste'molning daromad va xarajatlar bilan ta'minlanishini, keng ma'noda insonni rivojlanishi darajasini (sog'lik,

ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari) va uning yashash shart-sharoitlarini (atrof muhit, xavfsizlik masalalari) anglatadi"³.

Jamiyatda inson qadr-qimmatini yuksalib borishi uning ijtimoiy mavqe darajasi bilan bog'liqdir. Shaxsning ijtimoiy mavqei uning huquq va majburiyatlar tizimi orqali jamiyatning ijtimoiy tuzilishida ma'lum o'rinlarga ega bo'lib borishini anglatadi. Ijtimoiy maqom esa, jamiyatda shaxs yoki ijtimoiy guruhi yoki jamiyatning alohida ijtimoiy tizimi egallagan ijtimoiy-siyosiy mavqeni anglatadi. Jamiyatda ijtimoiy mavqe insonga beriladigan imtiyozlar va huquqlar ko'lami orqali ijtimoiy hayotda munosib o'rnini topib borishidir. A.Saitkasimovning ta'kidlashicha, "Jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalari barqaror muhitini doimiy ta'minlab borilishi mamlakatimiz kelgusi taraqqiyotining muhim asosi hisoblanadi. Mazkur jarayon jamiyatda fuqarolar manfaatlarini, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, farovon turmushini yanada samarali tashkil etilishiga muhim zamin yaratadi"⁴.

Insonning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topib borishi ideal qadriyat ekanligi haqida G.Osadchayaning ta'kidlashicha, "mazkur kategoriya strukturasi dastlab o'z tarkibiga o'zining muhit chegaralarini tasvirlovchi shaxs, guruh ehtiyojlaridan iborat bo'ladi. Shaxs va guruhning orzu, manfaat va intilishlarida gavalangan qadriyatlar tizimi ehtiyojlarini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida qadriyatlar tizimining tarkibi ratsional, emotsional va xulq-atvor komponentlaridan iborat bo'ladi. Eng yuqori qismida ideal qadriyatlar turadi"⁵. S.Sharakshanening fikricha, "Qadr-qimmat - shaxs bo'lishning doimiy ko'rsatkichidir, agar inson o'zini o'zi qadrlashdan mahrum bo'lgan sharoitlarda yashashga majbur bo'lsa, o'z hayotini amalga oshirilgan deb hisoblay olmaydi"⁶.

Ijtimoiy manfaatlarini samarali ta'minlash jamiyatda iqtisodiy rivojlanish, milliy yuksalish, inson faolligi, madaniy daraja va fuqarolik mas'uliyati bilan aloqador bo'lgan jarayon hisoblanadi. Ijtimoiy manfaatlarini ta'minlashning asosiy shart-sharoitlari insonning turmush darajasini yuksaltirish, uning ijtimoiy hayotda farovon yashashi uchun talab va ehtiyojlarini qondirish hisoblanib, u ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim garovi hisoblanadi. Jamiyatda inson farovonligini ta'minlashda ilm-fan, innovatsiyalar va ta'lim

² Sh.Mirziyoyev. Yangi yil munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigi. <https://uzldep.uz/news-of-party/11046>

³ Рустамов Н. Аҳоли турмуш даражаси ва Ўзбекистонда уни ошириш имкониятлари. Иқтисодий ва инновацион технологиялар" илмий-электрон журналы. №5, 2015. -Б. 5.

⁴ Сайдқосимов А. Ижтимоий барқарорлик инсон ҳаётий фарвонлигини таъминлашнинг зарурий шарт. Фалсафа ва ҳуқуқ. № 1, 2019 й. -Б. 184.

⁵ Осадчая Г.И. Социальная сфера общества: теория и методология социологического анализа. М., 1996. -

С.56.

⁶ Шарақшанэ С. Достоинство человека: опыт философско-антропологического осмысления. //Диссертация кандилата философских наук. Ростов на-дону, 2007. -С. 161.

sohasini rivojlantirish kabi moddiy ne'matlarni yaratish va inson turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan jarayonlar muhim o'rin tutadi.

Inson qadrini ulug'lash - yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir. Yangi O'zbekistonda "Davlat - inson uchun" tamoyili asosida inson huquqlarini mustahkamlash, odamlarni rozi qilish islohotlarning eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Olimlarning qayd etishicha, "Islohotlar markazida insonning oliy qadriyat sifatida baholanishi mamlakatimiz strategik vazifalariga hamohangdir. Xususan, bu boradagi barcha o'zgarishlarning mazmun-mohiyati ham inson va uning qadr-qimmatini ko'tarish bilan bog'liq. Holbuki, ushbu qadriyatlar asosida shakllangan jamiyat, mohiyatiga ko'ra, xalqaro talablarga, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi tamoyillariga mos keladi, ularning milliy darajada namoyon bo'lishi uchun imkon yaratadi"⁷.

Ijtimoiy taraqqiyot va barqaror rivojlanishni ta'minlashda inson hayotiy qadriyatlarini ulug'lash va yuksaltirish

jarayonlari jamiyatda yaratilgan quyidagi shart-sharoitlar bilan bog'liq:

- insonning jismoniy, ruhiy salomatligi, davlatning inson va millat salomatligi haqida yuqori darajada g'amxo'rlik qilishi, ona va bola salomatligi, reproduktiv jarayonlarni mukammal olib borish natijasida sog'lom avlod tarbiyasini amalga oshirish;

- jamiyatda ta'lim va tarbiya jarayonlarini tubdan isloh qilish, yuqori salohiyatga ega bo'lgan innovatsion insonni tarbiyalash, maktablar, oliy oquv yurtlari soni va shunga mos ravishda o'quvchilar va talabalar sonini ko'paytirish, kadrlar tayyorlash sifatini yuqori talablar asosida oshirish;

- inson huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini ulug'lash, fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash, aholining turmush sharoitlarini zamonaviy shart-sharoitlar va xalqaro standartlar asosida yaratib berish;

- ijtimoiy hayotga aholining kam ta'minlanlangan toifalari, kam daromadli insonlarni oilaviy va turmush shart-sharoitlarini yanada yaxshilashga qaratilgan dasturlarni ko'plab joriy etish.

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASI TUZILMASI

Elmira Kamariddinova Moydinova - tayanch doktorant, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'rgatadigan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning mazmun mohiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha tuzilmasi tahlil qilingan.

Аннотация: В данной научной статье рассматривается сущность формирования профессиональной компетентности педагогов, преподающих английский язык в будущих дошкольных образовательных организациях. Также была проанализирована структура будущих учителей английского языка в дошкольном образовании.

Abstract: This article discusses the essence of the formation of professional competence of future teachers who will teach English in preschool educational organizations. Also, the structure of professional competence of future pre-school English teachers was analyzed.

Kalit so'zlar: ingliz tili, kasbiy kompetensiya, maktabgacha ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kommunikativ kompetensiya, didaktik kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, maxsus kompetensiya

Ключевые слова: английский язык, профессиональная компетенция, дошкольное образование, будущий педагог, коммуникативная компетенция, дидактическая компетенция, личностная компетенция, специальная компетенция.

Keywords: english language, professional competence, preschool education, future teacher, communicative competence, didactic competence, personal competence, special competence

Yangi O'zbekistonda xorijiy tillarni jadal o'rgatish va o'rganish ijtimoiy ehtiyojga

⁷ Назаров К, Куронов М. ва бошқ. Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон. Т. "Ўзбекистон", 2010. -Б.4.

aylandi va davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ushbu masala yuzasidan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida e'tirof etilganidek, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga ma'sul bo'lgan jamiyat a'zolari, birinchi galda yoshlarda sog'lom e'tiqodni tarbiyalash, milliy qadriyatlarni e'zozlaydigan, o'z kasbini mohir ustasi bo'lgan malakali kadrlarni yetishtirish ziyolilar, ota-onalar, murabbiylar oldida jiddiy vazifalarni qo'yadi. Bunday ishlarni sifatli darajada ro'yobga chiqarishda, kelajak o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzu ilmiy-pedagogik tadqiq etilishidan oldin atamalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra mualliflik yondashuvi bo'lishini talab qiladi. Jumladan, "kompetensiya" tushunchasi keng qamrovli ma'noga ega bo'lib, uning mazmun va mohiyati turli soha olimlari tarafidan turlicha talqin qilinadi.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"ning talqinicha: "kompetensiya" (lot. Competo – erishyapman, munosibman, loyiqman) demakdir¹. Shunita'kidlash joizki, kompetensiya muammosi bo'yicha olib borilgan ishlarning tahlili shartli ravishda ta'limda yondashuvni shakllantirishning uch bosqichini belgilashga imkon beradi.

Birinchi bosqich – 1960-1970-yillarga to'g'ri kelib, unda "kompetensiya" toifasini ilmiy foydalanishga kiritish, kompetensiya/kompetentlik tushunchalarini farqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqich – 1970-1990-yillarni o'z ichiga olib, tilni (ayniqsa, chet tili) o'qitish nazariyasi va amaliyotida kompetensiya va kompetentlik toifalaridan foydalanish, hamda boshqaruv, menejment va muloqotni o'rgatishda kasbiylikni aniqlashdan iborat.

Uchinchi bosqich – 1990-yildan boshlab Rossiya mamlakatlarida ta'limga nisbatan kompetensiyani ilmiy kategoriya sifatida o'rganish alohida har tomonlama ko'rib chiqiladigan obyekt sifatida faoliyat yuritishi bilan ajralib turadi. Bu davrda YuNESKO materiallarida ta'limning istalgan natijasi sifatida qaralishi kerak bo'lgan bir qator kompetensiyalar paydo bo'la boshladi².

YuNESKO materiallarida ta'limning istalgan natijasi sifatida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan bir qator kompetensiyalar keltirilgan. XXI asr uchun ta'lim bo'yicha

xalqaro komissiyaning "Ta'lim: yashirin xazina" hisobotida Jak Delor (Jacques Delors) "ta'limga asos bo'ladigan to'rtta ustunni: mavjud bo'lishni o'rganish, bilishni o'rganish, qilishni o'rganish, birgalikda yashashni o'rganish" mohiyatida asosiy kompetensiyalarni belgilab berdi. Shunday qilib, Jak Delorning so'zlariga ko'ra ulardan biri – "nafaqat kasbiy malakaga ega bo'lish uchun, balki kengroq ma'noda turli xil vaziyatlarni yengish va ishlashga imkon beradigan kompetensiyaga ega bo'lishi mumkin"³. Yuqoridagi talqinga batafsil to'xtalib o'tsak, quyidagicha ma'no anglashiladi:

Learning to be (mavjud bo'lishni o'rganish) – shaxsga yo'naltirilgan kompetensiya bo'lib, me'yoriy va axloqiy munosabat, sadoqat, shaxsiy mas'uliyat, ijodkorlik qobiliyati, o'zini o'zi boshqarish, yordam berishga tayyorlik, o'rganishga hozirlik, tanqidiy fikrlash qobiliyati va boshqalarni o'z ichiga oladi;

Learning to know (bilishni o'rganish) – kasbiy kompetensiya ma'nosida bo'lib, u bilimga yo'naltirilganlik, tahliliy qobiliyat, o'qitish qobiliyati, konsepsiyalarni ishlab chiqish va boshqalarni o'z ichiga oladi;

Learning to do (qilishni o'rganish) – bu faoliyat kompetensiyasi bo'lib, unga tashabbus, rag'batlantirish, stressga dosh berish qobiliyati, topqirlik, narsalarni oxiriga yetkazish qobiliyati va boshqalar kiradi;

Learning to live together (birgalikda yashashni o'rganish) – ijtimoiy va kommunikativ kompetensiya bo'lib, unda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmasi, shaxsning muloqotga kirishish qobiliyati, tajriba-sinov qilishga intilishni, notiqlik mahorati, burch hissi va boshqalarni tavsiflaydi.

Shunday qilib, kompetensiyani talablar to'plami, deya tushunsa bo'ladi, kompetentlik esa muayyan kompetensiyani aniqlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish malakasidir.

Talabalarning ingliz tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi ularning ta'lim faoliyati jarayonida shakllanadigan kasbiy kompetensiyasi bilan belgilanadi. Shunday qilib, talabaning o'zi va uning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish kasbiy yo'naltirilgan ta'lim markazida turadi. Chunonchi, maktabgacha ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbga tayyorlashda ularning kasbiy kompetensiyasini va kreativligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi psixologik, pedagogik va fan sohasidagi

(kommunikativ, didaktik, shaxsiy, maxsus) kompetensiyalar yig'indisida ifodalanadigan shaxsning integrativ xususiyati hamda uning natijalari va sifati bilan namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyatga tayyorligi tushuniladi. Shuning uchun biz maktabgacha ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tarkibida kommunikativ, didaktik, shaxsiy va maxsus kompetensiyani ajratib ko'rsatamiz (1-rasmga qarang).



1-rasm. Maktabgacha ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tuzilmasi

Yuqorida keltirilgan rasmda, maktabgacha ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasining tuzilmasida ko'rsatilgan dastlabki tarkibiy asos kommunikativ kompetensiya bo'lib, unda ingliz tilida bemalol o'z fikrini namoyon etish, ravon suhbatlashish qobiliyatini belgilaydi. Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan ingliz tilining bilim, ko'nikma va malakalari tizimi ularning ta'lim faoliyati jarayonida shakllanadigan kasbiy kompetensiyasi bilan belgilanadi. Shunday qilib, kasbga yo'naltirilgan ta'lim markazida talabaning o'zi va uning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish turadi. Chet tili bo'yicha kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi ushbu mutaxassislik bitiruvchisi oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng ega bo'lishi kerak bo'lgan kasbiy kompetensiyalar majmuasi bilan belgilanadi⁴.

Ikkinchisi didaktik kompetensiya bo'lib, unda ingliz tilida dars o'tish, dars jarayonini texnologik loyihalash, o'rganuvchiga ta'lim-tarbiya berish qobiliyati nazarda tutiladi.

Keyingisi shaxsiy kompetensiya bo'lib, unga ko'ra xatti-harakatini boshqarish, his-tuyg'ularini nazorat qilish, stressga bardoshlilik, shaxs sifatida rivojlanish qobiliyatiga ega bo'lishdir.

Navbatdagisi esa, maxsus kompetensiya bo'lib, unda kasbiy-pedagogik faoliyatni shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'qitish qobiliyati shakllanadi.

So'ngisi esa AKT kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda maktabgacha ta'lim o'qituvchisining pedagogik va metodik qobiliyatlarini rivojlantirishning mavjudligi: o'quv-metodik materiallarini tanlash va yaratish qobiliyati; maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda maqbul shakllari, metodlari va vositalarini topish; o'quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) erkin egalik qilish va ulardan kasbiy faoliyat jarayonida foydalanishni nazarda tutadi. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi zamonda AKT texnologiyalari o'quv jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Dasturiy va uslubiy ta'minotni takomillashtirishda hamda uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlari professor-o'qituvchilarining malaka oshirishida zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'limda muvaffaqiyatli foydalanish yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning AKT kompetensiyasi rivojlangan bo'lishi, o'quv jarayonida samarali foydalanishiga zamin bo'ladi.

Tuzilmani ishlab chiqish jarayonida biz bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishlashga tayyorlash bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida professional kadr bo'lishning yaxlit, murakkab, uzluksiz va bosqichma-bosqich namoyon qilishga e'tibor qaratdik.

Xulosa qilib aytganda, biz maktabgacha ta'limda bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi deganda, uning zamonaviy jamiyatdagi rolini anglash, maxsus va bir-biriga yaqin sohalarda yuqori darajadagi bilimi, nazariy bilimlar va amaliy pedagogik mahoratlar va ko'nikmalarga ega bo'lishi, tanlangan kasbga nisbatan ijodiy va hissiy munosabati, bolalar bilan samimiy muloqot qilishi va ishlashi, shuningdek, mustaqil ta'lim olishi va o'z-o'zini takomillashtirishga doimiy intilishi bilan tavsiflanishini deb tushunamiz.

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti, – T.: 2008. 8 tom. B-26.

² Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования // Интернет-журнал "Eydos". – 2006.

³ Keevy, James. "Level-setting and recognition of learning outcomes: the use of level descriptors in the twenty-first century." (2015). P. 203.

⁴ Moydinova E. DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE // Scienceweb academic papers collection. – 2021.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA KORPUSGA ASOSLANGAN RESURSLARNING TASNIFI

Mehriniso Qilichevna Toshpo'latova -tayanch doktorant, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola korpusga asoslangan yondashuvdan dars jarayonida qo'llashga qaratilgan bo'lib, asosan ingliz tili o'qituvchilari uchun korpusga asoslangan mashqlarni tuzish, korpus materiallaridan foydalanish va korpusga asoslangan bir qator adabiyotlar va ularning tavsiflari keltirilgan. Maqolaning asosiy maqsadi ingliz tili o'qituvchilari uchun korpusdan foydalanishda yangi va kerakli adabiyotlarni o'qitish materiali sifatida tavsiya etishga qaratilgan.

Аннотация: Данная статья посвящена исползованию корпусного подхода в учебном процессе и в основном включает в себя создание корпусных упражнений для учителей английского языка, исползование корпусных материалов, а также серии корпусной литературы и их описания. Основная цел стати для учителей английского языка направлена на рекомендацию новой и необходимой литературы в качестве учебного материала при исползовании корпуса.

Abstract: This article focuses on the use of the corpus-based approach in the teaching process, and mainly includes the creation of corpus-based exercises for English teachers, the use of corpus materials, and a series of corpus-based literature and their descriptions. The main purpose of the article is for English teachers. focused on recommending new and necessary literature as teaching material in the use of the corpus.

Kalit so'zlar: korpus, korpus lingvistikasi, korpusga asoslangan adabiyotlar, mashqlar, topshiriqlar.

Ключевые слова: корпус, корпусная лингвистика, корпусная литература, упражнения, задания.

Keywords: corpus, corpus linguistics, corpus-based literature, exercises, assignments.

Korpus lingvistikasi keng ma'noda tildan foydalanish va o'zgaruvchan emperik tadqiqotga yo'naltirilgan tadqiqot metodologiyasi bo'lib, tilga oid umumlashgan va haqiqiylikka ega bo'lgan natijalarni beradi. Korpus va korpusga asoslangan yondashuv so'ngi o'ttiz yilda tilning tizimli, emperik va yuqori chastotali yondashuv ekanligini ko'rsatdi¹. Korpusga asoslangan yondashuv ingliz tilini o'qitishda qo'llanilganda uslubiy jihatdan o'quvchilarga tegishli va mazmunli ma'lumotlarni, ingliz tili lug'ati va grammatikasining haqiqiy kontekstlarda ishlatilgan namunalarini taqdim etadi.

Korpusga asoslangan yondashuv o'quv texnologiyalari, ta'lim kompyuter va turli onlayn resurslardagi innovatsiyalarni birlashtiradi, ular sinf ichida va tashqarisida til o'rganishda turlicha qarashlarni kiritishga yordam beradi, bu yondashuv "an'anaviy" pedagogik modellardan farq qiladi.

Korpus yondashuvi o'quv texnologiyalari,

ta'lim kompyuterlari va turli onlayn resurslardagi innovatsiyalarni birlashtiradi, ular sinf ichida va tashqarisida til o'rganishga turlicha qarashlarni kiritishga yordam beradi, bu yondashuv "an'anaviy" pedagogik modellarda qabul qilinganlardan biroz farq qiladi.

1990-yillarning o'rtalaridan boshlab ingliz tili darslarida korpusga asoslangan yondashuvni qo'llagan o'qituvchilar soni keskin o'sdi, buning sababi TaLC va TESOL kabi yirik xalqaro konferensiyalarni o'tkazilishi tasdiqlaydi. Ushbu konferensiyalarda chop etilgan maqolalarda korpusga asoslangan yondashuvdan foydalanish bo'yicha yangiliklar taqdim qilingan.

S.Conrad, R.Reppen va E.Friginallar ta'kidlaganidek, korpusga lingvistikasi bo'yicha ma'lum bir tayyorgarlikdan o'tgan ko'plab o'qituvchilar hali ham ishonchsizlik, vaqt cheklovlari, dolzarb savollar va talabalarni korpusga asoslangan markazlarga muntazam ravishda yo'naltirishdagi qiyinchiliklar kabi

1 Biber, D., Reppen, R., & Friginal, E. Research in corpus linguistics. In R. B. Kaplan (Ed.), *The Oxford handbook of applied linguistics* (2nd ed.). - Oxford, UK: Oxford University Press, 2010 - pp. 548-570.

sabablarga ko'ra sinfda korpusga asoslangan faoliyatdan muntazam foydalanmaydilar². Shuningdek ko'plab o'qituvchilar korpus lingvistikasi vositalari va dasturlarining aksariyati bilan tanish emaslar. 1990-yillarda ingliz tili o'qituvchilari korpusga asoslangan yondashuvdan foydalanmagan.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu kitobning muhim maqsadi hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan korpus ling va til o'rgatuvchi darsliklar va resurslarning soni cheklangan bo'lsa-da, yangi nashrlari ko'paymoqda. Shuningdek, korpusga asoslangan yondashuv borasida chegaralangan ma'lumotga ega bo'lgan, o'qituvchilarga kerakli manbalarni joriy etish va undan foydalanishni o'rgatish va ingliz tilini o'qitishda integratsiya qilishdir.

So'nggi 10 yil ichida taniqli korpus tilshunoslari tomonidan asosan sinf o'qituvchilari uchun yozilgan bir nechta "sinf tili korpus" darsliklari mavjud edi. Shuningdek, korpus lingvistikasi va tilni o'rgatish va o'rganishni o'z ichiga olgan amaliy mavzularga bag'ishlangan ba'zi bo'limlar yoki bo'limlar bilan umumiy holda korpus lingvistikasi bo'yicha darslik muolajalari mavjud. O'qituvchilarga turli ilovalar va korpus lingvistikasi uchun kitoblarni til o'rganuvchilarga quyidagi manbalar taklif qilingan.

1. O'Keeffe, A., McCarthy, M. & Carter, R. (2007). *From corpus to classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.

From corpus to classroom - bu sinfda mavjud bo'lgan korpus tadqiqotlarini jamlagan yana bir tavsiya etilgan manba (2007-yilgacha). O'Keeffe, A., McCarthy, M. & Carter, R korpusni qanday rivojlantirish mumkinligini va o'qituvchilar va tadqiqotchilarga til o'rganish haqida nima deyishlarini tushuntiradilar. Kitob "Ingliz tili uchun asosiy, kundalik lug'at bormi?", "Idiomalarni qanday o'rgatish kerak?", "Eng keng tarqalgan og'zaki til bo'laklari nima?" kabi asosiy savollarga javob berishga mo'ljallangan³.

2. Anderson, W. & Corbett, J. (2009). *Exploring English with online corpora*. New York: Palgrave Macmillan.

Ushbu kitob o'quvchilarni mavjud elektron resurslar va o'qituvchilarni korpusdan sinfda qanday foydalanishlari mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek atamalar glossariysi, mavzular, interaktiv topshiriqlar va mustaqil

o'qish uchun topshiriqlar berilgan⁴.

3. Conrad, S. & Biber, D. (2009). *Real grammar: A corpus-based approach to English*. New York: Longman.

Realgrammar50 grammatikstrukturaning nutq va yozishda qanday ishlatilishini ko'rsatish uchun "korpus tadqiqotlari va korpusga asoslangan taqqoslash ma'lumotlariga bevosita asoslanadi". Men ushbu kitobni ingliz tili o'qituvchilari uchun tavsiya qildim darajalar, ayniqsa, materiallarni ishlab chiqishga qiziquvchilar, shu jumladan grammatika darsliklari yozuvchilari. Shuningdek, bu qanday qilib haqiqiy grammatikani to'g'ridan-to'g'ri zarur modal fe'llar darsiga kiritish mumkinligini qisqacha tasvirlaydi⁵.

4. R.Reppen (2010). *Using corpora in the language classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.

Businfo o'qituvchisi uchun maxsus yozilgan korpus va til o'rgatish bo'yicha shakllantiruvchi nashrlardan biridir. Reppen o'qituvchilar sinfning turli ehtiyojlarini qondirish uchun sinf materiallari va tadbirlarni yaratish uchun korpusdan qanday foydalanishi mumkinligini tushuntiradi va ko'rsatadi. Uning maqsadi aniq va oddiy tushuntirishlar, ko'rsatmalar va misollar keltirish orqali CLni "aniqlash" edi. Kitob o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan asosiy bilimlar, vositalar va ko'nikmalarni taqdim etadi⁶.

5. Bennett, G. (2010). *Using corpora in the language learning classroom*. Michigan: University of Michigan Press.

Ushbu kitobda G.Bennet korpusga asoslangan yondashuv o'qituvchilar uchun g'oyalar, ko'rsatmalar, va namunalardan foydalanish imkoniyatlarni taqdim qilish, korpus vositalarini moslashtirish va amaliy tavsiyalar berilgan. Turli til ko'nikmalarini o'qitish uchun korpusga asoslangan mashqlar taqdim etilgan. Ta'kidlash joizki: Bennet kompyuter yordamida xatolarni tahlil qilish uchun TextSTAT dasturiy ta'minotidan foydalanish bo'yicha bosqichma-bosqich qo'llanmani, xatolarni belgilash va talabalarning akademik yozuvlarida xatolarni o'rganishda foydalanish uchun xatolarni belgilash kodlari tavsifi haqida ma'lumot beradi⁷.

6. Cheng, W. (2012). *Exploring corpus linguistics: Language in action*. New York: Routledge. CL ning amaliy

2 Conrad, S. Will corpus linguistics revolutionize grammar teaching in the 21st century? *TESOL Quarterly*, 2000.34(3), 548-560, Friginal, E.(2013a). 25 years of Biber's multi-dimensional analysis: Introduction to the special issue. *Corpora*, 8(2), 2013. - 137-152., Reppen, R. *Using corpora in the language classroom*. - Cambridge, UK.: Cambridge University Press., 2010.

3 O'Keeffe, A., McCarthy, M., & Carter, R. *From corpus to classroom*. - Cambridge, UK.: Cambridge University Press., 2007.

4 Anderson, W. & Corbett, J. *Exploring English with online corpora*. - New York: Palgrave.: Macmillan., 2009.

5 Conrad, S. & Biber, D. *Real grammar: A corpus-based approach to English*. - New York. Longman. 2009.

6 Reppen, R. *Using corpora in the language classroom*. - Cambridge, UK.: Cambridge University Press., 2010.

7 Bennett G. *Using corpora in the language learning classroom*. Michigan: University of Michigan Press, 2010.

jihatlari Cheng tomonidan ushbu kitobda keltirilgan bo'lib, bitta bobda "ma'lumotlarga asoslangan va korpusga asoslangan tilni o'rganishga bag'ishlangan". Ushbu bobda talabalarga ma'ruzalar sifatini baholash mezonlari to'plami bilan tadqiqot hisobotlarini tayyorlashga olib keladigan (og'zaki va yozma) loyihalarni o'tkazishda g'oyalar beriladi. Amaliy mashg'ulotlar va amaliy tadqiqotlar, shu jumladan maxsus vazifalar bo'yicha muallifning sharhi taqdim etiladi⁸.

7. Flowerdew, L. (2012). *Corpora and language education*. New York: Palgrave Macmillan.

Flowerdew korpus lingvistikasining asosiy tushunchalari va muammolarini tanqidiy tekshirishni ta'minlaydi, bu sohaning fanlararo tabiatiga va yozma va og'zaki korpuslarning ushbu turli fanlarda o'ynaydigan roliga e'tibor qaratadi. Korpus lingvistikasi tadqiqotida markaziy mavzular va eng yaxshi amaliyotlarni ko'rsatish uchun korpusga asoslangan amaliy tadqiqotlar taqdim etiladi. "Ilova" bo'limida o'qitish maydonlarida korpus lingvistikasi muhokama qilinadi, korpusning pedagogik ahamiyati o'rganiladi⁹.

8. Timmis, I. (2015). *Corpus linguistics for ELT: Research and practice*. New York: Routledge

Timmis tajribali til o'qituvchisi bo'lib, bu kitobni sinfda korpusdan foydalanish bo'yicha qulay, amaliy kirish sifatida ishlab chiqdi. Bu yerda asosiy e'tibor pedagogikaga ma'lumotlarga boy yondashuv va chastotaga asoslangan ma'lumotlar sinfda samarali o'qitishga qanday hissa qo'shishini

ta'kidlashdir¹⁰.

9. Liu, D. & Lei, L. (2017). *Using corpora for language learning and teaching*. Annapolis Junction, MD: TESOL Press.

Liu va Lei o'quvchilardan: "Siz o'z sinfingizda korpusdan qanday foydalana olasiz?" deb savol so'ragan. Sinf darsliklarida CL ga kiritilgan eng yangi qo'shimchalardan biri sifatida ushbu kitob bugungi kun o'qituvchilarining "grammatika kabi ingliz tilining turli ko'nikmalarini o'rgatish uchun korpusdan foydalanish bo'yicha bosqichma-bosqich amaliyotga kirishish"ga bo'lgan ehtiyojlariga javob beradi. lug'at va ingliz tilidagi akademik yozuv. Mualliflar korpusni qidirish va o'qitishning asosiy protseduralari va faoliyati, shu jumladan til o'rgatish va tadqiqot maqsadlari uchun korpusni qanday tuzish bo'yicha ko'rsatmalarni muhokama qiladilar¹¹.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan manbalar ingliz tili o'qituvchilariga zarur materiallarni taqdim qiladi. Bir nechta yirik jurnallarda (xususan, Computer Assisted Language Learning, ReCALL, Language Learning & Technology, System va CALICO Journal) ko'p ilmiy nashrlarni taqdim qilgan. Ko'pgina maqolalar konferensiya to'plamlarida nashr etilgan. Kelgusi maqolalarda batafsil to'xtalamiz. Yuqorida ingliz tilini o'qitishda foydalaniladigan eng nufuzli manbalar keltirilgan. Xronometraj manbalarda to'rtta asosiy kategoriya hisobga olinadi: nazariy asoslar, ta'riflovchi manbalar, emperik tadqiqotlar, Tadqiqotlar va sintezlar¹². Chunki ma'lumotlarga asoslangan tadqiqot uchun umumiy dastur mavjud emas.

EMOTSIONAL-EKSPRESSIV FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVISTIK ASOSLARI

Mashxura Muxammatovna Xamrakulova - magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada emotsional-ekspressiv bir til doirasida emotsional konseptlarning milliy o'ziga xosligini yaqqolroq ko'rsatish ham leksik birliklarni ham frazeologik birliklarni yaxlitlikda o'rganishni taqozo qilishi dolzarb masala ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: В статье идёт речь об актуальности изучения своеобразных национальных эмоциональных концептов в едином язычном кругу развития и лексических, и фразеологических единиц эмоционально-экспрессивного характера

Abstract: The article deals with the relevance of the study of lexical, peculiar national emotional concepts in a monolingual circle of development and Phraseological units emotionally expressive.

Kalit so'zlar: emotsional-ekspressiv, konsept, leksik birliklar, frazeologik birliklar, lingvofalsafiy, psixologiya, nutqining hissiy tabiati.

Ключевые слова: эмоционально-экспрессивные, лексические единицы, фразеологические единицы, лингвофилософские, психология, эмоциональность речи.

Keywords: emotionally units, expressive, lexical Phraseological units, linguo-philosophical, psychology, emotionality of spe.

Frazeologik birliklarning hissiy-emotsional va ekspressiv xususiyatlari yetarlicha o'rganilgan emas. Insonning his-tuyg'ulari va hissiyotlari, lingvopoetik, lingvofalsafiy hodisa bo'lib, obyektiv haqiqat, atrofimizdagi muhit inson hissiyotlarining asosiy manbai hisoblanadi. Inson real olamni turlicha idrok etadi va his qiladi, chunki u nafaqat tafakkurda, balki barcha his-tuyg'ular bilan ham o'zining obyektiv olamida mavjudligini ta'kidlaydi va e'tirof etadi.

Inson hayotining o'zi turli his-tuyg'ularning namoyon bo'lishi bilan bog'liq, chunki inson his-tuyg'ularisiz hech qachon haqiqatni topmagan va topa olmaydi. Inson his-tuyg'ulari psixologiya va falsafaning yetakchi o'rganish obyektidir. Til esa inson hissiyotlarini aks ettirish vositasidir. Tilshunoslar hissiyotlarni tilning semantik tizimida aks etishi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Til birliklarining emotsionalligi va ekspressivligi muammolari tilshunoslik fanida eng munozarali va murakkab sohadir.

Lingvistik emotsionallikni Y.M.Galkina-Fedoruk ekspressivlikka nisbatan torroq tushuncha, yaxlitlikka nisbatan qism sifatida, shu bilan birga, haqiqatga munosabat sifatida qaraydi. Inson nutqining hissiy tabiati har qanday til so'zlarining ma'nosida aks etadi, emotsionallikni voqelikka munosabat va

tinglovchiga hissiy ta'sir sifatida tushunish mumkin.

Emotsionallik va ekspressivlik hodisalari bir-biridan ajralmasdir. Biro'rinde emotsionallik, ikkinchisida ekspressivlik, uchinchisida emotsionallik yetakchi pozitsiyalarga ega bo'lishi mumkin, shu sababli birinчисini ekspressiv, ikkinчисini - emotsional, uchinчисini emotsional-ekspressiv deb atash maqsadga muvofiq. Tuyg'ular - bu psixologik jarayon, bu insonning narsalarga va voqea hodisalarga munosabatidir¹. Bu munosabat nutqda quvonch, qayg'u, g'azab, nafrat shaklida amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, konnotatsiya frazeologik birliklarning emotsional ekspressiv, baholovchi va uslubiylikni ifoda etadigan frazeologik ma'noning muhim elementidir. Emotsional konsept bir til doirasida emotsional konseptlarning milliy o'ziga xosligini yaqqolroq ko'rsatish ham leksik birliklarni ham frazeologik birliklarni yaxlitlikda o'rganishni taqozo qiladi. Emotsional kechinmalarning bevositaligi yoki his-holat (aqlidan ozmoq, yuragi qon bo'lmoq) va subyektning obyektga munosabati yoki his-munosabat (jon dilidan yaxshi ko'rmoq, xayoldan ketmadi, yurakka yaqin olmoq). Ichini mushuk tatalayapdi frazeologizmi insonning muayyan psixoemotsional holati, qayg'u

⁸ Cheng, W. *Exploring corpus linguistics: Language in action*. New York: 2012.

⁹ Flowerdew, L. *Corpora and language education*. - New York.: Palgrave Macmillan.2012.

¹⁰ Timmes, I. *Corpus linguistics for ELT: Research and practice*. - New York, NY.: Routledge.2015.

¹¹ Liu, D. & Lei, L. *Using corpora for language learning and teaching*. Annapolis Junction, MD: TESOL Press. 2017.

¹² E. Friginal. *Corpus Linguistics for English Teachers: New Tools, Online Resources, and Classroom Activities*. Routledge, 2018. xvi + 349 pp.

¹ Слышкин Г.Г. *Лингвокультурные концепты прецедентных текстов*. - М.: Academia, 2000. -141 с

holatini anglatadi.

Konsept voqelikni kategoriyalashtiradi va voqelikni mantiqiy-tushunchaviy asosda o'rganib, olam haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi obyekt, borliqdagi hodisa va obyektlar haqidagi tafakkur-tushunchani ifodalaydi. Psixologik yondashuv, kulturologik yondashuv, integrativ yondashuv konseptlarni lingvistik, kognitiv, kulturologik, sotsiologik nuqtayi nazarlardan o'rganishga imkon beradi. Buning natijasida hodisaning eng ko'z ilg'amas qatlamlarni ham ochib berish imkoni tug'iladi.

So'nggi yillarda frazeologiya masalalariga bag'ishlangan lingvistik tadqiqotlarda frazeologik birliklarning hissiy va ekspressiv mohiyati masalasi tobora ko'proq ilmiy tahlil bahsiga aylanmoqda. Frazeologik birliklarning emotsional-ekspressiv imkoniyatlariga qiziqish bejiz emas, chunki frazeologik birliklar o'zlarining tabiati bilan til jarayoniga hissiy-emotsional, hissiy-ekspressiv aloqa jarayonini boyitish funksiyasiga ega lingvistik birlik sifatida shakllangan. Turli tillardagi frazeologizmlarni o'rganish sezilarli darajada rivojlangan va ushbu istiqbolli ilmiy sohaning turli nazariy jihatlarini bo'yicha ko'plab yangi qarashlar paydo bo'lgan bo'lsa-da, shuni ta'kidlash kerakki, badiiy asarlar tarkibida frazeologik birliklardan foydalanish masalasi shu paytgacha hissiy-emotsional va ekspressiv tarzda yetarlicha o'rganilgan emas². Ushbu muammo frazeologiya, stilistika va boshqa lingvistik fanlar uchun katta qiziqish uyg'otadi.

Til birliklarining emotsional va ekspressiv ma'nolari notiqning tuyg'usi va uning atrofdagi voqelikka munosabati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu munosabat bilan atrofdagi haqiqatni idrok etish bilan bog'liq bo'lgan inson faoliyati emotiv hissiyotlar ishtirokisiz mumkin emas

V.G.Gak tilning hissiy va ekspresiv imkoniyatlari to'g'risida nazariy qoidalarni ishlab chiqib, quyidagi xulosaga keladi: «Inson nutqining hissiy tabiati har qanday til so'zlarining ma'nosida aks etadi Turkiyshunoslikda ham, o'zbek tilshunosligida ham hanuzgacha emotsional-ekspressiv frazeologizmlarga bag'ishlangan maxsus ishlar kamchilikni tashkil etadi. A.Mamatovning "O'zbek tilida emotsional-ekspressiv, baho-munosabat ifodalovchi frazeologizmlarning semantik-stilistik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi shular jumlasidandir.

O'zbek tilshunosligida o'zbek tilining emotsional-ekspressiv so'zlari muayyan

darajada o'rganilgan. O'zbek tilining emotsional - ekspressiv leksik qatlami tavsiflandi, ulardan uslubiy maqsadlarda foydalanish masalalari yoritib berildi. Emotsional-ekspressivlik lingvopoetik vosita sifatida tavsiflanib tilda emotsionallik doimo ekspressivlik ekanligi e'tirof etiladi, shuning uchun emotsional-ekspressivlik atamasidan foydalanish ta'kidlanadi.

Nutqning emotsionalligi bu nafaqat tinglovchining aql-idrokiga ta'sir qiladigan va balki uning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladigan va undagi ma'lum tuyg'ularni uyg'otadigan fazilatlaridir. Emotsionallik nutqning maxsus hissiy "semantikaga" ega bo'lgan so'zlar va iboralar (sevgi, nafrat), balki turli xil vositalar, so'zlardan, so'z birikmalaridan yoki sintaktik konstruksiyalardan mohirona va o'rinli foydalanish orqali yaratiladi.

Tuyg'ular - bu psixologik jarayon, bu insonning narsalarga va voqea hodisalariga munosabatidir. Bu munosabat nutqda quvonch, qayg'u, g'azab, nafrat shaklida amalga oshiriladi. Tilshunos olimlarning yuqoridagi fikrlari ekspressivlik va emotsionallik inson nutqini obrazli, rang-barang va ifodali qiladigan vositadir degan xulosaga kelish uchun to'liq asos beradi.

Hissiy bahoni ifodalashning lisoniy vositalari orasida asosiy o'rinlardan biri insonning his-tuyg'ulari va hissiyotlarini ifodalaydigan frazeologik birliklarga tegishli. Ko'rinib turibdiki, so'nggi paytlarda hissiy jihatdan baholanadigan frazeologik birliklar, ularning tematik-semantik guruhlarini, tarixiy shakllanishi va funksional ishlatilishi tadqiqotchilarni tobora ko'proq jalb qilayotganligini ta'kidlash lozim.

Frazeologizmlar hissiyotlar va shaxs holatlarini ifodalashning lingvistik tizimda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi, chunki frazeologik birliklar o'zlarining mohiyatiga ko'ra potensial hissiy va ekspressiv-modal ma'noga ega. Shu nuqtayi nazardan, eng adolatli narsa A.V.Kuninning "frazeologik birliklarga xos bo'lgan voqelik, narsalar va hodisalarning emotsional-ekspressiv xarakteristikasi, ularning nominativ xususiyatlarini istisno qilmaydi, balki unga faqat ma'lum uslubiy yo'nalish beradi³" degan fikri o'rinlidir. Badiiy asarlar tarkibida emotsional-ekspressiv va baholovchi frazeologik birliklar asarning g'oyaviy, badiiy va semantik yo'nalishini, ularning umumiy mazmun - mohiyati va uslubiy rang-barangligini belgilaydi.

Emotsional-hissiylik, ekspressivlik, baho-munosabat, uslubiylik zamonaviy o'zbek tilining ko'plab frazeologik birliklariga xosdir. Jumladan, boshi osmonga yetdi, ko'ngli tog'day ko'tarildi, sevinchi ichiga sig'maydi, do'ppisini osmonga otmoq va b. insonning holati, quvonch, zavq kabi bir qator hissiyotlarini ifodalaydi. Ko'zlari qinidan chiqib ketdi, ko'ziga qon to'ldi, tepa sochi tik bo'lib ketdi va b. shaxsning g'azablanish, noroziligi hissiy holatini ifodalaydigan frazeologik birliklardir.

Frazeologik birlikning semantik tarkibida konnotativ ma'noning bir nechta tarkibiy qismlari mavjud bo'ladi. Birinchidan, har bir frazeologik birlik insonning emotsional-ekspressiv hissiyotlarini ifoda etishda ma'lum darajada emotsionallikka ega. Ikkinchidan, ular baho munosabat qiymatga ega, chunki ular ijobiy va salbiy baholarni ifodalaydi. Uchinchidan, frazeologik birliklar ekspresiv ma'no tufayli u yoki bu darajada butun gapning ma'no qudratini oshiradi. To'rtinchidan, har bir frazeologik birlik ma'lum funksional uslubda ishlatiladi. Nutqga emotsionallik, ekspressivlik berish, frazeologik birliklar turli xil emotsional baholarini namoyon bo'lishiga yordam beradi. Frazeologik birliklarni ularni boshqa leksik ekvivalentlar bilan taqqoslash jarayonida nutqda hissiy va ekspressiv foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy nutqdagi frazeologizmlarning emotsionalligi frazeologik birliklarning lisoniy ma'nosida, shu o'ziga xoslikni hisobga olgan holda, frazeologik birliklarning kontekstual ishlatilishi natijasida paydo bo'ladigan hissiy rang-baranglikni ochib beradigan frazeologik birliklarni tahlil etish muhimdir. Emotsional va ekspressiv xususiyatlari frazeologik birliklarning lisoniy ma'nosiga singdirilganligi ma'lum uslubiy maqsadlarga erishish maqsadida keng qo'llaniladi.

Hozirgi o'zbek tilida frazeologik iboralar insonning hissiy holatini ifodalaydi: og'zi qulog'iga yetdi, terisiga sig'may ketdi, qo'yi mingga yetdi, quvonchi olamga sig'maydi va b. O'zbek tilidagi ushbu frazeologik-semantik guruh odamning quvonish, quvnoq holatini ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday frazeologik birliklarning leksik ekvivalenti - quvonch leksemasidir.

Boshqa bir frazeologik-semantik guruh shaxsning g'azablanish, norozilik hissiy holatini ifoda etadi: ko'zlarining paxtasi chiqdi, g'azabi qaynadi, ko'zi qonga to'ldi,

tepa sochi tik bo'lib ketdi kabilarning leksik ekvivalenti g'azablanish, g'azablangan so'zlaridir. Ajablanish, sarosimaga tushish holatini ifodalaydigan frazeologik-semantik guruhni ajratib ko'rsatish mumkin: og'zi ochilib qolmoq, yoqasini ushlamoq, ko'zi olma-kesak termoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi frazeologik birliklarning leksik ekvivalenti ajablanmoq leksemasidir.

Kuzatishlar ko'rsatib turibdiki, insonning hissiy holatini ifodalaydigan frazeologik birliklar, ularning uslubiy maqsadi, ekspressivligi va emotsional-hissiyoligi jihatidan, tegishli leksik ekvivalentlar bilan taqqoslaganda ma'noni kuchli va obrazli ifodalashini kuzatish mumkin⁴.

Yuqoridagi ta'kidlab o'tilganidek, frazeologik birliklardan foydalanishda emotsionallik va ekspressivlikning namoyon bo'lishini ularning lisoniy ma'nolaridan izlash kerak. Frazeologik birliklarning semantik tarkibida emotsionallik va ekspresivlikning mavjudligi bir vaqtning o'zida frazeologik birliklar ma'lum uslubiy maqsadda ishlatiladigan nutq predmeti va obyektiga ijobiy yoki salbiy munosabatni⁵ xarakterlaydi.

Har qanday tilning frazeologiyasini o'rganishda frazeologik birliklarning obraz, emotsionallik, ekspresivlik, uslubiy bo'yoqdorlik va baholash kabi xususiyatlarini anglash ahamiyatlidir. Yuqoridagi xususiyatlardan o'zbek tilining ko'plab frazeologik birliklariga xos bo'lgan frazeologik birliklarning baholash qobiliyati alohida ahamiyatga ega.

Tilshunoslik adabiyotida shaxsga berilgan sifatli bahoni ifoda etadigan frazeologik birliklarning baholash xususiyatiga alohida e'tibor beriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, umuman olganda, frazeologiya inson faoliyati sohasini, uning his-tuyg'ulari va hissiyotlarini ifodalashga xizmat qiladi, shuning uchun frazeologiyada odamlarning turli xil his-tuyg'ularini, ularning aqliy va psixofizik holatini, inson xarakterining ba'zi xususiyatlariga, uning xulq-atvoriga berilgan baholash xususiyatlarini aks ettirishi tabiiydir.

Frazeologik ma'nolarning kategorial va semantik ma'nolari farqlanadi. Kategorial ma'no frazeologik birliklarning grammatik ma'nosi tushuniladi, bir-biriga semantik jihatdan aloqasi bo'lmagan va umumiy elementga ega bo'lgan frazeologik birliklarda nazarda tutiladi. Frazeologik birliklarning semantik ma'nosi shaxsga yoki obyektga nisbatan barqaror hamda ijobiy yoki salbiy xususiyatni, nominantni ifodalaydi.

² Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. Doktorlik diss. ...avtoreferati. - Toshkent, 2000

³ Кунин А.В. Теория фразеологии Шарля Балли. -М.: Иностранные языки в школе, 1966, № 3.

⁴ Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов. - М.: Academia, 2000. -141 с

⁵ Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. Учебное пособие. -Минск, 2004. - 255 б

O'zbek tilida dali-g'uli, bir qop yong'oq, aplotun miya, labidan bol tomadi, yuragi daryo, dili ochiq, ko'ngli keng shaxsning ijobiy fazilatlarini, xarakterini ifodalaydi, shu bilan birga so'zlovchining nutq mavzusiga ijobiy hissiy-emotsional munosabatini ham bildiradi. Shuningdek, bez bo'lib turmoq, sirkasi suv ko'tarmaydi, tirnoq orasidan kir izlamoq, it emgan, ilonning oyog'ini yalagan va boshqalar so'zlovchining nutq mavzusiga salbiy hissiy munosabatini ifodalaydi. Ushbu frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, tabiiyki, hissiylik, ekspresivlik va baholash xususiyatlarini o'z ichiga oladi⁶, shuning uchun, bizning fikrimizcha, bunday frazeologik birliklarni emotsional-baho frazeologik birliklardir.

Til birliklari ma'nosining konnotativ tomoni - bu ma'nolarning uslubiy tomoni, uning tarkibiy qismlari lisoniy birlik ma'nosining signifikativ va denotativ ma'nolariga hamroh bo'lgan ma'nosi nazarda tutiladi. Konnotatsiyaning beshta tarkibiy qismi ajratiladi: motivatsion, emotsional-ekspresiv, baholovchi, funksional-uslubiy va obrazli komponent. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, obrazlilik frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlaridan biridir, chunki frazeologik birliklarning aksariyati majoziy asosda vujudga keladi. Ushbu obyektiv sababni hisobga olgan holda, tasvirning tarkibiy qismlarini, bizning fikrimizcha, ma'noning denotativ tomoniga

bog'lash kerak.

Agar tilda emotsionallik atrofimizdagi moddiy olam dalillaridan kelib chiqadigan turli xil tuyg'ularni: quvonch, qayg'u, qo'rquv, tajriba, qayg'u, tahdid va boshqalarni bildirsa, ekspresivlik nutqning ekspresivligi va tasvirini kuchaytiradi. Ta'kidlanganidek, emotsiya har doim ekspresiv va baho-munosabatdir, aksincha emas. Shuni tan olish kerakki, emotsionallik har doim, har qanday sharoitda ham ekspresivlik bilan dialektik aloqada bo'ladi, garchi ekspresivlik tilda emotsionallikdan kengroq tushuncha bo'lsa ham.

Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, lingvistik-stilistik kategoriya sifatida baho shaxsning obyektga nisbatan obyektiv-subyektiv yoki subyektiv-obyektiv munosabati, lisoniy vositalar bilan eksplitsit yoki implitsit tarzda ifodalanadi. Aynan frazeologik birliklar ruhiy holatni, hissiy tajribani va insonning turli xil his-tuyg'ularini (hayrat, zavq, quvonch, ajablanish, hayrat, g'azab, bezovtalik, qayg'u, befarqlik, qo'rquv, qo'rquv, g'azab, nafrat va h.k) ifodalaydi. Barqaror birliklarning obrazli-majoziy asosining o'ziga xosligini belgilaydi. Hissiy frazeologik birliklar badiiy asarlar mavzusini, badiiy qahramonlarning obrazli xususiyatlarini ochishda muhim o'rin tutadi. Ular badiiy asar poetikasining umumiy foniga hissiy mazmun va ekspresiv jihatdan boyitadi.

⁶ Croft W., Cruse D. Alan. *Cognitive linguistics*. Cambridge University Press, 2004. - 356 p.



Jurnalning xalqaro ISSN raqami : 2181-6131
Jurnalning Index raqami: 3535